

ISBN 978-9943-13-857-5



**BANKLARDA MOLIYAVIY HISOBOTNING  
XALQARO STANDARTLARI**

**BANKLARDA MOLIYAVIY  
HISOBOTNING XALQARO  
STANDARTLARI**



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS  
TA‘LIM VAZIRLIGI**

**TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
BANK-MOLIYA AKADEMIYASI**

**BANKLARDA MOLIYAVIY  
HISOBOTNING XALQARO  
STANDARTLARI**

**DARSLIK**

**Toshkent 2019**

**UDK 336.71:657.4:006.032(075.8)**  
**KBK 65.262.1ya73**

Taqrizchilar: *i.f.d., prof.* **A.A.Omonov**;  
*i.f.d., prof.* **N.G'.Karimov**

**B 28 Banklarda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari:** *Darslik / Z.A.Umarov, A.K.Ibragimov, N.K.Rizaev, M.D.Marpatov; – T.: «Iqtisod-Moliya», 2019. – 516 b.*

Darslik Oliy ta'lim Davlat ta'lim standartlari talablari asosida banklarda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida tayyorlangan bo'lib, magistratura mutaxassisliklari va bakalavriat ta'lim yo'nalishlari talabalari uchun mo'ljallangan. Darslikda moliyaviy hisobotlar xalqaro standartlari (MHXS)ning tashkil topishi, uning rivojlanishi, buxgalteriya hisobining xalqaro modellari, MHXS asosida banklarda hisob siyosatini shakllantirish, buxgalteriya hisobini tashkil etish va yuritish, banklarda lizing, depozit operatsiyalari hisobi, daromadlar va xarajatlarni hisobga olish, moliyaviy hisobotlarni tuzish va taqdim etish tamoyillari yoritib berilgan.

*Darslik Toshkent moliya instituti Kengashida muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan*

**UDK 336.71:657.4:006.032(075.8)**  
**KBK 65.262.1ya73**

**ISBN 978-9943-13-857-5**

© **Z.A.Umarov, A.K.Ibragimov,**  
**N.K.Rizaev, M.D.Marpatov, 2019**  
©«**IQTISOD-MOLIYA**», 2019.

## SO‘Z BOSHI

O‘zbekistonning o‘z vaqtida tanlab olgan iqtisodiy taraqqiyot modelining naqadar to‘g‘riligini va o‘zini to‘la oqlaganligini hayotning o‘zi tasdiqlab bermoqda. 2017-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasining uchinchi yo‘nalishidagi: “bank tizimini isloh qilish, banklar depozit bazasining kapitalizatsiyasini chuqurlashtirish va barqarorligini oshirish, ularning moliyaviy barqarorligini va ishonchliligini mustahkamlash, istiqbolli investitsiyaviy loyihalar hamda kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarini kreditlashtirishni yanada kengaytirish” punktini o‘z vaqtida va to‘liqligicha ijro etishga qulay zamin yaratadi.

Zero, Prezident Sh.M.Mirziyoev ta’kidlaganidek: “bank va moliya tizimida islohotlarni jadal davom ettirish, sohaga zamonaviy bozor mexanizmlarini keng joriy etish zarur”.<sup>1</sup>

Bugungi kundagi asosiy vazifalardan biri mavjud tijorat banklaridagi buxgalteriya hisobi tizimini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) talablari bo‘yicha tashkil etish va yuritishni taqozo etadi.

Yuqoridagi masalalarni o‘z ichiga olgan mazkur darslik o‘nta bobdan iborat bo‘lib, unda banklarda buxgalteriya hisobini tashkil etish va yuritish, moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlar talablari asosida tuzish va shakllantirish konsepsiyasining nazariy-uslubiy asoslari yoritilgan.

Darslikni yaratilishida banklarda buxgalteriya hisobini tashkil etishga oid xalqaro va milliy me‘yoriy hujjatlar hamda boshqa tegishli manbalardan keng foydalanildi. Darslikdan oliy ta’limning iqtisodiyot yo‘nalishidagi magistratura mutaxassisliklari, tijorat banklaridagi buxgalter xodimlar va auditorlar foydalanishlari mumkin.

Kitobni yuzaga kelishida amaliy maslahatlari bilan yaqindan yordam bergan O‘zbekiston Banklari Assotsiatsiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki, ATB “O‘zsanoatqurilishbanki”, “O‘zmilliybank” hamda “Ipotekabank” ATIBning Bosh buxgalter (auditor) mutaxassislariga o‘z minnatdorchiligimizni izhor etamiz.

Darslikni mazmun va shakl jihatidan yanada yaxshilash maqsadida bildiriladigan barcha fikr-mulohazalar va takliflar uchun oldindan minnatdorchilik bildiramiz.

*Mualliflar*

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi.

## **I-BOB. MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARI VA ULARNING TUZILISHI**

### **1.1. Banklarda buxgalteriya hisobini tashkil qilish asoslari**

Har qanday bank ham, O'zbekistonda shakllanayotgan zamonaviy tezkor bozorga kirishib keta oladimi, jahon iqtisodiy integratsiyasi ustunliklaridan foydalana oladimi? Bu savollarga ijobiy javobni faqat bozor iqtisodiyoti rivojlanishi sharoitida buxgalteriya hisobi va hisobotini to'g'ri va oqilona tashkil etilganda olish mumkin. Albatta, bank buxgalteriya hisobi va hisoboti metodologiyasining prinsipial savollarini hal qilish O'zbekiston Respublikasi Markaziy bank zimmasiga yuklatilgan. Shunday bo'lsada har bir alohida olingan tijorat banki buxgalteriya amaliyotida yuzaga kelayotgan yangi vaziyatlarga tayyor bo'lishi lozim.

Tijorat banklarining faoliyati bevosita mijozlar faoliyati bilan bog'liq bo'lib, ularga xizmat ko'rsatishga asoslanadi. Mijoz bilan munosabatda bank sherik sifatida ishtirok etib, faoliyat ikki tomonlama erkinlikka va o'zaro qiziqishga asoslanishi lozim. Bank bilan mijozning uzoq muddatli sherikchilik munosabatlari o'zaro ishonchga asoslanib, bank resurslaridan to'g'ri va oqilona foydalanib, mablag'larni maqsadli joylashtirishga va foydani oshirishga harakat qilishi kerak.

Tijorat banklari faoliyatini hisobga olish buxgalteriya hisobining tamoyillariga asoslanadi. Tijorat banklari buxgalteriya hisobini tashkil etishda quyidagi tamoyillarga e'tibor berish lozim:

- banklarning faoliyatini belgilangan me'yorda jalb qilingan va o'z mablag'lari hisobiga amalga oshirish – bunda, tijorat banklarining o'z mablag'lari bank resurslari ichida kam salmoqni tashkil etadi. Tijorat banklari aholining, xo'jalik yurituvchi subyektlarining hamda davlatning mablag'larini o'ziga jalb qilib olib, uni transformatsiya qiladi. Ya'ni, mablag'larga ehtiyoj

sezayotgan bank, korxonalar, tashkilotlar, muassasalar, aholi va davlatga qarzga berib turadi yoki ular faoliyatiga investitsiya qiladi;

- arzonroq olib, qimmatroq sotish – bunda, banklar resurslarni jalb qilayotganda ularga maʼlum bir miqdorda haq toʻlaydi, ularni oʻz nomidan maʼlum bir haq evaziga joylashtiradi, olingan va berilgan toʻlov oʻrtasida farq musbat boʻlishi lozim;

- oʻz mablagʻlari bilan risk qilgan holda mijozning mablagʻlari bilan risk qilish mumkin emas – bu tamoyilda banklar jalb qilgan mablagʻlar bilan ish koʻrib ularni qaytib kelmaslik holatida yoʻqotishlari mumkin. Bank oʻz mablagʻlarini riskli operatsiyalarga joylashtirishlari maqsadga muvofiq;

- barchasi mijoz uchun, unga har doim tez va sifatli xizmat koʻrsatish – bank faoliyati mijozlarning faoliyati bilan chambarchas bogʻliq, chunki mijoz boʻlmasa bank ham boʻlmaydi. Mijoz faoliyati daromadli boʻlgan taqdirdagina bank ham, daromad olish imkoniyatiga ega boʻladi. Bank mijozning daromad olish imkoniyatini yaratar ekan, u faqat mijozning manfaatlarini emas, balki oʻz manfaatlarini ham amalga oshiradi;

- bankning mijoz bilan munosabati oʻzaro tenglik, manfaatdorlik tamoyili asosida tashkil etilishi lozim – mijoz bankka murojat qilganda unga ishonch bilan sherikchilik munosabatlarini oʻrnatishga harakat qiladi. Bu oʻz navbatida bankning mijozlari soni koʻpayishini va uning banklararo raqobatda yutib chiqishda yordam beradi.

Yuqorida koʻrib oʻtilgan bank faoliyati tamoyillari jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozi sharoitida iqtisodiyotni modernizatsiya qilish orqali rivojlantirishda, bankning oʻz faoliyatini rivojlantirishida ham oʻz ahamiyatini yoʻqotmaydi. Bankning ushbu qoidalarga rioya qilishi bank faoliyati samaradorligida namoyon boʻladi.

Banklar oʻz faoliyatini olib borish jarayonida qanday natijaga erishgani, mablagʻlari harakati, ularning manbai toʻgʻrisida tezkor va sifatli maʼlumotga ega boʻlishi lozim. Ushbu maʼlumotlarni buxgalteriya hisobi taʼminlab beradi.

Buxgalteriya hisobi barcha xo‘jalik operatsiyalarini yaxlit, uzluksiz, hujjatlar asosida hisobga olish yo‘li bilan buxgalteriya axborotini yig‘ish, qayd etish va umumlashtirishning tartibga solingan tizimidan, shuningdek uning asosida moliyaviy va boshqa hisobotni tuzishdan iboratdir.<sup>2</sup>

Banklarda buxgalteriya hisobi iqtisodiyotning boshqa tarmoqlaridagi buxgalteriya hisobi bilan chambarchas bog‘liq. Bu bog‘liqlik banklarning kassa, hisob–kitob, kredit va boshqa bank operatsiyalari bo‘yicha korxonalar, tashkilotlar, muassasalarga xizmat ko‘rsatishda namoyon bo‘ladi. Banklarning operatsiyalarni amalga oshirishi bank, korxonalar, tashkilotlar va muassasalar buxgalteriya hisobida o‘z aksini topadi. Bank balansining aktiv va passiv tomonida aks ettirilgan bank operatsiyalari, korxonalar va tashkilotlar balansidagi ma‘lumotlar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, bir–biriga mos keladi. Bank mijozlari shartnoma asosida olib borgan har bir operatsiyasi bo‘yicha bankdan tegishli birlamchi hujjatlarni oladi va shu hujjatlar asosida o‘zi amalga oshirgan xo‘jalik operatsiyalarni hisobga oladi.

Bank buxgalteriya hisobi operativligi, tuzilishi va bir xilligi bilan xarakterlanadi. Bu barcha operatsiyalarning amalga oshirilgan kunning o‘zidayoq yordamchi kitob materiallarida aks ettirilib, bosh kitob ma‘lumotlari bilan nazorat qilib borilishida namoyon bo‘ladi. Shuningdek, bank muassasalarida hisob tizimi shunisi bilan ahamiyatliki, ularda faqat moliyaviy resurslarni boshqarish emas, balki hisobning bank bo‘limlari va faoliyat sohaslariga kirib ketishidir. O‘z operatsiyalarini hisob jurnalida yoki kompyuter tizimida aks ettirganda moliyaviy muassasaning barcha operatsion bo‘linmalari hisob uchun ma‘lumot shakllantiradi.

Bank buxgalteriya hisobining hozirgi iqtisodiy rivojlanishi bosqichida bank mulkining holati va harakati, pul mablag‘lari, kreditlar, fondlar, moliyaviy natijalar va boshqa bir qancha amallar to‘g‘risidagi axborotlar oqimini ifodalab, bank faoliyatini boshqarish, nazorat qilish, tahlil qilish va rejalashtirish maqsadida shakllantiriladi.

---

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasining “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi Qonuni 2016 yil 13 aprel, O‘RQ-404-son

Tijorat banklari faoliyatining asosiy tamoyillarini tizimlashtirilgan holda buxgalteriya hisobini asosiy vazifalarini quyidagicha guruhlashtirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Jumladan:

- o‘z va jalb qilingan mablag‘lardan unumli foydalanish va ular ustidan nazoratni ta‘minlab berish;

- olingan daromad va qilingan xarajatlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlar asosida rejalashtirilgan likvidlilik va rentabellik darajasi orqali bank daromadligini tahlil qilish va nazorat qilish;

- bank mulki holati va harakati ustidan nazoratni o‘rnatishni ta‘minlash;

- bajarilgan operatsiyalar buxgalteriya hisobi va hisobotida o‘z vaqtida hamda aniq aks ettirilishini ta‘minlash;

- buxgalteriya hisobotining ichki va tashqi foydalanuvchilari uchun bank muassasasining faoliyati va mulkiy holati to‘g‘risida batafsil, aniq va mazmunli ma‘lumotni shakllantirish.

Tijorat banklarida buxgalteriya hisobini yuritishda ushbu vazifalarning to‘liq va to‘g‘ri bajarilishi bank faoliyatini rivojlantirish uchun mustahkam zamin yaratadi.

Banklar o‘z faoliyatini asosan chetdan jalb qilingan mablag‘lar hisobiga amalga oshirishi bank buxgalteriyasiga o‘z ta‘sirini ko‘rsatadi. Shu sababli bank buxgalteriya hisobvaraqlari rejasidagi hisobvaraqlarning aksariyati mijozlar mablag‘larni hisobga olishga mo‘ljallangan.

Banklar banklararo bozorda raqobatning kuchayishi, bank operatsiyalarning ko‘payishi, xizmat ko‘rsatish sifatining oshishi, har bir mijoz uchun kurash ketayotganligi o‘z faoliyatini doimiy ravishda nazorat qilish, tahlil qilish asosida yangi bank xizmatlarini taklif qilish, yangi bank filiallarini ochish, samarasiz faoliyat ko‘rsatayotganlarini esa yopish, mini banklarni ochish hamda bankni rivojlantirish uchun barcha chora–tadbirlar ko‘riladi.

Tijorat banklari faoliyati tahlil qilinayotganda ma‘lumotlar tezkorlik bilan olish imkoniyati mavjudligi bevosita tahlil uslubiyotiga ta‘sir ko‘rsatadi. Shuningdek,



bank buxgalteriya hisobi kompyuterlashtirilganligi ma'lumotlarning tez qayta ishlash imkoniyatini yaratadi.

Hozirgi kunda O'zbekistonda faoliyat olib borayotgan ayrim tijorat banklari ma'lumot uzatish uchun o'z ichki tizimlari mavjud bo'lib, jumladan, IABS, ASBT, Globus, NCI va boshqalar, ular orqali bank xodimlari bank holati haqida kerakli bo'lgan ma'lumotlarni oladi, undan tahlil qilishda foydalanadi.

Bank ma'lumotlaridan tashqi foydalanuvchilari esa, ayniqsa bank mijozlari yil yakunlanib, aksiyadorlar umumiy yig'ilishi bo'lib o'tgandan so'nggina matbuotda e'lon qilinadigan hisobotdan foydalanishlari mumkin.

Tijorat banklari barcha xo'jalik yurituvchi subyektlari qatori o'z faoliyatini o'z daromadini ko'paytirishga va shu asosda, o'z ta'sisчилari – aksiyadorlarning manfaatlarini himoya qilishni ta'minlash, bank faoliyatini rivojlantirishga harakat qiladi. Bank faoliyatini yuritish tezkor xarakterga ega ekanligi uning faoliyatini boshqarish uchun tezkor va aniq ma'lumotlar bo'lishini taqozo etadi. Bu ma'lumotni buxgalteriya hisobi ta'minlab beradi. Buxgalteriya hisobi ma'lumotlariga asosan bank faoliyati tahlil qilinadi, rivojlantirish istiqbollari belgilanadi va boshqarilib boriladi.

O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, "O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida", "Banklar va bank faoliyati to'g'risida", "Buxgalteriya hisobi to'g'risida", "Elektron to'lovlar to'g'risida", "Elektron hujjat aylanishi to'g'risida", "Elektron raqamli imzo to'g'risida" va "Bank siri to'g'risida"gi qonunlariga muvofiq banklar uchun majburiy bo'lgan buxgalteriya hisobini yuritish va buxgalteriya ishlarini tashkil qilish tartiblari belgilangan.

Shu bilan O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki "O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida"gi qonunga muvofiq banklarda buxgalteriya hisobi yuritish bo'yicha me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqadi. Hozirgi kunda tijorat banklari quyidagi me'yoriy hujjatlardan foydalanib kelishmoqda:

- "O'zbekiston Respublikasi banklarida buxgalteriya hisobini yuritish va buxgalteriya ishlarini tashkil qilish tartibi to'g'risida"gi 1834-son yo'riqnomasi 2008- yil 11-iyul.

- “O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarida buxgalteriya hisobi hisobvaraqlari rejasi” № 773–17–son 2004-yil 13-avgust.

- “Tijorat banklarida foizlarni hisoblash to‘g‘risida”gi 1306–sonli Nizom, 2004- yil 30-yanvar.

- “Tijorat banklarida lizing operatsiyalarini amalga oshirish va ularning buxgalteriya hisobini yuritish tartibi to‘g‘risida”gi 1648-sonli nizom 2006-yil 27- dekabr.

- “O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan tijorat banklarining chop etiladigan yillik moliyaviy hisobotlariga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risida”gi 1419-sonli nizom 2004-yil 25-oktyabr.

- Banklarning hisob siyosati va moliyaviy hisobotlari to‘g‘risidagi Nizom. T.: 2003.

- “Tijorat banklarida kreditlarning buxgalteriya hisobini yuritish tartibi to‘g‘risida”gi 1435-sonli Nizom 2004-yil 17-dekabr.

- “Foizlarni o‘stirmaslik maqomi berilgan kreditlarning buxgalteriya hisobi Foizlarni o‘stirmaslik to‘g‘risida” 1304-sonli Nizom. 2004-yil 24-yanvar.

- “Tijorat banklarida kassa ishini tashkil etish, naqd pul va boshqa qimmatliklarni inkassatsiya qilishga doir” 3028-sonli yo‘riqnoma 2018-yil 29-iyun.

- “O‘zbekiston Respublikasi banklarida kassa amallarining buxgalteriya hisobini yuritish” qoidalari 2006-yil 24-iyul 1602-son.

- “Tijorat banklari tomonidan O‘zbekiston Respublikasi hududida faktoring operatsiyalarini o‘tkazish tartibi to‘g‘risida” Nizom 03.08.2000. N-953 va boshqa hujjatlar.

Banklarda buxgalteriya hisobining yuritilishi, buxgalteriya ishining to‘g‘ri tashkil etilishi va nazoratning aniq olib borilishi bankning o‘z vazifalarini to‘g‘ri bajarishini, mavjud va bo‘lg‘usi investorlar, kreditorlar, hukumat muassasalari, vazirliklar, idoralar, jamoatchilik va boshqa manfaatdor foydalanuvchilar, shuningdek, bank rahbariyati va xodimlari uchun bank faoliyatiga haqqoniy baho berish imkonini yaratadigan aniq va foydali axborot olishni ta‘minlaydi.

Banklarda buxgalteriya hisobi ishlarini yuritish va buxgalteriya apparatini tashkil qilish tamoyillari, mijozlarga xizmat ko'rsatish hamda hujjatlar aylanmasini yo'lga qo'yish usullari to'g'risida ko'rsatmalar berilgan, bank operatsiyalari hisobini yuritish va ularni nazorat qilish qoidalari hamda bajarilgan bank operatsiyalarining qonuniyligi bo'yicha javobgarlik belgilangan.

Shuningdek, quyidagilarni ta'minlash maqsad qilib qo'yilgan:

- hisob-kitob, kassa, valyuta, kredit hamda boshqa bank operatsiyalarini to'g'ri bajarish hamda ularni buxgalteriya hisobi va hisobotida o'z vaqtida va aniq aks ettirish;

- bank aktivlari, majburiyatlari, daromadlari va xarajatlari hamda kapitali holati va ulardagi o'zgarishlar to'g'risida ishonchli ma'lumotlar to'plash;

- bankning moliyaviy holati, moliyaviy holatidagi o'zgarishlar va moliyaviy natijalari to'g'risidagi va bank rahbariyati faoliyatiga baho beruvchi moliyaviy hisobotlarni tuzish uchun xizmat qiluvchi axborotlar tizimini yaratish;

- bank ish kuni tartibiga qat'iy rioya qilish, mijozlarga tez va aniq xizmat ko'rsatish;

- hisob-kitoblardagi mablag'lar aylanishini tezlashtirish;

- bankdan chiqayotgan hujjatlarni tegishli tarzda rasmiylashtirish va buning natijasida ulardan foydalanishni osonlashtirish, shuningdek, boshqa banklarda ushbu hujjatlar bilan operatsiyalar bajarilishini hamda ular tomonidan xizmat ko'rsatuvchi mijozlarning operatsiyalari hisobini yuritishni belgilangan talablarga muvofiqlashtirishni tashkil etish;

- bankdagi pul mablag'lari, moddiy qimmatliklar, shuningdek, qat'iy hisobda turuvchi blankalar kamomadi yoki ortiqchaligiga yo'l qo'ymaslik hamda belgilangan tartibda ularning saqlanishini tashkil etish;

- operatsiyalarning qonuniyligi hamda to'g'riligini doimiy ichki nazorat va auditdan o'tkazish, ularning natijalari bo'yicha ma'lumotnomalar tuzish va rasmiylashtirish imkoniyatini yaratish;

- zamonaviy kompyuter texnikasi vositalaridan foydalangan holda bank operatsiyalari hisobini dasturiy amalga oshirish, hisob ishlarini yuritish hamda hisobotlar tuzishda mehnat va mablag' sarfini qisqartirish.

Bank buxgalter xodimlariga nisbatan operatsiyalarni amalga oshirish, rasmiylashtirish, hisobini yuritish va nazorat qilish to'g'risidagi talablar barcha banklar uchun majburiydir. Banklar uchun belgilangan asosiy qoidalar doirasida o'zlarining ish xususiyatlarini hisobga olgan holda ichki buxgalteriya hujjatlarini yuritish tartibini belgilashlari mumkin. Bank xodimlari buxgalteriya hisobida aks ettirilgan bank siriga oid ma'lumotlarni O'zbekiston Respublikasining "Bank siri to'g'risida"gi qonuni talablariga qat'iy amal qilgan holda sir saqlashlari lozim.

Banklarda buxgalteriya hisobini tashkil etishda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

*Bank amaliyot kuni* - bank ish kunining bir qismi bo'lib, bankka kelib tushgan barcha pul hisob-kitob hujjatlarini qabul qilish, rasmiylashtirish va buxgalteriya hisobi hisobvaraqlarida aks ettirish uchun ajratilgan vaqt.

*Bank buxgalteriya apparati* - pul hisob-kitob hujjatlarini rasmiylashtirish, bank operatsiyalarini ichki nazoratdan o'tkazish hamda ularni hisob registrlarida qayd etish bilan shug'ullanuvchi xodimlar guruhi.

*Bank ish kuni* - qonun hujjatlari bilan belgilangan kun ichida o'rnatilgan ish vaqti.

*Bank operatsiyalari ichki nazorati* (bundan keyingi o'rinlarda ichki nazorat deb yuritiladi) - bank rahbariyati va barcha bank xodimlari tomonidan kunlik bank operatsiyalarini amalga oshirish jarayonida ularning qonunchilikka mosligi, samaradorligi, yuqori malakada bajarilishi va moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini ta'minlash tizimi.

Ichki nazorat ma'lum yoki aniq vaqt mobaynida amal qilinishi lozim bo'lgan tartib yoki qoida bo'lmasdan, balki u bankning barcha bo'g'inlarida kunlik bank operatsiyalarining boshlanishidan tortib tugagunga qadar doimiy yuritiladigan bank faoliyatining ajralmas qismidir.

Ichki nazorat o'z navbatida dastlabki nazorat, joriy nazorat va yakuniy nazoratga bo'linadi.

*Bosh kitob* - hisobvaraqlar rejasidagi ikkinchi tartibli hisobvaraqlar qoldiqlarining ro'yxati.

*Buxgalteriya hisobi registrlari* - ikkiyoqlama yozuv usulida operatsiyalar qayd etiladigan jurnallar, qaydnomalar, daftarlar va tasdiqlangan blanklar.

*Bek-ofis* – bankning tarkibiy qismi bo'lib, Front-ofis tomonidan dastlabki nazoratdan o'tgan va ijro uchun taqdim qilingan operatsiyalarni joriy nazoratdan o'tkazish va bank operatsiyalarini amalga oshiruvchi buxgalterlar guruhi.

Bek-ofisning asosiy vazifasi Front-ofis tomonidan dastlabki nazoratdan o'tkazilib, ma'qullangan barcha bank operatsiyalarini qaytadan joriy nazoratdan o'tkazib, ularni ikkiyoqlama yozuv yordamida buxgalteriya registrlarida qayd etish va tegishli hisobotlar tayyorlashdan iborat.

Bek-ofis mijozlar bilan bevosita muloqotda bo'lmaydi. U, mijozlar operatsiyalarini buxgalteriya hisobida aks ettirish bo'yicha Front-ofis bilan, bankning ichki moliyaviy-xo'jalik operatsiyalarini buxgalteriya hisobida aks ettirish bo'yicha bank ma'muriyati bilan aloqada bo'ladi.

Bek-ofisga Bek-ofis boshlig'i rahbarlik qiladi va u o'z navbatida bank rahbariga bo'ysunadi.

*Dastlabki nazorat* - Front-ofis yoki mas'ul ijrochi buxgalter tomonidan operatsiyalarni bajarmasdan oldin ularning qonunchilikka mos ekanligini aniqlash bo'yicha amalga oshiriladigan nazorat.

*Yordamchi kitob* - Bosh kitob hisobvaraqlariga ochiladigan shaxsiy hisobvaraqlar, shuningdek, alohida mablag'lar turi va qimmatliklar bo'yicha yuritiladigan kartochka, kitob yoki jurnallar.

*Joriy nazorat* - Bek-ofis yoki nazoratchi buxgalter tomonidan Front-ofis yoki mas'ul ijrochi buxgalter ma'qullagan barcha bank operatsiyalarining qonunchilikka mosligini aniqlash maqsadida qaytadan amalga oshiriladigan nazorat. Joriy nazorat pul hisob-kitob hujjatlarining asl va elektron nusxalarining bir-biriga mosligini tekshirishni ham o'z ichiga oladi.

*Mas'ul ijrochi buxgalter* - mijozlarning pul hisob-kitob hujjatlarini to'g'ri rasmiylashtirilganligi va bank operatsiyalarining qonuniyligini dastlabki nazoratdan o'tkazib, ularni buxgalteriya hisobida aks ettirishga tayyorlovchi buxgalter.

*Minibank* - bank filiali binosidan tashqarida, lekin o'zi joylashgan viloyat-shahar hududida joylashgan va O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining tegishli me'yoriy-huquqiy hujjatlariga muvofiq faoliyat yurituvchi bank filialining tarkibiy tuzilmasi.

*Nazoratchi buxgalter* - mas'ul ijrochi buxgalter tomonidan dastlabki nazoratdan o'tkazilgan barcha bank operatsiyalarini joriy nazoratdan o'tkazib amalga oshiruvchi buxgalter;

*Front-ofis* - bankning tarkibiy qismi bo'lib, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan bank operatsiyalarini amalga oshirishda bank mijozlari bilan bevosita muloqotda bo'lgan holda ularga barcha bank xizmatlarini ko'rsatuvchi xodimlar guruhi. Ushbu guruhga Front-ofis boshlig'i rahbarlik qiladi.

Front-ofisning asosiy vazifasi mijozlar topshirig'i hamda bank ichki faoliyati bo'yicha amalga oshirilishi lozim bo'lgan operatsiyalarning qonunchilikka mos ekanligini aniqlash va ularni buxgalteriya hisobida aks ettirishga tayyorlashdan iborat.

*Yakuniy nazorat* - amaliyot kuni tugagandan so'ng, keyingi bank ish kunidan kechikmagan holda Front-ofis yoki mas'ul ijrochi buxgalter va Bek-ofis yoki nazoratchi buxgalter tomonidan bajarilgan barcha bank operatsiyalarining qonunchilikka mosligi va maqsadga muvofiqligini tasdiqlash maqsadida amalga oshiriladigan nazorat;

Yakuniy nazorat bank Boshqaruvi tashkil qilgan Yakuniy nazorat xizmati tomonidan amalga oshiriladi va u faqat bank Boshqaruviga bo'ysunadi. Yakuniy nazorat xizmati buxgalteriya apparati bir butun, yaxlit bo'lgan banklarda buxgalteriya apparati ichida, Front-ofis va Bek-ofisga bo'lingan banklarda esa Bek-ofisi tarkibida alohida bo'lim sifatida tashkil qilinadi.

## *Buxgalteriya operatsiyalarini dastlabki nazoratdan o'tkazish*

Dastlabki nazorat Front-ofis xodimlari (agar, bank tarkibiy tuzilmasi Front-ofis va Bek-ofisga bo'lingan bo'lsa) yoki mas'ul ijrochi buxgalter (agar, buxgalteriya apparati bir butun yaxlit bo'lgan taqdirda) tomonidan operatsiyalarni bajarmasdan oldin ularning samaradorligini, bankning ichki siyosatiga hamda amaldagi qonunchilikka mos ekanligini ta'minlash maqsadida amalga oshiriladi. Agar, operatsiyalar xorijiy valyutada xalqaro shartnomalar asosida amalga oshirilsa, shartnoma shartlariga rioya qilinishi lozim.

Mijozlardan pul hisob-kitob hujjatlarini qabul qilishda, ularning O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining me'yoriy-huquqiy hujjatlarida belgilangan shakldagi blankda yozilib, to'g'ri rasmiylashtirilganligi, barcha rekvizitlar to'liq va to'g'ri to'ldirilganligi, ushbu pul hisob-kitob hujjatlarida bo'yash, chizish va tuzatishga yo'l qo'yilmaganligi, shu jumladan hisobvaraqlarni tasarruf etuvchilarning imzolari va muhr izi taqdim etilgan namunalarga mos kelishi tekshiriladi.

Agar, mijoz taqdim qilgan pul hisob-kitob hujjatlarida belgilangan talablarga zid kamchilik va nuqsonlar aniqlansa, to'lov hujjatlari ijroga qabul qilinmasdan mijozga qaytarilishi lozim. Summasi, mijozlar nomi va ularning hisobvaraqlari raqami o'zgartirilgan to'lov hujjatlari, hatto mijozlar tomonidan o'zaro kelishilgan tartibda tuzatish kiritilgan bo'lsa ham, ijro uchun qabul qilinmaydi.

To'lov talabnomalari sanasi bank qabul qilgan sanaga mos tushadigan reestri bor bo'lgan holatda inkassaga qabul qilinadi.

Agarda bank hisobvarag'i shartnomasida boshqacha tartib ko'zda tutilmagan bo'lsa, to'lov topshiriqnomasi bank tomonidan mijozning talab qilib olguncha depozit hisobvarag'ida to'lov uchun yetarli mablag'lar mavjud bo'lgandagina, qabul qilinadi. Byudjetga va byudjetdan tashqari jamg'armalarga to'lovlar bo'yicha taqdim qilingan to'lov topshiriqnomalari mijozning hisobvarag'ida to'lov

uchun yetarli mablag'lar mavjud bo'lmaganda, 2-son kartotekaga kirim qilinadi.

To'lov topshiriqnomalari va naqd pulni qo'yish uchun foydalaniladigan e'lonlarning sanasi uni bankka taqdim etilgan sana bilan bir xil bo'lishi kerak, aks holda ular ijro uchun qabul qilinmaydi (oldingi ish kunida "kechki" muhri bilan hamda byudjet va byudjetdan tashqari jamg'armalarga to'lovlar uchun qabul qilingan to'lov topshiriqnomalari bundan mustasno).

Mas'ul ijrochi buxgalter yoki Front-ofis xodimi to'lov hujjati nusxalarini imzolashdan oldin ularni solishtirib, o'zaro bir xilligiga ishonch hosil qilishi lozim. Shundan so'ng, ijro etish sanasi ko'rsatilgan holda mas'ul xodim imzosi bilan tasdiqlangan va unga biriktirilgan bank shtampi qo'yilgan hujjatning oxirgi nusxasi mijozga qaytariladi. Ushbu nusxa hujjatlar ijro uchun qabul qilinganini tasdiqlovchi tilxat vazifasini bajaradi.

Naqd pulni berishda ishlatiladigan cheklar to'ldirilgan kundan boshlab, (to'ldirilgan kunni hisobga olmagan va hujjatda ko'rsatilgan sana to'g'rilanmagan holda) 10 kalendar kun davomida bank tomonidan qabul qilinadi. Mas'ul xodim qabul qilingan naqd pul chekining sanasini, chekni topshirgan xo'jalik subyektining nomini va hisobvaraqa raqamini, olinadigan mablag'ning raqam va so'z bilan yozilgan summasini tekshiradi, chekdagi imzolar va muhr izini o'zidagi imzo namunalari bilan solishtiradi. Shuningdek, naqd pul cheklarini belgilangan tartibda rasmiylashtirilganligini tekshirib chiqadi.

Front-ofis xodimi yoki mas'ul ijrochi buxgalter mijozlardan qabul qilingan barcha pul hisob-kitob hujjatlarining asl nusxalariga asosan ma'lumotlarni dasturga kiritadi va to'lov hujjatlarini imzolab, elektron to'lov tizimi orqali ularni joriy nazoratdan o'tkazish uchun Bek-ofis yoki nazoratchi buxgalterga yuboradi.

*Buxgalteriya operatsiyalarini joriy nazoratdan o'tkazish*

Bek-ofis xodimi yoki nazoratchi buxgalter bank ichki hujjat aylanish tartibiga asosan Front-ofis yoki mas'ul ijrochi buxgalterdan kelib tushgan pul hisob-kitob



hujjatlarining asl va elektron nusxalarini qabul qilgandan keyin joriy nazoratni amalga oshiradi.

Joriy nazoratda dastlabki nazoratdan o'tkazilgan to'lov hujjatlarining to'g'ri rasmiylashtirilganligi va ularning elektron nusxalarining to'g'ri rasmiylashtirilganligi qaytadan tekshiriladi hamda ulardagi imzolar va muhr izini o'zlarida mavjud imzolar va muhr izi namunalari bilan solishtiriladi.

To'lov hujjatlarining asl nusxasida Front-ofis xodimi yoki mas'ul ijrochi buxgalterning imzolari va shtampi borligini hamda ularni o'zida mavjud bo'lgan imzo namunalariiga mos kelishini tekshiradi. Shuningdek, Front-ofis xodimi yoki mas'ul ijrochi buxgalteri pul hisob-kitob hujjatlarida bo'yash, chizish va tuzatishga yo'l qo'yilmaganligiga ishonch hosil qilishi lozim.

Bek-ofis xodimi yoki nazoratchi buxgalter naqd pul cheki va e'lonnomani o'rnatilgan tartibda tekshirib, ularni imzolab, Front-ofis xodimi yoki mas'ul ijrochi buxgalterga qaytaradi. Bek-ofis xodimi yoki nazoratchi buxgalter tomonidan bankning ichki moliya-ho'jalik operatsiyalari bo'yicha kelib tushgan to'lov hujjatlarining asl va elektron nusxalari hamda ushbu operatsiyalarni amalga oshirish uchun asos bo'lgan bank tegishli bo'linmalarining Xizmat farmoyishlari nusxalari to'g'ri rasmiylashtirilganligi, xato va kamchiliklar yo'qligi tekshiriladi.

Pul hisob-kitob hujjatlarining asl nusxalari yoki ularning elektron faylida xato va kamchiliklar aniqlanganda, Bek-ofis xodimi yoki nazoratchi buxgalter to'lov hujjatining asl nusxasiga imzo chekmasdan, ularning xato va kamchiliklarini ko'rsatgan holda Front-ofis yoki mas'ul ijrochi buxgalterga ijrosiz qaytaradi.

Bek-ofis xodimi yoki nazoratchi buxgalter tomonidan joriy nazorat natijalari ijobiy bo'lgan taqdirda, u to'lov hujjatining asl nusxasiga imzo chekadi va uni Bek-ofis boshlig'iga yoki bosh buxgalterga tasdiqlash uchun jo'natadi. Bek-ofis boshlig'i yoki bosh buxgalter belgilangan tartibda rasmiylashtirilib, dastlabki va joriy nazoratdan o'tgan pul hisob-kitob hujjatlarining asl va elektron nusxalarini qabul qilib oladi va ushbu to'lov hujjatlarida

qonunchilik hamda bankning ichki siyosatida oʻrnatilgan talablarga rioya qilinishi boʻyicha umumiy nazoratni amalga oshiradi.

Bek-ofis boshligʻi yoki Bosh buxgalter barcha pul hisob-kitob hujjatlarining asl va elektron nusxalariga oʻrnatilgan tartibda imzo chekib, tasdiqlaydi va buxgalteriya oʻtkazmalarini amalga oshiradi. Bank rahbari buyrugʻi bilan toʻlovlarni tasdiqlash boshqa bank xodimiga topshirilishi mumkin.

#### *Bank operatsiyalarini yakuniy nazoratdan oʻtkazish*

Banklarda amaliyot kuni yakunlangandan soʻng, kunlik operatsiya hujjatlari oʻrnatilgan tartibda tikilib va rasmiylashtirilib, yakuniy nazoratdan oʻtkazish uchun yakuniy nazorat xizmati xodimlariga topshiriladi va ularga elektron maʼlumotlar bazasiga kirish uchun ruxsat beriladi.

Yakuniy nazorat xizmati tomonidan keyingi bank ish kunidan kechikmagan holda elektron maʼlumotlar bazasiga kirib, bankda amalga oshirilgan barcha operatsiyalar Bosh va yordamchi kitoblardagi amal qilib turgan shaxsiy hisobvaraqlarda toʻgʻri aks ettirilganligini pul hisob-kitob hujjatlarining asl nusxalari bilan solishtirib, tekshirishdan oʻtkazilishi shart. Tekshirish natijalari dasturiy bayonnoma bilan rasmiylashtirilishi va kunlik yigʻmajildga tikilishi shart.

Kunlik chop etilib, yigʻmajildga tikilgan balans maʼlumotlari bilan uning elektron balans maʼlumotlari bir-biriga mos kelmagan holda, zudlik bilan rahbariyatga maʼlumot beriladi va shu kunning oʻzida uning sabablari toʻgʻrisida Bek-ofis boshligʻi yoki bosh buxgalter va Xavfsizlik va axborotni muhofaza qilish xizmati xodimlari ishtirokida dalolatnoma tuziladi.

Bundan tashqari, yakuniy nazorat xodimi bank operatsiyalarini bajarish uchun asos boʻlgan barcha hujjatlarni talab qilishi va ular asosida operatsiyalar qanchalik darajada toʻgʻri va maqsadga muvofiq bajarilganligi boʻyicha bank rahbariyatiga xulosa berishi mumkin.

#### *Bank operatsiyalarini amalga oshirishda javobgarlik*

Bank operatsiyalarini amalga oshirish uchun asos bo'ladigan barcha pul hisob-kitob hujjatlarini rasmiylashtirgan hamda imzolagan shaxslar ularning o'z vaqtida to'g'ri va aniq tuzilishi, belgilangan muddatlarda ijro uchun topshirilishi, shuningdek, operatsiyalarni buxgalteriya hisobida to'g'ri aks ettirish bo'yicha javobgardirlar.

Bank va uning mijozlari o'rtasidagi munosabatlar qonun hujjatlari talablariga muvofiq bank va mijoz o'rtasida yozma shaklda tuzilgan bank hisobvarag'i shartnomasi asosida tartibga solinadi. Shuningdek, bank va mijoz o'rtasida kredit, valyuta, lizing, faktoring, qimmatli qog'ozlar bo'yicha amalga oshiriladigan operatsiyalarining har biri bo'yicha tuzilgan shartnomalar asosida bajariladi.

Mijoz bankda ochgan hisobvaraqdagi mavjud pul mablag'larini mustaqil tasarruf etadi. Mijozning topshirig'iga binoan bank hisobvarag'i bo'yicha bajarilgan barcha operatsiyalarning qonuniyligiga mijozning o'zi javobgar hisoblanadi.

Mablag' oluvchilarning roziligi mavjud bo'lganidan qat'iy nazar, mablag'lar oluvchilarning talab qilib olinadigan depozit hisobvarag'ini chetlab o'tgan holda mijozning topshirig'i bo'yicha uchinchi shaxslar tomonidan to'lovlarni amalga oshirishga yo'l qo'yilmaydi, qonun hujjatlarida ko'zda tutilgan hollar bundan mustasno.

Barcha pul hisob-kitob hujjatlari bo'yicha to'lovlar, faqat talab qilib olinguncha depozit hisobvaraqlaridan mavjud mablag'lar doirasida amalga oshiriladi.

Talab qilib olinguncha hisobvarag'ida unga qo'yilgan talablarni bajarish uchun mablag'lar yetarli bo'lmagan hollarda to'lovlar "Xo'jalik yurituvchi subyektlarning bank hisobvaraqlaridan mablag'larni hisobdan chiqarish tartibi to'g'risida"gi Yo'riqnoma (1999 yil 30 yanvar, ro'yxat raqami 615) talablari asosida amalga oshiriladi.

Bank mijozning topshirig'iga binoan elektron to'lovni tegishli to'lov hujjati tushgan kunda, agar u bankning amaliyot kuni mobaynida tushgan bo'lsa, amalga oshirishi shart. To'lov hujjati amaliyot kuni tugaganidan keyin

tushgan taqdirda, bank elektron to'lovni keyingi bank ish kunidan kechiktirmay amalga oshirishi shart.

Agar bank hisobvarag'i shartnomasida boshqa muddatlar ko'zda tutilmagan bo'lsa, qonunchilikda o'rnatilgan mijozlar hisobvaraqlariga pullarni hisobga kiritish va hisobdan chiqarish tartibini hamda elektron to'lovlarni amalga oshirishning belgilangan muddatlari bank tomonidan buzilgan taqdirda banklarga nisbatan "Mijozlarga hisobvaraqlar ochish, ularning hisobvaraqlariga pul mablag'larini hisobga kiritish va hisobdan chiqarish, ish haqi va qonun hujjatlarida belgilab qo'yilgan boshqa ehtiyojlar uchun naqd pul mablag'larini berishning o'rnatilgan tartiblarini buzganliklari uchun tijorat banklariga jarima sanksiyalarini qo'llash tartibi to'g'risida"gi Nizom (2001-yil 30-iyun, ro'yxat raqami 1044 — Me'yoriy hujjatlar axborotnomasi 2001-yil, 12-son)da belgilangan jarima jazolari qo'llaniladi.

Hisobvaraqa egasi unga ko'chirmalar berilganidan keyin ikki ish kuni mobaynida bankka hisobvaraqa krediti yoki debetiga xato yozilgan summalar haqida yozma ravishda xabar qilishi shart. Agar shu muddat ichida mijoz o'z e'tirozini bildirmasa, bajarilgan operatsiyalar hamda hisobvaraqdagi mablag' qoldig'i tasdiqlangan hisoblanadi.

Banklar qonun hujjatlariga muvofiq mijozlarning hisobvaraqlari bo'yicha operatsiyalarni to'xtatib turishga hamda qonunchilikka zid operatsiyalarni bajarishni rad etishga haqlidirlar.

Agar, mijozning bankka taqdim qilgan pul hisob-kitob hujjatlarida belgilangan talablarga zid bo'lgan kamchilik va nuqsonlar aniqlansa, hujjatdagi imzolar, muhr izi yoki yozuvlar xususida shubhalansa, bank xodimlari ushbu hujjatni qabul qilishdan bosh tortadi hamda buning uchun javob bermaydi.

Summasi, mijozlar nomi va ularning hisobvaraqlari raqami o'zgartirilgan to'lov hujjatlari, hatto mijozlar tomonidan o'zaro kelishilgan tartibda tuzatish kiritilgan bo'lsa ham, bank tomonidan ijro uchun qabul qilinmaydi.

Agar, hisobvaraqa egasi naqd pul cheki yo'qolgani yoki o'g'irlangani haqida bankka xabar bergunga qadar, bu

cheklar bo'yicha to'lab yuborilgan bo'lsa, bu to'lov uchun bank javob bermaydi.

Ayni paytda bank hisob-kitob hujjatlaridagi ma'lumotlar va arifmetik hisob-kitoblar to'g'riligi uchun ham javobgar hisoblanmaydi.

Soxta imzolar qo'yilgan, qalbaki muhr bosilgan yoki soxta matnli chek yoxud to'lov topshiriqnomasi pulini to'lab yuborish oqibatida ko'rilgan zarar bo'yicha bank xodimining aybdorligi isbotlanmasa, hisobvaraqa egasi javobgar bo'ladi.

Shuningdek, mijozning pul hisob-kitob hujjatlariga qo'yilgan soxta imzolar va bosilgan qalbaki muhrni oddiy ko'z bilan qarash orqali aniqlab bo'lmasa, bank xodimi bunday hujjatlarni qabul qilganligi uchun javobgar bo'lmaydi.

Mijoz tomonidan bank hisobvaraqlari bo'yicha operatsiyalar o'tkazish uchun bankka taqdim qilingan pul hisob-kitob hujjatlarining to'g'ri rasmiylashtirilganligi, ya'ni hujjat belgilangan shakldagi blankda yozilganligi, bank ko'zda tutgan barcha rekvizitlar to'g'ri to'ldirilganligi, muhr izi va imzolar bankka berilgan namunalariga mos kelishi hamda raqamlarda va so'zlarda yozilgan summalar mos kelishiga ushbu hujjatni qabul qilgan va ichki nazoratdan o'tkazgan buxgalteriya xodimlari va bank bosh buxgalteri barobar javobgar hisoblanadilar.

Bank mijozning bankdagi hisobvaraqlaridagi mablag'larini qonunchilikka zid ravishda uning roziligisiz yoki asossiz ravishda o'chirgan hollarda, mijozning talabi bilan tegishli summani hisobvaraqa kiritib qo'yishi shart.

Agar, bank mijozning qonunchilikka zid operatsiyalarini bilgan holda, uning topshirig'i asosida yoki roziligi bilan ushbu qonunchilikka zid operatsiyani bajarsa, mijoz va bank baravar javobgar hisoblanadi.

Bank bo'linmalari va xizmatlari bajarilayotgan bank ichki operatsiyalarining qonuniyligi va ular to'g'ri rasmiylashtirilishi uchun to'la javobgar hisoblanadilar.

Buxgalteriya hisobini yuritish, nazorat qilish va hisoblash qurilmalari orqali jo'natish uchun zarur bo'lgan hujjatlarni (buyruqlar, qarorlar, farmoyishlar, smetalari,

normativlar va boshqa materiallar) buxgalteriyaga o'z vaqtida topshirishlari shart.

## **1.2. Buxgalteriya hisobi registrlari va ularni yuritish**

Banklarda jamlanma va tahliliy hisob operatsiyalari alohida buxgalteriya registrlarida qayd etiladi. Sintetik hisob yuritishda Bosh kitobdan va analitik hisob yuritishda Yordamchi kitoblardan foydalaniladi.

Bosh kitobda bank operatsiyalarini hisobini yuritish, guruhlash va ularga doir hisobotlarni tuzishda qo'llaniladigan jamlanma ma'lumotlar qayd etiladi. Unda har bir hisobvaraqa bo'yicha kun boshiga qoldiq, kun davomida amalga oshirgan operatsiyalarning aylanmasi va kun oxiriga qoldiq summaları aks ettiriladi.

Yordamchi kitoblarda buxgalteriya operatsiyalari batafsil va to'liq aks ettiriladi. Yordamchi kitoblarning shakli va turlari har bir bank tomonidan mustaqil belgilanadi. Bosh kitob va Yordamchi kitob hisobvaraqlarida hisob operatsiyalari albatta ikkiyoqlama yozuv qoidasiga amal qilgan holda qayd etish yoki ushbu hisobvaraqlar bilan korrespondensiya bo'lgan hisobvaraqlar raqamlari ko'rsatilishi shart.

Yordamchi kitob hisobvaraqlariga nisbatan olganda Bosh kitob hisobvaraqlari nazorat hisobvaraqlari hisoblanadi. Yordamchi kitobdagi yakuniy summalar har bank ish kunining oxirida, shuningdek, oy oxirida, yangi oyning birinchi kuni holatiga ko'ra ularning Bosh kitobdagi nazorat summasi balansdagi summa bilan bir xil bo'lishi lozim. Xorijiy valyutadagi operatsiyalar bo'yicha Bosh va Yordamchi kitoblar har bir valyutaning turi bo'yicha alohida-alohida yuritiladi. Bank operatsiyalarini hisob registrlarida qayd etish dasturiy yo'l bilan amalga oshiriladi.

### *Shaxsiy hisobvaraqlarda operatsiyalarni aks ettirish*

Bank tomonidan amalga oshiriladigan birlamchi operatsiyalarning hisobi dastlab shaxsiy hisobvaraqlarda (kartochkalar, kitoblar, jurnallarda) aks ettiriladi. Shaxsiy hisobvaraqlarga yozuvlar faqat tegishli

rasmiylashtirilgan boshlang'ich hujjatlar asosida kiritiladi. Shaxsiy hisobvaraqa quyidagi rekvizitlardan iborat:

- shaxsiy hisobvaraqaqning nomi;
- chiqish shaklining raqami;
- shaxsiy hisobvaraqaqni chop etish tartib raqami (ya'ni kompyuter qo'yg'an raqam);
- shaxsiy hisobvaraqaqni tuzgan bank kodi va nomi;
- shaxsiy hisobvaraqaqning raqami va uning nomi;
- hisobvaraqaqa xizmat ko'rsatuvchi buxgalterning raqami, uning familiyasi, ismi, otasining ismi;
- ishlov berish sanasi;
- hisobvaraqaqdagi so'nggi harakat sanasi;
- kun boshidagi qoldiq summasi;
- kun oxiridagi qoldiq summasi;
- buxgalteriya yozuvlarining tartibi bo'yicha raqami;
- hujjat turi;
- hujjat raqami;
- hujjat turi (toifasi);
- vakil bankning kodi;
- debet bo'yicha aylanmalar summasi;
- kredit bo'yicha aylanmalar summasi;
- debet bo'yicha aylanmaning umumiy summasi;
- kredit bo'yicha aylanmaning umumiy summasi.

Naqd pulsiz hisob-kitoblarda qo'llaniladigan hujjatlar turini shaxsiy hisobvaraqlarda qayd etish uchun foydalaniladigan shartli raqam belgilari (shifrlar) "O'zbekiston Respublikasida naqd pulsiz hisob-kitoblar to'g'risida"gi Nizom (2013- yil 3-iyun, ro'yxat raqami 2465)da berilgan, xatoliklarni tuzatish uchun tuziladigan memorial orderlar "08", naqd pul cheklari uchun esa "03" shartli raqami bilan belgilangan.

Mijozlarning shaxsiy hisobvaraqlari boshlang'ich hujjatlar asosida dasturiy yo'l bilan tayyorlanadi. Mijozga berish uchun shaxsiy hisobvaraqdan ko'chirma bir nusxada chop etiladi va u mijozning hisobvarag'idan amalga oshirilgan operatsiyalarni bank tomonidan tasdiqlovchi hujjat bo'lib xizmat qiladi. Ushbu ko'chirma mijoz bilan kelishilgan tartibda unga taqdim qilinadi.

Shaxsiy hisobvaraqlardan ko'chirmalar kompyuter yordamida tayyorlanganligi uchun, ular mijozlarga berilayotganda imzolar va bank shtamlari bilan rasmiylashtirilmaydi. Banklar uchun shaxsiy hisobvaraqlar to'g'risidagi ma'lumotlar zarur bo'lgan hollarda Avtomatlashtirilgan bank tizimi axborotlar bazasida saqlanayotgan ma'lumotlardan foydalaniladi.

Hisobvaraqlarning krediti bo'yicha o'tkazilgan summalar yuzasidan shaxsiy hisobvaraqlardan ko'chirmalarga hisobvaraqlar bo'yicha yozuvlar kiritishga asos bo'lgan hujjatlarning elektron nusxalari ilova qilinadi.

Bir bank xizmat ko'rsatuvchi mijozlar o'rtasidagi to'lov topshiriqnomasi asosida amalga oshirilgan to'lovlar bo'yicha pul oluvchiga to'lov topshiriqnomasining ikkinchi nusxasi, e'lonnoma asosida topshirilgan naqd pul kiriminin tasdig'i sifatida order ilovalarga qo'shiladi. Ko'chirmalarga ilova qilinadigan hujjatlarga shtamp, shuningdek, hujjat shaxsiy hisobvaraqlar bo'yicha o'tkazilgan sana kalendar shtempeli bosilishi kerak (agar bu sana hujjat yozilgan sanaga mos kelmasa). Shtamp faqat ko'chirmaning asosiy ilovasiga qo'yiladi. Asosiy ilovada qayd etilgan operatsiyalarning mundarijasi va umumiy summasini tushuntiruvchi hamda talqin etuvchi qo'shimcha hujjatlarga shtamp qo'yilmaydi.

Mijozlar hisobvaraqlaridan ko'chirmalariga ilova qilinadigan, puli to'langan hisob-kitob hujjatlarining ishlov berishning dastlabki bosqichidayoq, bank shtampi yoki muhri bosiladigan ikkinchi nusxalari, shuningdek, kirim-kassa operatsiyalariga doir hujjatlar yuqorida aytilgan shtamp bilan tasdiqlanmaydi.

Ko'chirmalar mazkur hisobvaraqlar bo'yicha birinchi yoki ikkinchi imzo huquqiga ega bo'lgan shaxslarga yoki ularning ishonchnoma taqdim etgan vakillariga tilxat bilan beriladi. Bunday ishonchnomalar belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan bo'lishi lozim. Mijoz obuna qutilari orqali ariza topshirganda esa, ko'chirmalar tilxatsiz beriladi.

Bank mijozlari hisobvaraqlarining ahvoli to'g'risidagi yozma ma'lumotlar uchinchi shaxslarga O'zbekiston Respublikasining "Bank siri to'g'risida"gi qonunida



belgilangan tartibda beriladi. Mijoz shaxsiy hisobvaraqdan ko'chirmani yo'qotib qo'ygan taqdirda, uning dublikati mijoz arizasiga ko'ra bank rahbari yoki uning o'rinbosari beradigan yozma ruxsatnoma asosidagina, mijozga berilishi mumkin. Mijoz o'z arizasida ko'chirma yo'qolishi sabablarini ko'rsatishi, arizaga korxonah rahbari va bosh buxgalteri imzosi qo'yilgan bo'lishi shart. Dublikatning sarvarag'iga quyidagilar yoziladi: "20\_\_ yil "\_\_\_" \_\_\_\_\_dagi ko'chirma dublikati".

Shaxsiy hisobvaraqlardan ko'chirmalar dublikatlari ma'lumotlar bazasidan chiqarib beriladi. Ko'chirma dublikati mijoz vakiliga berilayotganida undan arizaga tilxat yozdirib olinadi.

#### *Bosh va Yordamchi kitoblarni yuritish*

Yordamchi kitobdagi ma'lumotlar Bosh kitobda jamlanadi. Bosh kitob ma'lumotlari asosida quyidagilar tuziladi:

- balans hisobvaraqlarining kunlik qoldiq summalari — kunlik balans;
- balans hisobvaraqlari bo'yicha aylanmalar va kun boshiga va oxiriga qoldiq summalari — aylanma-qoldiq summalari qaydnomasi;
- oylik, choraklik va yillik aylanma-qoldiq summalari qaydnomalari.

Bosh buxgalterning xohishiga ko'ra, emissiya-kassa operatsiyalari, xorijiy operatsiyalar, shuningdek, "Ko'zda tutilmagan holatlar" hisobvaraqlari bo'yicha jamlanma kartochkalar yuritilishi mumkin.

Kassa jurnallari dasturiy yo'l bilan kassa kirimi va chiqimi bo'yicha alohida ikki nusxada tuziladi hamda balans hisobvaraqlari va butun jurnal bo'yicha yakunlar chiqariladi. Yakunlar kassa bilan taqqoslangandan so'ng, birinchi nusxalar yordamchi kitob ma'lumotlarini bosh kitob ma'lumotlari bilan taqqoslash, shuningdek, kirim-chiqim hujjatlarini taqqoslash va yig'majildga tikish hamda har kuni kompyuterda arxivlash uchun javob beradigan xodimga beriladi.

Har kuni dasturiy yo'l bilan hisobvaraqlar aylanmalari va qoldiqlari to'g'risidagi jamlanma ma'lumotlar olinadi.

Ularda balans hisobvaraqlarining raqamlari, hisobvaraqlar nomlari, har bir hisobvaraq bo'yicha kun boshiga qoldiq summasi, debet va kredit aylanmalari hamda kun oxiriga qoldiq summasi ko'rsatiladi.

#### *Bosh va Yordamchi kitoblarni tekshirish*

Shaxsiy hisobvaraqlardagi yozuvlarni shu hisobvaraqlarni yuritish topshirilgan buxgalteriya xodimlari nazorat qiladilar. Bunda shaxsiy hisobvaraqlardagi barcha yozuvlar bankning vakolatli xodimlari nazoratidan o'tgan va operatsiyalar rasmiylashtirilayotganida ular imzolagan tegishli hujjatlarga mosligi, tegishli rekvizitlar va hujjatlarning summalari shaxsiy hisobvaraqlarga to'g'ri o'tkazilganligi tekshiriladi.

Shaxsiy hisobvaraqlar aylanmalardagi har bir debet va kredit bo'yicha yozuvlar summalari bankning o'zi rasmiylashtirgan pul hisob-kitob hujjatlari va boshqa banklardan kelgan elektron to'lov hujjatlaridagi summalar bilan birma-bir solishtirish orqali tekshiriladi. Shaxsiy hisobvaraqlardagi kun boshidagi qoldiq summalari ularni o'tgan kundagi shaxsiy hisobvaraqlar qaydnomasining kun oxiridagi qoldiqlar summalari bilan solishtirish orqali tekshirib chiqiladi. Shaxsiy hisobvaraqlarning kun oxiridagi qoldiqlari kundalik aylanma-qoldiq summalar qaydnomasi bo'yicha hamda quyidagilarni taqqoslash yo'li bilan tekshiriladi: hisobvaraq raqami, hisobvaraq nomi va kun oxiridagi qoldiq (bu qoldiq shaxsiy hisobvaraqlardagi qoldiqlar bilan taqqoslanadi).

Bosh kitobning nazorat hisobvaraqlaridagi ma'lumotlar yordamchi kitobdagi tegishli hisobvaraqlarning yakuniy summalari bilan taqqoslanadi. Agar dastlabki yozuvlarda xato bo'lmasa, summalar teng chiqadi.

Buxgalteriya hisobi hisobvaraqlar rejasi banklarda buxgalteriya hisobini yuritish va tashkil etishning yagona metodologik asoslarini belgilab beradi.

Mazkur hisobvaraqlar rejasi bank operatsiyalarining buxgalteriya hisobini aks ettirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Hisobvaraqlar rejasi bank operatsiyalarining hisobini yuritish, tahlil qilish, guruhlash va ularga doir hisobotlarni tuzishda qo'llanadigan Bosh kitob hisobvaraqlari ro'yxatidan iboratdir.

Xatolarni to'g'rilash va hisob siyosatidagi o'zgarishlar bo'yicha tuzatishlar kiritishda, hisobvaraqlarning ta'riflarida ko'zda tutilmagan bo'lsa ham hisobvaraqlarning debet va kreditlari bo'yicha tuzatish o'tkazmalari berishga ruxsat etiladi.

Markaziy bankning hisobvaraqlar rejasi buxgalteriya hisobining ko'p valyutali tizimiga asoslangan bo'lib, chet el valyutasidagi operatsiyalarning hisobi yuritilishi mumkin bo'lgan barcha hisobvaraqlarda xorijiy valyutadagi operatsiyalar hisobini aks ettirish imkonini beradi. Har bir valyuta turi bo'yicha sintetik hisobni yuritish uchun alohida Bosh kitob, analitik hisobni yuritish uchun esa yordamchi kitoblar ochiladi. Har bir valyuta bo'yicha yordamchi kitoblardagi summalar yig'indisi bosh kitoblarning tegishli balans hisobvaraqlaridagi summalar yig'indisiga mos kelishi kerak. Bank tomonidan amalga oshiriladigan har bir operatsiya tegishli valyuta turi bo'yicha bosh va yordamchi kitoblarda ro'yxatga olinishi kerak. Hisobot sanasida Bosh kitoblarning xorijiy valyutalar bo'yicha jami summalari milliy valyutaga o'tkaziladi va hisobot davri davomida amalga oshirilgan barcha operatsiyalar bo'yicha bankning jamlanma balansi tuziladi.

Hisobvaraqlarni kodlashtirish quyidagi maqsadlar uchun ishlab chiqilgan:

- hisobvaraqlarning bosh va yordamchi kitoblarda joylanishini yengillashtirish;
- hisobvaraqlarni bir tizimda tasniflash va guruhlashga yordam berish;
- hisob jarayonlarini avtomatlashtirishni yengillashtirish;
- operatsiyalar yozuvini tezlashtirish.

Balans hisobvaraqlarining Bosh kitobda kodlashtirilish tizimi quyidagi sxema bo'yicha beshta belgidan iboratligi qabul qilingan:

S	MM	SS
---	----	----

C	Hisobvaraqlar turkumi (kategoriyasi):
1	Aktiv
2	Majburiyatlar
3	Kapital
4	Daromadlar
5	Xarajatlar
6	Ko'zda tutilmagan holatlar

MM	Hisobvaraqlar turkumiga tegishli asosiy hisobvaraqlar (birinchi tartib)
----	---


SS	Asosiy hisobvaraqlarga tegishli subhisobvaraqlar (ikkinchi tartib)
----	--

Raqamli kodlashtirishga quyidagi zarur shartlar joylashtirilgan:

-jami jamlanma hisobvaraqlar uchun MM va/yoki SS nol raqamlariga ega (masalan, 10000-"Aktivlar", 10100-"Kassadagi naqd pul va boshqa to'lov hujjatlari" va boshqalar);

"Aktivlar" bo'limidagi "... zararlarini qoplash zaxirasi" sarlavhali subhisobvaraqlar uchun SS o'rnida 99 raqam qabul qilingan.

Yordamchi kitobda shaxsiy hisobvaraqlar quyidagi sxema bo'yicha kodlashtiriladi:



Bundan tashqari, operatsiyalarni boshqarish maqsadida yordamchi kitoblarga Markaziy bank hamda tijorat banklarining menejmenti (boshqarishi) uchun zarur bo'lgan batafsil axborotlar bilan ta'minlovchi qo'shimcha ma'lumotlar kiritiladi.

Hisobvaraqlar rejasida har bir hisobvaraqlarning aktiv yoki passiv bo'lishi aniq belgilab qo'yilgan, aktiv-passiv qoldiqlarga ega bo'ladigan ayrim hisobvaraqlar bundan mustasno. Aktiv hisobvaraqlarga "Aktivlar", "Xarajatlar" va "Ko'zda tutilmagan holatlar" bo'limlaridagi balans hisobvaraqlari, passiv hisobvaraqlarga "Majburiyatlar", "Kapital" va "Daromadlar" bo'limlaridagi balans hisobvaraqlari taalluqlidir.

Aktivlarning real qiymatini aks ettirish maqsadida "Aktivlar" bo'limiga kontr-aktiv hisobvaraqlari, majburiyatlarning real qiymatini aks ettirish maqsadida esa "Majburiyatlar" bo'limiga kontr-passiv hisobvaraqlar kiritilgan.

"Ko'zda tutilmagan holatlar" bo'limiga operatsiyalarni ikki yoqlama yozuv uslubi bo'yicha aks ettirish va amalga oshirilgan operatsiyalarning to'g'riligini qo'shimcha nazorat qilish imkonini beruvchi kontr-aktiv hisobvaraqlar kiritilgan.

Ba'zi hisobvaraqlardan tashqari "Aktivlar" likvidlilik, "Majburiyatlar" esa muddatlilik tamoyillariga asosan tasniflangan.

Mazkur hisobvaraqlar rejasida har bir ikkinchi tartibli balans hisobvarag'i uchun hisobvaraqlar ta'rifi berilgan bo'lib, unda hisobvaraqlarning debeti va krediti bo'yicha qanday operatsiyalarni aks ettirish hamda analitik hisobni yuritish ko'rsatilgan. Batafsil analitik hisob yuritish uchun banklarda shaxsiy hisobvaraqlardan tashqari qo'shimcha jurnal hisobi va reestrlar yuritilishi mumkin.

"Daromadlar" va "Xarajatlar" bo'limi uchun analitik hisob ko'rsatilmagan bo'lib, ushbu bo'limlardagi hisobvaraqlar bank ichki hisobvaraqlari hisoblanadi. Markaziy bankning ichki hisob siyosatidan kelib chiqqan holda ushbu hisobvaraqlarda analitik hisobni yuritish belgilanadi.

Buxgalteriya hisobining mohiyati tahlil qilinganda, unga moliyaviy ma'lumotlarni aniqlash, qayta ishlash va ularni moliyaviy hisobot shaklida foydalanuvchilarga **yyetkazib** berishni amalga oshiradigan axborot tizimi sifatida ta'rif berdik. Buxgalteriya ma'lumotlarini aniqlashdan to uni hisobot shakliga keltirilgunga qadar, bir-biri bilan bog'liq bir qancha jarayonlarni buxgalteriyaga oid bo'lgan turli vositalar yordamida amalga oshiriladi.

Xo'jalik operatsiyalarini tahlil qilishdan to moliyaviy hisobotni tuzish va hisobvaraqlarni yopishgacha bo'lgan hisob jarayonining ketma-ketligi hisob sikli (bosqichi) deb ataladi. Hisob sikli va uning bosqichlarini yoritishda, bunda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

*Hodisa* xo'jalik subyektining faoliyatiga ta'sir etuvchi voqealardir. Hodisalar, odatda aktiv, majburiyat va kapitaldagi o'zgarishlar sababchisi yoki manbai bo'lib xizmat qiladi. Uni ichki va tashqi hodisalarga bo'lish mumkin.

*Operatsiya (muomala)* – ikki subyekt o'rtasida biron-bir qimmatliklarni ayriboshlash yoki bir-biriga berishni amalga oshiradigan jarayon bo'lib, u faqat tashqi hodisa hisoblanadi.

*Hisobvaraqlar* - ma'lum aktiv, majburiyat, kapital, daromad va xarajatlar bo'yicha yuz bergan operatsiyalar yoki boshqa hodisalar natijasini aks ettiruvchi va ma'lumotlarni saqlovchi maxsus qurilma.

Hisobvaraqlar rejasi bank operatsiyalari hisobini yuritish, tahlil qilish, guruhlash va ularga doir hisobotlarni tuzishda qo'llaniladigan Bosh kitob hisobvaraqlari ro'yxatidan iborat.

*Real hisobvaraqlar* – balansning aktiv, majburiyat va kapital hisobi uchun ochilgan hisobvaraqlar.

*Nominal hisobvaraqlar* – foyda va zararlar to'g'risidagi hisobotga kiritiladigan daromad va xarajatlarning hisobi uchun ochilgan hisobvaraqlar.

*Bosh jurnal* – operatsiya va boshqa hodisalarning birlamchi ro'yxatini yurituvchi kitob.

*Bosh kitob* - aktiv, majburiyat, kapital, daromad va xarajatlarning hisobi olingan hisobvaraqlarni o'zida mujassamlashtirgan kitob.

*Yordamchi kitob* – Bosh kitobning ayrim hisobvaraqlari bo'yicha operatsiya mazmuni yoki subyekt turlariga qarab maydalashtirilib, batafsil hisob yuritish uchun ochilgan shaxsiy hisobvaraqlar. Bosh kitobning ayrim hisobvaraqlari bo'yicha bir nechta yordamchi kitoblar, masalan, banklarda shaxsiy hisobvaraqlar ochiladi.

*Sinov balansi* – Bosh kitobga ochilgan hisobvaraqlar qoldig'i ro'yxati.

*Tuzatuvchi o'tkazmalar* - hisobot davrining oxirida to'g'ri moliyaviy hisobotlar tuzish maqsadida, barcha hisobvaraqlarni hisoblash usuliga mos holga keltirish uchun beriladigan buxgalteriya o'tkazmalari.

*Teskari o'tkazmalar (Reversiv)* – moliyaviy hisobotlar tuzib bo'lingandan so'ng, keyingi hisobot davrining boshida tuzatuvchi o'tkazmalarga teskari beriladigan o'tkazmalar.

Hisobvaraq ma'lum aktiv, majburiyat, kapital, daromad va xarajatlarning bo'yicha yuz bergan operatsiyalar yoki boshqa hodisalar natijasini aks ettiruvchi va ma'lumotlarni saqlovchi maxsus qurilmadir. Hisobvaraqlar aks ettiruvchi operatsiyalarning tavsifiga muvofiq aktiv va passiv hisobvaraqlarga bo'linadi.

Debet va kredit buxgalteriya hisobining asosiy iboralaridan biri bo'lib, mos ravishda chap va o'ng taraflar ma'nosini anglatadi. Hisobvaraqning chap tarafiga debetni va o'ng tarafiga kreditni olib borish buxgalteriya hisobining ana'naviy qoidasi hisoblanadi va bu barcha hisobvaraqlar uchun bir xilda qo'llaniladi. Bugungi kunda, ushbu qoida buxgalteriya ishlarini yuritishda odatiy holga aylanib ulgurgan. Ya'ni, har qanday buxgalteriya operatsiyasi buxgalteriya o'tkazmasi orqali hisob jarayoniga kiritiladi. Shuni aytib o'tish lozimki, debet va kredit iboralari ko'payish yoki kamayish ma'nosini anglatmaydi. Balki hisobvaraqlar tavsifi jihatidan aktiv va passiv hisobvaraqlarga bo'linganligi sababli, oldin debetlangan hisobvaraq, so'ngra unga mos kreditlangan hisobvaraq

nomi yoki raqami hisob jurnallarida yoki kitoblarida qayd etiladi.

Dunyoning barcha mamlakatlarida hisobvaraqlar rejasidagi aktiv va xarajat hisobvaraqlari - aktiv hisobvaraqlar deb, majburiyat, kapital va daromad hisobvaraqlari – passiv hisobvaraqlar deb nomlangan. Aktiv hisobvaraqlar mablagʻlarni, passiv hisobvaraqlar esa mablagʻlar manbayini hisobga oladi. Aktiv hisobvaraqlarning qoldigʻi debet tarafida, passiv hisobvaraqlarning qoldigʻi esa kredit tarafida koʻrsatiladi.

Aktiv hisobvaraqlar debetlanganda koʻpayadi va kreditlanganda esa kamayadi, passiv hisobvaraqlar buning aksidir. Bundan tashqari, hisobvaraqlar rejasidagi hisobvaraqlar real hisobvaraqlar va nominal hisobvaraqlarga boʻlinadi.

Real hisobvaraqlar balansning aktiv, majburiyat va kapital hisobi uchun ochilgan hisobvaraqlar boʻlib, ular doimiy hisobvaraqlar ham deyiladi, chunki hisobot davrining oxirida ushbu hisobvaraqlar yopilmaydi.

Nominal hisobvaraqlar foyda va zararlar toʻgʻrisidagi hisobotga kiritiladigan daromad va xarajatlarning hamda foyda va zararlar hisobi uchun ochilgan hisobvaraqlar boʻlib, ular vaqtinchalik hisobvaraqlar ham deyiladi, chunki hisobot davrining oxirida ushbu hisobvaraqlar yopiladi va ularning qoldiq summasi balans hisobvaragʻi (taqsimlanmagan foyda)ga oʻtkaziladi. Yangi hisobot davrining boshida nominal hisobvaraqlar qoldigʻi nolga teng boʻladi. Tijorat banklarida operatsiyalarni hisobga olishda amaldagi schyotlar rejasiga asosan u quyidagi guruhlariga boʻlingan:

*aktivlar, majburiyatlar, kapital, daromad, xarajat,  
koʻzda tutilmagan sarflar va daromadlar.*

Hisobvaraqlar rejasidagi hisobvaraqlarning 5ta belgisining 1 raqami hisobvaraqlarning kategoriyasini bildiradi. Hisobvaraqlar rejasidagi 2-3 raqamlardan har bir kategoriyadagi asosiy hisobvaraqlarni aks ettirishi uchun foydalaniladi. 4-5 raqamlardan esa asosiy hisobvaraqlardagi oʻtkazmalarni aks ettirish uchun foydalaniladi.



### **1.3. Buxgalteriya hisobining xalqaro modellari**

Ma'lumki, buxgalteriya hisobining mustaqil fan sifatida shakllanganligiga 500 yildan oshib ketdi. Dunyoda ro'y berayotgan tub siyosiy, iqtisodiy va texnik o'zgarishlar, global aloqalarning o'rnatilishi buxgalteriya hisobining ijtimoiy hayotdagi rolini o'zgartirib yubordi. Iqtisodiyotning global asosda rivojlanishi yagona "biznes tili" hisoblangan buxgalteriya hisobining jahon bo'yicha yagona tamoyillarini yoki buxgalteriya hisobining xalqaro standartlarini yaratish zaruriyatini vujudga keltirdi.

Buxgalteriya hisobining xalqaro standartlarini yaratish g'oyasi o'tgan XX asrning 30-yillarida tug'ilgan. 1929-yildagi AQSh fond bozorining sinishi va buyuk iqtisodiy depressiyaning boshlanishi, ushbu mamlakatda moliyaviy hisobotlarning ishonchli taqdim qilinish tamoyiliga bo'lgan talabni kuchaytirib yubordi. Ikkinchi jahon urushidan so'ng AQSh jahon iqtisodiyotining de facto lokomotiviga aylandi. Sotsialistik tuzum mamlakatlaridan boshqa barcha mamlakatlarga AQSh investitsiyasi oqib kela boshladi. Natijada, jahon iqtisodiyotining globallasuvi jarayoni tezlashib, turli mamlakat xo'jalik subyektlari, banklari va boshqa moliyaviy korporatsiyalar o'rtasida iqtisodiy aloqalar vujudga keldi. Hozir esa, jahon bozorini xalqaro munosabatlarsiz tasavvur qilish mumkin emas. BMT ma'lumotlariga ko'ra, bugungi kunda 37 ming transmilliy kompaniyalar faoliyat ko'rsatib, 5,5 trl dollar hajmida milliy daromad yaratilmoqda.

Lekin buxgalteriya hisobi ijtimoiy hayotning ajralmas qismi bo'lib, tabiiyki u, mavjud ijtimoiy muhit bilan chambarchas bog'liqdir. Mavjud siyosiy, iqtisodiy va huquqiy sharoitlarning o'zgarishi, albatta buxgalteriya hisobi tamoyillarining ham o'zgarishiga olib keladi.

Shu sababli, turli mamlakatlarning buxgalteriya hisobini yuritish qoidalari hali turlichadir. Ba'zi mamlakatlarda (Rossiya, Yaponiya) buxgalteriya hisobi tamoyillari ustuvor ravishda makroiqtisodiy maqsadlarga xizmat qilishga yo'naltirilgan bo'lib, bunda rejalashtirilgan milliy daromadning o'sish sur'atini aniqlash, inflyatsiya

darajasini pasaytirish, samarali soliq siyosatini yuritish kabi maqsadlar hisobga olinadi. Ba'zi mamlakatlarda esa (AQSh, Buyuk Britaniya), investor va kreditorlar manfaatlari inobatga olingan hisob siyosati yuritiladi. Biror mamlakatning buxgalteriya hisobini tashkil qilish darajasiga qat'iy tarzda yaxshi yoki yomon deb, baho berish mumkin emas. Har bir mamlakat o'zining mavjud ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlaridan kelib chiqqan holda hisob siyosatining asosiy qoidalarini belgilaydi.

Jahon olimlarining iqtisodiy izlanishlari natijasida qaror topgan xulosalarga asosan, muayyan mamlakat buxgalteriya hisobi tamoyillarining shakllanishiga quyidagi umumiy omillar ta'sir o'tkazadi:

- asosiy foydalanuvchilar hisoblangan kreditor va investorlarning xususiyatlari;

- kapitalni investitsiya qilish jarayoniga jalb qilingan yuridik va jismoniy shaxslar soni;

- fond va boshqa moliyaviy bozorlarning rivojlanish darajasi;

- xalqaro biznesda ishtirok etish darajasi.

Shuningdek, XX asr oxirlarida mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlariga ularning madaniy rivojlanish darajasi ham ta'sir etishi to'g'risida fikrlar paydo bo'ldi. Masalan, G.Xovsted birinchilardan bo'lib dunyoni quyidagi madaniy hududlarga bo'lishni taklif qilgan:

- yuqori darajada rivojlangan roman mamlakatlari (Belgiya, Fransiya, Argentina, Braziliya, Ispaniya, Italiya);

- past darajada rivojlangan roman mamlakatlari (Kolumbiya, Ekvador, Meksika, Venesuela, Kosta-Rika, Chili, Gvatemala, Panama, Peru, Portugaliya, Salvador, Urugvay);

- yuqori darajada rivojlangan osiyo mamlakatlari (Yaponiya);

- Afrika mamlakatlari (Sharqiy va G'arbiy Afrika);

- past darajada rivojlangan Osiyo mamlakatlari (Indoneziya, Pokiston, Tayvan, Hindiston, Malayziya, Filippin);

- Yaqin Sharq mamlakatlari (arab mamlakatlari, Gretsiya, Eron, Turkiya, Yugoslaviya);

- Osiyo mustamlaka mamlakatlari (Gonkong, Singapur);
- german tilida gaplashuvchi mamlakatlar (Avstriya, Germaniya, Shveysariya; Isroil);
- ingliz tilida gaplashuvchi mamlakatlar (Avstraliya, Kanada, Irlandiya, Yangi Zelandiya, Buyuk Britaniya, AQSh, JAR);
- Skandinaviya mamlakatlari (Daniya, Finlyandiya, Norvegiya, Shvetsiya; Niderlandiya).

G.Xofsted tomonidan bildirilgan fikrlarni olimlar yanada chuqurlashtirmoqchi bo'lishadi va buxgalteriya hisobi tizimiga qo'shimcha ravishda boshqa omillar, hatto mamlakat aholisi qabul qilgan dinning ta'siri muhim ekanligini ta'kidlashmoqchi bo'lishadi. Bunday qarashlar rossiyalik mutaxassislar tomonidan ham bildirilmoqda.

Amerika buxgalterlar assotsiatsiyasi buxgalteriya hisobi moddellari shakllanishiga ta'sir etuvchi quyidagi sakkizta malaka belgisini ajratib ko'rsatadi:

- mavjud siyosiy va iqtisodiy tizim;
- iqtisodiy rivojlanish darajasi;
- moliyaviy hisobotlarning tuzish maqsadi;
- hisob standartlarining mualliflikka oidligi;
- kasbiy tayyorlash darajasi;
- sertifikatsiyalash tamoyillari;
- standartlarga kasbiy va axloqiy (etik) jihatdan rioya qilish ustidan nazorat tizimi;
- buxgalteriya hisobidan foydalanuvchilar tasnifi va tarkibi.

Olimlar tomonidan buxgalteriya hisobi moddellari shakllanishiga ta'sir etuvchi omillarga baho beruvchi nazariy fikrlarni ko'plab keltirish mumkin. Bugungi kunda buxgalteriya hisobi nazariyasini rivojlantirish maqsadi, shunday qarashlarni tahlil qilish va xalqaro muhitga mos bo'lgan buxgalteriya hisobining yangi tamoyil va qoidalarini yaratishdan iboratdir. Turli mamlakatlar buxgalteriya hisobi moddellarini tadqiq qilish buxgalteriya hisobidagi mavjud muammolarni ijobiy hal qilishga va uning xalqaro modellarini takomillashtirishga hamda shu sohada ilmiy-amaliy izlanishlarni boyitishga yordam beradi.

Iqtisodchi olimlar M.Metyus va M. Perera amaldagi buxgalteriya hisobi tizimlari va hisob yuritish usullarining qiyosiy tahlili, buxgalteriya hisobi namunaviy moddellarining mavjud muhit omillari ta'siri ostida o'zgarish imkoniyatlarini hamda shunday muammolarga duch kelishini oldindan aniqlashda muhim ahamiyatga ega deb hisoblashadi.

Bunday tahlil natijalari, aksariyat hollarda buxalteriya hisobining xalqaro standartlarini yaratish bo'yicha xalqaro tashkilotlar tuzish zaruriyati bilan yakunlanadi. Hozirda buxgalteriya hisobining xalqaro modellarini takomillashtirish bilan xalqaro miqiyosdagi quyidagi tashkilotlar shug'ullanishmoqda:

1. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari Kengashi – Sovet International Financial Reporting Standards (IFRS) (Buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari Qo'mitasi - International Accounting Standards (IASC) o'rnida tashkil topgan);

2. Xalqaro buxgalterlar federatsiyasi - International Federation of Accountants (IFAC);

3. Jahon Bankining moliyaviy hisobotni isloh qilish markazi - World Bank Centre for Financial Reporting Reform (CFRR);

4. Birlashgan Millatlar Tashkiloti (UNO) qoshidagi xalqaro hisob va hisobot standartlari bo'yicha "Hukumatlararo ekspertlar guruhi";

5. Iqtisodiy hamkorlik rivojlanishi tashkiloti (OECD);

6. YEvropa Ittifoqi - European Union (EU);

7. Qimmatli qog'ozlar va birjalar bo'yicha Komissiyaning xalqaro tashkiloti (IOSCO);

8. Yevrosiyo sertifikatlangan buxgalterlar va auditorlar kengashi - Eurasian Council of Certified Accountants and Auditors (ECCAA);

9. Buxgalteriya hisobi va auditni rivojlantirish instituti - Institute for Accounting and Auditing Development (IAAD);

10. Angliyadagi va Uelsdagi maslahatchi buxgalterlar instituti - Institute of Chartered Accountants in England and Wales (ICAEW);

11. Xalqaro audit va ishonch bildirish standartlari bo'yicha kengash - International Auditing and Assurance Standards Board (IAASB);

12. Kichik va o'rta biznes uchun Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari kengashi - International Financial Reporting Standards for Small- and Medium-Sized Entities (IFRS for SMEs);

13. Sertifikatlangan professional buxgalterlar uyushmasi (ACCA);

14. Amerika buxgalterlik assotsiatsiyasi (AAA);

15. Amerika moliyaviy hisobi bo'yicha Kengashi (FASB);

16. AQSh "Qimmatli qog'ozlar bo'yicha Komissiyasi" (SEC)

Bir xil ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarga ega mamlakatlar buxgalteriya hisobini yuritish va tashkil qilishda umumiy qoidalarni qo'llanilishi tabiiy holdir. Bu o'z o'rnida, bir-biriga o'xshash buxgalteriya hisobi modellarini vujudga keltiradi.

Lekin aksariyat olimlar, buxgalteriya hisobi aynan bir xil qoidalarga asoslangan hatto ikkita mamlakat ham mavjud emas deb hisoblashadi. Biz quyida, bugungi kunda dunyo mamlakatlarida ayrim jihatlari bilan bir-biridan farq qiluvchi buxgalteriya hisobi modellari to'g'risida qisqacha ma'lumot beramiz.

Jahon olimlari tomonidan buxgalteriya hisobining quyidagi xalqaro modellari e'tirof etilgan:

1. Britan-Amerika;
2. Kontinental model;
3. Janubiy Amerika modeli;
4. Islom modeli.

*Britan-Amerika (Niderland) modeli,* Buyuk Britaniya, AQSh va Niderlandiya kabi yyetakchi mamlakatlar tomonidan ishlab chiqilgan

Bugungi kunda mazkur model Avstraliya, Bagama, Barbados, Buyuk Britaniya, Venesuela, Gonkong, Dominikan Respublikasi, Zambiya, Zimbabva, Isroil,

Hindiston, Indoneziya, Irlandiya, Kanada, Kipr, Kolumbiya, Malayziya, Meksika, Nigeriya, Niderlandiya, Yangi Zelandiya, Pokiston, Panama, Puerto-Riko, Singapur, AQSh, Trinidad Tobago, Uganda, Fidji, Filippin, ayrim Markaziy Amerika mamlakatlari, Janubiy Afrika Respublikasi, Yamayka va boshqa mamlakatlarda qoʻllanilmoqda.

Ushbu model oʻta rivojlangan bozor munosabatlari va yuqori axborot taʼminoti texnologiyasiga tayanadi. Uning asosiy maqsadi investor va kreditorlarni ishonchli va tushunarli maʼlumotlar bilan taʼminlashdan iborat. Asosan, fond birjalari orqali pul oqimlari aylangani uchun birja manfaatlariga muvofiqlashtirilgan. Ushbu model demokratik model hisoblanadi.

Buxgalteriya faoliyati amaldagi qonunchilik talablari bilan chegaralanmagan, faqat buxgalter uchun “nima qilish mumkin emas” degan qoida amal qiladi. Shuning uchun, bu mamlakatlarda buxgalteriya ishlarini yuritish tartiblari davlat hokimiyati organlari tomonidan emas, asosan buxgalterlik kasbi jamoatchilik tashkilotlari tomonidan belgilanadi. Masalan, AQSh da juda koʻp professional buxgalterlik jamiyatlari faoliyat yuritadi. Aynan ular tomonidan mamlakatda barcha kompaniyalar uchun qoʻllanilishi zarur boʻlgan “Buxgalteriya hisobining umum qabul qilingan qoidalari” (GAAP) ishlab chiqilgan va uni joriy qilish boʻyicha doimiy ish olib boriladi. Bundan tashqari, Qimmatli qogʻozlar boʻyicha Komissiya (SEC) va Amerika buxgalterlik assotsiatsiyasi (AAA) ham buxgalteriya hisobini takomillashtirish ishlarida ishtrok etishadi.

Ushbu modelning ijobiy tomonlarini dunyoning barcha mamlakatlari eʼtirof etishgan va hisob yuritishda uning asosiy qoidalari inobatga olingan. Shu bois, ushbu model qoidalari MHXSning asosiy tamoyillarini tashkil etadi.

Biz, Britan-Amerika (Niderland) modelini tahlil qilar ekanmiz, uning timsolida Buyuk Britaniya mamlakati buxgalteriya hisobining rivojlanish xususiyatlarini oʻrganish bilan chegaralanamiz. Chunki, aynan Buyuk Britaniya buxgalteriya hisobi Britan-Amerika (Niderland),

Anglo-sakson, qolaversa AQSh GAAP kabi zamonaviy buxgalteriya hisobi modellarini shakllanishida katta manba bo'lib hisoblangan.

Ushbu modelni tahlil qilishda, uning quyidagi asosiy uch xususiyati ustida to'xtab o'tish lozim deb hisoblaymiz:

1. Buyuk Britaniyada buxgalteriya hisobi Hukumat va qonunchilikdan mustaqil ravishda, biznes manfaatlaridan kelib chiqqan holda shakllangan. Ma'lumki, Buyuk Britaniyada konstitutsiya amal qilmaydi. Mamlakat ijtimoiy hayoti parlamentning qonunchilik hujjatlariga va Britaniya sudining qarorlariga asoslangan holda tartibga solinadi. Shu bois bo'lsa kerak, buxgalteriya hisobi ham Hukumat tomonidan batafsil tartibga solinmaydi, Hukumat uning ayrim umumiy qoidalarini belgilash bilan kifoyalanadi. Bu holatni to'g'ri tushunish uchun, buxgalteriya hisobida operatsiyalar mazmunining shaklan ustuvorligini ta'minlash qoidasiga izoh berish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Buxgalteriya hisobida operatsiyalar, ularning mazmuni to'g'ri deb qabul qilingan hollarda, qonunchilik hujjatlarida belgilangan talablarga zid kelgan taqdirda ham, tan olinadi.

2. Buyuk Britaniya mamlakati buxgalteriya hisobini tartibga solishda buxgalterlik kasbiy tashkilotlarining roli beqiyosdir. Milliy buxgalteriya standartlarini yaratish tashabbuskori bo'lib 1969-yilda Angliyadagi va Uelsdagi Maslahatchi buxgalterlar instituti - Institute of Chartered Accountants in England and Wales (ICAEW) maydonga chiqqan va bir yildan so'ng SSAP 1- Buxgalteriya operatsiyalari standartlari "Shu'ba tashkiloti" ishlab chiqilgan.

Hozirgi paytda, mamlakatdagi oltita yirik maslahatchi buxgalterlar uyushmasi Buxgalteriya hisobining maslahat qo'mitasi - SSAVga birlashtirilgan. Hatto, 1980- yilda tashkil topgan va buxgalteriya hisobi va hisoboti bo'yicha milliy standartlar o'rnatuvchi organ hisoblangan Buxgalteriya standartlar qo'mitasi (ASV) ham shu tashkilot tarkibida faoliyat yuritadi.

3. Buyuk Britaniyaning YEvropa Ittifoqiga a'zo bo'lishi mamlakatda buxgalteriya hisobini tartibga solish bo'yicha

qaror topgan yuqoridagi ayrim tamoyillarni qayta ko'rib chiqishga majbur qilmoqda. Xususan, Yevropa Ittifoqining ko'rsatmalariga muvofiq mamlakat korxonalari buxgalteriya hisobi va hisobotlarini tartibga solish qoidalarini qonunchilik hujjatlariga kiritish choralarini ko'rmoqda. Lekin mamlakatda faoliyat yuritayotgan buxgalterlik kasbiy tashkilotlarining nufuzi yuqori bo'lganligi uchun Yevropa Ittifoqining 4-Direktivasiga Buyuk Britaniya buxgalteriyasining tamal toshi hisoblangan- "moliyaviy hisobotlarni ishonchli va haqqoniy - "true and fair view" taqdim qilish qoidasi" kiritilishiga erishildi, xolos.

Shu bilan birga, Yevropaning boshqa mamlakatlarida buxgalteriya hisobi sohasida o'tkazilayotgan islohotlar natijasida Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha hosil bo'layotgan yo'nalishlar Buyuk Britaniyada ham paydo bo'lmoqda.

*Kontinental model,* Yevropa mamlakatlarining buxgalteriya hisobi modeli hisoblanadi.

Undan Avstriya, Belgiya, Germaniya, Gretsiya, Daniya, Misr, Ispaniya, Italiya, Marokko, Norvegiya, Portugaliya, Rossiya, Fransiya, Shveysariya, Shvetsiya, Yaponiya kabi mamlakatlar foydalanishadi.

Ushbu modelning xususiyati shundan iboratki, buxgalteriya ishlari Hukumat va bank manfaatlariga moslashtirilgan va qat'iy qonunchilik talablari asosida konservativ tartibda hisob yuritiladi. Agar, Britan-Amerika (Niderland) modelida "Siz bunday qilishingiz shart emas" degan qoida amal qilsa, Kontinental modelda esa "Siz shunday qilishingiz shart" degan qat'iy qoida hukmronlik qiladi.

Buxgalteriya hisobini tartibga solishda Hukumat hal qiluvchi rol o'ynaydi, buxgalterlik kasbi jamoatchilik tashkilotlari esa ularni amalga tatbiq etishda maslahatchi sifatida xizmat qiladi. Buxgalteriyaning har bir tamoyili soliq, bank va savdo qonunchiligi talablari bilan bog'lab qo'yilgan.



Masalan, *Nemis buxgalteriya hisobi*, nafaqat Yevropa mamlakatlarida qo'llanilayotgan Kontinental modelni, balki dunyoning boshqa mamlakatlar buxgalteriya hisobini rivojlantirishda ham haqli ravishda yetakchi o'rinni egallaydi. Qonunchilikka moyil nemis xarakteri buxgalteriya hisobini aniq va qonun hujjatlarida belgilangan normalarga qat'iy rioya qilgan holda yuritish qoidalarini yaratdi va undan jahonning ko'pgina mamlakatlari hanuzgacha foydalanilmoqda. Jumladan, u Rossiya orqali bizning vatanimizga kirib kelgan va bugungi kunda amalga joriy etilgan Milliy standartlarni ishlab chiqishda tamal toshi bo'lib xizmat qilgan.

Ma'lumki, ikkinchi jahon urushida mag'lubiyatga uchragan Germaniya iqtisodiyoti bir necha o'n yillar davomida AQSh nazorati ostida boshqarildi. Tabiiyki, bunday sharoitda, albatta AQSh o'z nazorati ostidagi mamlakat buxgalteriya hisobini o'zining buxgalteriya modeliga moslashtirishga harakat qilgan, aks holda nazorat kutilgan samarani bermasligi mumkin edi. Lekin nemis mentaliteti mujassamlashgan iqtisodiyotda amerikacha buxgalteriya modeli tomir ota olmadi. Hatto, bugungi kunda ham Germaniya Yevropa Ittifoqining asoschisi va eng faol ishtirokchilaridan biri bo'lishiga qaramasdan, iqtisodiyotga moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini joriy qilish nemis modeli bilan birgalikda amalga oshirilmoqda.

Hozir ham Germaniyada "Tijorat (Savdo) kodeksi", "Daromad aylanmasidan soliqqa tortish", "Daromad solig'i" va "Korporatsiyani soliqqa tortish" kabi qonunchiliklar asosida buxgalteriya hisobi tartibga solinadi. Asosiy qonun hujjati bo'lib, albatta "Tijorat (Savdo) kodeksi" xizmat qiladi.

Buxgalteriya hisobini rasman nazorat qiluvchi asosiy subyekt sifatida Iqtisodiyot vazirligi qoshidagi Germaniya auditorlik palatasi (Wirtschaftsprüfer Kamber) xizmat qiladi, 1931-yildan boshlab esa Maslahatchi auditorlar instituti (Institut der Wirtschaftsprüfer) ko'ngilli assotsiatsiyasi faoliyat yuritmoqda.

### **Germaniya buxgalteriya hisobiga xos bo'lgan mezonlar va talablar**

<b>Mezonlar</b>	<b>Talablar</b>
1. To'liqlik	Xo'jalik operatsiyalarini to'liq va yoppasiga qayd etish
2. Operatsiya mazmunining to'g'riligi	Xo'jalik operatsiyalarini, ularning mazmuniga mos ravishda qayd etish
3. Vaqt bo'yicha cheklovlar	Xo'jalik operatsiyalarini ular sodir bo'lgan vaqtda qayd etish
4. Aniqlik, tekshirish uchun yaqqol tasavvur qilish imkoniyatlari mavjudligi	Buxgalteriya hisobi shunday aniq va tiniq dalillar asosida yuritiladiki, u uchinchi shaxslarga qisqa fursatlarda yaqqol namoyon bo'ladi
5. Shakl to'g'riligi	Operatsiyalarning dastlabki qayd etilgan mazmuni o'zgartirilmaydi. Masalan, chizish, bo'yash yoki o'chirish.
6. Xronologik tartib	Xo'jalik operatsiyalarini, ular sodir etgan vaqt ketma-ketligida qayd etiladi.

Buxgalteriya hisobining asosiy foydalanuvchilari sifatida hozir ham banklar saqlanib qolmoqda. Yirik banklar o'zlarining xususiy auditorlik tashkilotlariga ega bo'lganligi sababli, mijozlar moliyaviy hisobotlarining sifat va tarkibiga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatmoqda. 1937-yilda qabul qilingan "Aksiyador korporatsiyalar to'g'risida"gi qonun 1985-yilda Yevropa Ittifoqining ko'rsatmalariga muvofiq qayta ishlanib, Germaniyaning huquqiy tizimini tubdan o'zgartirib yubordi, bu o'z o'rnida buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobotlarni auditorlik tekshiruvidan o'tkazish qoidalarini ham mos ravishda takomillashtirib borishga olib kelmoqda. Lekin qonunchilikda o'tkazilayotgan islohotlar uchun Oliy soliq sudi mas'ulligicha qolmoqda.

Nemis buxgalteriya hisobi qanchalik mustahkam bo'lmasin, Germaniya Yevropa Ittifoqining asoschilaridan biri bo'lganligi sababli, uning ko'rsatmalari asosida moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha islohotlar o'tkazilmoqda.

*Fransiyada* Milliy hisobvaraqlar rejasi, Savdo kodeksi, Soliq qonunchiligi, Savdo-sanoat korxonolari to'g'risida qonun, Milliy kompaniyalar to'g'risidagi qonunlar orqali buxgalteriya hisobi tartibga solinadi. Fransiyada buxgalteriya hisobi bo'yicha birinchi qonun 1673-yilda Lyudovik XIV asridagi ministr Kolber tomonidan qabul qilingan, keyinchalik esa uning o'rnini Napoleon kodeksi egallagan. Ushbu Kodeks fransuz jahongiri tomonidan zabt etilgan barcha mamlakatlar buxgalteriya hisobini rivojlanish holatiga ta'sir etgan.

*Italiya* "Buxgalteriya hisobi fani beshigi" hisoblanadi. Aynan shu mamlakatda ushbu fanning tarixi boshlangan. Luka Pacholining "Arifmetika, geometriya summasi, mutanosiblik va nisbatlar" kitobi 1494-yilda yozilgan. Lekin buxgalteriya hisobi 1861-yilda jahon jamoatchiligi tomonidan mustaqil fan sifatida tan olingan. Aynan shu yillarda, Italiyada bir-biridan ham nazariy, ham amaliy jihatdan farq qiluvchi uchta katta buxgalterlik (lombardcha, toskancha va venetsiyancha) maktablari faoliyat ko'rsata boshlagan.

Italiya qonunchiligiga 1808-yilda fransuz imperatori Napoleon tomonidan Tijorat kodeksi joriy qilingandan so'ng, mazkur mamlakat qanchalik darajada konservativ tizimga ega bo'lmasin, 1861-yilgacha buxgalteriya hisobi fransuz modeli asosida rivojlangan. Ushbu Kodeks 1952, 1975, 1983, 1990 va 1991-yillarda qayta ko'rib chiqilgan.

Italiyada buxgalteriya hisobining keyingi rivojlanishiga mamlakat iqtisodiyotida kichik va o'rta biznesning hal qiluvchi o'rin tutishi katta ta'sir o'tkazmoqda. Mamlakatda bor-yo'g'i 213ta ochiq aksiyadorlik jamiyatlari mavjud bo'lib, ular asosan o'z aksiyalarini Milan fond birjasida sotish bilan kifoyalanishadi. Kichik va o'rta biznes subyektlari faolyatining ko'lami nisbatan kichik bo'lganligi sababli, mustaqil tashqi audit tekshiruviga bo'lgan ehtiyoj ham chegaralangan. Moliyaviy hisobotlar tasnifi va sifatiga soliq organlari va banklarning ta'siri kattaligacha saqlanib qolmoqda.

Mazkur mamlakatda buxgalterlik kasbining amal qilishi ham o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bu mamlakatda ikkita

kasb egasi hisob ishlari bilan shug'ullanishga haqli. Bular, buxgalter va tijorat direktori bo'lib, ular korxonada lavozimida o'tirmaydi, balki hisob ishlari bo'yicha mustaqil ekspertlik vazifasini bajarishadi. O'z o'rnida, auditorlarga buxgalteriya ishlari bilan shug'ullanishga ruxsat berilmaydi.

Lekin 1990-yilda Italiya Yevropa Ittifoqiga a'zo bo'lishi munosabati bilan uning ko'rsatmalarini ham bajarishga majbur bo'lmoqda. Xususan, Yevropa Ittifoqiga a'zo boshqa mamlakatlar kabi Italiya ham Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha o'z taqdirini belgiladi.

*Ispaniyada* buxgalteriya hisobining rivojlanish tarixi uning o'rta asrlardagi qudratli davlatchilik davrlariga borib taqaladi. Lekin buxgalteriya hisobining rasman joriy etilishi 1885-yilda qabul qilingan Tijorat kodeksi bilan bog'liqdir. Albatta, bu mamlakatda ham buxgalteriya hisobini rivojlanishiga Fransuz Hisobvaraqlar rejasi katta ta'sir etgan. U 1990-yilda Ispaniyaning "Umumiy hisobvaraqlar rejasi" joriy qilingunga qadar o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

1990 yilda Ispaniya Yevropa Ittifoqiga a'zo bo'lishi bilan unga a'zo boshqa mamlakatlar kabi buxgalteriya hisobining xalqaro standartlarida sekin-astalik bilan asosiy yo'nalishni belgilamoqda. Ispaniyada 1991-yildan boshlab Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarida belgilangan talablar majburiy qo'llanilmoqda.

*Yaponiyada* dastlabki hisob ishlari to'g'risidagi tarixiy ma'lumotlar 1520-yilda qayd etilgan. Aynan shu yillarda Hisob kitobini yuritish tartibi joriy etilgan. Yaponiyada 1865 yili ikkiyoqlama yozuvga asoslangan buxgalteriya hisobi xushxabar sifatida qabul qilingan, amaliyotga esa faqat 1872-yilda Yaponiya Milliy banki va Moliya vazirligining "Banklarda buxgalteriya hisobi usullari" (Ginko Boki Seiko) normativ hujjati e'lon qilingandan so'ng, inqilobiy ravishda qo'llanilgan.

Yaponiyada bugungi kunda buxgalteriya hisobini tartibga soluvchi qonun hujjatlari sifatida Tijorat, Soliq va Birja faoliyati bilan bog'liq qonun hujjatlari amal qilib turibdi. Yana shuni ta'kidlab o'tish joizki, Yaponiyada buxgalteriya hisobining ham Kontinental, ham Britan-Amerika modellari tamoyili qo'llanilib kelingan. Masalan,

1872-yilda Angliya varianti, 1890-yilda Germaniya qonunchilik hujjatlari, 1948-yilda Amerikacha birja huquqi qabul qilingan. 1950-yilda qabul qilingan “Nazorat normalari va uni amalga oshirish tartibi to‘g‘risida”gi qonun asosida korxonalarda ichki nazorati tashkil qilinadi, bu bevosita buxgalteriya hisobini tashkil qilish masalalariga tegishlidir. Yaponiyada buxgalteriya hisobi soliq siyosati talablari ostida rivojlanar ekan, aksariyat olimlar uni Kontinental modelga taalluqli deb hisoblashadi.

Bundan tashqari, ushbu mamlakatda korxonalar buxgalteriya hisobini tartibga solish maqsadida Ijtimoiy kollegiya faoliyat ko‘rsatadi. U, buxgalteriya hisobi va standartlari to‘g‘risida normativ hujjatlar qabul qilgan. Qo‘shimcha ravishda yana shuni aytish mumkinki, dunyoda faqat Yaponiyada moliyaviy hisobotlar foydalanuvchilarga ikki marta taqdim qilinadi.

So‘z buxgalteriya hisobi modellari ustida ketar ekan, bunda *Xitoy mamlakati* tarixini chetlab o‘tish adolatsizlikdir. Biz yuqorida, haqli ravishda Italiyani “Buxgalteriya hisobi fani beshigi” va Luka Pacholini esa uning asoschisi sifatida qayd etib o‘tdik. Agar, Italiya “Buyuk ipak yo‘li”ning g‘arb nuqtasida joylashgan bo‘lsa, Xitoy esa uning sharqiy nuqtasini egallagan. O‘zining uzoq tarixiy o‘tmishiga ega bo‘lgan (690 ming yillik) bu mamlakat nafaqat jahon taraqqiyotiga, balki iqtisodiy fanlar, jumladan buxgalteriya hisobi faniga ham salmoqli hissa qo‘shgan mo‘ysafid mamlakatlardan biridir.

O‘zlarini “Osmon ostidagi yerning qoq markazida yashovchi odamlar” deb atagan xitoyliklar eramizdan 2000 yil oldin biz o‘rganyotgan fanga tegishli bo‘lgan - “chjen” (mulk, kirim) va “fu” (qarz, chiqim va kamomad) kabi tushunchalardan foydalangan holda hisob ishlarini yuritgan. Hatto, dastlabki hisob vositalari hisoblangan “abak”ning ham vatani shu buyuk mamlakatdir. Dastlabki huquqiy tartibga solish qoidalari “Chjouli-Tyan-guan” eramizdan olingi 771-yilda kuchga kirganligi inson aqlini lol qoldiradi. Ushbu qoidalarga kiritilgan, kunlik va oylik taqqoslash ma‘lumotlari, yillik hisobotlar hamda Xitoy mentalitetiga xos bo‘lgan, hisob ishlariga javobgar

amaldorga nisbatan qo'yilgan talablar silsilasi to'g'risida fikrlar ekanmiz, ular bizni beixtiyor buxgalteriya hisobi bo'yicha bugungi kunda o'z yechimini kutib turgan dolzarb masalalar tomon yetaklaydi.

Xitoy davlatchilikka ega bo'lgandan boshlab, o'z boshidan imperatorlik davri, kommunistik rejim yoki bugungi rivojlangan bozor iqtisodiyoti tuzumini kechirgan bo'lishiga qaramasdan, buxgalteriya hisobi Hukumatning qat'iy nazorati ostida rivojlangan.

Xitoyda "Buxgalteriya to'g'risida"gi qonun dastlab 1914-yilda qabul qilingan va bugungi kunda, uning 1985 va 1993-yillarda qayta ishlangan tahriri amal qilmoqda. Bundan tashqari, buxgalteriya hisobini tartibga soluvchi turli normativ hujjatlar bilan bir qatorda 1927-yilda "Buxgalterlar to'g'risida"gi qonun joriy etilgan. 1951-yildan boshlab buxgalteriya hisobini tartibga solish Moliya vazirligi zimmasiga yuklatildi.

Yuqoridagi qonun hujjatlari nafaqat buxgalteriya hisobini yuritish va hisobotlar tuzish tamoyillarini, balki buxgalterning kasbiy va axloqiy malakasiga qo'yilgan huquqiy talablarni ham o'z ichiga oladi. Xitoy qonunchiligiga asosan buxgalter qonunchilikka zid bo'lgan biror ma'lumotni oshkor qilgan hollarda, bu haqda ma'muriyatga darhol xabar berishi lozim, aks holda uning ma'muriy jazoga tortilishi muqarrar. Bordi-yu, buxgalterining aybi bilan davlat yoki korxonaga moddiy ziyon **yyetkazilsa**, uni jinoiy javobgarlik jazolari kutib turadi.

Mazkur mamlakat buxgalteriya hisobining rivojlanish an'analarini o'rganar ekanmiz, so'zsiz u Kontinental buxgalteriya hisobi modeliga taalluqli ekanligini e'tirof etmasdan ilojimiz yo'q. Lekin global iqtisodiyotning asosiy ishtirokchilaridan bo'lganligi sababli, xitoyliklar mamlakatda qaror topgan buxgalteriya hisobi tamoyillarini qayta ko'rib chiqishga majbur bo'lmoqdalar. Xitoy buxgalteriya standartlari qo'mitasi (CASC) tomonidan 2006-yilda Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida buxgalteriya hisobining 38ta yangi standartlari qabul qildindi. Shunday qilib, azaliy tarixga va buyuk

madaniyatga ega bo'lgan mamlakat buxgalteriya hisobining rivojlanishi oqimi Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari ummoniga qo'shilib bormoqda.

*Janubiy Amerika* Argentina, Boliviya, Braziliya, Gayana, *modeli* Paragvay, Peru, Urugvay, Chili, Ekvador va boshqa mamlakatlarda qo'llaniladi.

Ushbu mamlakatlarda ikkinchi jahon urushidan so'ng uzoq davom etib kelayotgan surunkali inflyatsiya buxgalteriya hisobini yuritish qoidalariga ham o'z hukmini o'tkazmay qolmadi. Natijada, ushbu qit'aning ispan tilida gaplashuvchi mamlakatlarda inflyatsiya ta'sirini inobatga olgan holda hisob yuritish buxgalteriyaning asosiy tamoyili bo'lib xizmat qilmoqda. Buxgalteriya hisobi umummilliy Hisobvaraqlar rejasi asosida yuritiladi. Shu bilan birgalikda, buxgalteriya hisobi mazkur mamlakatlar Hukumatlarining iqtisodiy siyosati va topshiriqlari ijrosini ta'minlash uchun ham xizmat qilib kelmoqda. U shu ikki jihati bilan boshqa modellardan farq qiladi. Birinchidan, buxgalteriya hisobi inflyatsiya ta'sirini inobatga olgan holda hisob yuritish, ikkinchidan esa Hukumatlarining iqtisodiy siyosati va topshiriqlari ijrosini ta'minlashga yo'naltirilgan hisob siyosati yuritilmoqda. Oxirgi paytlarda ikkinchi jihatning roli oshib bormoqda.

Lekin 2011-yilning iyun oyida Lotin Amerikasi mamlakatlari buxgalteriya hisobi Moliyaviy hisobotlarining xalqaro standartlariga mos ravishda rivojlantirish bo'yicha GLASS (Group of Latin American Accounting Standard Setters)ning tuzilganligi, bu hudud mamlakatlari buxgalteriya hisobini ijobiy rivojlanish istiqbollari uchun umid uyg'otadi.

4. Jahon bozorida islom dini qonunchiligi bilan boshqariladigan mamlakatlarning banklari va boshqa moliyaviy tashkilotlarning paydo bo'lishi bilan buxgalteriya hisobini shariat qoidalariga tartibga solinuvchi *Islom modeli* yaratildi. Islom modeli – musulmonlarning muqaddas kitobi bo'lgan Qur'oni karimning talablarini inobatga olgan holda yuritiladi. Bunday qoidalar asosida inson qadr-qimmatini ulug'lash va chayqovchilik yo'li bilan olingan daromadlarni qoralashga bo'lgan axloqiy da'vat

yotadi. Shu sababli, buxgalteriya hisobida foizli daromadlar va dividendlar mavjud emas. Biznes natijasida hosil qilingan foyda ishtirokchilarning qo‘shgan ulushiga qarab, adolatli taqsimlanadi. Shu asnoda, islom modeli iqtisodiy manfaatga bo‘lgan intilish bilan ma‘naviy qadriyat bo‘yicha tuyg‘ularni uyg‘unlashtiradi.

Biz yuqorida buxgalteriya hisobining mavjud xalqaro modellari xususiyatlarini sanab o‘tdik. Bunday farqlar nafaqat modellar, balki ayrim mamlakatlar o‘rtasida ham yo‘q emas. Masalan, Amerika Qo‘shma Shtatlari moliyaviy hisobotlarida aktiv va majburiyat boshlang‘ich – tarixiy qiymatda aks ettiriladi, Meksikada esa ularga baholar o‘zgarishini hisobga olgan holda tuzatishlar kiritiladi. Amerika Qo‘shma Shtatlarida nomoddiy aktivlarning amortizatsiyasi davri 40 yilgacha deb ruxsat berilgan, Germaniyada esa bu talab 5 yil qilib qat‘iy belgilangan. AQShda gumonli daromadlarni ixtiyoriy hisobga olishga yo‘l qo‘yilmaydi, Yaponiyada esa xo‘jalik subyektlari hatto foydalariga ham o‘zgartirishlar kiritishi mumkin.

Buxgalteriya hisobi modellarining tahlili natijasida aniqlangan, ularning farq qiluvchi asosiy xususiyatlarini quyidagi jadvaldagi qiyosiy ma‘lumotlarda ko‘rish mumkin.

1.2-jadval

### **Buxgalteriya hisobi modellarining farq qiluvchi asosiy xususiyatlari**

<b>Buxgalteriya hisobi modellari</b>	<b>Farq qiluvchi asosiy xususiyatlari</b>
Britan-Amerika, (niderland)	Investor va kreditorlarni ishonchli ma‘lumotlar bilan ta‘minlashga yo‘naltirilgan. Kapital oqimi birjalar orqali aylanganligi sababli, uning tamoyillari birja manfaatlariga muvofiqlashtirilgan. Soliq hisobi alohida yuritiladi. Hisobvaraqlar rejasi tarmoq va sohalar xususiyatlariga mos holda qo‘llaniladi (yuritilmasligi ham mumkin).
Kontinental	Qat‘iy qonunchilik talablari asosida va Soliq siyoatiga mos holda konservativ tartibda hisob yuritiladi. Kapital oqimi Hukumat nazorati ostida banklar orqali aylanganligi uchun, uning tamoyillari Hukumat va bank manfaatlariga moslashtirilgan. Yagona Hisobvaraqlar rejasi amal qiladi.
Lotin Amerikasi	Hukumatning iqtisodiy siyosati ijrosini ta‘minlashga



	yo'naltirilgan. Inflyatsiya ta'sirini inobatga olgan holda hisob yuritiladi.
Islom	Shariat qoidalari bilan tartibga solinadi. Iqtisodiy manfaat bilan ma'naviy qadriyatlar uyg'unlashtirilgan.

Qo'shimcha ravishda yana shuni aytish mumkinki, buxgalteriya hisobining yetakchi namunaviy shakllari hisoblangan Kontinental va Britan-Amerika modellari o'zining quyidagi to'rt asosiy xususiyati bilan bir-biridan farq qiladi.

1. Xo'jalik subyekti faoliyatiga Hukumat boshqaruv tizimining ta'siri;
2. Kapital harakati shakllari;
3. Buxgalteriya hisobi tamoyillarining soliq siyosatiga bog'liqligi;
4. Buxgalteriya hisobi yuritilishining texnik talablari (Hisobvaraqlar rejasi, hisob reestrlari birlamchi hujjatlar va hisobot shakllari).

Buxgalteriya hisobining zamonaviy modellari buxgalteriya hisobining asosiy elementlari hisoblangan ikkiyoqlama yozuv, Hisobvaraqlar rejasi, hisob reestrlar va o'rnatilgan moliyaviy hisobot turlari kabi qoidalarga asoslangan holda rivojlanmoqda. Ayni paytda, hisob yuritish bo'yicha belgilangan texnik talablar o'rtasida farqlar saqlanib qolmoqda.

1.3-jadval

### **Buxgalteriya hisobi modellari o'rtasidagi texnik talablar bo'yicha mavjud farqlar**

<b>Buxgalteriya hisobi modellari</b>	<b>Belgilangan texnik talablar</b>
Kontinental model	Kontinental model - Birlamchi hujjatlar, Hisobvaraqlar rejasi, Bosh va Yordamchi kitoblar, Bosh jurnal, Kirish balansi va Yakuniy balans
Britan-Amerika modeli	Birlamchi hujjatlarni rasmiylashtirishga talablar, Soha va tarmoqlarga xos Hisobvaraqlar rejasi, Bosh va Yordamchi kitoblar, Bosh jurnal, Sinov balansi va Moliyaviy hisobotlar.

Biz yuqoridagi buxgalteriya hisobi modellari o'rtasidagi mavjud bir nechta farqlarni ko'rsatdik, xolos. Bunday farqlarni bartaraf etish va barcha mamlakatlar uchun bir xil (standart) moliyaviy hisobotlarni tuzish qoidalarini ishlab chiqish zaruriyati buxgalter mutaxassislarning kelajak orzusiga aylanib bormoqda. Shu istak tuyg'usi, nemislardek metin mentalitetga ega Germaniya, o'ta konservativ tizimga ega Italiya kabi mamlakatlarni zabt etib, hatto "Buyuk Xitoy devori"ni ham buzib o'tmoqda. Shu bois, iqtisodchi olimlar, bugungi kunda buxgalteriya hisobi asosiy moddellari sifatida ikkita model, - Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) hamda AQShning Buxgalteriya hisobining umum qabul qilingan qoidalari (GAAP) ustida ish olib bormoqdalar.

#### **1.4. BHXS Qo'mitasi-xalqaro tashkilot sifatida va uning vazifalari**

Bugungi kunda, buxgalteriya hisobining haqaro standarti sifatida ikkita etalon - Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari - MHXS (International Finansial Reporting Standards - IFRS) hamda AQShning Buxgalteriya hisobining umum qabul qilingan qoidalari - BHUQ (Generally Asssepted Assounting Prinsiples - GAAP) tan olingan.

Jahon fond bozorlarida listingdan o'tish uchun taqdim qilinadigan moliyaviy hisobot aynan shu ikki standart talablari asosida tayyorlanadi va taqdim qilinadi. Bunda shuni e'tiborga olish lozimki, AQSh fond bozori listingiga kirish uchun GAAP (BHUQ) talablari, qolgan fond birjalari uchun esa MHXS talablari asosida moliyaviy hisobot taqdim qilinadi.

To'g'ri, AQShning Buxgalteriya hisobining umum qabul qilingan qoidalarida "standart" so'zi mavjud emas. Lekin yuqoridagi standartlarga berilgan ta'riflarga muvofiq, GAAPni buxgalteriya hisobining xalqaro standarti sifatida qarashimiz mumkin. Ko'pgina xorijiy olimlar tomonidan ham GAAP xalqaro standart sifatida tan olinadi.

Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti hisoblangan GAAPni yaratilishida Anglo-sakson buxgalteriya hisobi qoidalari katta manba bo'lib xizmat qilgan. Shu bilan birga, uning nazariy asoslarini ishlab chiqishda mamlakatning, nafaqat buxgalteriya hisobi bilan bevosita shug'ullanuvchi olimlari, balki barcha iqtisodiy yo'nalishda faoliyat yurituvchi mashhur olimlar o'z hissalarini qo'shishgan. Lekin GAAPning rivojlanishida qanchalik ko'p omillar o'z izini qoldirmasin, u pozitivizm ta'siri doirasida shakllandi (pozitivizm-fanning rolini faktlar va hodisalarni yozib borishdangina iborat deb cheklab qo'yadi, ularning mohiyatini tushuntirib berishdan bosh tortadi, u asosan amaliyotga va tajribaga tayanadi). Ishonch bilan aytish mumkinki, GAAP AQSh iqtisodiyotining ellik yillik amaliy tajribasining mevasidir.

Amaldagi GAAP Amerika moliyaviy hisobi standartlari bo'yicha Kengash - FASB tomonidan ishlab chiqilmoqda. Unda 7 ekspert faoliyat yuritadi. Shu bilan birga, GAAPni ishlab chiqishda va qabul qilishda Amerika qimmatli qog'ozlar va birjalar bo'yicha Komissiyasi (SEC) katta ta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari, ushbu jarayonlarda Amerika ijtimoiy diplomli buxgalterlar instituti - AICPA, Amerika buxgalterlar assotsiatsiyasi - AAA va Davlat tashkilotlari hisobi uchun standartlar Boshqarmasi - GASB ham faol ishtirok etishadi.

GAAP jahonning boshqa mamlakatlari buxgalteriya hisobi standartlariga qanchalik sezilarli ta'sir ko'rsatmasin, u barcha mamlakatlarni qamrab ololmaydi. U, asosan AQSh fond bozori listingiga kiradigan mamlakatlar uchun talab o'rnatadi. Tabiiyki, bunday sharoitda, dunyoning boshqa mamlakatlari uchun buxgalteriya hisobining yangi xalqaro standartlari yaratilishi zaruriyati tug'iladi.

Ana shunday omillar ta'siri ostida, hozirda Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari qo'mitasi (MHXSQ) deb nomlangan Buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari qo'mitasiga (BHXSQ) asos solindi. Ushbu qo'mitalar tomonidan Buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari (BHXS) va Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) ishlab chiqilgan. O'quvchi to'liq tasavvurga ega

bo'lishi uchun, biz BHXSQ va MHXSQning faoliyati to'g'risida batafsilroq ma'lumotlar beramiz.

- 1973-yilning 29-iyunida 10ta yirik mamlakatlarning (Avstraliya, Kanada, Fransiya, Germaniya, Yaponiya, Meksika, Niderlandiya, Buyuk Britaniya, Irlandiya va Amerika Qo'shma Shtatlari) buxgalter va auditorlar uyushmasi tomonidan BHXSQga asos solindi.

- 1975-yilda ilk standartlar hisoblangan 1-BHXS (1975) "Hisob siyosati yoritilishi" va 2-BHXS (1975) "Tovar-moddiy zaxiralarni tarixiy qiymat bo'yicha hisob tizimi doirasida baholanishi va taqdim etilishi"larning yakuniy variantlari chop etilgan.

- 1989-yilda Yevropa buxgalterlar federatsiyasi (EBF) buxgalteriya standartlarining xalqaro uyg'unlashuvini va BHXSQ faoliyatida Yevropa mamlakatlarining yanada faol qatnashishini qo'llab-quvvatlaydi. Yevropa buxgalterlar federatsiyasi Kengashi (IFAS) davlat sektori korxonalarini uchun davlat tijorat korxonalarini tomonidan moliyaviy hisobotlarni tayyorlashda BHXSdan foydalanish majburiyatini yuklaydigan ko'rsatmalarni tasdiqlaydi.

- 1994-yilda BHXSQni nazorat qilish va moliyalashtirish masalalari bilan shug'ullanuvchi Maslahat Kengashiga asos solindi.

- 1995-yilda Yevropa Komissiyasi (EK) BHXSQ va QQKXT (Qimmatli qog'ozlar bo'yicha komissiyalarning xalqaro tashkiloti) o'rtasidagi asosiy standartlarni ishlab chiqishni yakunlash to'g'risidagi bitimni qo'llab-quvvatlaydi hamda Yevropa Ittifoqi mamlakatlariga BHXSni qo'llash majburiyatini yuklaydi.

- 1996-yilda Qimmatli qog'ozlar va AQSh birjalari bo'yicha Komissiyasi qimmatli qog'ozlarni xalqaro bozorlarda joylashtirishni amalga oshirish maqsadida moliyaviy hisobotni tayyorlashga doir standartlarni tezkor ishlab chiqish borasidagi BHXSQning tashabbusini qo'llab-quvvatlaydi.

- 1998-yilda "Katta yettilik" mamlakatlarining Moliya vazirlari va Xalqaro valyuta fondi (XVF) "Xalqaro moliyaviy arxitekturani mustahkamlash" maqsadida BHXSni qo'llab-quvvatlashga chorlaydi.

- 2000-yilda QQKXT o'z a'zolariga transmilliy kompaniyalar tomonidan qimmatli qog'ozlarni xalqaro fond bozorlariga joylashtirilishida BHXSQ standartlaridan foydalanishga ruxsat berishni tavsiya etadi.

- 2000-yilda BHXSQ a'zolari bo'lgan tashkilotlar BHXSQni qayta tashkil etishni va uning yangi nizomini tasdiqlaydi.

- 2001-yilda MHXSQ tarkibi va qo'mitaning yangi nomi e'lon qilinadi. BHXSQ Fondi tashkil etiladi. 2001-yil 1-aprelda MHXSQ BHXSQdan standartlarni chop etish va qabul qilish mas'uliyatini qabul qilib oladi. MHXSQ amaldagi BHXS va Sharhlash bo'yicha Doimiy qo'mitani (ShDQ) tasdiqlaydi.

- 2002-yilda Yevropa Ittifoqi tomonidan Yevropa Fond birjasida muomalada bo'lgan kompaniyalar aksiyalari uchun 2005-yildan boshlab MHXSni qo'llash majburiyatini o'rnatilishi belgilandi.

- 2002-yilda MHXSQ va Amerika moliyaviy hisobi standartlari bo'yicha Kengash - FASB o'rtasida konvergensiya (birlashtirish) to'g'risida bitim imzolandi.

- 2004-yildan boshlab MHXSQ majlislari Internet orqali uzatilmoqda.

- 2004-yilda MHXSning yakuniy variantlari va ShDQning birinchi loyihasi chop etilgan.

- 2005-yilda MHXS va Amerika moliyaviy hisobi standartlari o'rtasidagi farqlarni tushuntirish bo'yicha o'rnatilgan talablarni bekor qilish to'g'risida SECning Harakat rejasi qabul qilingan.


- 2008 yilda QQKXT moliyaviy hisobotlarni tayyorlashda MHXSQ tomonidan qabul qilingan standartlarga qat'iy rioya qilish to'g'risida ko'rsatma berdi.

- 2008-yilda MHXSQ va FASB 2014-yilda ko'pgina mamlakatlar, shu jumladan AQSh ham MHXSni qabul qilishlari munosabati bilan konvergensiya bo'yicha qo'shma loyihalarni tezlashtirishga qaror qilishdi.

- 2008-yilda Amerika ijtimoiy diplomli buxgalterlar instituti - AICPA, o'zining "Axloq kodeksi"da MHXSni buxgalteriya standartlarini o'rnatuvchi tashkilot sifatida tan oldi.

- 2009 – yilda MHXSK davlatlar va davlatlararo tashkilotlar vakillaridan iborat Kuzatuv kengashini ta’sis etdi.
- 2010 – yilda Vasiylar ikkinchi marta Nizomni qayta ko’rib chiqishdi. Oldingi BHXSQ Fondi nomi MHXSQ Fondi nomiga o’zgartirildi.

### Tartibga soluvchi organlar



### 1.1-rasm. MHXS Fondining tashkiliy tuzilmasi

Bundan tashqari, o'tkazilgan islohotlardan so'ng, Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari qo'mitasining tarkibiga MHXS Fondi va MHXS Kengashi (keyingi matnda Kengash) kiritildi. Bundan tashqari, uning tarkibida Standartlar bo'yicha maslahat kengashi (IFRS Advisory Council), Standartlar bo'yicha Sharx berish bo'yicha Qo'mita (IFRIC, IFRS) hamda MHXSni joriy etish bo'yicha tezkor xizmat faoliyat yuritishadi.

Yangi tashkil topgan MHXS qo'mitasining tarkibiy tuzilishi 1.1-rasmda keltirilgan.

O'tkazilgan islohotlardan so'ng, standartlar Kengash tomonidan ishlab chiqiladi va qabul qilinadi. Bugungi kunga qadar Kengash tomonidan 13ta yangi standartlar (International Financial Reporting Standards – IFRS) ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy qilinmoqda.

Kengash 16 a'zoga ega bo'lib, MHXS Fondiga hisobdor hisoblanadi.

MHXS Fondi– xususiy sektorning jamiyat manfaatlari maqsadida ishlaydigan, mustaqil, notijorat tashkilot bo'lib, uning asosiy maqsadi:

- MHXS standartlarni o'rnatadigan idora - Kengash tomonidan yuqori sifatli, tushunarli, amalda kuchga ega va xalqaro miqyosda tan olingan moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari yagona to'plamini ishlab chiqish;

- ushbu standartlarning joriy qilinishi va qat'iy qo'llanilishini ilgari surish;

- rivojlanayotgan mamlakatlar hamda kichik biznesning moliyaviy hisobot bo'yicha ehtiyojlarini hisobga olish;

- Kengash tomonidan chiqariladigan standartlar va tushuntirishlar bo'lmish Moliyaviy Hisobotning Xalqaro Standartlarini milliy standartlar va MHXSni konvergentsiyasi (birlashishi) orqali ilgari surish va ularning qabul qilinishini jadallashtirishdan iboratdir.

MHXSQ tomonidan standartlarni qabul qilish bo'yicha qat'iy tartibot tizimi ishlab chiqilgan. MHXSQ standartlarni qabul qilish va ishlab chiqishda qat'iy va oshkoralik tartibotlarga rioya qiladi. MHXSQ va Sharx berish bo'yicha Qo'mita majlislari veb-translyatsiya orqali oshkora o'tkaziladi. Standartlarni ishlab chiqish va qabul qilish quyidagi bosqichlardan iborat:

- ishlab chiqilishi lozim bo'lgan mavzu bilan bog'liq savollarni aniqlash va tahlil qilish, moliyaviy hisobot tuzish qoidalarini ushbu savollarga nisbatan qo'llash masalasini ko'rib chiqish;

- buxgalteriya hisobining milliy qoidalari va amaliyotini o'rganish, milliy standartlar o'rnatuvchi idoralar bilan fikrlar almashish;

- Kengash majlisi kun tartibiga ushbu masalani kiritish bo'yicha Maslahat Kengashi va vasiylar bilan kelishish;
- Kengashni maslahat bilan qo'llab-quvvatlash uchun maslahat guruhini tuzish;
- munozarali hujjatlar bo'yicha sharxlar olish uchun ularni nashr qilish;
- ko'pchilik ovoz (60%) bilan tasdiqlangan standart loyihasini sharxlar olish uchun, MHXSQ a'zolari o'rtasidagi tafovutli fikrlarini ilova qilgan holda nashr qilish;
- Standart loyihasini ma'qullashga asos bo'lgan omillarni nashr qilish;
- munozarali hujjatlar va standart loyihasi muhokamasi bo'yicha olingan sharxlarni oshkora ko'rib chiqish;
- zarur hollarda ommaviy ma'lumotlarni olish va aniq vaziyatlarda testlar o'tkazish;
- MHXSQ a'zolarining kamida 8 ovozi bilan standartni tasdiqlash;
- standartni qabul qilishda qo'llanilgan asoslar va standart loyihasi bo'yicha olingan sharxlar muhokamasi yoritilgan holda nashr qilish.

MHXS Fondi faoliyatini boshqarish va moliyalashtirilishini ta'minlash uchun javobgar bo'lgan MHXS (IFRS Foundation Trustees) Fondi vasiylari (keyingi matnda Vasiylar) tomonidan amalga oshiriladi. Vasiylar oshkora ravishda davlat idoralarining monitoringi bo'yicha Kengashiga hisob beradilar. Shuningdek, ular MHXS Fondining bilan xalqaro kapital bozorini tartibga soluvchi organlar bilan rasmiy hamkorligini ta'minlaydi.

Bundan tashqari, Buxgalteriya hisobining xalqaro standartlarini yaratish o'ta muhim va murakkab vazifa hisoblangani sababli quyidagi besh nufuzli xalqaro tashkilot ham uning faoliyatida faol ishtirok etishmoqda.

1. Birlashgan Millatlar Tashkiloti (UNO), qoshidagi xalqaro hisob va hisobot standartlari bo'yicha "Hukumatlararo ekspertlar guruhi".
2. Iqtisodiy hamkorlik rivojlanish tashkiloti (OECD).
3. Yevropa Ittifoqi - European Union (EU).
4. Xalqaro buxgalterlar federatsiyasi - International Federation of Accountants (IFAC).



5. Qimmatli qog'ozlar va birjalar bo'yicha Komissiya xalqaro tashkiloti (IOSCO).

2012-yildan boshlab Vasiylar jahonning barcha mamlakatlari vakillarini qamrab olish maqsadida Yevropa, Shimoliy Amerika, Osiyo/Okeaniya va boshqa barcha qolgan dunyo regionlariga bo'lingan holda faoliyat yuritishmoqda.

Yuqoridagi dalillarga asosan aytishimiz mumkinki, 2001-yildagi Buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari Qo'mitasida o'tkazilgan islohotlar natijasida BHXSning nomi MHXSga o'zgartirildi. Shunga mos ravishda Qo'mitaning nomi ham o'zgargan. Bu esa, ayrim iqtisodchi olimlarimiz tomonidan BHXS va MHXSlarni alohida standartlar sifatida xato talqin qilinishiga sabab bo'lmoqda. BHXS va MHXS yagona standartlar bo'lib, bugungi kunda ular – quyidagilardan iborat:

- a) Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari;
- b) Buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari;
- d) MHXSlarni Sharxlash bo'yicha Qo'mita (MHXSShQ) tomonidan chiqarilgan sharxlar;
- e) Sharxlash bo'yicha Doimiy Qo'mita (ShDQ) tomonidan chiqarilgan sharxlar.

Bu yerda yana shuni ta'kidlash lozimki, Moliyaviy hisobotning konseptual asosi standart hisoblanmaydi. Konseptual asos moliyaviy hisobotni tayyorlash va taqdim qilish asoslarini tashkil qiladigan qoidalarni belgilaydi, ya'ni:

- Kengashga yangi standartlarni ishlab chiqish va amaldagi standartlarni qayta ko'rib chiqishda yordam beradi;

- buxgalteriya hisobi bo'yicha muqobil yondashuvlarni kamaytirish va ularni uyg'unlashtirish uchun asoslar bilan ta'minlaydi;

- auditorlarga moliyaviy hisobotning MHXSga muvofiqligi yoki nomuvofiqligi to'g'risidagi xulosani shakllantirishda yordam beradi;

- moliyaviy hisobot tayyorlaydigan xo'jalik subyektlariga MHXSni qo'llashda yordam beradi.

Bizning fikrimizcha, MHXSQda amalga oshirilgan islohotlardan yana bir maqsad, shakl bilan mazmunni moslashtirishdan iborat bo'lgan. Ma'lumki, buxgalteriya hisobi hisob sikli bilan bog'liq bo'lgan barcha jarayonlarni, ya'ni buxgalteriya hisobiga oid ma'lumotlarni dastlab tan olish, zarur hollada ularni birlamchi hujjatlarda rasmiylashtirish, ma'lumotlarni hisobvaraqlarda va hisob reestrlarida qayd etish va moliyaviy hisobot tayyorlash bosqichlarini qamrab oladi. Albatta, foydalanuvchiga moliyaviy hisobot taqdim qilinadi. Shu bois, MHXSQ asosan, moliyaviy hisobotga nisbatan talablar o'rnatadi. Lekin bundan standartlar birlamchi hujjatlar, hisobvaraqlar va hisob reestrlarini inkor qiladi deb xulosa qilish noto'g'ri. Masalan, transformatsiya usulida milliy hisobotni MHXSga o'girishda hisobvaraqlarda yig'ilgan ma'lumotlardan foydalanishning o'zi ham yuqorida aytilgan fikrni tasdiqlaydi. Birlamchi hujjatlardagi ma'lumotlarsiz, nafaqat moliyaviy hisobot, balki oddiy hisobchilikka asoslangan hisobotlarni ham tuzish mumkin emas.

Hozirda MHXS – bu buxgalteriya hisobining xalqaro etaloni hisoblanadi, Xalqaro kapital bozorining o'zaro bog'liqligini inobatga olgan holda Moliyaviy Barqarorlik Forumi (Financial Stability Forum) tomonidan MHXS global iqtisodiyotning barqaror faoliyat yuritishi uchun zarur bo'lgan 12 global standartning biri sifatida tan olindi. Shu sababli, MHXSni qabul qilayotgan mamlakatlar kundankunga ko'payib u 150dan ortiq kasbiy uyushmalarni qamrab oldi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 26-noyabrdagi "2011-2015 yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida"gi PQ-1438-sonli Qaroriga muvofiq, bank-moliya tizimi buxgalteriya hisobi va hisobotini to'liq MHXSga moslashtirish ishlari olib borilmoqda.

Iqtisodiy adabiyotlarda "Buxgalteriya hisobi xalqaro standartlari" va "Moliyaviy hisobot xalqaro standartlari" kabi atamalar yoki shu nomdagi mavzularda ilmiy maqolalar berilmoqda. Ayrim olimlar ularni aynan bir xil

standartlar deb baholashsa, ayrimlari esa ularni bir-biridan farq qiluvchi turli standartlar, deb talqin qilishadi. Qolaversa, ularni mohiyati to'g'risida ham turlicha fikrlar hukm suradi.

Standart inglizcha so'z bo'lib, o'zbek tilida me'yor, namuna yoki o'lcham ma'nosini anglatadi. Shuningdek, u o'xshash obyektlarni taqqoslash uchun asos hisoblangan etalon sifatida ham e'tirof etiladi. Standart so'zining huquqiy ma'nosi esa, ma'lum obyektga nisbatan qo'llaniladigan me'yorlar, qoidalar va talablar majmui mujassamlashgan rasmiy me'yoriy hujjatdir.

Yuqoridagi standart so'zining lug'aviy va huquqiy mazmunlaridan kelib chiqib, "Buxgalteriya hisobi standartlari"ga buxgalteriya hisobini tartibga soluvchi aniq qoidalar to'plami deb ta'rif berishimiz mumkin. "Qoida" so'zi qonun hujjatlarida belgilangan qat'iy normalar yoki jamoatchilik tomonidan qabul qilingan asosiy tamoyillar bo'lishi mumkin. Standart buxgalteriya hisobi obyektiga yoki moliyaviy hisobot elementiga nisbatan aniq talablar o'rnatishi bilan, u buxgalteriya hisobining umumiy yo'nalishlarini belgilovchi buxgalteriya hisobi modellaridan farq qiladi.

Jahon olimlari tomonidan Standartlar, Buxgalteriya hisobining nazariy asoslarini yoritadi, Standartlar to'plami esa buxgalteriya hisobi asoslaridir, deb izoh berish odat tusiga aylangan. Masalan, AQSh olimlari Standartlar moliyaviy hisobotni tuzish qoidalari bo'lib, umumqabul qilingan tamoyillarni aks ettiradi, deb hisoblashsa, Alan Pizzey (Rossiya Federatsiyasi Buxgalteriya hisobini isloh qilish xalqaro markazi) moliyaviy hisobotni tayyorlash va taqdim qilish uchun ishlatiladigan norma yoki standartlar Buxgalteriya hisobi standartlaridir, deb xulosa bergan.

Ko'rinib turibdiki, olimlar o'rtasida "Buxgalteriya hisobi standartlari"ning mohiyatini yoritish bo'yicha jiddiy ziddiyatlar mavjud emas.

Ma'lumki, Buxgalteriya hisobi standartlari milliy va xalqaro standartlarga bo'linadi. Barcha mamlakatlarda buxgalteriya hisobini to'g'ri va aniq yuritish maqsadida buxgalteriya hisobini tartibga soluvchi tamoyillar va

qoidalar, ya'ni milliy standartlar ishlab chiqilgan. Jumladan, bizning respublikada 1996-yildan beri "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi qonun hamda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan qabul qilingan 24ta "Milliy standart"lar amal qilib turibdi.

Global integrallashgan iqtisodiyot sharoitida turli mamlakat xo'jalik subyektlari, banklari va boshqa moliyaviy korporatsiyalar o'rtasida iqtisodiy aloqalar o'rnatiladi. Bu esa, xalqaro hamkorlikdagi subyektlar bir-biriga zid kelmaydigan bir xil tamoyil va qoidalar asosida moliyaviy hisobotni tayyorlash uchun yagona "biznes tili"ga bo'lgan xalqaro standartlar yaratish talab etiladi.

### **1.5. O'zbekiston bank tizimida buxgalteriya hisobini MHXSGa moslashtirishning o'ziga xos xususiyatlari**

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 26-noyabrdagi "2011-2015 yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida"gi PQ-1438-sonli qaroriga muvofiq bank-moliya tizimi buxgalteriya hisobi va hisobotini to'liq MHXSGa moslashtirish ishlari olib borilmoqda.

Umuman, respublikamizdagi mavjud qanday omillar va xususiyatlar MHXSGa o'tish tadbirlariga ta'sir etmoqda? Ma'lumki, O'zbekistonda buxgalteriya hisobi sohasida o'tkazilgan islohotlarga qaramasdan hali buxgalteriya hisobiga kontinental model bo'yicha yondashish, ya'ni qat'iy qonunchilikka asoslangan hisob yuritish qoidalari saqlanib turibdi. Tabiiyki, MHXS talablari Kontinental modeldan katta farq qiladi.

Ushbu savolni yoritishda buxgalteriya hisobiga respublikada qaror topgan yondashish bilan MHXS o'rtasidagi asosiy farqlarni yoritishga harakat qilingan.

Bundan tashqari, Markaziy bank va Jahon banki mutaxassislari hamkorlikda olib borgan tahliliy ishlar natijasida respublika bank tizimida qo'llanilayotgan Markaziy bankning normativ hujjatlaridagi buxgalteriya

hisobi va prudensial talablar bilan amaldagi MHXS o'rtasida katta farqlar mavjudligi aniqlandi. Ular o'rtasidagi asosiy nomuvofiqliklar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Aktivlar qadrsizlanishining baholanishi.
2. Obligatsiyalarga va ulushli instrumentlarga qo'yilgan investitsiyalarni baholash.
3. Kreditlar bo'yicha komission haqning tan olinishi va baholanishi.
4. Muddati uzaytirilgan soliqlar.
5. Jamlash (konsolidatsiya).

Masalan, aktivlar qadrsizlanishining baholanishi Markaziy bankning "Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibi to'g'risida"da (2015-yil 14-iyulda 2696-son) belgilangan talablar asosida amalga oshiriladi.

1.4-jadval

### **MHXS talablariga umumiy yondashuv**

<b>Ko'rsatkichlar</b>	<b>O'zbekistonda</b>	<b>MHXSda</b>
Huquqiy asos	Rim-pruss huquqchiligiga asoslangan Fuqarolik huquqchiligi	Pretsedent huquqchiligiga asoslangan Umumiy huquqchilik
Huquqiy tizim	Har bir holat yoki har bir hodisani aniq qoidalar bilan tartibga soluvchi qonunchilik to'plamining mavjudligi, jumladan Fuqarolik va Soliq kodekslari	Ishni biridan boshqasiga o'tishni (pretsedent) muhokama qilish jaryonida rivojlanadigan huquqiy tizim
Tartibga soluvchi organlar	Davlat organlari (Moliya vazirligi, Markaziy bank)	Mustaqil kasbiy uyushmalar (IASB)
Kapitalning shakllanish usuli	Davlat, kreditorlar, aksiyadorlar	Mayda aksiyadorlarning keng qatlami
Moliyaviy hisobotni soliq qonunchiligi bilan bog'liqligi	kuchli	kuchsiz

<b>Ko'rsatkichlar</b>	<b>O'zbekistonda</b>	<b>MHXSda</b>
Moliyaviy hisobotni tuzishga malakaviylik va davlat nazorati	Moliyaviy hisobotni tuzish davlat tomonidan kuchli nazoratga olinadi	Moliyaviy hisobotni tuzishda kasb mutaxassislarining malakaviy muhokamasiga asoslanadi
Hisobvaraqlar rejasi va moliyaviy hisobotlar shakliga qo'yilgan talablar	Hisobvaraqlar rejasi va moliyaviy hisobotlar shakli, shuningdek, hisobot davri bo'yicha hammaga bir xil talab o'rnatilgan	Hisobvaraqlar rejasi va moliyaviy hisobotlar shakli, shuningdek, hisobot davri kasb mutaxassislarini malakaviy muhokamasiga asoslanadi
Fond bozori	Kuchsiz rivojlangan	Deyarli jahondagi barcha fond bozorlari

Moliyaviy aktivlar hisobini belgilovchi MHXSning 39-sonli "Moliyaviy instrumentlar: tan olish va baholash" standartida aktivlarning qadrsizlanishi bo'yicha aniq normalar o'rnatilmagan. MHXSning qadrsizlanish bo'yicha tegishli qoidalarining ta'siri turli bankka turlicha bo'ladi, chunki bu ularning kredit portfellarining tarkibiga va ular beradigan ma'lumotning turiga bog'liq. Aktivlar haqqoniy qiymatda baholanganda, foyda yoki zarar foyda va zararlar to'g'risidagi hisobotga yoki rezervlarga ta'sir qilishi mumkin. Agarda amortizatsiyalangan qiymatda baholangan moliyaviy aktivlar bo'yicha qadrsizlanish zarari mavjudligi to'g'risida obyektiv dalil mavjud bo'lsa, ko'rilgan zarar summasi moliyaviy aktivning balans qiymati bilan uning dastlabki effektiv foiz stavkasi bo'yicha kelgusi pul oqimlarining diskontlagan holda baholangan qiymati o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadi.

Markaziy bankning "Foizlarni o'stirmaslik to'g'risida Nizom" (2004-yil 24-yanvar, ro'yxat raqami 1304) qoidalari ham Bazel 1 talablari asosida o'rnatilgan bo'lib, MHXS talablaridan farq qiladi. Ma'lumki, 1304-sonli Nizomga asosan banklar kreditlar, qimmatli qog'ozlar va boshqa moliyaviy aktivlar bo'yicha foizlar hisoblashni quyidagi hollarda to'xtadi:

- aktiv Markaziy bankning 2696-sonli tartibiga ko'ra qoniqarsiz, shubhali va umidsiz toifalar bo'yicha tasniflaganda;

- aktiv MHXS bo'yicha qadrsizlanganda;

- qisqa muddatli kreditlar bo'yicha asosiy summani qaytarish va aktiv bo'yicha hisoblangan foizlar to'lov muddati 60 kundan kechiktirilganda;

- uzoq muddatli kreditlar bo'yicha asosiy summani qaytarish va aktiv bo'yicha hisoblangan foizlar to'lov muddati 90 kundan kechiktirilganda.

1.5-jadval

**Markaziy bankning aktivlarni tasniflash va zaxiralarni shakllantirish bo'yicha qoidalari**

<b>Zaxiralarni shakllantirish bo'yicha mezonlar</b>	<b>Markaziy bankning prudensial qoidalariga binoan zaxiralarni shakllantirish</b>
Umidsiz	100%
Shubhali	50%
Qoniqarsiz	25%
Substandart	10%
Standart	1%

Aktivga nisbatan "Foizlar o'stirmaslik" maqomi berilgandan so'ng, mazkur aktiv bo'yicha hisoblangan foizlar summasi qaytadan daromaddan chiqariladi va keyingi foiz hisoblashlar balansdan tashqari hisobvaraqlarda olib boriladi.

Banklarda "Odatdagi faoliyatdan olinadigan daromad" MHXS-18 bo'yicha, daromad bo'lg'usi iqtisodiy foydaning olinish ehtimoli mavjud bo'lganida va ushbu foyda ishonchli darajada baholanishi mumkin bo'lganda tan olinadi. Agar, iqtisodiy foydaning olish ehtimoli mavjud bo'lmasa yoki past bo'lsa va oldin daromad sifatida tan olingan summaning kelib tushish ehtimoli bo'yicha noaniqliklar vujudga kelsa, o'sha summa xarajat sifatidan tan olinadi. Daromadga tuzatishlar kiritilmaydi.

Xuddi shunday ziddiyatlar kreditlar bo'yicha vositachilik haqlarini hisoblashda ham mavjud. Xususan,

“Tijorat banklarida kreditlarning buxgalteriya hisobi tartibi to‘g‘risida Nizom”ga (ro‘yxat raqami 1435, 2004-yil 17-dekabr) muvofiq, kredit bo‘yicha vositachilik haqlari oldin muddati kechiktirilgan daromadga olinib, so‘ngra kreditning muddatga mos ravishda bankning “Kreditlar bo‘yicha vositachilik daromadlari” hisobvarag‘iga olib boriladi. MHXSga binoan, kredit shartnomasi bilan bog‘liq barcha xatarlar kabi komission haqlar ham kapitallashtirilishi va tegishli kreditlarning so‘ndirish muddati davomida amortizatsiya qilinishi lozim.

MHXSning moliyaviy instrumentlarni baholash standarti, BHXS 39-“Moliyaviy instrumentlar: tan olish va baholash” bankdan qarz va ulushli instrumentlarga joylashtirilgan moliyaviy investitsiyalarni 4 toifaga ajratishni talab qiladi. Har bir toifaning hisobga olinishi yondashuvi bir-biridan farq qiladi. Investitsiyalar haqqoniy qiymatda yoki tannarxda baholanishi mumkin. Aktiv haqqoniy qiymatda baholanganda, undagi o‘zgarishlar foyda va zararlar to‘g‘risidagi hisobot yoki zaxiralarda o‘z aksini topadi. MHXS 39 “Moliyaviy instrumentlar: tan olish va baholash”ning qadrsizlanish bo‘yicha talablarining ta‘siri shundan iboratki, bu banklarning moliyaviy hisobotlarida zaxiralarni aniq belgilangan normalariga asoslangan holda emas, balki haqiqatda ko‘rilgan zararlarga asoslangan holda shakllantirishni ko‘zda tutadi.

“O‘zbekiston Respublikasi banklarida asosiy vositalarning buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi Yo‘riqnomaga (ro‘yxat raqami 1434, 2004-yil 17-dekabr) muvofiq, banklar MHXSda ruxsat berilgan bir necha usullarda amortizatsiya ishlarini amalga oshirishlari mumkin. Lekin banklar asosiy vositalar amortizatsiyasini faqat to‘g‘ri chiziqli usulda, O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 144-moddasida belgilangan me‘yorlarga qat’iy rioya qilgan holda amalga oshirishga majbur. Bundan tashqari, 1434-sonli Nizomda o‘rnatilgan asosiy vositalarni majburiy qayta baholash MHXS qoidalariga to‘la ziddir. Bundan tashqari, milliy qonunchilikka muvofiq asosiy vosita to‘la amortizatsiya qilingandan so‘ng, undan yana foydalanishga qaror qilingan hollarda amortizatsiya qilish to‘xtatiladi. MHXSga



muvofiq esa, bunday hollarda asosiy vositaning xizmat qilish muddati qayta ko'rib chiqiladi.

MHXS bilan soliq qoidalari o'rtasida ham farqlar mavjud. Aslida, bunday farqlar har doim mavjud bo'ladi. Respublika bank tizimida soliq qoidalaridan ayrim hollarda moliyaviy hisobotlarni tayyorlash maqsadida foydalaniladi. Bu xalqaro amaliyotga mos kelmaydi, chunki moliyaviy hisobotlar buxgalteriya hisobi standartlariga asoslangan bo'lishi kerak va soliq qoidalaridan faqat soliq organlariga soliqqa oid moliyaviy hujjatlarni topshirishda foydalaniladi. Markaziy bankning amaldagi qoidalari bankning soliq majburiyatlarini hisoblash uchun buxgalteriya hisobiga tuzatish kiritilishini talab qilmaydi. Natijada, farqlar paydo bo'lishi mumkin, chunki soliq majburiyati tegishli operatsiya to'g'risida axborot berilgan davrdan boshqa davrda vujudga keladi.

Jami soliq summasi bankning tegishli davr bo'yicha moliyaviy hisobotiga asoslanishi uchun joriy soliq xarajatlariga o'zgartirish kiritish talab etilishi mumkin. Bunday o'zgartirish MHXSda soliq aktivlari va/yoki majburiyatlarini tan olinishi deb ataladi. Lekin tijorat banklariga soliq solish qoidalari milliy qonun hujjatlariga, avvalo O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi va Markaziy bankning yuqoridagi normativ hujjatlari talablari asosida amalga oshiriladi. Agar, banklar MHXS talablari bo'yicha kreditlarni baholashsa va zaxiralar shakllantirsalar va ularning miqdori Markaziy bankning 2692-sonli Tartibda belgilangan normalardan ko'p bo'lsa, tabiiyki, bu soliq qonunchiligiga zid bo'lib qoladi.

Ma'lumki, respublika banklari to'liq yoki qisman nazorat qiladigan shu'ba korxonalariga yoki tasarrufida bo'lgan boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlarga egalar. Bunday hollarda, banklar guruh tarkibiga kiradigan subyektlarning moliyaviy hisobotlari qay tarzda jamlanishi lozimligini ko'rsatib beradigan MHXS talablari bo'yicha jamlangan (konsolidatsiyalangan) hisobotlar tuzishlari lozim. Chunki, bu o'z navbatida moliyaviy hisobotlardan foydalanuvchilarga bank guruhi ichida moliyaviy xatarlar bo'yicha to'liq ma'lumot beradi. Shu maqsadlarda MHXS

Kengashi tomonidan 2011-yilda uchta yangi standart chiqarildi.

Markaziy bankning jamlash bo'yicha amaldagi qoidalari MHXSning jamlash bo'yicha talablariga qaraganda ancha tor bo'lib, foydalanuvchilar uchun zarur barcha ma'lumotlarni o'zida mujassamlashtira olmaydi. Shu sababdan, guruhning boshqa qismlarida vujudga keladigan xatarlar Markaziy bankning qoidalariga binoan tuzilgan moliyaviy hisobotlarda aks ettirilmasligi mumkin. Hatto kredit riski respublika banklari uchun asosiy riskni tashkil etsa ham, unga nisbatan bozor riski va likvidlik riski kamroq bo'lsa ham, moliyaviy hisobotlarda kredit riski to'g'risida ma'lumot berish hali minimal darajada.

Albatta, MHXSGa muvofiq tuzilgan moliyaviy hisobotlar investorlar va reyting agentliklari tomonidan yaxshiroq iqtisodiy qarorlar qabul qilinishiga yordam beradi. Bank sektorini nazorat qilish uchun va o'z vaqtida nazoratga tegishli to'g'ri choralarni ko'rish uchun, regulyator ham ko'proq o'rinli bo'lgan axborotga ega bo'ladi.

Ko'rinib turibdiki, Markaziy bankning normativ hujjatlari qoidalari bilan MHXSdan ancha farq qiladi. Hisobotlar tarixiy qiymatda emas, haqqoniy qiymatda tuzilishi, bunda, pulning vaqt davomidagi qiymatidan foydalanish lozim. Bundan tashqari, respublika bank tizimida prudensial nazorat bo'yicha hali Bazel I talablari qo'llanilmoqda. Bazel qo'mitasi tomonidan chop etilgan, qayta ko'rib chiqilgan Bazel asosiy tamoyillari bevosita yoki bilvosita korporativ boshqaruv, moliyaviy hisobot, audit va shaffoflik bilan bog'liq bo'lgan to'rt tamoyilni o'z ichiga oladi.

Markaziy bankning qoidalari va amaliyotlari bu tamoyillar bilan faqat qisman hamohang. Masalan, Markaziy bank auditorlik qo'mitasining vazifalari, boshqaruv rahbariyatining tajribasi, ichki auditning vazifalari va moliyaviy hisobotlarning chop etilishi va buxgalteriya hisobining yuritilishi bo'yicha qoidalarni to'g'ri o'rnatgan.

Lekin shaffoflik, oshkoralik, xalqaro tan olingan moliyaviy hisobotlar, kengash a'zolari va rahbariyatning tajribasi va bilimlari masalalarida nomuvofiqliklar mavjud.

Markaziy bank qoidalari Bazil asosiy tamoyillariga to'la mos kelishini ta'minlash uchun yangilanishi va ularni amalda qo'llash uchun mukammallashtirish talab etiladi.

Ma'lumki, mamlakat iqtisodiyoti yoki uning biror katta sohasining buxgalteriya hisobini MHXSga to'la o'tkazish katta moddiy va intellektual resurslar hamda huquqiy sharoitlar mavjud bo'lishini talab qiladigan tadbir bo'lib, u uzoq davom etadigan murakkab jarayondir. Jahon mamlakatlarining MHXSga o'tish tajribasi ham shunday xulosa qilishga asos bo'ladi. Agar MDH mamlakatlari ichida ushbu islohotlarni eng muvaffaqiyatli olib borayotgan Qozog'iston Respublikasini misol tariqasida keltirsak, bu mamlakatda moliya tashkilotlari (shu jumladan, banklar ham) uchun mazkur jarayon 1995-yildan to 2003-yilgacha davom etdi. Rossiya Federativ respublikasida kredit tashkilotlari (shu jumladan, banklar ham) uchun bu muddat 2004-yil qilib belgilanganiga qaramasdan, bu vazifa bugungi kungacha hali uddalangani yo'q.

Yevropa Ittifoqi tomonidan faqat Yevropa Fond birjasida muomalada bo'lgan kompaniyalar aksiyalari uchun 2005-yildan boshlab MHXSni qo'llash majburiyati o'rnatildi. Ayni paytda, Yevropa mamlakatlarida MHXS har bir mamlakatning milliy standartlari bilan birgalikda (parallel) yuritilmoqda.

Respublika bank tizimi buxgalteriya hisobi va hisobotini MHXSga moslashtirishning ikkinchi bosqichidan uchinchi bosqichgacha bo'lgan davrda, ya'ni 2003-2010-yillar oralig'ida respublika bank tizimi MHXSQ bilan aloqa o'rnatmaganligi sababli, undan uzilib qoldi. Shu davrda MHXSK tomonidan 13ta yangi standartlar (International Financial Reporting Standards – IFRS) ishlab chiqilgan va boshqa standartlarga jiddiy o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan. Markaziy bankning buxgalteriya hisobini tartibga soluvchi normativ hujjatlari esa deyarli o'zgarmagan. Natijada, islohotlarning ikkinchi bosqichida ishlab chiqilgan normativ hujjatlar MHXS talablariga mos kelmay

qoldi yoki ular bizning milliy standartlarimizga aylanib ulgurdi. Respublika banklari shu yillar davomida o'sha davr normativ hujjatlari talablari asosida buxgalteriya hisobini yuritib, moliyaviy hisobotlarni tuzib kelmoqda. Jahon banki vakillari tomonidan (A.Busuyok, Sh.Dauoman) ta'kidlaganidek, bugungi kunda MHXS bo'yicha hisobotlar banklarning, shu jumladan Markaziy bankning moliyaviy hisobotlari ham tashqi audit xodimlari tomonidan tuzilmoqda.

MHXSning konseptual asoslariga ko'ra, moliyaviy hisobotni tayyorlash uchun xo'jalik subyektining o'zi javobgardir. U moliyaviy hisobotni tayyorlashni uchinchi tomonga topshirmasligi kerak. Moliyaviy hisobotni tayyorlash jarayoni boshdan oxirigacha hisobotni tayyorlaydigan xo'jalik subyektini tomonidan amalga oshirilishi lozim, tashqi auditor tomonidan emas. Shunday talablar milliy qonun hujjatlarimizda ham o'rnatilgan. Xususan, O'zbekiston Respublikasining "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi qonunining 16-moddasiga muvofiq audit tekshiruvi o'tkazilayotgan xo'jalik subyektiga auditorlik tashkiloti tomonidan moliyaviy hisobot tuzish taqiqlanadi.

Demak, tashqi auditorning moliyaviy hisobotni tayyorlashga daxli bo'lmasligi kerak. Tashqi auditor moliyaviy hisobot ishonchliligi va obyektivligi to'g'risida xulosa chiqaradi. Tartibga soluvchi idoralar moliyaviy hisobotni tayyorlaydigan xo'jalik subyektlari va auditorlar o'z vazifasini samarali bajarishi uchun institutsional va huquqiy asos mavjud bo'lishini ta'minlaydilar. Tartibga soluvchi idoralar moliyaviy hisobot buxgalteriya hisobi standartlarining mumkin bo'lgan buzilishini tekshira oladilar. Shuningdek, ular moliyaviy hisobotni auditorlar auditni qonunchilikga muvofiq ravishda o'tkazishini ta'minlash uchun tekshirishlari mumkin.

Jahon banki tomonidan ishlab chiqilgan "O'zbekiston Respublikasining bank tizimida moliyaviy hisobotni takomillashtirish: Mamlakat strategiyasi va chora-tadbirlar rejasi"da Markaziy bank MHXSni bank tizimida o'zbek tilidagi rasmiy varianti asosida joriy etishini ta'minlash,

Markaziy bank u tomonidan chiqarilgan nizom va yo'riqnomalarni prudensial maqsadlarda qayta ko'rib chiqishi va kelgusida Markaziy bank birorta ham buxgalteriya hisobiga doir nizomni ishlab chiqarmasligi taklifi berilgan.

1.6-jadval

**O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan  
tijorat banklarini MHXSga muvofiqlashtirish bo'yicha  
amalga oshirilgan chora-tadbirlar**

<b>T/r</b>	<b>O'tkazilgan tadbirlar nomi</b>
1	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2011-2015 yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida"gi 2010-yil 26-noyabrdagi PQ-1438-sonli qarori ijrosini ta'minlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki bilan Jahon banki o'rtasida tuzilgan "Bank tizimida moliyaviy hisobotlar va auditni takomillashtirish loyihasi" 2012-yilning 30-avgustida o'z ishini boshladi.
2	2013-yilning yanvar oyida O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, Moliya vazirligi, Jahon banki va Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari Fondi o'rtasida Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini o'zbek tiliga rasmiy tarjima qilish bo'yicha mualliflik huquqi berishga shartnoma imzolandi. 2013-yil davomida Jahon banki mutaxassislari tomonidan "Bank sohasida moliyaviy hisobotlar va auditni takomillashtirish" mavzusida Markaziy bank xodimlari, barcha tijorat banklari bosh buxgalterlari, O'zbekiston buxgalterlari va auditorlari Milliy assotsiatsiyasi, O'zbekiston Auditorlar palatasi xodimlari uchun to'rt marta o'quv seminarlari (23-24 yanvar, 27-28 fevral, 20-25 aprel hamda 12-16 noyabr kunlari) o'tkazildi.
3	Yuqorida ko'rsatilgan PQ-1438-sonli qaror ijrosini ta'minlash bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va Jahon banki bilan tuzilgan "Bank tizimida moliyaviy hisobotlar va auditni takomillashtirish loyihasi"da belgilangan vazifalar doirasida, 2013-yilning 12-16 noyabr kunlari Jahon banki mutaxassislari tomonidan Markaziy bank xodimlari, barcha tijorat banklari bosh buxgalterlari, O'zbekiston buxgalterlari va auditorlari Milliy assotsiatsiyasi, O'zbekiston Auditorlar palatasi xodimlari uchun O'zbekiston Respublikasi bank-moliya akademiyasida "Bank sohasida moliyaviy hisobotlar va auditni takomillashtirish" mavzusida seminar o'tkazildi.
4	O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va Jahon banki bilan tuzilgan "Bank tizimida moliyaviy hisobotlar va auditni takomillashtirish loyihasi"da belgilangan vazifalar doirasida Jahon banki tomonidan ishlab chiqilgan "O'zbekiston Respublikasining bank tizimida moliyaviy hisobotni takomillashtirish: Mamlakat

	strategiyasi va chora-tadbirlar rejasi” (keyingi o‘rinlarda “Strategiya” deb yuritiladi) 2013-yil 23-oktyabrda 0382/13-sonli xat orqali Respublika Markaziy bankiga va tegishli vazirliklarga taqdim etilgan.
5	Markaziy bankning 2013-yil 11-fevralda 164 va 165-sonli farmoyishlariga asosan tuzilgan ishchi guruhi a‘zolari bilan 2013-yil 21-noyabr kuni taqdim etilgan Strategiya loyihasining muhokamasi bo‘yicha Jahon banki mutaxassislari (A.Busuyok, Sh.Dayouman) ishtirokida uchrashuv o‘tkazildi. Uchrashuvda Strategiya loyihasi va MHXSni joriy etish masalasi keng va atroflicha muhokama qilindi va Strategiya loyihasi yuzasidan Markaziy bank takliflari Jahon bank vakillariga taqdim etilgan.
6	O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki, Moliya vazirligi, O‘zBAMA hamda MHXS Fondi o‘rtasidagi tuzilgan shartnomaga asosan O‘zBAMA tomonidan amalga oshirilgan MHXSning davlat tilidagi tarjima loyihasi O‘zbekiston buxgalterlari va auditorlar Milliy Assotsiatsiyasi (O‘zBAMA)ning 2013-yil 24-dekabrda 220-sonli xati bilan Markaziy bankka ko‘rib chiqish va xulosa berish uchun taqdim etildi. MHXSning davlat tilidagi tarjimasi loyihasi yuzasidan 2014-yil 24-yanvarda 15-18/100-sonli xat orqali Markaziy bankning taklif va e‘tirozlari O‘zbekiston buxgalterlari va auditorlar Milliy Assotsiatsiyasiga yuborilgan.
7	O‘zbekiston buxgalterlar va auditorlar Milliy Assotsiatsiyasining 2014-yil 10-fevralda 33-sonli xatiga Markaziy bank tomonidan joriy yilning 21-fevral kuni 15-18/264-sonli xat orqali javob yuborildi. Ushbu javob xatida MHXSni o‘zbek tilidagi tarjimasi O‘zbekiston buxgalterlari va auditorlar Milliy Assotsiatsiyasining 2013-yil 6-martdagi 14/a va 15/A-sonli buyruqlari bilan tashkil etilgan Qo‘mitaning rasmiy qarori bilan tasdiqlanishi hamda O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining tegishli xulosasi olingandan so‘ng, Markaziy bank tomonidan mazkur MHXSning o‘zbek tilidagi tarjimasi me‘yoriy hujjat sifatida tasdiqlanishi va amaliyotga joriy etilish bo‘yicha choralar ko‘rilishi lozimligi bildirilgan.
8	O‘zbekiston buxgalterlari va auditorlar Milliy Assotsiatsiyasining 2014-yil 18-martdagi 53-sonli xat bilan taqdim etilgan MHXSning davlat tilidagi tarjimasi amaliyotga tatbiq etish yuzasidan tegishli Departament va mustaqil boshqarmalarga yuborildi. Shuningdek, O‘zbekiston Banklari uyushmasida shu yilning 8-sentyabrida “Deloyt va Tush” auditorlik tashkiloti tomonidan “O‘zbekiston Respublikasi banklari va moliya institutlarida buxgalteriya hisobi va soliq solish masalalari” mavzusida seminar o‘tkazildi. Ushbu seminarda MHXS talablari asosida moliyaviy hisobot tayyorlash, bank tizimida soliqqa tortish, kredit tavakkalchiligi va kredit amaliyotlarini avtomatlashtirish jarayoni, korporativ boshqaruvni joriy qilish va takomillashtirish hamda korporativ mijozlarga qo‘shimcha moliyaviy xizmatlarni ko‘rsatish kabi dolzarb masalalar ko‘rib chiqilgan.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi "Buxgalteriya hisobi to'g'risida" qonunining 5-moddasi uchinchi qismida banklarning buxgalteriya hisobi va hisobotini tartibga solish O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshirilishi belgilangan.

Shu munosabat bilan, yuqorida aytilgan Respublika Prezidentining PQ-1438-sonli qarori talablarini amalga oshirish shakli sifatida Markaziy bankning normativ hujjatlari va asosiy mas'ul ijrochi sifatida tabiiyki, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ko'rsatilgan. Demak, Markaziy bankning asosiy vazifasi O'zbekistonning bank tizimda MHXSni joriy etish va uning qo'llanishini tartibga solishdan iborat bo'ladi va bu borada Markaziy bank tomonidan tegishli ishlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, respublikada buxgalteriya hisobini MHXSga moslashtirish bo'yicha manfaatdor bo'lgan Moliya vazirligi, Adliya vazirligi, Soliq qo'mitasi kabi davlat idoralari hamda O'zbekiston banklar assotsiatsiyasi, O'zbekiston buxgalterlar assotsiatsiyasi va O'zbekiston buxgalterlar federatsiyasi kabi kasbiy tashkilotlar borligi quvonarli holdir. Respublikada faoliyat olib boruvchi xalqaro auditorlik tashkilotlari ham bu tadbirlarda faol ishtirok etishi lozim bo'lgan manfaatdor tomonlarning biridir. Bu tashkilotlar banklarni audit tekshiruvidan o'tkazadilar va hozirda banklarning MHXSga mos keladigan moliyaviy hisobotlarini tuzadilar.

Tijorat banklari bu tadbirlarning muhim ishtirokchisi hisoblanadi, chunki ular o'z moliyaviy hisobotlarini tuzish uchun javobgardirlar. Ularning manfaatdorligisiz, ishtirokisiz va kuchli ko'magisiz Markaziy bank bu chora-tadbirlar rejasini samarali uddalashi qiyin. Bundan tashqari, har bir bank ular MHXSni qay tarzda qo'llashlarini tushuntirib beradigan aniq reja qabul qilishlari lozim bo'ladi. Bunday reja quyidagilarni o'z ichiga olishi zarur:

- banklar o'z moliyaviy hisobotlarini takomillashtirishi uchun o'zlarining buxgalteriya hisobi bo'limlariga tegishli o'zgartirishlar kiritish choralari ko'rishi;

- buxgalteriya hisobi va audit sohalarida operatsion xodimlarni o'qitish rejasini tuzish;

- MHXSni qo'llash va unga rioya qilish uchun yangi boshqaruv axborot tizimlari va ichki nazorat xizmatlarini tashkil etish;

- bank xodimlarini, auditorlik qo'mitasi va boshqaruv a'zolarini MHXS va boshqaruv sohalarida o'qitish va tayyorlash.

Shu imkoniyatlaridan foydalangan holda yuqoridagi manfaatdor bo'lgan vazirlik va idoralar bilan birgalikda Hukumat doirasida doimiy faoliyat ko'rsatuvchi "Kengash" tuzish foydadan holi bo'lmaydi.

Shuningdek, Respublikaning amaldagi qonun hujjatlarini, jumladan, O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi va "Audit to'g'risida"gi qonunlarining moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlarga muvofiq yangi tahririni ishlab chiqish, soliq qonunchiliga tegishli o'zgartirishlar kiritish, bunda MHXS qonun hujjati sifatida qabul qilish lozim deb hisoblaymiz.

Banklarning bosh buxgalterlari har bir bankda MHXSni qo'llashda asosiy harakatga keltiruvchi kuch sifatida muhim rol o'ynaydilar. MHXS qo'llanilishi uchun banklarning bosh buxgalterlari yetarli imkoniyatlarga ega bo'lishlari lozim. Hozirgi vaqtda, barcha hisobotlar – moliyaviy, soliq va boshqaruv hisobotlari buxgalterlar tomonidan tayyorlanadi. Bosh buxgalterlarning vazifalari va ish hajmi odatda, bosh buxgalter roli va vazifalariga kirmaydigan ish va vazifalar bilan oshib-toshib ketgan. Shu sababli, bosh buxgalterlardan kredit qo'mitalari a'zosi bo'lish va moliyaviy hisobotni tayyorlash jarayoniga taalluqli bo'lmagan hujjatlarni tasdiqlash va imzolash, shu bilan birga, ayrim banklarda aktivlar va majburiyatlarni boshqarish kabi ularga biriktirilgan qo'shimcha vazifalar kamaytirilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ko'p mamlakatlarda MHXSning qo'llanilishi tajribasi shuni ko'rsatadiki, to'liq shaffoflik va oshkoralik madaniyat sohalaridan biri bo'lib hisoblanadi va buxgalteriya hisobi sohasida texnikaviy malaka va MHXSlarga mos keladigan tegishli axborot texnologiyalari tizimlarining mavjudligiga



qo‘shimcha ravishda, moliyaviy hisobotni tuzuvchilarning tafakkuriga bog‘liq. Bundan tashqari, korporativ boshqarish, auditorlarning mustaqilligi, auditorlik qo‘mitalarining, boshqaruv kengashlarining roli hamda auditorlar faoliyatining nazorati va auditorlik xizmatlari sifatining nazoratini ta‘minlash sohalarida samarali mexanizmlar talab qilinadi. Moliyaviy hisobotlarda oshkor qilinadigan ma‘lumotlar sifatini oshirish jarayoni va MHXSga to‘liq rioya qilishga erishish uzoq davom etadigan va qiyin jarayondir.

MHXSga kiritilgan har bir o‘zgartirish va qo‘shimchalar “O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan tijorat banklarining chop etiladigan yillik moliyaviy hisobotlariga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risida”gi Nizomga ham taalluqli hisoblanadi, lekin Markaziy bank, Banklar assotsiatsiyasi yoki tijorat banki tomonidan MHXSni sotib olish va yangi qabul qilinayotgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar bilan tijorat banklarini ta‘minlash bo‘yicha shartnoma rasmiylashtirilmagan. Chet el kapitali ishtirokidagi xususiy banklar va boshqa ayrim banklar MHXSni sotib olishgan va foydalanishmoqda.

Bunda muammo shundan iboratki, tijorat banklari MHXSdan foydalanishda murakkabliklarga duch kelmoqdalar.

O‘zbekiston Respublikasi banklar assotsiatsiyasi tomonidan Moliyaviy Hisobotning xalqaro Standartlari (MHXS)ni o‘zbek tiliga tarjima qilingan. Ushbu amaliyotning ikkita asosiy sababi mavjud:

birinchidan, eskirgan ma‘lumotning majburiy qo‘llanilishi;

ikkinchidan, tarjima jarayonida ma‘no o‘zgarishiga duch kelinishi.

Kengroq izoh beriladigan bo‘lsa, bugungi kunda tarjima qilingan MHXSlari 2008-yilda rus tiliga tarjima qilingan nusxaga asoslanadi. Umuman olganda, eng so‘nggi asl ingliz tilidagi nusxasi olinib tarjima qilingan holatda ham to tarjima varianti, tasdiqlanguniga qadar o‘zgarishlar vujudga keladi.

Buxgalteriya hisobi tizimini iqtisodiyotning shifokoriga qiyos qilsa bo'ladi. Shifokor o'z mijozini xatti-harakatini kuzatib boradi va kasal bo'lmasligi uchun yo'l-yo'riq ko'rsatadi. Agar ushbu yo'l-yo'riq noto'g'ri ta'sir etsa, darhol muolajani o'zgartiradi. Shunga o'xshab MHXS bozor iqtisodiyotidagi o'zgarishlar, inqiroz va yo'qotishlar natijasida mukammallashib bormoqda.

MHXSlariga so'nggi yillarda ko'plab o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi. MHXSlarini tarjima qilish jarayonidagi ma'noning o'zgarishi haqida to'xtaladigan bo'lsak, o'zbek tiliga tarjima qilinishi, standartlardan foydalanuvchilar soni ko'payishiga olib keladi va yengillashtirib kelmoqda.

Shunday bo'lsada, globallashtirish jarayoni iqtisodiy va moliyaviy vaziyatlarda yangi atamalarni vujudga keltirmoqda, ba'zi so'zlarning qo'llanilishi qamrovini kengaytirmoqda va yoki tor ma'noda qo'llanilishiga olib kelmoqda.

MHXS olimlar uyushmasi, ya'ni IASB qo'mita a'zolari matnni ingliz tilida yozgan bo'lib, uni tarjima qilish jarayonida ma'no o'zgarishiga duch kelish ehtimoli yuqori.

Ma'lumki, tijorat banklari hisobotlaridan foydalanuvchilar ushbu hisobot ma'lumotlariga asosan moliyaviy qarorlar qabul qiladi. Hisobotning haqqoniyligi va shaffofligi qabul qilinayotgan qarorlarga ta'sir ko'rsatadi.

MHXSlarning vujudga kelish tarixi. Buxgalteriya hisobining xalqaro standartlarini yaratish g'oyasi o'tgan asrning 30-yillarida AQShda tug'ilgan. 1929- yildagi AQSh fond bozorining tanazzulga uchrashi va buyuk iqtisodiy depressiyaning boshlanishi ushbu mamlakatda moliyaviy hisobotlarning ishonchliligiga bo'lgan talabni kuchaytirib yubordi.

Ikkinchi jahon urishidan so'ng AQSh jahon iqtisodiyotining asosiy yetakchisiga aylandi. Barcha davlatlarga AQSh investitsiyasi oqib kela boshladi. Natijada jahon iqtisodiyotining globallashtirish jarayoni tezlashib, turli mamlakat xo'jalik subyektlari banklari va boshqa moliyaviy korporatsiyalar o'rtasida iqtisodiy aloqalar vujudga keldi. Hozir esa, jahon iqtisodiyotini xalqaro munosabatlarsiz

tasavvur qilish mumkin emas. BMT ma'lumotlariga ko'ra, bugungi kunda 47 ming transmilliy kompaniyalar faoliyat ko'rsatib, 6.5 trln AQSh dollari hajmida milliy daromad yaratilmoqda.

Jahon olimlarining iqtisodiy izlanishlari natijasida qaror topgan xulosalarga asosan, muayyan mamlakat buxgalteriya hisobi tamoyillarining shakllanishiga quyidagi umumiy omillar ta'sir ko'rsatadi:

- asosiy foydalanuvchilar hisoblangan kreditor va investorlar xususiyatlari;
- kapitalni shakllantirish jarayonida jalb qilingan yuridik va jismoniy shaxslar;
- fond va boshqa moliyaviy bozorlarning rivojlanganlik darajasi;
- xalqaro biznesda ishtirok etish darajasi.

Shuningdek, XX asr oxirlarida madaniy rivojlanish darajasining ham mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlariga ta'sir etish to'g'risida fikrlari paydo bo'ldi. Masalan G.Xovsted birinchilardan bo'lib dunyoni quyidagi madaniy hududlarga bo'lishni taklif qildi:

1. *Yuqori darajada rivojlangan roman davlatlari* (Belgiya, Fransiya, Argentina, Braziliya, Ispaniya, Italiya);
2. *Past darajada rivojlangan roman davlatlari* (Kolumbiya, Ekvador, Meksika, Venesuela, Kosta – Rika, Chili, Gvatemala, Panama, Peru, Portugaliya, Salvador, Urugvay);
3. *Yuqori darajada rivojlangan Osiyo mamlakatlari* (Yaponiya);
4. *Afrika mamlakatlari* (Sharqiy va G'arbiy Afrika)
5. *Past darajada rivojlangan Osiyo mamlakatlari* (Indoneziya, Pokiston, Tayvan, Hindiston, Malaziya, Filippin);
6. *Yaqin Sharq va Yevropa mamlakatlari* (arab mamlakatlari, Gretsiya, Eron, Turkiya)
7. *Osiyo mamlakatlari* (Gonkong, Singapur);
8. *Roman – german tillarida gaplashuvchi mamlakatlar* (Avstriya, Germaniya, Shvetsariya, Isroil);

9. *Ingliz tilida soʻzlashuvchi mamlakatlar* (Avstraliya, Kanada, Irlandiya, Yangi Zerlandiya, Buyuk Britaniya, AQSh, JAR);

10. *Skandinaviya mamlakatlari* (Daniya, Finlandiya, Norvegiya, Shvetsiya, Niderlandiya).

Olimlar tomonidan buxgalteriya hisobi modellarini shakllantirishga taʼsir etuvchi omillarga baho beruvchi bunday nazariy fikrlarni koʻplab keltirish mumkin. Bunday tahlil natijalari, aksariyat hollarda buxgalteriya hisobining xalqaro standartlarini yaratish boʻyicha xalqaro tashkilotlar tuzish zaruriyati bilan yakunlanadi. Hozirda buxgalteriya hisobining xalqaro modellarini takomillashtirish boʻyicha 10dan ortiq xalqaro miqyosdagi tashkilotlar shugʻullanmoqda.

Oʻzbekistonning MHXSni qabul qilish boʻyicha tutgan oʻrni ijobiy, biroq MHXSni qoʻllashni jadallashtirish va integratsiya jarayonida faol ishtirok etishi maqsadga muvofiq boʻladi. Tashkilotlarning vazifalari moliyaviy hisobotlar undan foydalanuvchilarga moliyaviy va boshqa qaror qabul qilishlari uchun haqqoniy va shaffof maʼlumotlarni oʻz vaqtida va toʻliq taqdim etishdan iborat. Uning statistika hisoboti yoki boshqaruv hisobotidan farqi ana shunda.

Oʻzbekiston Respublikasida tijorat banki faoliyati Markaziy bank tomonidan tartibga solinadi, Markaziy bank tijorat bankining sogʻlom faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish uchun undan maʼlum hisobotlar talab qiladi.

Ushbu hisobot faqat bankning sogʻlom faoliyatini nazorat qilishga yoʻnaltirilganligi bois, ushbu hisobotni statistik hisobot sifatida tasniflash mumkin.

Xuddi shu kabi Soliq qoʻmitasi tomonidan ham soliqlar toʻgʻri hisoblanishi va oʻz vaqtida toʻlanilishini nazoratga olish uchun hisobotlar talab qilinadi, ushbu hisobot foydalanuvchi va foydalanish qamrovi tor doirada boʻlganligi sababli ushbu hisobotni toʻlaqonli moliyaviy hisobot sifatida tasniflash maqsadga muvofiq emas.

Tijorat banklari tomonidan taqdim etilayotgan MHXSGa asoslangan hisobot keng qamrovli boʻlib, undan foydalanuvchilar - aksiyadorlar, investorlar, bank mijozlari,

depozitor va kreditorlar, Markaziy bank va boshqa yuqori tashkilotlar, bank raqobatdoshlari va hamkorlari, bank xodimlari va boshqa manfaatdor shaxslar ushbu hisobot ma'lumotlariga tayangan holda moliyaviy, boshqaruv va boshqa sohalardagi qarorlarni qabul qiladi.

1.7-jadval

**MHXSni banklarning buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobotlarini tuzishda qo'llash tartibi<sup>3</sup>**

<b>T/r</b>	<b>Moliyaviy hisobot elementlari</b>	<b>Tartibga soluvchi standartlar (MHXS)</b>	<b>Izoh</b>
1	Aktivlar	MHXS №9 Moliyaviy instrumentlar MHXS №16 Asosiy vositalar MHXS №36 Aktivlarning qadrsizlanishi MHXS №40 Investitsion mulk MHXS №17 Ijara MHXS №38 Nomoddiy aktivlar MHXS №32 Moliyaviy dastaklar MHXS №21 Valyuta kursidagi o'zgarishlar	Bank aktivlarining baholanishi, ularni tan olish, kiringa olish, hisobdan chiqarish, amortizatsiya hisoblash, kursdagi farqlar va ularni moliyaviy natijalarga olib borish tartibini yoritib berishda qo'llaniladi
2	Xususiy kapital	MHXS №1 Moliyaviy hisobotlarni taqdim etish MHXS №20 Davlat subsidiyasi va grantlari	Bank kapitalining tarkibi: ustav, qo'shilgan va rezerv kapital, taqsimlanmagan foyda hisobga olish
3	Majburiyatlar	MHXS №37 Shartli majburiyatlar va shartli aktivlar, majburiyatlarning baholanishi MHXS №26 Pensiya ta'minoti hisobi va hisoboti MHXS №23 Zayomlar bo'yicha xarajatlar MHXS №19 Xodimlarni rag'batlantirish	Bank majburiyatlarining yuzaga kelishi, pensiya ta'minotini hisobga olish va xodimlarni rag'batlantirish, majburiyatlarni potensial baholash uchun qo'llaniladi

<sup>3</sup> "O'zbekiston Respublikasi banklarida buxgalteriya hisobini yuritish va buxgalteriya ishlarini tashkil qilish tartibi to'g'risida Yo'riqnomaga" ga to'liq muvofiq keladi (№1834, 2008 yil 11. 06).

4	Daromadlar	MHXS №33 Aksiyaga hisoblangan daromadlar MHXS №18 Tushum	Banklarda daromadlarni shakllantirish va ularning hisobini yuritishda, shuningdek, bir aksiyaga to'g'ri keladigan daromadlarni hisobga olishda
5	Xarajatlar	MHXS №12 Daromaddan soliqlar MHXS №1 Moliyaviy hisobotlarni taqdim etish	Banklarda xarajatlarni paydo bo'lishi va ularning hisobini yuritishda, shuningdek, daromaddan soliqlarni hisoblashda ahamiyatli
Moliyaviy hisobotlarni tuzishda:			
MHXS №1 Moliyaviy hisobotlarni tuzish va taqdim etish MHXS №34 Oraliq moliyaviy hisobotlar MHXS №29 Giperinflyatsiya sharoitida moliyaviy hisobot MHXS №27 Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot MHXS №8 Hisob siyosati va undagi o'zgarishlar MHXS №7 Pul mablag'larning harakati to'g'risidagi hisobot		Banklarda moliyaviy hisobotlarni tuzish va taqdim etishning konseptual asoslarini belgilaydi Moliyaviy hisobot tamoyillarini tushuntiradi	

Shu bois, tijorat banklarining MHXSGa asoslangan hisoboti keng qamrovli va qaror qabul qilishga ta'sir qiluvchi ma'lumotlarni qamrab olishi lozim. Umuman olganda, tijorat bankining hisoboti bu bankning yuzi va reklama vositasi hisoblanadi. Biroq hisobotda faqat yutuqlar emas, balki qaror qabul qilishda ta'sir qiladigan barcha holatlar aks ettirilishi lozim. MHXS tamoyillariga asoslangan standartdir, uning mohiyatiga chuqur kirilmasa hatolikka yo'l qo'yilishi mumkin.

Quyida ATB "O'zsanoatqurilishbank"ning (keyingi o'rinlarda bank) ikki yillik (2013- va 2014-yil yakuni bo'yicha) hisoboti yordamida tahlil qilinadi.

Ma'lumki, O'zbekistonda har uch yilda kamida bir marotaba tashqi auditorni almashtirish lozim. Quyidagi ikki jadvalda bankning "Deloitte & Touche" auditorlik tashkiloti va "PWC" auditorlik tashkiloti tomonidan moliyaviy holati to'g'risidagi hisobotni tekshirish jarayoni taqqoslangan. Ushbu ikki hisobotning 31.12.2013-yil holatidagi ma'lumolarni solishtirsak, katta taffovutlar mavjudligini ko'rishimiz mumkin.

1.8-jadval

**Xalqaro auditorlik tashkilotlari tomonidan tekshiruv natijalarining taqqoslanishi<sup>4</sup>**

In thousands of Uzbekistan Sums	Balans moddalari	Deloitte & Touche	PWC	Farqi
		31 Desember 2013	31 Desember 2013 Restated	
<b>ASSETS</b>	<b>Aktivlar</b>			
Cash and sash esuivalents	Naqd pul va pul ekvivalenti	553,170,015	1,310,638,816	757,468,801
Due from other banks	Boshqa banklardagi pul	1,009,644,077	252,175,276	757,468,801
<i>Loans and advances to sustomers. insluding</i>				
franse lease reseivables	Kredit qo'yilmasi	3,229,833,220	3,229,833,220	-
Investment securities available to sale	Sotishga mo'ljallangan qimmatli qog'ozlar	20,498,524	11,578,524	8,920,000
Investment securities held to maturity	So'ndirishga qadar saqlanadigan qimmatli qog'ozlar		8,920,000	- 8,920,000
Investment in associates	Shu'ba korxonalariga investitsiyalar	2,798,501	2,798,501	-
Deffared insome tax asset	Soliq bo'yicha bo'nak to'lovlari	4,321,178	7,962,900	- 3,641,722
Property, aquipment and intangible assets	Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar	126,780,437	126,780,437	-
Other assets	Boshqa aktivlar	23,898,771	23,898,771	-
<i>Non-surrent assets held to sale</i>				
(or disposal groups)	Sotishga mo'ljallangan boshqa aktivlar	40,447,617	37,701,549	2,746,068
<b>TOTAL ASSETS</b>		<b>5,011,392,340</b>	<b>5,012,287,994</b>	<b>- 895,654</b>

<sup>4</sup> ATB "O'zsanoatqurilishbank"ning 2012-yil va 2013-yil yakuni bo'yicha tashqi auditorlik tashkiloti tomonidan tasdiqlangan hisobotidan olindi.

LIABILITIES	Majburiyatlar			
Due other banks	Banklardan jalb qilingan	117,539,685	117,539,685	-
Customer accounts	Mijozlarning hisobraqamlari	2,221,450,163	2,174,236,746	47,213,417
Debt securities in issue	Qarz qimmatli qog'ozlari		46,141,596	- 46,141,596
Other borrowed funds	Boshqa fondlardan jalb qilingan mablag'lar	2,344,356,962	2,348,606,962	- 4,250,000
Other liabilities	Boshqa majburiyatlar	26,098,236	26,098,236	-
<i>Liabilities direct associated with disposal</i>				
groups held for sale	Sotishga mo'ljallangan majburiyatlar	168,493	244,297	- 75,804
TOTAL LIABILITIES		4,709,613,539	4,712,867,522	- 3,253,983
EQUITY				
Share capital	Ustav kapital	265,010,820	259,550,820	5,460,000
Treasury shares	Qayta sotib olingan aksiyalar	-4,972,344	-4,972,344	-
Investments available for sale fair value reserve	Sotishga mo'ljallangan investitsiya bo'yicha rezerv	1,848,658		1,848,658
Retained earnings	Taqsimlanmagan foyda	38,579,674	42,993,338	- 4,413,664
Other reserves	boshqa rezervlar		1,848,658	- 1,848,658
Non-controlling interest	Minoritar ulush	1,311,993		1,311,993
TOTAL EQUITY		301,778,801	299,420,472	2,358,329
TOTAL LIABILITIES AND EQUITY		5,011,392,340	5,012,287,994	- 895,654

Ushu ikki hisobot tafovutlarini o'rganar ekanmiz, oxirgi tasdiqlanganini to'g'ri deb qabul qilish mumkin. Ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, Deloitte & Touche auditorlik tashkiloti hisobotni tekshirishda quyidagi xatoliklarga yo'l qo'yan:

*Birinchi*dan, pul va pul ekvivalenti uning qayerda saqlanishidan qat'iy nazar, pul bandida aks ettirilishi lozim edi. 757,468.8 mlrd so'm ekvivalentida xorijiy banklarda vakillik hisobraqamida saqlanayotgan pul mablag'i boshqa banklardagi mablag'lar hisobraqamida aks ettirilgan. Ushbu mablag'ning likvidlilik darajasi inobatga olinmagan, shaklga e'tibor qaratilgan. Biroq, shuningdek, hisobotning 14 ilovasida vakillik hisobraqamidagi 957.2 mlrd so'm mablag'larni pul va pul ekvivalenti sifatida tasniflangan.



*Ikkinchidan*, sotishga mo'ljallangan investitsiya bilan so'ndirilguniga qadar saqlanadigan investitsiya alohida ko'rsatilmagan. MHXSga ko'ra ushbu ikki turdagi investitsiyalar baholanishi bo'yicha farq qiladi va balansda alohida aks ettirilishi lozim. Barcha investitsiya sotishga mo'ljallangan investitsiya sifatida aks ettirilgan. Aslida 8.9 mlrd so'm boshqa banklar obligatsiyalari (so'ndirishga qadar saqlanayotgan qimmatli qog'oz) va 11.6 mlrd so'm sotishga mo'ljallangan qimmatli qog'ozlardan iborat bo'lgan.

Ushbu hisobotlar bank tomonidan tasdiqlangan bo'lsada, bank taqdim etgan ma'lumotlar asosida tashqi auditorlik kompaniyasi tomonidan tuzilgan. Ya'ni masalan, PWC auditorlik tashkiloti tomonidan tekshirilgan boshqa bankning hisobotini tahlil qilsak, o'xshash jihatlar mavjudligi yaqqol ko'zga tashlanadi. Aslida esa yillik moliyaviy hisobot bu tijorat bankining yuzi hisoblanishi va turli banklarda turlicha bo'lishi lozim edi.

ATB "O'zsanoatqurilishbank" yillik hisoboti 60-80 varaqdan iborat, boshqa banklar bilan solishtiradigan bo'lsak, masalan Germaniyaning Doyech Bankining 2014-yil yakuni bo'yicha hisoboti 532 betni tashkil qilgan va hisobotga qo'shimcha ravishda excel formatida 320ta jadval ilova qilingan. Bunda hisobotdan foydalanuvchi o'zini qiziqtirgan ma'lumotni olish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Shu bilan birga tijorat siriga taalluqli bo'lgan ma'lumotlar oshkor qilinmasligi lozim. Masalan, bank hisobotida jalb qilingan resursning o'rtacha narxi oshkor qilinishi mumkin, ammo ushbu narxda va qancha miqdorda jalb qilinayotganligini kontragentni ko'rsatgan holda aks ettirilishi kontragentning tijorat sirini oshkor qilinishiga olib kelinadi.

Kelgusida bank tizmini MHXSga moslashtirishda quyidagilarga e'tiborni qaratish maqsadga muvofiqdir:

1. Har bir tijorat banki asl va so'nggi nusxadagi MHXS to'plamini yoki Markaziy bank va boshqa tashkilot tomonidan markazlashgan holda standartlar to'plamini sotib olishi va tijorat banklari MHXSga kiritilayotgan o'zgarishlar bilan ta'minlanib turishi lozim. Shuningdek,

MHXSning aslini ingliz tilida o'qish va ishlatish malakasini oshirish uchun bank xodimlari muntazam ravishda o'qitib borilishi kerak.

2. Tijorat banklari yillik hisobotlarini o'zlari mustaqil ravishda MHXSGa asoslangan holda tuzishlari lozim, tashqi auditor xizmatidan foydalanilgan taqdirda ushbu hisobotni boshqa auditorlik tashkiloti tomonidan qayta tekshirilishini ta'minlashi, banklar tomonidan tayyorlanayotgan yillik hisobot imkon qadar keng tahliliy ma'lumotlarni qamrab olishi va bank mijoz va konragentlarining tijorat sirlarini oshkor qilmasligi lozim. Bu borada iqtisodiyoti rivojlangan banklarning hisobotlaridan o'rganish va andoza sifatida foydalanish zarur.

3. Tijorat banklarida hisobotlarni MHXSlari asosida shakllantirish imkonini beruvchi dasturiy ta'minot ishlab chiqilishi lozim. Zero, ayrim hollarda investor yoki boshqa manfaatdor shaxs uchun nafaqat yakuniy, balki yil o'rtasidagi joriy ma'lumotlar kerak bo'ladi. Tijorat banklarida MHXSni muvofiqlashtirish boshqarmalarini tashkil qilish (bankning katta kichikligidan kelib chiqqan holda departament, boshqarma, bo'lim yoki sektor) lozim.

4. Hisobotning shaffofligini yanada oshirish maqsadida MHXSning qaysi standartlari aynan qabul qilinganligi va qaysilari o'zgartirishlar bilan qabul qilinganligi (o'zgartirishlar mazmuni oshkor qilingan holda) Markaziy bank yoki boshqa yuqori tashkilot tomonidan e'lon qilinishi lozim. Qabul qilinmagan standartning qabul qilinishi va joriy qilinishi bo'yicha muddat belgilanishi kerak. Shuningdek, O'zbekistonda MHXSlari bo'yicha yetuk mutaxassis hisoblanayotgan tashqi auditorlik tashkiloti hodimlari bilan o'quv-amaliy seminarlarni tashkil etish lozim. Ushbu o'quv amaliy-seminarlarni markazlashgan tartibda Markaziy bank, Moliya vazirligi yoki Banklar assotsiatsiyasi tomonidan tashkil qilish yoki tijorat banki va auditorlik tashkiloti tomonidan shartnoma asosida, qo'shimcha xizmat sifatida tashkil qilish mumkin.

5. MHXSlarini qo'llashda vujudga kelayotgan muammolarni muhokama qilish yo'li bilan yechimini topish maqsadida Markaziy bank, Moliya vazirligi, Banklar

assotsiatsiyasining internet saytida yoki boshqa alohida saytda muhokama sahifasi ochilishi va tijorat banklari va auditorlik tashkilotlarining yetuk xodimlaridan iborat guruhga ushbu internet sahifasini yuritilishi shartnoma asosida topshirilishi mumkin.

Tijorat banklarining MHXSlari asosida tayyorlaydigan hisobotlarini Markaziy bank uchun taqdim etiladigan hisobot, Soliq qo‘mitasi uchun taqdim etiladigan hisobot va boshqa yuqori tashkilotlarga taqdim etiladigan hisobotlardan alohidalashtirilishi lozim. Zero, Markaziy bankka taqdim etiladigan hisobot Bazal qo‘mitasi tavsiyasi asosida tuziladi. Ya‘ni aktivlarning riskka tortilganlik darajasi tahlil qilinganda yoki kapital yetarliligi hisoblanganda bevosita Bazal qo‘mitasi talablariga tayanadi. MHXS bo‘yicha tuziladigan hisobotda esa aktivlarning risklilik darajasi, ushbu aktivning hususiyati, konsentratsiya darajasi va boshqa ko‘plab omillar inobatga olinadi.

### **Nazorat savollari va topshiriqlar**

1. Buxgalteriya hisobi xalqaro standartlarining mazmuni va iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitidagi ahamiyati nimadan iborat?
2. Xalqaro standartlarning asosiy maqsadi nimadan iborat?
3. Nima uchun buxgalteriya hisobi xalqaro standartlarining turli modellari yuzaga kelgan?
4. Buxgalteriya hisobi xalqaro standartlarining qanday modellari mavjud?
5. Buxgalteriya hisobi xalqaro standartlarining Britan-Amerika modelining xususiyatlari haqida gapirib bering.
6. Buxgalteriya hisobi xalqaro standartlarining boshqa modellariga tavsif bering.
7. BXXSning asosiy shartlari va sifat tavsiflarini ta’riflang.

8. Buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari bo'yicha Qo'mitasining asosiy maqsadi va vazifalari nimalardan iborat?

9. Buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari bo'yicha Qo'mitasining a'zolari kimlar bo'lishi mumkin?

10. Buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari bo'yicha Qo'mitasining eng dastlabki a'zolari bo'lgan davlatlarni sanab bering.

11. Buxgalteriya hisobi ma'lumotlaridan foydalanuvchilar kimlar?

12. Zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida buxgalteriya hisobining ahamiyati nimadan iborat?

## **II BOB. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI BANKLARIDA MHXSLARI ASOSIDA MOLIVAVIY HISOBOTLARNI TUZISH ASOSLARI**

### **2.1. Tijorat banklarida moliyaviy hisobotlarning mohiyati va ahamiyati**

Bank faoliyati va uning faoliyati natijalari haqida kengroq va umumlashgan ma’lumotlar hisobotlarda aks ettiriladi. Shu sababli, bank hisobotlarining asosiy mohiyati - bank faoliyati haqida to‘g‘ri, to‘liq va tezkor iqtisodiy ma’lumotlar manbasi bo‘lib hisoblanishidir. Bank hisobotlari investorlar, kreditorlarga va boshqa bank mijozlariga tushunarli bo‘lishi, ularga jalb qilinayotgan resurslarning tarkibi, turlari va joylashishi, kutilayotgan daromadlarning summasi va vaqti, kreditlar va boshqa aktivlar bo‘yicha ko‘rilishi mumkin bo‘lgan zararlarni qoplash zaxiralarining mavjudligi, bank kapitali tarkibi va boshqalar to‘g‘risida tegishli ma’lumotlarni berishi lozim.

Xususan, buxgalteriya hisobi va shu asosda tuziladigan bankning moliyaviy hisobotlari, uning ma’lumotlari Davlat tartibga solish organlari uchun tijorat banklarining moliyaviy ahvoli, pul muomalasining holati, xalq xo‘jaligidagi naqd pulsiz hisob-kitoblar holatini o‘rganish uchun o‘ta muhimdir.

Markaziy Bank alohida olingan hududlar va butun mamlakat miqyosida olingan shunday tahlillarga asoslangan holda moliya - kredit bozoridagi ahvolni o‘rganishi, tijorat banklari uchun o‘rnatilgan me‘yorlar va ko‘rsatkichlarni qanday bajarilayotganini nazorat etishi, olib borilayotgan pul - kredit siyosatining samarasini ko‘rib chiqishi va zarur hollarda unga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritishi mumkin.<sup>5</sup>

Bank egalari uchun, shu bilan birga uning xissadorlari uchun bu ma’lumotlar bank mablag‘larining qanday jalb qilinayotganligi, ulardan qay usulda foydalanilayotganligi, bank aktiv operatsiyalardan qanday moliyaviy natijalar

---

<sup>5</sup> Navro‘zova K. Banklarda buxgalteriya hisobi va operatsion texnika: O‘quv qo‘llanma. T.: 2004, 24-bet.

kutilayotganligini bilish uchun juda muhimdir. Bundan tashqari, buxgalteriya hisobi ma'lumotlari bank rahbarlari, uning xodimlari, ayni chog'da bank mijozlari uchun ham qiziqarlidir. Chunki bank rahbarlari va barcha xodimlari bankning kunlik aktivlari va majburiyatlarining holati, daromadlari va xarajatlarning strukturasi bilan qiziqsalar, bank mijozlari esa bank likvidligi va uning barqarorlik darajasini bilishni istaydilar. Bank moliyaviy ahvoli yomonlashuvini sezgan mijozlar boshqa barqaror bankka o'z mablag'larini o'tkazib uning xizmatidan foydalanishni afzal ko'radilar (2.1-jadval).

2.1-jadval

**Bank hisobotlaridan foydalanuvchilar va ularning  
manfaati uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar<sup>6</sup>**

<b>№</b>	<b>Foydalanuvchilar</b>	<b>Foydalanuvchilarning manfaati uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar.</b>
1	Aksionerlar	Bankning moliyaviy holati va dividendlar foizi bo'yicha kelgusidagi dividend siyosati
2	Investorlar	Mablag'larni sarflashdan ko'riladigan iqtisodiy samaradorlik va tavakkalchilik darajasi
3	Kreditorlar va depozitorlar	Bankning moliyaviy barqarorligi, ya'ni kreditorlar va depozitorlarni va ularga hisoblangan foizlarni to'lash imkoniyati va hokazo
4	Chet el banklari	Bank korrespondentning ishonchligi
5	Markaziy bank	Bankning samarali boshqarilayotganligi to'g'risidagi ma'lumotlar
6	Davlat soliq qo'mitasi	Aktivlar, daromad, xarajatlar va soliq to'lanishi bo'yicha ma'lumotlar
7	Boshqa davlat organlari	Milliy daromadlar to'g'risidagi ma'lumotlar, xarajatlar va boshqa statistik ma'lumotlar
8	Ishchi va xizmatchilar	Mehnat haqini to'lash qobiliyati

Demak, bank buxgalteriya hisobi va hisoboti ma'lumotlari bank haqidagi aniq ma'lumotlarni olish nuqtai nazaridan Markaziy bank, Soliq qo'mitasi, barcha tijorat banklari va mijozlar uchun juda zarurdir. Bu ma'lumotlar asosida bankning likvidligi, yo'l qo'yayotgan xatari, rezervlari, kredit portfeli holatini belgilash imkoniyati yaratiladi.

<sup>6</sup> Muallif tomonidan tuzildi.

Amaldagi qonunchilik<sup>7</sup> va BHMS<sup>8</sup>larida moliyaviy hisobotlarning turlari, alohida har bir hisobot turlarining mazmuni va ularning tarkibi, hamda tuzilish tamoyillari to'liq yoritib berilgan. Lekin, tegishli me'yoriy hujjatlar<sup>9</sup>da bank hisobotlarining umumiy ta'rifi keltirilmagan.

O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi qonuni (keyingi matnda qonun) va "Hisob siyosati va moliyaviy hisobot" 1 - sonli Buxgalteriya hisobining milliy standarti (BHMC)ida moliyaviy hisobotlarning turlari, alohida har bir hisobot turlarining mazmuni va ularning tarkibi, hamda tuzilish tamoyillari to'liq yoritib berilgan. MHXSda esa bu mavzu 1-sonli Buxgalteriya hisobining xalqaro standartida (keyingi matnda BHXS 1) o'z aksini topgan.

BHXS 1da belgilangan moliyaviy hisobotlar to'liq to'plamini tahlil qilar ekanmiz respublika milliy qonunchilikda belgilangan hisobot turlari haqida to'xtalmaslik mumkin emas. O'rganish oson bo'lishi uchun, yuqorida qayd etilgan qonun hujjatlari va MHXSda belgilangan asosiy hisobot shakllarini quyidagi jadvalga tushirdik.

2.2-jadval

### Moliyaviy hisobot turlari

<b>Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari bo'yicha</b>	<b>"Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi qonun bo'yicha</b>	<b>1-sonli Milliy standart bo'yicha</b>
Moliyaviy holat to'g'risidagi hisobot	Buxgalteriya balansi	Buxgalteriya balansi (1-shakl)
Foyda yoki zarar va boshqa umumlashgan daromad to'g'risidagi hisobot	Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot	Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot (2-shakl)
Kapitaldagi o'zgarishlar harakati to'g'risidagi hisobot	Xususiy kapital to'g'risidagi hisobot	O'z sarmoyasi to'g'risidagi hisobot (5-shakl)
Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot	Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot	Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot (4-shakl)
Hisob siyosatining asosiy	Izohlar, hisob-kitoblar	Izohlar, hisob-

<sup>7</sup> O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi qonuni. T.: 2016.

<sup>8</sup> O'zbekiston Respublikasining 1-sonli "Hisob siyosati va moliyaviy hisobot" BHMS. T.: 26.07.1998.

<sup>9</sup> O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan "Tijorat banklarining chop etiladigan yillik moliyaviy hisobotlariga qo'yiladigan talablar to'g'risida"gi 1419-nizom. T.: 2004.

qoidalarini qisqa bayonini qamrab olgan va boshqa tushuntirish ma'lumotlaridan iborat izohlar	va tushuntirishlar	kitoblar va tushuntirishlar
BHXS 1da belgilangan boshqa axborotlar		

Ma'lumki, respublikamizda buxgalteriya hisobini xalqaro standartlarga moslashtirish bo'yicha muhim islohotlar boshlandi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 24-apreldagi PF-4720-sonli "Aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni 9-bandida 2015-2018-yillarda barcha aksiyadorlik jamiyatlari yillik moliyaviy hisobotlarini chop etishi va uni Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari va Auditning xalqaro standartlari asosida tashqi auditdan o'tkazishi belgilangan.

Mazkur PF-4720-sonli farmon bilan aksiyadorlik jamiyatlari ijro etuvchi organiga chet ellik menejerlarni tayinlash huquqi berilgan. Mazkur holat, ya'ni chet ellik menejerlarni va boshqa investorlarni jalb etilishi, mazkur Aksiyadorlik jamiyatlari bilan hamkorlik qilayotgan tijorat banklarining moliyaviy hisobotlarini o'rganish va tanishib chiqishga bo'lgan qiziqishini orttiradi. Bu esa, tijorat banklarining MHXS talablari asosida tuzilgan yillik moliyaviy hisobotlarini o'z vaqtida tuzilishini taqozo etadi.

Yuqoridagi tartibga soluvchi xalqaro va milliy standartlarda moliyaviy hisobotlar mohiyatiga turlicha tarif berilgan. Masalan MHXSGa ko'ra moliyaviy hisobotlar - tadbirkorlik subyektining moliyaviy holati va moliyaviy natijalarining tartibga solingan ifodasidir.

Qonunda moliyaviy hisobotga quyidagicha tarif berilgan: "Moliyaviy hisobot buxgalteriya hisobi subyektining hisobot sanasidagi moliyaviy holati, hisobot davridagi faoliyatining moliyaviy natijasi va pul mablag'larining harakati to'g'risidagi tizimlashtirilgan axborotdan iboratdir".

Yuqoridagilardan xulosa qilib, bank hisobotlariga quyidagicha umumiy ta'rif berishimiz mumkin: "Bank



hisobotlari - bu hisobot davriga bo'lgan bankning moliyaviy va mulkiy holatini ularning iqtisodiy mazmuniga qarab ma'lum tartibda guruhlashtiradigan va o'zaro aloqadorligini ta'minlaydigan shakllarda aks ettiradigandan miqdoriy xarakteristika va ko'rsatkichlar yagona tizimidir".

2.3-jadval ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki zamonaviy banklarni boshqarish pul birligida aks ettirilgan miqdoriy ma'lumotlardan foydalanishga asoslanadi. Shuningdek, bank hisobotlarida, agar ularni tahlil qilishda yordam bersa, sifat ko'rsatkichlaridagi ma'lumotlar ham mavjud bo'lishi mumkin. Shu bois, bank menedjerlari uchun maxsus tayyorlangan hisobotlar boshqaruv hisobi ma'lumotlari bo'lib hisoblanadi. Shuni bilish lozimki, buxgalteriya ma'lumotlari shartli turkumlash, taxminiy baholashdan ham foydalanadi.

2.3-jadval

### **Hisobot shakllarining turkumlanishi**

<b>Turkumlashish belgilari</b>	<b>Hisobot shakllari</b>
Turlari bo'yicha	Moliyaviy Buxgalteriya Statistika
Ahamiyati bo'yicha	Asosiy Qo'shimcha
Qamrab olinadigan davri bo'yicha	Kunlik Oylik Choraklik Yarim yillik Yillik
Doimiy ravishda tuzilmaydigan hisobotlar	O'zR Markaziy banki so'rovi bo'yicha
Qo'llanilayotgan aks ettirish usullarining xususiyatlari bo'yicha	Milliy standartlar bo'yicha hisobotlar MHXS talablarini hisobga olgan holda tuzilgan hisobotlar

Shu nuqtai nazardan, bank hisoboti ma'lumotlari taxminiy hisoblanadi. Masalan, passiv hisobvaraqlarda bankning zaxira kapitalini aks ettirilishi ularning likvid shaklda mavjudligidan dalolat bermaydi.

Moliyaviy hisobot buxgalteriya hisobi ma'lumotlari asosida tuziladi. Qonun va MHXS o'rtasidagi yana bir farq, bu hisobot davrini aniqlashda turlicha yondashuvning qo'llanishidir. Qonunning 24-moddasiga muvofiq, yangi

tashkil etilgan xo'jalik subyektlarini istisno etganda, 1 yanvar – 31 dekabr kalendar yili yillik moliyaviy hisobotning hisobot davridir yoki uning ikkinchi qismida ko'rsatilganidek 1-yanvardan boshlab davriy moliyaviy hisobot tuzilayotgan davrning hisobot sanasini ham qamrab olgan davr kalendar yil mobaynida tuziladigan davriy moliyaviy hisobot uchun hisobot davridir. Demak, Qonunga ko'ra hisobot davri 1-yanvardan iborat bo'lgan 1 yillik davrdir.

MHXSda ham xo'jalik subyekti tomonidan moliyaviy hisobotlarning to'liq to'plamini taqdim etilishiga kamida yillik davr tavsiya etilgan. Lekin, hisobot davri aniq hisobot sanasiga bog'lab qo'yilmagan. Ayrim xo'jalik subyektlari, masalan faoliyati mavsumiy bo'lgan qishloq xo'jalik korxonalari o'ziga qulay bo'lgan sanani hisobot sanasi sifatida tanlashlari mumkin. Shuningdek, boshqa korxonalar ham o'z ishlab chiqarish sikliga mos bo'lgan hisobot sanasini qabul qilishlariga ruxsat beriladi. Lekin, moliyaviy hisobotning davri izchil davom ettirilishi lozim.

Moliyaviy hisobot quyidagilar uchun ham axborotni saqlaydi:

- investitsiya qarorlarini va kreditlar berishga doir qarorlarni qabul qilish;
- bankning bo'lg'usi pul oqimiga baho berish;
- tijorat bankiga ishonib topshirilgan resurslar munosabati bilan uning resurslariga, majburiyatlariga baho berish;
- bank boshqaruvi ishiga baho berish.

Moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilar qabul qiladigan iqtisodiy qarorlar tijorat bankining pul mablag'larini ko'paytirish, ularning ko'payish vaqtini hisob - kitob qilish va natijaga erishishga umid qilishdagi qobiliyatini baholashni talab qiladi. Bunday qobiliyat pirovard natijada masalan, tijorat banki o'z xodimlari va mahsulot **yyetkazib** beruvchilariga haq to'lay oladimi, foizlarni to'lab turadimi, kreditlarni uza oladimi va daromadni (foydani) taqsimlay oladimi yoki yo'qmi ekanini aniqlaydi.

Foydalanuvchilar pul mablag'larini ko'paytirish qobiliyatini yaxshiroq baholaydilar, agar u bankning

moliyaviy ahvoli faoliyatini va moliyaviy ahvalidagi o'zgarishlarni aks ettiradigan axborot bilan ta'minlangan bo'lsa.

Bank nazorat qilib turadigan iqtisodiy resurslar, uning moliyaviy tuzilmasi, likvidligi, to'lovga qobiliyati, ishlayotgan muhit o'zgarishlariga munosabat bildira olishi uning moliyaviy ahvoliga ta'sir o'tkazadi. Tijorat banki nazorat qilib turadigan iqtisodiy resurslar haqidagi va uning ana shu resurslarni qayta ishlash qobiliyati to'g'risidagi axborotlar uning kelgusida pul mablag'larini va ularning ekvivalentini ko'paytirish imkoniyatini prognozlash uchun zarurdir. Moliyaviy ahvol haqidagi axborot kelgusida kreditlarga bo'lgan ehtiyojni aniqlash uchun, shuningdek keladigan daromadlar bilan pul oqimlarini bankning aksiyalariga ega bo'lganlar o'rtasida taqsimlashda zarurdir, shuningdek bank keyinchalik o'zining moliyaviy ahvolini qanchalik muvaffaqiyat bilan yaxshilay olishini aniqlash uchun zarurdir. Likvidlik va to'lovga qobiliyat haqidagi axborot bankning moliyaviy majburiyatlarini o'z vaqtida to'lay olishini aniqlash uchun zarurdir. Likvidlik yaqin kelgusida ana shu davr ichidagi moliyaviy majburiyatlarni to'lash uchun pul mablag'lari mavjudligini anglatadi. To'lov qobiliyati moliyaviy majburiyatlarni o'z vaqtida to'lash uchun pul mablag'lari mavjudligini anglatadi.

Bankning faoliyat ko'rsatkichlari, uning rentabelligining o'ziga xos xususiyatlari to'g'risidagi axborot iqtisodiy resurslardagi potensial o'zgarishlarni baholash uchun talab etiladi. Bunday axborot kelgusida nazoratni amalga oshirishga imkon beradi, shuningdek bankning faoliyatidagi o'zgarishlar haqidagi axborot ham muhimdir.

Faoliyat haqidagi axborot bankning mavjud resurslar bazasidan pul mablag'lari to'play olishini prognozlash uchun zarurdir, bu esa bank qo'shimcha resurslarni jalb qilishi mumkin bo'lgan samaradorlikka baho berishni shakllantirishda muhimdir.

Pul oqimlari haqidagi axborot tijorat bankning pul mablag'larini jalb qilish qobiliyatiga baho berish uchun zarurdir, bu esa foydalanuvchilarga har xil bankning pul

oqimlarini baholash va taqqoslash uchun yangi usullar ishlab chiqishga imkon beradi.

Moliyaviy hisobotlar o'zaro bir - biri bilan bog'langandir, chunki ular bank faoliyatiga doir bir xil holatlarning har xil jihatlarini aks ettiradi. Har bir hisobot bitta maqsadga xizmat qilmaydigan va foydalanuvchilarning muayyan ehtiyojlarini aniqlash uchun zarur bo'lgan butun axborotni bermaydi. Masalan, moliyaviy - xo'jalik faoliyatning natijalari to'g'risidagi hisobot, agar undan buxgalterlik balansi va pul oqimlari haqidagi hisobot bilan uyg'unlikda foydalanilmasa, faoliyatning butun manzarasini aks ettirmaydi.

Moliyaviy hisobot shuningdek qo'shimcha axborotni - izohlar, hisob - kitoblar va tushuntirishlarni (tushuntirish xati tarzida) o'z ichiga oladi. Izohlar, hisob - kitoblar va tushuntirishlar jadvallar shaklida ham, boshqacha tarzda ham bo'lishi mumkin.

Hozirda bankning hisobotlari hamkorlik qilish maqsadida ularning moliyaviy kuchi, xatarsizligi va barqarorligini belgilash uchun kerak bo'ladi. Buning ustiga moliyaviy hisobotlar buxgalteriya hisobining xalqaro andozalariga mos kelishi va xalqaro qoidalarga muvofiq tan olingan auditorlik firmalar tomonidan tekshirilishi lozim.

Tijorat banklarda hisob yuritish usullari va qoidalari "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi qonun (2016-yil, 13-aprel, 404 - son.) talablariga to'liq javob beradi. Buning asosiy afzalligi shundaki, ular hisobot davridagi daromad va xarajatlarni, shu davrda pul tushgan vaqtdan qat'iy nazar aks ettirish imkonini beradi. Ilgari esa daromad kelib tushgan vaqtda, xarajat esa to'langan vaqtda tan olinishi ko'zda tutilgan edi.

## **2.2. Tijorat banklarida moliyaviy hisobot axborotning sifat xususiyatlari**

Jahondagi mamlakatlar buxgalteriya hisobi tizimi o'z moliyaviy hisobotlarini tuzish qoidalariga ega. Ushbu qoidalar moliyaviy hisobot axborotlarini shakllantirish va taqdim qilish asoslari bo'lib xizmat qiladi. Jumladan,

respublikamizda ham O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi qonunning 6-moddasida hamda 1-sonli Buxgalteriya hisobi milliy standarti "Hisob siyosati va moliyaviy hisobot"da buxgalteriya hisobining asosiy qoidalari belgilab qo'yilgan.

O'z o'rnida, Moliyaviy hisobotning Xalqaro Standartlari Kengashi (keyingi matnda Kengash) tomonidan moliyaviy hisobotlarda taqdim qilinadigan moliyaviy axborot mazmuni va turiga nisbatan talablar o'rnatilgan. Moliyaviy hisobotning Xalqaro Standartlarining Konseptual asosida (keyingi matnda Konseptual asos) ushbu talablar moliyaviy axborotning sifat xususiyatlari (keyingi matnda sifat xususiyatlar) deb ataladi. Quyida esa, moliyaviy axborotning sifat xususiyatlarini, ya'ni foydalanuvchilar tomonidan qaror qabul qilish uchun zarur bo'lgan axborot turlarini aniqlash masalasini ko'rib chiqamiz.

Umumiy foydalanish uchun mo'ljallangan moliyaviy hisobotning maqsadi - foydalanuvchilar uchun resurslar ajratish bo'yicha qarorlar qabul qilishda foydali bo'lgan moliyaviy axborotni taqdim qilishdan iborat. Moliyaviy hisobot korxonaning iqtisodiy resurslari, unga bo'lgan talablar hamda ulardagi o'zgarishlarni keltirib chiqaradigan iqtisodiy hodisalarning ta'siri haqidagi axborotni o'zida aks ettiradi. Moliyaviy hisobotlarda iqtisodiy hodisalar so'z va sonlar bilan ifodalanadi. So'z va sonlar bilan ifodalangan iqtisodiy hodisalar foydalanuvchilarga foydali bo'lishi uchun, u albatta ishonchli hamda foydalanuvchilarning talabini qondirish xususiyatiga ega bo'lmog'i lozim.

Sifat xususiyatlari foydalanuvchini qaror qabul qilishi uchun qanday ma'lumotlar bo'lishi shart, qanday ma'lumotlar muhim yoki muhim emas degan savollarga javob beradi. Yoki qaror qabul qilishda foydalanuvchiga asqotadigan, aniqroq qilib aytganda, ehtimol eng foydali bo'lgan ma'lumotlarni saralaydi va ularning turlarini aniqlaydi. Ayni paytda, u ma'lumotlarni aniqlashdan erishilgan naf bilan bunga sarflangan xarajatlari o'rtasidagi vujudga keladigan nomuvofiqliklarni hal qilish bo'yicha o'rnatiladigan cheklashlar bo'yicha tavsiyalar beradi. Shu sababli, ko'pgina olimlar sifat xususiyatlarini moliyaviy

hisobot atributi yoki uning mazmunini ifodalovchi eng muhim belgilar tizimidir, deb atashadi.

Ma'lumki, moliyaviy hisobotlar korxonada tomonidan tuziladi va foydalanuvchiga taqdim qilinadi. Ayni paytda, foydalanuvchiga taqdim qilinayotgan axborotlar korxonada faoliyatiga salbiy ta'sir etmasin, qolaversa, undan korxonani faoliyatini boshqarishda foydalanilishi mumkin bo'lsin. Binobarin, taqdim qilinadigan moliyaviy axborotning turi va sifat ko'rsatkichlari bo'yicha korxonada va foydalanuvchining manfaatlari mushtarak bo'lishi lozim. Sifat xususiyatlari, moliyaviy hisobot maqsadini ifodalovchi turli manfaatlar o'rtasidagi zaruriy muvozanatni ta'minlaydi yoki korxonada va foydalanuvchi o'rtasida ko'priklar vazifasini o'taydi.


Sifat xususiyatlarining turlari. Kengash tomonidan moliyaviy axborotning maqsadidan kelib chiqqan holda sifat xususiyati ikkiga, asosiy (fundamental) va yordamchi sifat turlariga bo'lingan. Tabiiyki, moliyaviy axborot foydali bo'lishi uchun u avvalo o'rinli va ishonchli taqdim qilinishi lozim. Shu sababli, moliyaviy axborotning o'rinli va ishonchli bo'lish talabi "asosiy (fundamental) sifat xususiyati", - deb belgilangan. Shuningdek, moliyaviy axborot qiyoslanuvchan, tekshiriluvchan, o'z vaqtida taqdim etilgan va tushunarli bo'lsa, uning foydaliligi yanada oshishini ta'minlaydi. O'z o'rnida ular "yordamchi sifat xususiyatlar" hisoblanadi. Sifat xususiyatlari tarkibini quyidagi 6-rasmda tasvirlash mumkin.

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, asosiy sifat xususiyatlari o'rinlilik va ishonchlilikdan iborat. O'rinli axborot ishonchli, ishonchli axborot esa ayni paytda, o'rinli bo'lishi lozim.

O'rinlilik. O'rinli moliyaviy axborot foydalanuvchilarga qaror qabul qilish uchun kerak bo'ladigan ma'lumotlardir. Demak, o'rinli moliyaviy axborot korxonada faoliyatiga oid axborot bo'lib, foydalanuvchilarning iqtisodiy qarorlar qabul qilishiga o'z ta'sirini o'tkazadi. Masalan, bozorda paydo bo'lgan yangi segmentni mazkur bankning faoliyatiga aloqasi bormi? Yoki ushbu yangi ma'lumot foydalanuvchilarga qaror qabul qilishda ta'sir etadimi?

Aytaylik, bank mijozlarining faoliyatiga bevosita bog'liq hodisalar ro'y berganligi to'g'risida ma'lumotlar paydo bo'ldi. Bunda buxgalter, ushbu yangi axborot asosida mijozga berilgan kreditlarning holatiga ta'sir etish omillarini izlab ko'rsa va oqibatda, kreditlar bo'yicha yaratilgan zaxiralar summasini qayta ko'rib chiqish zarur degan xulosaga kelsa, bunday axborotlar o'rinli hisoblanadi.

Demak, axborot o'rinli bo'lishi uchun u, o'tib ketgan, hozirgi paytda amalga oshiriladigan va kelajakda yuzaga keladigan hodisalarni baholash uchun yordam beradigan yoki ularni tasdiqlaydigan yoxud avvalgi baholarni tuzatish imkoniyatini yaratadigan bo'lishi lozim. Hatto ba'zi foydalanuvchilar undan foydalanmaslikka qaror qilgan yoki ushbu axborot ularga boshqa manbalardan ma'lum bo'lgan holatlarda ham, axborot qarorlarni o'zgartirish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim.



2.1-rasm. **Moliyaviy hisobotlarning sifat xususiyatlari**

O'rinli axborot o'z vazifasiga ko'ra quyidagi ikki turga bo'linadi. Moliyaviy axborot, agar undan foydalanuvchilar kelgusidagi natijalarni belgilash uchun qo'llaniladigan

jarayonlarda dastlabki ma'lumotlar sifatida ishlatilishi mumkin bo'lsa, u rejalashtirish ahamiyatiga ega bo'lgan axborot deyiladi. Moliyaviy axborot, agar u oldingi qilingan baholashlar haqida ma'lumot bersa (ularni tasdiqlasa yoki o'zgartirsa), u tasdiqlash ahamiyatiga ega bo'lgan axborotdir. Xulosa qilib aytganda, moliyaviy axborot rejalashtirish, tasdiqlash yoki ikkalasi uchun ham ahamiyatga ega bo'lsa, demak, u qarorlarni o'zgartirish qobiliyatiga ega bo'ladi.

O'rinli moliyaviy axborotning bu ikki turi bir-biriga bog'liq. Rejalashtirish ahamiyatiga ega bo'lgan axborot ko'pincha tasdiqlash ahamiyatiga ham ega bo'ladi yoki aksincha bo'lishi ham mumkin. Masalan, joriy yilning daromadlari to'g'risidagi axborot kelgusi yillardagi daromadlarni oldindan bilish uchun asos sifatida xizmat qilishi mumkin, shuningdek, bu axborotlar joriy yil daromadi bo'yicha oldingi yillarda qilingan rejalarda ko'zda tutilgan axborotlar bilan solishtirilishi mumkin. Bunday qiyoslashlarning natijalari foydalanuvchilarga oldingi rejalarni belgilashda qo'llanilgan jarayonlarni to'g'rilash yoki yaxshilashga yordam beradi.

Muhimlik. Ta'kidlash joizki, axborotning o'rinliligiga uning tavsifi va muhimligi jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Ba'zi holatlarda faqat axborot tavsifi uning o'rinliligini aniqlash uchun yetarli bo'lmaydi. Masalan, yangi segment haqidagi ma'lumot hisobot davrida ushbu yangi segment tomonidan erishilgan natijalar muhimligidan qat'iy nazar, tavakkalchilik va imkoniyatlarni baholashga o'z ta'sirini ko'rsatishi mumkin.

Ma'lumot shunday holatda muhim bo'ladiki, agarda shu ma'lumotning berilmasligi yoki uning noto'g'ri talqin qilinishi foydalanuvchilar tomonidan iqtisodiy qarorlarni qabul qilishga o'z ta'sirini ko'rsatsa yoki mazkur qarorni o'zgartirish ehtimolini vujudga keltirsa. Muhimlik, muayyan sharoitda baholanadigan ma'lumotni bermaslik yoki uni buzib ko'rsatilishiga bog'liq xato yoki moddaning miqdoriga bog'liqdir. Shunday qilib, muhimlik ma'lumot foydali bo'lishi uchun uning asosiy sifat tavsifi bo'lmay, odatda hisob boshlanishning nuqtasi sifatida ko'riladi.



Albatta, miqdor ba'zida tavsifdan muhim bo'lmashligi mumkin. Aytaylik, joriy yil auditi natijasida bank mijozning hisobvarag'idagi 10.000 so'm pulni boshqa mijozga noto'g'ri o'tkazib yuborgan. Bunda, so'zsiz miqdor katta ahamiyat kasb etadi. Chunki, bu xatolik orqali bankning moliyaviy holatiga yetadigan zarar summasi xato o'tkazilgan summaga bog'liq. Masalan, 10.000 so'm uncha muhim deb topilmadi va moliyaviy hisobotlarga hech qanday qo'shimcha o'zgartirishlar kiritilmadi. Bordiyu, o'sha 10.000 so'm to'lovlarni amalga oshirishdagi xatolik emas, bank kassasidan topilgan yetishmovchilik bo'lsa, bunda albatta, ro'y bergan hodisaning ahamiyatligiga e'tibor berilishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, muhimlik alohida korxonaning moliyaviy hisoboti doirasidagi axborotga tegishli bo'lgan moddalarning tavsifi va miqdori yoki ikkalasiga ham asoslangan, korxonaga xos bo'lgan o'rinlilikning bitta jihatidir. Shunday ekan, Kengash muhimlikning yagona miqdoriy me'yorini belgilashi yoki alohida vaziyatda nima muhim bo'lishi mumkinligini oldindan aniqlashi mumkin emas. Biroq, hisobot tayyorlovchi korxonalar o'zlarining moliyaviy hisobotidagi axborotni muhimligi bo'yicha mustaqil chegaralar o'rnatishi mumkin. Masalan, asosiy vositalarni ta'mirlash bo'yicha xarajatlarni kapital yoki joriy xarajatlarga tavsiflashda miqdoriy chegaralar o'rnatish mumkin (ularning summasi haqqoniy qiymatining 5 %dan yoki 1 mln so'mdan ortiq bo'lsa, kapital xarajatlar hisoblanishi bo'yicha).

Ishonchli taqdim etish. Foydalanuvchining qabul qilgan qarori qanchalik to'g'riligi va unga kelajakda naf keltirishi axborotning ishonchligiga bog'liq. Ma'lumki, moliyaviy hisobotlarda iqtisodiy hodisalar so'z va sonlar bilan ifodalanadi. So'z va sonlar bilan ifodalangan iqtisodiy hodisalar foydalanuvchilar uchun foydali bo'lishi uchun, u albatta ishonchli yoki belgilangan talablarga javob bermog'i lozim. Ma'lumot o'rinli bo'lib turib, o'z tavsifi va taqdim etilishi bo'yicha ishonchli bo'lmasa, uning tan olinishi keyinchalik xato qarorlar qabul qilinishiga olib kelishi mumkin. Demak, axborot foydali bo'lishi uchun u

ishonchli bo'lishi kerak. Shu sababdan, mutaxassislar ishonchlilikni sifat xususiyatlarining ahamiyatligi bo'yicha o'rinlilikdan so'ng, ba'zida esa u bilan bir qatorga qo'yishadi.

Agar taqdim qilingan axborotda jiddiy xato yoki atayin buzib ko'rsatishlar bo'lmasa va foydalanuvchilar uning haqqoniy taqdim etilganligiga tayanishi mumkin bo'lsa, shuningdek, uni boshidanoq aks ettirish rejalashtirilgan yoki oldindan bilish imkoniyati mavjud bo'lsa, bunday axborotlar ishonchli deb hisoblanadi. Ma'lumotlar ishonchli bo'lishi uchun, ularni tashkil etgan manbalari bilan tasdiqlash imkoniyati mavjud va taxminlardan holi bo'lishi, shuningdek, ularni bir necha usullar bilan tekshirib chiqilganda ham bir xil natija berishi lozim.

Konseptual asosga ko'ra, axborot mutlaqo ishonchli taqdim etilishi uchun u uchta xususiyatga ega bo'lishi kerak. Ya'ni u *to'liq*, *betaraf* va *xatolikdan xoli* bo'ladi. Hisob-kitobda mukammallik shart! Kengashning maqsadi, ushbu xususiyatlarga erishish, mukammallikni maksimal-lashtirishdir.

To'liqlik. Axborot ishonchli bo'lishi uchun u albatta to'liq bo'lishi zarur. To'liq tavsif, foydalanuvchi tavsiflanayotgan iqtisodiy hodisani tushunishi uchun zarur bo'lgan barcha axborotni, jumladan zarur ta'riflar va izohlarni o'z ichiga oladi. Masalan, aktivlar guruhining to'liq tavsifi, kamida guruhdagi aktivlar tavsifini ta'rifi, shu guruhdagi barcha aktivlarning sondagi ifodasini va mazkur sondagi ifoda nimani (masalan, boshlang'ich qiymatni, tuzatilgan qiymatni yoki haqqoniy qiymatni) anglatishini tushuntirishi lozim. Ba'zi moddalar bo'yicha to'liq tavsif ushbu moddalarning tavsifi hamda ahamiyatli sifat tavsifini, ushbu sifat va tavsifga ta'sir etuvchi omillar va holatlar, shuningdek, ularning sondagi ifodasini aniqlash uchun qo'llaniladigan jarayon to'g'risida tushuntirishlarni ham taqozo etishi mumkin.

Betaraflik. Moliyaviy hisobot ma'lumotlari ishonchliligini ta'minlashda betaraflik qoidasiga rioya qilish talab etiladi. Zero, g'araz niyat bilan tayyorlangan moliyaviy hisobot ishonchli bo'lmaydi. Moliyaviy axborotning tanlash

va taqdim etish orqali fikrni shakllantirish yoki qarorlarni qabul qilishda oldindan belgilangan natija yoki yakunga erishish maqsadiga o'z ta'sirini ko'rsatgan harakat betaraf deb hisoblanishi mumkin emas.

Konseptual asosda betaraflikka moliyaviy axborotni tanlash yoki taqdim qilishdagi xolislik deb ta'rif berilgan. Betaraf tavsif g'arazli, bo'rttirilgan, urg'u berilgan, ahamiyati pasaytirilgan yoki moliyaviy axborotning foydalanuvchilar tomonidan ijobiy yoki salbiy qabul qilinishi ehtimolini oshirish uchun boshqacha yo'sinda hiyla ishlatishdan holi bo'lishi lozim. Lekin bu butunlay bemaqsad yoki qabul qilinadigan qarorga ta'sir qilmaydigan ma'lumot degani emas. Aksincha, o'rinli moliyaviy axborot, o'z ta'rifiga ko'ra foydalanuvchilarning qarorlarida o'zgarish keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan axborotdir.

Bexatolik. Biz yuqorida moliyaviy hisobot ishonchli bo'lishi uchun betaraflik qoidasiga rioya etilishi lozimligini aytib o'tdik. Shuningdek, betaraflikning asosiy belgisi g'arazlilikdir. Ayrim hollarda moliyaviy hisobot betaraf yoki beg'araz holda taqdim qilinganda ham uning ishonchliligi ta'minlanmasligi mumkin. Biz bunda moliyaviy hisobot tuzish bilan bog'liq hisob-kitoblarda yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan xatolar natijasida yuzaga keladigan ishonchsizlikni nazarda tutmoqdamiz.

Kengash ta'kidlaydiki, ishonchli taqdim etish axborot hamma tarafdin aniq yoki to'g'ri degani emas. Xatolikdan xoli degani hodisani aks ettirishda xatolarga yoki tushirib qoldirishga yo'l qo'yilmaganligi va taqdim qilinadigan axborotni tayyorlash uchun ishlatiladigan jarayon bexato tanlangani va to'g'ri qo'llanilganligini bildiradi. Bu jihatdan, bexatolik barcha holatlarda mutlaqo aniqlikni anglatmaydi. Masalan, kuzatib bo'lmaydigan narx yoki qiymatga nisbatan aniq yoki noaniq mezonini tatbiq etib bo'lmaydi. Ammo, agar ko'rsatilgan summa baholash ma'nosida deb aniq va ravshan tavsiflangan baholash usulining mohiyati va cheklovlari tushuntirilgan bo'lsa hamda baholash uchun tegishli usulni tanlash va qo'llashda xatolikka yo'l qo'yilmagan bo'lsa, ushbu baholashning taqdim qilinishi ishonchli bo'lishi mumkin.

Lekin, shuni unutmaslik kerakki, ishonchli taqdim etish, o'z-o'zidan, hamma vaqt ham foydali axborot berilishiga erishildi degani emas. Masalan, hisobot beruvchi korxonada davlat grantlari yordamida asosiy vositalarni olishi mumkin. Shubhasiz, korxonaga ushbu aktivlar tekinga tushganini ko'rsatish, bu ro'y bergan hodisani haqqoniy aks ettirish va ushbu aktivlar qiymati ishonchli taqdim etilganini bildirar edi, lekin bunday axborot ehtimol kutilgan nafni bermasligi mumkin. Chunki, bunda aktivning haqqoniy qiymati bilan bog'liq ayrim ma'lumotlar, xususan uning qadrsizlanishi bilan bog'liq hodisalar yoritilmay qoladi. Shu sababli, dastlabki axborot qo'shimcha ravishda ayrim ma'lumotlar bilan to'ldirilishi yoki oydinlashtirilishi lozim bo'ladi. Bunga, sal murakkabroq misol sifatida, aktivning qadrsizlanishini aks ettirish maqsadida aktivning balans qiymatini to'g'rilash summasining baholash ahamiyatini keltirish mumkin. Agar, hisobot beruvchi korxonada tegishli usulni to'g'ri qo'llagan, baholashni to'g'ri tavsiflagan va baholashga ahamiyatli ta'sir ko'rsatadigan har qanday noaniqlikni tushuntirib bergan bo'lsa, ushbu baholash axborotni ishonchli taqdim qilish hisoblanadi. Ammo, bunday baholashdagi noaniqlikning darajasi yetarlicha yuqori bo'lsa, ushbu baholash katta foyda bermaydi. Boshqacha aytganda, ishonchli taqdim qilinadigan aktivning o'rinliligiga shubha tug'diradi. Agar ishonchliroq bo'lgan muqobil axborot taqdim etish imkoniyati bo'lmasa, yuqorida qayd etilgan baholash mavjud bo'lgan eng ishonchli axborot bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Asosiy sifat xususiyatlarini qo'llash. Biz yuqorida asosiy sifat xususiyatlari tarkibini aniqladik hamda ularning har birining mazmunini ochib berdik. Bunda shunga amin bo'ldikki, o'rinli axborot ishonchli, ishonchli axborot esa ayni paytda o'rinli bo'lishi lozim. O'rinli bo'lmagan hodisani ishonchli taqdim etish ham, o'rinli hodisani ishonchsiz taqdim etish ham foydalanuvchilar tomonidan to'g'ri qarorlar qabul qilinishiga yordam bermaydi.

Konseptual asosda asosiy sifat xususiyatlari mohiyatini yoritish bilan bir qatorda, ularni amalda qo'llash

uslublariga ham joy ajratilgan. Xususan, unda asosiy sifat xususiyatlarini qo'llash uchun eng samarali va natijali usul bo'lib, quyidagi bosqichli jarayon xizmat qilishi tavsiya qilingan (ushbu misolda axborot foydaliligini oshiradigan xususiyatlar va foydali axborotni olish uchun sarflanadigan xarajatlar bilan bog'liq bo'lgan cheklovning ta'siri hisobga olinishi e'tiborga olinmagan):


- birinchi bosqich: hisobot beruvchi korxonaning moliyaviy axborotidan foydalanuvchilar uchun foydali bo'lish ehtimoliga ega bo'lgan iqtisodiy hodisa aniqlanadi;

- ikkinchi bosqich: agar u tushunarli va ishonchli taqdim etilishi mumkin bo'lsa, ushbu hodisa to'g'risida eng o'rinli bo'ladigan axborot turi aniqlanadi;

- uchinchi bosqich: bunday axborotni aniqlash va ishonchli taqdim etilishi mumkinligi belgilanadi.

Agar yuqoridagi uslubni qo'llab, shunday axborotga ega bo'linsa va uni ishonchli taqdim etilishi mumkin bo'lsa, asosiy sifat xususiyatlari talablariga rioya etish jarayoni shu bosqichda to'xtaydi. Aks holda, ushbu jarayon navbatdagi eng o'rinli axborotga erishgunga qadar takrorlanadi. Mazkur jarayon quyidagi rasmda ifodalangan.

Axborotning foydaliligini oshiradigan sifat xususiyatlari: Biz yuqorida axborotning asosiy deb hisoblangan o'rinli va ishonchli sifat xususiyatlarini ko'rib chiqdik. Endi o'rinli va ishonchli taqdim etilgan axborotning foydaliligini oshiradigan *qiyoslanuvchanlik, tekshiruvchanlik, o'z vaqtida taqdim etish va tushunarlilik* sifat xususiyatlarini o'rganamiz. Mazkur sifat xususiyatlari oldin aytib o'tganimizdek "yordamchi sifat xususiyatlari" deb ataladi. Savol tug'iladi, agar axborot o'rinli va ishonchli taqdim etilgan bo'lsa, yordamchi sifat xususiyatlariga qanday zaruriyat bor? Gap shundaki, yordamchi sifat xususiyatlari hodisani tavsiflash uchun ikkita usuldan, agarda ikkalasi ham teng ravishda o'rinli va ishonchli taqdim etishni ta'minlaydigan deb hisoblansa, qaysi birini qo'llash maqsadga muvofiq ekanligini aniqlashda yordam beradi.



## 2.2-rasm. **Axborotlarni aniqlash va ishonchli taqdim etish**

Qiyoslanuvchanlik. Axborotning ikkalasi ham teng ravishda o'rinli va ishonchli bo'lgan hollarda ularning qaysi biri maqsadga muvofiq ekanligini aniqlaydigan yordamchi sifat xususiyatlaridan eng foydalisi bu "qiyoslanuvchanlik"dir. Zero, faylasuflar ham narsalarni solishtirish orqali haqiqatga erishish mumkinligini ta'kidlashgan. Xuddi shuningdek, foydalanuvchidan muqobil yondashuvlar natijasida investitsiyani sotish yoki saqlab turish yohud bu yoki boshqa hisobot beruvchi korxonaga investitsiya qilish to'g'risidagi qarorlardan birini tanlash taqozo etiladi. Bunday tanlash, mazkur korxonaga tegishli bo'lgan muayyan davrdagi axborotni boshqa davr yoki boshqa sanaga tegishli bo'lgan o'xshash axborot bilan, shuningdek, hisobot beruvchi korxonaga to'g'risidagi axborotni boshqa korxonalar to'g'risidagi o'xshash axborot bilan taqqoslash yoki qiyoslash orqaligina ijobiy hal qilinishi mumkin.

Shu bilan birga, qiyoslanuvchanlik narsalarning o'xshashliklari va farqlarini aniqlash va tushunishga yordam beradi. Boshqa sifat xususiyatlaridan farqli o'laroq, qiyoslanuvchanlik alohida bir narsaning (moddaning) tavsifi bo'lmay, u albatta, kamida ikkita o'xshash narsa (modda) bo'lishini talab etadi.

Bunda shuni yodda tutish kerakki, izchillik qiyoslanuvchanlik bilan bog'liq bo'lsa-da, aynan shu ma'noni bildirmaydi. Izchillik bir hisobot beruvchi korxonaga

doirasida har xil davrlardagi yoki bir davr ichida har xil korxonalariga tegishli bo'lgan bir xil moddalarga nisbatan bir xil usullar qo'llanilishini anglatadi. Agar, qiyoslanuvchanlik maqsad bo'ladigan bo'lsa, izchillik ushbu maqsadga erishishga yordam beradi.

Ayni paytda, qiyoslanuvchanlik bir xillik emasdir. U o'xshash, ayni paytda bir biridan farq qiladigan narsalarga nisbatan qo'llaniladi. Axborotning qiyoslanuvchanligini oshirish maqsadida o'xshash narsalarni har xil qilib ko'rsatish yoki bir biriga o'xshamagan narsalarni o'xshash qilib ko'rsatish orqali erishib bo'lmaydi.

Albatta, qiyoslanuvchanlikning ma'lum darajasiga, asosiy sifat xususiyatlariga rioya qilish orqali erishish mumkin. Tabiiyki, o'rinli iqtisodiy hodisani ishonchli taqdim qilish boshqa hisobot beruvchi korxonaning o'rinli iqtisodiy hodisasini ishonchli taqdim qilish bilan ma'lum darajada qiyoslanuvchan bo'lishi kerak.

Qiyoslanuvchanlikni tahlil qilar ekanmiz, yuqoridagi xulosalarga shuni qo'shimcha qilmoqchimizki, muayyan hodisa turli usullar yordamida ishonchli taqdim etilishi mumkin bo'lsada, aynan bitta iqtisodiy hodisaga nisbatan hisobga olishning muqobil usullaridan foydalanish qiyoslanuvchanlikni pasaytiradi.

Tekshiruvchanlik. Biz moliyaviy hisobotning sifat xususiyatlarini tahlil qilar ekanmiz, ularning aksariyati foydalanuvchi uchun moliyaviy axborotni foydaliligini oshirishga yo'naltirilganini bir necha bor takrorladik. Ammo, yuqoridagi sifat xususiyatlari bo'yicha talablar asosan moliyaviy hisobot tayyorlovchi yoki taqdim qiluvchi subyektgacha nisbatan qo'yilayotganligini sezish qiyin emas. Shu bilan bir birga, Konseptual asosda moliyaviy hisobot ma'lumotlari asosida qaror qabul qiluvchi yoki o'z pul mablag'lari bilan tavakkal qiluvchi foydalanuvchiga ta'lluqli jihati ko'proq bo'lgan sifat xususiyatlari ham mavjud. Bizning fikrimizcha, ana shunday sifat xususiyatlaridan biri, bu so'zsiz tekshiruvchanlikdir. Zero, xalq donishmandchiligida "Oldin tekshir, so'ngra ishon", degan aqida bor. Binobarin, biz foydalanuvchini moliyaviy hisobotni tushunish darajasidagi bilim va malakaga ega

hamda uning ishonchli taqdim qilinishidan eng manfaatdor bo'lgan shaxs sifatida faraz qilamiz. Modomiki, shunday ekan, foydalanuvchiga moliyaviy hisobotni tekshirib, unga ishonch hosil qilish imkoniyati ham yaratilishi zarur deb hisoblaymiz

Demak, tekshiruvchanlik foydalanuvchilarga axborotda ko'zlangan iqtisodiy hodisa haqqoniy taqdim qilinganligiga ishonch hosil qilishga yordam beradi. Shu bilan birga, ushbu sifat xususiyatini qo'llash, turli xabardor va mustaqil kuzatuvchilar muayyan tavsif ishonchli taqdim qilinganligi to'g'risida to'liq murosaga erishmagan bo'lsa ham umumiy bir fikrga kelishishi mumkinligini anglatadi. Tekshirilayotgan miqdoriy axborot aniq baholangan yagona ko'rsatkichga ega bo'lishi shart emas. Bunda, ushbu ko'rsatkichning yuqori va quyi chegaralari (diapazoni) va ular bilan bog'liq bo'lgan ehtimolliklarni ham tekshirish imkoniyati mavjud bo'lishi lozim.

Ma'lumki, tekshirish bevosita yoki bilvosita amalga oshirilishi mumkin. Bevosita tekshirishda summa yoki boshqa taqdim qilingan ma'lumot bevosita kuzatuv yordamida, masalan naqd pul to'g'riligini tekshirish, uni sanash orqali tasdiqlanadi. Bilvosita tekshiruvda model, formulaga kiritiladigan yoki boshqa usulda ishlatiladigan dastlabki ma'lumotlarni tekshirib, olingan natijalar bilan yana xuddi shu usullarni qo'llagan holda qayta hisoblanadi. Misol tariqasida, tovar-moddiy zaxiralar balans qiymatining to'g'riligini tasdiqlash uchun dastlabki ma'lumotlarni (miqdorlar va qiymatlarni) tekshirib (ko'rib), ularning davr mobaynidagi harakatini hisobga olgan holda (masalan, FIFO usulidan foydalangan holda) xuddi shu tarzda davr oxiriga bo'lgan tovar-moddiy zaxiralar qiymatini qayta hisoblash orqali tasdiqlashni keltirish mumkin.

Ba'zi izohlar va kelgusi davrlarda ma'lum bo'ladigan rejaga ta'lluqli bo'lgan ayrim moliyaviy axborotni kelgusi davr kelmaguncha tekshirib bo'lmaydi yoki buning mutlaqo imkoniyati bo'lmaydi. Bunday hollarda, foydalanuvchilar ushbu axborotdan foydalanish yoki foydalanmaslik to'g'risida qaror qabul qilishiga yordamlashish maqsadida, odatda uning asosida yotgan taxminlarni, axborotni yig'ish



usullarini va ushbu axborotni tasdiqlaydigan boshqa omillar va jihatlarni ochib berish zarur bo'ladi.

O'z vaqtida taqdim etish. Ma'lumki, foydalanuvchilarga moliyaviy hisobotlarni taqdim qilish uchun ma'lum muddat talab qilinadi. Zero, moliyaviy hisobot taqdim qilish uchun davr talabi o'rnatilgan. Binobarin, foydalanuvchining qaror qabul qilishi muddati shu hisobot davri bilan bog'liq ravishda kechadi. Demak, moliyaviy hisobot o'z vaqtida taqdim qilinishi shart.

O'z vaqtida taqdim etish deganda, qabul qilinadigan qarorlarga ta'sir qilishi uchun, axborot foydalanuvchilarning qo'lida o'z vaqtida bo'lishini anglatadi. Odatda, axborot qancha eskiroq bo'lsa, shuncha ahamiyatsiz hisoblanadi. Ammo, ba'zi ma'lumotlar hisobot davri tugagandan uzoq vaqt o'tgandan keyin ham o'z vaqtidachalik ahamiyatini yo'qotmasligi mumkin, chunki ular ba'zi foydalanuvchilarga, masalan tendensiyalarni aniqlash va baholash uchun kerak bo'lishi mumkin.

Tushunarlilik. Ko'pgina mutaxassislar tushunarlilikni barcha sifat xususiyatlarining boshida bo'lishi kerak deb hisoblaydi. Albatta, moliyaviy axborot foydali bo'lish uchun avallo, tushunarli bo'lishi kerak. Bu hamma uchun ma'lum va maqbul bo'lgan tabiiy hol sifatida qabul qilingan. Lekin, Kengash ushbu masalaning mohiyatini aniqlashga alohida e'tibor beradi. Bunda albatta, moliyaviy hisobot ma'lumotlari asosida qaror qabul qiluvchi foydalanuvchilar iqtisodiyot, biznes va buxgalteriya hisobi sohasida yetarli darajada bilim va malakaga ega hamda moliyaviy hisobotni qunt bilan o'rganishga moyil va tahlil qilish salohiyati bor shaxslar sifatida tasavvur qilinadi. Ayrim holatlarda esa, moliyaviy hisobotdagi murakkab hodisalarni aniq tushunish uchun maslahatchi jalb qilinishi inkor etilmaydi.

Konseptual asosga ko'ra, axborotning aniq va lo'nda guruhlanishi, tavsiflanishi va taqdim qilinishi ushbu axborotni tushunarli bo'lishini ta'minlaydi.

Lekin ayrim hodisalarga murakkablik xos va ularni tushunarli bo'lgan oson shaklda taqdim qilish imkoniyati bo'lmaydi. Tabiiyki, bunday hodisalar to'g'risidagi axbo-

rotni moliyaviy hisobotlarga kiritmaslik, ushbu moliyaviy hisobotlardagi axborotni tushunishni osonlashtirishi mumkin. Ammo, bunda ushbu hisobotlar “to‘liqlik” mezoniga javob bermaydi. To‘liq bo‘lmagan hisobotlar to‘g‘ri qaror qabul qilishda foydalanuvchilarni chalg‘itishi mumkin.

Foydalilikni oshiradigan sifat xususiyatlarini qo‘llash. Yuqorida bayon qilingan qoidalardan xulosa qilish mumkin, moliyaviy hisobot axborot foydaliligini ta‘minlovchi asosiy (o‘rinlilik va ishonchlilik) sifat xususiyatlariga to‘la ega bo‘lishi lozim. Aks holda moliyaviy hisobot o‘z oldiga qo‘ygan maqsadga erishmaydi. Shuningdek, moliyaviy hisobot foydalilikni oshiradigan sifat xususiyatlari bilan ham iloji boricha maksimal ravishda ta‘minlanishi kerak. Lekin axborot o‘rinli yoki ishonchli taqdim etilmasa, foydalilikni oshiradigan sifat xususiyatlari xoh alohida, xoh birgalikda bo‘lmasin axborotni foydali qila olmaydi.

Foydalilikni oshiradigan sifat xususiyatlarini qo‘llash – bu oldindan belgilangan tartib emas, takror-takror bajariladigan jarayondir. Ba’zida, foydalilikni oshiradigan bitta sifat xususiyatiga maksimal ravishda erishish uchun boshqa sifat xususiyati kamaytirilishi mumkin. Masalan, moliyaviy hisobotning yangi standartini kelajakda qo‘llash natijasida qiyoslanuvchanlikni vaqtincha kamaytirish hisobiga uzoq vaqt davomida o‘rinlilik va ishonchlilikni oshirishga erishish evaziga qoplanishi mumkin. Ma‘lumotlarni tegishli darajada ochib berish qiyoslanmagan ma‘lumotlar o‘rnini qisman to‘ldirishi mumkin.

Moliyaviy axborotni tayyorlash va taqdim qilishga sarf-xarajatlar nuqtai nazaridan cheklovlar. Sarf-xarajat moliyaviy hisobot doirasida axborotni taqdim qilinishiga nisbatan mavjud cheklovdir. Moliyaviy hisobot tayyorlash va taqdim qilish ma‘lum sarf-xarajat qilish evaziga amalga oshiriladi. Tabiiyki, bu sarf-xarajatlar ushbu axborotni taqdim qilish natijasida hosil qilingan naf hisobidan qoplanadi. Bunda e‘tiborga olish kerak bo‘lgan sarf-xarajatlar va olingan nafning bir necha turlari mavjud.

Albatta, moliyaviy axborotni taqdim qiluvchilar moliyaviy axborotni yig'ish, qayta ishlash, tekshirish va tarqatish bilan bog'liq ishning bajarishga eng ko'p kuch sarf qiladi. Lekin, pirovardida ushbu sarflar foydalanuvchilarning zimmasiga tushadi, chunki foydalanuvchilarning investitsiyasidan olinadigan foydasi (dividendi) shu summaga mos ravishda kamayadi. Bundan tashqari, foydalanuvchilar taqdim qilingan axborotni tahlil qilish va talqin etish bilan bog'liq xarajatlarni ham amalga oshiradilar. Agarda zarur axborot taqdim qilinmasa, foydalanuvchilar ushbu axborotni boshqa manbalardan olishga yoki taxminiy baholashga qo'shimcha sarf-xarajatlar qilishlari kerak bo'ladi.

Ko'zlangan narsani o'rinli va ishonchli taqdim qiladigan moliyaviy axborot foydalanuvchilarga ko'proq ishonch bilan qaror qabul qilishga yordam beradi. Bu esa qimmatli qog'ozlar bozorlarining samaliroq faoliyat yurgizishi hamda butun iqtisodiyot uchun kapital jalb qilish qiymati arzonroq tushishiga olib keladi. Alohida investor, kreditor yoki boshqa qarz beruvchi tashkilot ko'proq ma'lumotga asoslangan qarorlarni qabul qilish orqali ham foyda oladi. Ammo umumiy foydalanish uchun mo'ljallangan moliyaviy hisobotlar har bir foydalanuvchining fikricha o'rinli deb hisoblanadigan barcha axborotni ta'minlab bera olmaydi.

Shunga qaramasdan, Kengash, sarf-xarajatlar bilan bog'liq cheklovni e'tiborga olgan holda, ma'lum axborotni hisobotlarda taqdim etishdan keladigan foyda ushbu axborotni taqdim etish va ishlatish uchun ketadigan sarf-xarajatlarni qoplashi mumkinligi yoki mumkin emasligini baholaydi. Bundan tashqari, Kengash yangi MHXS ishlab chiqqan paytda sarf-xarajatlar bo'yicha cheklovni qo'llash nuqtai nazaridan moliyaviy axborotni taqdim qiladigan tomonlar, shuningdek, foydalanuvchilar, auditorlar, olimlar va boshqalardan ushbu standartni ishlab chiqishda ko'rilishi mumkin bo'lgan foyda va sarf-xarajatlarning mohiyati va miqdori to'g'risida ma'lumot olishga harakat qiladi. Aksariyat hollarda, buni baholash miqdoriy va sifat ma'lumotlarini birgalikda qo'llash asosida amalga oshiriladi.

Subyektivlik xos bo'lgani uchun, har xil shaxslar tomonidan moliyaviy axborotning ayrim moddalarini hisobotda taqdim etish bilan bog'liq foyda va sarf-xarajatlarni baholash natijalari, tabiiyki bir-biridan farq qiladi. Shuning uchun, Kengash foyda va sarf-xarajatlarni faqat ayrim hisobot beruvchi korxonalariga nisbatan emas, balki umuman moliyaviy hisobotga nisbatan ko'rib chiqishga harakat qiladi. Ammo bu foyda va sarf-xarajatlarning hisobga olinishi hamma vaqt ham barcha korxonalariga nisbatan hisobot berishning bir xil talablari o'rnatilishini oqlaydi degani emas. Farqlar korxonalar ko'lamining har xilligi, kapitalni jalb qilish yo'llarining har xilligi (jamiyat uchun ochiq yoki xususiy yo'l bilan) hamda foydalanuvchilar talablarining har xilligi yoki boshqa omillar tufayli o'rinli bo'lishi mumkin.

Biz yuqorida Kengash tomonidan Konseptual asosda moliyaviy hisobotning (axborotning) sifat tavsiflari bo'yicha o'rnatilgan qoidalarni tahlil qildik. Shu o'rinda, mazkur qoidalarni respublika milliy qonunchiligida buxgalteriya hisobiga tatbiq qilish holati bo'yicha ham qisqacha fikr bildirib o'tish joiz. Bunda amaldagi qonun hujatlari deganda O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi qonuninng 6-moddasi va 1-sonli Buxgalteriya hisobi milliy standartlari "Hisob siyosati va moliyaviy hisobot"da belgilangan asosiy tamoyillar (qoida)lar nazarda tutilmoqda.

Shuni alohida qayd etish lozimki, respublikada amalda bo'lgan ushbu qonun hujjatlarida belgilangan buxgalteriya hisobining asosiy qoida (tamoyil)lari ham nomi, ham soni jihatidan bir-biridan katta farq qiladi. Misol tariqasida olsak, "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi qonunda ular "qoidalar" deb nomlangan bo'lsa, 1-sonli Milliy standartda "tamoyillar" deb qabul qilingan. Shuningdek, "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi qonunning 6-moddasida 11ta qoida belgilangan bo'lsa, 1-sonli Buxgalteriya hisobining milliy standartlarida ularning soni 20tadan iborat. Afsuski, mazkur asosiy tamoyillar (qoida)larga faqat 1-sonli BHMSda izoh berilgan, boshqa qonun hujjatlarida va ilmiy


adabiyotlarda esa, ularni sanab o'tish bilan chegaralangan, xolos.

Bundan tashqari, milliy qonunchiligimizda ushbu qoidalar bir butun buxgalteriya hisobi jarayonini qamrab oladi. Konseptual asosda esa sifat tavsiflari faqat moliyaviy hisobot axborotiga nisbatan qo'llaniladi.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 26-noyabrdagi "2011-2015 yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida" gi PQ-1438-sonli qaroriga muvofiq, auditorlik bo'yicha milliy standartlarni xalqaro standartlar asosida takomillashtirish hamda bank-moliya tizimi buxgalteriya hisobi va hisobotini to'liq MHXSga moslashtirilishi ishlari amalga oshirilmolqda. O'ylaymizki, yuqoridagi dolzarb vazifalarni hal etish borasida Konseptual asosda moliyaviy hisobotning (axborotning) sifat tavsiflari bo'yicha o'rnatilgan qoidalar ham nazardan chetda qolmaydi.

### 2.3. Banklarda moliyaviy hisobot elementlari va ularni tan olish

Moliyaviy hisobotlar moliyaviy natijalarni va boshqa bank operatsiyalarini aks ettiradi, ularni moliyaviy hisobotlarning elementlari deb ataluvchi iqtisodiy tavsiflariga muvofiq alohida moddalarga guruhlaydi.



#### 2.3-rasm. **Bank moliyaviy hisoboti elementlari**<sup>10</sup>

Aktivlar, xususiy kapital va majburiyatlar buxgalteriya balansida bankning moliyaviy holatini aniqlash bilan bevosita bog'liq bo'lgan elementlaridir.

<sup>10</sup> Muallif tomonidan tayyorlandi

Daromadlar va xarajatlar faoliyat natijalari to'g'risidagi hisobotda bankning moliyaviy natijalari ko'rsatkichlarini aniqlash bilan bevosita bog'liq bo'lgan elementlaridir.

Pul mablag'larining harakati to'g'risidagi hisobot faoliyat natijalari va buxgalteriya balansi elementlaridagi o'zgarishlar to'g'risidagi hisobotning elementlaridir.

Aktivlar, majburiyatlar, xususiy kapital, rezervlar, daromadlar va xarajatlar moliyaviy holatni aniqlash bilan bevosita bog'liq elementlardir. Ular quyidagi tarzda aniqlanadi:

Aktivlar - subyekt nazorat qiladigan, kelgusida ulardan daromad olish maqsadida avvalgi faoliyat natijasida olingan iqtisodiy resurslardir.

Majburiyatlar - shaxsning (qarzdorning) boshqa shaxs (kreditor) foydasiga muayyan ishni amalga oshirish, masalan, mol - mulkni topshirish, ishni bajarish, pul to'lash va boshqa majburiyatlaridir yoxud muayyan xatti - harakatdan tiyilib turish majburiyatidir, kreditor esa qarzdordan o'z majburiyatlarini bajarishini talab qilishga haqlidir;

Xususiy kapital - subyektning majburiyatlarni chegirib tashlagandan keyingi aktivlaridir;

Zaxiralar - kelgusida muayyan xarajatlarga sarflanishi mumkin bo'lgan xususiy kapitalning bir qismidir;

Daromadlar - hisobot davrida aktivlarning ko'payishi yoxud majburiyatlarning kamayishidir;

Xarajatlar - hisobot davrida aktivlarning kamayishi yoxud majburiyatlarning ko'payishidir;

Moliyaviy natijalar – tijorat bankining foyda yoki zarar shaklida ifodalangan faoliyatining pirovard iqtisodiy yakunidir.

Aktivlar - tijorat bankining qiymat bahosiga ega bo'lgan moddiy, shu jumladan, pul mablag'lari va debitorlik qarzlari va nomoddiy mulkidir.

Aktivlarda aks ettirilgan bo'lg'usi iqtisodiy foyda, tijorat bankining pul mablag'lari oqimiga potensial, bevosita va bilvosita qo'shiladigan ulushdir. Bu ulush bank asosiy faoliyatining bir qismi sifatida yuzaga kelishi mumkin.

Bankning aktivlari avvalgi bitimlar va boshqa voqealarning natijasidir. Banklar odatda aktivlarni sotib olib yoki hosil qilib unga ega bo'ladilar, biroq, boshqa bitimlar va voqealar aktivlarni ko'paytirishga imkon beradi. Masalan, tijorat banki tomonidan mijozlarga berilgan kreditlar, lizing, faktoring va hokazolar. Kelgusida kutiladigan bitimlar va boshqa voqealar o'zidan o'zi aktivlarning paydo bo'lishiga olib kelmaydi.

Bank o'z aktivlaridan bank operatsiyalarni amalga oshirishda, xizmat ko'rsatishda va ularni boshqarish uchun foydalanadi.

Aktivlarda aks ettirilgan bo'lg'usi iqtisodiy foyda tijorat banki tomonidan har xil yo'llar bilan amalga oshirilishi mumkin. Masalan, aktivdan:


- bank operatsiyalarini bajarishda va xizmatlar ko'rsatishda alohida yoki boshqa aktivlar bilan birgalikda foydalanilishi;

- boshqa aktivlarga almashtirilishi;

- majburiyatlarni bajarish uchun foydalanilishi;

- bankning egalari o'rtasida taqsimlanishi mumkin.

Aktivlar pul, kredit, qimmatli qog'ozlar, binolar, inshootlar va uskunalar singari jismoniy shaklga ega. Biroq, jismoniy shakl aktivning mavjud bo'lishi uchun zarur emas. Masalan, patentlar va mualliflik huquqlari aktivlardir, agar bank kelgusida ulardan foydalanishdan iqtisodiy foyda olishni kutayotgan bo'lsa.




2.4-rasm. **Tijorat banklarining jami aktivlari qoldig'ining dinamikasi** (mlrd so'm hisobida)<sup>11</sup>

<sup>11</sup> [www.cbu.uz](http://www.cbu.uz) sayti ma'lumotlari

Aktivlar, masalan, debitorlik qarzlari va mulk yuridik huquqlar, shu jumladan egalik huquqi bilan bogʻliqdir. Aktiv mavjudligini aniqlashda, egalik huquqi asosiy hisoblanmaydi. Masalan, ijaraga olinadigan mulk aktiv hisoblanadi, agar bank ana shu mulkdan olinishi kerak boʻlgan foydani nazorat qilsa.

Tijorat banklarining jami aktivlari oxirgi 9 yil davomida xar yili oʻrtacha 26,9 foizga oʻsib, 6,7 baravarga koʻpaygan, 2017-2018 yillarda deyarli 2,5 baravarga koʻpaygan, 2019-yilning 1-yanvar holatiga koʻra 21,4 trln soʻmni tashkil qilgan (2.5-rasm). Bank aktivlari yuqori oʻsish tendensiyasiga ega.



2.5-rasm. **Tijorat banklari majburiyatlarining oʻsish dinamikasi** (mlrd soʻm hisobida)<sup>12</sup>

Xarajatlarni amalga oshirish bilan aktivlarni hosil qilish oʻrtasida uzviy aloqa mavjud, ammo bu jarayonlar hamma vaqt ham vaqti boʻyicha toʻgʻri kelmaydi. Bank tomonidan amalga oshirilgan xarajatlar boʻlgʻusi iqtisodiy foyda izlanganidan dalolat beradi, lekin aktivlar olinganini uzil - kesil tasdiqlamaydi. Binobarin, xarajatlarning mavjud emasligi obyektни aktiv deb hisoblash uchun asos boʻlmaydi. Masalan, bankka tekinga berilgan obyektlar aktivlarni taʼriflashga mos keladi. Bank boshqa yuridik va jismoniy shaxslar oldida joriy masʼuliyatli ekanligi majburiyatning asosiy tavsifidir.

Majburiyatlar ustavning yoki shartnomaning talablari oqibati sifatida kuchga kirishi mumkin. Masalan, olingan

<sup>12</sup> [www.cbu.uz](http://www.cbu.uz) sayti maʼlumotlari



tovar - moddiy zaxiralar va xizmatlar uchun to'lanadigan summalar. Majburiyatlar oldin tadbirkorlik ishi jarayonida, yaxshi munosabatlarni saqlab turish yoki xolisona tarzda ish ko'rishda ham yuzaga keladi.

Hozirgi majburiyat bilan kelgusi majburiyat o'rtasida chegara bo'lishi kerak. Bank rahbarining kelgusida aktivlarni sotib olish haqida qabul qilgan qarori majburiyat paydo bo'lishiga sabab bo'lmaydi. Majburiyat odatda aktiv olinganda yoki bank aktivni sotib olish to'g'risida bitimga kirishgandagina paydo bo'ladi.

Tegishli majburiyatni bajarish odatda boshqa tarafning e'tirozlarini qondirish uchun iqtisodiy foydani ifodalovchi bank resurslarini o'ziga jalb etadi. Majburiyatlarning bajarilishi har xil usullarda (qonun hujjatlarida ko'zda tutilgan hollardan tashqari) amalga oshiriladi: haq to'lash bilan; boshqa aktivlarni berish bilan; xizmatlarni ko'rsatish bilan; ushbu majburiyatni boshqasi bilan almashtirish orqali; majburiyatlarni aksiyalarga almashtirish orqali. Majburiyat, kreditor o'z huquqlaridan bosh tortgan hollarda yoki kreditor ana shu huquqlaridan mahrum bo'lganida, bajarilgan deb hisoblanishi mumkin.


Bank majburiyatlari ham o'tgan yillarga nisbatan o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan. 2019-yil 1-yanvar holatiga bank majburiyatlari 188,0 trln so'mni tashkil qilgan (2.5-rasm). Bu tijorat banklarining kapitallashuv bazasining kengayganligidan dalolat beradi. Bank majburiyatlari jami passivlarining o'rtacha 88 foizini tashkil qilgan.

Xususiy kapital ustav, qo'shilgan, zaxiralar kapitaldan va taqsimlanmagan foydadan iboratdir.

Zarur hollarda ustav, qo'shilgan, zaxiralar kapitali tahliliy jihatdan hisobga olinadi.

Buxgalteriya balansidagi xususiy kapitalning miqdori aktivlar qiymatini va majburiyatlarni baholashga bog'liqdir.

Tijorat banklarining umumiy kapitali 2019-yilning 1-yanvar holatiga ko'ra, 2018-yilning 1-yanvariga nisbatan 28,5 foizga oshib, qariyb 26,6 trln so'mni tashkil etgan. So'nggi 10 yil davomida har yili o'rtacha 32 foizga o'sgan. Bank kapitali o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan.



2.6-rasm. **Tijorat banklari jami kapitalining o'sish dinamikasi** (mlrd so'm hisobida)<sup>13</sup>

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 21-dekabrda "Aksiyadorlik jamiyatlariga xorijiy investorlarni jalb qilish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-2454-sonli qarori talablaridan kelib chiqqan holda tijorat banklari tomonidan bank ustav kapitalining 15 foizidan kam bo'lmagan qismini xorijiy investorlarga sotish yuzasidan o'tgan davr mobaynida zaruriy chora - tadbirlar amalga oshirilgan.

Tijorat banki va kreditorlarni zararlarning oqibatlaridan qo'shimcha tarzda himoya qilishni ta'minlash uchun zaxiralarni vujudga keltirish zarur. Zaxiralarni hosil qilish va ularning miqdori haqidagi axborot qarorlar qabul qilishda foydalanuvchilar uchun ahamiyatlidir. Zaxiralarni vujudga keltirish xo'jalik yurituvchi subyektga doir qonunchilikda va ustavda (soliq qonunlarini buzmaganda) ko'zda tutiladi.

Tijorat banklarining daromadi foizli va foizsiz daromadini o'z ichiga oladi. Bank xarajatlari ham foizli, foizsiz va operatsion xarajatlarni o'z ichiga oladi.

Zararlar iqtisodiy foydaning kamayganligini bildiradi va o'z tabiatiga ko'ra boshqa xarajatlardan farq qilmaydi va konseptual asosning alohida qismi deb hisoblanmaydi.

Zararlar boshqa aktivlarni sotishda yoki tabiiy ofatlar natijasida yuzaga kelishi mumkin. Bunday zararlar

<sup>13</sup> [www.cbu.uz](http://www.cbu.uz) sayti ma'lumotlari

moliyaviy natijalar haqidagi hisobotda ko'rsatiladigan bo'lsa, ular haqidagi axborot iqtisodiy qarorlarni qabul qilishda foydali bo'lishi mumkin va shuning uchun ham ular alohida ko'rsatiladi.

Daromadlar va xarajatlar moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotda qarorlar qabul qilish uchun zarur bo'lgan axborotni taqdim etish maqsadida faoliyat turlarini chegaralash yo'li bilan ko'rsatilishi mumkin.

Tan olish - buxgalteriya balansiga kirish jarayoni yoki jihatni aniqlashtirishga javob beruvchi va ularda aks ettirilishi lozim bo'lgan moddalarning moliyaviy natijalari to'g'risidagi hisobotdir.

Tan olish jarayoni moddaning bayonini ham, uning puldagi ifodasini ham o'z ichiga oladi, shuningdek u ushbu moddaning buxgalteriya balansiga yoki moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotga kiritilishidir.

Moddaning mezonga muvofiqligini aniqlash uchun va uni malakali tarzda aks ettirishda ahamiyatlilik va taqqoslash qoidalariga e'tiborni qaratish kerak.

Elementlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik ta'rif va mezonlarga javob beradigan modda alohida jihatni aks ettirishini anglatadi. Masalan, aktivning aks ettirilishi o'z-o'zidan daromad yoki majburiyatning boshqa elementini aks ettirishni talab qiladi.

Aktivdan foydalanish natijasida bankka bo'lg'usi iqtisodiy foyda tushish ehtimoli mavjud bo'lganida ushbu aktiv buxgalteriya balansida aks ettiriladi va aktiv aniq ifodalanadigan chiqimlar yoki qiymatni o'z ichiga oladi.

Majburiyatlar o'zida iqtisodiy foydani ifodalovchi resurslar oqimi ehtimoli mavjud bo'lganida buxgalteriya balansida e'tirof etiladi, shuningdek ular majburiyatlarni qabul qilish natijasidir.

Aktivlarning ko'payishi va majburiyatlarning kamayishi bilan bog'liq bo'lg'usi iqtisodiy foydaning o'lchangan ko'payishi paydo bo'lganda, daromad moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotda aks ettiriladi. Bu esa daromadni aks ettirish aktivlarning ko'payishi va majburiyatlarning kamayishini aks ettirish bilan bir vaqtda yuzaga kelishini anglatadi.

Xarajat aktivlarning kamayishi va majburiyatlarning ko'payishi bilan bog'liq bo'lg'usi iqtisodiy fondning o'lchangan kamayishi paydo bo'lganda moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotda aks ettiriladi va bu ishonchli tarzda belgilanishi mumkin. Bu esa xarajatlarni aks ettirish majburiyatlardagi ko'payish yoki aktivlarning kamayishini aks ettirish bilan bir vaqtda yuzaga kelishini anglatadi.

Baholash - aktivlar va majburiyatlar e'tirof etiladigan va moliyaviy hisobotlarda qayd etiladigan pul o'lchovining usulidir.

#### **2.4. Moliyaviy hisobotning konseptual asoslari**

Konsepsiya (sonseptio) lotincha so'z bo'lib, to'plash, birlashtirish, tizim yoki ibora ma'nosini anglatadi. Mazmunan esa biror fan yoki tadqiqot asoslari bo'yicha umumqabul qilingan nazariy qoidalar to'plami, shuningdek, biror predmet yoki voqeani tushunish, ko'rib chiqish usullari yoki unga nisbatan yondashuvlar va qarashlar tizimi sifatida izohlanadi. Moliyaviy hisobot nuqtai nazaridan u moliyaviy hisobot tuzishda qo'llanilayotgan amaldagi qoidalarni baholash va ularni rivojlantirish asoslaridir.

Moliyaviy hisobotning kontseptual asoslari (keyingi matnda Kontseptual asos) Moliyaviy hisobotning Xalqaro Standartlari Kengashi (keyingi matnda Kengash) tomonidan 2010-yil sentyabrda chop etilgan. U, 1989-yilda MHXS qo'mitasi tomonidan nashr etilgan "Moliyaviy hisobotni tayyorlash va taqdim etish asoslari"ning o'rnini egallagan. Ushbu Konseptual asos moliyaviy hisobotni tayyorlash va taqdim etish asoslari bo'lib xizmat qiladigan konsepsiyalarni belgilaydi. Demak, u hisobot tayyorlovchi tashkilot tomonidan moliyaviy hisobotni tashqi foydalanuvchilarga taqdim qilish bo'yicha rioya etilishi lozim bo'lgan qoidalar tizimidan iborat. Ayni paytda, Konseptual asos mazkur qoidalarni hisobot tayyorlovchi tashkilot, foydalanuvchilar hamda boshqa manfaatdor tomonlarga to'g'ri tushuntirish uchun ham xizmat qiladi va quyidagi masalalarni ko'rib chiqadi:

- moliyaviy hisobotning maqsadi;
- foydali moliyaviy axborotning sifat xususiyatlari;
- moliyaviy hisobotlar tarkibini tashkil etuvchi elementlarning ta'rifi, tan olinishi va baholanishi;
- kapital va kapitalni saqlab turish tamoyillari.

Biz, Moliyaviy hisobotning Xalqaro Standartlari (keyingi matnda MHXS) va uning Konseptual asosi ustida so'z yuritar ekanmiz, u bizni beixtiyor Buxgalteriya hisobi fanining umumiy nazariyasi bilan bog'liq masalalar sari yetaklaydi. Zero, bugungi kundagi MHXSning jahon iqtisodiyotida tutgan o'рни va maqomiga qaramasdan, u nazariy jihatdan Buxgalteriya hisobi fanining ajralmas bir qismi sifatida qolaveradi. Binobarin, Kontseptual asos Buxgalteriya hisobi fanining umumiy nazariyasi bilan bog'liq holda o'rganilishi lozim deb hisoblaymiz.

Ma'lumki, har qanday nazariyaning vujudga kelishi amaliyotning u yoki bu talabiga bo'lgan javobdir. Zero, paydo bo'lish jihatidan amaliyot va u orqali shakllangan tajriba nazariyaga nisbatan birlamchi. Binobarin, nazariya avvalo amaliyotning ehtiyojlarini qondirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi. Shubhasiz, buxgalteriya hisobi nazariyasi ham tadbirkorlik (biznes)ning talabiga javob sifatida yuzaga kelgan. Modomiki shunday ekan, buxgalteriya hisobi nazariyasi haqiqatdan ham shu soha amaliyoti va tajribasining natijasi desak, xato bo'lmaydi. Buxgalteriya hisobi fanining asoschisi hisoblangan Luko Pacholi o'zini shu xususda tanqid qilgan muxoliflariga: "Men amaliyotda bor narsalarni adabiyotda aks ettirdim, xolos", - deb kamtarona lutf qilgani ham fikrimizning dalilidir.

Shubhasiz, nazariya obyekt va hodisalar taraqqiyot qonuniyatini ochib beradi. Ayni paytda, uning qanchalik hayotiyligi amaliyotga joriy etishda namoyon bo'ladi. Yoki boshqacha aytganda, amaliyot haqiqat mezonidir. "Barcha isbotlarning ichida eng yaxshisi, bu tajribadir", - degan edi ingliz mutafakkiri F. Bekon.

Lekin amaliyot va tajribaning biz yuqorida sanab o'tgan xususiyatlari nazariyani batamom inkor etish yoki uni mensimaslik uchun asos bo'lmaydi. Ayrim mutaxassislar

buxgalteriya hisobi nazariyasi mutlaqo amaliyot va tajribadan shakllangan deb hisoblashadi. Shuning uchun ham ular, buxgalteriyani o'z ishining ustasi va iqtidori oltinga teng amaliyotchi-hisobchidan o'rganish afzal deb uqtirshadi. Chunki ular, buxgalterlik kasbini hisob ishlarini texnik tomondan qoyilmaqom qilib qo'yadigan "oddiy hisobchilik" bilan tenglashtiradi.

Bugungi kunda buxgalter nafaqat hisob yuritishning texnik ko'nikmalariga ega bo'lishi, balki korxonaning (xo'jalik subyekting) moliyaviy holatini to'la tahlil qilish, uni bozor iqtisodiyotining murakkab qonuniyatlari bilan bog'lab boshqarish, vaziyatlarni to'g'ri baholash va samarali xulosa chiqarish qobiliyatiga ega bo'lishi ham lozim. Tabiiyki, buxgalter bo'lish orzusida bo'lgan har qanday odam, avvalo buxgalteriya hisobi nazariyasini, xususan undagi iboralar, tushunchalar va qoidalarni o'rganishdan boshlaydi. Demog'chimizki, bo'lg'usi buxgalter oldin nazariyani o'zlashtirib, so'ngra amaliyotga qo'l urmog'i lozim. "Buxgalteriyani faqat yozma ko'rsatmalar orqali mashaqqat bilan o'rganish mumkin", - deb yozgandi uning asoschilaridan biri Beneddetto Kotruli. Buxgalteriyani faqat amaliyotchilardan o'rganish lozim deb hisoblovchi olimlarga fransuz essesti F. Laroshfukoning "Ish bilgan odam (amaliyotchi), o'rgatishni bilmaydi", - degan so'zlarini eslatib o'tsak o'rinli bo'ladi.

Bilish jarayoni nazariya va amaliyotning birgalikdagi o'zaro ta'sirida ro'y beradi. Ular bir-birini to'ldiradi va tasdiqlaydi. Nazariya kamon o'qi bo'lsa, amaliyot esa nishondir. Bu boradagi mulohazalarimizni, atoqli nemis olimi I.Kantning: "Amaliyotsiz nazariya o'lik, nazariyasiz amaliyot ko'rdir", - degan mashhur falsafiy fikrlari bilan yakunlasak, hech kim e'tiroz bildirmasa kerak.

Faqat bunga qo'shimcha ravishda yana shuni qayd etish joizki, nazariya nafaqat amaliyotda qaror topgan mavjud tartibotni o'rganish, balki uni o'zgartirish va rivojlantirish uchun xizmat qiladi. U, amaliyotning kelajak taraqqiyoti va taqdiri to'g'risida fikrlar va qarashlar tizimini shakllantiradi yoki konsepsiyalar yaratadi. Ijtimoiy hayot rivojlanib borar ekan, unga mos ravishda buxgalteriya

hisobi ham tadrijiy rivojlanaveradi. Qolaversa, fan-texnika yutuqlari ham uning yuksak darajada takomillashuviga poydevor yaratib bermoqda. Bugungi kunda, buxgalteriya hisobining bir necha zamonaviy turlari shakllangan, ularning har biri mustaqil fan sifatida jahonning barcha oliy o'quv yurtlarida o'rganilmoqda. Shu bilan birga, buxgalteriya hisobi qanchalik takomillashmasin va turlarga bo'linmasin, ularni tushunish va amalda qo'llashda Buxgalteriya hisobi fanining umumiy nazariyasi asos bo'lib xizmat qilaveradi.

Masalan, buxgalteriya hisobining xalqaro standarti hisoblangan CAAPning yaratilishida mamlakatning, nafaqat buxgalteriya hisobi bilan bevosita shug'ullanuvchi olimlari, balki barcha iqtisodiy yo'nalishda faoliyat yurituvchi mashhur olimlar ham o'z hissalarini qo'shishgan. Bundan tashqari, mamlakatda buxgalteriya hisobi nazariyasini rivojlantirish uchun mustaqil ilmiy izlanish markazlari faoliyat ko'rsatgan. Jumladan, Paton va Litlton tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlar buxgalteriya hisobi xalqaro standartlarining umumiy konsepsiyasini yaratishda yagona yondashuv qoidalarini ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Ma'lumki, buxgalteriya hisobi ijtimoiy hayotning ajralmas qismi bo'lib, u mavjud ijtimoiy muhit bilan chambarchas bog'liqdir. Har bir mamlakatdagi mavjud siyosiy, iqtisodiy va huquqiy sharoitlar buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobotni tayyorlash tamoyillariga o'z ta'sirini o'tkazadi. Turli mamlakatlarning milliy talablari o'rtasidagi ziddiyatlar, ularning moliyaviy hisoboti o'rtasida farqlarni ham vujudga keltiradi. Bunday tafovutlar moliyaviy hisobot elementlarining, ya'ni aktivlar, majburiyatlar, kapital, daromad va xarajatlarning turlicha ta'riflanishiga olib keladi. Shuningdek, moliyaviy hisobot moddalarini tan olishda har xil mezonlardan foydalanish hamda ushbu moddalarni baholash uchun har xil asoslarni ma'qul deb hisoblashga sabab bo'ladi. Bunday turlicha yondashuvlar moliyaviy hisobot turlari, ularni qo'llash doirasi va ochib beriladigan ma'lumotlar xususidagi masalalarga ham taalluqlidir.

Bundan tashqari, moliyaviy hisobotning maqsadiga faqat foydalanuvchilar manfaatlari nuqtai nazaridan qaralganda ham, ularning barchasi uchun bir xil, yagona yondashuv qoidalarini qoʻllab boʻlmaydi. Bugungi kunda, foydalanuvchilar investor, kreditor va boshqa qarz beruvchilar, mol **yyetkazib** beruvchilar, Hukumat va uning organlari, korxonalar rahbariyati va uning ishchi xodimlari hamda keng jamoatchilik hisoblanadi. Tabiiyki, ularning har birining moliyaviy axborotga nisbatan ehtiyojlari turlichadir. Yuqoridagi barcha foydalanuvchilarning talabini qamrab oladigan maʼlumotlarga ega moliyaviy hisobot taqdim qilish imkoniyati mavjud emas. Shuning uchun Kengash barcha foydalanuvchilar ehtiyojlarini oʻzida koʻproq ifodalagan foydalanuvchi manfaatidan kelib chiqqan holda moliyaviy hisobotlar maqsadini belgilagan. Bunday foydalanuvchi sifatida korxonaga kapital kirituvchi investor qabul qilingan.

Maʼlumki, har qanday investor va kreditor yoki boshqa qarz beruvchi biror korxonaga resurslar ajratish toʻgʻrisida qaror qabul qilishi lozim. Foydalanuvchilarning qanday qaror qabul qilishlari qilingan investiyalardan kutilayotgan dividendlar, asosiy qarz summasi, foiz toʻlovlari yoki bozor narxlarining oshishi koʻrinishidagi daromadlarga bogʻliq. Binobarin, foydalanuvchilarning maqsadi ulushli va qarz vositalarini xarid qilish, sotish yoki saqlab turish hamda kreditlar va boshqa qarz turlarini ajratish yoki soʻndirish toʻgʻrisidagi qarorlar qabul qilishdan iborat. Ular qaror qabul qilishdan oldin oʻzlari investitsiya kiritayotgan tadbirkor toʻgʻrisida moliyaviy axborotga ega boʻlishi lozim. Moliyaviy axborot korxonaning oʻzi tomonidan tayyorlanadi va foydalanuvchilarga taqdim qilinadi.

Biroq, ayrim foydalanuvchilar taqdim qilingan moliyaviy axborotlardan qanoatlanmasdan, korxonadan oʻzlarini qiziqtirgan boshqa maxsus maʼlumotlarni (masalan, soliqqa tortishga doir boʻlgan qimmatli qogʻozlar toʻgʻrisidagi emissiya prospektlari, Hukumat va boshqa nazorat organlari bilan yozishmalar, statistika organlariga topshiriladigan hisob-kitoblar, ayrim aniq operatsiyalar tafsilotlari, xodimlar toʻgʻrisidagi batafsil maʼlumotlar) talab



qilishlari mumkin. Bunday foydalanuvchilarning axborotga boʻlgan talab va maqsadlari turlicha, hatto ular bir-biriga zid boʻlish ehtimolidan ham holi emas.

Natijada, hisobot beruvchi korxonalar va foydalanuvchilar oʻrtasida taqdim qilinadigan moliyaviy axborotning maqsadi, mazmuni va shakli, ularning hajmi va tarkibi hamda muddati toʻgʻrisida “hal qilinishi” lozim boʻlgan masalalar yuzaga keladi.

Shu sababli, Kengash moliyaviy hisobotni tayyorlash va taqdim etish bilan bogʻliq boʻlgan qoidalar, buxgalteriya hisobi standartlari va tartiblarini uygʻunlashtirish orqali ushbu masalalarni ijobiy hal qilishni oʻz oldiga maqsad qilib qoʻygan. Bunda albatta, Konseptual asos muhim rol oʻynaydi. Xususan, Konseptual asosda barcha foydalanuvchilarning moliyaviy axborotga boʻlgan talablari boʻyicha yuzaga kelgan muammo “ozchilik koʻpchilikka boʻysunishi lozim” qoidasini qoʻllash orqali oʻz yechimini topgan. Yaʼni, korxonalar moliyaviy axborotni har bir foydalanuvchi talabidan emas, koʻpchilik sondagi (aksariyat) foydalanuvchilarning umumiy ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda moliyaviy hisobot tayyorlaydi. Shu bilan birga, umumiy axborot ehtiyojlariga koʻproq urgʻu berish hisobot beruvchi korxonalar tomonidan asosiy foydalanuvchilarning maʼlum bir guruhi uchun foydali boʻlgan qoʻshimcha maʼlumot berilishiga toʻsqinlik yaratmaydi.

Yuqorida koʻrsatilgan amaliyot talablaridan kelib chiqqan holda MHXS qoʻmitasi tomonidan 1989-yilda nashr etilgan “Moliyaviy hisobotni tayyorlash va taqdim etish boʻyicha konseptual asos”da - “Asosiy foydalanuvchilar” (koʻpchilik sondagi - aksariyat foydalanuvchilar) hamda ular uchun tayyorlangan moliyaviy hisobot “Umumiy foydalanish uchun moʻljallangan moliyaviy hisobot” kabi ikkita muhim tushunchalar kiritilgan. Mazkur tushunchalar Kengash tomonidan 2010-yilning martida chop qilingan Konseptual asosda ham saqlanib qoldi. Bu, moliyaviy hisobot taqdim etish asoslarini belgilashda ushbu tushunchalarning naqadar muhimligini tasdiqlaydi.

Demak, umumiy foydalanish uchun mo'ljallangan moliyaviy hisobotning maqsadi<sup>14</sup> - hisobot beruvchi korxonaga resurslarni ajratish bo'yicha qarorlarni qabul qilishda mavjud va potensial investorlar, kreditorlar va boshqa qarz beruvchi tashkilotlar uchun foydali bo'lgan ushbu korxonaga to'g'risidagi moliyaviy axborotni taqdim qilishdan iborat. Shuning uchun ham umumiy foydalanish uchun mo'ljallangan moliyaviy hisobotning maqsadi konseptual asosning o'zagini tashkil etadi, uning qolgan boshqa masalalari, jumladan, hisobot beruvchi korxonaga konsepsiyasi, foydali moliyaviy axborotning sifat xususiyatlari va cheklovlari, moliyaviy hisobotning elementlari, ularni tan olish, baholash, taqdim etish va ochib berish tamoyillari shu maqsaddan kelib chiqadi.

Umuman aytganda, moliyaviy hisobotning maqsadi foydalanuvchiga iqtisodiy qaror qabul qilish uchun zarur bo'lgan moliyaviy axborot taqdim qilishdan iborat. 1 – MHXS *“Moliyaviy hisobotni taqdim etish”* umumiy foydalanish uchun mo'ljallangan moliyaviy hisobotni taqdim etishga nisbatan umumiy talablarni, ularning tuzilishiga oid ko'rsatmalarni hamda ularning mazmuniga doir minimal talablarni o'rnatgan. Konseptual asos esa moliyaviy hisobotning maqsadini belgilaydi.

Lekin umumiy foydalanish uchun mo'ljallangan moliyaviy hisobotlar mavjud va salohiyatli investorlar, kreditorlar va boshqa qarz beruvchi tashkilotlarni ularga kerak bo'lgan barcha ma'lumot bilan ta'minlamaydi va ta'minlab bera olmaydi. Ushbu foydalanuvchilar umumiy iqtisodiy sharoitlar va istiqbollari, siyosiy voqealar va siyosiy vaziyat, shuningdek, soha va kompaniyaning rivojlanish istiqbollari kabi boshqa manbalardan olinadigan tegishli ma'lumotni o'rganib chiqishlari kerak.

Investorlar, kreditorlar hamda boshqa qarz beruvchi tashkilotlari bo'lmagan tomonlar, masalan tartibga soluvchi idoralar, jamiyat a'zolari ham, bu hisobot aslida ular uchun mo'ljallanmagan bo'lsada, umumiy foydalanish

---

<sup>14</sup>Ushbu Kontseptual asosning butun matni bo'yicha moliyaviy hisobotlar va moliyaviy hisobot atamaları alohida hollarda boshqacha ko'rsatilmagan bo'lsa, umumiy foydalanish uchun moliyaviy hisobotlar va umumiy foydalanish uchun moliyaviy hisobot ma'nosini anglatadi.

uchun mo'ljallangan moliyaviy hisobotdan foydalanishlari mumkin.

Bundan tashqari, foydalanuvchilar ishonib topshirilgan resurslarini ishlatishda ushbu korxonaning rahbariyati va boshqaruvi o'z vazifalarini qanchalik oqilona va samarali bajarganligi to'g'risida ma'lumotlarga ega bo'lishdan ham manfaatdordirlar. Hisobot beruvchi korxonaning rahbariyati ham korxonaning to'g'risidagi moliyaviy axborotni olishdan manfaatdordir. Lekin rahbariyat faqat umumiy foydalanish uchun mo'ljallangan moliyaviy hisobotlarga tayanishi shart emas, chunki u o'ziga zarur bo'lgan moliyaviy ma'lumotlarni korxonaning ichki manbalaridan olish imkoniyatiga ega.

Umumiy foydalanish uchun mo'ljallangan moliyaviy hisobot beruvchi korxonaning qiymatini aniqlash uchun mo'ljallanmagan, ammo ular mavjud va salohiyatli investorlar, kreditorlar va boshqa qarz beruvchi tashkilotlarga hisobot beruvchi korxonaning qiymatini baholash uchun yordam beradigan ma'lumotlarni o'zida mujassamlashtiradi. Tabiiyki, moliyaviy hisobotda mazkur ma'lumotlar o'z aksini topishi lozim.

Shu bilan bir qatorda, taqdim qilinadigan moliyaviy hisobot va undagi ma'lumotlar faqat foydalanuvchi manfaatiga xizmat qilmasdan, hisobot topshiruvchi korxonaning manfaatini ham ifodalashi lozim. Yoki foydalanuvchiga taqdim qilinadigan moliyaviy hisobotdagi ishonchli ma'lumotlar korxonaning manfaatlariga ziyon yetkazmasligi kerak. Aks holda, korxonada ishonchli ma'lumotlardan iborat moliyaviy hisobotni tayyorlashga qiziqish yo'qoladi.

Biz yuqorida Kengash korxonaning tomonidan foydalanuvchilarga (asosiy foydalanuvchilarga) umumiy foydalanish uchun mo'ljallangan moliyaviy hisobot (axborot) taqdim qilishi lozimligi belgilanganligi to'g'risida aytib o'tdik. Ayni paytda Konseptual asos, mazkur moliyaviy hisobot yoki korxonaning moliyaviy holati to'g'risidagi axborot qanday axborotlarga ega bo'lishi lozimligi to'g'risidagi savollarga ham javob beradi.

Kengash moliyaviy hisobot ikki xil turdagi axborotdan iborat bo'lishi shartligi to'g'risidagi qarorga kelgan. Bular:

- korxonaning iqtisodiy resurslari va unga bo'lgan talablar to'g'risidagi;

- korxonaning iqtisodiy resurslari va unga bo'lgan talablardagi o'zgarishlarni keltirib chiqaradigan operatsiyalar va boshqa hodisalarning ta'siri to'g'risida axborotlar.

Ikkala turdagi axborot ham foydalanuvchilar tomonidan korxonaga resurslar ajratish to'g'risidagi qarorlarni qabul qilish uchun foydali bo'lgan ma'lumotlar sirasiga kiradi. Ushbu axborotlar quyidagi 2.4-jadvalda keltirilgan.

2.4-jadval

**Moliyaviy hisobot quyidagi axborotlardan iborat bo'lishi shart**

Korxonaning iqtisodiy resurslari (aktivlari) to'g'risidagi axborot	Korxonaga bo'lgan talablar (majburiyatlar) to'g'risidagi axborot	Korxonaning iqtisodiy resurslari va unga bo'lgan talablardagi o'zgarishlarni keltirib chiqaradigan operatsiyalar va boshqa hodisalarning ta'siri to'g'risida axborot
Konseptual asosda ushbu axborotlar "iqtisodiy hodisalar" (the economic phenomena) to'g'risidagi axborot deb ataladi		

Iqtisodiy resurslar va unga bo'lgan talablar. Har qanday iqtisodiy subyektning moliyaviy holatini uning resurslari, unga bo'lgan talablar hamda uning sof pul oqimlarining mavjudligi belgilab beradi. Binobarin, hisobot beruvchi korxonaning iqtisodiy resurslari va unga bo'lgan talablarning xususiyati va ko'lami to'g'risidagi axborot foydalanuvchilarga ushbu hisobot beruvchi korxonaning moliyaviy jihatdan kuchli va zaif tomonlarini aniqlashga yordam beradi.

Shu bilan birga, ushbu axborot foydalanuvchilarga hisobot beruvchi korxonaning likvidlik va to'lov qobiliyatini, uning qo'shimcha moliyalashtirishga bo'lgan ehtiyojlari va ushbu moliyalashtirishga erishish ehtimolini baholashga imkon yaratadi. Mavjud talablarni to'lash shartlari va imtiyozlari to'g'risidagi axborot foydalanuvchilarga talablarni qo'ygan tomonlar o'rtasida

kelgusi pul oqimlari qay tarzda taqsimlanishini oldindan bilishga yordam beradi. Gap “Moliyaviy holat (balans)” hisoboti to‘g‘risida ketayotir.

Iqtisodiy resurslar va talablardagi o‘zgarishlar. To‘g‘ri, har qanday iqtisodiy subyektning moliyaviy holati uning resurslari, unga bo‘lgan talablar hamda uning sof pul oqimlarining mavjudligiga bog‘liq. Lekin iqtisodiy subyekt uzluksiz faoliyatda bo‘lganligi sababli, undagi mavjud resurslar va unga bo‘lgan talablar ham doimiy harakatda yoki o‘zgarishdadir. Bunday o‘zgarishlar ushbu korxonalar erishgan moliyaviy natija va qarz yoki ulushli vositalarni chiqarish kabi boshqa operatsiyalar va hodisalar ta‘sirida paydo bo‘ladi. Hisobot beruvchi korxonaning kelgusi pul oqimlaridan daromad olish istiqbolini to‘g‘ri baholash uchun foydalanuvchilar bu ikkala turdagi o‘zgarishlarni farqlay olishi kerak.

Hisobot beruvchi korxonaning moliyaviy natijalari to‘g‘risidagi ma‘lumot foydalanuvchilarga ushbu korxonaning iqtisodiy resurslari qancha foyda keltirganini tushunishga yordam beradi. Bu esa korxonaning resurslarini oqilona va samarali ishlatishda rahbariyat o‘z vazifalarini qanchalik darajada uddalaganligidan dalolat beradi. Ushbu foydaning o‘zgaruvchanligi va tarkibiy qismlari haqidagi axborot kelgusidagi pul oqimlarining noaniqligini baholashda ham ayniqsa, muhimdir. Odatda, hisobot beruvchi korxonaning o‘tgan davrlardagi moliyaviy natijalari hamda uning rahbariyati o‘z vazifalarini qay darajada bajarganligi to‘g‘risidagi axborot korxonalar iqtisodiy resurslaridan kelgusida olinadigan samaradorlik darajasini aniqlashda foydali hisoblanadi.


Shu bilan birga, hisobot beruvchi korxonaning iqtisodiy resurslari va ularga bo‘lgan talablardagi, investorlar va kreditorlardan qo‘shimcha resurslarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri olishdan tashqari, o‘zgarishlarni aks ettiradigan biror bir davr uchun moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi axborot korxonaning oldingi va kelgusi davrlarda kelib tushadigan sof pul oqimlarini hosil qilish qobiliyatini baholash uchun foydalidir. Bunday axborot korxonalar o‘zining bo‘sh iqtisodiy resurslarini qay darajada ko‘paytirganligini ko‘rsatadi va

shu tariqa, investorlar va kreditorlardan qo'shimcha resurslarni to'g'ridan-to'g'ri olish orqali emas, balki operatsion faoliyat yurgizish natijasida kelib tushadigan sof pul oqimlarini ko'paytirish qobiliyatini aks ettiradi.

Hisobot beruvchi korxonaning biror bir davr uchun moliyaviy natijalari to'g'risidagi axborot bozor narxlari yoki foiz stavkalaridagi o'zgarishlar kabi voqealar korxonaning iqtisodiy resurslari va ularga bo'lgan talablarni qay darajada ko'paytirganligi yoki kamaytirganligini va shu tarzda korxonaning kelib tushadigan sof pul oqimlarini boshqarish qobiliyatiga ta'sir qilishini ham ko'rsatishi mumkin.

Hisobot beruvchi korxonaning muayyan davr uchun pul oqimlari to'g'risidagi axborot ham foydalanuvchilarga korxonaning kelgusida kelib tushadigan sof pul oqimlarini hosil qilish qobiliyatini baholashga yordam beradi. Ushbu axborot foydalanuvchilarga hisobot beruvchi korxonaning joriy faoliyatida amalga oshirilgan operatsiyalarni tushunishga, moliyaviy va investitsion faoliyatiga baho berishga, likvidligi yoki to'lov qobiliyatini baholashga va moliyaviy natijalari to'g'risidagi boshqa ma'lumotlarni tahlil qilishga yordam beradi.

Biz yuqorida hisobot beruvchi korxonaning iqtisodiy resurslari va ularga bo'lgan talablariga moliyaviy natijalarning ta'siri oqibatlariga sharx berdik. Biroq, hisobot beruvchi korxonaning iqtisodiy resurslari va ularga bo'lgan talablar moliyaviy natijalarga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra, masalan kapitalda ishtirok etish uchun qo'shimcha egalik huquqini beruvchi aksiyalarni chiqarish natijasida ham o'zgarishi mumkin. Bunday turdagi o'zgarishlar to'g'risidagi axborot hisobot beruvchi korxonaning iqtisodiy resurslari va unga bo'lgan talablar nima sabablarga ko'ra o'zgarganligi va bunday o'zgarishlarning kelgusi moliyaviy natijalarga ta'sirini foydalanuvchilar to'liq tushunishi uchun zarur. Moliyaviy hisobotda taqdim qilinishi lozim bo'lgan axborot tizimi quyidagi rasmda aks ettirilgan.



**2.7-rasm. Moliyaviy hisobotda taqdim qilinishi lozim bo'lgan axborot tizimi**

Moliyaviy hisobot aniq tavsiflarga emas, aksariyat hollarda taxminiy baholashlar, mulohazalar va modellarga asoslanadi. Konseptual asos ushbu taxminiy baholashlar, mulohazalar va modellar uchun asos bo'ladigan qoidalarni belgilaydi. Mazkur qoidalar Kengash va moliyaviy hisobotni tayyorlaydigan korxonalar intiladigan maqsadlarni ifodalaydi. Ko'pchilik maqsadlar kabi Konseptual asos ham ideal darajadagi moliyaviy hisobotga to'liq erishish ehtimolidan uzoq, unga qisqa muddatda erishib bo'lmaydi, chunki operatsiyalar va boshqa hodisalarni tahlil qilishning yangi usullarini tushunish, qabul qilish va qo'llash uchun vaqt talab etiladi. Shunga qaramasdan, moliyaviy hisobotning foydaliligini oshirish tomon rivojlanishga bo'lgan intilishda zarur bo'lgan maqsadni belgilash hal qiluvchi ahamiyatga egadir.

Shuni qayd etish joizki, mazkur *Konseptual asos* – bu MHXS hujjati emas va shuning uchun baholash yoki ma'lumotni ochib berishga doir har qanday masala bo'yicha standartlarni belgilamaydi. Ushbu *Konseptual asosdagi* hech bir qoida har qanday alohida MHXSda belgilangan qoidalardan ustun bo'la olmaydi. Ayrim

hollarda *Konseptual asos* va MHXS o'rtasida ziddiyat bo'lishi mumkin. Bunda, MHXS talablari *Konseptual asosda* keltirilgan talablardan ustun turadi. Shu bilan birga, Kontseptual asos rasmiy hujjat hisoblanishi va u o'zining nazariy va amaliy maqsadlariga ega ekanligiga e'tibor qaratmoqchimiz. Xususan, agar standartlarda aniq qoidalar mavjud bo'lmagan hollarda 8-MHXSda belgilanganidek, undan korxonada "Hisob siyosati"ni tanlashda foydalanishi mumkin.

Konsepsiya moliyaviy hisobot tayyorlashning hozirgi amaldagi tamoyillarini baholash va uni rivojlantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. U foydalanuvchilarga qaror qabul qilish uchun taqdim qilinadigan moliyaviy hisobotda aynan qanday hodisalar hisobga olinishi, ular qanday baholanishi va axborot qanday tartibda taqdim qilinishini belgilaydigan nazariy asosdir. Aynan *Konseptual asos*, moliyaviy hisobot taqdim qilishning nazariy asoslarini amaliyotda qo'llash masalalari bilan qiyosiy tahlil qilish natijasida olingan yechimlarning qanchalik samaraligini aniqlash imkonini yaratadi. Bugungi kunda, Kengash va GAAP Amerika moliyaviy hisobi standartlari bo'yicha Kengash – FASB bilan birgalikda yagona konseptual asos loyihasi ishlab chiqilmoqda.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi qonunining 41-moddasiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki banklarda buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobot qoidalarini o'rnatadi. Markaziy bank tomonidan mazkur qonunga muvofiq tijorat banklarida buxgalteriya hisobini yuritish hamda moliyaviy hisobot tayyorlash va taqdim qilish siyosati va tartibotlarini ishlab chiqish va joriy etish talablarini o'rnatish maqsadida "Banklarning hisob siyosati va moliyaviy hisoboti to'g'risida" Nizom (1270, 2003-yil 3-sentyabr) ishlab chiqilgan. Ushbu Nizomning 12-bandiga muvofiq barcha banklar o'zlarining hisob faoliyatini tartibga soluvchi ichki hujjatlarini ishlab chiqishlari va amaliyotga joriy etishlari shart. Mazkur 1270-son Nizom 2003-yilda ishlab chiqilgan va unga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilmagan. Shu bois, banklar tomonidan



*Kengash tomonidan 2010-yil sentyabrda chop etilgan Konsepsiya asosida unga tegishli tuzatishlar kiritish maqsadga muvofiqdir.*

### **Nazorat savollari va topshiriqlar**

1. Moliyaviy hisobotlar deganda nimani tushunasiz?
2. Moliyaviy hisobotlarning turlari va tuzish qoidalari qaysi MHXSlarida ko'rsatilgan?
3. Bankning moliyaviy ahvoli tushunchasiga izoh bering.
4. Moliyaviy hisobotlarning elementlarini sanab o'ting va ularga tavsif bering.
5. Balans tenglamasini yozing va unga izoh bering.
6. Moliyaviy hisobotlar elementlarini o'lchash mezonlari qanday?
7. Moliyaviy hisobot elementlarini baholash deganda nimani tushunasiz?
8. Moliyaviy hisobot elementlarini baholashning qanday usullari mavjud, ularni tavsiflang.
9. Moliyaviy hisobot elementlarini baholashning diskontlangan qiymat usulining mazmunini tushuntiring.
10. Moliyaviy hisobot elementlarini baholashning qoplash qiymati usulining mazmuni nimadan iborat?

### **III BOB. BANKLARNING MOLIYAVIY HISOBOTLARI VA UNI TUZISH**

#### **3.1. Buxgalteriya balansi yoki moliyaviy holat to'g'risidagi hisobot**

Moliyaviy holat to'g'risidagi hisobot uzoq yillar davomida "buxgalteriya balansi" yoki "balans hisoboti" nomlari bilan mashhur bo'lib kelgan. Mazkur hisobot foydalanuvchilar uchun korxonaning moliyaviy holati va likvidligi to'g'risidagi muhim ahborotlarni o'zida mujassamlashtiradi. Balansning ahamiyati bankning yoki boshqa biror-bir xo'jalik subyektining moliyaviy ahvolini baholovchi eng yaxshi moliyaviy ma'lumotlar tizimi ekanligidadir. Uning foydaliligi shundan iboratki, balans ko'pchilik moliyaviy koeffitsientlarni (likvidlik, moliyaviy moslashuvchanlik, rentabellik va boshq.) hisoblash va uning aktivlarini baholash uchun asos yaratadi. Banklar uchun esa balans, ularning bo'lg'usi pul oqimlarini va bank xatarlarini baholashda juda qo'l keladi.

Buxgalteriya balansi yaratilgandan beri uning oldiga tushadigan boshqa biror hisobot shakli vujudga kelgan emas. Lekin ayrim yirik iqtisodchi olimlar tomonidan mazkur hisobotning ustunlik taraflariga soya soladigan, to'g'rirog'i, kamsitadigan fikrlar bildirilgan. Xususan, XX asrning birinchi yarmida ayrim amerikalik olimlar moliyaviy holat to'g'risidagi (balans) hisobotdan ko'ra moliyaviy natijalar (foyda va zaralar) to'g'risidagi hisobot foydali va ahamiyatliroq degan xulosaga kelgan. Jumladan, Irving Fisher (1867 – 1947) firmani xo'jalikning mexanizimi, buxgalteriya hisobini esa uning tarkibiy qismi sifatida baholab, uning vazifasi xo'jalik jarayonlarini kuzatish va nazorat qilishdan iborat deb hisoblagan. Uning fikricha, hisobotning asosiy maqsadi foydani to'g'ri hisoblashdir, foyda bilan bog'liq obyektlarni aniqlash orqali moliyaviy holatga aniq diagnoz qo'yish mumkin. Chunki, xo'jalik faoliyati obyektiv qonunlar ta'sirida doimiy harakatda bo'ladi va o'zgarib turadi. Binobarin, xo'jalik faoliyatining

rivojlanishiga kapitalning harakatsiz qoldiq summasi emas, balki aynan harakatdagi kapital oqimlari ta'sir etadi. Modomiki shunday ekan, buxgalteriya hisobi uchun hisobvaraqlar qoldiq summalaridan tuzilgan balans hisoboti emas, balki mablag'lar harakatini o'zida ifodalagan foyda va zararlar to'g'risidagi hisobot ahamiyatliroqdir. Balans mulk egasining dastlabki kiritgan sarmoyasi va uning aylanishidan hosil bo'gan foydadan iborat. Agar kapital aylanmas ekan, u o'lik mulkdan boshqa narsa emas.

Foyda va zararlar to'g'risidagi hisobotni markaziy o'ringa o'tkazar ekan, Fisher shu bilan bog'liq yana bir muhim taklifni ilgari suradi. Uning fikricha soliq mulk qoldig'iga emas, balki foydaga nisbatan solinishi lozim. Shuningdek, inflyatsiya sharoitida bo'lg'usi soliq summasini to'g'ri hisoblash uchun indekslardan foydalanishni taklif qildi. Olimning: "Inflyatsiyadek kasalning davosi, bu indekslardir", - degan fikri hozirgacha munozarali masalalar qatoridan chiqarilgani yo'q.

Irving Fisher fikrlari qanchalik asoslangan va o'z tarafdorlariga ega bo'lmasin, uning takliflari qattiq tanqid ostiga olindi. Unga qarshi chiqqanlardan biri o'sha davrining eng zabardast iqtisodchi olimlarida biri Skot Dr. (1887 – 1954) edi.

Skot avallo Fisherning xo'jalik subyektini mexanizm sifatida baholagan fikrlariga qarshi chiqib, u xo'jalik subyektiga tirik organizm sifatida qarash lozimligini uqtirdi. Uning fikricha, bozor iqtisodiyotini obyektiv qonunlar boshqarmaydi, shuning uchun xo'jalik organizmi oqil kishilar tomonidan boshqarilishi kerak. Skotning "Firma hayoti changalzorlikdir, jamoa esa kulcha ilondan boshqa narsa emas" degan mashhur so'zlari bugungi kunda ham olimlar tomonidan bot-bot tilga olinadi.

Xo'jalik organizmini oqilona boshqarilish zaruriyati to'g'risidagi fikrlarini rivojlantirar ekan, Skot Fisherga qarshi o'laroq firma faoliyatiga va uning moliyaviy holatiga baho berishda balans hisoboti ustuvor ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi. Firma hayotida jami kapital, ya'ni firmani o'zining va jalb qilingan kapital asosiy rol o'ynaydi, foyda va zararlar esa shu kapitalning hosilasidir. "Kapital

yo‘q ekan, foyda ham yo‘qdir. Balans hisoboti amaldagi jami kapitalni o‘zida aks ettirgani sababli, u foyda va zararlar hisobotidagi axborotning manbai hisoblanadi. Binobarin balans hisoboti foyda va zararlar hisobotidan oldinda turishi, Soliq ham kapitalga nisbatan solinishi lozim” deb xulosa qiladi olim.

Oradan yillar o‘tib Skotning fikrlarini to‘g‘riligi tasdiqlandi, balans hisoboti yana o‘z tarovati bilan hammani rom etishni davom ettirmoqda. Fisherning harakatlari ham zoya ketmadi. Buxgalteriya hisobini xalqaro tashkilotlari tomonidan foyda va zararlar to‘g‘risidagi hisobot ham balans hisobotidan so‘ng korxonada tomonidan taqdim qilinishi shart bo‘lgan hisobotlar ichida muqim ikkinchi o‘rinni egalladi.

Buxgalteriya hisobini tartibga soluvchi xalqaro tashkilotlar tomonidan esa moliyaviy holat to‘g‘risidagi hisobotni yanada mukamallashtirish va ayni paytda uni soddalashtirish ustida muntazam ravishda ish olib boriladi.

Ma‘lumki, balans so‘zining lug‘atiy ma‘nosi lotincha bo‘lib, quyidagi so‘zlardan tashkil topgan:

BIS - ikki marotaba,  
lanx - torozining pallasi.

Tabiiyki torozining ikki pallasi bir-biriga teng yoki barobar bo‘lishi lozim. Ma‘lumki, buxgalteriya hisobi Luko Pacholli tomonidan matematika fani sifatida yaratilgan. Buyuk olim buxgalteriya hisobiga ham matematik uslubda yondashgan. Zero, matematika masala yechimining to‘g‘riligini tenglik chiqarish orqali isbotlaydi. Buxgalteriya hisobi operatsiyalarining to‘g‘riligi esa balans chiqarish orqali tasdiqlanadi.

Buxgalteriya hisobida balansga chiqish, o‘z vaqtida “inson ongining mo‘jizasi” sifatida baholangan ikki yoqlama yozuv uslubini qo‘llash hisobiga erishiladi. Ikkiyoqlama yozuv qoidasiga muvofiq bir operatsiya ikki marta qayd etiladi. Natijada ularning aylanma summaları ham va ulardan hosil bo‘lgan qoldiq summaları ham bir-biriga teng bo‘lishi ta‘minlanadi. Buxgalter tili bilan gapirganda debet aylanma kredit aylanmaga, aktiv hisobvaraqlar qoldig‘i esa

passiv hisobvaraqlar qoldig'iga teng bo'lishi lozim. Qoldiq summalar tengligi buxgalteriya balansini nomini olgan va uni quyidagi matematik tenglik bilan ifodalash mumkin.

*Aktivlar*

*Passivlar*

Yuqoridagi tenglik korxonalar resurslari (aktivlar) bilan korxonalar kapitali (passivlar) summalarini o'zaro mosligini ifodalaydi va mulk egasiga o'z mulkining butligini nazorat qilish imkonini beradi. Binobarin, o'sha vaqtda buxgalteriya hisobining nazorat vazifasi uning asosiy maqsadi sifatida maydonga chiqdi. Sotsialistik jamiyatda buxgalteriya hisobidan ustivor ravishda nazorat maqsadida foydalanilganligi sababli, sovet iqtisodchi olimlari tomonidan buxgalteriya hisobi fanining predmeti xo'jalik subyekti mablag'larini ularning tashkil topish manbalariga tengligini ta'minlashdan iborat deb talqin qilingan.

Lekin, balansdagi tenglik mezonini buxgalteriya hisobi predmetiga qanchalik singdirilgan bo'lmasin, u oddiy hisobchilik tamoyili edi xolos. Keyinchalik iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishi va murakkablashuvi natijasida buxgalteriya hisobi predmetiga maqsadli va mazmunan yondashish kuchayib bordi. Tayinkini, mulkni nazorat qilish mulk egasining manfaatiga xizmat qiladi. Mol yetkazib beruvchilar, qarz beruvchi bank va boshqa moliyaviy tashkilotlar, mazkur korxonalar bilan iqtisodiy hamkorlik qilish uchun uning moliyaviy holatini bilishga qiziqishadi. Ayniqsa, korporativ mulk egaligining mahsuli hisoblangan investorlarning (aksiyadorlar) manfaatlari pul tikayotgan korxonalar moliyaviy holati bilan chambarchas bog'liqdir.

Ma'lumki, har qanday korxonalar moliyaviy holati avvalo uning xususiy kapitalining hajmiga bog'liqdir. Demak, buxgalteriya hisobi korxonalar moliyaviy holatini aniqlash uchun buxgalteriya balansida korxonalar tegishli bo'lgan xususiy kapital summasini aniq hisoblashi lozim. Agar passivlar yoki jami kapital korxonalar o'z kapitali (xususiy kapital) va jalb qilingan kapitaldan (majburiyat) iborat ekanligi inobatga olinsa, buxgalteriya balansini

ifodalovchi yuqoridagi tenglamani quyidagicha o'zgartirish mumkin.

*Aktivlar                      Majburiyatlar + Xususiy kapital*

Yuqoridagi tenglamaga asosan buxgalteriya balansi korxonaning resurslari (aktivlar), resurslarga bo'lgan talablar (majburiyatlar) va mulk egasiga tegishli ulush (xususiy kapital) to'g'risida iqtisodiy axborotlarni o'zida mujassamlashtiradi. Foydalanuvchi mazkur axborotlarga asoslangan holda korxonaning moliyaviy holatiga baho beradi. Yuqorida ta'kidlangandek, korxonada moliyaviy holatini ifoda qiluvchi axborot, bu uning xususiy kapitalidir. Shu nuqtai nazardan, tenglamani matematika qoidalariga asosan quyidagicha o'zgartiramiz.

*Xususiy kapital                      Aktivlar-Majburiyatlar*

Bugungi kunda, investor, kreditor, mol yetkazib beruvchi, hukumat organlari va boshqa foydalanuvchilar tomonidan buxgalteriya balansiga faqat uslubiy jihatdan tenglikni ta'minlovchi vosita sifatida emas, balki unga buxgalteriya hisobining maqsadidan kelib chiqqan holda mazmunan yondashilmoqda. Binobarin, bu hisobot korxonaning moliyaviy holatini ifodalovchi axborotlar tizimi ekanligiga asosiy e'tibor qaratilgan. Shu sababli bo'lsa kerak, Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari Kengashi tomonidan o'tkazilgan islohotlar natijasida 2006-yilda buxgalteriya balansi nomi moliyaviy hisobot maqsadidan kelib chiqqan holda moliyaviy holat to'g'risidagi hisobotga o'zgartirildi, lekin mazkur hisobotni boshqacha nomlashga ham ruxsat etildi.

Moliyaviy holat to'g'risidagi hisobot quyidagi talablarga javob berishi lozim:

- korxonaning sof aktivlarining holati;
- mos davrga nisbatan korxonada foydalanish hajmi;
- kechiktirilgan soliq majburiyati;
- biznes holati va uning kelajagi.

Ma'lumki, moliyaviy holat to'g'risidagi hisobotning tarkibi va mazmuniga bo'lgan talablar Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti 1 (BHXS 1)da bayon etilgan. Lekin, shuni yodda tutish kerakki, mazkur Standartning 57-bandida ta'kidlanganidek BHXS 1 korxonadan tomonidan moddalarni aks ettirish tartibini yoki shaklini belgilamaydi, balki uning 54-bandiga muvofiq moliyaviy holat to'g'risidagi hisobot minimum darajada summolari satrlarda ko'rsatiladigan quyidagi moddalarini o'z ichiga oladi:

- a) asosiy vositalar;
- b) investitsion mulk;
- d) nomoddiy aktivlar;
- e) moliyaviy aktivlar ((f), (i) va (b) lar bo'yicha ko'rsatilgan summalardan tashqari);
- f) ulush bo'yicha hisobga olish usulida hisobga olingan investitsiyalar;
- g) biologik aktivlar;
- h) tovar-moddiy zaxiralar;
- i) savdo bo'yicha va boshqa debitorlik qarzlari;
- j) naqd pullar va naqd pul ekvivalentlari;
- k) sotishga mo'ljallangan sifatida tasniflangan aktivlar va MHXS 5 "Sotish uchun mo'ljallangan uzoq muddatli aktivlar va davom ettirilmaydigan faoliyat"ga muvofiq sotishga mo'ljallangan sifatida tasniflangan hisobdan chiqariladigan moddalarning guruhlariga kiritilgan aktivlarning jami summasi;
- l) savdo bo'yicha va boshqa kreditorlik qarzlari;
- m) rezervlar;
- n) moliyaviy majburiyatlar ((l) va (m) lar bo'yicha ko'rsatilgan summalardan tashqari);
- o) BHXS 12 "Foyda solig'i"da ta'riflanganidek, joriy soliq bo'yicha majburiyatlar va aktivlar;
- p) BHXS 12da ta'riflanganidek, muddati uzaytirilgan soliq majburiyatlari va muddati uzaytirilgan soliq aktivlari;
- q) MHXS 5ga muvofiq sotish uchun mo'ljallangan sifatida tasniflangan hisobdan chiqariladigan moddalarning guruhlariga kiritilgan majburiyatlar;
- r) kapital tarkibidagi nazorat kuchiga ega bo'lmagan ulushlar;

s) bosh tashkilotning mulk egalariga tegishli bo'lgan, chiqarilgan kapital va kapitaldagi rezervlar.

Yuqoridagi BHXSning 54-bandida moliyaviy holat to'g'risidagi hisobotda alohida taqdim etilishi o'rinli bo'lgan mohiyati yoki vazifasi jihatidan yetarlicha farqlanadigan minimum darajada moddalarning ro'yxati keltirilgan. Shu bilan birga, mazkur standartda moliyaviy holat to'g'risidagi hisobotga qo'shimcha moddalarni kiritish bo'yicha korxonaga mustaqillik berilgan. Jumladan, BHXS 1ning 55-bandida, agar korxonada moliyaviy holatini tushunish uchun zarur deb topilsa, korxonada moliyaviy holat to'g'risidagi hisobotning satriklarida qo'shimcha moddalarini, sarlavhalarni va jamlangan oraliq summalarini taqdim etish lozimligi belgilangan. Shuningdek, 58-bandga muvofiq korxonada quyidagilarni baholash asosida qo'shimcha moddalarni alohida taqdim etish to'g'risida mushohada qilishga haqlidir:

- a) aktivlarning xususiyati va likvidliligi;
- b) korxonada doirasida aktivlarning vazifasi;
- d) majburiyatlarning summasi, xususiyati va qoplash muddati.

Shu bilan birga:

➤ agar, moddaning yoki o'xshash moddalar guruhining hajmi, xususiyati yoki vazifasi korxonada moliyaviy holatini tushunish uchun ushbu moddalarning alohida taqdim etilishini talab etsa, moddalar hisobotning alohida satriklarida ko'rsatiladi;

➤ korxonada moliyaviy holatini tushunishda o'rinli bo'lgan ma'lumotlarni ta'minlash uchun, foydalanilgan tavsiflar va moddalarning yoki o'xshash moddalar guruhining tartibi korxonada va uning operatsiyalarining mohiyatidan kelib chiqib o'zgartirilishi mumkin. Masalan, moliya tashkilotining faoliyatini tushunish uchun o'rinli bo'lgan ma'lumotlarni ta'minlash maqsadida moliya tashkiloti yuqoridagi tavsiflarni o'zgartirishi mumkin.

Standartda aktivlarning turli guruhlari uchun turli baholash asoslarini qo'llash shuni ko'zda tutadiki, ular xususiyati yoki vazifasi bo'yicha farqlanadi va shu tufayli, korxonada ularni alohida satriklarda ko'rsatiladigan moddalar



sifatida aks ettiradi. Masalan, asosiy vositalarning turli guruhlari BHXS 16ga muvofiq tannarx yoki qayta baholangan qiymat bo'yicha hisobga olinishi mumkin.

Mazkur standartning foydaluvchilarni ishonchli va o'rinliroq bo'lgan ma'lumotlar bilan ta'minlash maqsadida berilgan eng amaliy ko'rsatmalaridan biri, bu uning 66-76 bandlaridagi aktiv va majburiyatlarni qisqa muddatli (aylanma) va uzoq muddatliga (aylanma bo'lmagan) ajratishdir. Foydalanuvchilar diqqatini korxonaning sof aktivlari bo'lgan qisqa muddatli aylanma mablag'lari va aylanma bo'lmagan uzoq muddatli moddiy va nomoddiy aktivlar holati to'g'risidagi axborot o'ziga toritishi tabiiydir. Zero, BHXS 1da ta'kidlanganidek aktivlar va majburiyatlar o'zlashtirilishining kutilgan sanalari to'g'risidagi ma'lumotlar korxonaning likvidliligi va to'lovga layoqatliligini baholash uchun foydali axborotdir. Ayni paytda, standartda uzoq muddatli moddiy aktivlarni asosiy vositalar deb nomlashga ruxsat berilgan.

Standart ta'kidlaydiki, aktivlar va majburiyatlar o'zlashtirilishining kutilgan sanalari to'g'risidagi ma'lumotlar korxonaning likvidliligini va to'lovga layoqatliligini baholashda foydalidir. Chunonchi, MHXS 7 "Moliyaviy instrumentlar: ma'lumotlarni ochib berish" moliyaviy aktivlar va moliyaviy majburiyatlarning so'ndirish sanalarini ochib berishni talab etadi. Moliyaviy aktivlar savdo bo'yicha va boshqa debitorlik qarzlarni o'z ichiga oladi va moliyaviy majburiyatlar savdo bo'yicha va boshqa kreditorlik qarzlarni o'z ichiga oladi. Bunda aktiv va majburiyatlar qisqa yoki uzoq muddatli sifatida tasniflanishidan qat'iy nazar, tovar-moddiy va boshqa zaxiralar kabi nomonetar aktiv va majburiyatlarning qoplash va so'ndirishning kutilgan sanasi to'g'risidagi ma'lumotlar ham foydalidir. Masalan, korxonaning hisobot davridan so'ng o'n ikki oydan ortiq bo'lgan davrda qoplanishi kutilgan tovar-moddiy zaxiralar summasini ochib beradi.

Aktiv va majburiyatlarni qisqa va uzoq muddatliga ajratishda mezon bo'lib korxonaning faoliyatining operatsion sikli hamda aktiv va majburiyatlarni o'zlashtirish muddati

o'n ikki oyga nisbatan oz yoki ko'p bo'lishligidir. Korxonada faoliyatining operatsion sikli aktivlarni qayta ishlash uchun sotib olgan vaqtdan, to ularni pul mablag'lariga yoki ularning ekvivalentlariga aylantirishgacha bo'lgan vaqt o'rtasidagi muddatdir. Bordini, odatiy operatsion siklini aniq belgilab bo'lmasa, u o'n ikki oyga teng deb hisoblanadi.

Taqdim etishning qaysi usuli qabul qilinishidan qat'iy nazar, korxonada qoplanishi yoki so'ndirilishi kutiladigan har bir aktiv va majburiyatning summalarini birlashtirgan holda quyidagicha ochib berishi lozim:

a) hisobot davridan so'ng o'n ikki oydan ortiq bo'lmagan;

b) hisobot davridan so'ng o'n ikki oydan ortiq bo'lgan.

Korxonada aniq faoliyat sikli mobaynida tovarlar yoki xizmatlarni yetkazib berganida, moliyaviy holat to'g'risidagi hisobotda aktiv va majburiyatlarni alohida qisqa va uzoq muddatli bo'lib ko'rsatish foydali ma'lumot bilan ta'minlaydi, chunki aylanma kapital sifatida uzluksiz tarzda aylanayotgan sof aktivlarni uzoq muddatli faoliyatida foydalaniladigan aktivlardan farqlash imkonini beradi. Shuningdek, bu joriy operatsion davr ichida o'zlashtirilishi kutilgan aktivlarni va aynan shu davr ichida so'ndirilishi lozim bo'lgan majburiyatlarni ham ajratib ko'rsatishga yordam beradi.

Korxonada aktivni quyidagi hollarda qisqa muddatli aktiv sifatida tasniflashi lozim, agarda:

a) u o'zining odatiy operatsion sikli davomida aktivni pulga aylantirishni mo'ljallagan bo'lsa, yoki uni sotishni yoki iste'mol qilishni rejalashtirsa;

b) u asosan savdo uchun aktivni o'zida saqlasa;

d) u aktivni hisobot davridan so'ng o'n ikki oy ichida pulga aylantirishni mo'ljallagan bo'lsa;

e) aktiv (BHXS 7da ta'riflanganidek) pul mablag'lari yoki ularning ekvivalenti bo'lsa, bunda hisobot davridan so'ng kamida o'n ikki oy mobaynida aktiv almashtirilishi yoki majburiyatni so'ndirish uchun foydalanilishi taqiqlanmagan bo'lsa.

Korxonada majburiyatni quyidagi hollarda qisqa muddatli majburiyat sifatida tasniflashi lozim, agarda:

a) u o'zining odatiy operatsion sikli davomida majburiyatni so'ndirishni mo'ljallagan bo'lsa;

b) u asosan savdo uchun majburiyatni o'zida saqlasa;

d) majburiyat hisobot davridan so'ng o'n ikki oy ichida so'ndirilishi lozim bo'lsa;

e) u majburiyatning so'ndirilishini hisobot davridan so'ng kamida o'n ikki oy muddatga shartsiz uzaytirish bo'yicha huquqqa ega bo'lmasa. Majburiyatning, kontragentning xohishi bo'yicha, uni ulushli instrumentlar chiqarish orqali so'ndirilishiga olib kelishi mumkin bo'lgan shartlari, uning tasniflanishiga ta'sir etmaydi.

Aktiv va majburiyatlarni BHXS 1 talablariga ko'ra qisqa va uzoq muddatlarga ajratish mezonlari quyidagi jadvalda keltirilgan.

Qisqa muddatli majburiyatlar sifatida tasniflangan kreditlarga nisbatan, agarda quyidagi hodisalar hisobot davri oxiri bilan moliyaviy hisobotlarni e'lon qilish uchun tasdiqlash sanasi orasida sodir bo'lsa, ushbu hodisalar BHXS 10 "Hisobot davridan keyingi hodisalar"ga muvofiq tuzatishlar kiritilishini talab etmaydigan hodisalar sifatida ochib beradi:

a) uzoq muddat asosida qayta moliyalashtirish;

b) uzoq muddatli kredit kelishuvining buzilgan shartlarining tuzatilishi;

d) uzoq muddatli kredit kelishuvining buzilgan shartlarini tuzatish uchun kreditor tomonidan hisobot davridan so'ng kamida o'n ikki oy muddatga teng imtiyozli davrni taqdim etilishi (76-band).

3.1-jadval

**Aktiv va majburiyatlarni BHHXS 1 talablariga ko'ra qisqa va uzoq muddatlarga ajratish mezonlari**

<b>Qisqa muddatli aktivlar</b>	<b>Qisqa muddatli majburiyatlar</b>
Odatiy operatsion sikli davomida aktivni pulga aylantirishni mo'ljallagan bo'lsa, yoki uni sotishni yoki iste'mol qilishni rejalashtirsa	Odatiy operatsion sikli davomida majburiyatni so'ndirishni mo'ljallagan bo'lsa
Asosan savdo uchun aktivni o'zida saqlasa	Asosan savdo uchun majburiyatni o'zida saqlasa

Aktivni hisobot davridan so'ng o'n ikki oy ichida pulga aylantirishni mo'ljallagan bo'lsa	Majburiyat hisobot davridan so'ng o'n ikki oy ichida so'ndirilishi lozim bo'lsa
Aktiv (BHXS 7da ta'riflanganidek) pul mablag'lari yoki ularning ekvivalenti bo'lsa, bunda hisobot davridan so'ng kamida o'n ikki oy mobaynida aktiv almashtirilishi yoki majburiyatni so'ndirish uchun cheklovlar bo'lmasa	Majburiyatning so'ndirilishini hisobot davridan so'ng kamida o'n ikki oy muddatga shartsiz uzaytirish huquqiga ega bo'lmasa
Korxonada boshqa barcha aktivlarni uzoq muddatli sifatida tasniflashi lozim	Korxonada boshqa barcha majburiyatlarni uzoq muddatli sifatida tasniflashi lozim

Bundan tashqari, BHXS 1ning 77-80A bandlarida Moliyaviy holat to'g'risidagi hisobotda yoki izohlarda aks ettirilishi lozim bo'lgan batafsil ma'lumotlarga nisbatan o'rnatilgan talablar keltirilgan. Xususan, uning 77-bandida korxonada yo Moliyaviy holat to'g'risidagi hisobotda yoki izohlarda, uning faoliyatiga mos ravishda tasniflangan va aks ettirilgan, satrlarda ko'rsatiladigan moddalarining batafsilroq qilib tasniflangan moddalarini ochib berishi tartibi bayon etilgan.

Mazkur standartning 78-bandiga muvofiq batafsil tasniflashda taqdim etiladigan tafsilot darajasi MHXS larning talablariga va qamrab olingan moddalarning kattaligi, xususiyati va vazifasiga bog'liq bo'ladi. Korxonada ikkilamchi tasniflashning asosini aniqlashda 58-bandda belgilangan omillardan ham foydalanadi. Ochib beriladigan ma'lumotlar har bir modda uchun farqlanadi, masalan:

a) asosiy vositalar BHXS 16ga muvofiq turkumlarga ajratiladi;

b) debitorlik qarzlari xaridorlar va buyurtmachilarning qarzdorligi, o'zaro bog'liq tomonlarning debitorlik qarzdorligi, oldindan to'lovlarga va boshqa to'lov summalariga ajratiladi;

d) tovar-moddiy zaxiralar BHXS 2 "Tovar-moddiy zaxiralar"ga muvofiq tovarlar, ishlab chiqarish zaxiralari, xomashyolar, tugallanmagan ishlab chiqarish va tayyor mahsulotlar kabi turkumlarga ajratiladi;

e) rezervlar xodimlarning daromadlari bo'yicha majburiyatlar va boshqa moddalarga ajratiladi;

f) aksiyadorlik kapitali va kapitaldagi rezervlar to'langan kapital, qo'shilgan kapital va kapital rezervlar kabi har xil turkumlarga ajratiladi.

Bundan tashqari, ushbu standartning 79-bandiga asosan korxonalar yoki moliyaviy holat to'g'risidagi hisobotda yoki kapitaldagi o'zgarishlar to'g'risidagi hisobotda yoki izohlarda, quyidagilarni ochib berishi lozim:

a) aksiyadorlik kapitalining har bir turkumi bo'yicha:

- chiqarishga ruxsat etilgan aksiyalarning soni;
- chiqarilgan va to'liq to'langan aksiyalarning soni hamda chiqarilgan, lekin to'liq to'lanmagan aksiyalarning soni;

- har bir aksiyaning nominal qiymati, yoki aksiyalar nominal qiymatga ega emasligiga ishora;

- muomaladagi aksiyalar sonining davr boshiga va oxiriga solishtirmasi;

- ushbu turkumga birlashtiriladigan huquqlar, imtiyozlar va cheklovlar, jumladan dividendlarni taqsimlash va kapitalni qaytarish bo'yicha cheklovlar;

- korxonalar yoki uning shu'ba yoki qaram tadbirkorlik subyektlari egalik qilayotgan boshqa korxonadagi ulushlari;

- opsiyonlar va aksiyalarni sotish shartnomalari bo'yicha chiqarish uchun saqlanayotgan aksiyalar, shu jumladan ularning shartlari va summalari;

b) kapitaldagi har bir rezervning xususiyati va maqsadining tavsifi.

Aksiyadorlik kapitaliga ega bo'lmagan korxonalar uchun oshkor qilish talabi standarning 80-bandida belgilangan. Aksiyador bo'lmagan, masalan shirkat yoki trust kapitaldagi ulushining har bir toifasidagi davr mobaynidagi o'zgarishlarni va kapitaldagi ulushining har bir toifasiga birlashtiriladigan huquqlar, imtiyozlar va cheklovlarni aks ettirgan holda 79(a)-bandda talab etilgan axborotga ekvivalent bo'lgan ma'lumotlarni ochib berishi lozim.

Shuningdek, 80 A - bandiga muvofiq, agarda korxonalar (a) ulushli instrument sifatida tasniflangan qayta sotiladigan moliyaviy instrumentni yoki (b) korxonalar sof

aktivlaridagi proporsional ulushni boshqa tomonlarga berish majburiyatini ushbu subyektga faqat likvidatsiya jarayonida yuklaydigan va ulushli instrument sifatida tasniflanadigan instrumentni qayta tasniflaganda moliyaviy majburiyatlar va kapital bo'yicha bir toifadan boshqa toifaga qayta tasniflangan summani (moliyaviy majburiyatlardan kapitalga yoki kapitaldan moliyaviy majburiyatlarga) hamda ushbu qayta tasniflashning muddatini va sababini ochib berishi lozim.

Endi BHXS 1ning Moliyaviy holat to'g'risidagi hisobotida banklar faoliyatiga taalluqli bo'lgan ko'rsatmalari xususida fikr yuritamiz. Ma'lumki, banklar aniq operatsion sikl mobaynida tovarlar yoki xizmatlarni yetkazib berishni amalga oshirmaydi. Shu sababli, bank va boshqa moliyaviy tashkilotlarning moliyaviy holat to'g'risidagi hisobotiga qo'yilgan talablar boshqa subyektlarga nisbatan o'rnatilgan ko'rsatmalardan farq qiladi. Chunonchi, mazkur standartdarning 57-bandining b kichik bandiga muvofiq, istisno tariqasida moliyaviy hisobot tayyorlovchi subyekt barcha aktivlarni va majburiyatlarni ularning likvidliligi bo'yicha taqdim etishga ruxsat etiladi. Uning 63-bandida esa moliya tashkilotlari (banklar) uchun aktiv va majburiyatlarni likvidlilikning o'suvchi yoki kamayuvchi tartibida taqdim etish qisqa/uzoq muddatli turkumlarga ajratib taqdim etishga nisbatan ishonchli va o'rinliroq bo'lgan ma'lumotlarni ta'minlaydi.

Mustaqillikning dastlabki 15 yillik davrida bank tizimi buxgalteriya hisobini isloh qilish borasida o'tkazgan islohotlar natijasida, bugungi kunda respublika tijorat banklarining yillik moliyaviy hisobotlari MHXSga muvofiq tayyorlanib va xalqaro audit tekshiruvidan o'tkazib matbuotda chop etilmoqda. Bugungi kunda tijorat banklarning yillik moliyaviy hisobotlarining huquqiy asosi bo'lib "O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan tijorat banklarining chop etiladigan yillik moliyaviy hisobotlariga qo'yiladigan talablar to'g'risida"gi nizom (ro'yxat raqami 1419, 2004-yil 25-oktyabr) xizmat qilib turibdi. Ushbu Nizomda aktivlar - likvidlik darajasining

pasayib borishi tartibida; majburiyatlar to'lov muddatining kamayib borishi tartibida va xususiy kapital tarkibiy qismining muhimligi jihatidan guruhlangan.

Biz quyida, mazkur Nizomning 1-lovasida keltirilgan bankning balans hisoboti shaklini keltiramiz.

Ma'lumki, bank va boshqa moliyaviy tashkilotlar moliyaviy hisobotlarni tayyorlashda 1994-yilda qabul qilingan "Bank va muqobil moliyaviy intitutlar moliyaviy hisobotlarining ma'lumotlarini oshkor etish" BHXS 30da berilgan ko'rsatmalar va tavsiyalardan foydalanilgan. Ushbu standartda banklarning moliyaviy holat to'g'risidagi (balans) hisobotida ko'rsatilishi shart bo'lgan moddalar belgilangan edi. Binobarin, 1419-son Nizom ham o'zida MHXS 30da belgilangan talablarini mujassamlashtirgan. Lekin, MHXS Kengashi tomonidan BHXS 30 bekor qilingach, banklar ham BHXS 1da belgilangan talablar asosida moliyaviy hisobotlarini tayyorlashga majbur. Lekin, BHXS 1da moliya tashkilotlari (banklar) uchun aktiv va majburiyatlarni likvidlilikning o'suvchi yoki kamayuvchi tartibida taqdim etishdan bo'lak birorta aniq ko'rsatma berilmagan. Albatta, bank va boshqa moliyaviy tashkilotlarning faoliyat xususiyatlarini inobatga olgan holda BHXS 1ning yuqoridagi qayd etilgan qoidalarni inkor etib bo'lmaydi. Bizning fikrimizcha BHXS 1ga bank va boshqa moliyaviy tashkilotlarning moliyaviy hisobotlariga nisbatan BHXS 30da belgilangan talablar kiritilsa foydadan holi bo'lmaydi deb hisoblaymiz.

Bugungi kunda banklarga bo'lgan ishonchni oshirish, ularning moliyaviy barqarorligini ta'minlash kabilardan iborat. Buning uchun esa banklar moliyaviy hisobotlariga bo'lgan talablarning kuchaytirilishi va ularga bo'lgan sifat tavsiflarining obyektiv aks ettirilishini ta'minlash lozim bo'ladi. Umuman olganda MHXS banklar faoliyatiga tadbiq qilinishi banklarning raqobat kurashi uchun zamin hozirlaydi, hamda xizmat ko'rsatish saviyasini oshirishga xizmat qiladi, bank mutaxassislarining o'z ustida muttassil izlanishlar olib borishga undaydi. Bundan tashqari MHXSga o'tish banklar uchun qulay va chet ellik investorlarni jalb qilish yo'nalishlaridan hisoblanadi.

MHXSga o'tishda audit hisobotlari va buxgalteriya hisobini yuritish bilan shug'ullanuvchi mutaxassislarni qayta tayyorlash bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarni o'z ichiga oladi.

Bank hisobotining asosiy mohiyati bank faoliyati to'g'risidagi ishonchli, to'liq va operativ tarzda bank operatsiyalari to'g'risidagi ma'lumotlarni ichki va tashqi foydalanuvchilarga yetkazib berishdir. Bank hisoboti investorlar va kreditorlarga bank faoliyati to'g'risida, ya'ni bankning qancha pul mablag'lari borligi, kutilayotgan daromadlari hajmi, kreditlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarga zaxiralar naqdligi to'g'risida aniq ma'lumot bera olish kerak. Hozirgi zamon banklarini boshqarishda ularni butun bank faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlari pul o'lchov birligida aks ettiriladi.

Hisobot asosan boshqaruv uchun axborot beradi. Bu esa bevosita banklarning kelgusidagi faoliyatini rejalashtirish uchun qo'l keladi. Bundan tashqari hisobotlarda aks ettirilayotgan ma'lumotlar bank faoliyatiga baho berishda ham qo'llaniladi, ya'ni balans hisoboti moddalarini taqqoslash orqali moliyaviy koeffitsientlar hosil qilinadi. Shuning uchun ham hisobotni aniqligi boshqaruv qarorlarini aniq qabul qilishni ta'minlaydi. Banklarda hisobotni uslubiy jihatdan tashkil qilishni O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki nazorat qiladi.

Mazkur hisobotlarning har qaysisi muddatiga ko'ra alohida-alohida tarzda kunlik, oylik, choraklik va yillik hisobotlarga guruhlanadi. Moliyaviy hisobotlar balans hisoboti, foyda va zararlar hisoboti, pul mablag'lari harakati to'g'risida hisobot, xususiy kapital o'zgarishlari to'g'risidagi hisobot, moliyaviy hisobotga izohlar, tushuntirishlar va ilovalardan tashkil topadi.

Qolaversa, moliyaviy hisobot foydalanuvchilar axborotga bo'lgan talabini qondirish uchun tuziladi va o'z vaqtida taqdim etiladi. Moliyaviy hisobotning maqsadi bu tijorat bankining moliyaviy ahvoli, faoliyati, va o'zgarishlar to'g'risidagi axborotni taqdim etish, va iqtisodiy qarorlar qabul qilish, xo'jalik yurituvchi subyektning bo'lg'usi pul oqimiga baho berish, ishonib topshirilgan resurslarga,



majburiyatlariga baho berish, rahbar organlarning ishiga baho berish kabilarni amalga oshirish uchun xizmat qiladi.

Moliyaviy hisobotlar xalqaro standartlar asosida qoʻyidagi tamoyillar asosida tayyorlanishi lozim: hisoblash, ikki yoqlama yozuv usulida hisob kitobni yuritish, uzluksizlik, xoʻjalik operatsiyalarini, aktivlar va passivlarni pul bilan baholash, ishonchlilik, ehtiyotkorlik, mazmunning shakldan ustunligi, koʻrsatkichlarning qiyosiyliigi, moliyaviy hisobotdagi betaraflik, hisobot davrida daromadlar bilan xarajatlarning muvofiqligi, aktivlar va majburiyatlarning haqiqiy bahosi, tushunarlilik, ahamiyatlilik, jiddiylik, haqqoniy va xolis taqdim, tugallanganlik, izchillik, oʻz vaqtida taqdim etish kabilar shular jumlasidandir.

Banklarda har kuni qonun va meʼyoriy hujjatdarda belgilangan tartibda bir qancha operatsiyalar bajariladi. Bajarilgan operatsiyalarni buxgalteriya hisobida aks ettirilishi toʻgʻrisida hisobot tuzishlari va ularni tegishli joylarga taqdim etishlari lozim.

Banklarda buxgalteriya hisobi maʼlumotlari asosida kundalik balans hisoboti tuziladi. Bunday hisobot shakli va hajmi Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilab qoʻyilgan. Tijorat banklarining filiallari har kuni hisobvaraqlarning kun oxiridagi qoldiqlari boʻyicha ikkinchi tartib hisobvaraqlarida balans hisoboti tuzib, tijorat bankining viloyat boʻlimiga alohida fayl bilan modem orqali joʻnatadilar.

Banklarning viloyat boshqarmalari olingan balanslarni tekshirib, oʻz tizimlari boʻyicha viloyat yigʻma balansini tuzadilar, uni Markaziy bankning hududiy bosh boshqarmalariga taqdim etadilar. Markaziy bank hududiy bosh boshqarmalari butun viloyat boʻyicha balansni hamda Markaziy bank boʻyicha yigʻma balansni umumlashtiradilar va uni Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy banki ishlab chiqqan maxsus dastur yordamida modem orqali joʻnatadilar. Markaziy bankning buxgalteriya hisobi va hisoboti departamentida tijorat banklari boʻyicha alohida va Markaziy bank boʻyicha alohida balanslar tuziladi hamda butun Oʻzbekiston Respublikasi boʻyicha yigʻma

balans tarzida umumlashtiriladi. Markaziy bank balansini buxgalteriya hisobi va hisoboti departamenti, tijorat banklarining balansini esa tijorat banklariga litsenziyalar berish va ular faoliyatini tartibga solish departamentlari tahlil qiladilar. Ushbu hisobotning tahlil natijalari bo'yicha kamchiliklar tegishli banklarga ma'lum qilinadi.

Tijorat banklari tomonidan taqdim etilayotgan hisobot shakllariga quyidagi ma'lumotlar ilova qilinadi:

a) 19997-“Boshqa aktivlar” hisobvarag'i, 29802 – “Boshqa majburiyatlar” hisobvarag'i, 16505- “Tugallanmagan qurilish” hisobvaraqlarining qoldiqlari bo'yicha qaydnomasi ma'lumotnomalari;

b) aniqlanishi lozim bo'lgan o'zaro hisob-kitoblar bo'yicha o'tkazilgan summalar qaydnomasi. Shuningdek, qaydnomaga 17301- “Tranzit hisobvarag'i”, 23202 – “Kliring tranzaksiyalari”, 17305 va 23206-“Aniqlanish jarayonidagi transaksiyalar” hisobvaraqlari bo'yicha qoldiqda turgan har bir summa kiritiladi. Yuqorida aytilgan hisobvaraqlarda qoldiq bo'lmasa, bu haqda balans hisobotiga yozib qo'yiladi. Ushbu hisobot shakli va qaydnomalari bank rahbari hamda bosh buxgalter tomonidan imzolanadi. Kassa operatsiyalari bo'yicha hisobotlarga, ulardan tashqari katta kassir yoki kassa mudiri imzo chekadilar.

Banklarga kelib tushgan buxgalteriya hisobotlari tekshiriladi, tahlil qilinadi va uning asosida zarur boshqaruv qarorlari qabul qilinadi. Hisobot ma'lumotlarida nomuvofiqliqligi aniqlansa, buning sabablari qisqa muddatda aniqlanishi va tartibga solinadi. Banklarning viloyatlardagi rahbarlari (har kuni), respublikalardagi rahbarlari (har oyda) balanslarni ko'rib chiqishlari hamda bosh buxgalterning ularga qarashli bo'lgan banklarda buxgalteriya ishi, buxgalteriya hisobi va hisobotining ahvoli, shuningdek, bu ishda aniqlangan kamchiliklarning qanday bartaraf etilayotgani to'g'risidagi axborotini tinglab turiladi. Bunday ishlarining bajarilishi tijorat banklarida buxgalteriya hisobini yuritishda va hisobotlarini tuzish jarayonida qo'yilan kamchiliklarni bartaraf etishga yaqindan yordam beradi. Shuningdek, tijorat banklarida

yillik buxgalteriya hisobotlarini tuzilishining tarkibi, ma'zmoni va uni taqdim etish tartibi yuqoridagi belgilangan talablar asosida amalga oshiriladi.

Buxgalteriya balansi - bankning moliyaviy mablag'larini va ularning kelib chiqish manbalarini tegishli guruhlar bo'yicha pul ifodasida ma'lum bir sanaga (kun, oy, chorak va yillik) holati va harakati to'g'risidagi ma'lumotlarni umumlashtirishdir.

Banklar tomonidan tuzilayotgan buxgalteriya hisobi va hisobotlari, avvalo, ichki va tashqi (bank boshqaruvi va xodimlari, bank ta'sischilar, soliq inspeksiyasi, kreditorlar, investorlar) foydalanuvchilarning manfaatlari hamda qiziqishlarini qondirishi, shuningdek, bankning moliyaviy holatiga xolisona baho berish maqsadida tuziladigan ma'lumotlar majmuasi hisoblanadi. Shu boisdan, banklarda tuziladigan balans hisobotlari muddatiga ko'ra, korxonalaridan farqli o'laroq, kunlik balans, oylik balans, choraklik balans va yillik balans shaklida tuziladi. Tijorat banklarida buxgalteriya xizmatining asosi balans tuzishdan iborat. Kirish balansidan tortib tugatish balansiga qadar bo'lgan davr murakkab buxgalteriya jarayonini qamrab oladi.

Kunlik balansda banklarning o'zlik va jalb qilingan mablag'larning holati, shuningdek, ularni kredit va boshqa daromadli operatsiyalarga joylashtirilishi aks ettiriladi. Balans ma'lumotlariga ko'ra, pul mablag'larining shakllanishi va joylanishi, kredit, hisob-kitob, kassa va boshqa operatsiyalarining holati hamda ularni buxgalteriya hisobida to'g'ri aks ettirilishi nazorat qilinadi.

Kunlik balansda banklarning o'zlik va jalb qilingan mablag'larining holati va shuningdek, ularni kredit va boshqa operatsiyalarga joylashtirilishi aks ettiriladi. Maskur balans ma'lumotlariga ko'ra pul mablag'larining shakllanishi va joylanishi, kredit, hisob-kitob, kassa va boshqa operatsiyalarining holati hamda ularni buxgalteriya hisobida to'g'ri aks ettirilishi nazorat qilinadi.

Banklarda buxgalteriya hisobi va hujjatlar aylanishini tashqil qilish bevosita korxonalar buxgalteriya hisobini yuritishga ta'sir qiladi. Banklar har kuni mijozlarnig

analitik hisobi hisoblagan shaxsiy hisobvaraqlarini tuzadilar va mijozga ko'chirma taqdim qilishadi. Mazkur ko'chirmalar korxonalar buxgalteriyasida barcha bank operatsiyalarini aks ettirish asos bo'ladi. Demak, korxonalar balansi passivida aks ettirilayotgan ma'lumotlar o'z navbatida bank balansining aktivida aks ettiriladi va aksincha. Masalan, korxonalarning banklardagi hisob-kitob, joriy va boshqa hisob varaqlaridagi pul mablag'lari korxonalar balansining aktivida aks ettirilsa, bank balansining passivida aks ettiriladi.

Banklarda balanslar tuzilishiga ko'ra:

- kirim balansi;
- joriy balans;
- yig'ma balans (konsolidirovanniy);
- qayta tiklash balansi;
- birlashtirish balansi;
- tugatish balanslariga bo'linadi.

Balans tuzishda ma'lumotlar asosan aylanma qaydnomalardan (oborot vedomostlar) ko'chirib yoziladi. Buxgalteriya hisobotining ikkinchi shakli sifatida "foyda va zararlar to'g'risida"gi hisobot tuziladi. Bunda bankning daromadlari va xarajatlarning hisobini yuritishda tayinlangan asosiy hisobvaraqlardagi ma'lumotlar korrektirovka qilinib, bankning kunlik, oylik, choraklik va yillik xarajatlari hamda daromadlarining holati bo'yicha ma'lumotlar aks ettiriladi. Foyda va zararlar to'g'risidagi hisobotni tuzishdan maqsad bankning daromalari va xarajatlarini tahlil qilish, ularni hisoblashdagi hato hamda kamchiliklarini aniqlab, olingan natijalarga asoslangan holda bankning istiqboldagi faoliyatini rejalashtirishdir.

Buxgalteriya hisobotining 3-shakli balansga ilova hisoblanib, bunda hisobotning birinchi qismida byudjet daromadlariga ajratmalar va to'lovlar aks ettirib boriladi. Ikkinchi qimida esa, markazlashtirilgan sug'urta fondlariga, zaxira fondlariga boshqa maxsus fondlarga ajratmalar aks ettiriladi.

Bank balansdagi ma'lumotlar har bir operatsiyaning ro'y berishi natijasida aktivlar va passivlarni holati bo'yicha to'liq ma'lumotlar olish imkoniyatini beradi. Bu holat

hisob-kitob-pul hujjatlarining dastlabki hisobini tegishli hisob registrlarida rasmiylashtirilib, so'ngra buxgalteriya bo'limida analitik va sintetik hisob bo'yicha umumlashtiriladi hamda va buxgalteriya hisobining hisobvaraqlarida ikki yoqlama yozuv orqali aks ettiriladi. Bank ish kuni yakunida har bir hisobvaraqlar bo'yicha qoldiq summalar aniqlanadi. Hisobvarqlardagi oxirgi qoldiq summalar bosh va yordamchi kitobga ko'chiriladi hamda balansda o'rnatilgan tartibda aks ettiriladi.

Buxgalteriya balansi ikki qismdan, aktiv va passivdan iborat bo'lib, ularning o'zaro tengligi balansning to'g'ri tuzilganligi – bankning ish kuni to'liq yakunlanganligini ifodalaydi. Bank balansi o'rnatilgan tartibda kunlik, choraklik va yillik buxgalteriya hisoboti shakllarini tuzish ko'rsatmasiga asosan, andozadagi blankalarga tuziladi. Undagi ko'rsatkichlar umumiy bir o'lchov birligida, ya'ni, milliy valyutada (qiymat ko'rsatkichida) aks ettiriladi. Bu andozadagi balans blankasidagi satrlar bir nechta bo'lib, moddalari ham turlichadir. Balansning ikkala qismi, ya'ni, aktivlar va passivlarning jami summolari bir-biriga teng bo'lishi bilan izohlanadi.

Balansining aktiv tomonida naqd pul mablag'lari, xorijiy valyutadagi pul mablag'lar, Markaziy bankdagi vakillik hisobvarag'i, majburiy zaxiralari, qimmatbaho qog'ozlarga qo'yilmalar, kreditlar, sarmoyalar, asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar hamda boshqa aktivlardan tashkil topadi.

Passiv tomoni esa, depozitlar, boshqa banklardan olingan kreditlar, bank tomonidan chiqarilgan qarz majburiyatlar, aksionerlik kapitali kabi hisobvaraqlardan iboratdir.

Bankning aktivlari tarkibidagi naqd pullar - bank mablag'lari toifasi bo'lib, bankning to'lov faoliyatining ahvolini belgilaydi va mijozlarning naqd pul mablag'lariga bo'lgan talabini qondirish uchun bank mijozlari oldidagi o'z majburiyatlarini bajarish qobiliyatini belgilaydi.

Xorijiy valyutadagi pul mablag'lari esa, tijorat banklarining valyuta bozoridagi operatsiyalarining hajmini ifodalaydi. Markaziy bankdagi vakillik hisobvaraqlari –

balans hisobvaraqlari bo'lib, unda ayni paytda bankda mablag'larning mavjudligini anglatadi. Har bir tijorat banklarining hisobvarag'i Markaziy bankda ochiladi. Mablag'lar o'tkazish va mablag'larning tuzilishi bo'yicha bank amaldagi hamma operatsiyalar vakillik hisobvarag'ida aks ettiriladi.

Majburiy zaxiralar fondi - Markaziy bankdagi alohida hisobvarag'ida mavjud bank mablag'lari bo'lib, O'zbekistonning hamma tijorat banklari tomonidan majburiy tartibda zaxiralanadi, bu esa, ularning likvidliligini saqlab turishini ma'lum darajada kafolatlaydi. Majburiy zaxiralar fondiga ajratmalar foiz stavkalarini belgilash Markaziy bank tomonidan o'tkaziladigan tijorat banklari likvidligini saqlab turishning eng ta'sirchan mexanizmi hisoblanadi.

Qimmatli qog'ozlarga qo'yilmalar tijorat bankning fond bozoridagi operatsiyalarini aks ettirib, balans aktivining boshqa ko'rsatkichlari bilan taqqoslanganda, qimmatli qog'ozlar bilan bo'ladigan operatsiyalarida bankning amaliy faolligini ifodalaydi. Ular emitetlar maqomiga qarab, ikki toifaga bo'linadi; hukumat yoki markaziy bank chiqargan qimmatli qog'ozlar va xo'jalik yurituvchi subyektlar chiqargan qimmatli qog'ozlardan tashkil topadi.

Hukumat yoki markaziy bank chiqargan qimmatli qog'ozlar yuqori darajada likvidligi bilan ajralib turadi, ammo bu qog'ozlarning daromadliligi boshqa emitetlar chiqargan qimmatli qog'ozlarnikidan bir muncha past bo'ladi.

Kreditlar - tijorat bankining kreditga oid operatsiyalari bo'lib, bankning foyda olishini belgilovchi moddasi hisoblanadi. Balansda kredit muddatlari (qisqa va uzoq) bo'yicha xo'jalik yurituvchi subyektlarning mulkchilik shakliga qarab tasniflanadi.

Sarmoya - bankning boshqa yuridik shaxslar faoliyatidagi ulushini ifodalaydi. Bank sarmoyalari xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyatini boshqarish yo'li bilan qo'shimcha foyda, dividend sifatida, boshqa turdagi daromadlar olish maqsadida turli loyihalarga yo'naltirilgan mablag'lar hajmini izohlaydi.

Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar – bank aktivlarining asosiy moddalaridan biri bo‘lib, bank o‘z faoliyatini tashkil etishda moddiy bazasini shakllantirishga va bank operatsiyalarini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratish uchun yo‘naltirilgan mablag‘laridir. Ular jumlasiga: bank binolari, inshootlari, kapital qurilish uchun qiligan xarajatlari, ofis va ish mebellari, jihozlari, kompyuter va boshqa hisoblash texnikasi, aloqa vositalaridan iboratdir. Markaziy bank tomonidan belgilangan me‘yorlar tijorat banklarining kapital xarajatlari miqdori bank aktivlarining 10 foiz miqdorida chegaralangan.

Bank passivida aks ettiriladigan moddalari quyidagilarni o‘z ichiga oladi: depozitlari – bankning boshqa subyektlarda xarid qilgan manbalarini ifodalaydi. Ular talab qilib olinadigan, jamg‘arma, muddatli depozitlarga bo‘linadi. Talab qilib olinadigan depozitlaridan tashqari barcha depozitlar kredit resurslarining eng barqaror manbalaridan hisoblanadi. Jalb qilingan manbalarda muddatli depozitlar ulushining oshishi qo‘yilmalarni uzoq muddatga, shu bilan birga yuqoriroq foiz bilan amalga oshirish imkonini beradi, bu esa bankning omonatlar (depozitlar) bo‘yicha foiz xarajatlarini ko‘paytiradi.

Boshqa banklardan olingan kreditlar – tijorat bankining bo‘sh mablag‘lariga bo‘lgan ehtiyoji va mijozlariga pullik xizmatlar hajmini oshirish maqsadida boshqa moliya institutlari bilan o‘zaro munosabatlarini ifodalaydi. Biroq, banklararo kreditlar birinchidan, boshqa mablag‘larga nisbatan olish imkoniyatining yuqoriligi va ikkinchidan, eng qimmat kredit manbasi hisoblanadi.

Tijorat banklarida jalb qilingan malag‘lar ulushida banklararo kreditlarning salmog‘i yuqoriligi ularda depozit siyosati yaxshi ishlab chiqilmaganligini izohlaydi.

Bank chiqargan qarz majburiyatlar moddasi – tijorat banklari tomonidan chiqarilgan qarz majburiyatlarining ulushini ifodalaydi. Qarz majburiyatlarini chiqarish bankka uzoq muddatli manbaalarni shakllantirish imkonini beradi. Bundan tashqari, bunday katta hajmdagi qarz mablag‘lari

bank uchun qulaydir, chunki uning pulini to'lash va qaytarib berish oldindan ma'lum bo'ladi, bu esa, bankning to'lay olmaslik xavfini kamaytiradi.

Aksiyadorlik kapitali – bankning o'z mablag'lari hajmini anglatadi. Markaziy bank tomonidan tijorat banklari kapitalining shakllanishini nazorat qiladi va tartibga solib turadi. Bu esa, bank operatsiyalari daromadlilikini oshirishi va ularning faoliyatini samarali boshqarishni ta'minlaydi.

Bank tizimiga ishonchni mustahkamlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tijorat banklarining moliyaviy faoliyatining sifatini oshirishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirib bormoqda. Bunda O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi qonunning 42-moddasiga, "O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki to'g'risida"gi va O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi qonunlariga muvofiq, banklarning e'lon qilinadigan moliyaviy hisobotlariga doir O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining talablari to'g'risida nizomi ishlab chiqilgan. Ushbu nizomning ishlab chiqilishi tijorat banklari yillik hisobotlarining ochiq matbuotda e'lon qilinishi dunyoda muayyan darajada oshkoraligi bilan ajralib turadigan bank tizimini yaratish uchun dastlabki qadamdir. Ushbu nizomga ko'ra, barcha banklar o'z yillik hisobotlarini, jumladan, balans hisobotini matbuotda e'lon qilishlari lozim. Quyida tijorat banklari tomonidan tuziladigan yillik balans hisobotning namunaviy shaklini keltiramiz (3.2-jadvalga qarang).

3.2-jadval

**Bankning balans hisoboti**  
(20\_ yil \_ yanvar holatiga ko'ra)

AKTIVLAR	
Ming so'm hisobida	
1. Naqd pullar	150151
2. Markaziy bankdagi vakillik hisobvarag'i	978221
3. Xorijiy valyutadagi pul mablag'lari	1534
4. Majburiy zaxiralar fondi	163211
5. Qimmatli qog'ozlarga yo'naltirilgan investitsiyalar	9523
6. Berilgan kreditlar	3597862



7. Investitsiyalar	45126
8. Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar	653148
9. Boshqa aktivlar	2103456
<i>Jami aktivlar</i>	<i>7702232</i>
<b>MAJBURIYATLAR</b>	
1. Depozitlar, shu jumladan:	5120593
a) Talab qilib olinguncha saqlanadigan	3564594
b) Jamg'armalar	126413
d) Muddatli	1429616
2. Boshqa banklardan olingan kreditlar	954630
3. To'lanmagan aktseptlar	0
4. Boshqa passivlar	325160
<i>Majburiyatlarning jami</i>	<i>6400383</i>
<b>KAPITAL</b>	
1. Aksiyadorlik kapitali	820233
2. Rezerv kapitali	420233
3. Taqsimlanmagan foyda	58156
Kapitalning jami	1301849
<i>Jami passivlar</i>	<i>7702232</i>
<b>BALANS DAN TASHQARI HISOBVARAQLAR</b>	
1. Bank tomonidan berilgan kafolat va kafilliklar	4645452
2. Boshqa ko'zda tutilmagan holatlar hisobvaragi	412850239
Balansdan tashqari hisobvaraqlar bo'yicha jami	417495691

Balansdagi moddalar bo'yicha ko'rsatkichlar hisobot yili boshiga va hisobot davri oxiriga (kunlik, oylik, choraklik) ko'rsatiladi. Bunday tartibda tuzilishiga sabab, aktivlar va passivlarning holatini o'rganish hamda kelgusida ularning daromadlilik oshirish bo'yicha muhim qarorlar qabul qilishdir.

Tijorat banklari tomonidan tuzilayotgan balans hisobotlari konsodatsiyalashgan balans shaklida tuzilib, undagi ma'lumotlar bank filiallarining bir butun moliyaviy ahvolini o'zida mujassamlashtiradi. Bankning balans hisobotlari hisobot oyining oxirgi kuni holatiga tuzilishini talab qiladi. Balans hisobotlari daromad va xarajatlarni tan olishning hisoblash usuli asosida tuziladi va Markaziy bankka hisobot oyidan keyingi oyning 10 - sanasigacha (Toshkent shahri uchun 5-sanaga) topshiriladi.

Tijorat banklari tomonidan tuzilayotgan ushbu balans hisobotlarining bo'sh qolgan satrlarida yozuv bo'lmagan holda, bo'sh qolgan satrlarga nol yoki chiziqcha tortib

qo'yiladi. Ayrim holatlarda tuzilayotgan balans hisobotlaridagi ma'lumotlar ijobiy yoki salbiy bo'lsa, albatta, ular salbiy bo'lsa, qavs (-) ichida ko'rsatilgan bo'lishi lozim. Oylik balans hisobotlarini tuzishda hisobotning jami summasi jadvalda so'm hisobida degan yozuv bilan yozib qo'yiladi. Chunki ushbu yozuvlarni (o'qishda) butun shaklda (округление) yozishda xatoliklarga yo'l qo'yilmaslikning oldini oladi.

Tijorat banki buxgalteriya balansi moliyaviy hisobotlarning 1-shakli bo'lib, u bankning o'z mablag'lari va jalb qilingan mablag'larining holatini, hamda ushbu mablag'larni bankning kredit va boshqa aktiv operatsiyalariga joylanishini ifodalaydi. Bundan tashqari, buxgalteriya balansi bank tomonidan bajariladigan operatsiyalarni xarakterlaydi. Shu bois balans bank moliyaviy faoliyati natijalarini ko'rsatuvchi buxgalteriya hisobotining asosiy shakli bo'lib, boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Balans ma'lumotlari bank rahbarlariga bank ishini rivojlantirishda aniq chora va tadbirlar ishlab chiqishga sharoit yaratadi, hamda u asosida bank kapitali va fondlari, kassadagi naqd pullar qoldig'i, mijozlarning hisob-kitob va kredit hisob varaqlaridagi qoldiqlar, hamda boshqa jalb qilingan mablag'lar holatini o'rganish va tahlil qilish mumkin bo'ladi.

Banklarning buxgalteriya balansi O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi qonun va xalqaro andozalar talablariga mos keluvchan yangi hisobvaraqlar rejasida belgilangan shaklda tuziladi. Yangi hisobvaraqlar rejasida iqtisodiyotda bo'lib o'tgan barcha o'zgarishlar natijasida banklar tomonidan bajarilayotgan yangi operatsiyalar ham ko'zda tutilgan. Yangi reja bosh buxgalteriya kitobidagi hisobvaraqlar tizimini aks ettirib, ular moliyaviy operatsiyalarni guruhlashtirish, ikki yoqlama yozuvni amalga oshirish, hisobotlarni tuzish va tahlil qilish uchun ishlatiladi.

Respublikamizda faoliyat yuritayotgan tijorat banklar balansi asosan 3 bo'limdan iborat bo'lib, ular quyidagicha bo'ladi: aktiv, majburiyat va kapitaldan iborat.

Har bir davlatda banklar asosan qonunchilik asosida ish yuritadilar. Banklarni nazorat qilish Markaziy banklar tomonidan ishlab chiqilgan me'yoriy hujjatlar va talablar asosida amalga oshiriladi. Xuddi shuningdek bank buxgalteriya balansi har bir davlat qonunchiligiga asosan Markaziy banklari tomonidan ishlab chiqiladi va taqdim qilingan schyotlar rejasi asosida tuziladi. Amaliyotda banklar kunlik, oylik, choraklik va yillik balans tuzadilar.

Moliyaviy hisobot ma'lumotlaridan foydalanib, boshqaruv qarorlarni qabul qiluvchi shaxslarga yordam berish maqsadida, balans moddalari umumiy tavsiflar bo'yicha guruhlanadi. Aktivlar – likvidlik darajasining pasayib borishi tartibida, majburiyatlar to'lov muddatining qisqarib borishi tartibida va xususiy kapital jamlanishning kamayib borishi tartibida guruhlanadi.

Balans tuzishining foydaliligi shundan iboratki, balans ko'pchilik moliyaviy koeffitsientlarni (likvidlik, moliyaviy moslashuvchanlik, rentabellik va boshqalar) hisoblash uchun asos yaratadi. Shuningdek balans bank xizmatlarini va uning yangi bank xizmatlarini o'zlashtirishdagi siyosatini, uning aktivlarini baholashga imkon yaratadi.

Balansda tan olingan barcha qiymatliklar joriy deb tan olinmaydi. Pul mablag'larining qiymati joriy hisoblanadi, biroq bino va uskunalar kabi moddalar qiymati uzoq muddatli qiymat hisoblanadi.

Bundan tashqari balans ko'p sonli hisoblangan summalarni o'z ichiga kiritadi (shubhali debitorlik qarzlarni hisobdan chiqarishdan olingan zararlar, jamg'arilgan eskirish). Ayrim majburiyatlar ham hisoblangan bo'ladi, ya'ni daromad solig'i, kafolat majburiyatlar bo'yicha xarajatlar, nafaqa majburiyatlari va boshqalar. Balansning ba'zi moddalarining qiymati aniq bo'lmasligi mumkin. Bunga misol tariqasida nomoddiy aktivlarni va soliq to'lovlari bo'yicha muddati uzaytirilgan majburiyatlarni keltirish mumkin.

Balans bo'limlarining qisqacha tavsifi.

*I bo'lim "AKTIVLAR".*

"Aktiv"lar bo'limi o'z ichiga bir qator asosiy hisobvaraqlarni birlashtiradi. Bank aktivlari naqd

pullardan boshlab hisobga olinadi. Naqd pullarni hisobga olish uchun 10100 hisobraqami ajratilgan. Bu hisobvaraqlar nomi “Naqd pullar va boshqa kassa hujjatlari” bo‘lib, o‘z ichiga “Kassadagi naqd pullar”, “Yo‘ldagi naqd pullar”, “Valyuta almashtirish shoxobchalari kassasidagi naqd pullar”, “Bankomatlardagi naqd pullar” kabi bir qator sub - hisobraqamlarni birlashtiradi.

Bundan tashqari ushbu bo‘limda 10300-“O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Bankidagi hisob – raqamlari”, 10500-“Bankning boshqa banklardagi hisob – raqamlari” nomli asosiy hisobvaraqlar va ularga tegishli bo‘lgan bir qator sub - hisob - raqamlari ochilgan. Respublikadagi mavjud qonun qoidalarga asosan barcha tijorat banklari O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Bankida o‘z vakillik hisobvaraqlarini ochadilar. Mablag‘ o‘tkazish yoki mablag‘larni tushirish bo‘yicha amalga oshiriladigan banklararo operatsiyalar tijorat banklarining vakillik hisobvaraqlari orqali amalga oshiriladi. Majburiy zaxiralar fondi ham Markaziy Bankdagi alohida hisobvarag‘ida turadigan bank mablag‘i bo‘lib, O‘zbekistonning barcha tijorat banklari tomonidan majburiy tartibda zaxiralanadi, bu esa tijorat bankining likvidligini saqlab turishga malum darajada kafolat bo‘ladi. Majburiy zaxiralar fondiga ajratmalarning foiz stavkalarini belgilash Markaziy Bank tomonidan o‘tkaziladigan tijorat banklari likvidligini saqlab turuvchi eng ta’sirchan mexanizm bo‘lib hisoblanadi.

Oldi - sotdi uchun mo‘ljallangan qimmatli qog‘ozlar bo‘yicha operatsiyalar hisobini yuritish uchun 10700 hisobraqam ajratilgan. 10900 hisobraqami esa oldi - sotdi uchun mo‘ljallangan qimmatbaho metallarni hisobga olish uchun mo‘ljallangan. Bu ikkala asosiy hisobraqamlar ham bir necha sub - hisobraqamlarni o‘ziga birlashtiradi. Qimmatli qog‘ozlarga qo‘yilmalar tijorat bankining fond bozoridagi operatsiyalarini aks ettiradi va balans aktivining boshqa ko‘rsatkichlari bilan taqqoslanganda qimmatli qog‘ozlar bilan bo‘ladigan operatsiyalarida bankning amaliy faolligini ifodalaydi. 11300-“Sotib olingan veksellar” hisobraqamida bank tomonidan veksellarni sotib olish bilan bog‘liq operatsiyalar hisobga olib boriladi. Bankning

sotib olingan veksellari 11301 - 11399 raqamli balans hisobraqamlarida hisobga olinadi. Veksellarni sotib olish - bu muomaladagi instrumentlar vositasida moliyalashtirishning bir shaklidir. Mijozlardan eksport bilan bog'liq va mahalliy hujjatli hamda hujjatsiz veksellarni sotib olish asosan ushbu veksellarni o'z vaqtida to'lanishi bo'yicha shartni o'z ichiga oladi. Ba'zi hollarda vekselni sotib olish yoki bank tomonidan qayta sotish shartlarini o'z ichiga olishi mumkin.

Bank tomonidan berilgan qisqa muddatli kreditlar quyidagi asosiy hisobraqamlarda hisobga olib boriladi: 11900-"O'zbekiston Respublikasi Markaziy Bankiga berilgan qisqa muddatli kreditlar", 12100-"Boshqa banklarga berilgan qisqa muddatli kreditlar", 12300-"Hukumatga berilgan qisqa muddatli kreditlar", 12500-"Jismoniy shaxslarga berilgan qisqa muddatli kreditlar", 12700-"Davlat korxonalariga berilgan qisqa muddatli kreditlar", 12900-"Qo'shma korxonalariga berilgan qisqa muddatli kreditlar", 13000-"Jamoat tashkilotlarga berilgan qisqa muddatli kreditlar", 13100-"Xususiy korxonalar, shirkatlar va korporatsiyalarga berilgan qisqa muddatli kreditlar", 13200-"Bank bo'lmagan moliyaviy muassasalarga berilgan qisqa muddatli kreditlar", 13300-"Boshqa banklarga berilgan o'rta muddatli kreditlar", 13500-"Hukumatga berilgan o'rta muddatli kreditlar", 13700-"Jismoniy shaxslarga berilgan o'rta muddatli kreditlar", 13800-"Yakka tartibdagi tadbirkorlarga berilgan o'rta muddatli kreditlar" hisob raqamlarida olib boriladi. 14000-"Jamoat tashkilotlariga berilgan o'rta muddatli kreditlar", 14100-"Qo'shma korxonalariga berilgan o'rta muddatli kreditlar", 14300-"Xususiy korxonalar, shirkatlar va korporatsiyalarga berilgan o'rta muddatli kreditlar", 14400-"Bank bo'lmagan moliyaviy muassasalarga berilgan o'rta muddatli kreditlar", 14500-"Boshqa banklarga berilgan uzoq muddatli kreditlar", 14700-"Hukumatga berilgan uzoq muddatli kreditlar", 14900-"Jismoniy shaxslarga berilgan uzoq muddatli kreditlar hisobraqamlarida hisobga olib boriladi. Umuman, kreditlar tijorat banklarining kreditga doir operatsiyalaridan bank foyda olishining belgilovchi

moddasi hisoblanadi. 15000-“Yakka tartibdagi tadbirkorlarga berilgan uzoq muddatli kreditlar”, 15100-“Davlat korxonalar va tashkilotlariga berilgan uzoq muddatli kreditlar”, 15200-“Jamoatchilik tashkilotlariga berilgan uzoq muddatli kreditlar”, 15300-“Qo‘shma korxonalariga berilgan uzoq muddatli kreditlar”, 15500-“Xususiy korxonalar, shirkatlar va korporatsiyalarga berilgan uzoq muddatli kreditlar”, 15700-“Sud jarayonidagi kreditlar”, 15900-“Investitsiyalar” kabi hisob varaqlar balansda kredit muddatlari va xalq xo‘jaligidagi xo‘jalik yurituvchi subyektlarning qaysi mulkchilik shakliga qarab klassifikatsiya qilinadi. Hisobraqamda sud muhokamasiga o‘tkazilgan kreditlarning hisobi ular to‘liq undirib olinmaguncha, qarzdorlarning majburiyati qayta ko‘rib chiqilmaguncha, garovdagi mol-mulki olib qo‘yilmaguncha yoki sud jarayonini to‘xtatadigan boshqa o‘zgarishlar bo‘lmaguncha shu hisobraqamda yuritiladi.

Bank investitsiyalari 15900 asosiy hisobraqamda hisobga olinadi va ikki kategoriyaga bo‘linadi. Hukumat obligatsiyalariga investitsiya qilingan mablag‘lar, O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Bankining obligatsiyalariga hamda xususiy obligatsiyalarga investitsiya qilingan mablag‘lar.

Bosh bank agentliklaridagi mablag‘larni hisobga olib borish uchun 16100 hisob - raqam ajratilgan. Bu hisobraqamda Respublikada joylashgan bosh bank va bo‘limlar yoki bo‘limlararo bo‘ladigan milliy va xorijiy valyutalardagi operatsiyalarning hisobi olib boriladi. 16300-“Hisobraqam aktivlar bo‘yicha hisoblangan foizlarni hisobga olishga” mo‘ljallangan. Bu hisobraqam va unga tegishli bo‘lgan sub-hisobraqamlarda tegishli balans hisobraqamlarda hisobi yuritiladigan aktivlar bo‘yicha yoki ko‘rsatilgan xizmatlar bo‘yicha hisoblangan va olinishi lozim bo‘lgan, ya‘ni hali kelib tushmagan foizlar hisoblanadi. Balans hisoboti davrida ushbu foizlar tegishli foizlar hisobraqami (16301 - 16397)ga debetlanadi va unga mos kelgan foizli daromadlar hisobraqamiga kreditlanadi. 16401-“Olish mo‘ljallangan foizsiz daromadlar” hisobvarag‘i hisoblanadi.

Bankning asosiy vositalari 16500, nomoddiy aktivlar 16600 va boshqa o'z mulklari 16700 hisobraqamlarida hisobga olib boriladi, hamda bu hisob varaqlar bank aktivlarining asosiy moddalaridan biri bo'lib hisoblanadi, chunki bank o'z faoliyatini tashkil qilish uchun moddiy bazaga, operatsiyalarni bajarish uchun shart-sharoitga ega bo'lishi lozim. Bankning asosiy vositalariga bino-inshootlar, kapital qurilish uchun bank tomonidan qilingan xarajatlar, ofis va ish mebeli, jihozlar, kompyuter va boshqa hisoblash texnikasi, aloqa vositalari kabilar kiradi. Markaziy Bank belgilangan me'yorlar tijorat bankining kapital xarajatlari miqdorini bank aktivining 10 foiz miqdorida cheklaydi. Kliring hisob - varaqlari va boshqa aktivlar 17300 va 19900 hisob-raqamlarda hisobga olib boriladi.

### *II bo'lim "MAJBURIYATLAR"*

Bank balansining majburiyatlar qismi depozitlardan boshlanadi. Depozitlar bankning boshqa subyektlardan jalb qilingan manbalarini ifodalaydi. Buxgalteriya hisobining ko'p valyutalik tizimida depozit qaysi valyutada qo'yilsa, u o'sha valyutada ro'yxatga olinadi va ularning hisobi har bir valyuta uchun alohida ochilgan bosh kitoblarda olib boriladi. Bundan tashqari depozit majburiyatlari muddati va uni qo'yan mijozning mulkchilik shakliga taalluqligicha tasniflanadi.

Barcha depozitlar talab qilib olinguncha saqlanadigan, jamg'arma va muddatsiz depozit turlariga bo'linadi. Talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlar 20200 asosiy hisobraqamda hisobga olib boriladi. U o'z ichiga 20202 - 20296 sub-hisobraqamlarni oladi. Bu sub-hisobraqamlar turli mulkchilik shakllariga tegishli bo'lgan mijozlarning talab qilinguncha saqlanadigan depozitlari bo'yicha alohida tasniflanadi. Jamg'armali va muddatli depozitlar ham xuddi shunday tasniflanib, ular bo'yicha hisob 20400 va 20600 hisobraqamlarda yuritiladi.

Majburiyatlar bo'limida yana 20800-"O'zbekiston Respublikasi Markaziy Bankining hisobraqamlaridagi qoldiq" deb nomlangan asosiy hisobraqamlari boshqa banklarga to'lanadigan hisobvaraqlar esa 21000 asosiy hisobraqamida yuritiladi. Boshqa banklardan va

mijozlardan olingan kreditlar muddatlari va kreditorlarning tiplari bo'yicha tasniflangan, ya'ni "Bank tomonidan olingan qisqa muddatli kreditlar" 21600 asosiy hisobraqamda, "Bank tomonidan olingan o'rta muddatli kreditlar" 21800 asosiy hisobraqamda, "Bank tomonidan olingan uzoq muddatli kreditlar" 22000 asosiy hisobraqamda hisobga olib boriladi. Bu asosiy hisobraqamlarning har biri kreditorlarning tipiga ko'ra hisobga olib borish uchun mo'ljallangan sub-hisobraqamlarni birlashtiradi.

Majburiyatlar bo'yicha hisoblangan foizlarni hisobga olish uchun 22400 hisobraqam ajratilgan. Bank o'zining har xil majburiyatlari bo'yicha to'lashi uchun hisoblangan foizlari 22402 - 22496 balans hisobraqamlarida hisobga olib boriladi. Bunga bankning depozit majburiyatlari bo'yicha hisoblangan, lekin hali to'lanmagan foizli xarajatlar kiradi. Ushbu hisobraqamlar bo'yicha to'lovlar ular amalga oshirilgan davr uchun hisoblanadi, ya'ni to'lovlar qaysi hisobot davriga tegishli bo'lsa o'sha hisobot davri uchun aks ettiriladi.

Mijozlarning boshqa depozitlari, jumladan, akkreditivlar bo'yicha majburiyatlari, veksel bilan kafolatlangan trattalar bo'yicha majburiyatlar hisobi 22600 asosiy hisob - raqamda yuritiladi.

Hukumatga tegishli daromad va boshqa tushumlarni hisobga olish uchun 23400-"Hukumatga tegishli daromad va boshqa tushumlar" asosiy hisob raqamida aks ettiriladi. Shu hisob raqamlariga tegishli bo'lgan 23402 - 23432 balans hisob raqamlarida hukumatning "Davlat byudjeti to'g'risida"gi qonunda ko'zda tutilgan daromadlar bo'yicha tushumlari va shu daromadlar hisob raqamlaridagi qoldiqlar doirasida ushbu qonunda ko'zda tutilgan tegishli byudjetlardan moliyalashtiriladigan yillik xarajatlarni qoplashi mo'ljallangan byudjet mablag'larining hisobi yuritiladi. Boshqa barcha passivlar 29800 asosiy hisob - raqam orqali ifodalanadi.

### *III bo'lim "KAPITAL"*

Ushbu bo'lim o'z ichiga 30300-"Aksionerlik kapitali", 30600-"Qo'shilgan kapital" va 30900-"Zaxira kapitali" deb



nomlangan asosiy hisobraqamlarini oladi. Tijorat bankining aksiyadorlik kapitali bankning o'z mablag'lari hajmini ifodalaydi. Markaziy Bank tijorat banklarining kapital hosil qilish darajasini va tuzilmasini tartibga solib turadi, bu esa bank daromadlarini yaxshilaydi.

Kapital bo'limida yuqoridagi hisobraqamlardan tashqari 31200 hisob - raqam "Taqsimlangan foyda"ni hisobga olib borish uchun, 31500 hisobraqam esa boshlang'ich qiymatiga nisbatan qayta baholangandagi qo'shimcha qiymatni hisobga olib borish uchun ochilgan. Ushbu hisobraqamda inflyatsiya natijasida bank asosiy vositalari qiymati qayta baholanganda ularning boshlang'ich va bozor qiymatlari o'rtasidagi ijobiy farq, ya'ni boshlang'ich bahosiga nisbatan qo'shimcha qiymatining summasi aks ettiriladi.

#### *IV bo'lim "DAROMADLAR".*

"Daromadlar" bo'limi o'z ichiga bankning hisobot davridagi barcha daromadlarini oladi. Barcha foizli daromadlar 40200 - 44900 hisobraqamlarda aks ettiriladi. Bankning aktivlari bo'yicha amalga oshirilgan operatsiyalari natijasida olgan foizli daromadlari 40201 - 44901 hisobraqamlarda hisobga olib boriladi. Agar foizli daromadlar to'lov hujjatlari ko'rinishida olinsa, o'z navbatida, bankning vakillik hisob - raqami, mijozning hisobraqami yoki kassa hisobraqamlari debetlanadi. Balans hisoboti davrida hisoblangan, lekin hali olinmagan daromadlar summasiga 16300-"Aktivlar bo'yicha hisoblangan foizlar" hisobvarag'idagi tegishli balans hisobraqamlari debetlanadi va unga mos kelgan daromadlar balans hisobraqami kreditlanadi.

Vositachilik va boshqa xizmatlar bo'yicha daromadlar 45200 asosiy hisobraqamda, xorijiy valyutadagi foyda esa 45400 hisobraqamda hisobga olib boriladi. "Xorijiy valyutadagi foyda" hisobraqami bankning spot, forvard, fyuchers shartlari asosida tuzgan valyuta bitimlari bo'yicha olingan hamda hisobot davrida amalga oshirish muddati kelmayan valyuta bitimlari revalvatsiya natijasida qayta baholanganda, ushbu bitimlar bo'yicha amalga oshmagan foydalarning hisobini yuritish uchun mo'ljallangan.

Tijorat operatsiyalari bo'yicha olingan foyda 45600 asosiy hisobraqamlarida hisobga olinadi. Ushbu asosiy hisobraqamga tegishli bo'lgan, barcha hisobraqamlar bankning qimmatli qog'ozlar, qimmatbaho metallar vositasida amalga oshirgan tijorat operatsiyalari natijasida olingan foydasining hisobini yuritish uchun mo'ljallangan.

45800 asosiy hisobraqamda investitsiyalardan olingan foyda va dividendlar hisobga olib boriladi. Investitsiyalarni sotish qiymati ushbu aktivlarni sotib olingandagi qiymati yoki balansga kirim qilingan qiymatga nisbatan yuqori bo'lganda foyda olinishi mumkin.

Boshqa foizsiz daromadlar 45900 asosiy hisobraqamda hisobga olib boriladi. Bu hisobraqam bankning imoratlari, jihozlari, ko'chmas mulki va boshqa xususiy mulklari kabi aktivlari ijarasidan olingan daromadlarning hisobini yuritish uchun mo'ljallangan. Bir yil va undan ortiqroq muddatga ijaraga berilgan aktivlar uchun bank ijara haqini o'zaro tuzilgan shartnomaga asosan oldinroq undirib olishi mumkin. Bu holda oldindan undirib olingan daromadlar 22896-“Boshqa muddati surilgan daromadlar” balans hisobraqamining kreditida aks ettiriladi va muddat o'tishi bilan ishlab olingan daromad tegishli daromadlar hisobraqamlariga o'tkazib beriladi.

#### *V bo'lim “XARAJATLAR”*

Bu bo'limda hisobot davrida bankning barcha xarajatlari aks ettiriladigan hisob - raqamlar ochilgan. Bankning depozit majburiyatlari bo'yicha foizli xarajatlarining hisobi 50101-54902 balans hisobraqamlarida yuritiladi. Foizli xarajatlar-bu bankning yuridik va jismoniy shaxslar oldidagi har xil depozitlar, boshqa banklarning mablag'lari, bankning kredit majburiyatlari va boshqa majburiyatlari bo'yicha amalda to'langan yoki hisoblangan xarajatlaridir. Barcha xarajatlar majburiyatlarning turlari bo'yicha tasniflangan.

Bankning vositachilik xarajatlari va turli xizmatlar bo'yicha xarajatlar 55100 balans hisobraqamida hisobga olinadi. Xorijiy valyutalarda ko'rilgan zarar esa 55300 balans hisobraqamida aks ettiriladi. Bu hisobraqam banklarning spot, forvard, opsiya va fyuchers shartlari

asosida tuzgan valyuta bitimlari bo'yicha ko'rgan zararlarining hisobini yuritishga mo'ljallangan. Agar bank qimmatbaho qog'ozlar oldi-sotdisi bo'yicha zarar ko'rayotgan bo'lsa, bu zarar 55800 balans hisobraqamida hisobga olib boriladi.

Bank bino-inshootlarini, jihozlarini, ko'chmas mulkni sotishdan ko'rilgan zararlar hamda yuqorida ko'rsatilgan hisobraqamlarda, hisobga olingan zararlarining hech biriga tegishli bo'lmagan boshqa foizsiz xarajatlar 55900-"Boshqa foizsiz xarajatlar" asosiy hisobvaraqa aks ettiriladi. Bankning operatsion xarajatlarini hisobga olib borish uchun 56100-"Bank xizmatchilarining ish haqi va ular uchun qilingan boshqa xarajatlar", 56200-"Ijara va ta'minot xarajatlari", 56300-"Xizmat safari va yo'l xarajatlari", 56400-"Ma'muriy xarajatlar", 56500-"Reprezentatsiya xarajatlari", 56700-"Sug'urta, soliq va boshqa xarajatlar", kabi hisobraqamlar ochilgan. Bankning ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarini 56800 asosiy hisobraqamda, bankning daromad solig'ining baholanishi esa 56900 hisobraqamda hisobga olib boriladi.

#### *VI bo'lim "KO'ZDA TUTILMAGAN HOLATLAR BO'YICHA HISOBRAQAMLAR"*

Yangi hisobvaraqlar rejasida ko'zda tutilmagan holatlar bo'yicha balansdan tashqari hisobraqamlar ham xuddi balans ichidagi hisobraqamlar kabi ikki yoqlama yozuv asosida olib boriladi. Ilgari balansdan tashqari joylashgan hisobraqamlar oddiy yozuv, kirim yoki chiqim ko'rinishida olib borilar edi. Hisobvaraqlar rejasidagi har bir balansdan tashqarida joylashgan hisobraqam uchun kontr - hisobraqam biriktirib qo'yilgan bo'lib, ular buxgalteriya yozuvlarini amalga oshirish maqsadida ishlatiladi. Balans hisobotida esa faqat asosiy hisobraqam qoldiqlari ko'rsatiladi. Kontr-hisob raqamlar yordamida ikki yoqlama yozuv olib borish balansdan tashqarida joylashgan hisobraqamlar bo'yicha operatsiyalarning to'liq o'tkazilish yoki o'z vaqtida hisobdan chiqarilishi, biror summaning o'tkazilmay qolib ketish ustidan nazorat olib borish nuqtai nazaridan samarali bo'lib hisoblanadi.

“Savdoni moliyalashtirish” 90900 asosiy hisobraqamlarga tegishli barcha hisobraqamlarga kontr-hisobraqam ajratilgan. Masalan, “To‘lov muddatini kutayotgan hisob-kitob hujjatlari” nomli 90962 hisobraqam uchun 96319 kontr – hisobraqam ajratilgan. “O‘z vaqtida to‘lanmagan hisob - kitob hujjatlari” nomli 90963 hisobraqamga 96321 kontr-hisobraqam ajratilgan. Bankning bergan va olgan kreditlari bo‘yicha “Kredit majburiyatlari” - 91800 asosiy hisobraqamiga esa tegishli 96351 – “Berilgan kreditlar bo‘yicha majburiyatlar” va 96356 – “Olingan kreditlar bo‘yicha majburiyatlar” kontr hisobraqamlari biriktirib qo‘yilgan. Xuddi shu kabi boshqa balansdan tashqari hisobraqamlar bo‘yicha ham tegishli kontr – hisobraqamlar ajratilgan. Barcha kontr-hisobraqamlar ikki yoqlama yozuv o‘tkazish uchun mo‘ljallangan.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Banki va tijorat banklarining balans namunasi va ularning tarkibiy qismlari to‘g‘risidagi ma‘lumotni quyidagi jadvallarda ko‘rish mumkin. Bankning kundalik buxgalteriya balansi barcha bank muassasalari tomonidan birinchi tartibdagi balans hisob raqamlari tartibida yig‘ma kartochkalar ma‘lumotlariga asosan qo‘yidagi shaklda tuziladi:

Balans 2018 yil, “ \_\_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_

Balans hisobraqamlari	AKTIV	PASSIV
-----------------------	-------	--------

JAMI

Imzolar: Boshliq \_\_\_\_\_

Bosh buxgalter \_\_\_\_\_

Har kunlik tuziladigan balansda hisob raqamlaridagi qoldiq summalarining pastiga yoki alohida qog‘ozga, balansga ilova qilib, yig‘ma kartochkalar asosida balansdan tashqari hisob raqamlardagi qoldiq summasi kiritiladi.

Har oyning birinchi sanasiga balans 2 nusxada ikkinchi tartibdagi hisob raqamlari bo‘yicha tuziladi.

Kundalik operatsiyalar kompyuterlarda hisobga olingan holda kundalik balans sifatida balans hisob

raqamlari bo'yicha qoldiqlar va oborotlar haqida ma'lumotlardan foydalaniladi.

3.3 – jadval

### **Tijorat banki balansining tarkibi**

<b>Aktiv</b>	<b>Passivlar</b>
Kassadagi mavjud pul	Pul emissiyasi
Boshqa banklardagi “nostro”	Jamg'arma omonatlari
Davlat qimmatbaho qog'ozlari	Muddatli depozitlar
Kreditlar	Banklararo kreditlar
Sarmoyalar	Boshqa passivlar
Asosiy pul mablag'lari	Hissadorlik
Boshqa aktivlar	Kapital qoldig'i
	Zaxiralar
	Taqsimlanmagan foyda
Jami:	Jami:

O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari balansi tarkibi yuqorida ko'rib turganingizdek aktivlar va passivlar bo'limlaridan iborat. Umuman olganda, tijorat banklari balansi xorijiy davlatlar tajribasidan kelib chiqib tayyorlanadi.

3.4 – jadval

### **AQSh tijorat banki balansi tarkibi**

<b>Aktiv</b>	<b>Summa</b>	<b>Passiv</b>	<b>Summa</b>
Naqd pul va “nostro” hisoblari	22200	Talab qilinib olinadigan depozitlar	58800
Davlat qimmatbaho	30000	Jamg'arma omonatlari	47000
Shtatlarning qimmatbaho	28700	Muddatli depozitlar	68600
Davlat muassasalarining boshqa qimmatbaho	4100	Jami depozitlar	174400
Sotilgan federal fondlar	600	Sotib olingan federal fondlar	2000
Kreditlar	110140	Zayom (qarz) mablag'lari	4000
“gumon” kreditlarni qoplash uchun	3240	Subordinatsiya veksellari va debenturalar	3100
Netto kreditlari	106900	Jami passivlar	183500
Asosiy vositalar	8940	Hissadorlik	2000
Asosiy vositalarning eskirishi	4740	Kapital qoldig'i	8400
Netto - asosiy mablag'lari	4200	Taqsimlanmagan foyda	5200
To'plangan foiz	1400	Ehtiyotkorlik	200
Boshqa aktivlar	1200	Jami o'z sarmoyasi	15800
Jami aktivlar	199300	Passivlar va sarmoyaning jami	199300

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, AQSh tijorat banki balansi ham o'ziga xos tarkibi va sifati bilan farq qiladi. AQSh tijorat banki balansi xizmat ko'rsatishning miqdori ko'p bo'lganligi sababli balans satrlari ko'proq va hisob varaqlar rejasi nomerlanmagan. Faqatgina bank operatsiyalari tegishli aktiv va passivlar bo'lib chiqqanligi bilan ajralib turadi. Bizningcha, bu tahlil qilishda noqulayliklar tug'dirishi mumkin. Bundan tashqari, rivojlangan davlatlarda foydalanuvchilar brutto balansga ko'proq qiziqishadi.

Banklar balans hisoboti boshqaruv qarorlarni qabul qilishda maqsadida tayyorlanadi, hamda uning tarkibi aktivlar, majburiyatlar, xususiy kapital, daromad, xarajat va balansdan tashqari hisob raqamlardan tashkil topadi. MHXSni qo'llash esa yanada ishonchli, taqqoslanuvchan, shaffof va real iqtisodiy vaziyatni aniq ifoda etadigan hisobot tuzish imkoniyatini beradi.

### **3.2. Banklarda foyda va zararlar to'g'risida hisobot mazmuni va tuzish tartibi**

Foyda va zararlar to'g'risidagi hisobot tijorat bankining hisobot davridagi moliyaviy faoliyatini ko'rsatadi va bu faoliyatning turli jihatlarini tushunishga imkon beradigan usuldan iborat bo'ladi.

Foyda va zararlar to'g'risidagi hisobotni ko'pincha moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot deb ataladi. U qarorlarni qabul qiluvchilar uchun foyda va zararlar to'g'risidagi hisobot joriy foydaning olinganligi (yoki mavjud emasligi) haqida ma'lumot olish manbaidir. Investor va kreditorlar, investitsiyalar sohasidagi buxgalter-tahlilchilar va boshqa mutaxassislar ushbu ma'lumotdan foyda va pul mablag'larini siljishini istiqbollashtirishda foydalanadilar.

Foyda va zararlar to'g'risidagi hisobot foydalanuvchilarga moliyaviy xo'jalik operatsiyalari (daromadlar va xarajatlari) keltirib chiqargan moliyaviy-xo'jalik faoliyatidagi o'zgarishlarni tushuntirib beradi. Foydalanuvchilar undagi ma'lumotlardan foydalangan holda investitsiya qilingan har bir so'mni kelajakda qancha

foйда keltirishi mumkinligini rejalashtirishlari mumkin. Foyda va zararlar to'g'risidagi hisobot berilgan hisobot davrining boshiga va oxiriga bo'lgan balanslar o'rtasidagi bog'lovchi bo'g'in vazifasini bajaradi. Bu ushbu hisobotning naqadar investorlar uchun foydali ekanligini ko'rsatib beradi.

Foyda va zararlar to'g'risidagi hisobotni tuzishda avvalambor uning asosiy elementlari hisoblangan daromad va xarajatni tan olish masalasi turadi. Qayd etib o'tish kerakki, bank daromadi va xarajatlarni tan olishdan maqsad ularning moliyaviy hisobotda to'g'ri aks ettirilishi va yakuniy moliyaviy natijani to'g'ri aniqlashdir.

Tijorat banklarining o'z faoliyatlarini olib borishdan asosiy maqsadi yuqori daromad olishga qaratilgan. Bu daromadlarni ko'paytirish yo'llarini tijorat banklari o'zlari mustaqil ravishda belgilaydilar.<sup>15</sup>

Daromad – bu hisobot davrida pul mablag'larining oqib kelishi yoki aktivlarning ko'payishi sifatida, yoki kapital egalarining badali bilan bog'liq bo'lmagan holda, kapitalning ko'payishiga olib keladigan majburiyatlarning kamayishi sifatida iqtisodiy nafning o'sishidir. Tijorat banklari o'z mijozlari – yuridik va jismoniy shaxslarning topshirig'iga asosan hisob-kitob, kassa, kredit berish va boshqa operatsiyalarni bajaradi. Banklar o'z faoliyati davomida ushbu operatsiyalarni bajarishda turli xil xarajatlarni qiladi.

Bankning daromadlilik, birinchi navbatda, xarajatlarni kamaytirishga bog'liq. Bank ishi texnologiyasidagi muvaffaqiyatlar joriy xarajatlarni kamaytirishga imkon beradi.

Xarajat – bu hisobot davrida pul mablag'larining yoki boshqa aktivlarning kamayishi sifatida, yoki kapital egalarining badallarini qaytarib to'lab berilishi bilan bog'liq bo'lmagan holda, kapitalning kamayishiga olib keladigan majburiyatlarning ko'payishi sifatida iqtisodiy nafning kamayishidir.

Tijorat banklarining yangi qabul qilingan buxgalteriya hisobi hisobvaraqlari rejasiga qarab chiqadigan bo'lsak, bu

---

<sup>15</sup> Бабаев Ю.А. Теория бухгалтерского учета: Учебник. для вузов. 3-е изд. М.: Проспект, 2006. 126 с.

yerda daromadlar shartli ravishda quyidagicha tasniflanadi: foizli va foizsiz daromadlar.

Foizli daromadlarga berilgan kreditlar bo'yicha daromadlar, qo'yilgan depozitlar bo'yicha daromadlar, qarz majburiyatlari bo'yicha daromadlar, shuningdek hisob, lizing, faktoring, forfeyting operatsiyalardan olinadigan daromadlar kiradi.

Foizsiz daromadlarga komission daromadlar, moliyaviy bozorlardagi operatsiyalardan daromadlar, chet el valyutasidagi mablag'larni qayta baholash natijasidagi daromadlar kiradi.

Bank daromadlarini foizli va foizsiz daromadlarga bo'lib o'rganishda bank tizimida ularning jami daromaddagi salmog'ini hamda ularning o'zgarish dinamikasini quyidagi jadval ma'lumotlarida ko'rish mumkin.

Bank xarajatlari shartli ravishda: foizli xarajatlar, foizsiz xarajalar va operatsion xarajatlar quyidagicha tasniflanadi.<sup>16</sup>

1. Foizli xarajatlar o'z navbatida quyidagi qismlarga bo'linadi: talab qilib olguncha saqlanadigan depozitlar bo'yicha foizli xarajatlar; jamg'arma depozitlar bo'yicha foizli xarajatlar; muddatli depozitlar bo'yicha foizli xarajatlar; Markaziy bank oldidagi to'lovlar bo'yicha foizli xarajatlar; boshqa banklar oldidagi to'lovlar bo'yicha foizli xarajatlar; bankning yopilmagan akseptlari bo'yicha foizli xarajatlar; qisqa muddatli kreditlar bo'yicha foizli xarajatlar; uzoq muddatli kreditlar bo'yicha foizli xarajatlar; chiqarilgan qimmatli qog'ozlar bo'yicha foizli xarajatlar; boshqa foizli xarajatlar;

2. Foizsiz xarajatlar esa o'z ichiga quyidagilarni oladi: barcha komission xarajatlar; chet el valyutasidagi zarar; tijorat operatsiyalari bo'yicha xarajatlar; investitsiyalar bo'yicha zararlar; boshqa foizsiz xarajatlar.

3. Operatsion xarajatlar esa o'z ichiga quyidagilarni oladi: ish haqi va xodimlar uchun boshqa xarajatlar; ijara va ta'minot xarajatlari; xizmat safari va transport xarajatlari; ma'muriy xarajatlar; reprezentatsiya va xayriya xarajatlari, eskirish xarajatlari; sug'urta, soliq va boshqa

---

<sup>16</sup> Navro'zova K.N. Banklarda buxgalteriya hisobi va operatsion texnika: O'quv qo'llanma.T.: TMI, 2003. 170 b



xarajatlar; ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni baholash; daromad solig'i.

Shu sababli, foyda va zararlar to'g'risidagi hisobotda yuqorida ko'rsatilgan majburiy unsurlar bo'lishi lozim.

Bank moliyaviy faoliyati natijasida olingan foyda (zarar) 31200 – “Taqsimlanmagan foyda” balans hisobvarag'i doirasida quyidagi ikkinchi tartibli hisobvaraqlarda aks ettiriladi: 31203 – “Taqsimlanmagan foyda (aktiv-passiv)”; 31206 – “Sof foyda (zarar) (aktiv-passiv)”.

Oldingi moliyaviy yillar davomida bank faoliyati natijasida olingan taqsimlanmagan foyda (zarar)lar hisobi 31203 – “Taqsimlanmagan foyda (aktiv-passiv)” balans hisobvarag'ida yuritiladi. Ushbu hisobvaraqlarning kreditida 31206 – “Sof foyda (zarar) (aktiv-passiv)” balans hisobvarag'idan o'tkazilgan bankning sof foydasi summasi, hamda zaxira kapitali hisobvarag'idan taqsimlanmagan foydaga o'tkazilgan summalar aks ettiriladi. Hisobvaraqlarning debetida 31206 - balans hisobvarag'idan o'tkazilgan zararlar, e'lon qilingan dividendlar, har xil fond (jamg'arma)larga ajratma summaları aks ettiriladi. Analitik hisob bitta shaxsiy hisobvaraqlarda yuritiladi.

Hisobot yilida bankning moliyaviy faoliyatidan olingan sof foyda, hamda ushbu davr davomida elon qilingan dividendlar hisobi 31206 – “Sof foyda (zarar) (aktiv-passiv)” balans hisobvarag'ida yuritiladi. Ushbu hisobvaraqlarning kreditida hisobot yilida bank tomonidan olingan foyda summasi, 31203 – “Taqsimlanmagan foyda (aktiv-passiv)” balans hisobvarag'iga o'tkazilgan zararlar summasi, hamda noto'g'ri e'lon qilingan dividendlarning qaytarilishi aks ettiriladi. Hisobvaraqlarning debetida hisobot yilida bank tomonidan olingan zararlar, 31203 – “Taqsimlanmagan foyda (aktiv-passiv)” balans hisobvarag'iga o'tkazilgan foyda, e'lon qilingan dividendlar, hamda zaxira kapitaliga o'tkazilgan summalar aks ettiriladi. Analitik hisob sof foyda va dividendlar bo'yicha alohida shaxsiy hisobvaraqlarda yuritiladi. Joriy yilning sof foydasi quyidagicha aniqlanadi:

a) Hisobot davrining yakunida daromad hisobvaraqlari yopilganda quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi beriladi: Dt

4xxxx – tegishli daromad hisobvaraqlari, Kt 31206 – “Sof foyda (zarar) (aktiv-passiv)”.

b) Hisobot davrining yakunida xarajat hisobvaraqlari yopilganda quyidagi buxgalteriya o‘tkazmasi beriladi: Dt 31206 – “Sof foyda (zarar) (aktiv-passiv)”, Kt 5xxxx – tegishli xarajatlarni hisobvaraqlari.

Hisobot yilining yakunida (31 dekabr) “Sof foyda (zarar) (aktiv-passiv)” hisobvarag‘i qoldig‘i quyidagi buxgalteriya yozuvi bilan yopiladi: Dt 31206 – “Sof foyda (zarar) (aktiv-passiv)”, Kt 31203 – “Taqsimlanmagan foyda (aktiv-passiv)”.

Shu davrdagi sof foyda yoki zarar, qo‘shimcha satrlar, sarlavhalar va yakunlar foyda va zararlar to‘g‘risidagi hisobotda BHMS<sup>17</sup>ga muvofiq ravishda ko‘rsatiladi.

“Foyda va zararlar to‘g‘risida”gi yoki “Umumiy daromad to‘g‘risida”gi hisobot moddalarini tegishli bank daromad va xarajat hisobvaraqlaridagi qoldiqlar bo‘yicha to‘ldiriladi.

3.5-jadval

**Tijorat bankining “Foyda va zararlar to‘g‘risida”gi yoki “Umumiy daromad to‘g‘risida”gi hisoboti (2018 yil 31 dekabr holatiga)**

(mln so‘mda)

No		2018 yil	2017 yil
1	Foizli daromadlar	172 262 877	128 099 740
2	Foizli xarajatlarni	-73 387 808	-52 150 082
3	Sof foizli daromadlar	98 875 069	75949658
4	Kredit portfelining qadrsizlanishi buyicha zaxira	-5 086 581	-1 471 972
5	Kredit portfelining qadrsizlanishi buyicha zaxira tashkil etilgandan keyingi sof foizli daromadlar	93 788 488	74 477 686
6	Vositachilik daromadlari	125 258 803	98 909 514
7	Vositachilik xarajatlari	-18 729 075	-14 129 691
8	Daromadlar, xorijiy valyuta bilan	4 179	10 339

<sup>17</sup> O‘zbekiston Respublikasi bank tizmidagi buxgalteriya hisobini yuritishga oid qonunchilik hujjatlari to‘plami. T.: O‘zbekiston, 2003. 272 b.

	operatsiyalar bo'yicha xarajatlarni chegirib tashlaganda	148	012
9	Daromadlar, xorijiy valyutalarni qayta baholash bo'yicha xarajatlarni chegirib tashlaganda	9 985 266	10 923 553
10	Shu'ba kompaniyasining chiqarib tashlanishidan ko'rilgan zarar	0	-1 509 121
11	Dividendlar tarzidagi daromadlar	1 182 741	2 366 847
12	Boshqa operatsion daromadlar	4 101 334	3 378 264
13	Ma'muriy va boshqa operatsion xarajatlar	-175 251 008	-144 091 262
14	Soliqdan oldingi foyda	44 515 697	40 664 802
15	Foyda solig'i bo'yicha xarajatlar	-5 164 312	-5126389
16	Yillik foyda	39 351 385	35 538 413
17	Boshqa umumiy daromad/(zarar)		
18	Sotuvda mavjud investitsiyalar:		
19	- Yillik daromadlar / (xarajatlar)	-19 474	14350
20	- Boshqa umumiy daromad tarkibiy qismga tegishli foyda solig'i bo'yicha to'lov / (daromad)	4 245	-2 153
21	Yillik boshqa umumiy daromad / (zarar)	-15 229	12 197
22	Jami yillik umumiy daromad	39 336 165	35 550 610

Tijorat banklari moliyaviy hisobotga izohlar, hisob-kitoblar va tushuntirishlarda daromadlar va xarajatlar turlari yoki faoliyat turlari bo'yicha tasnif qilish yo'li bilan daromadlar va xarajatlarni tahlil qilib berishi kerak.

Xarajatlarni faoliyat turlari bo'yicha tasnif qiladigan tijorat banklari xarajatlarning turlari bo'yicha qo'shimcha axborotni, jumladan eskirish (amortizatsiya) xarajatlarini, xodimlarni saqlash bilan bog'liq xarajatlarni, xomashyo va xalq iste'moli mollaridan foydalanish xarajatlari bo'yicha qo'shimcha axborotlarni ochib berishga majburdir.

### **3.3. Tijorat banklari pul mablag'larining harakati to'g'risidagi hisoboti**

Pul mablag'larining harakati to'g'risidagi hisobot undan foydalanuvchilarga tijorat bankining moliyaviy ahvolidagi o'zgarishlarni baholashga imkon beradi, ularni hisobot davrida qancha pul tushgani va qancha pul chiqqani to'g'risidagi axborot bilan ta'minlaydi.

Boshqa moliyaviy hisobotlar bilan birga foydalanish chogida pul mablag'larining harakati to'g'risidagi hisobot axborotlari moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilar uchun tijorat bankining pul mablag'larini va ularning ekvivalentlarini jalb etish qobiliyatini baholashga baza bo'lib xizmat qilishi bilan foydalidir. Pul mablag'larining harakati to'g'risidagi hisobot pul tushumlari va to'lovlarini uchta asosiy toifaga ajratadi: operatsiya faoliyati, investitsiya faoliyati va moliyaviy faoliyat. Har uch toifaning pul mablag'iga birgalikda ta'siri hisobot davrida pul mablag'ining sof o'zgarishini belgilab beradi. Pul oqimlari harakati to'g'risidagi axborot bo'lajak pul oqimlari prognozi to'g'riligini tekshirish chogida, foyda olish va pul oqimlarining sof harakati va narx o'zgarishi ta'siri o'rtasidagi aloqalarni tahlil qilish chogida zarur bo'ladi.

Pul mablag'lari - kassadagi naqd pul va talab qilib olinadigan depozitlar, shuningdek bankning hisob-kitob, valyuta va boshqa hisobvaraqlaridagi mablag'lar.

Pul ekvivalentlari - ma'lum pul mablag'iga tez va oson almashtiriladigan hamda qiymatidagi o'zgarishlar tufayli biroz xatari bo'lgan qisqa muddatli, yuqori likvidli investitsiyalar.

Pul mablag'larining harakati - pul mablag'lari hamda ular ekvivalentlarining oqimi (tushumi) va chiqimi (sarflanishi, chiqishi)dan iborat.

MHXS 7 standartga asosan pul mablag'larining harakati to'g'risidagi hisobot pul tushumlari va to'lovlarini uchta asosiy toifaga ajratadi: operatsiya faoliyati, investitsiya faoliyati, moliyaviy faoliyat.

MHXS 7 standartga asosan pul mablag'larining harakati to'g'risidagi hisobot pul tushumlari va to'lovlarini uchta asosiy toifaga ajratadi:

operatsiya faoliyati	investitsiya faoliyati	moliyaviy faoliyat
----------------------	------------------------	--------------------

### 3.1-rasm. **MHXS 7 standartga asosan pul mablag'larining harakati to'g'risidagi hisobot pul tushumlari va to'lovlari**

Pul mablag'larining harakati to'g'risidagi hisobot - hisobot davrida pul mablag'i oqimlarini batafsil ko'rsatuvchi ko'rsatkichlar yigindisi.

Operatsiya faoliyati - tijorat bankining daromad keltiruvchi asosiy faoliyati, shuningdek subyektning investitsiya va moliya faoliyatiga oid bo'lmagan o'zga xo'jalik faoliyati.

Investitsiya faoliyati - pul ekvivalentlariga kiritilmagan uzoq muddatli aktivlar va boshqa investitsiya obyektlarini sotib olish va sotish.

Moliya faoliyati - tijorat bankining faoliyati bo'lib, uning natijasida o'z mablag'i va qarz mablag'lari miqdori va tarkibida o'zgarishlar yuz beradi.

Pul mablag'i ekvivalentlaridan asosan investitsiyalar va boshqa maqsadlar uchun emas, balki faqat qisqa muddatli majburiyatlar bo'yicha to'lovlar uchun foydalaniladi. Investitsiyalarni pul ekvivalenti deb hisoblash uchun ular erkin ravishda naqd pulga aylantiriladigan bo'lishi va qiymatining o'zgarishida biroz xavf bo'lishi lozim. Shu sababli investitsiya qisqa muddatda to'lanadigan bo'lsa ya'ni xarid qilingan paytdan boshlab taxminan uch oy ichida to'lanadigan bo'lsa uni pul ekvivalenti deb hisoblash mumkin bo'ladi.

Pul mablag'larining harakati to'g'risidagi hisobot hisobot davri davomida operatsiya, investitsiya yoki moliyaviy faoliyat natijasida tijorat banki olgan pul oqimlari to'g'risidagi ma'lumotlarni taqdim etishi lozim bo'ladi.<sup>18</sup>

<sup>18</sup> Рожнова О.В. Международные стандарты бухгалтерского учета и финансовой отчетности: Учебное пособие. М.: ЭКЗАМЕН, 2003. 107 с.

Tijorat bankining operatsiya faoliyati natijasida vujudga keladigan pul oqimi hajmi tijorat banki amalga oshiradigan operatsiya faoliyati natijasida olinadigan pul oqimlari harakati kreditlarni to'lash, tijorat bankining ishlab chiqarish quvvatlarini saqlab turish, dividendlarni to'lash va moliyalashtirishning tashqi manbalariga murojaat qilinmay yangi investitsiyalar uchun qanchalik yetarli ekanini aks ettiruvchi asosiy ko'rsatkich hisoblanadi. Operatsiya faoliyatidan keladigan oldingi pul oqimining ayrim qismlari to'g'risidagi axborotdan operatsiya faoliyatidan bo'lajak pul oqimlarini prognoz qilish uchun axborotning boshqa turlaridan qo'shib foydalanish mumkin bo'ladi. Operatsiya faoliyatidan pul oqimi tijorat bankining asosiy faoliyatidan kelib chiqadi.

Tijorat banki investitsiya faoliyatidan keladigan pul oqimi to'g'risidagi axborotni alohida ko'rsatib beradi. Investitsiya faoliyatidan pul oqimi to'g'risidagi axborot kelajakda daromad va pul oqimi miqdorini belgilaydigan resurslar bo'yicha qilingan xarajatlar darajasini ko'rsatadi. Investitsiya faoliyatidan olingan asosiy pul oqimlariga quyidagilar kiradi:

Asosiy vositalarni, nomoddiy va o'zga uzoq muddatli aktivlarni xarid qilishga pul to'lovlari. Bu to'lovlar tajriba - konstruktorlik ishlariga ajratilgan sarmoyalashtirilgan xarajatlar, shuningdek xo'jalik sudi bilan amalga oshirilgan qurilishlar bilan bog'liq bo'lgan to'lovlarni o'z ichiga oladi:

- Asosiy vositalarni, nomoddiy va o'zga uzoq muddatli aktivlarni sotishdan olingan pul tushumi;

- Boshqa subyektlarning aksiyalari yoki qarz majburiyatlarini hamda qo'shma korxonalarda ishtirok etish huquqini sotib olishga doir pul to'lovlari, pul ekvivalentlari hisoblangan yoki dilerlik maqsadlariga yoki savdo maqsadlariga saqlab qo'yilgan to'lov hujjatlari bo'yicha to'lovlardan tashqari;

- Boshqa subyektlarning aksiyalari va qarz majburiyatlarini hamda qo'shma korxonalarda ishtirok etish huquqini sotishdan kelgan pul tushumlari, pul ekvivalenti hisoblangan yoki dilerlik yoki savdo maqsadlari

uchun saqlanayotgan veksel kabi to'lov hujjatlari bo'yicha tushumlar bunga kirmaydi.

- Tijorat banki moliyaviy faoliyatidan bo'ladigan pul oqimlari to'g'risidagi axborotni alohida ko'rsatadi. Bu axborot moliyaviy faoliyatdan bo'lajak pul oqimlarini taxmin qilish uchun zarur bo'ladi.

Moliyaviy faoliyatdan keladigan asosiy pul oqimlariga quyidagilar kiradi: aksiyalar yoki o'z mablag'i bilan bog'liq boshqa vositalarni chiqarishdan keladigan pul tushumlari; subyektlar aksiyalarining haqini to'lash yoki sotib olish uchun ularning egalariga to'lovlar; ta'minlanmagan obligatsiyalar emissiyasidan, moliya korxonalarini tomonidan berilgan kreditlardan, garovga qo'yilgan va boshqa qisqa hamda uzoq muddatli zayomlardan pul tushumlari; zayomlarni to'lash; moliyaviy lizing bo'yicha majburiyatlarni qisqartirish uchun ijarachilarning to'lovlari va boshqalar.

Xorijiy valyutadagi operatsiyalardan pul oqimlari O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan operatsiya amalga oshirilgan kun uchun belgilab qo'yilgan almashtirish qiymatidan foydalanib, O'zbekiston Respublikasi valyutasida aks ettiriladi. Xorijiy shu'ba jamiyatining pul oqimi O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan pul oqimi kelib chiqqan vaqtdagi almashtirish kursi bo'yicha qayta hisoblanishi kerak. Xorijiy valyutaning almashtirish kursi o'zgarishidan kelib chiqadigan amalga oshirilmagan daromad va zarar pul mablag'i harakati hisoblanmaydi.<sup>19</sup> Biroq almashtirish kursi stavkalari o'zgarishning xorijiy valyutada saqlanayotgan yoki to'lanishi lozim bo'lgan pul mablag'iga yoki ularning ekvivalentlariga ta'siri pul mablag'lari harakatini hisobot davri boshlanishi va oxirida bir-biriga muvofiqlashtirish uchun pul oqimi to'g'risidagi hisobotda aks ettiriladi. Bu miqdor operatsiya, investitsiya va moliya faoliyati natijasida vujudga keladigan pul oqimidan alohida ko'rsatiladi va agar pul mablag'larining bu harakati hisobot

---

<sup>19</sup> O'zbekiston Respublikasi bank tizmidagi buxgalteriya hisobini yuritishga oid qonunchilik hujjatlari to'plami. T.: O'zbekiston, 2003. 272 b.

davrining oxiridagi pul almashtirish kursida aks etadigan bo'lsa, tafovutga qo'shiladi.

Foizlar va dividendlarni olish va to'lash bilan bog'liq pul oqimini alohida ko'rsatish, bir hisobot davridan ikkinchi hisobot davriga izchillik bilan operatsiya, investitsiya yoki moliya faoliyatidan pul oqimi sifatida tasnif etish lozim bo'ladi. Bank muassasalari uchun to'langan va olingan foizlar hamda dividendlar operatsiya pul oqimlari sifatida tasnif etiladi. Boshqa tijorat banklar uchun to'langan va olingan foizlar hamda dividendlar operatsiya faoliyatidan keladigan pul oqimlari sifatida tasnif qilinishi mumkin, chunki ular sof daromad yoki zararni aniqlashga qo'shiladi. To'langan dividendlar moliyaviy pul oqimi sifatida tasnif qilinishi mumkin, chunki ular moliyaviy resurslarni olish uchun to'langan haq hisoblanadi.

Daromad (foyda) solig'i bo'yicha pul oqimlari alohida ochib berilishi lozim va ular operatsiya faoliyatlaridan bo'ladigan pul oqimlari qatoriga kiradi.

Pul mablag'lari yoki pul ekvivalentlaridan foydalanishni talab qilmaydigan investitsion va moliyaviy operatsiyalar pul oqimi to'g'risidagi hisobotga kiritilmasligi kerak. Bunday operatsiyalar boshqa moliyaviy hisobotlarda faoliyatning shu investitsion moliyaviy turlari to'g'risidagi barcha muhim axborotni ko'rsatadigan tarzda ochib berilishi lozim.

Bank operatsion faoliyatdan olingan pul mablag'larini quyidagi usullardan foydalangan holda aks ettirishi lozim:

a) bevosita – to'g'ri usul, bunda yalpi pul tushumlari va yalpi pul to'lovlarining asosiy turlari oshkor qilinadi (A-shakl),

b) bilvosita – egri usul, bunda sof foyda va zararlarga ishonchsiz tusdagi operatsiyalar natijalarini, har qanday muddat uzaytirishlar yoki o'tgan davrlarda hisoblangan mablag'lar yoxud kelgusidagi operatsion pul tushumlari yoki to'lovlarini, hamda pul mablag'larining investitsion yoki moliyaviy oqimlari bilan bog'liq daromadlar va xarajatlar moddalarini hisobga olgan holda tuzatish kiritiladi (B-shakl).



Pul mablag'larining oqimlarini aks ettirishda banklar uchun bevosita - to'g'ri usul afzalroqdir. Ushbu usul kelgusidagi pul mablag'lari oqimlarini baholash uchun zarur bo'lgan, lekin bilvosita - egri usuldan foydalanish chog'ida mavjud bo'lmagan axborotni beradi. Bevosita usuldan foydalanganda yalpi pul tushumlarining va yalpi pul to'lovlarining asosiy turlari haqidagi axborot quyidagilar orqali olinishi mumkin:

a) bankning hisob yozuvlaridan;

b) foyda va zararlar to'g'risidagi hisobotda foiz daromadlari va shu kabi daromadlarga hamda foizli xarajatlar va shu kabi xarajatlarga hamda boshqa moddalarga tuzatish kiritish yo'li bilan, bunda quyidagilar hisobga olinishi lozim:

1) muayyan davr mobaynida zaxiralarda hamda operatsion kreditorlik va debitorlik qarzlardagi o'zgarishlar;

2) boshqa ishonchsiz moddalar;

3) investitsion yoki moliyaviy pul oqimlarning paydo bo'lishiga olib keluvchi boshqa moddalar.

Bilvosita usuldan foydalanganda operatsion faoliyatga oid sof pul mablag'lari oqimi sof foyda va zararlarga quyidagilarni hisobga olgan holda tuzatish kiritish yo'li orqali aniqlanadi:

a) muayyan davr mobaynida zaxiralarda hamda operatsion kreditorlik va debitorlik qarzlardagi o'zgarishlar;

b) eskirish, zaxiralar, muddati uzaytirilgan soliqlar, xorijiy valyutadagi operatsiyalar bo'yicha amalga oshmagan foyda va zararlar, qaram xo'jalik jamiyatlarining taqsimlanmagan foydasi, hamda ozchilik ulushi kabi ishonchsiz moddalar;

d) investitsion yoki moliyaviy pul oqimlarning paydo bo'lishiga olib keluvchi boshqa barcha moddalar.

Tijorat banki, shuningdek pul mablag'lari va pul ekvivalentlarining ayrim moddalarini ko'rsatishi hamda pul oqimi to'g'risidagi hisobotdagi pul miqdorini buxgalteriya balansidagi tegishli moddalari qiyosini taqdim etish kerak.

Tijorat banki bankda mavjud bo'lgan, lekin guruh foydalana olmaydigan muhim pul mablag'lari va pul ekvivalentlari qoldig'i miqdorini rahbariyatning tushuntirishi bilan birga ochib berishi lozim. Tijorat bankining pul oqimi bilan uning bo'ginlari o'rtasidagi aloqalarni tushunish uchun pul oqimlari bo'ginlar bo'yicha ochib berilishi lozim. Xo'jalik faoliyatining mazkur turida umuman pul oqimi harakati bilan uning ayrim tarkibiy qismlari o'rtasidagi aloqani aniqlash uchun pul oqimlarining bo'ginlardagi harakatlarini ochib ko'rsatish zarur.

Bank moliyaviy holatining sog'lomligini sharti bo'lib, pul mablag'larining kirimi, bankning majburiyatlarini qoplay olishidir. Minimal miqdordagi pul mablag'larining yetishmasligi moliyaviy holat tangligiga sabab bo'ladi. Ortiqcha mablag'larga ega bo'lish inflyatsiya natijasida pulni qadrsizlanishiga, hamda ortiqcha mablag'lardan samarali foydalanishga yo'naltirmaslik natijasida qo'shimcha daromad ololmasligi mumkin. Shu bois pul mablag'larini ratsional boshqarishni doimo nazorat qilish - aksiyalar va zayomlar, shuningdek boshqa tushumlar va to'lovlar.

Tijorat bankining moliyaviy hisobotiga izohlar, hisob-kitoblar va tushuntirishlarda: tijorat bankining moliyaviy hisobotini tuzishda va uning hisob siyosatida tanlab olingan va qo'llanilayotgan asos to'g'risidagi axborot bo'lishi lozim; BHMS talab qiluvchi, hech bir joyda moliyaviy hisobotda ko'rsatilmagan axborotni ochib berish; moliyaviy hisobotda keltirilmagan, lekin moliyaviy hisobotni aniq va to'g'ri tasavvur etish uchun zarur bo'lgan qo'shimcha tahliliy axborotni keltirish lozim.

Moliyaviy hisobotlarga tushuntirishlar muntazam ravishda tushuntirish xati tarzida bo'lishi kerak. Tushuntirishlardagi axborot moliyaviy hisobotda keltirilgan tegishli moddalarga bog'liq ravishda taqdim etilishi lozim.<sup>20</sup>

---

<sup>20</sup> Усатова Л.В., Серотошан М.С., Арская Е.В. Бух учёт в коммерческих банках. М.: Дашков и К°, 2006. 144 с.

Tushuntirish odatda shunday tuziladiki, u foydalanuvchiga moliyaviy hisobotlarni yaxshiroq anglab etishda va ularni boshqa tijorat bankilarning moliyaviy hisoboti bilan quyidagicha qiyoslashiga yordam beradi: buxgalteriya hisobining milliy standartlariga muvofiqligi haqidagi hisobot; o'lchov asosi va buxgalteriya hisobida qo'llanilayotgan siyosat to'g'risidagi hisobot; moliyaviy hisobotda keltirilgan moddalar uchun yordamchi axborot.

Quyidagilarni o'z ichiga olgan boshqa axborotlar: shartli majburiyatlar, oddiy majburiyatlar va boshqa moliyaviy axborotlar; moliya bilan bog'liq bo'lmagan axborotlar.

Moliyaviy hisobotlarni tayyorlash asosi va buxgalteriya hisobi bobidagi maxsus siyosat haqidagi axborot moliyaviy hisobotga izohlar oldida alohida hisobot tarzida keltirilishi kerak. Tijorat banklari tomonidan taqdim etilayotgan hisobot shakllariga quyidagi ma'lumotlar ilova qilinadi:

a) 19997-“Boshqa aktivlar” hisobvarag'i, 29802 – “Boshqa majburiyatlar” hisobvarag'i, 16505- “Tugallanmagan qurilish” hisobvaraqlarining qoldiqlari bo'yicha qaydnomasi ma'lumotnomalari;

b) aniqlanishi lozim bo'lgan o'zaro hisob-kitoblar bo'yicha o'tkazilgan summalar qaydnomasi. Shuningdek, qaydnomaga 17301- “Tranzit hisobvarag'i”, 23202 – “Kliring transaksiyalari”, 17305 va 23206- “Aniqlanish jarayonidagi transaksiyalar” hisobvaraqlari bo'yicha qoldiqda turgan har bir summa kiritiladi. Yuqorida aytilgan hisobvaraqlarda qoldiq bo'lmasa, bu haqda balans hisobotiga yozib qo'yiladi. Ushbu hisobot shakli va qaydnomalari bank rahbari hamda bosh buxgalter tomonidan imzolanadi. Kassa operatsiyalari bo'yicha hisobotlarga, ulardan tashqari katta kassir yoki kassa mudiri imzo chekadilar.

Shunday qilib, pul mablag'lari to'g'risidagi hisobotda tijorat banklari faoliyatini amalga oshirish jarayonida sodir bo'lgan pul mablag'larining harakatini (kirim va chiqim) ma'lum sanaga aks ettirishdir.

### **3.4. Bank xususiy kapitali to'g'risidagi hisobot va uni tuzish**

Xususiy kapital to'g'risidagi hisobot bank aksiyadorlik kapitalining holatini va harakati to'g'risida yig'ma ma'lumotlarni aks ettiradi. Aksiyadorlik kapitalidagi o'zgarishlar tijorat banklarining aksiyadorlari bilan amalga oshirilgan operatsiyalari natijasida o'zgarib turadi. Xususiy kapital to'g'risidagi hisobotda tijorat bankining ustav kapitalidagi o'zgarishlar to'g'risidagi ma'lumotlar ya'ni qo'shimcha emissiya qilgan bo'lsa yoki bank aksiyadorlari umumiy yig'ilish qaroriga asosan va O'R MB ruxsati bilan qaytib sotib olgan bo'lsa, ushbu ma'lumotlar to'liq aks ettiriladi.

Xususiy kapital to'g'risidagi hisobotni tuzishdan maqsad, xususiy kapitalning hisobot davri boshiga va oxiriga bo'lgan holati va hisobot davri mobaynida uning tarkibidagi o'zgartirishlar haqidagi axborotni ochib berish hisoblanadi.

Xususiy kapital to'g'risidagi hisobotning manzillar qismida hisobot sanasi, tijorat bankining nomi, mulkchilik shakli, tashkiliy-huquqiy shakli va to'liq yuridik manzili, uning tasarrufida mazkur xo'jalik yurituvchi subyekt bo'lgan organning nomi, xususiy kapital to'g'risidagi hisobotning tayyorlanishi chog'ida foydalanilgan o'lchov birligi ko'rsatilishi kerak.

Hisobotda xususiy kapital va uning tarkibiy qismlari to'g'risidagi, ustav kapitali, qo'shilgan kapital, rezerv kapital, taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar) sotib olingan o'z aksiyalari va boshqa xususiy kapital elementlari haqidagi axborot ochib berilishi kerak.

Xususiy kapital to'g'risidagi hisobot xususiy kapital to'g'risidagi hisobot davri boshiga va oxiriga bo'lgan tegishli axborotni ochib berishi kerak.

Hisobotda hisobot davridagi xususiy kapital tarkibida bo'lgan o'zgarishlar haqidagi axborot ochib berilgan bo'lishi kerak. Buning uchun quyidagilar: qimmatli qog'ozlar emissiyasi, uzoq muddatli aktivlarning qayta baholanishi, ustav kapitalini shakllantirish chog'ida valyuta kursidagi farqlar, rezerv kapitalga ajratmalar, joriy yilning

taqsimlanmagan foydasi (zarari), tekinga olingan mol-mulk, pul dividendlari va aksiyalar ko'inishida to'lanadigan dividendlar, shuningdek, xususiy kapitalni shakllantirishning boshqa manbalari to'g'risidagi axborot ochib berilishi lozim.

Xususiy kapital to'g'risidagi hisobotda quyidagilar: chiqarilgan aksiyalar soni, aksiyalarning nominal qiymati, muomaladagi aksiyalar soni to'g'risidagi axborot ham ochib berilishi kerak.

Xususiy kapital tarkibida ikki hisobot davri o'rtasidagi o'zgarishlar moliyaviy hisobotlarda qabul qilingan va ochib beriladigan baholashning aniq tamoyilidan kelib chiqqan holda hisobot davri davomidagi sof aktivlarning ko'payishi yoki kamayishini aks ettiradi.

Xususiy kapital to'g'risidagi hisobotga bo'lgan tushuntirishda tijorat banki xususiy kapitalining qatnashchining chiqib ketishi, aksiyadorlik jamiyati tomonidan aksiyalarning sotib olinishi yoki sotib olingan aksiyalarni bekor qilinishi, aksiyalar nominal qiymatining pasayishi yoki boshqa sabablarga ko'ra kamayib ketganligi haqidagi ma'lumotlar keltiriladi.

Aksiyadorlik jamiyatlari xususiy kapital to'g'risidagi tushuntirishda quyidagilar haqidagi axborotni keltiradilar:

a) obuna amalga oshirilishi nazarda tutiladigan aksiyalarning umumiy soni va nominal qiymati;

b) nazarda tutilgan miqdorlar bilan taqqoslaganda obuna amalga oshirilgan aksiyalarning umumiy miqdori va nominal qiymati;

d) aksiyalarga obunaning borishi chog'ida olingan mablag'lar umumiy summasi;

e) ayrim turlar va toifalar bo'yicha ustav kapitali tarkibidagi aksiyalar;

f) imtiyozli aksiyalar bo'yicha to'lanmagan jamlangan dividendlar summasi;

g) aksiyalar ko'inishida to'lanadigan dividendlar, xususan, to'lanadigan aksiyalarning soni va qiymati, shuningdek, ularning turlari yoki toifalari to'g'risida;

h) hisobot davrida yuz bergan maydalash yoki qo'shib yuborishlar va aksiyalarning maydalanishi yoki qo'shib

yuborilishigacha va undan keyingi aksiyalarning nominal qiymati to'g'risidagi.

Aksiyalarga obunaning borishi chog'ida olingan mablag'lar umumiy summasi tushuntirishda quyidagilar bo'yicha keltiriladi:

a) aksiyalar uchun haq sifatida kirim qilingan barcha pul mablag'lari, aksiyalar soni ko'rsatilgan holda;

b) aksiyalar uchun to'lov sifatida kirim qilingan mol-mulkning qiymat bahosi, aksiyalar soni ko'rsatilgan holda;

d) aksiyalar uchun haq sifatida kirim qilingan chet el valyutasining umumiy summasi, aksiyalar soni va hisobda valyuta kirim qilingan kursi ko'rsatilgan holda.

Ustav kapitali tarkibidagi aksiyalar haqidagi axborot tushuntirishda ayrim turlar va toifalar bo'yicha keltiriladi:

a) chiqarilgan aksiyalar soni, ustav kapitalining to'lanmagan qismi ko'rsatilgan holda;

b) aksiyaning nominal qiymati;

d) muomalada bo'lgan aksiyalar sonida hisobot davri mobaynidagi o'zgartirishlar;

e) aksiyalar bilan bog'liq huquqlar, imtiyozlar va cheklashlar, shu jumladan dividendlarning taqsimlanishi va kapitalning qaytarib berilishi bo'yicha cheklashlar;

f) jamiyatning o'ziga, uning shu'ba va uyushgan korxonalariga tegishli aksiyalar;

g) ular egalik qilayotgan muassislar ro'yxati va aksiyalar soni;

h) ijroiya organi a'zolarining mulki bo'lgan aksiyalar soni;

i) opsiyonlar va boshqa kontraktlarga binoan chiqarish uchun zaxiralashtirilgan aksiyalar, ularning muddatlari va summalari ko'rsatilgan holda;

j) konvertatsiyalanadigan (aksiyalar yoki obligatsiyalarga) aksiyalarning soni va nominal qiymati hamda ushbu aksiyalarning qarzga oid qimmatli qog'ozlarga konvertatsiya qilinishi hollarida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan majburiyatlar.

Tijorat banklari moliyaviy hisobotlarga oid izohlarda quyidagilar to'g'risidagi axborotni keltiradilar:

a) egalik qiluvchilar o'rtasida ustav kapitali ulushining taqsimlanishi;

b) ushbu ulushlarga tegishli huquqlar, imtiyozlar yoki cheklashlar;

d) ustav kapitali tarkibida egalik qiluvchilar ulushi tarkibidagi o'zgartirishlar.

Xususiy kapital to'g'risidagi hisobot quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

3.6-jadval

### Xususiy kapital to'g'risidagi hisobot

No		Ustav sarmoyasi	Qo'shilgan sarmoya	Sotib olingan aksiyalar	Jami aksionerlik sarmoyasi	Zaxiralar	Taqsimlanmagan foyda	Jami o'z sarmoyasi	Kamchilik ulushi	Jami o'z sarmoyasi
010	<b>O'tgan yil 1 yanvar holatiga qoldiq - qayta hisoblashdan oldin</b>									
020	Hisobga olishdagi o'zgarishlar samarasi, soliqlar chiqarib tashlanganida									
021	Xatolarni to'g'irlangan so'ng o'zgarishlar samarasi, soliqlar chiqarib tashlanganida									
030	Qayta hisobga olgandan keyin									
040	Davrda paydo bo'lgan:									
041	Sotish uchun mavjud bo'lgan investitsiyalar - adolatli baho bo'yicha sof foyda (zarar), soliqlar chegirib tashlanganidan keyin									
042	Asosiy vositalarni qayta baholash bo'yicha zaxira									
050	Summalarni ko'chirish									
051	Sotish uchun mavjud bo'lgan investitsiyalar - foyda (zarar)ga ko'chirish, soliqlar chegirib tashlanganidan keyin									
052	Asosiy vositalarni qayta baholash bo'yicha zaxiradan ko'chirish									
060	Foyda va zararlar to'g'risidagi hisobotda tan olinmagan sof foyda / (zarar)									
070	Sof foyda									
080	Tan olingan sof foyda /									

	(zarar)									
090	Oddiy aksiyalar bo'yicha o'tgan yildan oldingi yildagi dividendlar									
100	Imtiyozli aksiyalar bo'yicha o'tgan yildan oldingi yildagi dividendlar									
110	Konvertatsiyalanadigan obligatsiyalar - ulush komponenti									
120	O'zining sotib olingan aksiyalarini xarid qilish/sotish									
130	Aksiyalar chiqarish									
140	<b>Jami: joriy yil 1 yanvariga qoldiq</b>									
150	Davrda paydo bo'lgan:									
151	Sotish uchun mavjud bo'lgan investitsiyalar - adolatli baho bo'yicha sof foyda (zarar), soliqlar chegirib tashlanganidan keyin									
152	Asosiy vositalarni qayta baholash bo'yicha zaxira									
160	Summalarni ko'chirish									
161	Sotish uchun mavjud bo'lgan investitsiyalar - adolatli baho bo'yicha sof foyda (zarar)ga ko'chirma, soliqlar chegirib tashlanganidan keyin									
162	Asosiy vositalarni qayta baholash bo'yicha zaxiradan ko'chirma									
170	Foyda va zararlar to'g'risidagi hisobotda tan olinmagan sof foyda / (zarar)									
180	Sof foyda									
190	Tan olingan sof foyda / (zarar)									
200	O'tgan yil uchun oddiy aksiyalar bo'yicha o'tgan yildagi dividendlar									
210	O'tgan yil uchun imtiyozli aksiyalar bo'yicha o'tgan yildagi dividendlar									
220	Konvertatsiyalanadigan obligatsiyalar - ulush komponenti									
230	O'zining sotib olingan aksiyalarini xarid qilish/sotish									
240	Aksiyalar chiqarish									
250	Boshqa banklarga berilgan filiallar									
260	<b>Joriy yilning 31 dekabridagi qoldiq</b>									



“Xususiy kapital to‘g‘risidagi hisobot” moddalari quyidagi tartibda to‘ldiriladi.

010 “O‘tgan yilning 1-yanvar holatiga ko‘ra mavjud qoldiq – qayta sanalgunga qadar” qatorida o‘tgan yilning 1-yanvar holatiga ko‘ra taqsimlanmagan foyda qoldig‘i “Taqsimlanmagan foyda” ustunida, aksiyadorlik kapitali qoldig‘i “Ustav kapitali” ustunida, qo‘shimcha kapital qoldig‘i “Qo‘shimcha kapital” ustunida, qayta sotib olingan o‘z aksiyalari qoldig‘i “ Qayta sotib olingan o‘z aksiyalari” ustunida, zaxiralar qoldig‘i “Zaxiralar” ustunida ko‘rsatiladi.

020 “Hisobdagi o‘zgarishlar ta’siri (soliqlardan tashqari)” qatorida hisobdagi o‘zgarishlar ta’sirida yuz bergan o‘zgarishlar summasi “Taqsimlanmagan foyda” ustunida soliqlarni chiqarib tashlagan holda ko‘rsatiladi.

021 “Xatolarni tuzatish ta’siri, soliqlardan tashqari” qatori. Ushbu qator standart shaklga kiritilmaydi, biroq zarur hollarda kiritilishi mumkin. Mazkur summa o‘tgan davrlar mobaynida vujudga kelgan xatolarni tuzatishning kumulyativ ta’siridan iboratdir.

041 “Sotishga mo‘ljallangan investitsiyalar - haqiqiy qiymat bo‘yicha sof foyda (zarar), soliqlardan tashqari” qatorida hisobot davrida sotishga mo‘ljallangan investitsiyalarni haqiqiy qiymati bo‘yicha qayta baholash bo‘yicha “Zaxiralar” ustunida vujudga kelgan olinmagan foyda (zararlar) summasi ko‘rsatiladi.

042 “Asosiy vositalarni qayta baholashga oid zaxiralar” qatorida hisobot davrida “Zaxiralar” ustunida vujudga kelgan asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarni qayta baholash summasi ko‘rsatiladi.

051 “Sotishga mo‘ljallangan investitsiyalar – sof daromadga o‘tkazish (soliqlardan tashqari)” qatorida “Zaxiralar” ustunida sotishga mo‘ljallangan investitsiyalarni sof foydaning haqiqiy qiymati bo‘yicha qayta baholashdan olingan foyda (zarar)ni ko‘chirish summasi ko‘rsatiladi.

052 “Asosiy vositalarni qayta baholashga oid zaxiradan ko‘chirish” qatorida “Zaxiralar” va “Taqsimlanmagan foyda”

ustunlarida asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarni qayta baholash bo'yicha olingan zaxiralarni ko'chirish summasi ko'rsatiladi.

060 "Foyda va zararlar haqidagi hisobotda tan olinmagan sof foyda/(zarar)" qatorida 041, 042, 051, 052-qatorlarning tegishli ustunlar bo'yicha yig'indisi ko'rsatiladi.

080 "Tan olingan sof foyda/ (zarar)" qatorida 060 va 070-qatorlarning tegishli ustunlar bo'yicha summalari ko'rsatiladi.

090 "Oddiy aksiyalar bo'yicha o'tgan yildan oldingi yil uchun dividendlar" qatorida oddiy aksiyalar bo'yicha o'tgan yildan oldingi yil uchun dividendlar summasi "Taqsimlanmagan foyda" ustunidagi kamayish sifatida ko'rsatiladi.

100 "Imtiyozli aksiyalar bo'yicha o'tgan yildan oldingi yil uchun dividendlar" qatorida imtiyozli aksiyalar bo'yicha o'tgan yildan oldingi yil uchun dividendlar summasi "Taqsimlanmagan foyda" ustunidagi kamayish sifatida ko'rsatiladi.

110 "Ayirboshlanadigan obligatsiyalar – ulushli komponent" qatorida ayirboshlanadigan obligatsiyalarning "Ustav kapitali" va "Qo'shimcha kapital" ustunlaridagi ulushli komponenti summasi ko'rsatiladi.

120 "Qayta sotib olingan o'z aksiyalarini sotib olish/sotish" qatorida qayta sotib olingan o'z aksiyalarining "Qayta sotib olingan o'z aksiyalari" va "Qo'shimcha kapital" ustunlaridagi sotish/ sotib olish summasi ko'rsatiladi.

130 "Aksiyalar chiqarish" qatorida "Ustav kapitali" va "Qo'shimcha kapital" ustunlaridagi chiqarilgan aksiyalar summasi ko'rsatiladi.

140 "Jami: joriy yilning 1-yanvar holatiga ko'ra mavjud qoldiq" qatorida tegishli ustunlar bo'yicha qoldiqlar ko'rsatiladi.

Joriy yil uchun 150-250 qatorlar yuqorida bayon qilingan 040-140 qatorlar kabi to'ldiriladi.

## Ozchilik ulushi

№	Mod-dalar	Ustav kapitali	Qo'shimcha kapital	Qayta sotib olingan o'z aksiyalari	Jami: Aksiyadorlik kapitali	Zaxiralar	Taqsimlanmagan foyda	Jami	Ozchilik ulushi	JAMI: O'Z KAPITALI
010										
020										

Agarda bankning unga 100 foizdan kam miqdorda tegishli bo'lgan shu'ba xo'jalik jamiyati mavjud bo'lsa, bu holda aksiyadorlik kapitalidagi o'zgarishlar to'g'risidagi yig'ma hisobotga quyidagi tarzda ikkita qo'shimcha qator qo'shilishi lozim:

Tijorat banklarining o'z kapitaliga ustav, rezerv kapitali, tashkil etilgan jamg'armalarga ajratmalar hamda taqsimlangan foyda kiradi.

### **Nazorat savollari va topshiriqlar**

1. Tijorat banklari moliyaviy hisobotlarining turlari.
2. Balans yoki moliyaviy holat to'g'risidagi hisobotning mazmuni va tarkibi, uning elementlari.
3. Foyda va zararlar to'g'risidagi hisobot, uning mazmuni, tarkibi va elementlari.
4. Foyda va zararlar to'g'risida hisobot moddalarini tuzish qoidalari.
5. Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot, uni tuzish maqsadi, mazmuni va tarkibi.
6. Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot moddalarini tavsiflash va tuzish qoidalari.
7. Kapital harakati to'g'risidagi hisobotning mazmuni va uning tarkibi, elementlari.
8. Moliyaviy hisobotga tushuntirishlar va izohlar.

## **IV BOB. BANKLARDA HISOB SIYOSATI, BUXGALTERLIK BAHOLASHDAGI O‘ZGARISHLAR VA XATOLAR**

### **4.1. Banklarda hisob siyosatini shakllantirish va uning mohiyati**

Rivojlangan xorijiy davlatlar hisob siyosati MHXS 8 asosida ishlab chiqilgan.

1993-yil tahririda bo‘lgan BHXS 8-“Davr sof foydasi yoki zarari, fundamental xatolar va hisob siyosatlaridagi o‘zgarishlar” nomli standartning o‘rniga 2005-yil 1-yanvaridan boshlab “Hisob siyosatlari, hisoblab chiqilgan baholardagi o‘zgarishlar va xatolar” nomli yangi tahrirdagi standart ishlab chiqilib, amaliyotga joriy etish uchun MHXSQ tomonidan tavsiya etildi.

Mazkur standartda hisob siyosatiga quyidagicha ta’rif berilgan: *“Hisob siyosati - tadbirkorlik subyekti tomonidan moliyaviy hisobotlarni tayyorlashda va taqdim etishda qo‘llaniladigan muayyan tamoyillar, usullar, odatlar, qoidalar va amaliyotlardir”*.

Demak, banklar o‘z moliyaviy hisobotlarini tayyorlashda hamda tegishli tashkilotlarga taqdim etish jarayonida qo‘llash mumkin bo‘lgan tamoyillar (masalan, uzluksizlik yoki taqqoslanuvchanlik) va qoidalar (ikkiyoqlama yozuv yoki baholash)ni hisob siyosati sifatida shakllantiradi.

Yuqoridagi 8-son MHXSda quyidagi atamalardan foydalanish tavsiya etilgan: jumladan, *hisoblab chiqilgan bahodagi o‘zgarish* - aktivlar va majburiyatlarning joriy holatini hamda ular bilan bog‘liq bo‘lgan, kelgusida kutilayotgan manfaat va majburiyatlarni baholash natijasida, aktiv yoki majburiyatning balans qiymatini yoki aktivdan davriy foydalanish summasini tuzatishdir. Hisoblab chiqilgan bahodagi o‘zgarishlar yangi ma’lumotlar olinishi yoki yangi hodisalar ro‘y berishi natijasida yuzaga keladi va shu sababdan, xatolarni tuzatish bo‘lib hisoblanmaydi.

*Muhim tushirib qoldirishlar yoki buzib ko'rsatishlar*—moddalarning tushirib qoldirilishi yoki buzib ko'rsatilishi, agar foydalanuvchilarning moliyaviy hisobotlar asosida qabul qilinadigan iqtisodiy qarorlariga alohida yoki birgalikda, ta'sir eta olsa muhim hisoblanadi. Muhimlik tushirib qoldirish yoki buzib ko'rsatishning, ular sodir bo'lgan sharoitlarni hisobga olgan holda, aniqlanadigan kattaligi va xususiyatiga bog'liq bo'ladi. Moddaning kattaligi yoki xususiyati, yoki ikkalasining birikmasi hal qiluvchi omil bo'lishi mumkin.

*Oldingi davr xatolari* tadbirkorlik subyektining bir yoki undan ortiq oldingi davrlar uchun moliyaviy hisobotlardagi buzib ko'rsatishlar va tushirib qoldirishlardir; ular ishonchli axborotdan foydalanmaslik yoki noto'g'ri foydalanish natijasida yuzaga keladi va ushbu axborot:

1) mazkur davrlar uchun moliyaviy hisobotlar e'lon qilinishi uchun tasdiqlanganida mavjud bo'lgan;

2) mazkur moliyaviy hisobotlarni tayyorlash va taqdim etish chog'ida olinishi va hisobga olinishi oqilona ravishda kutilishi mumkin bo'lgan axborotdir.

Bunday xatolar matematik yanglishishlar, hisob siyosatini qo'llashda yo'l qo'yilgan xatolar, e'tiborsizlik yoki faktlarni noto'g'ri talqin etish oqibatlarini hamda firibgarlikni o'zichiga oladi.

*Restrospektiv qo'llash* - yangi hisob siyosatini operatsiyalar, boshqa hodisalar va vaziyatlarga nisbatan ushbu siyosat oldin ham har doim qo'llanilganidek tarzda qo'llash.

*Retrospektiv qayta hisoblash* - moliyaviy hisobotlardagi elementlar summalarining tan olinishi, baholanishi va ochib berilishini oldingi davrda xatoga hech qachon yo'l qo'yilmaganidek tarzda tuzatish.

MHXSlarni qo'llashda banklarga yordam berish maqsadida qo'llash bo'yicha ko'rsatmalar ilova qilinadi. Bunday ko'rsatmalarda ular MHXSlarning ajralmas qismi bo'lib hisoblanishi yoki hisoblanmasligi ta'kidlanadi. MHXSning ajralmas qismi bo'lib hisoblanadigan ko'rsatmalarni qo'llash majburiydir. MHXSning ajralmas

qismi bo'lib hisoblanmaydigan ko'rsatmalar moliyaviy hisobotlarga nisbatan talablarni o'z ichiga olmaydi.

Agar qandaydir MHXS moddalarning har xil hisob siyosatlari to'g'ri kelishi mumkin bo'lgan toifalarga bo'linishini alohida talab etmasa yoki ruxsat etmasa banklar o'xshash operatsiyalar, boshqa hodisalar va sharoitlarga tegishli hisob siyosatlarini izchil ravishda tanlashi va qo'llashi kerak. Agar qandaydir MHXS moddalarning bunday toifalarga bo'linishini talab etsa yoki ruxsat etsa, bunday har bir toifaga tegishli bo'lgan hisob siyosati izchil ravishda tanlanishi va qo'llanilishi kerak.

Banklarda hisob siyosati faqat quyidagi hollarda o'zgartirilishi kerak:

a) agar o'zgartirish MHXS tomonidan talab etilsa;

b) agar o'zgartirish natijasida moliyaviy hisobotlarda bankning moliyaviy holatiga, moliyaviy natijalariga yoki pul oqimlariga operatsiyalarning, boshqa hodisalarning va sharoitlarning ta'siri to'g'risida ishonchli va o'rinliroq ma'lumotlar aks ettirilsa.

Moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilar banklarning har xil davrlarga tegishli moliyaviy hisobotlarini uning moliyaviy holati, moliyaviy natijalari va pul oqimlaridagi tendensiyalarini aniqlash uchun taqqoslash imkoniyatiga ega bo'lishlari kerak. Shuning uchun, bir davr mobaynida hamda davrdan-davrga bir xil hisob siyosatlari qo'llaniladi.

Bank hisob siyosatida quyidagilar o'zgarish bo'lib hisoblanmaydi:

a) oldin sodir bo'lgan operatsiyalar, boshqa hodisalar yoki sharoitlardan mohiyati bo'yicha farqlanadigan operatsiyalar, boshqa hodisalar yoki sharoitlarga nisbatan qandaydir hisob siyosatini qo'llash;

b) oldin sodir bo'lmagan yoki ahamiyatsiz darajada bo'lgan operatsiyalar, boshqa hodisalar yoki sharoitlarga nisbatan yangi hisob siyosatini qo'llash.

Banklar tomonidan MHXS 16 "Asosiy vositalar" yoki MHXS 38- "Nomoddiy aktivlar"ga muvofiq aktivlarni qayta baholash siyosatini birinchi marta qo'llash– mazkur standartga muvofiq emas, balki MHXS 16- yoki MHXS 38-

ga muvofiq qayta baholash sifatida qaraladigan hisob siyosatidagi o'zgarish bo'lib hisoblanadi.

Banklar o'z hisob siyosatidagi o'zgarishning taqdim qilingan bir yoki undan ortiq oldingi davrlar uchun qiyosiy ma'lumotga nisbatan biror-bir davrga tegishli bo'lgan ta'sirini aniqlashni amaliy imkoni bo'lmaganda, yangi hisob siyosatini retrospektiv qo'llashni amaliy imkoni bo'lgan davrlardan eng birinchi davri, bu joriy davr ham bo'lishi mumkin, boshlanishiga bo'lgan aktivlar va majburiyatlarning balans qiymatiga nisbatan qo'llashi kerak hamda ushbu davrdagi kapitalning ta'sir qilingan har qanday tarkibiy qismining boshlang'ich qoldig'iga tegishli tuzatish kiritishi lozim.

Ma'lumki, joriy davrning boshida yangi hisob siyosatini hamma oldingi davrlarga nisbatan qo'llashning yig'ilgan ta'sirini aniqlashning amaliy imkoni bo'lmasa, bank yangi hisob siyosatini qo'llashni amaliy imkoni paydo bo'lgan eng dastlabki sanadan boshlab istiqbolli qo'llash maqsadida, qiyosiy ma'lumotlarga tuzatish kiritishi kerak.

Banklar yangi hisob siyosatini retrospektiv tarzda qo'llaganida, u yangi hisob siyosatini oldingi davrlar uchun qiyosiy ma'lumotlarga nisbatan imkoni boricha eng dastlabki davridan boshlab qo'llaydi. Oldingi davrga nisbatan yangi hisob siyosatini qo'llashni amaliy imkoni yo'q, toki ushbu davr uchun moliyaviy holat to'g'risidagi hisobotlarda aks ettirilgan summalarining boshlang'ich va yakuniy qoldiqlariga bo'lgan yig'ilgan ta'sirni aniqlashni amaliy imkoni bo'lmaguncha, moliyaviy hisobotlarda taqdim qilingan oldingi davrlarga tegishli bo'lgan, kelib chiqadigan tuzatishning summasi taqdim qilingan oldingi davrlardan eng dastlabki davridagi kapitalning ta'sir qilingan har bir tarkibiy qismining boshlang'ich qoldig'iga olib boriladi.

Odatda, tuzatish taqsimlanmagan foydaga kiritiladi. Ammo, tuzatish bank kapitalining boshqa qismiga qilinishi ham mumkin (masalan, MHXSga rioya qilish maqsadida). Oldingi davrlarga tegishli har qanday boshqa axborot, masalan moliyaviy ma'lumotlarning oldingi davrlar uchun umumlashmasi ham imkoni boricha oldinroq davrdan boshlab tuzatiladi.

Agar banklar yangi hisob siyosatini hamma oldingi davrlarga nisbatan qo'llashning yig'ilgan ta'sirini aniqlay olmaganligi sababli ushbu siyosatni retrospektiv tarzda qo'llashni amaliy imkoni bo'lmasa, unda yangi hisob siyosatini qo'llashni amaliy imkoni bor bo'lgan eng dastlabki davrning boshidan boshlab istiqbolli ravishda qo'llaydi. Shuning uchun u aktivlar, majburiyatlar va kapitalga bo'lgan, ushbu sanadan oldin yuzaga keladigan yig'ilgan tuzatishning qismini hisobga olmaydi. Agar ushbu siyosatni har qanday oldingi davrga nisbatan istiqbolli qo'llashni amaliy imkoni bo'lmasa, hisob siyosatiga o'zgartirish kiritishga ruxsat etiladi, yangi hisob siyosatini bir yoki undan ko'proq oldingi davrlarga nisbatan qo'llashni amaliy imkoni bo'lmasligi bo'yicha ko'rsatmalar keltiriladi.

Respublikamiz banklarida hisob siyosatini tuzish va uni amalga oshirish bilan bog'liq muammolar jahon hamda O'zbekiston miqiyosida yetarli darajada o'rganilmagan. Hisob siyosatiga xalqaro standartlarda berilgan ta'riflar bilan birga iqtisodchi olimlarning fikrlariga ham e'tiborni qaratish zarur.

Xorijiy iqtisodchi olimlardan L.Smirnova o'zining ilmiy asarida, "Tijorat banklarining hisob siyosatida hisobning muhim variantlarini har xil operatsiyalarda to'g'ri qo'llay bilishi kerak, shuningdek, tijorat banklarining hisob siyosatini shakllantirishda uzviy bog'liq soliqlarni rejalashtirish va baholay bilishdir" deb ta'kidlaydi.<sup>21</sup>

V.Astaxov tadqiqot ishida hisob siyosatini quyidagi uchta qismga ajratgan holda o'rganadi:

1. Buxgalteriya hisobining metodikasi hisob obyektlarini tan olish, o'lchash va hisob raqamlarida aks ettirishning tanlab olingan usullarini ifodalovchi holatlarni ko'rsatish, metodologik jihatlarni balans va hisobotning boshqa shakllarining har bir elementi bo'yicha ifodalashi lozim deb hisoblaydi.

2. Buxgalteriya hisobini yuritish texnikasi. Bunda buxgalteriya hisobini yuritish uchun zarur bo'lgan ishchi schyotlar rejasi, hisob registrlarini schyotlarga birlashtirilishi, hujjatlar shakllarining albomi, inventarizatsiya o'tkazish

---

<sup>21</sup> Смирнова Л.Р. Банковский учёт. М.: 2000. 55 б.



muddatlari va tartibi, zamonaviy kompyuterlar va boshqa tashkiliy texnika vositalari, ularni qo'llash uchun zarur bo'lgan klassifikator va kodifikatorlar kiritiladi.

3. Buxgalteriya hisobini tashkil qilish buxgalteriya ishini tanlab olingan tashkiliy shaklini, hisob xodimlari mehnatini tashkil qilish usulini, funksional majburiyatlarni buxgalterlar o'rtasida taqsimlashning tanlangan variantini, hujjatlar aylanishining tashkil qilinishini, bosh buxgalterni tayinlanishi, ishdan bo'shatilishi, huquqlari, majburiyatlarini ko'rsatgan.

A. Pardaev tomonidan berilgan izohda esa "Korxonalar hisob siyosati - bu korxonaning o'zi uchun ahamiyatli bo'lgan va umumiy qoidalaridan kelib chiqqan holda belgilanadigan va e'lon qiladigan buxgalteriya hisobining shakl va uslublar to'plamidir" deyilgan.<sup>22</sup>

N.Jo'raev esa, "Hisob siyosati - bu xo'jalik subyektlari faoliyatini tartibga soluvchi huquqiy - me'yoriy hujjatlarda ruxsat etilgan buxgalteriya hisobining muqobil usullari va shakllaridan korxonalar tanlab olgan hamda e'lon qilgan buxgalteriya hisobi tizimidir" deb hisoblaydi.<sup>23</sup>

B. Hoshimov xo'jalik yurituvchi subyektlarning hisob siyosatini buxgalteriya hisobini ma'lum qoidalar va tamoyillar bo'yicha quyidagicha asoslagan: tamoyil va qoidalarning shunday majmuini o'rnatish kerakki, uni amalda qo'llash hisob yuritishning maksimal samarasini ta'minlasin". Bunda samara deb moliyaviy va boshqaruv axborotlarini o'z vaqtida shakllantirish keng doiradagi foydalanuvchilar uchun ishonchliligi, ravonligi va foydaliligini ta'minlash tushunilgan.<sup>24</sup>

F. G'ulomova esa korxonalar hisob siyosatini tarkibiy jihatdan 4ta qismga ajratib, o'rgangan. Bu quyidagilar:

1. Umumiy tartiblar - bunda buxgalteriya hisobini yuritishning maqsadi, korxonalar rahbari va bosh buxgalterni huquqlari, majburiyatlarini aks ettirish tavsiya etilgan.

---

<sup>22</sup> Pardaev A.X. Boshqaruv hisobi. T.: 2002. 18 b.

<sup>23</sup> Jo'raev N. Korxonalar hisob siyosati. T.: 1998. 3 b.

<sup>24</sup> Hoshimov B. Buxgalteriya hisobi nazariyasi. T.: 2004. 277 b.

2. Hisob metodikasi buxgalteriya hisobining obyektlari bo'yicha ularni baholash va aks ettirishning tanlab olingan variantlarini ko'rsatish tavsiya etilgan.

3. Hisob texnikasi buxgalteriya hisobining yuritish uchun zarur bo'lgan schyotlar rejasini, hisobini yuritish texnikasini, inventarizatsiya o'tkazish muddatlari, ya'ni hisob yuritish texnikasiga doir aniq usullarni aks ettirish tavsiya qilinadi.

4. Buxgalteriya hisobining tashkil etilishi - buxgalteriya hisobini kim tomonidan yuritilishini, buxgalteriya ishini tanlab olingan tashkiliy shaklini ko'rsatish tavsiya qilingan.<sup>25</sup>

K. O'razov tomonidan quyidagicha ta'rif berilgan va 1-son Buxgalteriya hisobi milliy standartlariga kiritishni maqsadga muvofiq deb bilgan holda: "Hisob siyosati deganda xo'jalik yurituvchi subyekt rahbari tomonidan buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobotni tuzishning tanlangan aniq qonuniy usullarini o'zida mujassamlashtiruvchi va foydalanuvchilarning axborot olish talablarini to'liq qoniqtirishga xizmat qiluvchi ichki me'yoriy hujjatlar tushuniladi" deb asoslagan. U hisob siyosati ichki me'yoriy hujjat sifatida quyidagi talablarga javob berishi lozimligini ta'kidlaydi:

- aniq xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyat turlarining o'ziga xos xususiyatlarini ifodalashi;

- ham ichki, ham tashqi axbarotdan foydalanuvchilarning manfaatlariga xizmat qilishi;

- ichki axborotdan foydalanuvchilarga xo'jalik yurituvchi subyekt belgilangan xususiy ichki talablarga to'liq amal qilayotganligini kunlik faoliyatini nazorat qilib borishga imkon yaratish;

- buxgalteriya hisobi axborotlarini tashqi foydalanuvchilar tomonidan qo'llanilishini tengillashtirish va boshqalar.<sup>26</sup>

J. Qurbonboevning hisob siyosatiga bergan ta'rifi quyidagicha: "Hisob siyosati - bu buxgalteriya hisobini tashkil qilish, yuritish va moliyaviy hisobini tuzish va

<sup>25</sup> Гулямова Ф.Г. Учетная политика предприятия. Т.: 2004. 97, 98, 100, 102 с.

<sup>26</sup> Urazov K.B. Iqtisodiyotni erkinlantirish sharoitida buxgalteriya hisobining kontseptual masalalari. T., 2005. 151-152 b.

topshirish uchun muqobil tamoyillar, shart va qoidalarga asoslanib, xo‘jalik yurituvchi subyekt rahbari tomonidan qabul qilingan maqbul usullar va qoidalar majmuasidir”.<sup>27</sup>

Hisob siyosati korxonada buxgalteriya hisobining analitik jihatini ham ichki, ham tashqi axborotlardan foydalanuvchilar manfaatlariga mos keltirishga qaratilishi kerakligini olimlar buxgalteriya hisobining konseptual masalalariga bag‘ishlangan o‘z ilmiy ishlarida belgilab bergan.

Biroq ushbu olimlarning ishlarida banklarda hisob siyosatini tuzish va takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlari tadqiq etilmagan. Vaholanki, boshqa korxonalarining buxgalteriya hisobi tizimi tijorat banklarinikidan bir muncha farq qiladi hamda bozor munosabatlari sharoitida tijorat banklarida hisob siyosatini tuzish va takomillashtirishda yuqorida keltirilgan ishlar yetarli darajada qo‘llanma bo‘la olmaydi.

Banklarning hisob siyosati hisob menejmenti uchun samarali ish quroli hisoblanadi. Hisob siyosati bank xodimlarining hisob yuritish, bankning moliyaviy hisobini tuzish bilan bog‘liq obyektiv standartlarni va mezonni aniqlab beradi. Uni to‘g‘ri tuzish va olib borish, barcha bo‘limlar tomonidan bu siyosat maqsadining aniq tushunilishi bank boshqaruviga hisob standartlarni to‘g‘ri olib borishga, risklardan qochishga, bank imkoniyatlarini to‘g‘ri aniqlashga asos hisoblanadi. Har tomonlama aniq va puxta ishlab chiqilgan hisob siyosati, banklarda buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobotlarni tuzish tartibini takomillashuviga olib keladi.

Banklar o‘zlari tomonidan belgilangan hisob siyosati ularning moliyaviy faoliyatini mustahkamligini ko‘rsatib beradi hamda banklarning birinchi muhim holatdagi ko‘rsatkichlaridan hisoblanadi. Banklarning hisob siyosati bilan tanishmasdan bankga baho berish va boshqa banklar bilan taqqoslash va tegishli xulosalar qilish mumkin emas. Yuqoridagi MHXS-8ga asosan, banklardagi hisob siyosatini quyidagicha anglash mumkin: “Bunda bank rahbariyati tomonidan buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobotlar tuzish uchun qabul qilinadigan usullarning

---

<sup>27</sup> Qurbonboev J. Korxonalarda hisob siyosatini shakllantirish, yuritish va rivojlantirish istiqbollari. T., 2005. 18 b

yig'masi tushuniladi". Hisob siyosatida belgilangan hisob tamoyil va qoidalari hisob yuritishning samarasini yuqori darajada ta'minlashi lozim, bunda samara deb, moliyaviy va boshqaruv axborotlarini o'z vaqtida shakllantirish keng doiradagi foydalanuvchilar uchun ishonchliligi, ravonligi va foydali bo'lishini ta'minlash tushuniladi.

Banklarda bank buxgalteriya siyosatiga xo'jalik faoliyati faktlarini guruhlash va baholash, aktivlar qiymatini hisobdan chiqarish, hujjat aylanishi va inventarizatsiyani tashkil etish, buxgalteriya hisobi schyotlarini qo'llash, hisob tizimi, axborotlarni ishlab chiqish va boshqa tegishli usullar kiradi. Banklar keyingi hisobot yili uchun ishlab chiqqan hisob siyosati oldindan muassasalarning Raislar kengashi tomonidan ko'rib chiqilishi va ma'qullanishi, shundan so'ng bank rahbari tomonidan tasdiqlanishi lozim. Tasdiqlangan hisob siyosati yuridik hujjat maqomiga ega bo'ladi.

Bank faoliyatidagi muomalalarda noaniqliklar mavjud bo'lishi natijasida, moliyaviy hisobotlardagi ko'pgina moddalar aniq baholanmay qoladi yoki faqat taxminiy (hisoblab chiqib) baholanishi mumkin. Taxminiy baholashlar eng so'nggi ishonchli axborotga tayangan holda ish ko'rishni talab qiladi. Masalan, quyidagilarni taxminiy baholash zarur bo'lishi mumkin:

- umidsiz qarzlar;
- tovar-moddiy zaxiralarning qadrsizlanishi;
- moliyaviy aktivlar yoki moliyaviy majburiyatlarning haqqoniy qiymati;
- eskiradigan aktivlarning foydali xizmat muddati yoki ularda mujassamlangan kelgusi iqtisodiy naf qay tarzda olinishi;
- kafolat majburiyatlari.

Banklarda asoslangan taxminiy baholashlardan foydalanish moliyaviy hisobotlarni tayyorlashning muhim qismi bo'lib, natijada ularning ishonchliligini kamaytirmaydi. Taxminiy baholashni ular asoslangan sharoitlarda o'zgarishlar ro'y berganida yoki yangi ma'lumotlar olinishi yohud ko'proq tajriba to'planishi natijasida qayta ko'rib chiqish zarur bo'lishi mumkin. O'z mohiyati bo'yicha, taxminiy baholashni qayta ko'rib

chiqilishining oldingi davrlarga aloqasi bo'lmaydi va u xatoni tuzatish hisoblanmaydi.

Banklarda qo'llanilayotgan baholash asosining o'zgarishi hisob siyosatidagi o'zgarishdir va u hisoblab chiqilgan bahodagi o'zgarish bo'lib hisoblanmaydi. Agar hisob siyosatidagi o'zgarishni hisoblab chiqilgan bahodagi o'zgarishdan farqlash qiyin bo'lsa, bunday o'zgarish hisoblab chiqilgan bahodagi o'zgarish bo'lib hisoblanadi.

Banklarning hisob siyosatini shakllantirishda qabul qilingan buxgalteriya hisobini yuritish usullari buyruq chiqqan yildan keyingi yilning birinchi yanvaridan qo'llaniladi. Bunda bo'linmalarining joylashgan joylaridan qat'iy nazar, bankning barcha strukturaviy bo'linmalari tomonidan ham qo'llaniladi. Respublikamizda bank hisob siyosati kalendar yili ichida o'zgarmaydi, MHXS-8 tegishli bandlariga muvofiq, hisob siyosatiga quyidagi hollardagina o'zgartirish kiritilishi mumkin:

- tijorat banki qaytadan tashkil etilsa, ya'ni birlashsa, ajralsa;

- rahbar o'zgarganda;

- O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi o'zgarsa yoki O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobini tartibga soluvchi me'yoriy tizimlarda o'zgarish bo'lsa;

- buxgalteriya hisobining yangi usullari ishlab chiqilsa.

Shuningdek, banklarning hisob siyosati oldiga quyidagi asosiy talablar qo'yiladi:

- foydalanuvchilar ehtiyojlari uchun ahamiyati yuqori bo'lishi;

- ishonchlilik;

- tushunarlik va oddiylik;

- to'liqlik, ya'ni faktlarni hisobda to'liq aks ettirishni ta'minlash;

- ehtiyotkorlik.

Banklarda ishlab chiqilayotgan hisob siyosati "O'zbekiston Respublikasi banklarida buxgalteriya hisobini yuritish va buxgalteriya ishlarini tashkil qilish tartibi to'g'risida"gi Nizom asosida shakllantiriladi (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 1834-3- son bilan ro'yxatdan o'tgan. 2013-yil, 15-iyul).

Yangi tashkil etilayotgan bank o'zi qabul qilgan hisob siyosatiga yil davomida rioya qilishi va zarurat tug'ilganda, hisob siyosatiga o'zgartirishlar kiritishi mumkin, lekin faqat yangi hisobotga tushuntirish xatida bu albatta, ko'rsatiladi.

Banklarda tanlangan hisob siyosati nafaqat buxgalteriya hisobi usullari va uslubiyatini ro'yobga chiqarishning samaradorlik darajasiga, balki bankning moliyaviy holatiga, mablag'lardan oqilona foydalanishga, boshqaruv qarorlarining tezkorligiga ham ta'sir ko'rsatadi.

Bankning hisob yuritish siyosatini tanlash va asoslashga quyidagi omillar ta'sir etadi:

- mulk shakli va tashkiliy-huquqiy shakl;
- faoliyat turi yoki tarmoq bo'ysunuvi;
- soliqqa tortish tizimi bilan munosabat;
- moliyaviy-xo'jalikning rivojlanish strategiyasi;
- boshqaruv faoliyatining texnik jihatidan jihozlanganligi;

- bankni ma'lumotlar bilan ta'minlashning samarali tizimi mavjudligi;

- buxgalteriya xodimining malaka darajasi, bank rahbarlarining tashabbuskorligi, talabchanligi va tadbirkorligi;

- bank ishi samarasidan moddiy manfaatdorlik va majburiyatlar uchun moddiy javobgarlik tizimi.

Bank rahbari ta'sir etuvchi barcha omillarni e'tiborga olgan holda hisob yuritish siyosatini asoslashga to'g'ri yondashishi zarur. O'z vakolati doirasida bank rahbari:

- buxgalteriya hisobi milliy standartining shu kabi masalalar bo'yicha talablar va ko'rsatmalarini;

- O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan e'lon qilingan har qanday boshqa axborotni;

- O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilangan aktivlar, majburiyatlar, daromadlar va xarajatlar uchun ularni aniqlash, aks ettirish va o'lchash baholarini;

- kapitalning jahon moliyaviy bozorlari tomonidan qabul qilingan asosiy tarmoq amaliyotini ko'rib chiqadi.

Bank birinchi hisobotini e'lon qilgunga qadar, ushbu qismga asosan o'zi tanlagan hisob yuritish siyosatini rasmiylashtiradi, uni yuridik shaxs maqomini olgan vaqtdan - davlat ro'yxatidan o'tganidan boshlab, 90 kundan kechikmasdan amalga oshiradi. Bank tomonidan tanlangan hisob yuritish siyosati yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan vaqtdan - davlat ro'yxatidan o'tganidan keyin qo'llanilishi mumkin.

Hisob siyosatidagi o'zgarishlar asosli bo'lishi va belgilangan tartibda rasmiylashtirilishi lozim. Hisoblash tamoyili asosida tayyorlangan moliyaviy hisobotlar foydalanuvchilarga nafaqat pul mablag'larini to'lash va olish bo'yicha avvaldan o'tkazilgan muomalalar to'g'risida, shuningdek, kelgusida pul mablag'larini to'lash majburiyatlari to'g'risida ham tegishli iqtisodiy qarorlar qabul qilishida zarur bo'ladigan axborotlar beradi.

Hisob yuritish siyosati tegishli tashkiliy - farmoyish hujjatlari, ya'ni buyruq, farmoyish va h.k. bilan rasmiylashtirilishi kerak va quyidagi "Moliyaviy hisobotni tayyorlash va taqdim etishning konseptual asoslari"da keltirilgan asosiy tamoyillarga asosan aniqlanishi mumkin:

- hisoblash tamoyili;
- ikki yoqlama qayd etish usuli bilan hisob yuritish.

Hisoblash tamoyiliga asosan aktivlar, passivlar o'z kapitali, daromadlar, xarajatlar, xo'jalik muomalalari va hodisalar sodir etilgan yoki naqd olingan paytda buxgalteriya hisobida ko'rsatiladi, ular bo'yicha pul mablag'lari yoki ularning ekvivalenti olingan va to'langan vaqt bundan mustasno.

Buxgalteriya yozuvlari hisoblash tamoyilidan foydalanilgan holda, xo'jalik muomalalarining sodir bo'lishi vaqtida amalga oshiriladi. Bu tamoyilga muvofiq, mahsulot xaridorga berilgandan keyingina realizatsiya qilingan hisoblanadi, ya'ni yuklangan mahsulotning qiymati realizatsiyadan olingan davrdagi xarajat sifatida ijarachining buxgalteriya registrlarida mos ravishda aks ettirilishi lozim.

Hisoblash tamoyili asosida tayyorlangan moliyaviy hisobotlar foydalanuvchilarga nafaqat pul mablag'larini

to'lash va olish bo'yicha avvaldan o'tkazilgan muomalalar to'g'risida, shuningdek, kelgusida pul mablag'larini to'lash majburiyatlari to'g'risida ham axborot beradi. Ular tegishli iqtisodiy qarorlar qabul qilinishida zarur bo'ladi.

Ikki yoqlama qayd etish usuli bilan hisob yuritish qoidasi banklarda buxgalteriya muomalalarini ikki yoqlama yozuv tizimi asosida yuritish kerakligini bildiradi. Ikki yoqlama yozuv tizimi bir xil muomala bo'yicha aynan bir xil summani buxgalteriya hisobining ikki schyoti - birining debet va boshqasining kreditida aks ettirilishidan iborat bo'ladi.

Hisoblash tamoyili, bankning daromadlari va xarajatlari tegishli bo'lgan kelib tushish sanasidan qat'iy nazar, hisobot davrida aks ettirilishini bildiradi.

Banklarda hisob siyosati shunday tashkil qilinishi kerakki, foydalanuvchilar uchun moliyaviy hisobotlar qulay tarzda tuzilsin, ya'ni:

- foydalanuvchilar ehtiyojlari uchun ahamiyatli;
- quyidagi ma'noda ishonchli, ya'ni u:
  - a) bank faoliyati va moliyaviy holatining barcha natijalarini ishonchli yoritib olsin;
  - b) faqat yuridik shaklning o'zini emas, balki voqea va muomalalarning iqtisodiy mohiyatini ham yoritib;
  - d) betaraf bo'lsin va majburiy bo'lmasin;
  - e) betaraflikka zarar yetkazmagan holda extiyotkorligi bo'lsin;
  - f) barcha muhim jihatlarda to'liq bo'lishi va bank faoliyatining barcha masalalarini to'liq yoritib;
- aynan shunday faoliyat yurituvchi boshqa banklarning moliyaviy hisobotlarini qiyoslash imkoniyatini bersin;
- tushunarli va oddiy bo'lsin.

O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida buxgalteriya hisobi hisobvaraqlari rejasi bank operatsiyalari hisobini yuritish, tahlil qilish, guruhlash va ularga doir hisobotlarni tuzishda qo'llaniladigan Bosh kitob hisobvaraqlari ro'yxatidan iboratdir.

Hisob siyosatidagi xatolar bank moliyaviy hisobotining elementlarini tan olish, baholash, taqdim etish yoki



ma'lumotlarni ochib berishda paydo bo'lishi mumkin. Banklarning moliyaviy holati, moliyaviy natijalari yoki pul oqimlarining o'zgacha taqdim etishga erishish maqsadida ataylab qilingan muhim xatolar yoki muhim bo'lmagan xatolar mavjud bo'lsa moliyaviy hisobotlar MHXSlarga muvofiq taqdim qilinmagan bo'ladi. Joriy davrda topilgan ehtimolli xatolar moliyaviy hisobotlarni chiqarishga ruxsat etilishidan oldin tuzatilishi kerak. Ammo, muhim xatolar ba'zida keyingi davr kelmaguncha topilmaydi va ushbu oldingi davrlarga tegishli xatolar mazkur keyingi davrning moliyaviy hisobotlarida taqdim etilgan qiyosiy ma'lumotlarda tuzatiladi.

#### **4.2. Hisob siyosatining tarkibiy qismlari: umumiy, uslubiy, texnikaviy, tashkiliy va soliqqa tortish**

Banklar tomonidan tuziladigan hisob siyosatining tarkibi quyidagi 4ta bo'limni o'z ichiga oladi:

##### *1. Umumiy qoidalar*

Ushbu bo'limda hisob siyosatini yuritish va hisob faoliyatini tartibga solish uchun foydalaniladigan huquqiy baza yoritiladi. U umumiy shaklda bo'lib, quyidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olishi kerak:

- davlatning hisob siyosatini ishlab chiqishda asosiy yo'riqnoma bo'lib xizmat qilgan qonun va me'yoriy hujjatlari, Markaziy bank va boshqa moliya tashkilotlarining me'yoriy hujjatlari to'g'risidagi ma'lumotni;

- hisob siyosatining ichida ko'rib chiqilgan masalalarni (buxgalteriya hisobini yuritish va shu bilan bog'liq ishlarni tashkil qilish, moliya hisobotini tashkil qilish, risklarni tasniflash va ular ustidan nazorat o'rnatish) amalga oshirish bilan bog'liq aniq ko'rsatma va yo'riqnomalar to'g'risida umumiy ma'lumotni;

- bankning ichki nizom va yo'riqnomalarini ishlab chiqish uchun asos bo'luvchi ma'lumotni;

- hisob siyosati bankning qaysi bo'limlariga tegishliligini aniq ko'rsatgan ma'lumotni;

- hisob siyosatini amal qilish muddati to'g'risidagi ma'lumotni.

## *2. Hisob uslubining tanlangan varianti*

Bu bo'limda hisob siyosatining buxgalteriya hisobini yuritish bo'yicha quyidagi asosiy tomonlari belgilanib, uning ishlash mexanizmi aniq ko'rsatib beriladi:

- buxgalteriya hisobi tamoyillari;
- balansdagi va balansdan tashqari schyotlar bo'yicha buxgalteriya hisobini tashkil qilish tizimi;
- pul mablag'ining hisobi;
- banklardan olingan mablag'lar hisobi;
- moliyaviy vositalar hisobi;
- kreditlar hisobi;
- ijara hisobi (lizing hisobi).

## *3. Moliyaviy hisobotlarni shakllantirish*

- moliyaviy hisobotga ma'lumotlarni taqdim qilish;
- moliyaviy hisobotning maqsadi;
- moliyaviy hisobotni davriy shakllanishi ;
- moliyaviy hisobotning tarkibi;
- moliyaviy hisobotning mas'ulligi;
- pul oqimining hisobi;
- foyda va zarar to'g'risidagi hisobot;
- oraliq moliyaviy hisobotni tuzish;
- konsalting moliyaviy hisobot;
- moliyaviy hisobotlardagi ma'lumotlarni yoritilish holati;

- buxgalteriya balansi tuzilgan kundan so'ng hodisalarni hisobga olish;

- taraflar bilan bog'liq operatsiyalar to'g'risidagi ma'lumotni yoritish holati;

- fundamental holatlar hisobi;
- hisob siyosatidagi o'zgarishlar hisobi;
- faoliyatning to'xtatish hisobi;

## *4. Hisob-Operatsiya faoliyatini yuritish*

- operatsiya riski;
- buxgalteriya nazorati.

Hisob siyosatiga muvofiq, banklarda buxgalteriya hisobining yuritilishi, buxgalteriya ishining to'g'ri tashkil etilishi va nazoratning aniq olib borilishi bankning o'z

vazifalarini to'g'ri bajarishini, mavjud va bo'lg'usi investorlar, kreditorlar, hukumat muassasalari, vazirliklar, idoralar, jamoatchilik va boshqa manfaatdor foydalanuvchilar, shuningdek, bank rahbariyati va xodimlari uchun bank faoliyatiga haqqoniy baho berish imkonini yaratadigan aniq va foydali axborot olishni ta'minlaydi.

Banklarda buxgalteriya hisobi ishlarini yuritish va buxgalteriya apparatini tashkil qilish tamoyillari, mijozlarga xizmat ko'rsatish hamda hujjatlar aylanmasini yo'lga qo'yish usullari to'g'risida ko'rsatmalar berilgan, bank operatsiyalari hisobini yuritish va ularni nazorat qilish qoidalari hamda bajarilgan bank operatsiyalarining qonuniyligi bo'yicha javobgarlik belgilangan. Shuningdek, hisob siyosatida quyidagilarni ta'minlash maqsad qilib qo'yilgan:

- hisob-kitob, kassa, valyuta, kredit hamda boshqa bank operatsiyalarini to'g'ri bajarish hamda ularni buxgalteriya hisobi va hisobotida o'z vaqtida va aniq aks ettirish;

- bank aktivlari, majburiyatlari, daromadlari va xarajatlari hamda kapitali holati va ulardagi o'zgarishlar to'g'risida ishonchli ma'lumotlar to'plash;

- bankning moliyaviy holati, moliyaviy holatidagi o'zgarishlar va moliyaviy natijalari to'g'risidagi va bank rahbariyati faoliyatiga baho beruvchi moliyaviy hisobotlarni tuzish uchun xizmat qiluvchi axborotlar tizimini yaratish;

- bank ish kuni tartibiga qat'iy rioya qilish, mijozlarga tez va aniq xizmat ko'rsatish;

- hisob-kitoblardagi mablag'lar aylanishini tezlashtirish;

- bankdan chiqayotgan hujjatlarni tegishli tarzda rasmiylashtirish va buning natijasida ulardan foydalanishni osonlashtirish, shuningdek, boshqa banklarda ushbu hujjatlar bilan operatsiyalar bajarilishini hamda ular tomonidan xizmat ko'rsatuvchi mijozlarning operatsiyalari hisobini yuritishni belgilangan talablarga muvofiqlashtirishni tashkil etish;


- bankdagi pul mablagʻlari, moddiy qimmatliklar, shuningdek, qatʻiy hisobda turuvchi blanklar kamomadi yoki ortiqchaligiga yoʻl qoʻymaslik hamda ularning saqlanishini belgilangan tartibda tashkil etish;

- operatsiyalarning qonuniyligi hamda toʻgʻriligini doimiy ravishda ichki nazorat va auditdan oʻtkazish, ularning natijalari boʻyicha maʼlumotnomalar tuzish va rasmiylashtirish imkoniyatini yaratish;

- zamonaviy kompyuter texnikasi vositalaridan foydalangan holda bank operatsiyalari hisobini dasturiy amalga oshirish, hisob ishlarini yuritish hamda hisobotlar tuzishda mehnat va mablagʻ sarfini qisqartirish.

Banklarda belgilangan operatsiyalarni amalga oshirish, rasmiylashtirish, hisobini yuritish va nazorat qilish toʻgʻrisidagi talablar barcha banklar uchun majburiy boʻlib, ular belgilangan asosiy qoidalar doirasida oʻzlarining ish xususiyatlarini hisobga olgan holda ichki buxgalteriya hujjatlarini yuritish tartibini belgilashlari mumkin.

Bank tomonidan hisob siyosatini shakllantirish va amalga oshirish masalalari murakkab va masʼuliyatli boʻlganligi sababli koʻp hollarda mol – mulk, majburiyatlar va xoʻjalik operatsiyalarini buxgalteriya hisobiga olishda xato va chalkashliklarga yoʻl qoʻyiladi. Toʻgʻri tanlangan va asoslangan hisob siyosati buxgalteriya hisobining barcha – tashkiliy, metodik va texnikaviy elementlarini qamrab oladi.



4.1- rasm. **Bank hisob siyosatini ishlab chiqish maqsadi**

Banklarda bank hisob siyosati qonuniy belgilanganligi va ushbu jarayonning asosiy elementlari mavjudligi quyidagilar bilan aniqlanadi:

- bankning hisob siyosati to'g'risidagi buyrug'ining mavjudligi;

- buxgalteriya hisobining ishchi schyotlari rejasi;

- ichki buxgalteriya hisoboti uchun birlamchi hujjatlar shakllari ro'yxati;

- hujjatlar aylanishi qoidalari va hisob axborotining qayta ishlanishi texnologiyasi;

- bank hisob siyosati to'g'risidagi buyrug'iga ayrim ko'rsatkichlar bo'yicha tasdiqlangan uslublar va boshqa ilovalar;

- bankning hisob siyosatiga doir ma'lumotlarni ochib beradigan tushuntirish xati;

- buxgalteriya hisobini yuritishning oldingi yillardan farq qiladigan, hisob siyosatini shakllantirishda tanlangan uslublar;

- hisobot sanasidan keyingi voqealar va xo'jalik faoliyatining shartli faktlari, bitta aksiyaga to'g'ri keladigan foyda haqidagi qo'shimcha ma'lumotlar bazasi mavjudligi.

Hisob siyosatining uslubiy jihatida bank muassasasi buxgalteriyasida hisob yuritish jarayonida qo'llaniladigan buxgalteriya hisobining asosiy tamoyillari va uslubiy qoidalari aks ettiriladi. Respublikamiz banklari faoliyatini tartibga soluvchi qonuniy va me'yoriy hujjatlarda banklarning daromadlari va xarajatlarini soliq bazasiga qo'shiladigan va qo'shilmaydigan guruhlarga ajratilishi ham byudjet bilan bo'ladigan hisob – kitoblarda u yoki bu variantni mustaqil tanlash imkoniyatini beradi. Hisob siyosatining metodologik jihatda byudjet bilan bo'ladigan hisob – kitoblarning quyidagi masalalari o'z aksini topgan:

- foyda (daromad) solig'i bo'yicha byudjet bilan hisob – kitoblar davrini belgilash;

- qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha byudjet bilan hisob – kitob variantlarini aniqlash;

- kredit operatsiyalari hisobining soliq jihatlari;

- qimmatli qog'ozlar operatsiyalari hisobining soliq jihatlari;

- valyuta operatsiyalari hisobining soliq jihatlari.

Hisob siyosatining metodologik jihati aks ettiriladigan buxgalteriya hisobining asosiy tamoyillari va uslubiy qoidalarini hisob siyosatida shakllantirishda quyidagi asosiy masalalarni yechimlari ko'rsatilishi zarur:

- asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar bo'yicha amortizatsiya hisoblash tartibi;

- asosiy vositalar va arzon baholi tez eskiruvchan buyumlarni chegaralash;

- bank faoliyati uchun zarur bo'lgan materiallar va bank anjomlarini sotib olish, saqlash va ularni hisobdan chiqarish tartibi;

- bank faoliyati bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarni hisobga olish va tan olish tartibini belgilash;

- asosiy vositalarni ta'mirlashni moliyalashtirish va uni hisobga olish tartibi;

- kelgusi davr sarflarini qoplash muddatlari;

- kelgusidagi to'lovlar va xarajatlar uchun zaxiralar;

- qaytarilishi mavhum bo'lgan qarzarlar bo'yicha zaxiralar;

- bank faoliyatidan olinadigan daromadlarni tan olish tartibi;

- kelgusi davr daromadlarini hisobga olish va tan olish tartibi;

- sof foydani aniqlash va taqsimlash tartibi;

- dividendlarni hisoblash va to'lash tartibini belgilash va hisobda aks ettirish;

- berilgan va olingan kreditlar bo'yicha foizlarni hisoblash, to'lash va ularni hisobda aks ettirish;

- olingan kreditlarni baholash tartibi.

Hisob siyosati tashkiliy jihatdan bank muassasasida tashkil qilingan buxgalteriya xizmatining tashkiliy shakllari, buxgalteriya xizmatining tarkibi va hisobning markazlashtirilgan darajasi, bank bo'linmalarini alohida balansga ajratish va ichki nazoratni tashkil qilish masalalarini o'z ichiga oladi. Hisob siyosatining texnik jihati esa quyidagi masalalarni o'z ichiga oladi:

- markaziy bank tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan schyotlar rejasi asosida ishlab chiqilgan ishchi schyotlar rejasi;
- dastlabki hujjatlarning hisob shakllaridan foydalanish tartibi;
- buxgalteriya hisobida hujjatlar aylanishi va ularni qayta ishlash tartibi;
- mulk va majburiyatlarni inventarizatsiya qilish.

Banklarda hisob siyosatini shakllantirishning tashkiliy jihatida bankda tashkil qilinadigan buxgalteriya xizmatining tuzilishi va tarkibi aniqlangan va ularning lavozimi bo'yicha huquqlari, burchlari va majburiyatlari belgilangan. "Buxgalteriya hisob to'g'risida"gi qonunga muvofiq, bank boshqaruvchisi bosh buxgalter lavozimiga tayinlanadigan shaxs nomzodini bankning yuqori tashkiloti rahbariyatiga tavsiya qiladi. Bank rahbari bank buxgalteriyasining normal ishlashi uchun yetarli sharoit yaratilishi uchun javobgar hisoblanadi. Bosh buxgalter buxgalteriya apparatiga rahbarlik qiladi va hisob-kitoblarning aniqligiga, to'g'riligiga va o'z vaqtida bajarilishiga javobgar hisoblanadi. Shuningdek, hisob siyosatining tashkiliy jihatida bank buxgalteriyasining ish grafigi ham ko'rsatiladi. Unda buxgalteriya xodimlarining ish kuni taqsimlanishi, ish kunlari mobaynida kelib tushgan hisob-kitob pul hujjatlarini o'z vaqtida qabul qilish, qayta ishlash, buxgalteriya hisobi schyotlarida aks ettirish va kundalik balansni belgilangan vaqtga tuzishini inobatga olgan holda amalga oshiriladi.

Ish kunini taqsimlashda bank o'z mijozlariga xizmat ko'rsatish vaqtini aniq belgilab qo'yadi. Har bir bank bo'linmalari mijozlarga xizmat ko'rsatish grafigini mustaqil belgilaydi. Milliy bankda amalga oshirilgan operatsiyalarning qonuniyligini nazorat qilish bankda tashkil qilingan ichki nazorat xodimlari orqali amalga oshiriladi.

Banklarda hisob siyosatining texnik jihatidagi asosiy masalalardan biri Markaziy bank tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan schyotlar rejasi asosida ishchi schyotlar rejasini ishlab chiqish hisoblanadi. Ammo ishchi

schyotlar rejasini ishlab chiqishda bank faqat ikkinchi tartibli schyotlar ro'yxatiga o'zgartirish kiritishga haqli va ularning ro'yxatini keltirishi zarur. Ikkinchi tartibdagi yangi ish schyotlarini kiritishda avvalo, bankda bajariladigan operatsiyalarning iqtisodiy mazmunini hisobga olgan holda bank operatsiyalarini buxgalteriya hisobi schyotlarida hisobga olishning usuli va uslubiy tamoyillariga amal qilinadi. Milliy bankda buxgalteriya hisobini tashkil etish, bank operatsiyalarini amalga oshirishda qonun hujjatlariga rioya qilinishi uchun bank rahbari javobgar hisoblanadi.

Bank hisob siyosatining soliq tizimi bank muassasasida sodir bo'lgan xo'jalik jarayonlarining soliqlarni hisoblash metodikasi va ular bo'yicha byudjet bilan amalga oshiriladigan hisob-kitob masalalarini o'z ichiga oladi. Yuqorida aytib o'tilganidek, hisob siyosatining u yoki bu elementlarini belgilashda ularning soliqlar sohasidagi oqibatlarini ham oldindan ko'ra bilishi kerak. Hisob siyosatining soliq tizimida, daromad solig'i va qo'shilgan qiymat solig'i singari soliqlar bo'yicha byudjet bilan hisob-kitob qilish varianti bank tomonidan qonunda belgilangan normaga asoslanib, mustaqil tanlanadi va o'z hisob siyosatida belgilab qo'yiladi. Bank hisob siyosatining yana bir muhim soliq tizimi bankning barcha xarajatlarini (daromadlarini) soliqqa tortish maqsadlarida hisobga olinuvchi xarajatlarga (daromadlarga) ajratishdir.

O'zbekiston Respublikasi Davlat Soliq qo'mitasi tasdiqlagan Yo'riqnomaga muvofiq, har bir tashkilot yoki banklar (byudjet tashkilotlari va kichik korxonalardan tashqari) daromad solig'i to'lashning davriyligini o'zlari tanlash huquqiga egadirlar: har oyda, kechi bilan hisobot oyidan keyingi oyning 20 - kunigacha, amalda olingan daromaddan kelib chiqib yoki bo'lmasa har chorakda, har oyda avans (bo'nak) to'lovlarini amalga oshirish yo'li bilan. Byudjetga daromad solig'i to'lash tartibi bank tomonidan belgilanadi va bu tartib kalendar yilining oxirigacha o'zgarishsiz amal qiladi. Bu holatlar bank hisob siyosatida nazarda tutilishi lozim. Daromad solig'ini har oyda to'lash Davlat soliq inspeksiyasiga har oyda "Amalda olingan



daromad hisob-kitobi” va “Hisob-kitoblar”da aks ettirilgan ma’lumotlar haqida ma’lumotnoma, binobarin, “Daromad va xarajatlar haqida hisobot” taqdim etishni ham nazarda tutadi. Bu holda moliyaviy natijalarni ham har oyda shakllantirish nazarda tutilishi lozim. Daromad solig’ini chorakda, har oyda avans to’lovlarini amalga oshirish yo’li bilan to’lash har chorakda amalda olingan daromad bilan avans to’lovlari o’rtasidagi tafovutni byudjetga to’lashni ham nazarda tutadi. Bu esa, tabiiyki, bank aylanma vositalaridan qo’shimcha ajratmalar qilishni talab etadi va hisobot tuzishda ish hajmini kamaytiradi. Daromad solig’ini har chorakda to’lash haqida qaror qabul qilingan holda moliyaviy natijalarni ham har chorakda shakllantirish nazarda tutilishi lozim.

Banklarning qimmatli qog’ozlari qiymatini aniqlash usullaridan birini o’z hisob siyosatida belgilab qo’yishi lozimligi yuqorida aytib o’tildi. Ammo soliq organlari bu masalada boshqacha fikrda bo’lishi mumkin, shuning uchun ham qimmatli qog’ozlar qiymatini aniqlash usulini hisob siyosatida belgilashdan oldin soliq idoralari bilan kelishib olgan ma’qul. Bank portfelidagi qimmatli qog’ozlarni realizatsiya qilish operatsiyalarini soliq hisobiga olishda katta o’zgarishlar ro’y berdi, ya’ni:

- qimmatli qog’ozlar, fyuchers va opsiyon kontraktlarini realizatsiya qilishdan ko’rilgan zararlar qimmatli qog’ozlar bozorining barcha ishtirokchilarida qabul qilinishi belgilab qo’yiladi;

- tashkil etilgan qimmatli qog’ozlar bozorida ishtirok etuvchi barcha aksiyalar va obligatsiyalar bo’yicha ko’rilgan zararlar ularning bozor bahosi doirasida tan olinadi;

- qimmatli qog’ozlar, fyuchers va opsiyon kontraktlarini realizatsiya qilish natijasi realizatsiya narxi bilan xarid narxi o’rtasidagi tafovut tarzida aniqlanib, bunda ularni sotib olish va sotish xarajatlari hisobga olinadi. Demak, natijani aniqlashda qayta baholash hisobga olinmaydi, bu esa daromad solig’i bo’yicha soliqqa tortiluvchi asosga qo’shimcha tuzatish kiritishni talab etadi.

Bank faoliyatida pul mablag'larining harakati va ularning manbalari haqida ma'lumotlarni yig'ishda buxgalteriya hisobi katta rol o'ynaydi. Buxgalteriya hisobi ma'lumotlaridan foydalangan holda bankning aktiv va passiv operatsiyalari rejalashtiriladi. Moliyaviy hisobotlarning natijasi bankning moliyaviy holatini ko'rsatadi va bank rahbarining bank ishini rivojlantirishda aniq chora - tadbirlar ishlab chiqishiga sharoit yaratadi. Qabul qilingan siyosat asosida tadbirlarni amalga oshirish mexanizmi yaratiladi, bu faoliyat bank xodimlarining kundalik ish jarayonlarida hamda operatsiyalarni buxgalteriya hisobida aks ettirishda o'z ifodasini topadi.

#### **4.3. Banklarda hisob siyosatini shakllantirishda MHXSning roli va ahamiyati**

Respublikamiz banklarida hisob siyosatini shakllantirish va unga amal qilishda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari, jumladan "Hisob siyosatlari, hisoblab chiqilgan baholardagi o'zgarishlar va xatolar" nomli 8-son MHXSning o'z o'rnini va ahamiyati kattadir. Sababi, mazkur standartda belgilangan qoidalar va ko'rsatmalarga muvofiq, banklar o'z hisob siyosatini ishlab chiqishi mumkin bo'ladi. Albatta, ushbu xalqaro standartlarda belgilangan talablar va me'yorlar tavsiya ko'rinishga ega bo'lib, jahondagi har bir mamlakat o'zining milliy xususiyatlaridan kelib chiqqan holda umumdavlat yoki tarmoq miqiyosida hisob siyosatini yaratadi.

Bugungi kunda MHXSlarini qo'llash yuzasidan mamlakatlar uch toifaga ajratiladi: MHXSlarini to'g'ridan to'g'ri tan oladigan va qabul qiladigan mamlakatlar, MHXS asosida o'zining milliy standartlarini ishlab chiqadigan mamlakatlar hamda MHXSni tan olmaydigan mamlakatlar. O'zbekiston MHXS asosida o'zining milliy buxgalteriya qoidalarini ishlab chiqadigan mamlakatlar qatoriga kiritiladi. Lekin ushbu standartlar (Buxgalteriya hisobining milliy standartlari - BHMS) bank tizimi uchun tatbiq etilmaydi. Natijada respublika bank tizimidagi buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotlar xalqaro

standartlar talablariga to'liq muvofiqlashtirilmoqda. Jumladan, Respublikamizda buxgalteriya hisobini MHXSlariga muvofiqlashtirish bo'yicha quyidagi tashkilot va muassasalarda ijobiy ishlar amalga oshirib kelinmoqda:

- O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi;
- O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi;
- O'zbekiston Respublikasi Soliq qo'mitasi;
- O'zbekiston Banklar assotsiatsiyasi;
- O'zbekiston Buxgalterlar va auditorlar assotsiatsiyasi;
- O'zbekiston Buxgalterlar federatsiyasi.

Shuningdek, respublikamizda faoliyat yuritib kelayotgan "katta to'rtlik" deb nom olgan xalqaro auditorlik tashkilotlari (Deloitte, PwC, EY) tomonidan ham xalqaro standartlar talablari asosida moliyaviy hisobotlarni shakllantirishga katta hissa qo'shib kelinmoqda.

Respublikamiz bank tizimida hisob va moliyaviy hisobotni MHXSga moslashtirish va banklarning yuqori reyting ko'rsatkichlariga erishishlari maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov tomonidan 2010-yil 26-noyabrda "2011-2015 yillarda Respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida"gi 1438-sonli qaror qabul qilindi. Ushbu qarorda tijorat banklarida hisob-kitob ishlarini yuritish va moliyaviy hisobotlarni tuzishda yangicha yondashuvlarni shakllantirish hamda zamonaviy texnologiyalar va uslublarning joriy qilinishi, moliya-bank axboroti saviyasi va sifatini oshirish, yetakchi xalqaro reyting talablaridan keng ko'lamda foydalanishni ta'minlash vazifasi qo'yilgan edi.

O'tgan yillar davomida ushbu belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash borasida qator ijobiy ishlar amalga oshirilib kelinmoqda. Jumladan, 2014-yilda bank tizimida buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotni MHXSga to'liq moslashtirish borasida quyidagi vazifalar belgilagan:

- banklar tomonidan moliyaviy hisobotlarni taqdim qilish bo'yicha amaldagi yo'riqnomalarni MHXSga mos ravishda takomillashtirish;

- MHXSni joriy etish va qo'llash bo'yicha bank xodimlarini qayta tayyorlash;

- respublika buxgalteriya hisobi va hisobotini yuritishga asos bo'lgan barcha qonun hujjatlarini, shu jumladan, Markaziy bankning bank tizimiga oid me'yoriy hujjatlarini har tomonlama tahlil qilish;

-MHXSga mos ravishda yangi me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish;

- MHXS talablariga mos bo'lgan Bank avtomatlashtirilgan tizimini Tashqi auditorlik tashkilotlarining sertifikatiga ega bo'lgan xodimlar bilan hamkorlikda yangilash bo'yicha tavsiyalarni tayyorlash.

Banklarda buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotlarni MHXSga muvofiqlashtirish jarayonlari o'tgan asrning 90-chi yillariga borib taqaladi. Ushbu yillar davomida Markaziy bank tomonidan bosqichma-bosqich o'tish tamoyillari qo'llanildi. Jumladan:

*1-bosqich;* Jahon banki bilan hamkorlikda MHXSga mos bo'lgan Markaziy bank va tijorat banklari uchun alohida hisobvaraqlar rejasi ishlab chiqildi (1994-1997 yillar);


*2-bosqich;* AQShning USAID xalqaro tashkiloti bilan Markaziy bank o'rtasidagi Memorandumga asosan MHXSga mos bo'lgan 20 dan ortiq me'yoriy hujjatlar ishlab chiqildi (2003-2010 yillar);

*3-bosqich;* O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimovning 2010 yil 26 noyabrdagi "2011-2015 yillarda Respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida"gi 1438-sonli qaroriga asosan MHXSga o'tishni yanada takomillashtirish vazifasi belgilangan (2010 yildan keyingi davrlar).

O'zbekistonda MHXSni bank tizimiga joriy etish asosan, transformatsiyalash usuli bo'yicha amalga oshirilmoqda.

Mazkur usulga ko'ra, milliy standartlar yoki me'yoriy hujjatlar asosida tayyorlangan moliyaviy hisobotlarga tuzatishlar kiritilib, MHXSga muvofiqlashtirildi. Mazkur usul sodda (oddiy) va qiymati jihatidan arzonroq (qulay)

hisoblanadi. Biroq yil oxiriga kelib, to'plangan moliyaviy hisobot ma'lumotlarini MHXSGa o'girish jarayonida ularning shaffofligi va ishonchlilik darajasiga hech kim kafolat bera olmaydi.



#### 4.2-rasm. **Banklarda hisob siyosatini tuzish tartibi**

Banklar o'z hisob siyosatlarini tuzishda avvalo, MHXS qoidalari hamda Markaziy bank tomonidan ishlab chiqilayotgan barcha qonun-qoidalarni o'rganib chiqib, o'z hisob siyosatlarini tuzishlari va ushbu hisob siyosatlarida tanlangan yo'lni aniq ko'rsatishlari kerak.

Banklar tomonidan ishlab chiqilayotgan hisob siyosati xalqaro standartda belgilangan maqsadlarni o'z ichiga olishi lozim. Hisob siyosati bo'yicha standartning maqsadi, hisob siyosatini tanlash va o'zgartirish uchun mezonlarni o'rnatish hamda hisob siyosatidagi o'zgarishlar, hisoblab chiqilgan baholardagi o'zgarishlar va xatolarni tuzatishni hisobga olish tartibini va ularga tegishli ochib beriladigan ma'lumotlarni belgilashdan iboratligi ko'rsatilgan. Ushbu 8-son MHXS banklarning moliyaviy hisobotlarida aks ettirilgan axborotning o'rinliligi va ishonchliligi hamda bu moliyaviy hisobotlarning davrlararo va boshqa banklarning moliyaviy hisobotlari bilan qiyoslanuvchanligini oshirishga qaratilgan.

Banklarning hisob siyosatini tuzish amaliyotini tahlili, uni shakllantirish jarayonida ayrim muammolar ham mavjudligini ko'rsatmoqda. Banklarda hisob siyosatini tuzishda bankning barcha bo'linmalari ishtirok etishlari, bo'limlardagi har bir mutaxassisning qonunchilikdan kelib chiqqan holda fikrlarini tinglash, muhokama qilish va ovozga qo'yish lozim. Har bir xodim hisob siyosatini qay tartibda tuzilganligidan xabardor bo'lishi va buni ish jarayonida qo'llay olishi lozim.

Bankning hisob siyosatini tuzishda buxgalteriya bo'limi tomonidan berilgan Hisob siyosati loyihasi muhokamaga qo'yilishi va uni tasdiqlash ko'zda tutilgan, lekin bankning boshqa bo'limlari, jumladan, kredit bo'limi, pul muomalasi bo'limi va boshqa bo'limlar loyihasi hisob siyosatini tuzishda ishtirok etmaydi. Hisob siyosatini ishlab chiqish jarayonini optimal tashkil qilinishi bankning amaliy faoliyati samarasini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Agar ushbu muammo ijobiy hal qilinmasa, tijorat banklari hisob siyosatini shakllantirishda va unga amal qilishda muammolar vujudga kelishi muqarrar. Bu esa banklar faoliyatini samarali boshqarish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar to'plamini vujudga keltirish imkoniyatlari cheklanishiga olib keladi. Shu sababli ham ayrim banklarda ba'zan mol-mulk, majburiyatlar va xo'jalik operatsiyalarini buxgalteriya hisobiga olishda xato va chalkashliklarga yo'l qo'yilmoqda. Hisob siyosatini shakllantirishda uni asoslash va to'g'ri tanlash hamda uning tashkiliy uslub va texnikaviy elementlarini takomillashtirish zarur.

MHXSga muvofiq bank rahbariyati mazkur standart talablariga javob beruvchi moliyaviy hisobotni olib boruvchi tegishli hisob siyosatini tanlashi maqsadga muvofiq. Agar ularda maxsus talablar mavjud bo'lmasa, hisob siyosatini tanlash va amalga oshirishda hisob ma'lumotlarining o'rinliligi, aniqligi, mazmunning shakldan ustunligi, betarafligi, muhimligi va ehtiyotkorlik singari qoidalarga amalga qilish tavsiya etiladi. Muayyan xalqaro standart va talqin qilish bo'yicha Muntazam komitetning tushuntirishlari bo'lmagan hollarda bank tashkiloti

rahbariyati moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilarni eng foydali ma'lumotlar bilan ta'minlaydigan hisob siyosatini ishlab chiqishda o'z tartib-qoidalaridan kelib chiqadilar.

MHXS buxgalteriyaning muhim tarkibiy qismidir, shuning uchun ham mazkur standart buxgalteriya hisobining moliyaviy hisobot tayyorlash jarayonida amal qilish lozim bo'lgan bir nechta asosiy qoidalarni taklif etadi. Bu qoidalar ko'pgina mamlakatlarda qo'llaniladi va buxgalteriya hisobi amaliyotida foydalanish uchun maqbul deb e'tirof etilgan. Bank tashkiloti moliyaviy hisobotga berilgan izohda o'z hisob siyosatining manfaatdor foydalanuvchilar moliyaviy hisobotini baholashi va qarorlar qabul qilishiga jiddiy ta'sir etuvchi qoidalarini ochib berishi kerak.

Audit banklar hisob siyosatining tashkiliy-texnikaviy jihatida ko'riladigan masalalar, ya'ni bank operatsiyalari, olib boriladigan hisob-kitoblarni takomillashtirish bugungi kunda tijorat banklarining rivojlanishida katta o'rin egallaydi. O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarini audit qiluvchi tashkilotlar zimmasiga tijorat bankini auditorlik tekshiruvdan o'tkazish jarayonida buxgalteriya hisobi va hisobotining ahvolini o'rganish majburiyatini yuklaydi.

Tekshiruvni rejalashtirish va o'tkazish jarayonida auditor tekshirilayotgan tijorat bankidagi buxgalteriya hisobi tizimini tushunib yetishi lozim. Buxgalteriya hisobi tizimi bilan tanishish hisob siyosati va buxgalteriya hisobini yuritishning asosiy qoidalari, buxgalteriya hisobini yuritish va buxgalteriya hisobotini tayyorlash uchun mas'ul bo'linmaning tashkiliy tuzilmasi, hisobni yuritish va hisobotni tayyorlashda ishtirok etuvchi xodimlar o'rtasida majburiyatlarning taqsimlanishi, bank tomonidan amalga oshirilgan operatsiyalar aks ettirilgan hujjatlarni tayyorlash, ularning aylanishi va saqlanishini tashkil etish, amalga oshirilgan operatsiyalarni buxgalteriya hisobi registrlarida aks ettirish tartibi, bunday registrlardagi ma'lumotlarni umumlashtirish shakllari va usullari, buxgalteriya hisobi ma'lumotlari asosida davriy buxgalteriya hisobotlarini tayyorlash tartibi, hisobni yuritish va hisobotlar tayyorlashda hisoblash texnikasining

roli va ahamiyati, hisobga olish tizimining alohida uchastkalarida nazarda tutilgan nazorat vositalari haqidagi ma'lumotlarni o'rganish, tahlildan o'tkazish va baholashni o'z ichiga oladi. Boshlang'ich hisob hujjatlarida operatsiyalarning hisob va hisobot uchun muhim detallari aks ettirilgan, barcha operatsiyalar buxgalteriya hisobida to'g'ri davrda, tegishli buxgalteriya hisobi hisobvaraqlarida, amaldagi me'yoriy hujjatlarga va bankda qabul qilingan hisob siyosatiga muvofiq qayd etilgan, firibgarlik holatlarining paydo bo'lishi imkoniyatlari cheklangan bo'lsa, buxgalteriya hisobi tizimi samarali deb topiladi.

Banklarning hisob siyosatini shakllantirishda qo'llanma bo'ladigan uslubiyot asoslarini puxta ishlab chiqish zarur, jumladan banklarning hisob siyosati tanlashda ta'sir etuvchi omillarni belgilab olish va hisob siyosatini tarkibini takomillashtirish muhim.

Banklarning hisob siyosatini samarali shakllanishida hamda uni amalga oshirishda axborot ta'minoti muhim o'rin egallaydi. Unga jiddiy yondashuv talab qilinadi, chunki bugungi kunning talabi o'z vaqtida ma'lumotlarni olish, ulardan barcha soha faoliyatida umumli foydalanish hisoblanadi. MHXSga muvofiq, axborot ta'minotini avtomatlashtirish bank faoliyatida axboratlardan tezkor samarali foydalanishga olib keladi.

Banklarda avtomatlashtirilgan axborot ta'minoti mavjudligi ularning raqobatbardoshligini oshirishga, ichki nazorat tizimi kuchayishiga, bankning moliyaviy holatini mustahkamlashga samarali mexanizm bo'lib xizmat qiladi. Hisob siyosatini shakllantirishda sifati yuqori bo'lgan ma'lumot ta'minotidan foydalanish ushbu siyosatning yuritishda, jumladan hisob amaliyotida yuz berayotgan ijobiy va salbiy o'zgarishlarni o'z vaqtida inobatga olish va kerakli chora-tadbirlarni qo'llash uchun yaxshi imkoniyat yaratib beradi.

Banklarning hisob siyosatini tanlash axborot ta'minoti asosida amalga oshiriladi, bunda hisob analitik ta'minoti tizimining markaziy bo'g'ini sifatida namoyon bo'ladi. Hisob siyosatini tanlash jarayoni axborot ta'minoti buxgalteriya va statistik hisob ma'lumotlari, turli marketing



axborotlarini o'z ichiga oladi. Banklar hisob siyosatining shakllanishida axborot ta'minotining asosini birinchi navbatda, buxgalteriya hisobi ma'lumotlari tashkil etadi. Buxgalteriya hisobi va boshqaruv qarorlari qabul qilishdagi uzviy bog'liqlik aynan shu bilan belgilanadi, chunki boshqarish uchun boshqa omillar bilan bir qatorda, zarur axborotlarga ega bo'lish talab etiladi. Bunda tadqiq etilayotgan axborot, tahliliy jihatdan qayta ishlash yo'li bilan o'zgartiriladi.

Keng ma'noda bank hisob siyosatini tanlashning axborot ta'minoti deganda, axborot resurslari va ulardan foydalanish usullarining yaxlitligi tushuniladi. Banklar hisob siyosatini tanlashda foydalaniladigan axborot uchun qo'yiladigan vazifani hal etish talablariga mos kelish mezonini muhimdir.

Texnologik nuqtai nazardan banklar buxgalteriya hisobini amal qilish tizimi ma'lumotlarini uzluksiz ravishda umumlashtirish jarayoni sifatida namoyon bo'ladi. Bunda buxgalteriya ma'lumotlarini umumlashtirishning oqilona darajasini topish muhim ahamiyat kasb etadi. Agar ma'lumotlarni umumlashtirish darajasi past bo'lsa, buxgalteriya hisobi tizimidagi ma'lumotlar aylanmasini bir tizimdan chiqishi va boshqara olinmasligiga olib kelsa, hisobot ma'lumotlari yuqori darajada umumlashtirilsa, ularni analitik va axborotlilik darajasining keskin kamayishi yuz beradi.

Lekin axborot bazasining bugungi holati bozor iqtisodiyoti talablariga to'laqonli javob bermayapti, bu esa banklari hisob siyosatini tanlashdagi hisob ta'minoti jarayonida undan foydalanishni murakkablashtirmoqda. Buxgalteriya hisobining milliy tizimi samarali moliyaviy va boshqaruv hamda iqtisodiy tahlil maqsadlariga to'liq moslashtirilmagan. Shuning uchun buxgalteriya hisobining axborot ma'lumotlari qator hollarda bankning haqiqatdagi moliyaviy holatini baholash imkonini beradi. Ular asosida hisoblangan ko'rsatkichlardan qisqa vaqt ichida foydalaniladi va u yetarli darajada tezkorlik kasb etmaydi.

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida bank hisob siyosatini tanlashning analitik jihatidan asoslash

uchun nafaqat hisob, balki, hisobdan tashqari ma'lumotlardan foydalanish ham maqsadga muvofiq. Banklarda hisob siyosatini ishlab chiqishda quyidagi jihatlarga ham e'tibor qaratish mumkin bo'ladi:

- hisob-kitoblarni o'z vaqtida va to'liq bo'lishini ta'minlash;

- balans ma'lumotlarining aniqligi va ishonchliligini ta'minlash;

- bank operatsiyalari samaradorligiga ko'maklashish;

- hisob yuritish siyosatiga rioya etish qoidalarini belgilash.

Hisob va hisobot ma'lumotlari, shuningdek, qo'shimcha axborot ma'lumotlarini baholash va izohlashda har bir muayyan tijorat banki uchun maqbul bo'lgan hisob siyosatini tanlash jarayoni va uning axborot ta'minoti asos bo'lib xizmat qiladi.

Kompyuter texnikasidan foydalanish bilan birga, texnik va dasturiy vositalar tijorat banki hisob siyosatini tanlash jarayonida hisob ta'minotining muhim tashkil etuvchisidir. Ular axborot ma'lumotlarini o'z vaqtida yig'ilishi va qayta ishlanishini ta'minlaydi, tijorat bankining moliyaviy-xo'jalik faoliyati va turli rivojlanish yo'llaridan foydalanilishi ko'zda tutilgan hisob siyosatini tanlashni kompyuter rejimida modellashtirish imkonini beradi. Kompyuter texnologiyalari yordamida haqiqatdagi ko'rsatkichlarning rejadagidan chiqib ketishini avtomatik tarzda aniqlash va strategik vazifalarga erishish maqsadida ularning tahlilini amalga oshirish mumkin. Shuningdek, buxgalteriya hisobini kompyuterlashganlik darajasi samarali hisob siyosatini shakllanish jarayoniga katta ta'sir ko'rsatadi. O'z navbatida, avtomatlashtirish usulida axborotlarni qayta ishlash tijorat bankining hisob siyosatida belgilab qo'yiladi.

Bank hisob siyosatini shakllantirishda ma'lumotni muhofaza qilish masalasi muhim hisoblanadi. Avtomatlashtirilgan axborot ta'minoti bir tomondan, ma'lumotlarni o'z vaqtida olish, ishlatish va qayta ishlash imkonini yaratsada, ikkinchi tomondan, ma'lumotlarning nolegal foydalanuvchilarga tushib qolish xatari mavjud. Axborot resurslari toifalari bo'yicha hamma erkin

foydalanishi mumkin bo'lgan axborot resurslariga va foydalanilishi cheklab qo'yilgan axborot resurslariga bo'linadi. Cheklanmagan doiradagi foydalanuvchilar uchun mo'ljallangan axborot resurslari hamma erkin foydalanishi mumkin bo'lgan axborot resurslaridir. Bank hisob siyosatini ishlab chiqishning pirovard maqsadi, boshqaruv hisobi va tahlilning samarali, integratsiyalashgan tizimini yaratishdan iborat.

*ATB “O‘zsanoatqurilishbank”ning Hisob siyosati  
(namuna)*

*1-bo‘lim Umumiy qoidalar.* Buxgalteriya hisobi siyosati O‘zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi va “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi Qonunlari, “Tijorat banklarining ichki me‘yoriy hujjatlariga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risida”gi (ro‘yxat raqami: 916, 2000-yil 5-aprel), “Tijorat banklarida korporativ boshqaruv to‘g‘risida”gi (ro‘yxat raqami: 943, 2000-yil 5-iyun), “Banklarning hisob siyosati va moliyaviy hisobotlari to‘g‘risida”gi (ro‘yxat raqami: 1270, 2003-yil 3-sentyabr), “Tijorat banklari tomonidan jamlanma moliyaviy hisobotlarni tuzish va taqdim etish tartibi to‘g‘risida”gi (ro‘yxat raqami: 1445, 2005-yil 18-yanvar) Nizomlarga, Moliyaviy Hisobotning xalqaro Standartlari (MHXS) va boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarga muvofiq ishlab chiqilgan.

O‘zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunining 41-moddasiga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki banklarda buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobot qoidalarini o‘rnatadi. O‘zbekiston Respublikasi banklarida buxgalteriya hisobi va hisobotining asosi bo‘lib O‘zbekiston Respublikasining “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi Qonuni va moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (keyingi matnda - MHXS) hisoblanadi. Banklar tomonidan nashr qilinadigan moliyaviy hisobot, shuningdek buxgalteriya hisobi va hisoboti jarayonida banklar tomonidan foydalaniladigan asosiy tamoyillar (qoidalar), konsepsiyalar va ta‘riflar O‘zbekiston Respublikasining “Buxgalteriya

hisobi to'g'risida"gi qonuniga va MHXSga muvofiq bo'lishi shart.

Buxgalteriya hisobiga asos bo'luvchi tamoyillari maqsadlarini amalga oshirish uchun Bank Kengashi, Bank Boshqaruvi, Bankning Buxgalteriya hisobi va hisoboti departamenti va Ichki auditi departamentining aniq majburiyatlari belgilangan.

Buxgalteriya hisobining maqsadi iqtisodiy qarorlarni qabul qilish uchun foydalanuvchilarni o'z vaqtida to'liq hamda aniq moliyaviy va boshqa buxgalteriya axboroti bilan ta'minlashdir

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2004-yil 25-oktyabrda 1419-son bilan ro'yxatga olingan "O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan tijorat banklarining chop etiladigan yillik moliyaviy hisobotlariga qo'yiladigan talablar to'g'risida Nizom"ga muvofiq chop etiladigan moliyaviy hisobotlarning quyidagi shakllar belgilangan:

- a) jamlanma balans hisoboti;
- b) foyda va zararlar to'g'risida jamlanma hisobot;
- d) pul mablag'larining harakati to'g'risida jamlanma hisobot;
- e) aksiyadorlik kapitalidagi o'zgarishlar to'g'risida jamlanma hisobot;
- f) asosiy hisob siyosatlari va tushuntiruvchi izohlar.

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 21.01.2004 yilda 1301-son bilan ro'yxatga olingan "Tijorat banklarida moliyaviy hisobotlaridagi xatolarni tuzatish tartibi to'g'risida"gi Nizomga asosan bankning moliyaviy hisobotlaridagi xatolarni tuzatish Markaziy bankning me'yoriy hujjatlari va MHXSga muvofiq amalga oshiriladi.

Ushbu tartib faqat Bosh bank tomonidan taqdim etilayotgan moliyaviy hisobotlarga qo'llanadi. O'zbekiston Respublikasi "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonunining 11-moddasiga muvofiq har yili buxgalteriya hisobida va hisobotlarida aks ettirilgan ma'lumotlarning to'g'riligi va ishonchliligini tekshirish uchun aktivlar va majburiyatlar yo'qlamadan o'tkaziladi.

Yo'qlamadan o'tkazish 19-sonli O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobi Milliy standartining "Inventarizatsiyani tashkil etish va o'tkazish" talablariga muvofiq o'tkaziladi.

*2-bo'lim. Ichki nazoratni shakllantirish.* Bank operatsiyalarining ichki nazorati – bank rahbariyati va barcha bank xodimlari tomonidan kunlik bank operatsiyalarini amalga oshirish jarayonida ularning qonunchilikka mosligi, samaradorligi, yuqori malakada bajarilishi va moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini ta'minlash tizimi;

Ichki nazorat dastlabki nazorat, joriy nazorat va yakuniy nazoratga bo'linadi. Bank, buxgalteriya hujjatlari, blankalari, muhrlari va shtamplarini qat'iy tarzda saqlanishini ta'minlashi shart.

Buxgalteriya hujjatlarini, blankalari, muhrlari va shtamplarini saqlashni to'g'ri tashkillashtirilishi va o'rnatilgan tartibga amal qilinishi uchun javobgarlik banklarning rahbarlari va bosh hisobchilari zimmasiga yuklatiladi.

*3-bo'lim. Maxsus funksiyalar.* Berilgan yoki olingan kreditlar va ular bo'yicha foizli daromadlar yoki xarajatlarni hisobga olish O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi tomonidan 2004-yil 13-avgustda 773-17-son bilan ro'yxatga olingan "O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida buxgalteriya hisobi hisobvaraqlari Rejasi"ga hamda Adliya Vazirligi tomonidan 2004-yil 17-dekabrda 1435-son bilan ro'yxatga olingan "Tijorat banklarida kreditlarning buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Nizomga muvofiq amalga oshiriladi. Lizing operatsiyalari hisobi "Tijorat banklarida lizing operatsiyalarini amalga oshirish va ularning buxgalteriya hisobini yuritish tartibi to'g'risida"gi Nizomga (ro'yxat raqami 1648, 2006-yil 27-dekabr) asosan amalga oshiriladi.

Bank tomonidan faktoring operatsiyalari O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2000-yil 3-avgustda 953-son bilan ro'yxatga olingan "O'zbekiston Respublikasida tijorat banklari tomonidan faktoring

operatsiyalarini amalga oshirish tartibi to'g'risida"gi Nizom asosida amalga oshiriladi.

Asosiy vositalarni qayta baholash Adliya Vazirligida 2002-yil 4-dekabrda 1192-son bilan ro'yxatga olingan "1-yanvar holati bo'yicha asosiy fondlarni har yili qayta baholashni o'tkazish tartibi to'g'risida nizom"ga asosan amalga oshiriladi.

Talab qilib olinguncha, jamg'arma, muddatli va boshqa depozit hisobvaraqlarini ochish "O'zbekiston Respublikasi banklarida ochiladigan bank hisobvaraqlari to'g'risida"gi yo'riqnomaga "O'zbekiston Respublikasi banklarida depozit operatsiyalarini amalga oshirish tartibi tugrisida"gi yo'riqnomaga muvofiq tartibga solinadi.

Banklar ustav kapitalining eng kam miqdori O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankning me'yoriy hujjatlariga muvofiq belgilanadi.

### **Nazorat savollari va topshiriqlar**

1. Hisob siyosatining mazmuni nimadan iborat?
2. Hisob siyosatining konseptual asoslarida nimalar ko'rsatiladi.
3. Hisob siyosatidagi o'zgarishlar moliyaviy hisobot taqdim etishning o'tgan davriga jiddiy ta'sir qilgan hollarda banklar tushuntirishlarida qanday axborotni yoritib berishi talab etiladi?
4. Fundamental xatolarning mohiyatini tushuntirib bering.
5. Bank balansida yil boshiga taqsimlanmagan foydaning qoldig'idagi fundamental xatolari aks ettirilganda qanday axborotlar ochib berilishi lozim?
6. Moliyaviy natijalar to'g'risidagi avvalgi davrlar hisobotlarida yo'l qo'yilgan xatolarni tuzatishda aniqlangan summa moliyaviy natijalarning qaysi moddasiga kiritiladi?

## **V BOB. BANKLARDA MOLIYAVIY AKTIVLARNI MHXSLARI ASOSIDA HISOBGA OLISH**

### **5.1. Banklarda moliyaviy aktivlar tushunchasi, ularni turkumlash va baholash tartibi**

O'zbekiston bank tizimida moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS)ni qo'llanishidan asosiy maqsad, mamlakatda qabul qilingan hisob, hisobot va audit qoidalarini xalqaro standart talablariga moslashtirish hisobiga bank tizimi faoliyatining shaffofligi va oshkoraligini ta'minlashdir. Mutaxassislarning fikricha, bank tizimida MHXSni muvaffaqiyatli qo'llash barcha moliya muassasalarida buxgalteriya hisobining xalqaro standartlarini faol joriy etishga ko'maklashadi. Bank tizimida MHXSni qo'llash banklar tomonidan ham nazorat maqsadida, ham boshqaruv maqsadlarini ko'zlab, ishonchli moliyaviy axborot berishini ta'minlashi lozim. O'zbekiston tijorat banklarida MHXSni qo'llashda o'z hisob axboroti tizimini (avvalo boshqaruv maqsadidagi hisobni va ichki nazoratni) takomillashtirish uchun imkoniyat paydo bo'ladi. Shuni ta'kidlash mumkinki, moliyaviy aktivlar hisobini tashkil etishda xalqaro qoidalari ham ishlab chiqilgan. Masalan, 32-MHXS "Moliyaviy vositalar: oshkor qilish va taqdim qilish", 39-MHXS - "Moliyaviy vositalar: tan olish va baholash" va 7 - "Pul mablag'lari harakati to'g'risidagi hisobot" deb nomlangan standartlarni misol tariqasida keltirish mumkin.

MHXS-39 standart pul mablag'lari yoki boshqa moliyaviy vositalar bilan sof asosda yoki moliyaviy vositalarni ayirboshlash orqali, shartnomalar moliyaviy vositalar bo'lganidek, hisob-kitob qilinishi mumkin bo'lgan nomoliyaviy moddani sotib olish yoki sotish shartnomalari uchun qo'llanilishi mumkin bo'ladi.

Ushbu standartda quyidagi operatsiyalarda foydalaniladi:

- hisobdan chiqarish;
- derivativ;

- ulushli vosita;
- haqqoniy qiymat;
- moliyaviy aktiv;
- moliyaviy kafolat shartnomasi;
- moliyaviy vosita;
- moliyaviy majburiyat va ushbu ta'riflarni qo'llash bo'yicha qo'llanma.

Xalqaro standartga muvofiq, moliyaviy aktivlarni tan olish va baholashga tegishli ta'riflar quyidagilardan iborat.

Moliyaviy aktiv yoki moliyaviy majburiyatning amortizatsiyalangan qiymati - bu moliyaviy aktiv yoki moliyaviy majburiyatning dastlab tan olinganda baholangan qiymati minus asosiy qarz to'lovlari, plus yoki minus samarali foiz stavkasini qo'llagan holda boshlang'ich qiymat bilan so'ndirish qiymati orasidagi aniqlangan har qanday farqning yig'ilgan amortizatsiyasi hamda minus qadrsizlanish yoki umidsiz qarzlarni bo'yicha har qanday kamayish summasi (bevosita yoki rezerv hisobvarag'idan foydalangan holda).

Samarali foiz usuli - bu moliyaviy aktiv yoki moliyaviy majburiyatning (yoki moliyaviy aktivlar yoki moliyaviy majburiyatlar guruhining) amortizatsiyalangan qiymatini hisoblash va foizli daromad yoki foizli xarajatni tegishli davrda taqsimlashdir.

Samarali foiz stavkasi- bu moliyaviy vositaning kutilgan xizmat muddati yoki o'rinli bo'lganda, qisqaroq muddat davomida baholangan kelgusi pul to'lovlari yoki tushumlarini moliyaviy aktiv yoki moliyaviy majburiyatning sof balans qiymatigacha mutlaqo to'g'ri diskontlaydigan foiz stavkasi. Samarali foiz stavkasini hisoblashda, tadbirkorlik subyekti moliyaviy vosita shartnomasining barcha shartlarini (masalan, oldindan to'lov, "koll" va shunga o'xshash opsionlarni) inobatga olgan holda pul oqimlarini baholashi, ammo kelgusi kredit zararlarini e'tiborga olmasligi lozim. Hisoblash shartnoma tomonlari o'rtasida to'langan yoki olingan hamda samarali foiz stavkasining ajralmas qismi hisoblanadigan barcha haqlar va yig'implarni, bitimga doir xarajatlarni va boshqa barcha mukofotlar yoki diskontlarni qamrab oladi. Bunda shunday



faraz mavjudki, pul oqimlari va o'xshash moliyaviy vositalar guruhining kutilgan xizmat muddati ishonchli baholanadi. Biroq, pul oqimlarini yoki moliyaviy vositaning (moliyaviy vositalar guruhining) kutilgan xizmat muddatini ishonchli baholash imkoni bo'lmagan ayrim holatlarda, tadbirkorlik subyekti moliyaviy vositaning (moliyaviy vositalar guruhining) to'liq shartnomaviy muddati davomidagi shartnomaviy pul oqimlaridan foydalanishi lozim.

Bitimga oid xarajatlar - bu moliyaviy aktiv yoki moliyaviy majburiyatning xaridi, emissiyasi yoki chiqib ketishi bilan bevosita bog'liq qo'shimcha xarajatlardir.

Qo'shimcha xarajat bu agar tadbirkorlik subyekti moliyaviy vositani sotib olmaganda, emissiya qilmaganda yoki chiqib ketishini amalga oshirmaganda sarflanmaydigan xarajattir.

Xej hisobiga tegishli ta'riflar esa quyidagilarni o'z ichiga oladi:

*Qat'iy kelishuv* - belgilangan kelgusi sana yoki sanalarda belgilangan narxda resurslarning belgilangan miqdorining almashinuvi bo'yicha majburiyat yuklaydigan kelishuv.

*Rejalashtirilgan operatsiya* - majburiy bo'lmagan, ammo kutilgan kelgusi operatsiyadir.

*Xejlash instrumenti* - belgilangan derivativ yoki (faqat xorijiy valyuta kursidagi o'zgarish riskining xedji uchun) belgilangan no-derivativ moliyaviy aktiv yoki belgilangan noderivativ moliyaviy majburiyat bo'lib, ularning haqqoniy qiymati va pul oqimlari belgilangan xejlangan moddaning haqqoniy qiymatidagi yoki pul oqimlaridagi o'zgarishlarni qoplashi kutiladi.

*Xejlangan modda* - aktiv, majburiyat, qat'iy kelishuv, yuqori ehtimolli rejalashtirilgan operatsiya yoki xorijdagi bo'linmaga sof investitsiya bo'lib, bunda u tadbirkorlik subyektini haqqoniy qiymatdagi yoki pul oqimlaridagi o'zgarishlar riskiga duchor etadi va xejlanadigan sifatida belgilanadi.

MHXS-39dan foydalanib, moliyaviy aktivlar va majburiyatlarni tavsiflaydigan bir qancha belgilarni ajratib

ko'rsatish mumkin. Masalan, majburiyat hozirgi paytda mavjud bo'lsa va xo'jalik faoliyatining oldingi faktlari oqibati bo'lsa; bo'lajak to'lovlarning zarurligi bilan bog'liq bo'lsa, u kreditorlik qarzi hisoblanadi va uni bajarish muddati ko'rsatilgan bo'lsa ham, hozirgi paytda bajarilishi kerak.

MHXS-39da moliyaviy vositalar keyinchalik ulardan banklar qanday foydalanishiga qarab, quyidagi yirik guruhlariga bo'lingan:

- sotish uchun mo'ljallangan moliyaviy aktivlar va majburiyatlar;

- bank tomonidan berilgan qarzarlar va debitorlik qarzlari to'langunga qadar ushlab turiladigan investitsiyalar;

- sotish uchun mavjud bo'lgan naqd moliyaviy aktivlar.

Bunday tasnif aktivlarni va majburiyatlarni ularning turlariga qarab chegaralashga imkon beradi, lekin qarzlarni to'lash muddatlari bo'yicha bir turdan ikkinchisiga o'tishi (gradatsiyasi) ko'zda tutilmagan.

MHXS-7 "Pul mablag'larining harakati to'g'risidagi hisobot" deb nomlangan bo'lib, moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilarning barcha toifasiga, xususan, tijorat banklarining pul mablag'lariga bo'lgan talabini, pul mablag'lari va unga tenglashtirilgan ekvivalentlarni yaratish imkoniyatini baholashga yordam beradi. Bundan tashqari, foydalanuvchilarga pul oqimlarini yaratishning vaqti va aniqligi zarurdir.

Shu bois, MHXS-7dan tijorat banklari yillik moliyaviy hisobot tuzish va tayyorlashlarda foydalanishga majbur. Chunki, uning maqsadi, ushbu nomdagi hisobotda pul mablag'lari va unga tenglashtirilgan mablag'lar summalarining o'zgarishi haqidagi axborotni taqdim etishdan iborat. Standartga muvofiq, pul mablag'lari harakati quyidagi uch yo'nalishda: operatsion, investitsion va moliyaviy faoliyatga bo'lib, tasniflanadi. Moliyaviy hisobotning boshqa shakllaridan pul mablag'lari harakati to'g'risidagi hisobotning farqi shundaki, unda foydalanuvchilarga quyidagilarni baholashga yordam beriladi:

1. Bank sof aktivlarining o'zgarishi;

2. Bank moliyaviy strukturasi o'zgarishi (jumladan, likvidlilik va to'lov qobiliyati);

Bank kreditlari, odatda moliyaviy faoliyatga kiritiladi. Biroq, bir qator davlatlarda bank overdraftlari (talab bo'yicha to'lovlar)ga tashkilot pul oqimlarini boshqarishda uning ajralmas bir bo'lagi sifatida qaraladi hamda pul mablag'lari va uning ekvivalentlari tarkibiga kiritiladi. Bunday bank schyotlarining o'ziga xos xususiyati, uning debetidagi summaning kreditiga nisbatan tez o'zgarishidir.

Pul mablag'larining harakati to'g'risidagi hisobot har qanday moliyaviy muassasa hisob tizimining muhim qismi hisoblanadi. Buyuk Britaniya va AQSh buxgalteriya hisobi majburiy qoidalarida ana shunday hisobot tuzish talab qilinadi. Mamlakatimizda ham O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan tijorat banklariga shu talab qo'yilgan. Ma'lumki, barcha banklar moliyaviy hisobotning asosiy shakllari, ya'ni buxgalteriya balansini hamda foyda va zararlar to'g'risidagi hisobotni to'ldiradi. U biror bank pulni qanday olganligi va bu mablag' qanday maqsadlarga sarflanganligini ko'rsatadi. Bankning moliyaviy hisobotidan foydalanuvchilar o'sha hisobot yordamida unga talab qandayligini, to'lov qobiliyatini, moliyaviy ahvolini va qancha foyda keltirishini baholash imkoniyatiga ega bo'ladilar

Bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlardagi iqtisodiy subyektlar faoliyatini chuqur integrallashib ketgan investitsion faoliyatisiz tassavur etib bo'lmaydi. Bugungi kunda investitsiya (moliya) bozori nafaqat bir mamlakat doirasida, balki jahon iqtisodiyoti subyektlari bilan chambarchas holda rivojlanib, trans-milliy shaklini egallab ulgurgan. Har bir subyekt boshqa bir subyektga investitsiya kiritib, investor bo'lishi, o'z o'rnida esa aynan shu subyekt faoliyati boshqa subyektlar uchun investitsiya obyekti bo'lib xizmat qilishi mumkin. Investitsiyalar iqtisodiy manfaat olish maqsadida ma'lum davr mobaynida qaysidir manbaga sarmoya kapital qo'yish hisoblanadi.

Tijorat banklari investitsiyalarni turli sabablar bilan amalga oshiradi. Ba'zida yil mobaynida bank joriy majburiyatlarni to'lash uchun zarur bo'lgandan ko'proq pul

mablag'lariga ega bo'lishi mumkin. Pul mablag'larini aylantirishga yo'naltirish, ayniqsa yuqori foiz stavkalari qo'llanilishi davrida foyda keltirishini hisobga olib, bank ortiqcha pullarni muddatli depozitlarga, depozit sertifikatlarga, davlatning boshqa qimmatli qog'ozlarga qo'yishi mumkin. Bunday omonatlar qisqa muddatli investitsiyalar yoki bozorda aylanadigan qimmatli qog'ozlar deb ataladi, ularni aylanma mablag'lar sifatida joriy majburiyatlarni to'lash maqsadida ishlatish mumkin.

Ayrim banklar uchun investitsiyaviy faoliyat ularning faoliyatini muhim tarkibiy qismi va korxonalar faoliyati natijalarini baholash yuqori darajada yoki umuman, investitsiyaviy faoliyat natijalariga bog'liq bo'lishi mumkin. Ba'zi banklar me'yordan ortiq mablag'lar zaxiralari sifatida saqlash uchun qimmatli qog'ozlarga ega bo'lishi mumkin, boshqalari esa - savdo investitsiyalarini o'zaro tijorat munosabatlarini mustahkamlash yoki tijorat ustunligiga ega bo'lish uchun saqlaydi.

Bank ixtiyorida bo'lgan barcha qimmatli qog'ozlarni majmui investitsiyaviy portfel deyiladi. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga (MHXS) muvofiq, xo'jalik subyektlari o'z balanslarida investitsiyalarni joriy va uzoq muddatli investitsiyalarga turkumlashadi.

So'nggi o'n yillikda moliyaviy vositalar ham son, ham sifat jihatdan sezilarli darajada o'sib, uning xatar (risk)lar bilan bog'liq yangi murakkab turlari vujudga kelmoqda. Fikrimizning dalili sifatida hosilaviy vositalarni misol keltirishimiz mumkin. Bu so'zsiz investitsiya vositalarining investitsion bozor ishtirokchilari moliyaviy holati o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar ichida ahamiyati o'sib borayotganligidan dalolat beradi.

Ma'lumki, moliyaviy hisobotlar tuzishning asosiy maqsadi iqtisodiy subyektning moliyaviy holati va undagi o'zgarishlarni hamda uning moliyaviy natijalarini to'g'ri va haqqoniy aks ettirishdan iboratdir. Moliyaviy vositalarning iqtisodiy subyektlarning moliyaviy holatiga ta'sirini to'g'ri aniqlash maqsadida Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari qo'mitasi (MHXSQ) tomonidan, moliyaviy vositalarning murakkabligini hisobga olgan holda birdaniga

ikkita: “Moliyaviy vositalar: ma’lumotlarni taqdim qilish va oshkor qilish” bo’yicha MHXS-32 va “Moliyaviy vositalar: tan olish va baholash” bo’yicha MHXS-39 standartlar ishlab chiqilgan.

Agar, MHXS-32 moliyaviy vositalarni hisobotlarda tan olishning ayrim jihatlari, bozor xatarlar riskini boshqarish moliyaviy vositalarni o‘zaro muvofiqlashtirish va ularni oshkor qilish bo’yicha qo‘yiladigan umumiy talablar bilan bog‘liq masalalarni o‘zida yoritisa, 39- MHXS esa moliyaviy vositalarning haqqoniy qiymati bo’yicha tan olish, ularni keyinchalik baholash va ularni hisobotlarda aks ettirishni to‘xtatish hamda xedjirlash kabi murakkabroq bo‘lgan masalalarni o‘z ichiga olgan. Har ikkala standartning ham maqsadi moliyaviy vositalarni tan olish qoidalarini belgilashdan iboratdir.

Moliyaviy vositalarning hisobiga bag‘ishlangan mazkur MHXS-32 va MHXS-39lar doimiy ravishda takomillashtirilib borilmoqda. Jumladan, 2005-yil ularga qo‘shimcha ravishda yangi - IFRS-7 standarti ishlab chiqilib, 2007-yilning 1-yanvaridan amalga joriy etilgan.

Yangi 7-sonli xalqaro standartda har bir moliyaviy vositaning bozor o‘zgarishlariga bo‘lgan ta’sirchanlik darajasi tahlili natijalarini oshkor qilish talabi qo‘yilgan. Masalan, joriy yilda kreditlarning bozor foiz stavkasi 2%ga o‘zgarishi ehtimoli mavjud bo‘lsa, foiz stavkasining bunday o‘zgarishi aktivning haqqoniy qiymatiga, foyda va zararlar hisobotiga ta’sir darajasi tahlil qilinib, uning natijasi oshkor qilinishi lozim.

Mazkur moliyaviy operatsiyalar moliyaviy bozorlarda ularning ishtirokchilari tomonidan shartnomalar asosida amalga oshiriladi. Shartnoma ishtirokchilarining birida moliyaviy aktivlar vujudga kelsa, ikkinchi ishtirokchida esa moliyaviy majburiyat yuzaga keladi. Bir tarafda moliyaviy aktiv, ikkinchi tarafda esa moliyaviy majburiyat yuzaga keladigan shartnomalar asosida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlar moliyaviy vositalar (instrumentlar) deyiladi.

Moliyaviy vositalar o‘z ichiga debitor va kreditor qarzdorliklar, ulushli qimmatli qog‘ozlar kabi bazisli

vositalar bilan bir qatorda, forvard, fyuchers, opsiya, varrant va svop singari hosilaviy vositalarni ham oladi. Hosilaviy vositalar balansga kirim qilinishi yoki qilinmasligidan qat'iy nazar, ular moliyaviy vositalar ta'rifiga mos kelganligi sababli, moliyaviy hisobotlarda moliyaviy vositalar sifatida muhokama qilinishi lozim.

Moliyaviy vositalar – bir xo'jalik yurituvchi subyektda moliyaviy aktivning va boshqa bir xo'jalik yurituvchi subyektda esa moliyaviy majburiyat yoki ulushli vositalarning paydo bo'lishiga olib keluvchi har qanday shartnomadir.

Hosilaviy vositalarda ishtirokchilar moliyaviy vositalarni keyinchalik yetkazib berish va hisob-kitoblarni amalga oshirish shartlari asosida bitim tuzishadi. Bunda ikkita mezon inobatga olinishi lozim:

1. Shartnoma tuzish sanasi.
2. Hisob-kitob (to'lov) sanasi.

Albatta, bu yerda shartnoma so'zi iqtisodiy munosabatlarning yuridik shaklini anglatadi. Lekin bu faqat shartnoma shartlaridan kelib chiqadigan sof yuridik oqibatlarga e'tibor qaratib, masalaga faqat yuridik tus berish degani emas. Aksincha, shartnoma shartlari uning ishtirokchilar tomonidan albatta, bajariladi yoki uning ijrosi muqarrar ekanligini tan olgan holda vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlar sifatida qaralishi lozim.

Moliyaviy vositani to'laroq va aniq tushunish uchun uning elementlariga, ya'ni moliyaviy aktiv, moliyaviy majburiyat va ulushli vositalarga tushuncha berilishi lozim.

Moliyaviy aktiv – naqd pul mablag'lari, shartnomadan kelib chiqib, boshqa xo'jalik subyektlaridan pul mablag'larini yoki moliyaviy aktivlarni olish va almashtirish huquqi hamda boshqa xo'jalik yurituvchi subyektning ulushli vositalari.

Moliyaviy aktivlar quyidagi shakllarda bo'ladi:

1. Moliyaviy aktivning pul moddalari – tasarrufdagi (egallik huquqidagi) pul mablag'lari, shuningdek, qayd qilingan yoki o'rnatilgan miqdordagi pul mablag'lari summasida olinishi lozim bo'lgan aktivlar va majburiyat.

Barcha moliyaviy aktivlar ham pul moddalari bo'lmaydi.

Valyuta (pul mablag'lari) — bu ayirboshlash vositasi bo'lganligi uchun, moliyaviy hisobotda barcha bitimlarni baholash va taqdim etish asosi bo'ladigan moliyaviy aktivdir. Bankdagi yoki boshqa moliyaviy muassasadagi pul depoziti moliyaviy aktiv hisoblanadi, chunki u ushbu muassasadan pulni olish yoki chek yozib berish yoxud kreditor foydasiga moliyaviy majburiyatni qoplash yuzasidan hisobvaraqlar qoldig'iga pul qo'yuvchining shartnomaviy huquqini ifodalaydi.

2. Shartnomadan kelib chiqib, pul mablag'larini yoki moliyaviy aktivlarni olish huquqi. Kelgusida shartnoma bo'yicha pul mablag'larini olish huquqini ifodalaydigan moliyaviy aktivlarning, shuningdek, shartnoma bo'yicha kelgusida to'lovni amalga oshirishni ko'zda tutgan moliyaviy majburiyatlarni umumiy misollariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- a) savdo operatsiyalari bo'yicha debitorlik qarzdorliklari;
- b) olinadigan veksellar;
- d) olinadigan zaymlar bo'yicha qarzdorlik;
- e) olinadigan obligatsiyalar bo'yicha qarzdorlik summalari.

Har bir holatda shartnomada ko'zda tutilgan pul mablag'larini talab etish huquqi (yoki to'lov bo'yicha majburiyatlar) bir tomondan, to'lov bo'yicha tegishli majburiyat bilan boshqa tomondan, pul mablag'larini **olish huquqi** bilan ta'minlanadi.

Zaxiralar, asosiy vositalar, shuningdek, patentlar va savdo rusumlari kabi nomoddiy aktivlar moddiy aktivlar, moliyaviy aktivlar deb hisoblanmaydi. Bunday moddiy va nomoddiy aktivlar olib boriladigan nazorat pul mablag'lari va boshqa aktivlarni tushumini ta'minlash imkoniyatini yaratadi, biroq pul mablag'lari va boshqa moliyaviy aktivlarni olish uchun haqiqiy huquqni paydo bo'lishiga olib kelmaydi.

Shuningdek, kelgusida iqtisodiy naf olish uchun tovarlar va xizmatlarni xarid qilish bo'yicha yuzaga kelgan kelgusi davr xarajatlari kabi aktivlar, pul mablag'lari va

boshqa moliyaviy aktivlarni olish uchun huquqdan farqli ravishda moliyaviy aktivlar deb hisoblanmaydi.

Moliyaviy aktivlar uch toifaga bo'linadi:

- 1) oldi-sotdi qimmatli qog'ozlari;
- 2) so'ndirish muddatigacha saqlanadigan qarz qimmatli qog'ozlariga qilingan investitsiyalar;
- 3) sotish uchun mavjud qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalar.

Oldi-sotdi qimmatli qog'ozlari haqqoniy qiymati o'zgarishi foyda va zararlarda aks ettiriluvchi savdoga mo'ljallangan qimmatli qog'ozlar va bank balans hisobotida dastlabki tan olishda "oldi-sotdi qimmatli qog'ozlari" deb tasniflangan moliyaviy aktivlarni o'z ichiga oladi.

Binobarin, oldi-sotdi qimmatli qog'ozlari toifasida tasniflangan moliyaviy aktivlarning 2ta ichki turi mavjud.

Moliyaviy aktiv yaqin kelajakda bevosita sotish maqsadida olingan bo'lsa yoki moliyaviy aktivlar portfeli tarkibiga kiritilgan bo'lib, bunda bank tomonidan bitta guruh singari boshqarilsa va yaqinda qisqa muddatli foyda ko'rishning haqiqiy belgilari kuzatilsa, u savdoga mo'ljallangan aktivlar singari tasniflanadi.

Bank biror-bir boshqa qimmatli qog'ozlarni sotib olishda, ularning hisobini haqqoniy qiymati bo'yicha yuritish maqsadida bo'lib, haqqoniy qiymatini ishonchli aniqlash mumkin bo'lsa va haqqoniy qiymatidagi o'zgarishini foyda va zararlar to'g'risidagi hisobotda aks ettirish maqsadida bo'lsa, bank ularni "oldi-sotdi qimmatli qog'ozlari" toifasida tasniflashi mumkin. Bunda bankning ushbu qarori keyinchalik o'zgarmasligi lozim.

So'ndirish muddatigacha saqlanadigan qarz qimmatli qog'ozlari qayd qilingan yoki o'rnatilgan miqdordagi to'lovlar va qayd qilingan to'lash muddatiga ega bo'lgan moliyaviy aktivlar bo'lib, bunda bank ularni so'ndirish muddatigacha saqlash maqsadi va imkoniyatiga ega bo'lishi lozim.

Banklar faqat so'ndirish muddatigacha saqlash maqsadi va imkoniyati mavjud bo'lsagina, qarz vositalarini "so'ndirish muddatigacha saqlanadigan" toifada tasniflashi lozim.

Banklar ulushli vositalarni "so'ndirish muddatigacha



saqlanadigan” toifada tasniflamasligi lozim. Chunki, ulushli vositalar to‘lash muddatiga ega bo‘lmaydilar.

Banklar joriy yoki o‘tgan ikki moliyaviy yil davomida katta miqdordagi so‘ndirish muddatigacha saqlanadigan qimmatli qog‘ozlarni qoplash muddati kelgunga qadar sotgan yoki qayta tasniflagan bo‘lsa, ularga ushbu moliyaviy aktivlarni “so‘ndirish muddatigacha saqlanadigan” toifada tasniflash taqiqlanadi. Ammo, quyidagi holatlar bundan mustasno:

1) moliyaviy aktivning so‘ndirish sanasiga qadar oz vaqt qolganda amalga oshirilsa. Chunki bozor foiz stavkasining o‘zgarishi mazkur moliyaviy aktivning qolgan so‘ndirish muddatigacha bo‘lgan davr davomida uning haqqoniy qiymatiga sezilarli ta’sir qilmagan bo‘lishi mumkin;

2) bank rejalashtirilgan to‘lovlar asosida dastlabki asosiy qarz summasini to‘la undirgandan keyin amalga oshirsa;

3) bank tomonidan oldindan ogohlantirishlar bo‘yicha bankka bog‘liq bo‘lmagan va favqulodda xarakterga ega bo‘lgan muhim hodisalar sababli hech qanday asosli harakat qila olmagan holda amalga oshirsa.

Banklar “oldi-sotdi qimmatli qog‘ozlari” yoki “so‘ndirish muddatigacha saqlanadigan” toifalarda tasniflanmagan barcha moliyaviy aktivlarni “sotish uchun mavjud” qimmatli qog‘ozlar toifasida tasniflashlari lozim.

Banklar moliyaviy aktivni bir toifadan boshqa bir toifaga o‘tkazishda (misol uchun, “sotish uchun mavjud” toifadan “so‘ndirish muddatigacha saqlanadigan” toifaga) ushbu aktiv yangi turdagi hisobvaraqda aks ettiriladi.

## **5.2. Banklarda moliyaviy aktivlarning buxgalteriya hisobini tashkil etish va yurtish**

Banklar tomonidan qimmatli qog‘ozlarni xarid qilish bo‘yicha yuzaga keladigan buxgalteriya hisobi “Tijorat banklarida qimmatli qog‘ozlar bilan amalga oshiriladigan operatsiyalarning buxgalteriya hisobi to‘g‘risida” Nizom asosida amalga oshirilmoqda. Mazkur Nizom, tijorat banklarining barcha qimmatli qog‘ozlar bo‘yicha yuzaga

keladigan operatsiyalarining buxgalteriya hisobini yuritish tartibini belgilab, moliyaviy aktivlar ham, moliyaviy majburiyatlar ham, shuningdek, bank kapitali bilan bog'liq operatsiyalarni ham o'z ichiga olgan unversal hujjat hisoblangan. Bugungi kunda esa, moliyaviy aktiv sifatida yuzaga keladigan qimmatli qog'ozlar bilan amalga oshiriladigan operatsiyalar bo'yicha alohida me'yoriy hujjat zarurligi ma'lum bo'lmoqda.

Bundan tashqari, ushbu Nizom amalga kiritilgandan so'ng moliyaviy aktivlarning xalqaro standartlar asosida buxgalteriya hisobini yuritish bo'yicha juda katta o'zgarishlar ro'y bergan. Xususan, moliyaviy aktivlar 2001-yilgacha asosan ikki toifada tasniflangan bo'lsa, hozirgi kunda ular uch toifada tasniflanmoqda. Shuningdek, moliyaviy aktivlarning dastlabki tan olish, keyinchalik ushbu aktivlar bo'yicha yuzaga keladigan hodisalarni baholash, hisobdan chiqarish hamda ularni moliyaviy hisobotlarda aks ettirish bo'yicha katta o'zgartirishlar kiritilgan.

Shu sababli, 2004 yilda "Tijorat banklarida buxgalteriya hisobining hisobvaraqlar rejasi" (Ro'yxat raqami 773-17, 2004-yil 13-avgust)ni qayta ishlab chiqishda bu masalalar hisobga olingan holda, moliyaviy aktivlarning buxgalteriya hisobini MHXSga mos ravishda yuritish uchun zarur hisobvaraqlar kiritilgan edi.

Kreditlarning buxgalteriya hisobini MHXSga asosan yuritish bo'yicha "Banklarda kreditlarning buxgalteriya hisobini yuritish tartib to'g'risida Nizom" ishlab chiqilib 2004-yil 27-dekabrda Adliya vazirligida 1435-son bilan davlat ro'yxatiga olingan. Bank kapitali buxgalteriya hisobini yuritish bo'yicha ham alohida me'yoriy hujjat loyihasi tayyorlangan.

Ma'lumki, tijorat banklari investitsiya bozorining eng aktiv ishtirokchilari hisoblanadi. Banklar kapitalini shakllantiruvchi aksiyalar, shuningdek, banklar qo'shimcha resurs topish uchun emissiya qiladigan obligatsiya, veksel va boshqa qimmatli qog'ozlar moliyaviy bozorlarda sotiladi. Bundan tashqari, qimmatli qog'ozlarni

xarid qilish, sotish va ularni ushlab turish bankning asosiy daromad manbaiga aylanib bormoqda.

Tijorat banklarining moliyaviy aktivlar bilan operatsiyalari boshqa iqtisodiy subyektlar tomonidan bajarilayotgan operatsiyalardan birmuncha farq qilganligi hamda moliyaviy vositalar bo'yicha operatsiyalarni tartibga soluvchi boshqa me'yoriy hujjatlar bo'lmaganligi sababli, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan "O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida moliyaviy aktivlarning buxgalteriya hisobini yuritish tartibi to'g'risida Nizom" (Ro'yxat raqami 1528, 2005-yil 30-noyabr) ishlab chiqilgan.

Ushbu Nizom O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida", "Banklar va bank faoliyati to'g'risida" va "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi qonunlari asosida ishlab chiqilgan bo'lib, u O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida (keyinchalik matnda "banklar") moliyaviy aktivlarning buxgalteriya hisobini Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga muvofiq holda yuritish tartibini belgilaydi.

Mazkur Nizom talablari bankning o'z aksiyalariga, kredit hamda olinishi lozim bo'lgan mablag'lar hisobvaraqlariga, shuningdek, qimmatli qog'ozlarning hosilalariga nisbatan qo'llanilmaydi.

"Tijorat banklarida qimmatli qog'ozlar bilan amalga oshiriladigan operatsiyalarning buxgalteriya hisobi to'g'risida Nizom" (Ro'yxat raqami 1885, 2009- yil 19-yanvar).

Tijorat banklarida oldi-sotdi qimmatli qog'ozlari haqqoniy qiymati o'zgarishi foyda va zararlarda aks ettiriluvchi savdoga mo'ljallangan qimmatli qog'ozlar va bank balans hisobotida dastlabki tan olishda "oldi-sotdi qimmatli qog'ozlari" deb tasniflangan moliyaviy aktivlarni o'z ichiga oladi Binobarin, oldi-sotdi qimmatli qog'ozlari toifasida tasniflangan moliyaviy aktivlarning 2ta ichki turi mavjud.

Moliyaviy aktiv yaqin kelajakda bevosita sotish maqsadida olingan bo'lsa yoki moliyaviy aktivlar portfeli tarkibiga kiritilgan bo'lib, bunda bank tomonidan bitta

guruh singari boshqarilsa va yaqinda qisqa muddatli foyda ko'rishning haqiqiy belgilari kuzatilsa, u savdoga mo'ljallangan aktivlar singari tasniflanadi.

Bank biror-bir boshqa qimmatli qog'ozlarni sotib olishda, ularning hisobini haqqoniy qiymati bo'yicha yuritish maqsadida bo'lib, haqqoniy qiymatini ishonchli aniqlash mumkin bo'lsa va haqqoniy qiymatidagi o'zgarishini foyda va zararlar to'g'risidagi hisobotda aks ettirish maqsadida bo'lsa, bank ularni "oldi-sotdi qimmatli qog'ozlari" toifasida tasniflashi mumkin. Bunda bankning ushbu qarori keyinchalik o'zgarmasligi lozim.

So'ndirish muddatigacha saqlanadigan qarz qimmatli qog'ozlari - bu qayd qilingan yoki o'rnatilgan miqdordagi to'lovlar va qayd qilingan to'lash muddatiga ega bo'lgan moliyaviy aktivlardir. Banklar faqat so'ndirish muddatigacha saqlash maqsadi va imkoniyati mavjud bo'lsagina, qarz vositalarni "so'ndirish muddatigacha saqlanadigan" toifada tasniflashi lozim. Banklar ulushli vositalarni "so'ndirish muddatigacha saqlanadigan" toifada tasniflamasligi lozim. Chunki, ulushli vositalar to'lash muddatiga ega bo'lmaydilar.

Sotish uchun mavjud qimmatli qog'ozlar – bular, sotish uchun bank tassarufida mavjud bo'lgan va bank tomonidan "so'ndirish muddatigacha saqlanadigan qimmatli qog'ozlar" va "oldi-sotdi qimmatli qog'ozlari" deb tasniflanmagan, shuningdek, haqqoniy qiymati o'zgarishini bank kapital hisobvarag'ida aks ettirish maqsadida bo'lgan moliyaviy aktivlardir.

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, bank moliyaviy vosita bo'yicha shartnoma shartlari tatbiq etiladigan tomonlardan biri bo'lgandagina, moliyaviy aktiv bank tomonidan balans hisobotida tan olinadi. Banklar moliyaviy aktivni balans hisobotida bitim sanasi bo'yicha yuritiladigan hisobdan kelib chiqqan holda tan olishlari lozim. Moliyaviy aktiv ham, aktiv uchun to'lov majburiyati ham bitim sanasi bo'yicha aks ettiriladi.

Banklar sotib olingan moliyaviy aktivni dastlabki tan olishda uning haqiqatdagi qiymatini aks ettirgan haqqoniy qiymati bo'yicha baholaydilar.

Sotish uchun mavjud yoki soʻndirish muddatigacha saqlanadigan qimmatli qogʻozlar deb tasniflangan moliyaviy aktivlar boʻyicha ularni sotib olish bilan bevosita bogʻliq boʻlgan barcha xarajatlar ham aktiv sifatida aks ettiriladi va qimmatli qogʻozning “amortizatsiya qiymati”ga kiritiladi.

“Oldi-sotdi qimmatli qogʻozlari” sifatida tasniflangan moliyaviy aktivlarni sotib olish bilan bogʻliq xarajatlar bankning joriy xarajati sifatida tan olinib, foyda va zararlar hisobotida aks ettiriladi.

Moliyaviy aktivning amortizatsiyalanadigan qiymati – aktivning balans hisobotda dastlabki tan olingandagi baholangan summasi (yaʼni aktivning hisobvaraqdagi aks ettirilgan summasi, plus/minus mukofot/diskont hisobvaragʻidagi aks ettirilgan summa, plus aktivning sotib olish uchun ketgan xarajatlarning hisobvaraqdagi summasi, plus har qanday sotib olingan, olinishi lozim boʻlgan va alohida olinishi lozim boʻlgan hisoblangan foizlar hisobvaragʻida aks ettirilgan hisoblangan foizlar), minus toʻlangan asosiy qarz summasi, plus/minus real foiz stavkasi metodini qoʻllash bilan mukofot/diskontlarning yigʻilgan amortizatsiya summasi va minus sotib olish uchun ketgan xarajatlar amortizatsiyasi va minus koʻrilishi mumkin boʻlgan zararlarni qoplash zaxirasidir.

Sotib olingan, olinishi lozim boʻlgan foizlar – qarz qimmatli qogʻozlar boʻyicha har qanday hisoblangan, lekin toʻlanmagan foizlar. Ular qimmatli qogʻozni taqdim etuvchiga toʻlanishi lozim boʻlib va sotib olish sanasidan boshlab, sotib oluvchiga oʻtadigan foizlardir.

Banklar moliyaviy aktivlarni sotib olishda ularning tasnifiga muvofiq, nominal qiymati tijorat banklarining buxgalteriya hisobi hisobvaraqlari rejasining mos balans hisobvaraqlarida aks ettiriladi. Bunda, mukofot, diskont va boshqa har qanday sotib olingan hisoblangan foizlar alohida hisobvaraqlarda hisobga olinadi.

Banklar “oldi-sotdi” yoki “sotish uchun mavjud” qimmatli qogʻozlar sifatida tasniflangan ulushli qimmatli qogʻozlarni sotib olishda ularni haqiqiy qiymati boʻyicha tegishli balans hisobvaragʻida aks ettirishlari lozim.

“Sotish uchun mavjud” yoki “so‘ndirish muddatigacha saqlanadigan” toifalarda tasniflangan qarz qimmatli qog‘ozlarini sotib olish bilan bog‘liq xarajatlar 10889-“Sotish uchun mavjud qarz qimmatli qog‘ozlarni xarid qilish bo‘yicha xarajatlar” yoki 15989- “So‘ndirish muddatigacha saqlanadigan qimmatli qog‘ozlarni xarid qilish bo‘yicha xarajatlar” balans hisobvaraqlarida aks ettiriladi. “Oldi-sotdi qimmatli qog‘ozlari” toifasida tasniflangan qarz qimmatli qog‘ozlarini sotib olish bilan bog‘liq xarajatlar va barcha ulushli qimmatli qog‘ozlarni sotib olish bilan bog‘liq xarajatlar 55110-“Qimmatli qog‘ozlar oldi-sotdi operatsiyalari bo‘yicha to‘lanadigan xizmat va vositachilik xarajatlari” balans hisobvarag‘ida aks ettiriladi.

Masalan, “AAA” bank hisobot yilining 1-fevralida nominal qiymati 1.000.000 so‘m bo‘lgan davlat obligatsiyasini sotib oldi. Ushbu obligatsiya 1-yanvarda chiqarilgan bo‘lib, so‘ndirish muddati 31-dekabrda keladi. Foizlar har chorakda (obligatsiya egasiga) yillik 14% hisobida to‘lab boriladi. Bank uchun xarid narxi 911.890 so‘mni tashkil etadi. Xarid narxiga 11.890 so‘m ( $1.000.000 \times 14\% \times 31/365$ ) miqdoridagi sotib olingan, olinishi lozim bo‘lgan hisoblangan foizlar qo‘shilgan. Mazkur xarid bilan bog‘liq operatsiya bo‘yicha xarajatlar 10.000 so‘mga teng.

Quyida, bank bo‘yicha moliyaviy aktivlarning uch toifasi bo‘yicha yuqoridagi shartlar asosida obligatsiyani sotib olishdagi buxgalteriya o‘tkazmalari va diskontni hisoblash amallari keltirilgan:

1. *Oldi-sotdi qimmatli qog‘ozlari bo‘yicha:*

$$\text{Diskont} = 1.000.000 - (911.890 - 11.890) = 100.000$$

Sotib olishdagi buxgalteriya o‘tkazmasi:

5.1-jadval

**“AAA” bankda moliyaviy aktivlar bo‘yicha muomalalar**

<b>Muomala mazmuni</b>	<b>Debet</b>	<b>Kredit</b>
Dt - 10705 -Davlat obligatsiyalari	1.000.000	
Dt - 16305 -Oldi-sotdi qimmatli qog‘ozlari bo‘yicha hisoblangan foizlar	11.890	
Kt - 10791 - Oldi-sotdi qimmatli qog‘ozlari bo‘yicha diskont (kontr-aktiv)		100.000
Kt - Bankning vakillik yoki mijozning depozit		921.890

hisobvarag'i		
Dt - 10705 -Davlat obligatsiyalari	1.000.000	
Kt - 10791 - Oldi-sotdi qimmatli qog'ozlari bo'yicha diskont (kontr-aktiv)		88.110
Kt - Bankning vakillik yoki mijozning depozit hisobvarag'i		911.890
Dt - 16305 - Oldi-sotdi qimmatli qog'ozlari bo'yicha hisoblangan foizlar	11.890	
Kt - 10791 - Oldi-sotdi qimmatli qog'ozlari bo'yicha diskont (kontr-aktiv)		88.110

“AAA” bankda xarid qilishdagi xarajatlar quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi orqali aks ettiriladi:

Dt - 55110 –“Qimmatli qog'ozlar oldi-sotdi operatsiyalari bo'yicha to'lanadigan xizmat va vositachilik xarajatlari”  
10.000

Kt - Bankning vakillik yoki mijozning depozit hisobvarag'i 10.000

Sotish uchun mavjud qimmatli qog'ozlar bo'yicha:

Diskont = 1.000.000 - (911.890 - 11.890) = 100.000

Sotib olishdagi buxgalteriya o'tkazmasi (xarid qilishdagi xarajatlar ham hisobga olingan holda):

Dt - 10805 –“Davlat obligatsiyalari” 1.000.000

Dt - 16307 –“Sotish uchun mavjud qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalar bo'yicha hisoblangan foizlar”-11.890

Dt - 10889 –“ Sotish uchun mavjud qarz qimmatli qog'ozlarini xarid qilish bo'yicha xarajatlar”-10.000

Kt - 10891 –“Sotish uchun mavjud qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalar bo'yicha diskont (kontr-aktiv)”-100.000

Kt - Bankning vakillik yoki mijozning depozit hisobvarag'i - 921.890

2. So'ndirish muddatigacha saqlanadigan qimmatli qog'ozlar bo'yicha:

Diskont = 1.000.000 - (911.890 - 11.890) = 100.000

Sotib olishdagi buxgalteriya o'tkazmasi (xarid qilishdagi xarajatlar ham hisobga olingan holda):

Dt - 15905 –“Davlat obligatsiyalari” - 1.000.000

Dt - 16311 –“So‘ndirish muddatigacha saqlanadigan qarz qimmatli qog‘ozlarga qilingan investitsiyalar bo‘yicha hisoblangan foizlar” - 11.890

Dt - 15989 –“So‘ndirish muddatigacha saqlanadigan qarz qimmatli qog‘ozlarini xarid qilish bo‘yicha xarajatlar” - 10.000

Kt -15991-“So‘ndirish muddatigacha saqlanadigan qimmatli qog‘ozlar bo‘yicha diskont” - 100.000

Kt - Bankning vakillik yoki mijozning depozit hisobvarag‘i-921.890

Dt - 15905 –“Davlat obligatsiyalari”-1.000.000

Kt -15991-“So‘ndirish muddatigacha saqlanadigan qimmatli qog‘ozlar bo‘yicha diskont” - 88.110

Kt - Bankning vakillik yoki mijozning depozit hisobvarag‘i - 911.890

Dt - 16311 –“So‘ndirish muddatigacha saqlanadigan qarz qimmatli qog‘ozlarga qilingan investitsiyalar bo‘yicha hisoblangan foizlar” - 11.890

Kt -15991-“So‘ndirish muddatigacha saqlanadigan qimmatli qog‘ozlar bo‘yicha diskont” - 1.890

Dt - 16311 –“So‘ndirish muddatigacha saqlanadigan qarz qimmatli qog‘ozlariga qilingan investitsiyalar bo‘yicha hisoblangan foizlar” - 11.890

Kt -15991-“So‘ndirish muddatigacha saqlanadigan qimmatli qog‘ozlar bo‘yicha diskont” - 11.890

Dt - 15989 –“So‘ndirish muddatigacha saqlanadigan qarz qimmatli qog‘ozlarini xarid qilish bo‘yicha xarajatlar” - 10.000

Kt - Bankning vakillik yoki mijozning depozit hisobvarag‘i - 10.000

Banklar “oldi-sotdi” yoki “sotish uchun mavjud qimmatli qog‘ozlari sifatida tasniflangan ulushli qimmatli qog‘ozlarni sotib olishda ularning haqiqiy qiymati bo‘yicha tegishli balans hisobvaraqda aks ettirishlari lozim. AAA bankning 01.01.2014- yil holatiga daromad keltiruvchi aktivlarning jami aktivlardagi ulushi;



Daromad keltiruvchi aktivlar 2670,3

$\frac{\quad}{\quad} \times 100\% =$   
 $\frac{\quad}{\quad} \times 100\% = 18,8\%$ .

Jami aktivlar 14157  
2758,3

01.01.2014 yil holatiga =  $\frac{\quad}{29948,8} \times 100\% = 92,0\%$ .

Daromad keltiruvchi aktivlarning bank aktivlaridagi ulushi yil davomida 73,2 foizga ortgan.

Bankning daromad keltiruvchi aktivlaridan past daromad keltiruvchi, lekin nisbatan past riskga ega bo'lgan davlat qisqa muddatli obligatsiyalari yil davomida o'zgarmagan. Yil boshida 2670,3 mln so'm so'm qoldig'i bo'lib, 2014-yil oxiriga kelib bu qiymat o'zgarmagan. Biroq aktivlarning ulushidagi qiymati 10 marotaba ortgan.

Sotib olingan kreditorlik qarzlari ham 2014-yil davomida 19,3 mln so'mga kamaygan. Demak, bank yil davomida o'tgan yil qoldig'i asosida qolgan mablag'larni undirish bilan shug'ullangan, ehtimol bank undirish vaqtida kechgan qiyinchiliklarni undan kelgusida kelishi mumkin bo'lgan daromadga almashtirmagan, demak bank yil davomida kreditorlik qarzlarni sotib olmagan.

Bank tomonidan yil boshida berilgan kreditlar qoldig'i 2007-yilda 13196 mln so'mni tashkil etgan bo'lib, o'sha holatga nisbatan 102 mln so'm (berilgan kreditlarning 0,4 %) muammoli kreditlar bo'lgan, yil oxiriga kelib berilgan kreditlar miqdori 8 mlrd so'mga kamaygani holda 20,8 mlrd so'mni tashkil qilgan, ammo bankning muammoli kreditlari miqdori 510 mln so'm (yil oxiridagi berilgan kreditlarning 2,4 %) bo'lgan yoki 5 marta oshgan. 2011-yilda daromad keltirayotgan kreditlar jami daromad keltirayotgan aktivlarning asosiy qismini tashkil etgan bo'lsa, bankning yil boshida daromad keltirayotgan kreditlari yil davomida o'tkazilgan kredit monitoringi natijasida kreditlarning sifat ko'rsatkichlari pasaytirilgan, bu yil boshida daromad keltirayotgan kreditlarning keyinchalik daromad keltirmasligi, foiz to'lovlari to'lanmayotgandan muammoli kreditlar ko'paygan bo'lishi mumkin. Bu salbiy holatdir, bank yil davomida muammoli

kreditlari ko'payotganligi sababli kredit berishni kamaytirgan bo'lishi mumkin.

Hisobot yilida bankning aktiv operatsiyalaridan olgan daromadlarining miqdori, asosan lizing operatsiyalarining rivojlanishi hisobiga to'g'ri keladi. Bank kelgusi davrda kredit operatsiyalari sifatini oshirishga va investitsion operatsiyalarini rivojlantirishga e'tibor qaratishi lozim.

Tijorat banklari faoliyatining asosiy maqsadi daromadni maksimal darajada olishdan iboratdir. Shu nuqtai nazardan olganda, bank aktivlarining daromadlilikini baholash muhim ahamiyat kasb etadi. Buni quyidagicha tasniflash mumkin.

Tijorat banki aktivlari faoliyat natijasida daromad keltiradigan aktivlar va daromad keltirmaydigan aktivlarga bo'linadi. Daromad keltiruvchi aktivlarni baholash muhim ahamiyatga ega. Ular kredit salohiyatining asosini va bankning kredit portfelini tashkil etadi.

Daromad tahlili sifat ko'rsatkichiga nisbatan miqdor ko'rsatkichiga ko'proq tegishlidir, shu sababdan u bank faoliyatini baholashda katta ahamiyatga ega. Bank kapitalini oshirish va kredit potensialini mustahkamlash uning mustahkamligiga bog'liqdir. Bankning daromadi, asosan, kreditlar bo'yicha foiz stavkasi, kredit qo'yilmalari hajmi va bank likvidlilikiga bog'liq.

Bankning daromad keltiradigan aktivlariga:

- barcha turdagi turli xil kreditlar berishga sarflangan mablag'lar;
- DQMO va boshqa qimmatli qog'ozlarga sarflangan mablag'lar;
- qimmatli qog'ozlar, lizing va faktoring operatsiyalari va boshqalar kiradi.

Tijorat banki aktivlarining asosiy qismini, odatda mijozlarga beriladigan kreditlar va banklararo kreditlar tashkil etadi. Bank amaliyotida bank krediti bank oladigan daromadlarning asosiy qismini ta'minlaydi. Bank krediti iqtisodiyotda kredit munosabatlarining keng tarqalgan shakli bo'lib, bunda pul mablag'lari kredit obyekti bo'lib xizmat qiladi.

Ma'lumki, tijorat banklarida daromad keltiruvchi aktivlar qatorida kreditlardan tashqari, qimmatli qog'ozlar, chet el valyutasiga jalb qilingan mablag'lar ham mavjud. Albatta, ushbu aktivlarning ham tarkibini o'rganib chiqish muhim. Aktivlarning maqsadga muvofiq joylashishi bo'yicha umumiy ko'rsatkich daromad keltiruvchi aktivlarning umumiy aktivlar summasiga nisbati bilan aniqlanadi. Tijorat banklarining daromad keltiruvchi asosiy aktivlari mijozlarga berilgan kreditlardir. Banklarning ikkinchi daromad keltiruvchi aktiv turi davlatning qisqa muddatli obligatsiyalari (DQMO)ga jalb qilingan aktivlardir. Banklarning daromad keltiruvchi aktivlari qatorida banklararo kreditlar va investitsiyalar kichik salmoqni tashkil qiladi.

Tijorat banklarining aktiv operatsiyalarida daromad keltiruvchi aktivlarni ko'paytirish, ya'ni bank likvidligini saqlagan holda ahamiyat kasb etadi. Daromad keltiruvchi aktivlarning asosiy daromad tarkibi foizli daromadlardir. Foizli daromad manbai kreditlarni bir soha yoki tarmoqqa emas, balki bir nechta tarmoqqa joylashtirishi kerak. Banklarda daromadlar tarkibini ko'paytirish uchun esa bank daromad keltiruvchi xizmatlar turini ko'paytirish kerak.

Bankning daromad keltirmaydigan aktivlariga quyidagilar kiradi:

- kassadagi naqd pullar va boshqa pul mablag'lari;
- asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar;
- kapital va boshqa joriy xarajatlar;
- markaziy bankdagi vakillik va zaxira fondi hisobraqamlar qoldig'i.

Bunda aktivlar guruhiga kassa, markaziy bankdagi "Nostro" vakillik hisobvarag'idagi mablag'lar, asosiy vositalar kiradi. Bank aktivlari hajmida daromad keltirmaydigan aktivlar salmog'ining yuqori bo'lishi bankning resurslar bazasidan samarasiz foydalanganini bildiradi.

Bank o'z rahbariyati uchun tuziladigan ishonchli hisobotlarni tayyorlashda sotish uchun mavjud qimmatli qog'ozlarni har oyda qayta baholaydi. Qayta baholash,

haqqoniy qiymatning o'zgarishi ro'y bergan oyda tegishli ravishda balans hisobotda hisobga olinishi uchun har oyning oxirida o'tkaziladi.

Banklar "oldi-sotdi qimmatli qog'ozlari" toifasida tasniflangan moliyaviy aktivlarni dastlabki tan olishdan keyin, ularning haqqoniy qiymati bo'yicha, banklarning mazkur aktivlar bo'yicha sotishda yoki hisobdan chiqarishda qilishi mumkin bo'lgan xarajatlarini hisobga olmagan holda, baholaydilar.

Banklar haqqoniy qiymat o'zgarishi natijasidagi to'g'rilash summalarini portfel yoki har bir alohida qimmatli qog'oz asosida hisoblash huquqiga ega. Ushbu ixtiyoriy usullar natijasidan to'g'rilashning bir xil bo'lgan yakuniy summasi kelib chiqadi.

To'g'rilashlar bevosita foyda va zararlar hisoboti orqali amalga oshiriladi. Haqqoniy qiymat o'zgarishi natijasidagi to'g'rilash summasining hisob-kitobi quyidagicha amalga oshiriladi:

$$\text{Haqqoniy qiymat} - \text{Balans qiymati} = \text{To'g'rilash summasi.}$$

Mazkur formulani qo'llashda hosil bo'ladigan musbat farq haqqoniy qiymatning o'sishini, manfiy farq esa haqqoniy qiymatning kamayishini ko'rsatadi.

"AAA" bankda haqqoniy qiymat o'zgarishini to'g'rilash, kamida har oyda moliyaviy hisobotni tayyorlashdan oldin amalga oshiriladi. Haqqoniy qiymat o'sishini aks ettirish uchun quyidagicha buxgalteriya o'tkazmasi amalga oshiriladi:

Dt 10795- "Oldi-sotdi qimmatli qog'ozlari haqqoniy qiymatining o'zgarishi";

Kt 45609- "Savdoga mo'ljallangan qimmatli qog'ozlar haqqoniy qiymatining o'zgarishi natijasida olingan foyda" yoki

Kt 45611- "Oldi-sotdi qimmatli qog'ozlari haqqoniy qiymatining o'zgarishi natijasida olingan foyda" (sotishga mo'ljallangan qimmatli qog'ozlardan tashqari).

Haqqoniy qiymat kamayishini aks ettirish uchun quyidagicha buxgalteriya o'tkazmasi amalga oshiriladi:

Dt 55610- "Savdoga mo'ljallangan qimmatli qog'ozlar

haqqoniy qiymatining o'zgarishi natijasida ko'rilgan zararlar" yoki

Dt 55614- "Oldi-sotdi qimmatli qog'ozlar haqqoniy qiymatining o'zgarishi natijasida ko'rilgan zararlar" (Savdoga mo'ljallangan qimmatli qog'ozlardan tashqari);

Kt 10795- "Oldi-sotdi qimmatli qog'ozlari haqqoniy qiymatining o'zgarishi".

Masalan, "AAA" bank 2014-yil 1-dekabrda nominal qiymati 100.000.000 bo'lgan 12 oylik davlat xazina veksellarini 93.000.000ga sotib oldi. So'ndirish muddati 2015-yil 30-noyabr.

Mazkur qimmatli qog'ozlar keyinchalik qayta sotish maqsadida sotib olingan bo'lib, shuning uchun ular "savdoga mo'ljallangan" turkumda tasniflanadi.

Savdoga mo'ljallangan qimmatli qog'ozlarning hisobi 10700 – "Oldi-sotdi qimmatli qog'ozlari" hisobvaraqlar guruhida aks ettiriladi. (Qimmatli qog'ozlar qanchalik savdoga mo'ljallangan bo'lishiga qaramasdan, ularni sotib olish bilan bog'liq xarajatlar 55110 – "Qimmatli qog'ozlarning oldi-sotdi operatsiyalari bo'yicha to'lanadigan xizmat va vositachilik xarajatlari" hisobvarag'iga olib boriladi va shuning uchun, mazkur misolda ko'rib o'tilmaydi).

Sotib olish amaliyoti quyidagicha aks ettiriladi:

Dt - 10701 – "Davlat xazinasi veksellari" 100.000.000

Kt - 10791 - "Oldi-sotdi qimmatli qog'ozlari bo'yicha diskont" 7.000.000

Kt - Bankning vakillik yoki mijozning depozit hisobvarag'i 93.000.000

"AAA" bank 2014-yil 31-dekabrda qimmatli qog'ozlarni haqqoniy qiymati bo'yicha qayta baholadi. 2011-yil 31-dekabr holatiga ushbu xazina veksellarining haqqoniy qiymati 92.500.000 so'mni tashkil qilgan. Qayta baholashdagi to'g'rilash summasini aniqlab olish uchun, haqqoniy qiymatni qoldiq qiymat bilan taqqoslash zarur, agar kerak bo'lsa:

*Birinchidan*, dastlab balans qiymati hisobot davriga real foiz stavkasi uslubini qo'llash orqali diskontni amortizatsiyalab qayta hisoblanishi lozim. Diskontni amortizatsiyalash bo'yicha buxgalteriya o'tkazmasi

quyidagicha amalga oshiriladi:

Dt - 10791 –“Oldi-sotdi qimmatli qog‘ozlari bo‘yicha diskont” 564.127

Kt - 40601 - “Davlat xazinasi veksellari bo‘yicha foizli daromadlar” 564.127

Talab qilinadigan to‘g‘rilash summasini aniqlash uchun balans qiymatini haqqoniy qiymatga tenglashtirish zarur.

Masalan, ATIB “Ipotekabank” 2014-yil 31-dekabr holatiga qimmatli qog‘ozlarining balans qiymati 93.564.127 so‘mni tashkil etgan. ( $100.000.000 - 6.435.873 = 93.564.127$ ).

Buning natijasida zarar quyidagini tashkil etgan:

$92.500.000 - 93.564.127 = (1.064.127)$

Haqqoniy qiymatni to‘g‘rilash quyidagi buxgalteriya o‘tkazmasi orqali aks ettiriladi:

Dt - 55610 –“Savdoga mo‘ljallangan qimmatli qog‘ozlar haqiqiy qiymatining o‘zgarishi natijasida ko‘rilgan zararlar” 1.064.127

Kt - 10795 –“Oldi-sotdi qimmatli qog‘ozlari haqiqiy qiymatining o‘zgarishi” 1.064.127

*Ikkinchidan*, dastlabki tan olishdan keyin ATIB “Ipotekabank” “sotish uchun mavjud” toifasida tasniflangan moliyaviy aktivlarni haqqoniy qiymati bo‘yicha baholaydi. Bunda ATIB “Ipotekabank”ning mazkur aktivlar bo‘yicha sotishda yoki hisobdan chiqarishda qilishi mumkin bo‘lgan xarajatlari hisobga olinmaydi.

Bunda to‘g‘rilashlar bevosita ATIB “Ipotekabank”ning foyda va zararlariga olib borilmasdan, balki uning kapital hisobvarag‘ida amalga oshiriladi.

Yuqoridagi bandeda qo‘yilgan talablar istisno tariqasida bozor narxida kotirovka qilinmaydigan va haqqoniy qiymati ishonchli baholanmaydigan ulushli vositalarga nisbatan qo‘llanilmaydi. Bunday aktivlar, agar ular “sotish uchun mavjud” moliyaviy aktivlar toifasida tasniflangan bo‘lgan taqdirda ham, ko‘rilishi mumkin bo‘lgan zararlarni qoplash zaxirasini chegirib tashlagandagi haqiqatdagi qiymati bo‘yicha aks ettiriladi. Agar, keyinchalik aktivning haqqoniy qiymatini baholash imkoniyati ishonchli bo‘lgan

taqdirda, banklar bunday aktivlarni haqqoniy qiymati bo'yicha hisobga olishlari lozim.

Agar ulushli qimmatli qog'oz haqqoniy qiymati bo'yicha hisobga olinib, keyinchalik haqqoniy qiymatini ishonchli baholash imkoniyati mavjud bo'lmay qolsa, u holda ushbu aktiv haqiqatdagi qiymati bo'yicha aks ettiriladi. Bunday holatda ushbu bandeda bayon etilgan hisob uslubi qo'llaniladi, faqat alohida kapital hisobvarag'ida aks ettiriladigan o'zlashtirilmagan foyda va zararlar amortizatsiya qilinmaydi. Bunda ular kapital hisobvarag'ida mazkur aktiv sotilmaguncha saqlanib qoladi.

Moliyaviy aktivlarning haqqoniy qiymati o'zgarishi bilan bog'liq to'g'rilash summolari portfel yoki har bir alohida qimmatli qog'oz asosida aniqlanadi. Mazkur usullar natijasidan to'g'rilashning bir xil bo'lgan yakuniy summasi kelib chiqadi.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, haqqoniy qiymat o'zgarishidan kelib chiqib, to'g'rilash summasini hisoblash quyidagicha amalga oshiriladi:

Haqqoniy qiymat – Balans qiymati = To'g'rilash summasi.

Mazkur formulani qo'llashda hosil bo'ladigan musbat farq haqqoniy qiymatning o'sishini, manfiy farq esa haqqoniy qiymatning kamayishini ko'rsatadi.

Haqqoniy qiymat o'sishini aks ettirish uchun quyidagicha buxgalteriya o'tkazmasi amalga oshiriladi:

Dt 10895 – “Sotish uchun mavjud qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalar haqqoniy qiymatining o'zgarishi”

Kt 30907 – ”Sotish uchun mavjud qimmatli qog'ozlarning haqqoniy qiymatini o'zgarishi natijasida hosil bo'lgan o'zlashtirilmagan foyda va zararlar (aktiv-passiv)”

Haqqoniy qiymat kamayishini aks ettirish uchun quyidagicha buxgalteriya o'tkazmasi amalga oshiriladi:

Dt 30907 – “Sotish uchun mavjud qimmatli qog'ozlarning haqqoniy qiymatini o'zgarishi natijasida hosil bo'lgan o'zlashtirilmagan foyda va zararlar (aktiv-passiv)”;

Kt 10895 – “Sotish uchun mavjud qimmatli qog'ozlarga

qilingan investitsiyalar haqqoniy qiymatining o'zgarishi".

"AAA" bank 2014-yilning 31-martida Markaziy bank obligatsiyasining haqiqiy qiymati 992.000 so'm, balans qiymati (hisoblangan foizlar bilan birga) esa 963.739 so'm edi. Qayta baholashdagi to'g'rilashni aks ettirish bo'yicha quyidagicha buxgalteriya o'tkazmasi amalga oshiriladi:  
*2014-yil 31-mart.*

Dt - 10895 –“Sotish uchun mavjud 28.261  
qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalar  
haqiqiy qiymatining o'zgarishi”

Kt - 30907 –“Sotish uchun mavjud 28.261  
qimmatli qog'ozlarning haqiqiy qiymati  
o'zgarishi natijasida hosil bo'lgan  
o'zlashtirilmagan foyda yoki zararlar  
(aktiv-passiv)”

“So'ndirish muddatigacha saqlanadigan” toifasida tasniflangan moliyaviy aktivlar moliyaviy hisobotda ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash zaxirasini chegirgan holdagi amortizatsiya qiymati bo'yicha aks ettiriladi.

Bunday aktivlar bo'yicha haqqoniy qiymatdagi o'zgarishlar bilan bog'liq to'g'rilash (korrektirovka)lar amalga oshirilmaydi.

Xorijiy valyutada ifodalangan “oldi-sotdi qimmatli qog'ozlari” yoki “sotish uchun mavjud qimmatli qog'ozlar” toifasida tasniflangan moliyaviy aktivlar bo'yicha banklar dastlab xorijiy valyuta asosida haqqoniy qiymatining to'g'rilash summasini aniqlab olishlari lozim. Keyin esa valyutalarni ayirboshlashning Markaziy bank kursi bo'yicha ochiq valyuta pozitsiyasini qayta baholash yo'li bilan kurs farqi hisobidan olingan har qanday foyda va zararlar aniqlanadi.

Bank moliyaviy aktivni tan olishni quyidagi hollarda to'xtatadi:

1) mazkur aktivdan kelib tushadigan pul oqimini olish yuzasidan tuzilgan shartnomada belgilangan huquq muddati o'tib ketganida;

2) bank moliyaviy aktivni berganda va ushbu holat tan olishni to'xtatishni talab qiluvchi holatga to'g'ri kelganda.



Bank moliyaviy aktivni berishda mazkur aktivni boshqarish bilan bogʻliq boʻlgan xavf-xatar va mukofotlar darajasini baholay bilishi lozim Bank moliyaviy aktivni boshqarish bilan bogʻliq barcha xavf-xatar va mukofotlarni beradigan boʻlsa, u holda u mazkur aktivni hisobdan chiqarishi va uni berishda paydo boʻladigan va saqlangan har qanday huquq (yoki majburiyatlar)ni alohida aktiv (majburiyat) sifatida tan olishi kerak.

Bank moliyaviy aktivni boshqarish bilan bogʻliq barcha xavf-xatar va mukofotlarni oʻzida saqlab qoladigan boʻlsa, u holda u moliyaviy aktivni hisobdan chiqarmasligi lozim.

Banklar tan olishni toʻxtatish talablariga javob bermaydigan operatsiyalar davridagi har qanday tushumlarni majburiyat sifatida 22896 – “Boshqa muddati uzaytirilgan daromadlar” hisobvaragʻida aks ettiradi.

“Oldi-sotdi qimmatli qogʻozlari” toifasida tasniflangan moliyaviy aktivni sotish yoki hisobdan chiqarishdagi foyda yoki zararlar summasi quyidagicha hisoblanadi:

Haqqoniy qiymatni toʻgʻrilash summasi moliyaviy aktivni sotishdan oldin aks ettirilgan boʻlsa, u holda yuqoridagi formula foyda yoki zararlar nolga tengligini koʻrsatadi. Biroq, bunda kunlik asosda haqqoniy qiymatni toʻgʻrilash talab etilmaydi. Agar sotish natijasida foyda yoki zararlar paydo boʻlsa, u holda mazkur foyda yoki zararlar haqqoniy qiymatni toʻgʻrilashdan kelib chiqqan foyda va zararlar aks ettiriladigan hisobvaraqlarda aks ettiriladi.

Masalan, AAA bank “oldi-sotdi qimmatli qogʻozlari” toifasida tasniflangan davlat obligatsiyalarini sotayotganda foyda quyidagicha hisoblanadi:

“AAA” bankda Davlat obligatsiyalarini sotish boʻyicha  
buxgalteriya oʻtkazmasi

Sotishdan kelib tushgan tushum	885
Minus: Balans qiymati:	
10705 –“Davlat obligatsiyalari”	1.000
10791 –“Oldi-sotdi qimmatli qogʻozlari boʻyicha diskont (kontr - aktiv)”	(100)
10795-“Oldi-sotdi qimmatli qogʻozlari haqqoniy qiymatining oʻzgarishi”	(20)
10799-“Oldi-sotdi qimmatli qogʻozlaridan	0

ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash  
zaxirasi (kontr-aktiv)"

16305 –“Oldi-sotdi qimmatli qog'ozlari bo'yicha 3  
hisoblangan foizlar (kuponlar bo'yicha)"

Balans qiymati = 883  
Sotishdan olingan foyda 2

“AAA” bankda foydani aks ettirish bo'yicha buxgalteriya  
o'tkazmasi

Dt - Pul mablag'larining mos hisobvaragi	885
Dt - 10791 –“Oldi-sotdi qimmatli qog'ozlari bo'yicha diskont (kontr - aktiv)"	100
Dt - 10795 –“Oldi-sotdi qimmatli qog'ozlari haqqoniy qiymatining o'zgarishi"	20
Kt - 10705 –“Davlat obligatsiyalari"	1.000
Kt - 16305 –“Oldi-sotdi qimmatli qog'ozlari bo'yicha hisoblangan foizlar"	3
Kt - 45609 –“Savdoga mo'ljallangan qimmatli qog'ozlar haqiqiy qiymatining o'zgarishi natijasida olingan foyda"	
Kt - 45611 –“Oldi-sotdi qimmatli qog'ozlari haqiqiy qiymatining o'zgarishi natijasida olingan foyda (savdoga mo'ljallangan qimmatli qog'ozlardan tashqari)"	2

“Sotish uchun mavjud” toifasida tasniflangan moliyaviy  
aktivni sotishdan yoki hisobdan chiqarishdan ko'rilgan  
foyda yoki zararlarni quyidagicha hisoblanadi:

Sotishdan kelib tushgan tushum – “Sotish uchun  
mavjud qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalar  
haqqoniy qiymatining o'zgarishi” sifatida aks ettirilgan  
summani chegirgan holdagi balans qiymati = Foyda (zarar)

Masalan, bank “sotishga mo'ljallangan” toifada  
tasniflangan davlat xazina veksellarini sotayotganida, foyda  
quyidagicha hisoblanadi:

Sotishdan kelib tushgan tushum	1.150
Minus: Haqqoniy qiymatni to'g'rilashdagi summani chegirib tashlagandagi Balans qiymati	
10801 –“Davlat xazina veksellari"	1.000
10889 –“Sotish uchun mavjud qarz	10

qimmatli qog'ozlarini xarid qilish bo'yicha xarajatlar"	
10893 –“Sotish uchun mavjud qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalar bo'yicha mukofot"	100
10899 –“Sotish uchun mavjud qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalar bo'yicha ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash zaxirasi"	0
16307 –“Sotish uchun mavjud qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalar bo'yicha hisoblangan foizlar (kuponlar bo'yicha)"	0
Haqiqiy qiymatni to'g'rilashdagi summani chegirib tashlagandagi Balans qiymati =	1.110
Sotishdan olingan foyda	40

“So‘ndirish muddatigacha saqlanadigan” toifada tasniflangan moliyaviy aktivlarning sotilishi yoki hisobdan chiqarilishi natijasidagi foyda yoki zararlar quyidagicha hisoblanadi:

*Sotuvdagi tushum - Amortizatsiyalangan qiymat = Foyda (zarar)*

ATIB “Ipotekabank”da “so‘ndirish muddatigacha saqlanadigan” toifada tasniflangan davlat xazina veksellarini sotayotganda foydani hisoblash quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

Sotishdan olingan tushum	1.020
Minus: Amortizatsiyalangan qiymat	
15901 –“Davlat xazina veksellari”	1.000
15991 –“So‘ndirish muddatigacha saqlanadigan qimmatli qog'ozlar bo'yicha diskont”	(20)
15989 –“So‘ndirish muddatigacha saqlanadigan qarz qimmatli qog'ozlarini xarid qilish bo'yicha xarajatlar”	10
15999 –“So‘ndirish muddatigacha saqlanadigan qarz qimmatli qog'ozlariga qilingan investitsiyalar bo'yicha ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash zaxirasi (kontr-aktiv)”	0

16311	–“So‘ndirish muddatigacha saqlanadigan qarz qimmatli qog‘ozlariga qilingan investitsiyalar bo‘yicha hisoblangan foizlar (kuponlar bo‘yicha)”	0
	Amortizatsiyalangan qiymat =	990
	Sotishdan olingan foyda	30
	Foydani aks ettirishning buxgalteriya o‘tkazmasi esa quyidagicha amalga oshiriladi:	
	Dt - Pul mablag‘larining mos hisobvarag‘i	1.020
	Dt - 15991 –“So‘ndirish muddatigacha saqlanadigan qimmatli qog‘ozlar bo‘yicha diskont (kontr-aktiv)”	20
	Kt - 15901 –“Davlat xazina veksellari”	1.000
	Kt - 15989 –“So‘ndirish muddatigacha saqlanadigan qarz qimmatli qog‘ozlarini xarid qilish bo‘yicha xarajatlar”	10
	Kt - 45805 –“So‘ndirish muddatigacha saqlanadigan qimmatli qog‘ozlarni sotish yoki dispozitsiya qilishdan olingan foyda”	30

### **5.3. Banklarda moliyaviy aktivlar amortizatsiyasi va qadrsizlanishi hisobi**

Banklar har bir hisobot sanasiga moliyaviy aktivning yoki moliyaviy aktivlar guruhining qadrsizlanishini tasdiqlovchi obyektiv dalillar bor-yo‘qligini baholashi va ko‘rilishi mumkin bo‘lgan zararlarni qoplash zaxirasini oshirishga zarurat bor-yo‘qligini aniqlashtirishi lozim.

Foiz stavkasining o‘zgarib turishi qarz qimmatli qog‘ozlarining haqqoniy qiymatiga ta’sir qiladi. Biroq, foiz miqdorining o‘zgarib turishi bilan bog‘liq haqqoniy qiymatning o‘zgarishi qadrsizlanishga olib kelmaydi.

Bank mazkur bo‘limda belgilangan talablar, shuningdek, tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo‘yicha ehtimoliy yo‘qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibi to‘g‘risidagi nizomga (2015- yil 14-iyul, 2696-son) muvofiq, moliyaviy aktivlarning qadrsizlanishi bo‘yicha qoidalaridan foydalangan holda moliyaviy aktivlar bo‘yicha ko‘rilishi

mumkin boʻlgan zararlar summasini baholaydilar. Banklar koʻrsatilgan tartib asosida aniqlangan katta miqdordagi zararga teng boʻlgan koʻrilishi mumkin boʻlgan zararni baholashni aks ettiradi.

Banklarda amortizatsiya qiymati boʻyicha aks ettirilgan soʻndirish muddatigacha saqlanadigan qimmatli qogʻozlarga qilingan investitsiyalarning qadrsizlanishi toʻgʻrisida obyektiv dalillar mavjud boʻlsa, u holda ushbu zarar mazkur aktivning balans qiymati bilan aktiv boʻyicha kutilayotgan pul oqimining joriy qiymati oʻrtasidagi farq sifatida baholanadi. Mazkur joriy qiymat ushbu aktiv boʻyicha dastlabki real foiz stavkasi (yaʼni dastlabki tan olishda hisoblangan real foiz stavkasi)ga teng boʻlgan diskont stavkasini qoʻllash yoʻli bilan hisoblab chiqariladi.

Soʻndirish muddatigacha saqlanadigan moliyaviy aktivlar boʻyicha koʻrilishi mumkin boʻlgan zararlarni qoplash zaxirasini tashkil etish boʻyicha quyidagicha buxgalteriya oʻtkazmasi amalga oshiriladi:

Dt - 56826 –“Soʻndirish muddatigacha saqlanadigan qimmatli qogʻozlarga qilingan investitsiyalar boʻyicha koʻrilishi mumkin boʻlgan zararlarni baholash”

Kt - 15999 –“Soʻndirish muddatigacha saqlanadigan qarz qimmatli qogʻozlariga qilingan investitsiyalar boʻyicha koʻrilishi mumkin boʻlgan zararlarni qoplash zaxirasi (kontr-aktiv)”.

Banklarda “Sotish uchun mavjud” toifasida tasniflangan moliyaviy aktivning qadrsizlanishi toʻgʻrisida obyektiv dalillar mavjud boʻlganda, u holda haqqoniy qiymatni toʻgʻrilash bilan bogʻliq boʻlgan va ilgari toʻgʻridan - toʻgʻri kapitalda aks ettirilgan ixtiyoriy kumulyativ zarar hisobdan chiqariladi va foyda va zararlar hisobotida aks ettiriladi. Bunda quyidagicha buxgalteriya oʻtkazmasi amalga oshiriladi:

Haqiqiy qiymatni toʻgʻrilash summasini bekor qilish uchun:

Dt - 10895 –“Sotish uchun mavjud qimmatli qogʻozlarga

qilingan investitsiyalar haqiqiy qiymatining o'zgarishi”;

Kt - 30907 –“Sotish uchun mavjud qimmatli qog'ozlarning haqiqiy qiymati o'zgarishi natijasida hosil bo'lgan o'zlashtirilmagan foyda yoki zararlar (aktiv-passiv)”.

Ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash zaxirasini tashkil etish uchun:

Dt - 56808 –“Sotish uchun mavjud qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalar bo'yicha ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni baholash”;

Kt - 10899 –“Sotish uchun mavjud qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalar bo'yicha ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash zaxirasi (kontr-aktiv)”.

Kapitaldan hisobdan chiqariladigan va foyda va zararlar to'g'risidagi hisobotda tan olinadigan kumulyativ zarar summasi aktivning balans qiymati (ixtiyoriy haqiqiy qiymatni to'g'rilash summasini chegirib tashlagan holda) bilan joriy haqqoniy qiymati o'rtasidagi farq summaga tengdir.

Agar ko'rilishi mumkin bo'lgan zarar summasi ilgari kapitalda tan olingan haqiqiy qiymatning salbiy (manfiy) to'g'rilash summasidan oshib ketadigan bo'lsa, u holda banklar qo'shimcha ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni baholash summasini quyidagicha aks ettiradi:

Dt - 56808 –“Sotish uchun mavjud qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalar bo'yicha ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni baholash”;

Kt - 10899 –“Sotish uchun mavjud qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalar bo'yicha ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash zaxirasi (kontr-aktiv)”.

Bankda “Oldi-sotdi qimmatli qog'ozlari” toifasida tasniflangan qimmatli qog'ozlar bo'yicha ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash zaxirasi kamdan-kam hollardagina tashkil etiladi. Albatta bunda moliyaviy aktivning qadrsizlanishi to'g'risidagi obyektiv dalillar borgan sayin aniqlashib borishi, shu bilan birga, ushbu

qimmatli qog'ozning joriy haqqoniy qiymati mazkur qadrsizlanishni aks ettirmagan bo'lishi lozim.

“Oldi-sotdi qimmatli qog'ozlari” toifasida tasniflangan qimmatli qog'ozlar bo'yicha ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash zaxirasini tashkil etishda quyidagicha buxgalteriya o'tkazmasi amalga oshiriladi:

Dt - 56806 –“Oldi-sotdi qimmatli qog'ozlari bo'yicha ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni baholash”;

Kt - 10799 –“Oldi-sotdi qimmatli qog'ozlardan ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash zaxirasi (kontr-aktiv)”.

Banklarda real foiz stavkasi hisob-kitobidan keyin amortizatsiya bo'yicha jadvalni tayyorlash mumkin. “Sof qoldiq qiymat” ustuni o'zida hisoblangan foizlarni hisoblagan holda aks ettiradi, chunki foizlar obligatsiya egasiga to'lanadi. Shu sababli, haqiqiy qiymatni to'g'rilash maqsadida olinishi lozim bo'lgan hisoblangan foizlar qiymatini hisobga olish zarur.

5.2-jadval

**AAA bankda real foiz stavkasi**  
(Summalar yaxlitlangan holda keltirilgan)

Sana	Nominal qiymat	Olinishi lozim bo'lgan hisoblangan foizlar hisobvrag'idagi qoldiq	..... dan olingan yillik foizli daromad		Diskont qoldig'i	Sof balans qiymat (v)
			Kuponlar bo'yicha hisoblangan	Diskont Amortizat siyasi (b)		
		(a)				
1.03.x3 - xarid qilingan	1.000.00 0	19.397			40.000	979.397
31.03.x3	1.000.00 0	0	10.192	3.739	36.261	963.739
30.04.x3	1.000.00 0	9.862	9.862	3.846	32.415	977.447
31.05.x3	1.000.00 0	20.054	10.192	3.711	28.704	991.350
30.06.x3	1.000.00 0	0	9.863	4.238	24.466	975.534

31.07.x3	1.000.00 0	10.192	10.192	3.684	20.782	989.410
31.08.x3	1.000.00 0	20.384	10.192	3.881	16.901	1.003.483
30.09.x3	1.000.00 0	0	9.863	4.410	12.491	987.509
31.10.x3	1.000.00 0	10.192	10.192	3.854	8.637	1.001.555
30.11.x3	1.000.00 0	20.055	9.863	4.383	4.254	1.015.801
31.12.x3	1.000.00 0	0	10.192	4.254	0	1.000.000
31.12.x3 so'ndiril- gan	0	0				0
<b>Jami</b>			<b>100.603</b>	<b>40.000</b>		

Kuponlar bo'yicha foizlar har chorakning oxirgi kuniga kelib tushishi taxmin qilinadi.

Diskont amortizatsiyasi = Sof balans qiymati (oldingi qator) x Oylik real foiz stavkasi (1,4223570%) minus kuponlar bo'yicha o'sha oyga hisoblangan foizlar).

Sof balans qiymati o'z ichiga olinishi lozim bo'lgan hisoblangan foizlarni ham oladi, lekin haqiqiy qiymati o'zgarishi natijasida ilgari qilinishi mumkin bo'lgan to'g'rilash summalarini aks ettirmaydi.

Masalan, 2014-yil 1-yanvar kuni bank 12 oy muddatga, 2014-yil 30-iyun kuni so'ndirish muddati bilan davlat obligatsiyalarini sotib oladi (so'ndirishgacha 6 oy qolganda).

Nominal summasi	1.000.000
+ Xarid qilishdagi xarajatlar	18.000
- Diskont	(50.000)
=	968.000

Obligatsiyalar bo'yicha yillik 12 foizli to'lovlar har oy oxirida amalga oshiriladi.

Foizli daromad real foiz miqdori usulida hisoblanishi lozim. Diskont amortizatsiyasi foizli daromadni oshiradi, xarid qilishdagi xarajatlar amortizatsiyasi esa foizli daromadni kamaytiradi. Mazkur misoldagi hisob-kitoblar "sotishga mo'ljallagan" yoki "so'ndirish muddatigacha saqlanadigan" toifalarda tasniflangan obligatsiyalar uchun o'rinli. "Oldi-sotdi qimmatli qog'ozlari" turkumida



tasniflangan obligatsiyalarni xarid qilishdagi xarajatlar darhol bank xarajatiga olib boriladi.

Xarid qilishdagi xarajatlar amortizatsiyasi buxgalteriya hisobini yengillashtirish uchun to'g'ri chiziqli uslubda ko'rsatilgan. Mohiyati bo'yicha ushbu uslub samarali foiz miqdoridan foydalangan holda hisoblangan umumiy sof amortizatsiyani hisobga oladi va buxgalteriya hisobini yengillashtirish uchun uni ikkita summaga bo'ladi va bu summalar obligatsiyalarni so'ndirish muddati yetib kelgan vaqtda diskont va xarid qilishdagi xarajatlar summalari to'liq miqdorda amortizatsiyalanib bo'linadi. Mazkur holat real foiz stavkasi uslubining ishonchligini shubha ostida qoldirmaydi, chunki umumiy oylik foizli daromadlar obligatsiyalar sof balans qiymatining real foiz stavkasiga ko'paytirilganligiga teng.

AAA bankda yanvar oyi uchun umumiy foizli daromadlar qimmatli qog'ozlari quyidagilardan iborat:

Shartnoma bo'yicha foizlar	10.192
Minus xarid qilishdagi xarajatlar amortizatsiyasi	(3.000)
Plyus diskont amortizatsiyasi	7.854
Yanvar oyi uchun jami foizli daromadlar =	15.046

Yuqorida keltirilgan umumiy foizli daromad summasi ham quyidagicha hisoblanishi mumkin:

Oy boshiga balans qiymati	968.000
x Oylik real foiz stavkasi	x
	1.5543787%
Real foiz stavkasi uslubini qo'llagan holda yanvar oyi uchun hisoblangan foizli daromadlar	15.046

Agar obligatsiyalar "so'ndirish muddatigacha saqlanadigan" toifasida tasniflangan deb taxmin qilinsa, u holda yanvar oyi uchun foizli daromad quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi orqali aks ettiriladi:

Diskont amortizatsiyasi quyidagicha aks ettiriladi:

Dt - 15991 –"So'ndirish muddatigacha saqlanadigan qimmatli qog'ozlar bo'yicha diskont (kontr-aktiv)" 7.854

Kt - 44805 –"Davlat obligatsiyalariga 7.854

qilingan investitsiyalar bo'yicha foizli daromadlar"

Xarid qilish xarajatlari amortizatsiyasini aks ettirish uchun quyidagicha buxgalteriya o'tkazmasi amalga oshiriladi:

Dt - 44805 –“Davlat obligatsiyalariga qilingan 3.000 investitsiyalar bo'yicha foizli daromadlar”

Kt - 15989 –“So'ndirish muddatigacha 3.000 saqlanadigan qarz qimmatli qog'ozlarini xarid qilish bo'yicha xarajatlar”

Shartnoma bo'yicha foizlarni (foizlar oy oxirida olinadi deb faraz qilinadi) aks ettirish uchun quyidagicha buxgalteriya o'tkazmasi amalga oshiriladi:

Dt - Bankning vakillik yoki mijozning depozit 10.192 hisobvarag'i

Kt - 44805 –“Davlat obligatsiyalariga qilingan 10.192 investitsiyalar bo'yicha foizli daromadlar”

### **Nazorat savollari va topshiriqlar**

1. Real foiz stavkasi deganda nimani tushunasiz?
2. Kreditlarni dastlabki tan olish qanday amalga oshiriladi?
3. Qadrsizlanishdan ko'riladigan yoki ko'rilishi mumkin bo'lgan zarar nima?
4. Qarzdor tomonidan olingan garov bilan ta'minlanmagan kredit qaytarilmasa yoki to'liq qaytarilmasa, bank qanday yo'l tutadi?
5. Qarzdor tomonidan kredit muddatidan oldin qaytarilsa yoki kreditdan qaytarish muddatidan oldin boshqa shaxs foydasiga voz kechilsa bank qanday yo'l tutadi?
6. Kreditning qadrsizlanishi haqida gapirib bering.
7. Moliyaviy hisobotlarda kreditlarga qanday izohlar beriladi?
8. Kreditlar va olinishi lozim bo'lgan mablag'lar hisobvaraqlariga nimalar kirmasligini tushuntiring.

## **VI BOB. BANKLARDA MODDIY VA NOMODDIY AKTIVLAR VA ULARNING MHXS BO‘YICHA HISOBI**

### **6.1. Banklarda moddiy va nomoddiy aktivlarni hisobga olishda qo‘llaniladigan xalqaro standartlar.**

Banklarda moddiy aktivlar deyilganda ko‘proq asosiy vositalarga urg‘u beriladi. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarida ushbu uzoq muddatli aktivlarni hisobga olish qoidalari “Asosiy vositalar” nomli 16-son MHXSda o‘z ifodasini topgan.

“Asosiy vositalar” 16-son MHXSning maqsadi, moliyaviy hisobotlardan foydalanuvchilar bankning asosiy vositalariga qilgan investitsiyalarini va bunday investitsiyalardagi o‘zgarishlar haqidagi ma’lumotlarni tushunishi uchun asosiy vositalarni hisobga olish tartibini belgilab berishdan iboratdir. Asosiy vositalarni hisobga olishda aktivlarni tan olish, ularning balans qiymatini aniqlash va ular bo‘yicha eskirish xarajatlarini va qadsizlanish bo‘yicha zararlarni tan olish asosiy masalalar hisoblanadi.

MHXS 16 - asosiy vositalarni hisobga olishda qo‘llanilishi lozim, biroq boshqa MHXSlar asosiy vositalarni o‘zgacha hisobga olishni talab etgan yoki ruxsat etgan hollari bundan mustasno.<sup>28</sup>

Mazkur MHXS 16 quyidagilarga nisbatan qo‘llanilmaydi:

a) MHXS 5 “Sotish uchun mo‘ljallangan uzoq muddatli aktivlar va davom ettirilmaydigan faoliyat” ga asosan sotish uchun mo‘ljallangan deb tasniflanadigan asosiy vositalar;

b) qishloq xo‘jaligi faoliyatiga tegishli biologik aktivlar (BHXS 41 “Qishloq xo‘jaligi”);

d) foydali qazilmalarni qidirish va aniqlashda ushbu foydali qazilmalarning tan olinishi va baholanishi (MHXS 6 “Foydali qazilmalarni qidirish va aniqlash”;

---

<sup>28</sup> Xalqaro amaliyotda MHXS (moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari) va BHXS (buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari) tushunchasi bir xil ma’noga ega. Ular bir-biridan farq qiladi degan tushuncha mutlaqo ma’nosizdir (M.D-tahriri)

e) neft, tabiiy gaz va shunga o'xshash qayta tiklanmaydigan resurslar kabi foydali qazilmalarga huquqlar va foydali qazilmalarning zaxiralari.

Ushbu standart aktivlarni qazib olish yoki ishlatishda foydalaniladigan asosiy vositalarga nisbatan qo'llaniladi. Shuningdek, boshqa standartlar asosiy vositalar obyektining ushbu standartdagi yondashuvdan farq qiladigan yondashuv asosida tan olinishini talab etishi mumkin. Masalan, BHXS 17 "Ijara" tadbirkorlik subyektidan, jumladan banklarda ijaraga olingan asosiy vosita obyektining u bilan bog'liq bo'lgan risklar va mukofotlar bir tomondan boshqa tomonga o'tkazilishi asosida tan olinishini talab etadi. Biroq, bunday holatlarda ushbu aktivlarni hisobga olishdagi boshqa jihatlari, shu jumladan eskirishni hisobga olish, ushbu standartda belgilangan.

BHXS 40 "Investitsion mulk"ga muvofiq investitsion mulkni tannarx bo'yicha hisobga olish modelini qo'llaydigan banklar MHXS 16da belgilangan tannarx bo'yicha hisobga olish modelidan foydalanishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

"Asosiy vositalar" 16-son MHXSda quyidagi atamalardan foydalanish tavsiya etiladi:

*Balans qiymati* – bu har qanday jamg'arilgan eskirish va yig'ilgan qadrsizlanish bo'yicha zararlar chegirib tashlanganidan so'ng aktivning tan olinadigan summasi.

*Tannarx* – bu aktivni uning xaridi yoki qurilishi paytida sotib olish uchun to'langan pul mablag'i yoki pul mablag'i ekvivalentidagi qiymat yoki boshqa turdagi uning evaziga berilgan tovonning haqqoniy qiymati yoki, masalan BHXS 2 tegishli hollarda, boshqa BHXSslarning, "Aksiyaga asoslangan to'lov"ning aniq talablariga muvofiq ushbu aktivning dastlabki tan olinishidagi qiymatidir.

*Eskirish hisoblanadigan qiymat*– bu aktivning tugatish qiymati chegirilgandagi tannarxi yoki tannarx o'rniga aks ettiriladigan boshqa qiymatidir.

*Eskirish*– bu aktivning eskirish hisoblanadigan qiymatini uning foydali xizmat muddati davomida sistematik tarzda xarajatlarga olib borishdir.

*Banklarga xos qiymat*- bu bank tomonidan aktivdan davomiy foydalanishdan va foydali xizmat muddati oxirida balansdan chiqarishdan yoki majburiyat so'ndirilganida kutiladigan pul oqimlarining keltirilgan (diskontlangan) qiymatidir.

*Haqqoniy qiymat*- bu baholash sanasida bozor ishtirokchilari o'rtasidagi odatdagi operatsiyada aktivni sotishda olinishi mumkin bo'lgan yoki majburiyatni o'tkazishda to'lanishi mumkin bo'lgan narx (MHXS 13 "Haqqoniy qiymatni baholash").

*Qadrsizlanish bo'yicha zarar* - aktiv balans qiymatining uning qoplanadigan qiymatidan oshadigan qismi.

*Asosiy vositalar*- quyidagilar uchun mo'ljallangan moddiy aktivlar:

a) mahsulotlarni ishlab chiqarish yoki yetkazib berish yoki xizmatlar ko'rsatish yoki boshqa tomonlarga ijaraga berish, yoki ma'muriy maqsadlarda foydalanish uchun mo'ljallangan;

b) bir davrdan uzoqroq muddat davomida foydalanilishi kutilgan.

*Qoplanadigan qiymat* - bu aktivning quyidagi qiymatlaridan yuqorirog'i: sotish xarajatlari chegirilgandagi haqqoniy qiymati va uning foydalanishdagi qiymati.

*Aktivning tugatish qiymati* - bu aktivning chiqib ketishi bo'yicha baholangan harajatlar chegirilgan holda, bank ayni paytda xuddi aktiv foydali xizmat muddati oxirida kutilgan muddati va holatida bo'lganidek, aktivning chiqib ketishidan oladigan baholangan qiymatidir.

Foydali xizmat muddati bu:

a) aktivning bank tomonidan foydalanishi uchun yaroqli bo'lishi kutilgan davr;

b) tadbirkorlik subyektini tomonidan aktivdan olinishi kutilgan ishlab chiqarish hajmi (miqdori) yoki shunga o'xshash birliklar soni.

"Asosiy vositalar" - MHXS 16da asosiy vositalar obyektining tannarxi quyidagi shartlar bajarilganda, aktiv sifatida tan olinadi:

a) bank tomonidan asosiy vosita bilan bog'liq kelgusi iqtisodiy naf olinishi ehtimoli mavjud bo'lsa;

b) aktivning tannarxi ishonchli baholana olsa.

Ehtiyot qismlar, yordamchi va ta'mirlovchi jihozlar kabi moddalar asosiy vositalar ta'rifiga mos kelganida ushbu MHXSga muvofiq tan olinadi. Aksincha hollarda bunday moddalar tovar-moddiy zaxiralar sifatida tasniflanadi.

MHXS 16tan olish uchun o'lchov birligini, ya'ni asosiy vosita obyektini nimadan tashkil topishini belgilab bermaydi. Shuning uchun, bankning o'ziga xos shart-sharoitlaridan kelib chiqib tan olish mezonlarini qo'llash talab etiladi. Qoliplar, asboblari va moslamalar kabi alohida ahamiyatli bo'lmagan moddalarni birlashtirish va tan olish mezonlarini ushbu birlashtirilgan qiymatga nisbatan qo'llash o'rinli bo'lishi mumkin.

Bank barcha asosiy vositalar bilan bog'liq xarajatlarni ularning kelib chiqish paytiga qarab ushbu tan olish mezonlari asosida baholaydi. Bunday xarajatlari asosiy vosita obyektini sotib olish yoki qurish bilan bog'liq boshlang'ich xarajatlarni hamda asosiy vositani keyinchalik kengaytirish, qandaydir qismini almashtirish yoki unga texnik xizmat ko'rsatish uchun amalga oshirilgan xarajatlarni qamrab oladi.

Jahonda yuz berayotgan globallashuv jarayonida moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) buxgalteriya hisobining eng muhim me'yoriy hujjati sifatida tan olingan, banklar va kompaniyalarning moliyaviy faoliyatini yuritish hamda moliyaviy ahvoli haqidagi ma'lumotlarni shakllantiruvchi asosiy standartlardan biriga aylandi. Bugungi kunda 1dan 41 raqamgacha bo'lgan MHXS (yoki BHXS) tarkibida nomoddiy aktivlarga tegishli bo'lgan standart 38-son bilan ro'yxatdan o'tgan bo'lib, mazkur standart nomoddiy aktivlarning balans qiymatini baholaydi va ular to'g'risida muayyan ma'lumotlarni ochib beradi.

Nomoddiy aktivlarga berilgan ta'riflarda MHXS va BHMS (Buxgalteriya hisobining milliy standarti) o'rtasida o'xshashlik va farqlarni kuzatish mumkin. Xalqaro amaliyotda u moddiy-ashyoviy mazmunga ega bo'lmagan aniqlanadigan nomonetar aktiv sifatida talqin etilsa, milliy standartda korxonalar tomonidan ishlab chiqarish, ishlar

bajarish, xizmatlar ko'rsatishda foydalaniladigan, moddiy-ashyoviy mazmunga ega bo'lmagan mol-mulk obyektlari ko'rinishida ifodalanadi.

Ushbu ta'riflar har doim ham mazmuniga to'g'ri kelmasligi mumkin, masalan, MHXSda ta'kidlanishicha, ayrim nomoddiy aktivlar moddiy ko'rinishda saqlanishi mumkin, masalan, kompakt disk (kompyuter dasturi), huquqiy hujjatlar (litsenziya yoki patent) va tasma (filmlar). Shuningdek, nomoddiy va moddiy jihatlarga ega aktivlarni IAS 16 "Asosiy vositalar" bo'yicha hisobga olinishi yoki IAS 38ga muvofiq nomoddiy aktivlar sifatida hisobga olinishi lozim bo'ladi. Masalan, kompyuter dasturisiz faoliyat ko'rsatmaydigan kompyuter-nazorat-qiladigan uskuna uchun kompyuter dasturi tegishli ehtiyot qismning ajralmas qismi hisoblanadi va u asosiy vosita sifatida aks ettiriladi. Aynan shu yondashuv kompyuterning operatsion tizimiga nisbatan ham qo'llaniladi. Agar dastur uskunaga tegishli bo'lmasa, u holda, kompyuter dasturi nomoddiy aktiv sifatida hisobga olinadi.

BHMSda asbob-uskunaning ajralmas qismi hisoblangan dasturiy ta'minot asbob-uskunaning tannarxiga kiritiladi. Lekin, dasturiy ta'minotni belgilangan muddatlarda yangilab borilishi vaziyatni murakkablashtiradi. Asosiy vositalarga oid standartda hisob yuritishning turli obyektlarida iqtisodiy xizmatning muddatlari turlicha va ularni identifikatsiyalash mumkin bo'lsa, obyektlarni bo'lish lozimligi ko'rsatilgan. Ya'ni, ushbu holatda dasturiy ta'minot asosiy vositaning tarkibiy qismi bo'lib, unumli foydalanish muddati davrida amortizatsiyalanishga tegishli bo'lgan alohida inventar obyekti sifatida qayd etilishi kerak.

Shuningdek, dasturiy ta'minotni nomoddiy aktiv sifatida e'tirof etishning asosiy mezonini mulkiy huquq hisoblanadi. Natijada u foydalanuvchiga berilsa, sotib olish nomoddiy aktiv sifatida tasniflanadi. Aksincha bo'lsa, barcha xarajatlar kelgusi davrlar xarajatlari sifatida aks ettirilib, iqtisodiy naflarni olish muddatiga mutanosib ravishda joriy xarajatlarga olib borilishi ko'zda tutilgan.

Nomoddiy aktivlarni balansning eng tushunarsiz moddasi ekanligining yana bir holati shundaki, MHXSga muvofiq qilingan xarajatlar natijasi nomoddiy aktivlarni hosil qilish imkoniyatini bersada, lekin unga nisbatan g'oya yoki bilimlar berilganligi ta'kidlanadi. Masalan, reklama, trening, biznesni boshlash, tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlab chiqish faoliyatlari bo'yicha harajatlarni keltirish mumkin. Tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlab chiqish faoliyatlari bilimni rivojlantirishga yo'naltiriladi, demak ushbu faoliyat natijasi moddiy ko'rinishdagi aktivga (masalan, sanoat namunasi yoki tovar belgisi) olib kelishiga qaramasdan, aktivning moddiy jihati uning nomoddiy qismiga ikkilamchi sifatida qaralib, ular negizida ilmiy izlanishlar yotganligi ta'kidlanadi.

Banklar yoki kompaniyalar o'z faoliyatida ilmiy, texnik bilim, yangi jarayonlar, tizimlar, dizayn, litsenziyalar, intellektual mulk, bozor bilimi va savdo mulklarini (brend va chop etish nomlari) sotib olishda, takomillashtirishda hamda saqlashda doimiy ravishda resurslarni kengaytirib boradilar. Bu faoliyat yoki jarayonlar nomoddiy aktivlar bo'lib, ularning eng ko'p uchraydiganlariga quyidagilar kiritiladi: kompyuter dasturi, patentlar, mualliflik huquqlari, tasviriy filmlar, mijozlar ro'yxati, ipotekaga xizmat ko'rsatish huquqi, turli ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish uchun litsenziyalar, import kvotalari, franchayzinglar, mijoz yoki ta'minotchi aloqalari, mijoz sodiqligi, bozor ulushi va marketing huquqi kabilarni keltirish mumkin.

Nomoddiy aktivlarning aniq bir foydali xizmat muddati mavjud emas, shuning uchun xalqaro standartda quyidagi ikki holat bilan uning foydali xizmat muddatini belgilash mumkin deb qaraladi, birinchidan, nomoddiy aktivlar foydalanish uchun yaroqli bo'lishi yoki kutilgan davr, ikinchidan, mana shu aktivlardan olinishi kutilgan ishlab chiqarish hajmi (miqdori) ya'ni mahsulot birliklari soni.

Nomoddiy aktivlarni buxgalteriyada hisobga olish uning foydali xizmat muddatiga asoslanadi. Foydali xizmat muddati aniq bo'lgan nomoddiy aktiv amortizatsiya



qilinadi, foydali xizmat muddati aniq bo'lmagan nomoddiy aktivlar esa amortizatsiya qilinmaydi. Nomoddiy aktivning foydali xizmat muddatini aniqlashdagi omillarga quyidagilar kiritiladi: nomoddiy aktivlardan foydalanish mumkinligi, eskirishning texnik va texnologik turlari, foydalanadigan sohaning barqarorligi, foydalanishda ishlab chiqilgan mahsulotlarga bo'lgan bozor talabining o'zgarishi, raqobatchilar tomonidan kutilgan harakatlar, nomoddiy aktivlarni nazorat qilish davri, foydalanish bo'yicha huquqiy cheklovlar hamda nomoddiy aktivlar foydali xizmat muddati boshqa aktivlarning foydali xizmat muddatiga bog'liqligi.

Nomoddiy aktivlarning foydali xizmat muddatlari bo'yicha quyidagi misollarda tushunchalar berilgan:

*1. Foydali xizmat muddatini belgilash mumkinligi. **Bank** 200000\$ga dasturiy mahsulot sotib oladi. Uning foydali xizmat muddati 5 yil, taxminiy tugatilish qiymati nolga teng deb baholandi. Natijada buxgalter har yili sotib olingan dasturiy mahsulot bo'yicha 40000\$ miqdordagi amortizatsiyani ko'rsatadi.*

Ko'rsatkichlar	Hisobot shakllari	O'tkazmalar	
		Debet	Kredit
Amortizatsiya xarajatlari (tegishli obyektlar bo'yicha)	Foyda va zararlar to'g'risida	40000	-
Jamg'arilgan amortizatsiya	Buxgalteriya balansi	-	40000

Nomoddiy aktivlar quyidagi holatlarda bankning balansiga qabul qilinadi, ya'ni kiringa olinishi mumkin: sotib olish (xarid qilish), hadya ko'rinishida, ustav kapitaliga ulush sifatida, boshqa aktivlarga almashtirish va h.k.

Xalqaro standartda nomoddiy aktivlarni kirimi bo'yicha alohida xarid qilib olish tartibiga ko'proq e'tibor qaratilgan. Nomoddiy aktivni alohida sotib olishda to'lanayotgan summalar yoki boshqacha qilib aytganda, uning narxi kelgusida albatta iqtisodiy naf keltirishi kerak bo'ladi, natijada uning tannarxi odatda, ishonchli tarzida

baholanadi. Alohida sotib olingan nomoddiy aktivning tannarxi quyidagilarni qamrab oladi:

1. Savdo chegirmalarini va imtiyozlarini chegirgan holda, uning sotib olish narxini, jumladan import bojlari va sotib olish bilan bogʻliq qoplanmaydigan soliqlar;

2. Aktivdan foydalanish uchun sarflangan bevosita xarajatlar:

- aktivlarni ishchi holatiga keltirish boʻyicha xodimlarga toʻlanadigan haq;

- aktivlarni ishchi holatiga keltirish boʻyicha professional haqlar;

- aktivlarni toʻgʻri ishlayotganligini tekshirish boʻyicha xarajatlar.

3. Bank mualliflik huquqini alohida xarid qilib olish uchun 10 mln \$ miqdoridagi aksiyalarni chiqaradi. Lekin, shu davrdagi aksiyalarning bozor qiymati 12000000\$ miqdorida baholangan. Natijada buxgalter mualliflik huquqining haqqoniy qiymatini 12 mln \$ da aks ettiradi.

Koʻrsatkichlar	Hisobot shakllari	Oʻtkazmalar	
		Debet	Kredit
Nomoddiy aktiv (mualliflik huquqi)	Buxgalteriya balansi	12000000	-
Aksionerlik kapitali	Buxgalteriya balansi	-	12000000

“Nomoddiy aktivlar” 38-sonli xalqaro standartning maqsadi boshqa MHXS qamrab olmagan nomoddiy aktivlar uchun buxgalteriya hisobining yondashuvini belgilashdan iborat. Ushbu standart bankdan nomoddiy aktivni u faqat belgilangan mezonlarga javob berganida tan olishni talab etadi.

MHXS - 38 nomoddiy aktivlarning balans qiymatini qanday baholashni belgilaydi va nomoddiy aktivlar toʻgʻrisida muayyan maʼlumotlar ochib berilishini talab etadi.

Ushbu Standart nomoddiy aktivlarni hisobga olishda qoʻllanishi lozim, bundan quyidagilar mustasno:

a) boshqa Standart qoʻllash doirasidagi nomoddiy aktivlar;

b) BHXS - 32 “Moliyaviy instrumentlar: taqdim etish”da ta’riflangan moliyaviy aktivlar;

d) aktivlarning qidiruvi va baholanishini tan olish va baholash (MHXS - 6 “Foydali qazilmalarni qidirish va zaxiralarini baholash”);

e) foydali qazilmalar, neft, tabiiy gaz va shunga o’xshash qayta tiklanmaydigan resurslarni qayta ishlash va qazib olish xarajatlari.

Agarda boshqa standart nomoddiy aktivning ma’lum turi uchun buxgalteriya hisobi tartibini belgilasa, bank mazkur MHXS o’rniga o’sha standartni qo’llaydi. Masalan, mazkur standart quyidagilar uchun qo’llanilmaydi:

a) bank tomonidan oddiy biznes faoliyatida sotish uchun egalik

qilinayotgan nomoddiy aktivlar (BHXS - 2 “Tovar - moddiy zaxiralar” va BHXS - 11 “Qurilish shartnomalari”).

b) muddati uzaytirilgan soliq aktivlari (BHXS - 12 “Foyda soliqlari”).

d) BHXS - 17 “Ijara”ning qo’llash doirasidagi ijaralar.

e) Xodimlarga haq to’lashdan yuzaga keladigan aktivlar (BHXS - 19 “Xodimlarning daromadlari”).

f) BHXS- 32da ta’riflangan moliyaviy aktivlar. Ba’zi moliyaviy aktivlarning tan olinishi va baholanishi MHXS-10 “Jamlangan (konsolidatsiyalashgan) moliyaviy hisobotlar”.

BHXS - 27 “Alohida moliyaviy hisobotlar” va BHXS - 28 “Qaram tadbirkorlik subyektlaridagi va qo’shma korxonalaridagi investitsiyalar” da qamrab olingan.

g) Biznes birlashuvida sotib olingan gudvill (MHXS - 3 “Biznes birlashuvlari”).

h) MHXS - 4 “Sug’urta shartnomalari”ning qo’llash doirasidagi sug’urta shartnomalari asosidagi sug’urtachining shartnomaviy huquqlaridan kelib chiqadigan muddati uzaytirilgan xarid xarajatlari va nomoddiy aktivlar. MHXS - 4 ushbu nomoddiy aktivlar uchun emas, balki ushbu muddati uzaytirilgan xarid xarajatlari uchun aniq ma’lumotlar ochib berilishi talablarini belgilaydi. Shu tufayli, mazkur standartdagi

ma'lumotlarni ochib berish bo'yicha talablar ushbu nomoddiy aktivlar uchun qo'llaniladi.

i) MHXS - 5 "Sotish uchun mo'ljallangan uzoq muddatli aktivlar va davom ettirilmaydigan faoliyat"ga muvofiq sotishga mo'ljallangan sifatida tasniflangan (yoki sotishga mo'ljallangan sifatida tasniflangan hisobdan chiqarish guruhiga kiritilgan) uzoq muddatli nomoddiy aktivlar.

Ba'zi nomoddiy aktivlar moddiy ko'rinishda saqlanishi mumkin, masalan, kompakt disk (kompyuter dasturi misolida), huquqiy hujjatlar (litsenziya yoki patent misolida) yoki film.

Nomoddiy va moddiy jihatlarga ega aktivni BHXS - 16 "Asosiy vositalar" bo'yicha hisobga olinishi yoki mazkur standart bo'yicha nomoddiy aktivlar sifatida hisobga olinishini aniqlash uchun, bank qaysi jihat ahamiyatliroqligini baholashda foydalanadi. Masalan, aniq bir kompyuter dasturisiz faoliyat ko'rsatmaydigan kompyuter-nazorat qiladigan uskuna uchun kompyuter dasturi tegishli ehtiyot qismning ajralmas qismidir va u asosiy vosita sifatida hisobga olinadi. Aynan shu yondashuv kompyuterning operatsion tizimiga nisbatan qo'llaniladi. Qachonki dastur tegishli ehtiyot qismning ajralmas qismi bo'lmasa, kompyuter dasturi nomoddiy aktiv sifatida hisobga olinadi.

Shuningdek, MHXS - 38 reklama, trening, biznesni boshlash, tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlab chiqish faoliyatlari bo'yicha xarajatlar uchun qo'llaniladi. Tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlab chiqarish faoliyatlari bilimni rivojlantirishga yo'naltirilgandir.

Ushbu faoliyatlar natijasi moddiy ko'rinishdagi aktivga (masalan, namuna) olib kelishiga qaramasdan, aktivning moddiy jihati uning nomoddiy qismiga ikkilamchidir, ya'ni unda bilim singdirilgandir.

Moliyaviy ijara holatida, aktiv moddiy yoki nomoddiy bo'lishi mumkin. Dastlab tan olingandan so'ng, ijaraga oluvchi moliyaviy ijara kelishuvi asosida egalik qilinayotgan nomoddiy aktivni mazkur standartga muvofiq hisobga oladi. Tasviriy filmlar, video tasmalari, yozma asarlar, qo'lyozmalar, patentlar va mualliflik huquqlari kabi

moddalar uchun litsenziyalash kelishuvlari asosidagi huquqlar BHXS - 17 qo'llash doirasidan chiqarilgan va mazkur standart qo'llash doirasidadir.

Agar faoliyatlar yoki operatsiyalar maxsuslashtirilib, boshqacha yondashuv zarur bo'ladigan buxgalteriya hisobini qo'llashga olib kelsa, mazkur Standartning qo'llash doirasida istisno bo'lishi mumkin. Bunday masalalar qazib olish sohasida neft, gaz va mineral depozitlarni qidiruv yoki qayta ishlash va qazib chiqarish xarajatlarini hisobga olishda hamda sug'urta shartnomalari holatlarida yuzaga keladi. Shu tufayli, mazkur Standart bunday faoliyatlardagi xarajatlar va shartnomalar uchun qo'llanilmaydi. Biroq, mazkur Standart qazib olish sohaslarida yoki sug'urtachilar tomonidan foydalanilgan boshqa nomoddiy aktivlar (masalan, kompyuter dasturi) va sarflangan boshqa xarajatlar (masalan, biznesni boshlash xarajatlari) uchun qo'llaniladi.

Banklarning moddiy aktivlar tarkibiga tovar-moddiy zaxiralar ham kiritiladi. Ushbu aylanma mablag'lar kam baholi va tez eskiruvchi buyumlar nomi bilan hisobotda aks ettiriladi. Xalqaro amaliyotda esa MHXS - 2 "Zaxiralar" standartida asosiy tushunchalar va baholash tartibi bayon etiladi.

MHXS - 2 "Zaxiralar" standartining maqsadi tovar-moddiy zaxiralarni (TMZlarni) hisobga olish tartibini belgilashdan iboratdir. TMZlarni hisobga olishda asosiy masala TMZlarning tannarxi qanday summada aktiv sifatida tan olinishi va ular bilan bog'liq bo'lgan daromadlar kelgusi davrlarda tan olinguncha hisobga olinishi kerakligidir. Ushbu standart tannarx va uning keyinchalik xarajat sifatida tan olinishi, shu jumladan uning har qanday sof sotish qiymatigacha kamaytirilishi bo'yicha ko'rsatmalar beradi. Shuningdek, tovar-moddiy zaxiralarning tannarxini aniqlashda qo'llaniladigan tannarxni hisoblash formulalari bo'yicha ko'rsatmalarni keltiradi.

Standartda quyidagi atamalardan foydalaniladi: **Tovar-moddiy zaxiralar**– bu quyidagi aktivlardir:

- a) odatdagi faoliyat doirasida sotish uchun mo'ljallangan;
- b) sotuv uchun ishlab chiqarish jarayonida bo'lgan;
- d) ishlab chiqarish jarayonida yoki xizmatlar ko'rsatilishida foydalanilishi ko'zlangan xomashyo va materiallar ko'rinishidagi aktivlar.

*Sof sotish qiymati*- bu odatdagi faoliyat davomida ishlab chiqarishni oxiriga yetkazish bo'yicha xarajatlar va sotishni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan va taxminiy baholangan xarajatlar chegirib tashlangan sotish bahosidir.

*Haqqoniy qiymat*- bu baholash sanasida bozor ishtirokchilari o'rtasidagi odatdagi operatsiyada aktivni sotishdan olinishi mumkin bo'lgan yoki majburiyatni o'tkazishda to'lanishi kerak bo'lgan narxdir (MHXS - 13 "Haqqoniy qiymatni baholash").

Sof sotish qiymati tushunchasi bankning odatdagi faoliyati davomida tovar-moddiy zaxirani sotishdan olinishi mo'ljallangan sof summani anglatadi.

*Haqqoniy qiymat*- baholash sanasida, TMZni xuddi shunday TMZ sotiladigan asosiy bozorda(yoki eng katta manfaat keltiradigan bozorda) sotish bo'yicha bozor ishtirokchilari o'rtasidagi odatdagi operatsiya amalga oshirilishi mumkin bo'lgan bahoni aks ettiradi. Birinchisi-tadbirkorlik subyektiga xos qiymat; ikkinchisi esa yo'q. Tovar-moddiy zaxiralarning sof sotish qiymati ularning sotish xarajatlari chegirilgandagi haqqoniy qiymatiga teng bo'lmasligi mumkin.

Tovar-moddiy zaxiralar sotib olingan va qayta sotish uchun mo'ljallangan tovarlarni qamrab oladi, masalan chakana savdo tashkiloti tomonidan sotib olingan va qayta sotish uchun saqlanadigan tovarlar, yoki qayta sotish uchun mo'ljallangan yer va boshqa mulklar.

## **6.2. Banklarda asosiy vositalarni baholash, kiringa olish va hisobdan chiqarish**

*Asosiy vositalar* - bir yildan ko'proq xizmat qilish muddatiga ega bo'lgan, ishlab chiqarish yoki tovarlarni

yetkazib berish, ma'muriy maqsadlar uchun foydalaniladigan yoki ijaraga beriladigan aktivlar.

*Ko'chmas mulk, uskunalar va jihozlar* - bir yildan ortiq muddat foydalanishga mo'ljallangan, ishlab chiqarish yoki tovarlarni yetkazib berish, ma'muriy maqsadlar uchun foydalaniladigan yoki ijaraga beriladigan moddiy aktivlar. Ular, asosiy vositalar tarkibiga kiradi. Shuning uchun ular ko'proq asosiy vositalar deb atashadi.

*Boshlang'ich (tarixiy) qiymat* - asosiy vositani sotib olish yoki uni qurish (qurish va qurilishni tugallash) bilan bog'liq barcha xarajatlar, shu jumladan, to'langan soliqlar, bojxona bojlari va yig'implari hamda yetkazib berish, montaj, o'rnatish va ishga tushirish bilan bog'liq bevosita aktivlardan belgilangan maqsadda foydalanish uchun uni ishchi holatiga keltirish bilan bog'liq bo'lgan barcha xarajatlar summasidir. Shuning uchun boshlang'ich qiymat asosiy vositaning tannarxi deb ham ataladi.

Asosiy vositalarni boshlang'ich qiymati qayta baholangan sanaga nisbatan haqqoniy bahoni aks ettirish uchun oldindan qayta baholanadi;

*Balans qiymati* - bu aktivning balans hisobotida jamg'arilgan eskirish va qiymatini yo'qotishdan keladigan zararni chiqarib tashlagandan keyingi qolgan summa.

*Likvidatsion (tugatilish) qiymat* - aktiv eskirib, o'zining foydalanish xizmat muddati oxirida ega bo'ladigan, ya'ni shu vaqtda bank ushbu aktivni tugatish bilan bog'liq harajatlarni chiqarib tashlagandan so'ng, uni hisobdan chiqarishdan olinadigan, baholangan summa.

*Haqqoniy (real) qiymat* - bu aktivning joriy bozor qiymati yoki o'zaro manfaatdor tomonlar o'rtasida aktivlarni almashtirish mumkin bo'lgan summadir. Mazkur aktivning faol bozori mavjud bo'lmagan taqdirda haqqoniy qiymat qonunchilikka muvofiq, baholash faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga ega bo'lgan mustaqil ekspertlar tomonidan aniqlangan qiymatdir.

*Qayta tiklangan qiymat* - bu asosiy vositaning bank buxgalteriya balansidagi qayta baholangan qiymati.

*Foydali xizmat muddati* - bu bank tomonidan aktivlardan foydalanish mo'ljallanayotgan davr yoki ushbu

aktivdan foydalanishdan bank qo'liga kiritishni kutayotgan ish va xizmatlar miqdori.

*Amortizatsiya (eskirish)* - aktivning iqtisodiy hayoti mobaynida uning eskirish qiymatini muttasil va oqilona ravishda taqsimlanishi.

*Amortizatsiyalanadigan qiymat* - aktivning tannarxi yoki tannarxni almashtiradigan boshqa qiymatidan tugatilish qiymati chegirilgan summadir.

*Qiymatni pasayishi (qadrsizlanish)dan olingan zarar* - aktivning balans qiymatini uning qoplanish qiymatidan oshgan summasi. Qoplanadigan summa - aktivni sof sotish va uning foydalanish qiymatidan eng katta bo'lgan qiymat.

*Foydalanish (qimmatlilik) qiymati* - aktivning foydalanish xizmati muddati mobaynida olininishi ko'zda tutilayotgan va ushbu aktivni hisobdan chiqarishdan olinadigan pul tushumlarining diskontlangan qiymati.

*Sof sotish qiymati* - o'zaro bir-biriga qaram bo'lmagan tomonlar o'rtasida tuzilgan bitim asosida aktivlarni sotilishidan olinishi mumkin bo'lgan, aktivni chiqib ketishi bilan bog'liq xarajatlarni chegirgan summa.

*Ayirboshlash* - korxonalar orasida aktivlarni berish yoki boshqa turdagi xizmatlarni bajarish yoxud boshqa aktivlarni berish evaziga majburiyatlarni qoplash yuzasidan o'zaro bir-biriga yetkazib berish.

*Bir taraflama berish* - aktivlar yoki xizmatlarni bir taraflama berish, bankdan uning mulkdorlariga yoki teskarisi, mulkdorlar va boshqa tashkilotlardan muayyan bankka.

*Tugatish qiymati* - asosiy vositalarning foydali xizmat qilish muddati oxirida asosiy vositalarni tugatishdan olinadigan qiymatdan taxmin qilinayotgan chiqib ketish xarajatlarini ayirgandan keyingi qolgan qiymati.

*O'xshash ishlab chiqarish aktivlari* - bir umumiy turga mansub bo'lgan, bir xil vazifalarni bajaradigan yoki xuddi o'sha xo'jalik faoliyatida ishlatiladigan ishlab chiqarish aktivlari.

Asosiy vositalar hisobida to'rt asosiy masala mavjud:

1. Asosiy vositalar qabul qilinishida dastlabki ro'yxatdan o'tkazish summasi yoki uning tannarxini



aniqlash. Bu qiymat asosiy vositaning boshlang'ich-tarixiy qiymati bo'ladi.

2. Asosiy vositalar qiymatini kelgusi davrlarga taqsimlash uchun aniqlangan eskirish usuli va stavkasini belgilash.

3. Asosiy vositalar olingandan keyin qiymatining o'zgarishi, shu jumladan qiymatining ko'payishi yoki mumkin bo'lgan kamayishi, kamayishining oqibatlari hisobvaraqlarda qanday qilib aks ettirilishi.

4. Asosiy vositalarni hisobdan chiqarishni ro'yxatga olish.

Asosiy vositalarning buxgalteriya hisobini 16-MHXS "Asosiy vositalar" nomli standart bo'yicha tartibga solish tavsiya etiladi. Asosiy vositalar bankda ham, boshqa korxonada va tashkilotlarda ham bir xil ahamiyatga ega.

Lekin, banklarda asosiy vositalarning hisobi bilan bog'liq buxgalteriya o'tkazmalari O'zbekiston Respublikasi banklarida asosiy vositalarning buxgalteriya hisobini yuritish "O'zbekiston Respublikasi banklarida asosiy vositalarning buxgalteriya hisobini yuritish to'g'risida"gi yo'riqnoma (Ro'yxat raqami 1434, 2004- yil 17-dekabr) talablari asosida amalga oshiriladi. Ushbu yo'riqnoma yuqorida qayd etilgan MHXS 16ga muvofiq ishlab chiqilgan yoki uning qoidalarini to'la xalqaro standartlarga mos keladi.

Banklarda asosiy vositalarning buxgalteriya hisobini tushuntirishda ushbu yo'riqnoma qoidalaridan foydalaniladi.

Asosiy vositalar obyektivi aktiv sifatida MHXSning umumiy qoidalarini asosida tan olinishi kerak, ya'ni:

- aktiv bilan bog'liq bo'lgan kelgusi iqtisodiy naflar bank tomonidan olinishi ehtimoli yuqori darajada deb tasdiqlanganda;

- korxonada uchun aktivning tannarxi ishonchli baholanishi mumkin bo'lganda.

Aktivdan foydalanish natijasida kelajakda keladigan iqtisodiy samara, bank tomonidan undan foydalanish natijasida yuzaga kelgan xizmatlarni sotishdan tushadigan tushumni, xarajatlarni tejash va boshqa foydalarni o'z ichiga olishi mumkin. Ushbu iqtisodiy naflarni olish

ehtimoli yuqori bo'lganda bank aktiv bilan bog'liq manfaatlarni va tavakkalchiliklarni o'z zimmasiga olishi aniq bo'lishini talab etadi. Bunday aniqlik ushbu manfaatlar va tavakkalchiliklar bankka o'tgandagina, mavjud bo'ladi. Ushbu vaqtga qadar aktivni olish bilan bog'liq operatsiya ahamiyatli bo'lmagan jarima choralari bilan bekor qilinishi mumkin, shuning uchun aktiv tan olinmaydi.

Tan olishning ikkinchi sharti osonlik bilan bajo keltiriladi, chunki aktivlarni sotib olinganligi to'g'risida dalil bo'lgan ayirboshlash operatsiyasi natijasida uning qiymati aniqlanadi. Aktiv o'z kuchi bilan barpo etilgan taqdirda uning bahosi materiallarni sotib olish bilan bog'liq tashqi tomonlar bilan operatsiyalar, ish kuchi va qurilish jarayonida amalga oshirilgan boshqa xarajatlar asosida aniqlanadi.

Asosiy vosita qiymati ishonchli tarzda baholangandagina, u bankning buxgalteriya yozuvlarida aks ettirilib, tan olinadi. 16-sonli BHXS: Aktiv sifatida tan olinadigan asosiy vositalar obyekti dastlab tannarxi bo'yicha baholanishi kerak.

Sotib olingan asosiy vositalar balansda boshlang'ich (tarixiy) qiymati yoki agar, keyinchalik qayta baholangan bo'lsa, demak u qayta baholangan qiymati bo'yicha aks ettiriladi.

Sotib olingan asosiy vositalarning boshlang'ich qiymati, quyidagi xarajatlarni o'z ichiga oladi:

- aktivni yetkazib beruvchilarga va shartnomaga asosan qurilish-montaj ishlarini bajarilishi uchun ijarachilarga to'langan summa;

- asosiy vositalarni obyektni sotib olish uchun to'langan ro'yxat bo'yicha yig'imlar, davlat boji (bojxona boji, yig'imlar va boshqalar) va boshqa o'xshash to'lovlar;

- asosiy vositalar obyektni sotib olish (yaratish) bilan bog'liq soliqlar va yig'imlar (agar ular qayta qoplanmagan bo'lsa);

- asosiy vosita obyektni o'zlashtirish bilan bog'liq bo'lgan axborot va maslahat xizmati uchun to'lovlar summasi;

- obyektning yetkazib berish bo'yicha sug'urta riski xarajati;

- asosiy vositani olishda o'rtada turganlarga mukofot puli;

- yetkazib berish, montaj, o'rnatish va ishga tushirish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar;

- bevosita aktivdan belgilangan maqsadda foydalana olish uchun uni ishchi holatiga keltirish bilan bog'liq bo'lgan boshqa xarajatlar.

Xorijiy valyuta hisobiga sotib olingan asosiy vositalar balansda davlat bojxona deklaratsiyasi rasmiylashtirilgan kundagi Markaziy bankning kursi bo'yicha milliy valyutada aks ettiriladi hamda xorijiy valyutaning kursi o'zgarishi munosabati bilan ular qayta baholanmaydi.

Ma'lum hollarda aktiv bilan bog'liq xarajatlarning umumiy summasini alohida qismlarga bo'lish va har bir qismni alohida hisobga olish lozim. Bunday hisob yuritish ushbu obyektning alohida qismlari har xil foydali xizmat qilish muddatiga ega bo'lgan holda amalga oshiriladi.

Tekinga olingan asosiy vositalar, ularni sotib olishda ko'rsatilganidek avvaliga balansda xarajatlarni hisobga olgan holda buxgalteriya hisobiga olingan sanaga nisbatan haqqoniy qiymatda tan olinadi. Asosiy vositalarning boshlang'ich qiymatiga kelgusida aniq xarajatlar qilinganda, ular qayta baholanganda, chiqarib tashlanganda va asosiy vosita obyekti yoki uning ayrim bo'lagi sotilganda, tuzatishlar kiritilishi mumkin.

Bankning balansiga asosiy vositalar quyidagi hollarda olinadi:

1. Naqd pulga, to'lov evaziga sotib olish;
2. Obyektlarni qurish yoki rekonstruksiya qilish yo'li bilan;
3. Pulga oid bo'lmagan operatsiyalar orqali (ayirboshlash);
4. Tekinga olish yoki subsidiya yo'li bilan;
5. Moliyaviy ijara (lizing) shartnomasiga ko'ra;
6. Ortiqcha chiqqan (hisobga olinmagan) asosiy vositalar.

Asosiy vositalar, loyiha-tadqiqot ishlari, qurilish materiallari, mehnat, bino (inshoot)lar qurilishi (ta'mirlanishi) bilan bog'liq xarajatlar va asosiy vositalarni sotib olish bilan bog'liq boshqa kapitallashtirilgan xarajatlar qiymatini oldindan to'liq yoki qisman to'lash quyidagi buxgalteriya yozuvlari bilan rasmiylashtiriladi:

Debet - 19909 "Tovar-moddiy qimmatliklari to'langan mablag'lar hisobvarag'i";

Kredit - Bankning vakillik hisobvarag'i yoki mijozning (mol yetkazib beruvchining) talab qilib olinguncha depozit hisobvarag'i, agar ularga ushbu bank xizmat ko'rsatsa.

Sotib olingan binolar (inshootlar) balansda quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi bilan aks ettiriladi:

Debet - 16509 "Bankning imoratlari - Binolar va boshqa qurilgan imoratlar".

Kredit - 19909 "Tovar-moddiy qimmatliklari to'langan mablag'lar hisobvarag'i".

Sotib olingan boshqa asosiy vositalarni balansda aks ettirish:

Debet - 165\*\* - "Asosiy vositalarning tegishli hisobvarag'i";

Kredit - 19909 "Tovar-moddiy qimmatliklari to'langan mablag'lar hisobvarag'i".

Asosiy vositalarni omborga kirim qilish quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi bilan rasmiylashtiriladi:

Debet - 16561 "Ombordagi asosiy vositalar";

Kredit - 19909 "Tovar-moddiy qimmatliklari to'langan mablag'lar hisobvarag'i".

Ta'mirlashni talab qiladigan sotib olingan binolar ta'mirlash ishlari tugagunga qadar 16505 - "Tugallanmagan qurilishlar" balans hisobvarag'ining alohida shaxsiy hisobvarag'ida hisobga olinadi. Bunda binolarni (inshootlarni) qurish (ta'mirlash) ishlari bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar, loyiha-tadqiqot ishlari, qurilish materiallari va mehnat xarajatlari qabul qilish dalolatnomalariga asosan quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi orqali hisobvaraqlarda aks ettiriladi:

Debet - 16505 "Tugallanmagan qurilishlar";

Kt - 19909 “Tovar-moddiy qimmatliklari to‘langan mablag‘lar hisobvarag‘i”.

Agar keyingi xarajatlar chet ellik hamkor bilan tuzilgan shartnomaga asosan chet el valyutasida amalga oshirilsa, xarajatlarning hisobi 16505 – “Tugallanmagan qurilishlar” hisobvarag‘ida operatsiya bajarilgan kundagi O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining kursi bo‘yicha so‘mdagi ekvivalentda amalga oshiriladi.

Yil oxirida bankning barcha filiallariga ochilgan 16505-“Tugallanmagan qurilishlar” hisobvaraqlaridagi qoldiq Bosh bankda tugallanmagan qurilishning hajmiga mos kelishi kerak va u keyingi yilga o‘tkaziladi.

Binolar (inshootlar) foydalanishga tayyor bo‘lgan holda ularning qiymati tegishli qabul qilish dalolatnomasiga asosan 16509 – “Bank imoratlari-binolar va boshqa qurilgan imoratlar” hisobvarag‘iga kirim qilinadi. Agar qurilish yoki ta‘mirlash ishlarining xarajatlar smetasida mebel va jihozlarni sotib olish ko‘zda tutilgan bo‘lsa, unda qabul qilish dalolatnomasida ularning qiymati umumiy qiymatdan ajratib ko‘rsatiladi va to‘liq ro‘yxati ilova qilinadi. Bunda quyidagi buxgalteriya yozuvlari rasmiylashtiriladi:

a) binoning qiymati summasiga:

Debet - 16509 “Bankning imoratlari - Binolar va boshqa qurilgan imoratlar”;

Kredit - 16505 “Tugallanmangan qurilishlar”.

b) mebel va jihozlarning qiymati summasiga:

Debet - 16535 “Mebel, moslama va jihozlar”;

Kredit - 16505 “Tugallanmangan qurilishlar”.

Agar bank to‘lovni moddiy aktivlar kirim qilingandan keyin amalga oshirsa, tegishli kirim hujjatlariga asosan quyidagi buxgalteriya o‘tkazmasi bajariladi:

Moddiy aktivlar kelib tushganda balansda aks ettirish:

a) agar asosiy vositalar kelib tushgandan darhol foydalanishga berilsa:

Debet - 165\*\* “Asosiy vositalarning tegishli hisobvarag‘i”, yoki

16505 – “Tugallanmangan qurilishlar” (agar qayta ta’mirlashni talab qiladigan bino, tugallanmagan qurilish yoki qurilish uchun materiallar sotib olinayotgan bo’lsa);

Kredit - 29802 “Tovar - moddiy qimmatliklar va ko’rsatilgan xizmatlar uchun to’lanadigan mablag’lar hisob-kitobi”.

b) asosiy vositalar omborga kirim qilinganda:

Debet - 16561 “Ombordagi asosiy vositalar”;

Kredit - 29802 “Tovar - moddiy qimmatliklar va ko’rsatilgan xizmatlarga to’lanadigan mablag’lar hisob-kitobi”.

2) Aktivlarning qiymati to’langanda:

Debet - 29802 “Tovar - moddiy qimmatliklar va ko’rsatilgan xizmatlar uchun to’lanadigan mablag’lar hisob-kitobi”;

Kredit - Bankning vakillik hisobvarag’i yoki mijozning hisobvarag’i.

3) Asosiy vositalarni ombordan foydalanishga topshirganda:

Debet - 165\*\* “Asosiy vositalarning tegishli hisobvarag’i”;

Kredit - 16561 “Ombordagi asosiy vositalar”.

Asosiy vositalar bepul olinganda quyidagi buxgalteriya o’tkazmasi amalga oshiriladi. Bepul olingan asosiy vositalarning real qiymatiga:

Debet - 165\*\* “Asosiy vositalarning tegishli hisobvarag’i”, yoki 16561 – “Ombordagi asosiy vositalar” (agar omborga kirim qilinsa);

Kredit - 45994 “Boshqa foizsiz daromadlar”.

Bunda yuzaga keladigan xarajatlar joriy xarajatlarning hisobiga olinadi.

Agar asosiy vositalar subsidiya yo’li bilan olingan bo’lsa, quyidagi buxgalteriya o’tkazmasi amalga oshiriladi:

Debet - 165\*\* asosiy vositalarning tegishli hisobvarag’i;

Kredit - 22896 – “Boshqa muddati uzaytirilgan daromadlar”.

Muddati uzaytirilgan daromadlar tijorat banklarining grant buxgalteriya hisobi qonuniga (21.01.2004-yilda

1300-son bilan ro'yxatga olingan) kelgusida 22896 hisobvarag'ida hisobga olinadi.

Agar (amaldagi qonunchilikka muvofiq byudjetga soliqlar to'lashdan ozod qilingan) banklar asosiy vositalarni bank infratuzilmasini rivojlantirish doirasida soliqdan ozod qilingan mablag'lar hisobidan sotib olishgan bo'lsa, ularning qiymatini 30903 - "Umumiy zaxira fondi" balans hisobvarag'ining "Bank infratuzilmasini rivojlantirishga sarflangan mablag'lar" shaxsiy hisobvarag'iga kirim qilish quyidagi ko'rinishdagi buxgalteriya o'tkazmasi bilan rasmiylashtiriladi:

Debet - 30903 "Umumiy zaxira fondi",  
"Bank infratuzilmasini rivojlantirish fondiga yo'naltirilgan mablag'lar" sh/h.;

Kredit - 30903 "Umumiy zaxira fondi",  
"Bank infratuzilmasini rivojlantirishga sarflangan mablag'lar".

Asosiy vositalar yoki ularning ayrim qismlari ko'p hollarda boshqa pul bo'lmagan aktivlarga ayirboshlanishi mumkin. Bunday usulda olingan asosiy vositalar haqqoniy qiymati bilan balansda aks ettirilishi yoki tan olinishi lozim. Faqat quyidagi ikki holatdan tashqari hollarda:

1. Ayirboshlash tijorat maqsadida ega emas yoki foyda olishni ko'zlamagan.

2. Ayirboshlanayotgan asosiy vositalarning haqqoniy qiymatini aniqlash imkoni yo'q.

Ayirboshlashning birinchi sharti, ya'ni u tijorat tavsifiga ega yoki yo'qligi bir necha usullarda aniqlanadi, lekin asosiy shartlaridan biri bu jarayonni amalga oshirishdan ko'zlangan maqsadga to'g'ri yondashishdan iborat.

Bundan tashqari ayirboshlanayotgan asosiy vositaning xususiyatlari ham inobatga olinadi.

Ayirboshlashning ikkinchi sharti, ya'ni ayirboshlanayotgan asosiy vositalarning haqqoniy qiymatini aniqlash imkoni yo'q bo'lsa, unda ular balans qiymati bilan tan olinadi yoki boshqacha aytganda ularning shu bugungacha balansda qanday summada aks ettirilgan bo'lsa, ularni shu summada yana balansga qabul qilinadi.

MHXS - 16 bo'yicha asosiy vositalarni pulsiz ayirboshlanganda quyidagi qoidalariga amal qilish tavsiya etilgan:

1. Qiymatni aniqlash uchun ayirboshlashda olingan aktiv qiymati va uning o'rnini to'ldirish uchun tovon sifatida beriladigan aktiv qiymati bir-biri bilan solishtiriladi va bunda olingan yoki to'langan har qanday pul mablag'lari bo'yicha tuzatishlar hisobga olinadi.

2. Agar korxonadan tomonidan ayirboshlash uchun berilgan aktivlarda xuddi shu maqsadlarda va xuddi shu usullarda foydalanish uchun mo'ljallangan bir xildagi aktivlar ishtirok etsa, ayirboshlash daromad olish jarayoni sifatida ko'rilmaydi, demak na foyda, na zarar tan olinmaydi. Yangi aktiv ayirboshlashda berilgan aktivning balans qiymati bo'yicha ro'yxatga olinadi va bunda olingan yoki to'langan har qanday pul mablag'lari bo'yicha tuzatishlar hisobga olinadi.

3. Agarda har xil turdagi aktivlar almashtirilsa, unda ayirboshlash natijasida olingan asosiy vositaning qiymatiga uning haqqoniy qiymatiga izoh berish yo'li bilan aniqlanadi. Odatda almashtirish uchun berilgan asosiy vositalarning haqqoniy qiymati olingan yoki to'langan har qanday pul mablag'lari bo'yicha tuzatishlar kiritiladi. Ayirboshlash daromad olish vositasi sifatida tan olinadi va har qanday foyda ham, zarar ham pul olinishi yoki to'lanishidan qat'iy nazar, hisobga olinadi (agar ayirboshlashda ishtirok etgan aktivlarni qiymatida farq mavjud bo'lsa).

4. Aksiyalar evaziga olingan asosiy vositalar.

Aksiyalar asosiy vositalarni olish uchun chiqariladigan bo'lsa, aktivlarning haqqoniy qiymati bo'yicha yoki chiqarilgan aksiyalarni haqqoniy qiymati bo'yicha aks ettiriladi, bunda qaysi qiymat aniqroq va ishonchliroq bo'lsa, shunisi qo'llaniladi.

Banklar amaliyotida kredit olgan mijozlarning krediti to'liq yoki qisman qaytarilmaganda uni ta'minot sifatida qo'yilgan garov mulkini undirish orqali qoplanadi. Ushbu tartib xalqaro amaliyotda keng qo'llaniladi.

Respublikamiz qonunchiligida ham qarzdor mulk garovi ostida olgan krediti bo'yicha o'z majburiyatlarini



bajarmagan holda, bank (garov egasi) o'zining garov huquqidan foydalanishi va garov mulkini sotishi yoki o'z mulkiga aylantirib olishi mumkinligi ko'zda tutilgan. Sotish uchun mo'ljallangan garovga qo'yilgan mulk boshlanishida undirib olinadigan mulk va boshqa ko'chmas mulk hisob-kitobi to'g'risidagi me'yoriy hujjatda aks ettiriladi.

Agar, bank hisobiga o'tadigan mulkdan o'zining asosiy vositasi sifatida foydalanishga qaror qilsa, unda quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi amalga oshiriladi:

Debet - 165\*\* asosiy vositalarning tegishli hisobvarag'i,

Debet - 16799 – Bankning boshqa xususiy mulklari bo'yicha ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash zaxirasi (kontr-aktiv);

Kredit - 16701 Kredit va lizing bo'yicha garov hisobidan undiriladigan mulk.

Asosiy vositalarni qayta baholash uchun quyidagi usullar qo'llaniladi:

- indeks usuli;

- to'g'ridan – to'g'ri qayta baholash usuli.

Indeks usuli. Qayta baholashning indeks usulida asosiy vositalarning balans qiymati va qayta baholash kunidagi shu aktivlarning jamg'arilgan amortizatsiyasi ma'lum indeksdan foydalangan holda qayta baholanadi. Shundan keyin aktivlarning qayta baholangan qiymati ularning balans qiymati va jamg'arilgan eskirishi bilan taqqoslanadi va o'rtadagi farq summasiga tegishli buxgalteriya yozuvlari amalga oshiriladi.

1) Agar aktivning qayta baholangan qiymati uning balans qiymatidan ortiq bo'lsa, ushbu oshgan summa 30908 – “Boshlang'ich qiymatiga nisbatan qayta baholash qiymatining oshgan summasi” hisobvarag'ida quyidagi buxgalteriya yozuvi orqali aks ettiriladi:

a) Debet - 165\*\* Asosiy vositalarning tegishli hisobvarag'i;

Kredit - 30908 “Boshlang'ich qiymatiga nisbatan qayta baholash qiymatining oshgan summasi.

b) qayta baholashgacha bo'lgan va qayta baholangandan keyingi jamg'arilgan eskirish summalari o'rtasidagi farq summasiga:

Debet - 30908 “Boshlang‘ich qiymatiga nisbatan qayta baholash qiymatining oshgan summasi”;

Kredit - 165\*\* Asosiy vositalarning tegishli jamg‘arilgan eskirish hisobvarag‘i.

d) qayta baholash natijasida asosiy vositaning o‘sgan qiymati, ushbu aktiv bo‘yicha oldingi qayta baholash natijasiga ko‘ra xarajat sifatida hisobga olingan qismi miqdorida daromad sifatida hisobga olinishi lozim.

2) Qayta baholash natijasida asosiy vositalarning real (haqiqiy) qiymati kamaysa, u xarajat sifatida hisobga olinadi. Ushbu summa 30908 – “Boshlang‘ich qiymatiga nisbatan qayta baholash qiymatini oshgan summasi” hisobvarag‘idan oldingi qayta baholash natijasida bevosita mazkur aktiv bo‘yicha hosil bo‘lgan ijobiy summadan ayirib tashlanishi lozim. Bunda quyidagi buxgalteriya yozuvlari amalga oshiriladi:

a) qayta baholashgacha bo‘lgan va qayta baholangandan keyingi jamlangan eskirish o‘rtasidagi farq summasiga:

Debet - 165\*\* Asosiy vositalarning tegishli jamg‘arilgan eskirish hisobvarag‘i;

Kredit - 30908 “Boshlang‘ich qiymatiga nisbatan qayta baholash qiymatini oshgan summasi”.

b) qayta baholash natijasida aniqlangan aktiv real (haqiqiy) qiymatning kamayish summasiga:

Debet - 30908 “Boshlang‘ich qiymatiga nisbatan qayta baholash qiymatining oshgan summasi” (oldingi qayta baholash natijasidagi o‘shish miqdoriga);

Kredit - 165\*\* Asosiy vositalarning tegishli hisobvarag‘i.

d) 30908-hisobvaraqda aks ettirilgan oldingi qayta baholash summasi yetarli bo‘lmagan holda, kamayish va oldingi qayta baholash summalari o‘rtasidagi farq summasi xarajat sifatida hisobga olinadi va 55995 “Boshqa foizsiz xarajatlar” hisobvarag‘ida aks ettiriladi. Bunda quyidagi buxgalteriya o‘tkazmasi amalga oshiriladi:

Debet - 55995 “Boshqa foizsiz xarajatlar”;

Kredit - 165\*\* Asosiy vositalarning tegishli hisobvarag‘i.

3) Qayta baholashning indeks usulida asosiy vositalarning har bir guruhi bo‘yicha ushbu aktivlarning

sotib olish davridan kelib chiqqan holda har xil indekslar qo'llaniladi.

#### Indeks usuli

Asosiy vositalarni qayta baholashda indeks usulini qo'llash uchun har yili navbatdagi qayta baholash bo'yicha tegishli indekslar ishlab chiqiladi va ommaviy axborot vositalarida chop etiladi.

Misol: 2015-yil 25-mayda qiymati 480000 so'm bo'lgan kompyuter sotib olindi va 16535-hisobvaraqqa kiritilindi. Yillik eskirish me'yori 20%.

2015-yil 1-yanvar holatiga yig'ilgan eskirish summasi =56.000 so'm.

$$\frac{480.000 \text{ so'm}^{29}}{100\% \times 12} \times 20\% = 8.000 \text{ so'm} \times 7 \text{ oy} = 56.000 \text{ so'm.}$$

2016-yil 1-yanvar holati bo'yicha yig'ilgan eskirish summasi (8.000 x 19 oy) 152.000 so'mni tashkil etadi.

2016-yil 1-yanvarda kompyuterning boshlang'ich qiymati va yig'ilgan eskirish summasi ommaviy axborot vositalarida chiqarilgan koeffitsient (koeffitsient-4)ga ko'paytiriladi.

480.000 x 4 = 1.920.000 so'm – qayta baholashdan keyingi qiymat;

152.000 x 4 = 608.000 so'm – qayta baholashdan keyingi yig'ilgan eskirish summasi.

Olingan natijalar kompyuterning boshlang'ich qiymati va yig'ilgan eskirish summasi bilan taqqoslanadi va farqi summasiga quyidagi buxgalteriya o'tkazmalari amalga oshiriladi:

$$1.920.000 \text{ so'm} - 480.000 \text{ so'm} = 1.440.000 \text{ so'm,}$$

$$608.000 \text{ so'm} - 152.000 \text{ so'm} = 456.000 \text{ so'm.}$$

1) Debet - 16535 "Mebel, moslama va jihozlar"  
1.440.000 so'm;

Kredit - 30908 "Boshlang'ich qiymatga nisbatan qayta baholash qiymatining oshgan summasi".

<sup>29</sup> Tugatish qiymati bu holda nolga teng.

2) Debet - 30908 “Boshlang‘ich qiymatga nisbatan qayta baholash qiymatining oshgan summasi” 456.000 so‘m;

Kredit - 16539 “Mebel, moslama va jihozlarning eskirish summasi(kontr-aktiv)”.

Buxgalteriya o‘tkazmalari amalga oshirilgandan keyingi hisobvaraqlar qoldiqlari: 16535 = 1.920.000 so‘m, 16539 = 608.000 so‘m va 30908 = 984.000 so‘m.

30908 - “Boshlang‘ich qiymatiga nisbatan qayta baholash qiymatining oshgan summasi”dagi qayta baholash bo‘yicha aks ettirilgan ijobiy natija har oyda 31203 - “Taqsimlanmagan foyda (aktiv-passiv)” hisobvarag‘iga o‘tkazib boriladi. Bunda har oyda hisobdan chiqariladigan qayta baholashning ijobiy summasi tegishli aktivni tiklanish va boshlang‘ich qiymatlarining eskirish summaları o‘rtasidagi farq summaga teng bo‘ladi, (ya‘ni kompyuterning 1.920.000 so‘mlik qiymat asosidagi eskirishi 32 000 so‘m va uning boshlang‘ich qiymatiga nisbatan hisoblangan eskirishi – 8000 so‘m. Farqi = 24 000 so‘m). Bunda quyidagi buxgalteriya o‘tkazmasi amalga oshiriladi:

Debet - 30908 “Boshlang‘ich qiymatga nisbatan qayta baholash qiymatining oshgan summasi” 24.000 so‘m;

Kredit - 31203 “Taqsimlanmagan foyda (aktiv-passiv)” 24.000 so‘m.

### **To‘g‘ridan to‘g‘ri qayta baholash usuli.**

Asosiy vositalarning to‘liq tiklanish qiymati, alohida obyektlar qiymatini shunga o‘xshash yangi obyektlarning qayta baholash sanasida shakllangan, tegishli hujjatlar bilan tasdiqlangan bozor qiymati asosida to‘g‘ridan – to‘g‘ri qayta hisoblash orqali aniqlanadi.

To‘g‘ri chiziqli qayta baholash usulini qo‘llashda obyektlarning to‘liq tiklanish qiymatini tegishli hujjatlar bilan tasdiqlash uchun bank xohishiga qarab, quyidagilardan foydalanish mumkin:

- tayyorlov tashkilotlaridan va ularning maxsus dilerlaridan, tovar-xomashyo birjalaridan, ko‘chmas mulk birjalaridan o‘xshash aktivning narx(baho)lari to‘g‘risida yozma shaklda olingan ma‘lumotlar;

- asosiy fondlarni sotib olish va qayta baholash kunlaridagi Markaziy bank kursiga nisbatan hisob-kitob koeffitsienti aniqlanadigan erkin ayirboshlanadigan valyutada sotib olingan asosiy fondlarning qiymati (tasdiqlovchi hujjat mavjud bo'lganda) to'g'risidagi ma'lumotlar;

- tegishli davlat tashkilotlaridagi narx(baho)lar to'g'risida ma'lumotlar;

- qayta baholash davrida ommaviy axborot vositalarida va maxsus adabiyotda e'lon qilingan narx(baho)lar to'g'risidagi ma'lumotlar;

- baholovchining asosiy fondlarning qiymati to'g'risidagi hisoboti.

To'g'ridan-to'g'ri usul bilan asosiy vositalarni qayta baholashda, buxgalteriya hisobida tegishli asosiy vosita bo'yicha hisoblangan jamg'arilgan eskirish summasi, shu aktivning qayta baholangandagi tiklanish qiymatini qayta baholangunga qadar bo'lgan balans qiymatiga bo'lish natijasida hosil qilinadigan koeffitsientga ko'paytiriladi.

Qayta baholashdan keyin aktivlarning real (haqiqiy) qiymati ularning boshlang'ich (tiklanish) qiymati va yig'ilgan eskirish summasi bilan taqqoslanadi va farq summalariga buxgalteriya o'tkazmalari amalga oshiriladi.

Buxgalteriya o'tkazmalari amalga oshirilgandan keyin, aktivning qayta baholangan qiymati aktivning qolgan hisoblab chiqilgan xizmat qilish muddati davomida amortizatsiyalanadi.

30908 – “Boshlang'ich qiymatiga nisbatan qayta baholangandagi qo'shimcha qiymat” hisobvarag'idagi qayta baholash bo'yicha aks ettirilgan ijobiy natija har oyda  
31203 – “Taqsimlanmagan foyda (aktiv-passiv)” hisobvarag'iga o'tkazib boriladi. Bunda quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi amalga oshiriladi:

Debet - 30908 “Boshlang'ich qiymatga nisbatan qayta baholash qiymatining oshgan summasi”;

Kredit - 31203 “Taqsimlanmagan foyda (aktiv-passiv)”.

30908-hisobvaraqdagi qayta baholash natijasi 31203-hisobvaraqa tegishli aktiv hisobdan chiqarilayotgan vaqtdagina, to'liq o'tkaziladi.

Ombordagi asosiy vositalarni qayta baholash natijasi quyidagi buxgalteriya o'tkazmalari orqali hisobga olinadi:

Tegishli aktivlar bo'yicha qayta baholashning ijobiy natijasi:

Debet - 16561 "Ombordagi asosiy vositalar" - tegishli aktiv;

Kredit - 30908 "Boshlang'ich qiymatiga nisbatan qayta baholash qiymatining oshgan summasi".

Qayta baholash natijasida asosiy vositalar qiymatining kamayish summasi:

Debet - 30908 "Boshlang'ich qiymatga nisbatan qayta baholash qiymatini oshgan summasi",

Debet - 55995 "Boshqa foizsiz xarajatlar";

Kredit - 16561 "Ombordagi asosiy vositalar" - tegishli aktiv.

### **To'g'ridan to'g'ri qayta baholash usuli**

a) Xorijiy valyutaga sotib olingan asosiy vositalar bo'yicha: xorijiy valyutaga sotib olingan asosiy vositalarni qayta baholash uchun qo'llaniladigan koeffitsientlar quyidagi yo'l bilan aniqlanadi:

Misol uchun, 2014-yil 1-avgust kuni bank qiymati 500 AQSh dollariga teng bo'lgan kompyuter sotib oldi va Markaziy bankning 2014-yil 1-avgustdagi kursi (1\$ =1500 so'm) bo'yicha 750.000 so'mni balansga qirim qildi. 2015-yil 1-yanvar kuniga Markaziy bankning kurs qiymati 1\$ = 2000 so'mni tashkil qilgan.

Xorijiy valyutada sotib olingan asosiy vositalarni qayta baholash uchun qo'llaniladigan koeffitsient Markaziy bankning 2015-yil 1-yanvar (qayta baholash) va asosiy vositalarning sotib olingan kunlaridagi kurslariga nisbatan aniqlanadi (koeffitsient 2,3ga ya'ni  $2000 : 1500 = 1,3$ ga teng). Kompyuter 1,3 koeffitsient bo'yicha qayta baholagandan keyin uning tiklanish qiymati  $750.000 \times 1,3 = 975,000$  so'mga, yig'ilgan eskirish summasi (2015-yil 1-yanvar kuni holatiga yig'ilgan eskirish summasi 520000 so'm)  $350000 \times 1,3 = 455000$  so'mga teng.

b) Milliy valyutada sotib olingan asosiy vositalar bo'yicha: indeks usuli uchun keltirilgan misoldan

foydalanimiz. Bunda 2015-yil 1-yanvar holatiga yig'ilgan summasi 152000 so'mni (8000 x 19 oy) tashkil etadi.

To'g'ridan-to'g'ri usul bilan asosiy vositalarni qayta baholashda, buxgalteriya hisobida tegishli asosiy vosita bo'yicha hisoblangan jamg'arilgan eskirish summasi shu aktivning qayta baholangandagi tiklanish qiymatini qayta baholangunga qadar bo'lgan balans qiymatiga bo'lish natijasida hosil qilinadigan koeffitsientga ko'paytiriladi.

Qayta baholashdan keyin aktivning boshlang'ich qiymati uning baholangan haqiqiy qiymati bilan taqqoslanadi. Aytaylik, ushbu kompyuterning bozor qiymati 800000 so'm. Bu holatda yig'ilgan eskirish summasining qayta hisoblash koeffitsienti quyidagiga teng bo'ladi:

$$800\ 000\ \text{so'm} / 480\ 000\ \text{so'm} = 1,66$$

1,66 koeffitsient bo'yicha qayta hisoblangandan keyingi yig'ilgan eskirish summasi – 252 320 (ya'ni  $152 \cdot 1,66$ ) so'm.

Qayta baholash natijasi bo'yicha buxgalteriya o'tkazmalari:

1) Debet - 16535 "Mebel, moslama va jihozlar" 320 000 so'm;

Kredit - 30908 "Boshlang'ich qiymatga nisbatan qayta baholash qiymatining oshgan summasi".

2) Debet - 30908 "Boshlang'ich qiymatga nisbatan qayta baholash qiymatining oshgan summasi" 100.320 so'm;

Kredit - 16539 "Mebel, moslama va jihozlarning eskirish summasi (kontr-aktiv)".

Buxgalteriya o'tkazmalari amalga oshirilgandan keyin hisobvaraqlardagi qoldiqlar  $16535 = 800\ 000$  so'm,  $16539 = 252\ 320$  so'm va  $31501 = 219\ 680$  so'm.

**Misol.** Bank 2014-yil 1-yanvarda 1000 so'mlik asosiy vositani foydalanishga topshirdi. Ushbu aktivga 20 foiz me'yorda amortizatsiya hisoblanadi, deylik. 2015-yil 1-yanvarda bank mazkur asosiy vositani 0,8 koeffitsientga qayta baholashda quyidagi buxgalteriya o'tkazmalarini amalga oshiradi.

Qayta baholashdan keyin va oldingi jamlangan eskirish summaları o'rtasidagi farq summasi  $[(1000 \cdot 20 / 100) -$

$(1000 \cdot 20 / 100) \cdot 0,8 = 40$  so‘m]ga hamda qayta baholashdan oldingi va keyingi tiklangan summolari o‘rtasidagi farq summasi  $[(1000 - 1000 \cdot 0,8) - 40 = 160$  so‘m]ga:

Debet - 165\*\* Jamlangan eskirish - Asosiy vositalarning tegishli hisobvarag‘i 40 so‘m  
Debet - 55995 “Boshqa foizsiz xarajatlar” 160 so‘m  
Kredit 165\*\* Asosiy vositalarning tegishli hisobvarag‘i 200 so‘m

Shundan so‘ng, hisobvaraqlarda qoldiq quyidagicha bo‘ladi:

165\*\* Asosiy vositalarning tegishli hisobvarag‘i – 800 so‘m;

165\*\* Jamlangan eskirish - Asosiy vositalarning tegishli hisobvarag‘i – 160 so‘m;

30908 “Boshlang‘ich qiymatga nisbatan baholash qiymatining oshgan summasi” – 0 so‘m;

55995 “Boshqa foizsiz xarajatlar” – 160 so‘m.

2. 2016-yil 1-yanvarda bank mazkur asosiy vositani 1,05 koeffitsientga qayta baholashni amalga oshirdi, deylik. U holda qayta baholash natijalari asosida quyidagi buxgalteriya o‘tkazmalari amalga oshiriladi.

Qayta baholashdan oldingi va keyingi tiklangan summolari o‘rtasidagi farq summasi  $(800 \cdot 1,05 - 800 = 40$  so‘m)ga hamda qayta baholashdan keyin va oldingi jamlangan eskirish summolari o‘rtasidagi farq summasi

$(320 \cdot 1,05 - 320 = 16$  so‘m)ga

Debet 165\*\* Asosiy vositalarning tegishli hisobvarag‘i 40 so‘m

Kredit 165\*\* Jamlangan eskirish - Asosiy vositalarning tegishli hisobvarag‘i 16 so‘m

Kredit 45994 “Boshqa foizsiz daromadlar” 24 so‘m

Shundan so‘ng, hisobvaraqlarda qoldiq quyidagicha bo‘ladi:

165\*\* Asosiy vositalarning tegishli hisobvarag‘i – 840 so‘m;

165\*\* Jamlangan eskirish - Asosiy vositalarning tegishli hisobvarag‘i – 336 so‘m;



30908 “Boshlang‘ich qiymatga nisbatan baholash qiymatining oshgan summasi” – 0 so‘m;

45994 “Boshqa foizsiz daromadlar” – 24 so‘m.

Banklarda asosiy vositalar balansdan quyidagi hollarda hisobdan chiqariladi:

- to‘liq jismoniy yoki ma‘naviy eskirganda;
- sotilganda;
- bepul berilganda;
- fors-major holatlarida;
- kamomad va yo‘qotish aniqlanganda;
- aktivdan foydalanishni to‘xtatish haqida qaror qabul qilinganda va uni hisobdan chiqarishda hech qanday iqtisodiy foyda kutilmaganda.

Asosiy vosita obyektlarini hisobdan chiqarishda yoki sotishda yuzaga keladigan foyda yoki zarar aktivni hisobdan chiqarish yoki sotilishidagi sof tushum farqi va haqiqiy balans qiymati bilan aniqlanadi. Hisobdan chiqarish va sotishdan tushgan foyda yoki zarar aktivni hisobdan chiqarilgan davrdagi daromad yoki xarajat sifatida aks ettiriladi.

Foydalanish to‘xtatilgan va hisobdan chiqarish uchun mo‘ljallangan asosiy vositalarning hisobi aktivdan foydalanish to‘xtatilgan kundagi balans qiymati bo‘yicha yuritiladi.

Asosiy vositalarni hisobdan chiqarishda ularning qoldiq qiymati quyidagicha aniqlanadi:

1) eskirish summasiga:

Debet - 165\*\* Asosiy vositalarning jamg‘arilgan tegishli eskirish hisobvarag‘i;

Kredit - 165\*\* Asosiy vositalarning tegishli hisobvarag‘i.

2) 30908-hisobvaraqdagi mazkur asosiy vosita obyektiga tegishli bo‘lgan qoldiq summaga:

Debet - 30908 “Boshlang‘ich qiymatga nisbatan qayta baholash qiymatini oshgan summasi”;

Kredit - 31203 “Taqsimlanmagan foyda» (aktiv-passiv)”.

Hisobdan chiqarilayotgan asosiy vositalar sotilishi, bepul berilishi yoki yo‘q qilinishi mumkin.

Hisobdan chiqarilayotgan asosiy vositalarni sotishda quyidagi buxgalteriya o‘tkazmalari amalga oshiriladi:

1) xaridor tomonidan asosiy vositalar olingandan keyin, to'lov amalga oshirilgan holda:

Debet - 19909 "Tovar -moddiy qimmatliklar uchun to'langan mablag'lar hisobvarag'i";

Kredit - 165\*\* Asosiy vositalarning tegishli hisobvarag'i.

2) to'lov kelib tushgandan keyin amalga oshiriladigan buxgalteriya yozuvlari:

a) aktivning sotilish summasiga:

Debet - Bankning vakillik hisobvarag'i yoki olivchining hisobvarag'i;

Kredit - 29802 "Tovar-moddiy qimmatliklari va ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lanadigan mablag'lar hisob-kitobi".

b) agar asosiy vositalarning sotilish qiymati qoldiq qiymatidan ortiq bo'lsa:

Debet - 29802 "Tovar-moddiy qimmatliklari va ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lanadigan mablag'lar hisob-kitobi"- sof tushum summasiga;

Kredit - 19909 "Tovar -moddiy qimmatliklar uchun to'langan mablag'lar hisobvarag'i" – qoldiq qiymat,

Kredit - 45909 "Bank asosiy vositalarini sotish yoki dispozitsiya qilishdan foyda" - aktivning "sof tushumi" va "qoldiq qiymati" o'rtasidagi farq summa.

d) agar asosiy vositalarning sotilish qiymati qoldiq qiymatidan kam bo'lsa:

Debet - 29802 "Tovar-moddiy qimmatliklari va ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lanadigan mablag'lar hisob-kitobi" - sof tushum summasiga,

Debet - 55902 "Bank asosiy vositalarini sotish yoki dispozitsiya qilishdan ko'rilgan zararlar" - aktivning "sof tushumi" va "qoldiq qiymati" o'rtasidagi farq summa;

Kredit - 19909 "Tovar -moddiy qimmatliklar uchun to'langan mablag'lar hisobvarag'i"- qoldiq qiymat.

3) oldindan to'langan holda:

a) aktivning sotilish summasiga:

Debet - Bankning vakillik hisobvarag'i yoki sotib oluvchining hisobvarag'i;

Kredit - 29802 “Tovar-moddiy qimmatliklari va ko‘rsatilgan xizmatlar uchun to‘lanadigan mablag‘lar hisob-kitobi”.

b) agar asosiy vositalarning sotilish qiymati qoldiq qiymatidan ortiq bo‘lsa:

Debet 29802 “Tovar-moddiy qimmatliklari va ko‘rsatilgan xizmatlar uchun to‘lanadigan mablag‘lar hisob-kitobi” - sof tushum summasiga;

Kredit - 45909 “Bank asosiy vositalarini sotish yoki dispozitsiya qilishdan foyda” - aktivning “sof tushumi” va “qoldiq qiymati” o‘rtasidagi farq summa,

Kredit - 165\*\* Asosiy vositalarning tegishli hisobvarag‘i – qoldiq qiymat

d) agar asosiy vositalarning sotilish qiymati qoldiq qiymatidan kam bo‘lsa:

Debet - 29802 “Tovar-moddiy qimmatliklari va ko‘rsatilgan xizmatlar uchun to‘lanadigan mablag‘lar hisob-kitobi” -sof tushum summasiga,

Debet - 55902 “Bank asosiy vositalarini sotish yoki dispozitsiya qilishdan ko‘rilgan zararlar”- aktivning “sof tushumi” va “qoldiq qiymati” o‘rtasidagi farq summaga;

Kredit - 165\*\* Asosiy vositalarning tegishli hisobvarag‘i – qoldiq qiymat.

Yaroqsiz holga kelgan asosiy vositalar qiymati to‘liq jismoniy yoki ma‘naviy eskirganda kamomad yoki yo‘qotish aniqlanganda (aybdor shaxslar aniqlanmagan holda), fors-major holatlarda, tekinga berilganda o‘rnatilgan tartibda quyidagi buxgalteriya o‘tkazmasi orqali xarajatga o‘tkaziladi:

Qoldiq qiymati summasiga:

Debet - 55902 “Asosiy vositalarini sotish yoki dispozitsiya qilishdan ko‘rilgan zararlar”;

Kredit - 165\*\* Asosiy vositaning tegishli hisobvarag‘i.

Asosiy vositalar xizmat qilish muddati tugashiga qaramasdan foydalanishga yaroqli bo‘lsa, bank ulardan foydalanishni davom ettirishi mumkin. Bunda asosiy vositalar balansdan hisobdan chiqarilmaydi va eskirish summasi hisoblanmaydi.

Bank tomonidan asosiy vositalar korxonaning ustav kapitaliga qo'yilma sifatida topshirilganda, ularning qiymati asosiy vositalarning tegishli hisobvarag'i hisobidan chiqariladi. Ustav kapitaliga topshiriladigan asosiy vositaning haqiqiy qiymati esa 15800 – "Qaram xo'jalik jamiyatlariga, qo'shma korxonalariga va shu'ba xo'jalik jamiyatlariga qilingan investitsiyalar" bo'limidagi tegishli investitsiyalar hisobvarag'iga debetlanadi.

*Asosiy vositalar sotilganda hisobdan chiqarish*

1. Qoldiq qiymati 50 000 so'm bo'lgan asosiy vosita 70 000 so'mga sotildi (undan 4 000 so'mi qo'shimcha qiymat solig'i (QQS) sifatida to'landi).

1) aktivni xaridorga jo'natish (bir vaqtning o'zida qoldiq qiymat balansdan chiqariladi):

Debet - 19909 "Tovar-moddiy qimmatliklar uchun to'langan mablag'lar hisobvarag'i" 50 000 so'm;

Kredit - 165\*\* Tegishli asosiy vositaning hisobvarag'i 50 000 so'm.

2) aktivning sotilgan summasiga:

Debet - Bankning vakillik hisobvarag'i yoki oluvchining hisobvarag'i 70 000 so'm;

Kredit - 29802 "Tovar-moddiy qimmatliklar va ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lanadigan mablag'lar hisob-kitobi" 70 000 so'm.

3) QQS hisoblash:

a) Debet - 29802 "Tovar-moddiy qimmatliklar va ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lanadigan mablag'lar hisob-kitobi" 4 000 so'm;

Kredit - 22504 "Boshqa soliqlar va litsenziyalar bo'yicha hisoblangan to'lovlar" 4 000 so'm.

b) QQS ni to'lash:

Debet - 22504 "Boshqa soliqlar va litsenziyalar bo'yicha hisoblangan to'lovlar" 4 000 so'm;

Kredit - Byudjetning QQS bo'yicha tegishli hisobvarag'i 4 000 so'm.

4) QQS to'langandan keyin qolgan summaga:

Debet - 29802 "Tovar-moddiy qimmatliklar va ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lanadigan mablag'lar hisob-kitobi" 66 000 so'm;

Kredit - 19909 “Ko‘rsatilgan xizmatlar va tovar-moddiy qimmatliklari uchun to‘langan mablag‘lar” 50 000 so‘m,

Kredit - 45909 “Bank asosiy vositalarini sotish yoki dispozitsiya qilishdan olingan foyda” 16 000 so‘m.

2. Qoldiq qiymati 50 000 so‘m bo‘lgan asosiy vosita 45 000 so‘mga sotildi.

1) aktivning sotilish summasiga:

Debet - Bankning vakillik hisobvarag‘i yoki oluvchining hisobvarag‘i (oldindan to‘langanda) 45 000 so‘m;

Kredit - 29802 “Tovar-moddiy qimmatliklar va ko‘rsatilgan xizmatlar uchun to‘lanadigan mablag‘lar hisob-kitobi” 45 000 so‘m.

hamda bir vaqtning o‘zida quyidagilar amalga oshiriladi:

2) Debet - 29802 “Tovar-moddiy qimmatliklar va ko‘rsatilgan xizmatlar uchun to‘lanadigan mablag‘lar hisob-kitobi” 45000 so‘m,

Debet - 55902 “Asosiy vositani sotish yoki dispozitsiya qilishdan ko‘rilgan zararlar” 5 000 so‘m;

Kredit - 165\*\* “Asosiy vositaning tegishli hisobvarag‘i” 50 000 so‘m.

### **6.3. Asosiy vositalarga amortizatsiya hisoblash tartibi**

Banklarda yerdan boshqa barcha asosiy vositalar foydalanishning ma‘lum bir muddatiga ega bo‘ladilar. Bu asosiy vositalarning eskirish qiymati xizmati vaqti chegaralangan bo‘lganligi uchun, jami foydali xizmat qilish muddati davrida bankning xarajatlarida eskirish ajratmalari turida taqsimlanishi kerak. Asosiy vositaning foydali xizmat qilish muddati 2ta asosiy sabab bilan chegaralanadi: jismoniy eskirish (foydalanish natijasi, aktivdan foydalanish shuningdek tabiiy omillarning ta‘siri). Asosiy vosita bo‘yicha eskirish ajratmalari ularning foydalanishga topshirilgandan keyingi oyidan boshlab, to uni hisobdan chiqarish davrigacha davom etadi. Eskirish harajatlari foydali xizmat qilish davrida har oy muntazam ravishda aks ettiriladi.

Aktivning foydali xizmat qilish muddati bu aktivdan bank uchun taxmin qilingan foydani baholash orqali aniqlanadi. Asosiy vositalarga amortizatsiya hisoblashning yillik me'yorlari O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 144-moddasida belgilangan.

- Binolar, imoratlar va inshootlar – 5%;
- Uzatuvchi qurilmalar – 8%;
- Kuch-quvvat beradigan mashinalar va uskunalar – 8%;
- Faoliyat turlari bo'yicha ish mashinalari va uskunalar – 15%;
- Harakatlanuvchan transport - 8-20%;
- Kompyuter, periferiya qurilmalari - 20%;
- Boshqa aktivlar 10-15%.

Aktivning foydali xizmat qilish muddati yillarda bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar hajmida, yurish ko'rsatgichida (agar avtomobil nazarda tutilgan bo'lsa) o'lchanishi mumkin. Aktivning foydali xizmat qilish muddatini aniqlashda quyidagi omillarning barchasi hisobga olinishi lozim:

1) bank tomonidan aktivdan kutilayotgan foydalanish hajmi aktivning taxminiy quvvati yoki jismoniy unumdorligi bo'yicha baholanadi;

2) taxmin qilinayotgan jismoniy eskirish;

3) aktivning ma'naviy eskirishi ushbu aktiv turini ishlab chiqarish jarayonini o'zgarishi yoki takomillash-tirilishi natijasida aniqlanadi;

4) aktivdan foydalanishda yuridik yoki shunga o'xshash cheklashlar - bu aktivdan foydalanish yoki ijara muddatlarini cheklashdir.

Asosiy vositalarning foydali xizmat ko'rsatish muddatini uzaytirishga olib keladigan xarajatlarni, shuningdek, ushbu muddatni qisqartiradigan texnologik o'zgarishlarni hisobga olgan holda, banklar tomonidan foydali xizmat qilish muddati qayta ko'rib chiqilishi mumkin.

Banklar hech bo'lmaganda har yilning oxirida asosiy vositalarning likvidatsiya qiymati va foydali xizmat qilish muddatini ko'rib chiqadi.

Asosiy vositaning foydali xizmat qilish muddati, uning dastlabki ko'rsatkichlarini yaxshilaydigan keyingi xarajatlar natijasida (kapital ta'mirlash, takomillashtirish va boshqa hollarda) uzaytirilishi mumkin. Va aksincha, texnologik o'zgarishlar yoki xizmat ko'rsatish bozoridagi o'zgarishlar aktivning foydali xizmat qilish muddatini qisqartirishi mumkin. Bunday hollarda foydali xizmat qilish muddati va shundan kelib chiqib, amortizatsiya me'yori joriy va kelgusi davrlar uchun hisob-kitob siyosati va buxgalteriya baholanishidagi o'zgarishlar bo'yicha MHXS - 16 talablariga muvofiq to'g'rilanadi.

Ahamiyatga ega bo'lgan likvidatsiya qiymati aktivlarni sotib olish sanasiga yoki oldingi har qanday baholash sanasiga aniqlanadi. Likvidatsiya qiymati aktivning foydali xizmat qilish muddati oxirida likvidatsiya bo'yicha kutilayotgan xarajatlarga kamayishi kerak.

Quyidagi omillar amortizatsiya (eskirish)ni aniqlashga ta'sir ko'rsatadi:

- boshlang'ich qiymat;
- likvidatsiya qiymati;
- taxmin qilingan foydali xizmat muddati;
- amortizatsiya (eskirish) hisoblash usuli.

Amortizatsiya quyidagi usullarni qo'llash yo'li bilan hisoblanadi:

- 1) bir tekisda (to'g'ri chiziqli) hisoblash usuli;
- 2) bajarilgan ishlar hajmiga mutanosib ravishda eskirishni hisoblash usuli;
- 3) tezlashtirilgan (jadallashtirilgan) usullar:
  - a) yillar yig'indisi usuli (kumulyativ usul);
  - b) kamayadigan qoldiq usuli.

Asosiy vositalarning tegishli usullar bo'yicha amortizatsiya (eskirish) summalarini hisoblashni mos misollar asosida tushuntirishga harakat qilamiz.

Qo'llanilayotgan amortizatsiya usuli bankka aktivdan kelayotgan iqtisodiy foydaning olinish jadvalini aks ettirishi lozim. Har xil turdagi aktivlarga har xil amortizatsiya hisoblash usullarini qo'llash mumkin. Bunda bir turdagi asosiy vositalarga faqat bitta tegishli usulni qo'llash lozim.

Eskirishni hisoblash bo'yicha tanlangan usul hisob siyosatidan kelib chiqib, belgilanishi va ketma-ket tartibda bir hisobot davridan keyingi hisobot davriga qo'llanilishi hamda tanlangan usul yil davomida o'zgarmasligi lozim. Amortizatsiya usulini tanlashda foydalanilayotgan obyektning nimaga mo'ljallanganligidan va ushbu usulni mazkur obyektga nisbatan qo'llashning maqsadga muvofiqligidan kelib chiqish lozim.

Bir tekisda (to'g'ri chiziqli) hisoblash usuli doimiy eskirish (amortizatsiya) summasini asosiy vositalarning qiymatidan kelib chiqqan holda ularning foydali xizmat qilish muddati davomida teng qismga taqsimlashdan iborat. Bunda, quyidagi formuladan foydalanish maqsadga muvofiqdir:

$$YES = \frac{AQ}{EM} \times 100 \quad AXQM = \frac{1}{EM} \times 100 \quad OES = \frac{AQ}{12 \times 100} \times EM$$

Bu yerda: YES - yillik eskirish summasi;

AQ - aktivning amortizatsiyalanadigan qiymati;

AXQM - aktivning xizmat qilish muddati;

EM - eskirish me'yor;

OES - oylik eskirish summasi.

Ushbu usul amortizatsiya faqat foydali xizmat qilish muddatiga bog'liqligi to'g'risidagi taxminga asoslangan.

*Teng miqdorda (to'g'ri chiziqli) hisoblash usuli bo'yicha hisoblash*

Bank tomonidan xarid qilingan avtomobilning boshlang'ich qiymati 40000000 so'm, uni besh yil davomida foydalanilgandan keyingi taxminiy tugatish qiymati (TQ) 4000000 so'm. Bu holda yillik amortizatsiya summasi amortizatsiyalanadigan qiymatning 10% tashkil etadi. Bu hisob-kitoblar quyidagicha amalga oshiriladi:

$$YES = \frac{40000000 - 4000000}{5} = 7200000$$

Besh yil davomida amortizatsiya hisoblashni quyidagicha aks ettirish mumkin (so'mlarda):



<b>Yillar</b>	<b>ABQ</b>	<b>Yillik eskirish summasi</b>	<b>Yig'ilgan eskirish</b>	<b>Qoldiq qiymat</b>
Xarid sanasi	40000000	-	-	40000000
1-yilda	40000000	7200000	7200000	32800000
2-yilda	40000000	7200000	14400000	25600000
3-yilda	40000000	7200000	21600000	18400000
4-yilda	40000000	7200000	28800000	11200000
5-yilda	40000000	7200000	36000000	4000000

Bajarilgan ishlar hajmiga mutonasib ravishda eskirishni hisoblash usuli aktivdan taxminiy foydalanish yoki taxminiy unumdorligidan kelib chiqqan holda amortizatsiya summasini hisoblashdan iborat. Ushbu usul asosiy vositaning har bir yildagi ma'lum ish hajmi hisobini yuritishga asoslangan. Ushbu usul bo'yicha yillik eskirish miqdorini hisoblash uchun aktivning butun foydali xizmat qilish muddati davomidagi hamda o'sha aniq yil davomidagi ish hajmini aniqlash zarur bo'ladi. Ish hajmi sifatida ishlangan soatlar miqdori, ish (mahsulot) hajmini olish mumkin. Bunda amortizatsiya quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$AS = \frac{AQ}{ABS} \times DBS.$$

AS - amortizatsiya summasi;

AQ - aktivning amortizatsiyalanadigan qiymati;

DBS - ushbu davr uchun birliklar soni;

ABS - aktivning butun foydali xizmat qilish muddati uchun mo'ljallangan birliklar soni.

Bajarilgan ishlar hajmiga mutanosib ravishda eskirishni hisoblash usuli amortizatsiya (eskirish) faqat foydalanish (ishlatish) natijasi hisoblanishiga asoslangan bo'lib, eskirishni hisoblash jarayonida vaqt oralig'i hech qanday ahamiyatga ega emas.

Bajarilgan ishlar hajmiga mutonasib ravishda eskirishni hisoblash usuli bilan amortizatsiya summasini hisoblash

Avtomobilning boshlang'ich qiymati 4 000 000 so'm, uning yurish yo'li uzunligi 200 000 km. Likvidatsiya qiymati – 100 000 so'm. Har km (kilometraj)ga amortizatsiya ajratmasi(AA) summasi quyidagicha aniqlanadi:

$$AA = \frac{4\,000\,000\text{ so'm} - 100\,000\text{ so'm}}{200\,000} = 19,5\text{ so'm/km.}$$

Agar birinchi yil ishlatishda avtomobil 40 000 km, ikkinchi yil – 50 000 km, uchinchi yil – 40 000 km, to'rtinchi yil – 50 000 km va beshinchi yil – 20 000 km masofa o'tgan bo'lsa, unda amortizatsiya ajratmasi jadvali quyidagi ko'rinishda bo'ladi (so'mlarda):

Yillar	ABQ	Km	YES (AA x Km)	Yig'ilgan eskirish	Qoldiq qiymat
Xarid sanasi	4.000.000	-	-	-	4.000.000
1-yilda	4.000.000	40.000	780.000	780.000	3.220.000
2-yilda	4.000.000	50.000	975.000	1.755.000	2.245.000
3-yilda	4.000.000	40.000	780.000	2.535.000	1.465.000
4-yilda	4.000.000	50.000	975.000	3.510.000	490.000
5-yilda	4.000.000	20.000	390.000	3.900.000	100.000

Aktivlardan jadal ravishda foydalanilganda, shuningdek, ilmiy-texnika taraqqiyotining ta'siri katta bo'lganda aktivlar eskirishini tezlashtirilgan eskirish usullari asosida hisoblash maqsadga muvofiqdir.

1. Yillar yig'indisi usuli obyektning xizmat qilish muddati, hisoblangan yillar yig'indisidan iborat bo'lib, u hisoblash koeffitsientining maxrajida bo'ladi. Ushbu koeffitsientning suratida obyektning xizmat qilish muddati oxirigacha qoladigan yillar soni (teskari tartibda) hisoblanadi.

Yillar yig'indisi usuli (kumulyativ usul) bilan eskirish summasini hisoblash. Avtomobilning boshlang'ich qiymati (ABQ) 4 000 000 so'm, uni besh yil davomida ishlatilgandan keyingi likvidatsiya qiymati (LQ) 100 000 so'm. Avtomobilning taxminiy xizmat qilish muddati 5 yil. Sonlar yig'indisi, ya'ni avtomobildan foydalanish 15 yilni tashkil etadi (kumulyativ son):  $1 + 2 + 3 + 4 + 5 = 15$  quyida

berilgan kasrlarni 3 900 000 so‘m (4 000 000-100 000) miqdordagi amortizatsiyalanadigan qiymatga bo‘lish bilan yillik amortizatsiya summasi aniqlanadi:

$$5/15, 4/15, 3/15, 2/15, 1/15.$$

*Yillar yig‘indisi usuli (kumulyativ usul) bilan eskirish summasini hisoblash*

<b>Yillar</b>	<b>Boshlang‘ich qiymat</b>	<b>Amortizatsiyani hisoblash</b>	<b>Yig‘ilgan eskirish</b>	<b>Qoldiq qiymat</b>
Xarid sanasi	4.000.000	-	-	4.000.000
1-yil oxirida	4.000.000	(5/15 x 3.900.000) = 1.300.000	1.300.000	2.700.000
2-yil oxirida	4.000.000	(4/15 x 3.900.000) = 1.040.000	2.340.000	1.660.000
3-yil oxirida	4.000.000	(3/15 x 3.900.000) = 780.000	3.120.000	880.000
4-yil oxirida	4.000.000	(2/15 x 3.900.000) = 520.000	3.640.000	360.000
5-yil oxirida	4.000.000	(1/15 x 3.900.000) = 260.000	3.900.000	100.000

Kamayadigan qoldiq usuli aktivning foydali xizmat qilish muddati davomida hisoblanayotgan amortizatsiya summasini kamayib borishini nazarda tutadi. Bu usul ham yillar yig‘indisi usulidagi kabi tamoyillarga asoslangan. Mazkur usulda to‘g‘ri chiziqli usuldagiga nisbatan ikki baravar oshirilgan amortizatsiya normasi qo‘llaniladi.

Kamayadigan qoldiq usuli bilan eskirish summasini hisoblashga misol.

Avtomobilning boshlang‘ich qiymati (ABQ) 4 000 000 so‘m. Uning taxminiy xizmat qilish muddati 5 yil. O‘z navbatida, to‘g‘ri chiziqli usulda yillik amortizatsiya me‘yori 20%ni tashkil etadi (100% : 5 yil). Ikki baravarlik amortizatsiya me‘yori bilan eskirish hisoblashga asoslangan kamayadigan qoldiq usulida amortizatsiya me‘yori 40 % bo‘ladi (2x20%). 40 foiz deb belgilangan bu qat‘iy summa har yil oxirida qoldiq qiymatga olib boriladi. Taxminiy likvidatsiya qiymati amortizatsiyani hisoblashda hisobga olinmaydi. Lekin predmetning qoldiq qiymatini uning likvidatsiya qiymatigacha kamaytirish bilan bog‘liq biror bir summa doirasida cheklash qo‘yilgan hollar bundan mustasno.

### *Kamayib boruvchi qoldiq usuli*

<b>Yillar</b>	<b>Boshlang'ich qiymat</b>	<b>Amortizatsiyani hisoblash</b>	<b>Yig'ilgan eskirish</b>	<b>Qoldiq qiymat</b>
Xarid sanasi	4 000 000	-	-	4 000 000
1-yilda	4 000 000	$(40\% \times 4\,000\,000) = 1\,600\,000$	1 600 000	2 400 000
2-yilda	4 000 000	$(40\% \times 2\,400\,000) = 960\,000$	2 560 000	1 440 000
3-yilda	4 000 000	$(40\% \times 1\,440\,000) = 576\,000$	3 136 000	864 000
4-yilda	4 000 000	$(40\% \times 864\,000) = 345\,600$	3 481 600	518 400
5-yilda	4 000 000	418 400	3 900 000	100 000

Asosiy vositalarga qo'llaniladigan amortizatsiya usuli davriy ravishda qayta ko'rib turilishi va ushbu aktivlardan iqtisodiy samara olish taxminiy jadvalida katta o'zgarishlar yuz bergan holda, mazkur o'zgarishlarni to'g'ri aks ettirish uchun amortizatsiya hisoblash usulini hisob-kitob siyosati va buxgalteriya baholanishidagi o'zgarishlar bo'yicha MHXS (MSFO) talablariga mos kelgan holda o'zgartirish kerak hamda bu hisoblashdagi baholashning o'zgarishi kabi hisobga olinishi lozim. Bunda joriy va kelgusi davrlar uchun amortizatsiya ajratmalari to'g'rilanishi kerak.

Tegishli davr uchun amortizatsiya ajratmalari bankning xarajatlariga quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi orqali o'tkaziladi:

Debet - 566\*\* Tegishli guruh asosiy vositalari eskirish xarajatlari;

Kredit - 165\*\* Tegishli asosiy vositalarning jamg'arilgan eskirish hisobvaragi.

MHXS rasmiy ravishda turli usullarni tavsiya qilishiga qaramasdan, ulardan faqat bittasigina aniq vaziyatda aktivdan olinadigan bo'lg'usi xizmatlarni olish tugatilganda tuziladigan hisobot uchun eng oqilona bo'lib hisoblanadi. O'z-o'zidan, bir tekisda eskirishni hisoblash usuli aktivdan har davrda bir xil bo'lgan naflarni olinishini ko'zda tutadi, holbuki kamayib boruvchi qoldiq usuli kabi tezashtirilgan hisobdan chiqarish usullari aktiv xizmat muddati kamaygan sari eskirish xarajatlarini kamayishini ko'zda tutadi, vaholanki aktivni ta'mirlash va xizmat ko'rsatish xarajatlari bu vaqtlarda borgan sari ko'payadi va buning

natijasida aktivga sarflangan barcha xarajatlar darajasi uning xizmat muddati davomida taxminan bir xil bo'ladi.

MHXS - 16 eskirishni hisoblash usullarini vaqti-vaqti bilan qaytadan ko'rib chiqilishini talab etadi. Eskirishni hisoblashning u yoki bu usulini qo'llanilishi haqida qaror qabul qilingan vaqtdan keyin aktivdan foydalanish bo'yicha taxmin qilingan tizim o'zgaradigan bo'lsa, unda boshqa ko'proq talablarga javob beradigan usul tanlanishi zarur. Ushbu o'zgarish hisob siyosatidagi o'zgarish sifatida ko'rilishi va "Davr uchun sof foyda yoki zarar, asosiy (jiddiy) xatolar va hisob siyosatidagi o'zgarishlar" 8-sonli BHXSga muvofiq faqat istiqbol asosida hisobga olinishi kerak.

MHXS - 16 moliyaviy hisobot foydalanuvchisi unga foydali bo'lgan ma'lumotni olish uchun, eskirishni hisoblash usullarini moliyaviy hisobotning yoritilishida aks ettirishni talab etadi.

Eskirishning qaysi usuli qo'llanilishidan qat'iy nazar, foydali xizmat ko'rsatish muddati muntazam ravishda qayta ko'rib chiqilishi kerak. Korxonaga uchun aktivning taxmin qilinayotgan foydaliligi asosida aktivning foydali xizmat muddati aniqlanadi, shuning uchun u aktivning iqtisodiy va jismoniy hayotidan keskin farq qilishi mumkin. Aktivning foydali xizmat muddatiga korxonaning asosiy vositalarni ta'mirlash va xizmat ko'rsatish, texnologik o'zgarishlarning tezligi, aktivlarni foydalanish bilan birga ishlab chiqarilgan va sotilgan tovarlarga bo'lgan bozor talabi va boshqa shu kabi omillar ta'sir ko'rsatadi.

Agar aktivning foydali xizmat ko'rsatish muddati avval belgilanganidan ko'proq yoki kamroq bo'lishi aniqlangan bo'lsa, bu o'zgarish asosiy (jiddiy) xatoni tuzatish emas, balki hisob bahosini o'zgarishi sifatida ko'riladi. Tegishli ravishda, moliyaviy hisobotda avval taqdim etilgan hisoblangan eskirish qaytadan ko'rib chiqilmaydi, bundan tashqari, o'zgarish faqat istiqbol asosida hisobga olinadi va o'zgarishlar barcha keyingi davrlarda aks ettiriladi.

Misol. Aktivning dastlabki qiymati 100 000. Aktivning dastlab baholangan foydali xizmat ko'rsatish muddati - 10 yil. Hech qanday tugatish qiymati taxmin qilinmagan holda

eskirishning bir tekisda hisoblash usuli qo'llaniladi. Ikki yil foydalangandan keyin, buxgalter aktivning foydali xizmat ko'rsatish muddatini qayta ko'rib chiqadi va u 6 yilni tashkil etishini taxmin qiladi.

Aktivning qolgan foydali xizmat ko'rsatish muddati uchun eskirish xarajatlari quyidagi tartibda hisob-kitob qilinadi: foydalanishning dastlabki ikki yil uchun eskirish xarajatlari 20000 ( $2/10 \times 100,000$ )ni tashkil etdi. Unda 3-yilga balans qiymati 80000 ( $100000 - 20000$ ) teng. Aktivning qolgan foydali xizmat ko'rsatish muddati qayta ko'rib chiqilgandan keyin 4 yilga teng ( $6-2$ ). Binobarin, eskirishning yangi yillik stavkasi 20000 ( $80,000/4$ ) tashkil etadi.

#### **6.4. Banklarda nomoddiy aktivlarni hisobga olishning o'ziga xos xususiyatlari**

Respublika moliya-bank tizimi buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobot tizimini Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS)ga to'liq muvofiqlashtirish borasida qator tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 26-noyabrdagi 1438-sonli "2011-2015 yillarda Respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risida"gi qarorida moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari talablaridan kelib chiqib, tijorat banklarining hisobvaraqlar rejasini takomillashtirish masalasi qo'yilgan edi. Ushbu belgilangan vazifalar tijorat banklari tomonidan qanday amalga oshirilayotganligini bank aktivlari hisobi, jumladan, nomodddiy aktivlar misolida ko'rib chiqamiz.

Buxgalteriya hisobida nomoddiy aktivlar asosiy vositalarga o'xshash ta'rifga ega, ya'ni ular xo'jalik subyekti tomonidan uzoq muddatli asosda foydalanish maqsadida sotib olinadi va oddiy faoliyat jarayonida sotish uchun mo'ljallanmagan bo'ladi. Amaldagi me'yoriy hujjatlarda, jumladan nomoddiy aktivlarga tegishli yo'riqnomada ularga quyidagicha ta'rif beriladi:

Nomoddiy aktivlar - bu nomonetar, identifikatsiya qilinadigan aktivlar bo'lib, moddiy va jism shakliga ega bo'lmagan, foydali xizmat muddati bir yildan ortiq bo'lgan hamda ulardan bank xizmatlari ko'rsatishda yoki ma'muriy maqsadlar uchun foydalanishga mo'ljallangan aktivlardir.<sup>30</sup>

Amaliyotda eng keng tarqalgan nomoddiy aktivlarga patentlar, mualliflik huquqlari, franshizalar, savdo rusumlari, tashkiliy xarajatlar va gudvillni kiritish mumkin. Yuqoridagi 1199-sonli Yo'riqnomaning 1-bandida esa, bank tizimidagi nomoddiy aktivlar: patentlar, mualliflik huquqlari, gudvill (goodwill), savdo markalari, kompyuter dasturiy ta'minotlari, litsenziyalar va shu kabilarda o'z ifodasini topgan.

Tijorat banklarida nomoddiy aktivlar hisobini yuritishning asosiy qoidalari - bu ularning balans qiymati va shu aktivlarga nisbatan qo'llanilishi mumkin bo'lgan amortizatsiya usullarini aniqlash, shuningdek, nomoddiy aktivlar balans qiymati o'zgarishini aniqlash va hisobini yuritish, amortizatsiyani hisoblash tartibi hamda ularni hisobdan (ya'ni balansdan) chiqarishdan ko'rilgan moliyaviy natijalar hisobini yuritish tartiblaridan iboratdir.<sup>31</sup>

Tijorat banklarida nomoddiy aktivlarni qabul qilish va dastlabki tan olish tartibiga to'xtaladigan bo'lsak, nomoddiy aktivlar bank balansiga quyidagi yo'llar bilan olinadi:

- ishlov yakunlanganidan keyin yaratilgan obyektning qabul qilinishi-topshirilishi, ya'ni bank tomonidan yaratilgan nomoddiy aktivlar;

- oldi-sotdi shartnomasi bo'yicha obyektning egallanishi, ya'ni bank tomonidan xarid qilingan obyektlar;

- muassislar ulushi tarzida ustav kapitaliga kiritilishi, ya'ni bank aksiyadorlari tomonidan aksiya qiymatini nomoddiy aktiv ko'rinishida to'lanishi;

- tekinga (hadya shartnomasi bo'yicha) berilishi, bank boshqa banklardan yoki hamkorlardan qaytarib bermaslik sharti bilan aktivlarni olishi;

---

<sup>30</sup> "O'zbekiston Respublikasi banklarida nomoddiy aktivlarning buxgalteriya hisobini yuritish to'g'risida" Yo'riqnoma (2010 yil 15 noyabr, ro'yxat raqami 1199-1. 1-band)

<sup>31</sup> "Nomoddiy aktivlar" Buxgalteriya hisobi milliy standarti. (7-son BHMS) O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi 2005 yil 25 martdagi 35-sonli buyrug'i.

- davlat subsidiyalari hisobiga egallanishi, nomoddiy aktivlarning bir qismi subsidiya evaziga qabul qilinishi;
- ayirboshlash, bank tomonidan o'ziga kerakli bo'lgan nomoddiy aktivlarni tovar-moddiy zaxiralar yoki asosiy vositalar kabi aktivlarga almashtirilishi;
- nomoddiy aktivlarning ortiqcha (hisobga olinmagan) obyektlari aniqlanishi natijasida hisobga kiritiladi, asosan inventarizatsiya jarayonlarida aniqlanadi.

Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari talablariga muvofiq tijorat banklari balansiga olinayotgan nomoddiy aktiv obyektlari uning boshlang'ich qiymati bo'yicha tan olishi lozim<sup>32</sup>:

- *birinchidan*, bankning kelajakda ushbu nomoddiy aktivdan foydalanishdan iqtisodiy naf olishga yetarlicha ishonchi bo'lsa;
- *ikkinchidan*, nomoddiy aktivning qiymatini yetarlicha aniq baholay olish mumkin bo'lsa.

Agarda nomoddiy aktiv yuqorida keltirilgan tushuncha va ko'rsatkichlarning hech biriga javob bermasa, qilingan barcha sarflar, yuzaga kelish davriga ko'ra, xarajat sifatida tan olinishi lozim bo'ladi.

Tijorat banklarida nomoddiy aktivlarning boshlang'ich qiymati quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Huquqni o'tkazish (egallash) shartnomasiga muvofiq huquq egasiga (sotuvchiga) to'lanadigan summalaridan;
2. Ro'yxatga olish yig'implari, davlat bojlari, patent bojlaridan va huquq egasining mutlaq huquqlari o'tkazilishi (egallanishi) munosabati bilan amalga oshirilgan boshqa shunga o'xshash to'lovlardan;
3. Bojxona boji to'lovlari va yig'implaridan;
4. Nomoddiy aktivlarning egallanishi munosabati bilan to'lanadigan soliqlar, yig'implar va to'lovlarning summalaridan (agar ular qoplanmagan bo'lsa);
5. Nomoddiy aktivlarning egallanishi bilan bog'liq axborot va maslahat xizmatlari uchun to'lanadigan summalaridan;
6. Nomoddiy aktivlarni egallashda vositachilik qilgan shaxslarga to'lanadigan haqdan;

<sup>32</sup> "Nomoddiy aktivlar" Moliyaviy hisobot halqaro standarti (IFRS 38)



7. Nomoddiy aktivlarni yetkazish (yaratish) tavakkallarini sug'urta qilish bilan bog'liq xarajatlardan;

8. Aktivdan mo'ljallanganligiga qarab foydalanish uchun uni ishga yaroqli holatga keltirish bilan bog'liq boshqa xarajatlardan.

O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida buxgalteriya hisobi hisobvaraqlari rejasiga muvofiq, tijorat banklarida nomoddiy aktivlar hisobini yuritish uchun balansga nisbatan aktiv schyotlar, shuningdek, foyda va zararlarga tegishli bo'lgan tranzit hisobvaraqlar tartibi belgilangan.<sup>33</sup>

Banklarda nomoddiy aktivlarni hisobga oluvchi hisobvaraqlar:

16600 - Nomoddiy aktivlar hisobvarag'i;

16601 - Nomoddiy aktivlar hisobvarag'i;

16605 - Nomoddiy aktivlarning yig'ilgan eskirish summasi (kontr-aktiv) hisobvarag'i;

16609 - O'rnatish va yaratish jarayonidagi nomoddiy aktivlar hisobvarag'i;

16617 - Gudvill hisobvarag'i;

16699 - O'rnatish va yaratish jarayonidagi nomoddiy aktivlar bo'yicha ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash zaxirasi (kontr-aktiv) hisobvarag'i;

56618 - Nomoddiy aktivlarning eskirish summasi hisobvarag'i;

56832 - Nomoddiy aktivlar bo'yicha ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni baholash hisobvarag'i.

Biz nomoddiy aktivlarni xarid qilish, ularga amortizatsiyani hisoblash, qayta baholash hamda hisobdan chiqarish tartibini AT "Turonbank" ning 2015-yil moliyaviy hisobotlari ma'lumotlari asosida ko'rib chiqamiz.

Mazkur bankda nomoddiy aktivlar 2014-yil 31-dekabr holatiga 94391 mln so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 2015-yil 31-dekabrga bu 215891 mln so'mga teng bo'lib, unda o'sish tendensiyasini ko'rishimiz mumkin (228,7 foiz).

---

<sup>33</sup>O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida buxgalteriya hisobi hisobvaraqlari rejasini. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida ro'xatdan o'tkazilgan (2004-yil 13-avgust, tartib raqami 773-17). (O'zgartirishlari bilan O'zAV 17.01.2011 yil, 773-29-son).

**“Turonbank”dagi nomoddiy aktivlar haqida ma’lumot<sup>34</sup>**

№	Balans moddasi	2014 yil 31.12	2015 yil 31.12	2015 yilda 2014 yilga nisbatan o‘zgarishi	
				foizda	Summada
1	Nomoddiy aktivlar	94391	21.891	+ 228.7	+ 12.500

AT “Turonbank” 5.000000 so‘mga nomoddiy aktivni xarid qilib oldi va uni o‘rnatish va tekshirib ko‘rish bilan bog‘liq 200000 so‘mlik xarajatni amalga oshirdi. Bankning “Hisob siyosati”ga muvofiq nomoddiy aktivning foydalanish muddatini 5 yil deb belgilandi.<sup>35</sup>

Bank buxgalteriyasida quyidagi tahliliy o‘tkazmalar qilinadi:

1) Debet - 16601 Nomoddiy aktivlar – 5.200.000 so‘m;

Kredit - 29802 Tovar – moddiy qimmatliklar va ko‘rsatilgan xizmatlar uchun to‘lanadigan mablag‘lar – 5.200.000 so‘m.

2) Debet - 29802 Tovar – moddiy qimmatliklar va ko‘rsatilgan xizmatlar uchun to‘lanadigan mablag‘lar – 5.200.000 so‘m;

Kredit - Bankning vakillik hisob varag‘i yoki mijozning depozit hisob varag‘i -5.200.000 so‘m.

AT “Turonbank”da nomoddiy aktivlar miqdorining ortishi bir tomondan quvonarli holat bo‘lsada, lekin bankning jami aktivlariga nisbatan olinganda esa, biroz taajjubli holatni ko‘rishimiz mumkin.

**AT “Turonbank”ning jami aktivlariga nisbatan nomodiy aktivlar salmog‘i (ming / so‘m)**

№	Balans moddasi	2014 yil		2015 yil		2015 yilda 2014 yilga nisbatan o‘zgarishi	
		summa	ulushi	summa	ulushi	summa	ulushi
1	Nomoddiy aktiv	94391	0,02	215891	0,04	+121500	+0,02
2	Jami aktiv	396145141	100	455140382	100	+58995241	+ 1.14

<sup>34</sup> Ma’lumotlar AT “Turonbank” moliyaviy hisobotlari asosida shakllantirilgan.

<sup>35</sup>“Banklarning hisob siyosati va moliyaviy hisoboti to‘g‘risida”gi Nizom. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 2003 yil 3 sentyabr, 1270-son bilan ro‘yxatga olingan.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, bank jami aktivlariga nisbatan nomoddiy aktivlar salmog'i atigi bir yil ichida 0,02 foizdan 0,04 foizgacha o'sgan. Bank ish kunini kompyuter (dasturiy ta'minot) yoki boshqa hisoblash vositalarisiz tassavur qilib bo'lmaydi. Demak, shunday ahamiyatga ega bo'lgan aktivlar atigi bir foizni ham tashkil qilmaydi. Lekin nomoddiy aktivlarni miqdor jihatdan olib qaralganda, ancha ortganligini ko'rish mumkin (+121500 mln so'm)

Tijorat banklarida nomoddiy aktivlarning foydali xizmat qilish muddati quyidagicha aniqlanadi:

1) bank tomonidan aktivdan qanchalik samarali foydalanishdan kelib chiqqan holda kutilayotgan foydalanish;

2) aktivning namunaviy hayot sikli va foydalanilayotgan shunga o'xshash aktivlarning foydali xizmat qilish muddatini baholanganligi to'g'risida ommaviy axborot vositalaridan ma'lumot;

3) texnik, texnologik va boshqa turdagi eskirishlar. Tez o'sib borayotgan texnik taraqqiyotni inobatga olib, kompyuter dasturiy ta'minotlari va shunga o'xshash nomoddiy aktivlarning foydali xizmat qilish muddati qisqa bo'ladi;

4) aktiv ustidan nazorat qilish davri va yuridik yoki aktivdan foydalanishning boshqa cheklashlari, jumladan, ijara shartnomalari muddatlarining tugashi va shu kabilar;

5) aktivning foydali xizmat qilish muddati bankning boshqa aktivlari foydali xizmat qilish muddatlariga bog'liqligi.

Xarid qilib olingan nomoddiy aktivlar bo'yicha har oyda belgilangan tartibda amortizatsiya ajratmalari hisoblanadi va tegishli xarajat obyektlariga o'tkazib boriladi.<sup>36</sup> Bankda ushbu aktivlarga nisbatan amortizatsiyaning qanday usullarini tatbiq etish, yuqorida bayon etilganidek hisob siyosatida belgilab olinadi.

Masalan, AT "Turonbank"da har oy hisoblangan amortizatsiya summasiga tegishli buxgalteriya o'tkazmalari

---

<sup>36</sup>O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. 144-modda.

berib boriladi. Bank hisob siyosatiga asosan to'g'ri chiziqli amortizatsiya hisoblash usuli tanlab olingan.

1) Debet - 56618 Nomoddiy aktivlarning eskirish summasi – 200.000 so'm;

Kredit - 16605 Nomoddiy aktivlarning yig'ilgan eskirish summasi (kontr-aktiv) - 200.000 so'm.

Hisobot davri oxiriga nomoddiy aktiv hisobvarag'laridagi qoldiq – debet (kredit):

2) 16601 - Nomoddiy aktivlar – 5.000.000 so'm,

16605 - Nomoddiy aktivlarning yig'ilgan eskirish summasi (kontr-aktiv) - (2.400.000) so'm.

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarida nomoddiy aktivlar qiymati kamaytirib borilishi amortizatsiya deb nomlanishi bilan buxgalteriya o'tkazmalarida aks ettiriladi. Demak, Prezidentimiz tomonidan qo'yilgan talabga ham tijorat banklari hisobvaraqlar rejasini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish va takomillashtirib borish kerakligini nazarda tutgan holda, 16605 hisobvaraqlar nomini "Nomoddiy aktivlarning yig'ilgan amortizatsiyasi (kontr-aktiv)" deb nomlash maqsadga muvofiq. Shuningdek, moliyaviy natijani ifodalovchi 56618 hisobvaraqlar nomiga ham o'zgartirish kiritish lozim. Masalan, 56618 - "Nomoddiy aktivlarning amortizatsiya summasi".

Chunki, bank asosiy vositalari uchun eskirish tushunchasi to'g'ri qo'llanilgan, ularni qayta tiklash yoki o'rniga xuddi shunday obyektlarni sotib olish yoki qurib, bitkazish mumkin bo'ladi. Ammo nomoddiy aktivlarda bunday tartibni qo'llash noto'g'ridir. Masalan, dasturiy ta'minot, ya'ni kompyuterlar uchun dasturlarning o'rniga xuddi shunday dasturning sotib olinishi hech qanday samara bermaydi. Yoki aynan xuddi shunday patentni (lizentsiya) olinishi, kelgusida subyekt faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, bir so'z bilan aytganda, modernizatsiya tushunchasidan yiroq bo'lib qoladi.

Banklarda nomoddiy aktivlar asosiy vositalar kabi vaqti-vaqti bilan qayta baholab boriladi. Lekin nomoddiy aktivlarni qayta baholash yuzasidan me'yoriy hujjatlarda aniq koeffitsient yoki ko'rsatmalar ishlab chiqilmagan (aftidan, bu har bir bankning o'z "hisob siyosati"ga bog'liq

bo'lsa kerak). Agar bankda nomoddiy qayta baholanish o'tkaziladigan bo'lsa, aktiv qiymatining ortishi balansning 3-bo'limida ifodalanadi (o'z kapitalida). Masalan, AT "Turonbank"da nomoddiy aktivlar qayta baholandi. Bank buxgalteri tomonidan quyidagi o'tkazmalar beriladi:

1) Boshlang'ich qiymatiga:

Debet - 16601 Nomoddiy aktivlar hisobvarag'i - 700 000 so'm;

Kredit - 30908 Boshlang'ich qiymatga nisbatan baholash qiymatining oshgan miqdori - 700 000 so'm.

2) Qoldiq qiymatiga:

Debet - 30908 Boshlang'ich qiymatiga nisbatan baholash qiymatining oshgan miqdori - 250.000 so'm;

Kredit - 16605 Nomoddiy aktivlarning yig'ilgan amortizatsiyasi (kontr-aktiv)- 250.000 so'm (taklif etilayotgan hisobvaraqa nomi asosida).

Bankda boshlang'ich qiymatga nisbatan baholash qiymatining oshgan miqdori har oyda taqsimlanmagan foyda hisobvarag'iga o'tkazib boriladi:

Debet - 30908 Boshlang'ich qiymatga nisbatan baholash qiymatining oshgan miqdori - 450.000 so'm;

Kredit - 31203 Taqsimlanmagan foyda (aktiv-passiv) - 450.000 so'm.

Shuni aloxida ta'kidlab o'tish kerakki, bank ichida yaratilgan nomoddiy aktivlar balansda haqiqiy tannarxi bo'yicha aks ettirilishi lozim. Sababi, moliyaviy hisobotning xalqaro stardartiga muvofiq, bank ichida yaratilgan gudvill aktiv sifatida tan olinmaydi. Bunda bank ichida yaratilgan, nazorat qilinadigan gudvill tannarxi bo'yicha ishonchli baholana olmasligidan kelib chiqqan holda indetifikatsiyalanadigan resurs hisoblanmaydi.<sup>37</sup>

Odatda, iqtisodiy adabiyotlarda ishchanlik qobiliyati (*gudvill*)ga turlicha yondashuvlar mavjud. Masalan, xalqaro amaliyotda gudvill (*goodwill*) - bu yaxshi nom, obro'-e'tibor (reputatsiya), "bankning bahosi". Banklarni birlashtirib yuborishda yoki bankni sotib olishda uning sof aktivlari bahosidan (bozor baholaridagi barcha aktivlar va barcha majburiyatlari o'rtasidagi farq) ortiqroq bahoda xaridor tomonidan to'langan summasi **gudvill** deb yuritiladi. Bu

<sup>37</sup> "Nomoddiy aktivlar" Moliyaviy hisobotning xalqaro standarti (IFRS 38)

xaridor tomonidan bank sotib olinayotganda, ushbu bankdagi yillar mobaynida shakllangan mijozlar bilan, qarz oluvchilar va depozitorlar bilan o'zaro o'rnatilgan munosabatlar ham sotib olinganligini anglatadi.

Gudvill bo'yicha amortizatsiya ajratmalari buxgalteriya hisobida uning foydali xizmat muddati mobaynida gudvill boshlang'ich qiymatini kamaytirish yo'li bilan aks ettiriladi. Ya'ni:

Debet - 56618 Nomoddiy aktivlarning amortizatsiya summasi – 2 000 000 so'm (*taklif etilayotgan yangi nom bilan*);

Kredit - 16617-Gudvill – 2 000 000 so'm.

Gudvillning paydo bo'lishiga shartli misol bilan izoh beramiz. Masalan, A bank B bankni 250 000 000 so'mga sotib oldi. Sotib olish sanasiga B bank 230 000 000 so'mlik haqqoniy qiymati bo'yicha sof aktivlarga ega. U holda A bankning balansi (16617-hisobvarag'i)da 20 000 000 so'mlik gudvill nomi bilan aktiv paydo bo'ladi. A bank hisob siyosatiga muvofiq, shakllangan gudvillni bank 20 yil davomi (*MHXS 38 bo'yicha 40 yilga teng*)da amortizatsiyalashga qaror qildi. Gudvill bo'yicha har yillik amortizatsiyasi xarajatlari 1 000 000 so'mga teng bo'ladi.

Banklarda yaratilayotgan yoki sotib olinayotgan nomoddiy aktivlarga quyidagi talablar qo'yiladi:

- nomoddiy aktivni yaratilishini tugallashning texnik imkoniyati mavjud bo'lishi va undan foydalanish yoki sotish mumkin bo'lishi;

- nomoddiy aktivni yaratishni nihoyasiga yetkazish niyatining mavjudligi, uni ishlatish yoki sota olish qobiliyatiga ega bo'lishi;

- nomoddiy aktivning kelajakda iqtisodiy samara keltira olish imkoniyati. Bundan tashqari, bank nomoddiy aktivning natijalari yoki uning o'zi uchun bozor mavjudligini ko'rsata olishi kerak. Agarda uni bank ichida ishlatilishi ko'zda tutilayotgan bo'lsa, nomoddiy aktivning foydaliligini baholash zarur;

- aktivning yaratilishini yakunlash va ishlatish yoki sotish uchun yetarli texnik, moliyaviy hamda boshqa resurs (manba)larning mavjudligi;

- nomoddiy aktiv yaratilish jarayonida uni ishlab chiqish bilan bog'liq xarajatlarni ishonchli baholash qobiliyati.

Quyidagi xarajatlar yaratilgan ichki nomoddiy aktivlarning tannarxi qismiga kiritilmaydi:

1. Savdo, ma'muriy va boshqa umumiy qo'shimcha xarajatlar (aktivni foydalanishga tayyorlash uchun ketadigan xarajatlardan tashqari);

2. Aktivdan foydalanadigan xodimlarni tayyorlashga ketadigan xarajatlar.

Masalan, AT "Turonbank" qimmatli qog'ozlarni buxgalteriya hisobini yuritishni avtomatlashtirish maqsadida yangi dasturiy ta'minotni yaratishni boshladi. Loyihaning bosqichlari – loyihalashtirish, amalga oshirish va texnik xizmat ko'rsatish. Loyiha boshlangandan buyon bank quyidagi xarajatlarni amalga oshirgan:

- bank dasturchini qimmatli qog'ozlar bo'yicha seminarga yubordi va o'qish uchun 50 000 sh.b. to'ladi;

- marketing bo'yicha mutaxassis mahsulot – dasturiy ta'minotga bo'lgan bozor talabini o'rganish maqsadida bozorda tadqiqot o'tkazgan. Mazkur tadqiqotga qilingan xarajatlar 40 000 sh.b. tashkil qilgan;

- dasturiy ta'minotni boshlang'ich narxi 250 000 sh.b. ga baholangan;

- dasturiy ta'minotni ishlab chiqish uchun 6 oy kerak bo'lgan. Mazkur dasturiy ta'minotni yaratgan mutaxassisning oyligi 100 000 sh.b., uning o'rinbosarini oyligi esa 80 000 sh.b. Joriy etish jarayonida yana bir mutaxassis jalb etilgan va uning ish haqi 15 000 sh.b. bo'lgan. Joriy etish bosqichi 1 oy;

- bank rahbariyati dasturiy ta'minot yaratilayotgan davr uchun davr xarajatlarini umumiy xarajatlarning 35% foizi miqdorida baholadi.

Quyida bankning qaysi xarajatlari nomoddiy aktiv qiymatiga olib boriladi, qaysilari xarajatga olib boriladi?

1. Tadqiqotlar bosqichi:

- o'qish uchun to'lov 50 000 sh.b.;

- bozorni o'rganish 40 000 sh.b.;

- xarajatga olib boriladi 90 000 sh.b.

## 2. Yaratish bosqichi:

- dasturiy ta'minotni yaratish bo'yicha mutaxassis va uning o'rinbosarining ish haqi 180 000 sh.b.;
- jalb etilgan mutaxassisning ish haqi 15 000 sh.b.;
- yaratish davridagi davr xarajatlari 68 250 sh.b.;
- nomoddiy aktiv sifatida tan olinadi 263 250 sh.b.

Tijorat banklarida nomoddiy aktivlar quyidagi yo'llar bilan bank balansidan chiqariladi:

- tugatish (to'liq amortizatsiya hisoblanishi);
- realizatsiya qilish (boshqa subyektlarga sotib yuborilishi);
- ayirboshlash (boshqa aktivlarga almashtirilishi);
- tekinga berish (qaytarib bermaslik sharti bilan filiallarga berilishi);
- ustav kapitaliga muassis hissasi tarzida qo'shish (boshqa subyektlar ustavining shakllantirilishi);
- ishtirokchi ishtirokchilar tarkibidan chiqqanida nomoddiy aktivlar bilan hisob-kitob qilinishi;
- kamomad holatlarini aniqlanishi va boshqalar.

AT "Turonbank" yangi nomoddiy aktiv obyektlarini xarid qilish maqsadida hali to'liq foydalanilmagan boshqa bir nomoddiy aktivlarini 3 500 000 so'mga sotdi. Sotishni aks ettirish bo'yicha o'tkazmalar:

1) Debet - 16605 Nomoddiy aktivlarning yig'ilgan ammortizatsiyasi (kontr-aktiv) – 2 400 000 so'm;

Kredit - 16601 Nomoddiy aktivlar – 2 400 000 so'm.

2) Debet - Bankning vakillik hisobvarag'i – 3 500 000 so'm;

Kredit - 29802 Tovar – moddiy qimmatliklar va ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lanadigan mablag'lar – 3 500 000 so'm.

3) Debet - 29802 Tovar – moddiy qimmatliklar va ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lanadigan mablag'lar – 3 500 000 so'm;

Kredit - 16601 Nomoddiy aktivlar– 2 600 000 so'm,

Kredit - 45909 Bank asosiy vositalarini sotish yoki dispozitsiya qilishdan foyda– 900 000 so'm.

Buxgalteriya hisobida nomoddiy aktivlar yangi shakllanib kelayotgan obyektlardan biri hisoblanadi.



Shunday ekan, ularni kiringa olish, dastlabki hujjatlarda qayd etish, ulardan samarali foydalanish hamda hisobdan chiqarish tartibini xalqaro moliyaviy hisobot standartlari talablari asosida doimiy ravishda takomillashtirib borish taqo

zo etiladi. Bu esa bank aktivlari shaffofligi oshishi hamda bank mol-mulklari haqidagi to'liq axborotlar olishni ta'minlaydi.

### **6.5. Banklarda kam baholi va tez eskiruvchi buyumlar hisobi**

Tovar-moddiy zaxiralar bu xo'jalik yurituvchi subyektlarning quyidagi shakldagi aktivlaridir:

a) ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayonida ishlatilishi ko'zda tutilgan xomashyo, materiallar, sotib olingan yarim tayyor mahsulotlar va butlovchi buyumlar, yoqilg'i, ehtiyot qismlar, boshqa materiallar;

b) tugallanmagan ishlab chiqarish, ishlarni bajarish, xizmatlarni ko'rsatish;

d) xo'jalik yurituvchi subyektning faoliyatida sotish uchun mo'ljallangan tayyor mahsulot va tovarlar.

Tovar-moddiy zaxiralar asosan, ishlab chiqaruvchi va savdo korxonalarining asosiy aylanma mablag'larini tashkil etadi.

Banklar faoliyatida esa tovar-moddiy zaxiralari bank aktivining ma'lum bir qismini tashkil etib, uning vazifalari ishlab chiqaruvchi va savdo korxonalarinikidan tubdan farq qiladi. Bank faoliyatida tovar-moddiy zaxiralari iborasi bilan emas, balki yuqorida ta'kidlanganidek, ko'proq "kam baholi va tez eskiruvchi buyumlar" iborasi ishlatiladi.

O'zbekiston Respublikasi banklarida kam baholi va tez eskiruvchi buyumlarning buxgalteriya hisobini yuritish O'zbekiston Respublikasi banklarida kam baholi va tez eskiruvchi buyumlarning buxgalteriya hisobini yuritish to'g'risida Yo'riqnoma (yangi tahrirda (Ro'yxat raqami 1496, 2005-yil 15-iyul)) talablari asosida amalga oshiriladi. Ushbu Yo'riqnoma yuqorida qayd etilgan MHXS - 2 ga

muvofiq ishlab chiqilgan yoki uning qoidalari to'la xalqaro standartlarga mos keladi.

Nima uchun tijorat banklari o'zlari mustaqil ravishda BHXS - 2 talablaridan foydalangan holda "Kam baholi va tez eskiruvchi buyumlar" (keyigi matnda KBTEB) hisobini yuritishi mumkin emas. Chunki Markaziy bank tomonidan ularga KBTEB hisobini yuritish uchun alohida me'yoriy hujjat ishlab chiqilgan. Banklar uchun KBTEB buxgalteriya hisobining yagona talabi ularning KBTEB to'g'risida to'liq va ishonchli ma'lumotlarni shakllantirishi hamda ularning mavjudligi va harakati ustidan lozim darajada nazoratni ta'minlashi uchun bir xil hisob siyosati yuritish maqsadida belgilanadi.

Kam baholi va tez eskiruvchi buyumlar - bu bank faoliyatida foydalaniladigan va quyidagi mezonlardan birortasiga javob bera oladigan moddiy aktivlardir:

- xizmat muddati bir yildan ortiq bo'lmagan;
- xizmat muddatidan qat'iy nazar bir donasi (komplekti) narxi O'zbekiston Respublikasida o'rnatilgan (sotib olish vaqtidagi) eng kam ish haqining ellik baravarigacha qiymatga ega bo'lgan buyumlardir.

Bank rahbari buyumlarning KBTEB tarkibidagi hisobini olib borish uchun hisobot yiliga buyumlar qiymatining quyi chegarasini o'rnatishi mumkin.

Xizmat qilish muddati va qiymatidan qat'iy nazar KBTEB tarkibiga quyidagilar kiritiladi:

a) maxsus asboblari va moslamalar (ayrim buyumlarni turkum va yalpi ishlab chiqarish yoki yakka tartibdagi buyurtmalarni tayyorlash uchun mo'ljallangan maqsadli asboblari va moslamalar);

b) maxsus va sanitar kiyimlari maxsus poyafzallari;

d) yotoq jihozlari;

e) kantseyariya jihozlari (kalkulyatorlari, stol jihozlari va boshqalar);

f) oshxona va ovqatlanish xonasi inventarlari, shuningdek ovqatlanish xonasi choyshablari;

g) qurilish-ta'mirlash ishlari tannarxiga olib boriladigan vaqtinchalik qurilma va moslamalar (titulsiz inshootlari);

h) foydalanish muddati bir yildan kam bo'lgan almashish asbob-uskunalari va boshqa buyumlar.

Haqiqatdagi qiymat - KBTEBni sotib olish, qayta ishlash va uni hozirgi joyi hamda holatiga keltirish uchun amalga oshirilgan boshqa jami xarajatlar summasidir.

Haqqoniy qiymat - o'zaro aloqador bo'lmagan va umumiy shartlarda bitimni amalga oshirishni xohlovchi boxabar tomonlar o'rtasida aktivni almashtirish yoki majburiyatni qoplash uchun kelishilgan summa.

Sof sotish qiymati - oddiy ish faoliyati davomidagi bitim tuzish va sotishni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan va hisoblangan xarajatlar chegirib tashlangan sotish bahosi. Sof sotish qiymati bank tomonidan oddiy hollarda KBTEBni sotishdan olishi kutilayotgan sof summani anglatadi. KBTEBning sof sotish qiymati haqqoniy qiymatdan sotish xarajatlari ayirib tashlangan qiymatidan farq qilishi mumkin.

KBTEB qiymatini oldindan to'lash bilan sotib olish:

1) KBTEBni oldindan to'liq yoki qisman to'lanishi quyidagi buxgalteriya yozuvlari bilan rasmiylashtiriladi:

Dt - 19909 "Tovar-moddiy qimmatliklar uchun to'langan mablag'lar";

Kt - Bankning vakillik hisobvarag'i yoki mijozning talab qilib olinguncha depozit hisobvarag'i (agar mol yetkazib beruvchining talab qilib olinguncha depozit hisobvarag'iga shu bankda xizmat ko'rsatilsa).

2) KBTEB omborxonaga sotib olinganligini tasdiqlovchi birlamchi hujjatlar asosida kirim qilinib, quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi bilan rasmiylashtiriladi:

Dt - 19921 "Ombordagi kam baholi va tez eskiruvchi buyumlar hamda boshqa qimmatliklar";

Kt - 19909 "Tovar-moddiy qimmatliklar uchun to'langan mablag'lar".

Agar to'lov KBTEB kelib tushgandan keyin amalga oshirilsa, quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi amalga oshiriladi:

1) KBTEB kelib tushganda:

Dt - 19921 "Ombordagi kam baholi va tez eskiruvchi buyumlar hamda boshqa qimmatliklar";

Kt - 29802 “Tovar-moddiy qimmatliklar va ko‘rsatilgan xizmatlar uchun to‘lanadigan mablag‘lar”.

2) KBTEB qiymati to‘langanda:

Dt - 29802 “Tovar-moddiy qimmatliklar va ko‘rsatilgan xizmatlar uchun to‘lanadigan mablag‘lar”;

Kt – “Bank vakillik hisobvarag‘i yoki mijozning talab qilib olinguncha depozit hisobvarag‘i” (agar mol yetkazib beruvchining talab qilib olinguncha bo‘lgan depozit hisobvarag‘iga shu bankda xizmat ko‘rsatilsa).

KBTEB Bosh bank/filialdan filiallar/bosh bankka berilganda shu kungi bank hujjatlariga moddiy javobgar shaxsga tegishli filial/bosh bank tomonidan (belgilangan tartibda) berilgan talabnoma va ishonchnoma tikib qo‘yiladi va quyidagi buxgalteriya o‘tkazmasi amalga oshiriladi:

Dt - 16104 “Bosh bank/fiiallardan olinadigan mablag‘lar - Tovar moddiy qimmatliklar”;

Kt - 19921 “Ombordagi kam baholi va tez eskiruvchi buyumlar hamda boshqa qimmatliklar”.

KBTEB Bosh bankdan filialga qabul qilinganda boshlang‘ich hujjatlar (yuk xatlari) asosida quyidagi buxgalteriya o‘tkazmasi amalga oshiriladi:

Dt - 19921 “Ombordagi kam baholi va tez eskiruvchi buyumlar hamda boshqa qimmatliklar”;

Kt - 22205 “Bosh bank /fiiallarga to‘lanadigan mablag‘lar - Tovar moddiy qimmatliklar”.

Omborga qabul qilingan KBTEBda biror bir nomuvofiqlik yoki nuqson topilganda, yukni yetkazib bergan tashkilot vakillari ishtirokida dalolatnoma tuziladi va da‘vo bildiriladi. Dalolatnomaning uchinchi nusxasi bildirilgan da‘vo bilan mol yetkazib beruvchiga yuboriladi.

1) Bank da‘vosi mol yetkazib beruvchi tomonidan qabul qilinganda yoki sud tomonidan tegishli qaror chiqarilganda omborga kirim qilingan KBTEBni mol yetkazib beruvchiga qaytarish quyidagi buxgalteriya o‘tkazmasi bilan amalga oshiriladi:

Dt - 19909 “Tovar-moddiy qimmatliklar uchun to‘langan mablag‘lar”;

Kt - 19921 “Ombordagi kam baholi va tez eskiruvchi buyumlar hamda boshqa qimmatliklar”.

2) Qaytarilgan mablag'larni qayta yozuv bilan vakillik hisobvarag'iga o'tkazish:

Dt - Bankning vakillik hisobvarag'i;

Kt - 19909 "Tovar-moddiy qimmatliklar uchun to'langan mablag'lar".

Bankka kelayotgan moddiy boyliklar ularning saqlanishiga javobgar bo'lgan omborxonada mudiri (omborchi) yoki bank boshlig'ining buyrug'iga asosan tayinlangan boshqa xodim tomonidan qabul qilinadi. Javobgar shaxs - omborchi yoki boshqa xodim tomonidan bankka qabul qilinayotgan barcha KBTEB bo'yicha raqamlangan, tikilgan va boshqaruvchi hamda bosh buxgalterni imzosi va bankning dumaloq muhri bilan tasdiqlangan jurnalda alohida, maxsus tizimdan tashqari hisob yuritiladi.

Banklarda KBTEB haqiqatdagi yoki sof sotish qiymatlaridan eng kam miqdori bilan baholanadi. KBTEBning haqiqatdagi qiymati sotib olish va qayta ishlash bilan bog'liq bo'lgan barcha xarajatlar hamda KBTEBni joriy holatiga va joyiga keltirish maqsadida amalga oshirilgan boshqa xarajatlardan iboratdir.

KBTEBni sotib olish xarajatlari xarid narxi, import bojlari va boshqa to'lovlar (keyinchalik bankka qaytariladiganlaridan tashqari) tashish, qayta ishlash va sotib olish bilan bevosita bog'liq bo'lgan boshqa xarajatlardan iborat bo'ladi. Savdo chegirmalari, qoplab berishlar va boshqa shunga o'xshash xarajatlar sotib olish xarajatlarini aniqlayotganda chiqarib tashlanadi (1-ilova).

Boshqa xarajatlar KBTEBning haqiqatdagi qiymatiga ularning joriy holat va joyiga keltirish bilan bog'liq bo'lgan qismigina qo'shiladi. KBTEBning qiymatiga qo'shilmadan, davr xarajatlari sifatida xarajat qilingan vaqtda tan olinuvchi xarajatlarga quyidagilar misol bo'ladi:

a) saqlash xarajatlari;

b) KBTEBni joriy holatiga va joyiga keltirish bilan bog'liq bo'lmagan ma'muriy xarajatlar;

d) sotish xarajatlari.

Agar KBTEBni sotib olish bo'yicha shartnomada moliyalashtirish elementi ishlatilgan bo'lsa, masalan, oddiy

holdagi sotib olish shartlaridagi to'lanadigan baho bilan to'langan baho o'rtasidagi farq butun xaridni moliyalashtirish davomida foizli xarajatlar sifatida tan olinadi.

Bir xil bo'lmagan va maxsus maqsadlar uchun ajratilgan (masalan, yangi dasturiy vositani joriy etish uchun olingan uskunalar) KBTEBning haqiqatdagi qiymati aniq xarajatlarning alohida qiymatlarini maxsus aniqlash orqali o'rnatiladi.

Qiymatlarni maxsus aniqlash - bu ma'lum turdagi KBTEB qiymatiga aniq xarajatlarni olib borishdir. Bu usul maxsus maqsadlar uchun alohida ajratilgan moddalarga nisbatan talab etiladi. Agarda bir xil narxli KBTEBning katta miqdori mavjud bo'lsa, maxsus baholash talab etilmaydi. Bunday hollarda oldindan foyda yoki zararga ta'sirni aniqlash uchun KBTEBga tegishli bo'lgan moddalarni ajratib olish usulidan foydalanish mumkin.

Banklarda KBTEBdan boshqalarining haqiqatdagi qiymati "birinchi kelish - birinchi ketish" tamoyili (FIFO) yoki o'rtacha tortilgan qiymat formulasi yordamida aniqlanadi. Bank bir xil tavsifga ega bo'lgan va bank tomonidan bir xil maqsadda ishlatiladigan KBTEB bo'yicha bir xil qiymat formulasidan foydalanadi. Bank boshqa xil tavsifga ega bo'lgan va bank tomonidan boshqa maqsadda ishlatiladigan KBTEB bo'yicha boshqa qiymatni aniqlash formulasidan foydalanishi ham mumkin.

FIFO usulida birinchi bo'lib sotib olingan KBTEB birinchi bo'lib ishlatiladi va o'z navbatida davr oxirida tovar moddiy zaxiralarda qolgan KBTEB qoldig'i keyingi xarid narxi bilan hisobga olinadi (2-ilova). O'rtacha tortilgan qiymat formulasidan foydalanilganda har bir obyektning qiymati xuddi shunday obyektlarning davr boshidagi va davr mobaynida sotib olingan o'rtacha tortilgan qiymatiga teng. O'rtacha qiymat bankdagi sharoitdan kelib chiqib, davriy ravishda yoki har bir qo'shimcha KBTEBlar sotib olinganda, hisoblanishi mumkin.

Banklarda KBTEBning haqiqatdagi qiymati, agar ular shikastlangan yoki ularning sotish narxi pasayganda, qoplanmasligi mumkin. Banklar bunday zararlar miqdorini

KBTEBni sof sotish qiymatini baholash orqali aniqlaydi. Shuningdek, KBTEBning baholangan sof sotish qiymati mazkur baholashni amalga oshirish davridagi eng ishonchli faktlarga va sotilishi kutilayotgan KBTEBni tasdiqlangan qiymatiga asoslangan bo'ladi. Bu baholash bevosita hisobot sanasidan keyin ro'y bergan voqealar bilan bog'liq narx o'zgarishlarini hisobot sanasida mavjud bo'lgan shartlar tasdiqlangan darajada hisobga oladi.

Banklar buxgalteriya hisobida har qanday zarar yoki KBTEBni qiymatini sof sotish qiymatigacha kamaytirish bo'yicha xarajatlarni zarar yoki qiymat kamayishi ro'y berayotgan har bir hisobot davrida aks ettirishlari shart. Banklar har bir KBTEBni sof sotish qiymatigacha hisobdan chiqarish bo'yicha tizimdan tashqari hisob yuritishlari shart. Tizimdan tashqari hisob yuritishda sof sotish qiymatigacha hisobdan chiqarish har bir KBTEB bo'yicha alohida yuritiladi. Ba'zi holatlarda agar hisobga olinayotgan KBTEB og'irligi yoki boshqa shu kabi ko'rsatkichlari bo'yicha bir xil bo'lsa, ularning hisobi shu ko'rsatkichlar bo'yicha guruhlashtirish orqali alohida kartochkalarda yuritilishi mumkin.

Har bir keyingi davrda sof sotish qiymatini yangidan baholash va zarur bo'lsa, qo'shimcha hisobdan chiqarishlar amalga oshiriladi. Shunday qilib, yangi balans qiymati haqiqatdagi qiymat va qayta ko'rib chiqilgan sof sotish qiymatining eng kichigiga tengdir. Banklar KBTEB sof sotish qiymatigacha hisobdan chiqarishni quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi bilan amalga oshiradilar:

Debet - 56895 "Boshqa aktivlar bo'yicha ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni baholash";

Kredit - 19921 "Ombordagi kam baholi va tez eskiruvchi buyumlar hamda boshqa qimmatliklar".

KBTEB ombordan ishlatish uchun berilganda shu sana uchun xarajat sifatida tan olinadi. Agar KBTEB chiqib ketayotgan bo'lsa, unga mos daromad tan olingan sanada tegishli xarajat ham tan olinadi. KBTEBni sof sotish qiymatigacha hisobdan chiqarish va KBTEB bo'yicha ko'rilgan zararlar hisobdan chiqarish amalga oshirilgan

yoki zarar ko'rilgan davrda davr xarajati sifatida tan olinadi.

Ba'zi bir KBTEB, masalan, bank hisobidan qurilayotgan asosiy vosita hisobiga qo'shiladigan KBTEB boshqa aktivlar hisobiga o'tkazilishi mumkin. Boshqa aktiv tarkibiga bunday yo'l bilan qo'shilgan KBTEB aktivning foydali ishlatilish davri mobaynida xarajat sifatida tan olib boriladi.

Bank omboridan KBTEB quyidagi hollarda hisobdan chiqariladi:

- foydalanishga berilganda;
- sotilganda;
- bepul (tekinga) berilganda;
- kamomad aniqlanganda va foydalanish uchun yaroqsiz bo'lganda;
- fors-major holatlarda.

KBTEBni foydalanishga berish quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi bilan rasmiylashtiriladi:

Debet - 56406 "Devonxona, ofis va boshqa buyumlar xarajatlari";

Kredit - 19921 "Ombordagi kam baholi va tez eskiruvchi buyumlar hamda boshqa qimmatliklar".

Bunda foydalanish (ekspluatatsiya)dagi va ombordagi KBTEBning saqlanishi ustidan nazorat va ularning hisobi tizimdan tashqari jurnallarda (jurnallar raqamlangan, tikilgan va bankning rahbari, bosh buxgalteri imzosi va dumaloq muhri bilan tasdiqlangan bo'lishi shart) amalga oshiriladi. Tizimdan tashqari hisob kunlik ravishda olib boriladi va KBTEBni mos bandlari qoldig'ini ko'rsatgan holda har bir hisobot sanasiga tuziladi.

Bank ortiqcha KBTEBni sotganda (KBTEB shartnomada kelishilgan narxlarda sotiladi) quyidagi buxgalteriya o'tkazmalari amalga oshiriladi:

1) KBTEBni sotish summasiga:

Debet - Bankning vakillik hisobvarag'i yoki sotib oluvchining talab qilib olinguncha depozit hisobvarag'i, agar sotib oluvchiga shu bankda xizmat ko'rsatilsa;

Kredit - 29802 "Tovar-moddiy qimmatliklar va ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lanadigan mablag'lar".



2) KBTEB bank uchun foyda yoki zararsiz sotilganda:

Debet - 29802 “Tovar-moddiy qimmatliklar va ko‘rsatilgan xizmatlar uchun to‘lanadigan mablag‘lar” *sof tushum summasiga*;

Kredit - 19921 “Ombordagi kam baholi va tez eskiruvchi buyumlar hamda boshqa qimmatliklar”.

3) KBTEB foyda bilan sotilganda:

Debet - 29802 “Ko‘rsatilgan xizmatlar va moddiy tovar qimmatliklari uchun to‘lanadigan mablag‘lar” - *sof tushum summasiga*;

Kredit - 19921 “Ombordagi kam baholi va tez eskiruvchi buyumlar hamda boshqa qimmatliklar”,

Kredit - 45913 “Bankning boshqa xususiy mulklarini sotish yoki dispozitsiya qilishdan olingan foyda” – “sof tushum” va balans qiymati o‘rtasidagi farq summasiga.

4) KBTEB zarar bilan sotilganda:

Debet - 29802 “Ko‘rsatilgan xizmatlar va moddiy tovar qimmatliklari uchun to‘lanadigan mablag‘lar” - sof tushum summasiga,

Debet - 55906 “Bankning boshqa xususiy mulklarini sotish yoki dispozitsiya qilishdan ko‘rilgan zararlar” – “sof tushum” va balans qiymati o‘rtasidagi farq summasiga;

Kredit - 19921 “Ombordagi kam baholi va tez eskiruvchi buyumlar hamda boshqa qimmatliklar”.

Kamomad chiqqan, yaroqsiz holga kelgan (aybdor shaxslar aniqlanmagan holda), tekinga berilgan, shuningdek, fors-major holatlarda KBTEBning qiymati, bank tomonidan belgilangan tartibda, zararga chiqariladi va quyidagi buxgalteriya yozuvi bilan rasmiylashtiriladi:

Debet - 56795 “Boshqa operatsion xarajatlari”;

Kredit - 19921 “Ombordagi kam baholi va tez eskiruvchi buyumlar hamda boshqa qimmatliklar”.

Banklarda foydalanilayotgan va ombordagi KBTEB bo‘yicha ularning saqlanishi va haqiqatda mavjudligi ustidan nazoratni ta‘minlash uchun yilda kamida bir marta inventarizatsiya o‘tkaziladi. Inventarizatsiya o‘tkazish tartibi bank rahbariyati tomonidan belgilanadi.

Moddiy boyliklar kamomadi aniqlanganda, ularning qiymati aybdor va moddiy-javobgar shaxslardan

qonunchilikda o'rnatilgan tartibda undirib olinadi. Yetkazilgan zararlar miqdorini bank xodimining yetkazgan zarari uchun uning moddiy javobgarligi doirasi va tartibini aniqlash O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi bilan tartibga solinadi.

KBTEBning kamomadi, shuningdek, aybdor shaxs aybi bilan yaroqsiz holga kelgan (aybdor shaxs aniqlanganda) KBTEBning qiymati inventarizatsiya komissiyasining boshlig'i va a'zolari, moddiy javobgar shaxs (ombor mudiri) tomonidan imzolangan akt bilan rasmiylashtiriladi va moddiy-javobgar shaxslardan belgilangan tartibda undirib olinadi hamda quyidagi buxgalteriya yozuvi orqali rasmiylashtiriladi:

Debet - 19908 "Bank xodimlari bilan bo'ladigan hisob-kitoblarda undirib olinishi lozim bo'lgan mablag'lar";

Kredit - 19921 "Ombordagi kam baholi va tez eskiruvchi buyumlar hamda boshqa qimmatliklar".

Qiymat aybdor xodimlarning ish haqidan undirib olinganda quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi amalga oshiriladi:

Debet - 29803 "Bank xodimlari bilan hisob-kitoblardagi to'lanishi lozim bo'lgan mablag'lar";

Kredit - 19908 "Bank xodimlari bilan bo'ladigan hisob-kitoblarda undirib olinishi lozim bo'lgan mablag'lar".

Belgilangan tartibda bank xodimidan kassa orqali undirib olinganda:

Debet - 10101 "Amaliyot (operatsion) kassadagi naqd pullar";

Kredit - 19908 "Bank xodimlari bilan bo'ladigan hisob-kitoblarda undirib olinishi lozim bo'lgan mablag'lar".

Agar inventarizatsiya paytida omborda hisobda bo'lmagan buyumlar aniqlansa, ular inventarizatsiya komissiyasi tomonidan bozor narxida baholanib, belgilangan tartibda omborga kirim qilinadi. Bunda quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi amalga oshiriladi:

Debet - 19921 "Ombordagi kam baholi va tez eskiruvchi buyumlar hamda boshqa qimmatliklar";

Kredit - 45994 "Boshqa foizsiz daromadlar".

Ombor mudiri (omborchi) ishdan bo'shashi, boshqa ishga o'tkazilishi, mehnat ta'tiliga ketishi yoki bemorligi tufayli almashtirilgan taqdirda, bank rahbarining buyrug'i bilan xodimlar tarkibidagi hay'at tomonidan topshiruvchi va qabul qiluvchi xodimlar ishtirokida omborda to'liq inventarizatsiya o'tkaziladi hamda majburiy ravishda qabul qilish-topshirish dalolatnomasi tuziladi.

Banklar KBTEB haqida moliyaviy hisobotda quyidagilarni oshkor etishi kerak:

1) KBTEBni baholash uchun qabul qilingan hisob siyosati, jumladan, foydalanilgan qiymat formulasi;

2) KBTEBning jami balans qiymati;

3) davr mobaynida xarajat sifatida tan olingan KBTEB summasi;

4) davr mobaynida xarajat sifatida tan olingan KBTEBni hisobdan chiqarish summasi;

5) majburiyatlar ta'minoti sifatida garovga qo'yilgan KBTEBning balans qiymati.

## **6.6. Banklarda lizing operatsiyalari hisobining nazariy asoslari**

Banklarda lizing operatsiyalari hisobini tashkil qilishda buxgalteriya hisobida umumqabul qilingan tamoyillardan foydalaniladi: buxgalteriya hisobining ikki yoqlama yozuv usulini yuritish; uzluksizlik; xo'jalik operatsiyalari, aktivlar va passivlarni pulda baholanishi; aniqlik; hisoblash; oldindan ko'ra bilish (ehtiyotkorlik); mazmunning shakldan ustunligi; ko'rsatkichlarning qiyoslanuvchanligi; moliyaviy hisobotning betarafligi; hisobot davri daromadlari va xarajatlarning muvofiqligi; aktivlar va majburiyatlarning haqiqiy baholanishi.

Lizing operatsiyalari hisobi buxgalteriya hisobining milliy va xalqaro standartlari hamda boshqa buxgalteriya hisobini yuritishning amaldagi me'yoriy hujjatlariga muvofiq tashkil etiladi.

O'zbekiston Respublikasida lizing operatsiyalari quyidagi qonun va qonunosti hujjatlari asosida amalga oshiriladi:

- 1995-yil 21-dekabrda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Fuqorlik kodekisining 587-599 – moddalari;
- O‘zbekiston Respublikasining 1999-yil 14-apreldagi “Lizing to‘g‘risida”gi qonuni;
- O‘zbekiston Respublikasining “Banklar va bank foliyati to‘g‘risida”gi qonuni;
- Markaziy bankning “Tijorat banklarida lizing operatsiyalarini amalga oshirish va ularning buxgalteriya hisobini yuritish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomi;
- 2001-yil 1-fevralda kuchga kirgan “Xalqaro moliyaviy lizing to‘g‘risida”gi Konvensiya;
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002-yilda qabul qilingan “Lizing faoliyatini rivojlantirishni yanada rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 3122-sonli farmoni;
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 28-iyuldagi “Tijorat banklarining investitsiya loyihalarini moliyalashtirishga yo‘naltirilgan uzoq muddatli kreditlari ulushini ko‘paytirishni rag‘batlantirish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori ;
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 26-noyabrdagi PQ-1438-sonli “2011-2015 yillarda respublika moliya – bank tizimini yanada isloh qilish va barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko‘rsatkichlariga erishishning ustuvor yo‘nalishlari to‘g‘risida”gi qarori;
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 30-dekabrdagi PQ-1675-sonli “O‘zbekiston Respublikasining 2012-yilgi asosiy makro iqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va davlat byudjeti parametrlari to‘g‘risida”gi qarori;
- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2011-yil 21-maydagi 143-sonli “O‘zbekiston Respublikasida lizing xizmatlarini yanada rivojlantirish va tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori;
- O‘zbekiston Respublikasining 2011-yil 4-oktiyabrdagi №O‘RQ-301-sonli “Kredit axboroti to‘g‘risida”gi qonuni;
- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yilning 10-may kunidagi “2012-2016 yillarda O‘zbekiston

Respublikasida Xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish Dasturi to'g'risida"gi qarori.

Lizing operatsiyalari moliyaviy barqaror bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyektlarga to'lovga qodir, ta'minlanganlik, bank tomonidan lizing obyektini sotib olishga investitsiya qilingan kredit mablag'larini qaytarishlik va maqsadga muvofiq foydalanishlik tamoyillari asosida amalga oshiriladi.

Lizing operatsiyasi lizing objekti lizing oluvchi tomonidan bevosita tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish maqsadida ishlatilishi ko'zda tutilgan hollarda ko'rsatiladi.

Qimorxonalar va billiardxonalarni tashkil etishda lizing obyektini qo'llash ko'zda tutilgan hollarda lizing xizmatlarini ko'rsatishga yo'l qo'yilmaydi.

Lizing bo'yicha moliyaviy ijaraga olingan mol-mulkning tasodifan nobud bo'lishi, yo'qolishi, o'g'irlanishi, shikastlanishi, buzilishi va barvaqt eskirishi xavfi bilan bog'liq bo'lgan tarzdagi har qanday yetkazilishi mumkin bo'lgan zarardan lizing obyektini sug'urtalash taraflarning kelishuviga binoan bajariladi. Bunday kelishuv bo'lmagan taqdirda, lizing oluvchi lizing objekti sug'urtasi uchun javobgar bo'ladi.

Lizing beruvchi va lizing oluvchi o'zaro kelishgan holda qonun hujjatlariga muvofiq lizing obyektini jadal amortizatsiya qilishni qo'llash huquqiga ega.

Tomonlarning kelishuviga ko'ra lizing shartnomasi uch tomonlama (sotuvchi-lizing beruvchi-lizing oluvchi) yoki ikki tomonlama (lizing beruvchi-lizing oluvchi) tuzilishi mumkin.

Lizing shartnomasi imzolangandan so'ng, lizing beruvchining hisobvarag'idan lizing obyektini sotib olish uchun pul mablag'lari chiqib ketgunga qadar, lizing oluvchi tomonidan lizing shartnomasini ayrim shartlarini o'zgartirish istagi bo'lsa, vakolat doirasida Kredit komissiyasi yoki Kredit qo'mitasi ushbu o'zgarishlarni ko'rib chiqishi mumkin. Barcha qilinadigan o'zgartirishlar lizing shartnomasiga qo'shimcha yozma ravishda kelishuv orqali rasmiylashtiriladi.

Agar lizing shartnomasi imzolanganidan so'ng, ayrim jiddiy sabablarga ko'ra lizing oluvchi yoki lizing obyektini o'zgartirilsa, vakolat doirasiga qarab Kredit qo'mitasi yoki Kredit komissiyalari tomonidan ushbu o'zgarishlar ko'rib chiqilishi mumkin.

Lizing shartnomasi munosabati bilan sarflangan mablag'larning qaytarilishi kafolati sifatida lizing beruvchi lizing oluvchidan O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan ta'minotini (depozit ko'rinishda garov, ko'chmas mulk garovi, bank yoki sug'urta kompaniyalarining kafolati, sug'urta kompaniyalarining sug'urta polisi, moliyaviy barqaror uchinchi shaxs kafilligi va qonunchilikda belgilangan boshqa taminotlar) taqdim etishni talab qilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasida amalga oshirilishi ko'zda tutilgan barcha lizing operatsiyalari bo'yicha hisob-kitoblar milliy valyutada amalga oshiriladi. Bankning o'z mablag'lari hisobidan xorijiy valyutada lizing ajratishi faqat bank Boshqaruvi (Kredit qo'mitasi qarori asosida) ruxsati bilan amalga oshiriladi, bunda qilinadigan barcha lizing operatsiyalari bo'yicha hisob-kitoblar xorijiy valyutada amalga oshiriladi.

Milliy va xorijiy valyutada lizing xizmatlari ko'rsatilishida foiz stavkalari amaldagi bank foiz siyosatiga asosan lizing oluvchi va lizing beruvchi bank o'rtasidagi o'zaro kelishuvi bilan o'rnatiladi.

Lizing to'lovlari o'z ichiga lizing obyektini uchun to'langan summa, lizing foiz summasi va dastlabki bevosita xarajatlardan (lizing oluvchi tomonidan lizing obyektini foydalanishga topshirish dalolatnomasi imzolangan qadar qaytarilmagan taqdirda qo'shiladi) tashkil topadi.

Lizing to'lovlari qaytarish jadvalini tuzishda kamayib borish uslubidan foydalaniladi. Lizing to'lovlari lizing oluvchi tomonidan to'lov jadvali asosida to'lanadi. To'lov jadvali taraflar kelishuvi bilan tuzilib, lizing shartnomasining ajralmas qismi hisobladi.

Lizing to'lovlari qaytarish jadvali tuzilayotgan paytda, lizing oluvchi o'z xohishiga ko'ra dastlabki bevosita

xarajatlarni oldindan to'lab berishi mumkin. Lizing to'lovlarini qaytarish jadvali oyma-oyga teng miqdorda taqsimlangan, avans to'lovlarini aks ettirgan bo'lishi va quyidagilar alohida aks ettirilishi shart:

1. Lizing to'lovi muddatlari aniq ko'rsatilishi;
2. Asosiy qarz teng miqdorda taqsimlanishi;
3. Lizing bo'yicha foizlar hisob kitobi.

Agar loyiha bo'yicha imtiyozli davr nazarda tutilsa, avans to'lovlari lizing to'lovlarini qaytarish jadvalida imtiyozli davrdan oldin o'rnatiladi. Lizing to'lovlarini qaytarish jadvali 12 oydan ortiq muddatga tuzilishi shart.

Avans to'lovlari summasi, davr komissiyasi va komission to'lov summasi lizing oluvchi tomonidan ochiladigan alohida depozit hisobvarag'ida jamlanadi. Lizing bo'yicha foizli daromadlarni bank balansida hisoblab borish lizing dastlabki tan olingan kundan boshlab (lizing obyektini lizingga berish vaqtida) amalga oshiriladi.

Ya'ni lizing summasi 19909 – “Tovar-moddiy qimmatliklar uchun to'langan mablag'lar” hisobvarag'idan lizing 15600 – “Lizing (moliyaviy ijara)” hisobvarag'iga o'tkazilgan vaqtdan boshlab bank tomonidan 19909 – “Tovar-moddiy qimmatliklar uchun to'langan mablag'lar” hisobvarag'idan lizing obyektini uchun sotuvchining hisobvarag'iga mablag'lar o'tkazilgan kundan lizingni dastlabki tan olingungacha bo'lgan davrga lizing shartnomasida kelishilgan foizlarda davr komissiyasi hisoblanadi va lizing oluvchidan undiriladi.

Lizing obyektini bilan bog'liq dastlabki bevosita xarajatlarga davr komissiyasi hisoblash ham ushbu to'lovlar o'tkazilgan kundan va summasidan hisoblanadi va lizing oluvchidan undiriladi.

Tijorat bankida lizing obyektini lizing oluvchi tomonidan tanlangan bo'lib, sotuvchi tomonidan oldi-sotdi shartnomasidan kelib chiquvchi majburiyatlar bajarilmasdan, pul mablag'lari lizing beruvchiga qaytarilganda ushbu davr uchun lizing shartnomasida kelishilgan foiz miqdorida davr komissiyasi hisoblanadi va lizing oluvchidan undiriladi. Ushbu shart lizing shartnomasida ko'rsatib o'tilishi lozim.

Banklarda davr komissiyasi avtomatlashtirilgan bank dasturlarida “Rasmiylashtirish davrida lizingning hisobi” tizimida avtomatik tarzda amalga oshiriladi. Ushbu tizimga ma’lumotlar to’g’ri va haqqoniy kiritilishiga filial kredit bo’limi boshlig’i va mas’ul xodim javobgardirlar. Bunda har bir lizing oluvchi uchun alohida 19909....222 hisobvaraqa ochiladi va hisobi alohida yuritiladi.

Lizing obyektini foydalanishga qabul qilish dalolatnomasi imzolanganiga qadar, bank tomonidan sotuvchiga va boshqa lizing objekti uchun xarajatlarga o’tkazilayotgan mablag’lar lizing oluvchi xabardorligida amalga oshiriladi. Banklar mablag’lar bo’yicha lizing oluvchi bilan o’zaro hisob-kitoblar dalolatnomasini olib borishlari lozim. Ushbu talab lizing shartnomasida alohida ko’rsatilishi shart.

Davr komissiyasini to’g’ri hisoblash, o’zaro hisob kitoblar dalolatnomasini o’z vaqtida amalga oshirish ushbu loyihaga mas’ul kredit xodimi tomonidan amalga oshiriladi. Lizing bo’yicha foizlar hisob kitobida imtiyozli davr o’rnatish taqiqlanadi. Lizing objekti avval lizing beruvchi bank balansiga kiritilib, so’ngra lizing oluvchiga lizingga berilsa, lizing bo’yicha foiz hisoblash, lizing obyektini foydalanishga qabul qilish dalolatnomasini imzolanganidan so’ng foiz hisoblanadi. Lizing obyektini avval lizing beruvchi bank balansiga kiritish faqat bank Bosh ofisi ruxsati bilan amalga oshiriladi.

Lizing hujjatlarini yig’ish, tayyorlash va rasmiylashtirish bilan bog’liq bankning komission to’lovi lizing objekti qiymatining 0,5 foizi miqdorida undiriladi.

Kommission to’lov lizing obyektini foydalanishga qabul qilish dalolatnomasi imzolanganiga qadar lizing oluvchining hisobvarag’idan yoki alohida depozit hisobvaraqida jamg’arilgan mablag’lardan undiriladi.

Lizing bo’yicha avans to’lovlar, kommission to’lov va davr komissiyasi uchun yetarli mablag’lar alohida depozit hisobvarag’iga lizing oluvchi tomonidan birdaniga o’tkazilishi yoki lizing objekti keltirilishi davriga mos ravishda oyma-oy o’tkazilishi mumkin. Lizing obyektini foydalanishga qabul qilish dalolatnomasi va tuzilgan lizing



to'lovlarini qaytarish jadvali imzolangach, alohida depozit hisobvaraqa da saqlanayotgan mablag'lar avans to'lovlar va davr komissiyasiga yo'naltirilishi lozim.

Komission to'lovlar va davr komissiyasida asosiy qarzga qo'shib, lizing to'lovlarini qaytarish jadvalini tuzish taqiqlanadi.

Lizing uchun mas'ul kredit xodimi tegishli lizing hisobvaraqlarini ochish va imzolangan lizing to'lovlarini qaytarish jadvaliga asosan to'lovlarni amalga oshirish uchun buxgalteriya bo'limiga farmoyish tayyorlaydi. Lizing operatsiyasiga tegishli lizing hisobvaraqlari faqat lizing obyektini foydalanishga qabul qilish dalolatnomasi va tuzilgan lizing to'lovlarini qaytarish jadvali imzolangach ochilishi shart.

Lizing oluvchi tomonidan lizing to'lovlari o'z vaqtida amalga oshirilmagan taqdirda aktivga "Foizlarni o'stirmaslik to'g'risida"gi Nizomga (2003-yil 11-oktyabrda 25/7-son bilan O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvi tomonidan tasdiqlangan, 2004-yil 24-yanvarda 1304-son bilan O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida ro'yxatga olingan) asosan foiz o'stirmaslik maqomi beriladi va aktivning kelgusi hisobi mazkur Nizomga muvofiq amalga oshiriladi.

Lizing "Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibi to'g'risida" (2015-yil 14-iyul 2696-son) talablaridan kelib chiqqan holda tasniflanadi.

Tijorat banklarida lizingni hisobga olish uchun "O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida buxgalteriya hisobi hisobvaraqlari rejasida"da keltirilgan hisobvaraqlardan foydalaniladi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan bank operatsiyalarini hisobga olish bo'yicha chiqarilgan me'yoriy hujjatlar asosida olib boriladi.

Tijorat banklari yuqoridagi talablardan kelib chiqqan holda o'z ishchi hisobvaraqlar rejasini ishlab chiqadi va shu asosida o'zlarida amalga oshirilayotgan operatsiyalar bo'yicha aktiv moddasiga shaxsiy hisobvaraqlar ochadi,

zarur bo'lganda qo'shimcha jurnal hisobi va reestrlar yuritilishi mumkin.

Hisobvaraqlar rejasidagi 10000 – “Aktivlar” bo'limidagi hisobvaraqlar bank ichki hisobvaraqlari hisoblanadi. Shuning uchun, tijorat banklari Markaziy bank talablari va ichki hisob siyosatidan kelib chiqqan holda ushbu hisobvaraqlarda analitik hisobni qanday yuritishni o'zlari belgilaydilar. Bank aktivlarining analitik hisobi bank faoliyatini boshqarish va soliqqa tortish tartibini hisobga olgan holda tashkil etiladi.

Tijorat banklarida lizingga berilgan aktivlar hisobi 15600-“Lizing (moliyaviy ijara)” hisob varag'ida yuritiladi.

Hisobvaraq lizing oluvchi turiga ko'ra quyidagicha bo'ladi:

15601 - Boshqa banklarga berilgan lizing.

15605 - Yakka tartibdagi tadbirkorlarga berilgan lizing.

15607- Davlat korxonalar, tashkilot va muassasalariga berilgan lizing.

15609- Chet el kapitali ishtirokidagi korxonalariga berilgan lizing.

15611 - Nodavlat notijorat tashkilotlariga berilgan lizing.

15613- Xususiy korxonalar, xo'jalik shirkatlari va jamiyatlarga berilgan lizing.

15615 - Bank bo'lmagan moliyaviy muassasalarga berilgan lizing.

15617 - Muddati o'tgan lizing.

15619 - Shartlari qayta ko'rib chiqilgan lizing.

15699 - Lizing bo'yicha ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash zaxirasi (kontr-aktiv).

15601-15615 hisobvaraqlarda bank tomonidan berilgan lizing hisobi olib boriladi. Hisobvaraqlarning debetida lizing bo'yicha sof investitsiya summasi aks ettiriladi. Hisobvaraqlarning kreditida asosiy qarz so'ndirilganda kelib tushgan pul mablag'lari, shuningdek, 15617- “Muddati o'tgan lizing” va 15619 – “Shartlari qayta ko'rib chiqilgan lizing” hisobvaraqlariga hamda Markaziy bank me'yoriy hujjatlarida ko'zda tutilgan boshqa hisobvaraqlarga o'tkazilgan summa aks ettiriladi. Tahliliy

hisob har bir lizing shartnomasi bo'yicha alohida shaxsiy hisobvaraqlarda olib boriladi.

15617 - Muddati o'tgan lizing hisobvarag'ida lizing bo'yicha muddati o'tgan qarz hisobi olib boriladi. Hisobvaraqlarning debetida qayta tasniflangan va 15601- "Boshqa banklarga berilgan lizing", 15605- "Yakka tartibdagi tadbirkorlarga berilgan lizing", 15607- "Davlat korxonasi, tashkilot va muassasalariga berilgan lizing", 15609- "Chet el kapitali ishtirokidagi korxonalariga berilgan lizing", 15611- "Nodavlat notijorat tashkilotlarga berilgan lizing", 15613- "Xususiy korxonalar, xo'jalik shirkatlari va jamiyatlarga berilgan lizing" va 15615- "Bank bo'lmagan moliyaviy muassasalarga berilgan lizing" hisobvaraqlaridan ushbu hisobvaraqlarga o'tkazilgan lizing bo'yicha asosiy qarz summasi bo'yicha vujudga kelgan muddati o'tgan qarz summasi aks ettiriladi. Hisobvaraqlarning kreditida lizing oluvchi yoki uchinchi shaxs tomonidan to'langan qarz summasi, qayta tasniflangan va boshqa toifaga o'tkazilgan va yoki 15699- "Lizing bo'yicha ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash zaxirasi" (kontr-aktiv) hisobvaraqlari debetlash orqali hisobdan chiqarilgan summa aks ettiriladi. Tahliliy hisob har bir lizing shartnomasi bo'yicha alohida shaxsiy hisobvaraqlarda olib boriladi.

15619 - "Shartlari qayta ko'rib chiqilgan lizing" hisobvarag'ida lizing shartnomasi va unga qo'shimcha kelishuvga muvofiq asosiy shartlari o'zgartirilgan lizing hisobi olib boriladi. Hisobvaraqlarning debetida qayta tasniflangan va 15601- "Boshqa banklarga berilgan lizing", 15605- "Yakka tartibdagi tadbirkorlarga berilgan lizing", 15607- "Davlat korxonasi, tashkilot va muassasalariga berilgan lizing", 15609- "Chet el kapitali ishtirokidagi korxonalariga berilgan lizing", 15611- "Nodavlat notijorat tashkilotlarga berilgan lizing", 15613- "Xususiy korxonalar, xo'jalik shirkatlari va jamiyatlarga berilgan lizing" va 15615- "Bank bo'lmagan moliyaviy muassasalarga berilgan lizing" hisobvaraqlaridan ushbu hisobvaraqlarga o'tkazilgan shartlari qayta ko'rib chiqilgan lizing summasi aks ettiriladi. Hisobvaraqlarning kreditida lizing bo'yicha to'langan qarz summasi, qayta tasniflangan va/yoki 15699- "Lizing

bo'yicha ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash zaxirasi" (kontr-aktiv) hisobvarag'ini debetlash orqali hisobdan chiqarilgan summa aks ettiriladi. Tahliliy hisob har bir lizing shartnomasi bo'yicha alohida shaxsiy hisobvaraqlarda olib boriladi.

15699 – "Lizing bo'yicha ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash zaxirasi (kontr-aktiv)" hisobvaraqda bank tomonidan undirib olinmaslik ehtimoli mavjud bo'lgan lizing bo'yicha ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash zaxirasi hisobi olib boriladi. Hisobvaraqning kreditida tashkil etilgan zaxira summasi va/yoki zaxiraning o'sish summasi aks ettiriladi. Hisobvaraqning debetida zaxiraning kamayish summasi va/yoki bekor qilingan summasi aks ettiriladi. Tahliliy hisob har bir lizing shartnomasi bo'yicha alohida shaxsiy hisobvaraqlarda olib boriladi.

Tijorat banklarida lizing operatsiyalari buxgalteriya hisobining maqsadi hisob tizimi va foydalanuvchilar uchun bankning lizing operatsiyalari to'g'risidagi ma'lumotlarni tan olish, o'lchash, ularni jamlash va ularni aniq yetkazib berishdir.

Buxgalteriya hisobi vazifalarini tizimlashgan holda banklarda lizing operatsiyalari hisobi vazifalari ham alohida guruhlandi:

- bankning lizing operatsiyalari asosiy ko'rsatkichlari bo'yicha rejaning bajarilishini nazorat qilish;

- bankning lizing operatsiyalarini amalga oshirishni o'z vaqtida va to'g'ri belgilash;

- bank bergan lizingni tan olish va ularni hisobda aks ettirish to'g'riligini ta'minlash;

- bankning lizing operatsiyalari hisobini to'g'ri yuritish va moliyaviy hisobotlar tayyorlash uchun ma'lumot bilan ta'minlash;

- zamonaviy takomillashgan hisob tizimini tatbiq qilish, bank lizing operatsiyalari ko'rsatkichlari uslubiyoti va moliyaviy hisobot shakllarini takomillashtirish;

- bank faoliyati samaradorligini oshirish, boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun o'tkazilgan tahlil va tezkor

nazoratga zarur ishonchli va aniq ma'lumotlarni shakllantirish;

-bank aktivlari butligini va ulardan samarali foydalanishni hisobga olinishini to'liq ta'minlab berish.

### **6.7. Lizing beruvchi bankda lizing operatsiyalari hisobi**

Tijorat banklarida lizing operatsiyalari o'zining hisob siyosati va lizing hamda buxgalteriya hisobiga oid me'yoriy hujjatlari asosida hisobga olinadi.

Dastlabki tan olish lizing shartnomasining amal qilish muddati boshlanishida amalga oshiriladi. Bunda, lizing beruvchi bank lizingga berilgan lizing obyektini o'z balansida sof investitsiyasi qiymati, ya'ni lizing obyektini sotib olish, uni lizing oluvchiga yetkazib berish va foydalanishga shay holga keltirish bilan bog'liq xarajatlar yig'indisi yoki uning haqqoniy qiymatida, ularning qaysi biri kichik bo'lsa, o'sha summada aktiv sifatida tan oladi.

Lizing beruvchi bank lizing obyektini uchun to'lovlarni sotuvchiga oldindan to'lab berib lizing obyektini to'g'ridan-to'g'ri lizing oluvchiga yetkazib berilsa, lizing beruvchi bank foydalanishga qabul qilish dalolatnomasiga asosan memorial order to'ldirib, quyidagi buxgalteriya amallarini bajaradi. Lizing oluvchi tomonidan lizing obyektini olishda avans to'lovi, davr komissiyasi, komission to'lovlar va boshqa xarajatlar uchun alohida hisobraqam ochiladi:

Dt- Lizing oluvchining talab qilib olguncha depozit hisobraqami yoki 10101.. "kassadagi naqd pullar";

Kt-29801- lizing oluvchining unikal kodi bilan ochilgan hisobraqami;

Lizing beruvchi bank lizing obyektini uchun to'lovlarni sotuvchiga to'lab berib, lizing obyektini to'g'ridan-to'g'ri lizing oluvchiga yetkazib berilsa, lizing beruvchi bank foydalanishga qabul qilish dalolatnomasiga asosan memorial order to'ldirib, quyidagi buxgalteriya amallarini bajaradi:

Dt- 19909...222 -Tovar-moddiy qimmatliklari uchun to'langan mablag'lar;

Kt- lizing obykti sotuvchining hisobraqami yoki bankning vakillik hisobraqami;

Dt- 15600 Lizing(moliyaviy ijara) (tegishli mos hisobraqam);

Kt- 19909...222 Tovar moddiy qimmatliklar uchun to'langan mablag'lar.

Lizing obykti avval lizing beruvchi bank balansiga kirim qilinib, so'ngra lizing oluvchiga lizingga berilsa, quyidagi buxgalteriya o'tkazmalari beriladi:

Dt- 16561 Ombordagi asosiy vositalar;

Kt- 19909...222 Tovar-moddiy qimmatliklari uchun to'langan mablag'lar;

Dt- 15600 Lizing(moliyaviy ijara) (tegishli mos hisobraqam);

Kt- 16561 Ombordagi asosiy vositalar.

Lizing beruvchi - bank tomonidan amalga oshirilgan va lizing shartnomasiga muvofiq lizing oluvchi tomonidan qoplanadigan dastlabki bevosita xarajatlar lizing obyektining qiymatiga qo'shiladi:

Dt- 19909...222 -Tovar-moddiy qimmatliklari uchun to'langan mablag'lar;

Kt- lizing oluvchining(mijoz) hisobraqami yoki bankning vakillik hisobraqami.

Bankning lizing portfeli tarmoq xususiyatiga e'tibor bersak, qishloq xo'jaligiga berilgan lizing kreditlari 2018-yilda 7,43 mlrd so'mni tashkil etib, 2014-yilga nisbatan 0,17 mlrd so'm ortiq berilgan. Qolgan sohalarga berilgan kreditlar 2013-yilga nisbatan kamaygan.

Lizing obykti lizing oluvchi tomonidan lizing shartnomasi shartlari buzilganligi sababli qaytarib olinganida, lizing beruvchi ushbu aktivning taqdirini hal etgunga qadar uni o'z balansiga quyidagi buxgalteriya o'tkazmalari orqali qabul qiladi:

**Tijorat bankining iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha lizing portfeli dinamikasi**

№	Ko'rsatkichlar	2014		2015		2016		2017		2018		2018 yilda 2014 yilga nisbatan o'zgarishi	
		mlrd so'm	% da	mlrd so'm	% da	mlrd so'm	% da	mlrd so'm	% da	mlrd so'm	% da	mlrd so'm	% da
1	Sanoat	3,52	13,4	3,08	12,3	2,89	14,9	3,73	14,2	2,96	13,9	-0,56	-15,99
2	Qurilish	4,10	15,6	4,48	17,9	3,78	19,5	5,68	21,6	0,40	1,9	-3,70	-90,14
3	Qishloq xo'jaligi	7,26	27,6	7,18	28,7	5,78	29,8	8,57	32,6	7,43	34,9	0,17	2,41
4	Transport va aloqa	4,08	15,5	3,53	14,1	2,66	13,7	3,76	14,3	2,41	11,3	-1,67	-40,96
5	Moddiy- texnik ta'minot va maishiy xizmatlar	2,21	8,4	2,10	8,4	1,80	9,3	1,95	7,4	1,32	6,2	-0,89	-40,22
6	Boshqa tarmoqlar	5,13	19,5	4,65	18,6	2,48	12,8	2,60	9,9	6,77	31,8	1,64	32,07
7	Jami	26,3	100	25,0	100	19,4	100	26,3	100	21,3	100	-5,00	-19,01

Dt- 16705 Bankning boshqa ko'chmas mulklari;  
Kt- 15600 Lizing(moliyaviy ijara) (mos hisobraqam).

Foizlarni hisoblash va hisoblangan foizlarni undirish quyidagi tarzda amalga oshiriladi:

Dt- 16323... (lizing bo'yicha hisoblangan foizlar);

Kt- 45100... (lizing bo'yicha foizli daromadlar).

Dt- Lizing oluvchining talab qilib olguncha depozit hisobraqami;

Kt- 16323 (lizing bo'yicha hisoblangan foizlar).

Lizing beruvchi-bankning daromadlari lizing to'lovlar grafigi asosida hisobot davriga hisoblanadi (lizing oluvchining lizing to'lovlarini to'lashidan qat'iy nazar).

Lizing bo'yicha asosiy qarzni undirish quyidagi tarzda amalga oshiriladi:

Dt- Lizing oluvchining talab qilib olguncha depozit hisobraqami;

Kt- 15600 Lizing(moliyaviy ijara) (tegishli mos hisobraqam).

Lizing amaliyotini tashkillashtirilgani uchun lizing oluvchi bir martalik komission to'lovini to'laydi:

Dt- 16401... "Ko'rsatilgan xizmatlar va vositachilik uchun komission to'lovlar";

Kt- 45233...222 "Lizing bo'yicha komission daromad".

Dt- Lizing oluvchining hisobraqami;

Kt- 16401... "Ko'rsatilgan xizmatlar va vositachilik uchun komission to'lovlar".

Lizing shartnomasiga asosan lizing beruvchi - bank 19909... hisobraqamidan amalga oshirilgan to'lovlardan lizing obyektini qabul qilib olgunga qadar davr komissiyasi hisoblanadi:

Dt- 16413... "Boshqa hisoblangan foizsiz daromad yoki lizing bo'yicha davr komissiyasi"

Kt- 45233...103 "Komission daromad-lizing bo'yicha davr komissiyasi".

Qabul qilish dalolatnomasi orqali lizing obyektini lizing oluvchiga berilganda quyidagi buxgalteriya amaliyotlari amalga oshiriladi:

- lizing obyektining tan olinishi.



Dt- 15600 Lizing (moliyaviy ijara) (tegishli mos hisobraqam);

Kt- 19909...222 "Tovar moddiy qimmatliklar uchun to'langan mablag'lar- lizing".

- Lizing oluvchining lizing bo'yicha avans to'lovi lizing summasini so'ndirilishiga yo'naltiriladi.

Dt- 29801... Lizing oluvchining unikal kodi bilan ochilgan hisobraqami;

Kt- 15600 Lizing (moliyaviy ijara) (tegishli mos hisobraqam).

- Hisoblangan komission to'lovlarni undirish.

Dt- 29801... Lizing oluvchining unikal kodi bilan ochilgan hisobraqam;

Kt-16413... "Boshqa hisoblangan foizsiz daromad yoki lizing bo'yicha davr komissiyasi".

Lizing oluvchi o'z xohishiga ko'ra lizing obyektini rasmiylashtirish bilan bog'liq dastlabki bevosita xarajatlarni oldindan to'lab berganda quyidagi tarzda amalga oshiriladi:

Dt- lizing oluvchining talab qilib olguncha depozit hisobraqami yoki 29801... lizing oluvchining unikal kodi bilan ochilgan hisobraqami;

Kt- 19909...222 (tovar moddiy qimmatliklar uchun o'tkazilgan to'lovlar).

Lizing bo'yicha muddatli majburiyatnomalarni balansdan tashqari hisobraqamda yuritish:

Dt- 91905 Qarzdorlarning uzoq muddatli kreditlar va lizinglar bo'yicha majburiyatlari hisobraqami;

Kt- 96349 Qarzdorlarning uzoq muddatli kreditlar va lizinglar bo'yicha majburiyatlari kontr hisobraqami.

Garov ta'minotining (mulklarning) balansdan tashqari hisobraqamida yuritish:

Dt- 94502 Garov sifatida olingan mulklar va mulkiy huquqlar(talablar);

Kr- 96381 Garov sifatidagi qimmatli qog'ozlar, mulklar va mulkiy huquqlar (talablar) bo'yicha kontr-hisobraqami.

Kafolat va kafilliklarning balansdan tashqari hisobraqamida yuritish:

Dt- 94503 - garov sifatida olingan kafolat va kafilliklar;

Kt- 96381 - Garov sifatidagi qimmatli qog'ozlar, mulklar va mulkiy huquqlar(talablar) bo'yicha kontr-hisobraqami.

Lizingga olingan ko'chmas mulklarning kadastr hujjatlari bank nomiga rasmiylashtirilib, 93609 hisobraqamda "donasi 1 so'm" bo'lgan shartli bahoda hisobga olinadi va quyidagi buxgalteriya amaliyotlari amalga oshiriladi:

Dt- 93609 Saqlanayotgan qimmatli qog'ozlar va boshqa qimmatbaho buyumlar bo'yicha hisobraqam;

Kt- 96379 Saqlanayotgan qimmatli qog'ozlar va boshqa qimmatbaho buyumlar bo'yicha kontr-hisobraqam.

Xulosa qilib aytganda, lizing beruvchi bankda lizing obyektini ikki xil tartib bo'yicha hisobga olinadi: lizing beruvchi bank lizing obyektini uchun to'lovlarni sotuvchiga oldindan to'lab, lizing obyektini to'g'ridan-to'g'ri lizing oluvchiga yetkazib beriladi yoki o'z balansiga qabul qilgandan so'ng, lizing oluvchiga yetkazib beriladi; lizing beruvchi bank lizing obyektini uchun to'lovlarni sotuvchiga berib, sotuvchi lizing obyektini olib, uni obyektini to'g'ridan-to'g'ri lizing oluvchiga yetkazib beradi yoki o'z balansiga qabul qilgandan so'ng, lizing oluvchiga yetkazib beradi keyin to'lovni amalga oshiradi.

### **6.8. Lizing oluvchi bankda lizing operatsiyalari hisobi**

Banklar lizing shartnomasi bo'yicha lizing oluvchi sifatida ishtirok etgan taqdirda lizingga olingan aktivlar hisobi 16515 - Obyektlarni ijaraga olish va uni takomillashtirish huquqining, lizing bo'yicha yuzaga kelgan majburiyatlar esa 22100 - Lizing (moliyaviy ijara) bo'yicha majburiyatlarning tegishli mos hisobvaraqlarida yuritiladi.

Lizing lizing oluvchi bankning moliyaviy hisobotlarida ham aktiv ham majburiyat sifatida tan olinadi. Ushbu dastlabki tan olish lizing shartnomasi muddati boshlanishida amalga oshiriladi. Bunda, lizing oluvchi bank lizing obyektini o'z balansida sof investitsiya qiymati yoki uning haqqoniy qiymatining qaysi biri kichik bo'lsa, o'sha summada aks ettiradi.

Lizingni dastlabki tan olishda quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi bajariladi:

Dt - 16515 Obyektlarni lizingga olish va uni takomillashtirish huquqi;

Kt - 22100 Lizing (moliyaviy ijara) bo'yicha majburiyatlarning tegishli mos hisobvarag'i.

Lizing oluvchi bank tomonidan amalga oshirilgan lizing obyektini sotib olish, yetkazib berish yoki belgilangan maqsadda foydalanish uchun yaroqli holga keltirish bilan bog'liq xarajatlar lizing obyektining qiymatiga qo'shiladi.

Lizingga olingan obyektlar asosiy vositalar tarkibida hisobga olinadi.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki bankda 2018-yilda 121,1 mlrd so'mlik asosiy vositalar bo'lib, ular 2014-yilga nisbatan 80,6 mlrd so'mga ko'paygan. Bank asosiy vositalari tarkibida bankning imoratlari 2018-yilda 51,6 foizni, 2014-yilda 54,2 foizni tashkil qilgan. Tugallanmagan qurilish 2018-yilda 4,8 mlrd so'mga teng bo'lib, bu ham bankning imoratlari tarkibiga o'tkaziladi. Obyektlarni ijaraga olish va uni takomillashtirish huquqi bo'yicha olingan asosiy vositalar 2018-yilda 1,3 mlrd so'mni tashkil qilgan. Bankning transport vositalari summasi 2018-yilda 1 mlrd so'mni tashkil qilgan. Mebel, moslama va jihozlar ham asosiy vositalar tarkibida yuqori salmoqqa ega. Ular 2018-yilda jami asosiy vositalar tarkibida 17,6 foizni tashkil qilgan. To'lov kartochkalari bilan hisob-kitoblarni amalga oshirish uskunalari ham 1 mlrd so'm atrofida. Ombordagi asosiy vositalar 2018-yilda 7,5 mlrd so'mni tashkil qilgan. Ombordagi asosiy vositalarning salmog'i kamaytirilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Lizing obyektini lizing oluvchi bank balansida aktiv va majburiyatlarning alohida moddalari sifatida aks ettirilishi lozim. Lizing bo'yicha majburiyatni aktiv summasidan chegirib tashlagan holda (kontr-aktiv hisobvaraqa sifatida) ko'rsatishga ruxsat etilmaydi.

**Tijorat bankining asosiy vositalari tarkibi**

H/v	Asosiy vositalar	2014		2015		2016		2017		2018		2018 yilda 2014 yilga nisbatan o'zgarishi	
		mlrd so'm	% da	mlrd so'm	% da	mlrd so'm	% da	mlrd so'm	% da	mlrd so'm	% da	mlrd so'm	% da
16505	Tugallanmagan qurilishlar	1,5	3,6	2,3	3,7	3,9	3,9	4,7	4,2	4,8	4,0	3,4	0,4
16509	Bankning imoratlarini Binolar va boshqa imoratlar	22,0	54,2	33,0	53,1	51,4	51,4	58,3	52,3	62,5	51,6	40,5	-2,6
16515	Obyektlarni ijaraga olish va uni takomillashtirish huquqi	0,5	1,2	0,8	1,3	1,1	1,1	1,4	1,3	1,2	1,0	0,7	-0,2
16529	Transport vositalari	0,5	1,2	0,7	1,2	1,3	1,3	1,6	1,4	1,5	1,2	1,0	0,0
16535	Mebel, moslama va jihozlar	7,1	17,6	11,1	17,8	17,9	17,9	20,2	18,1	21,3	17,6	14,2	0,0
16541	To'lov kartochkalari bilan hisob-kitoblarni amalga oshirish uskunalari	0,5	1,3	0,7	1,2	1,4	1,4	1,7	1,5	1,6	1,3	1,0	0,0
16549	Boshqalarga operatsion ijaraga berilgan asosiy vositalar	7,2	17,9	11,3	18,2	17,5	17,5	17,4	15,6	20,7	17,1	13,5	-0,8
16561	Ombordagi asosiy vositalar	1,2	3	2,2	3,5	5,5	5,5	6,2	5,6	7,5	6,2	6,3	3,2
16500	Asosiy vositalar (sof balans qiymati bo'yicha)	40,5	100	62,1	100	100	100	111,5	100	121,1	100,0	80,6	0,0

Lizing oluvchi bank tomonidan lizing dastlabki tan olingandan so'ng keyingi hisob majburiyat bo'yicha asosiy qarz summasini (dastlabki tan olingan summani) va lizing bo'yicha foizlar to'lash hisobini yuritishdan iborat. Keyingi hisob, lizing bilan bog'liq barcha xavf-xatarlar lizing oluvchiga o'tganligi sababli lizing oluvchi bank tomonidan lizing obyektini baholab borish, amortizatsiya ajratmalarini va shartnomada ko'zda tutilgan boshqa xarajatlarni amalga oshirish ishlarini ham o'z ichiga oladi.

Dastlabki tan olishda yoki obyektini lizingga olish vaqtida lizing oluvchi bankning lizing foizi bo'yicha xarajatlari buxgalteriya hisobida aks ettirilmaydi.

Lizing shartnomasida lizing oluvchi bank va lizing beruvchi lizing to'lovlari jadvalini kelishib oladi, unda lizing oluvchi bankning foizli xarajatlari, lizing obyektining qiymatini qoplash bo'yicha majburiyatlar va ularning lizing muddati davomida taqsimlanishi ko'rsatiladi.

Lizing to'lovlari jadvalida lizing oluvchi bankning foizli xarajatlari lizing shartnomasining amal qilish muddati davomida davrlar bo'yicha teng taqsimlanishi aks ettirilishi lozim. Bunda, lizing shartnomasining har bir davrida qoplanmagan majburiyatlar qoldig'iga doimiy foiz stavkasi qo'llaniladi.

Lizing oluvchi bank tomonidan lizing to'lovlari jadvaliga muvofiq lizing bo'yicha foizli xarajatlar hisoblanganda quyidagi buxgalteriya o'tkazmalari beriladi:

Dt - 54198 Boshqa banklardan olingan lizing bo'yicha foizli xarajatlar  
yoki

Dt - 54199 Boshqa lizing beruvchilardan olingan lizing bo'yicha foizli xarajatlar;

Kt - 22408 Lizing (moliyaviy ijara) bo'yicha hisoblangan foizlar.

Lizing oluvchi bank tomonidan lizing to'lovlari quyidagi buxgalteriya o'tkazmalari orqali amalga oshiriladi:

Dt - 22408 Lizing (moliyaviy ijara) bo'yicha hisoblangan foizlar,

Dt - 22100 Lizing (moliyaviy ijara) bo'yicha majburiyatlar;

Kt - Bankning vakillik yoki lizing beruvchining depozit hisobvarag'i.

Lizing oluvchi bank tomonidan lizing obyektini bo'yicha amortizatsiya ajratmalari "O'zbekiston Respublikasi banklarida asosiy vositalarning buxgalteriya hisobi to'g'risida Yo'riqnoma" (2004-yil 17-dekabr, ro'yxat raqami 1434) talablari asosida amalga oshiriladi va quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi babariladi:

Dt- 56626 Obyektlarni ijaraga olish va uni takomillashtirish huquqi bo'yicha eskirish summasi;

Kt- 16519 Obyektlarni ijaraga olish va uni takomillashtirish huquqi bo'yicha yig'ilgan eskirish summasi (kontr-aktiv).

Aniq bir davrdagi lizing oluvchi bankning lizing obyektini bo'yicha amortizatsiya ajratmasi va moliyaviy xarajatlari (lizing bo'yicha foizlari) summasi mazkur davrda to'lanishi kerak bo'lgan lizing to'lovlari summasiga teng bo'lmasligi mumkin.

Lizing obyektini yillik qayta baholash lizing oluvchi bank tomonidan qonunchilikda o'rnatilgan tartibda amalga oshiriladi.

Lizing oluvchi bank tomonidan oxirgi to'lovlar amalga oshirilganidan keyin 16515, 16519, 22100 va 22408 - balans hisobvaraqlarida mazkur lizing operatsiyalari bo'yicha ochilgan shaxsiy hisobvaraqlar (analitik hisob) qoldig'i nolga teng bo'ladi va mulkka egalik huquqi lizing oluvchiga o'tadi.

Lizing obyektini lizing oluvchi bankka o'tkazish quyidagi buxgalteriya o'tkazmalari orqali amalga oshiriladi:

Dt - 16500 Asosiy vositalar (tegishli mos hisobvaraqlar),

Dt - 16519 Obyektlarni ijaraga olish va uni takomillashtirish huquqi bo'yicha yig'ilgan eskirish summasi (kontr-aktiv);

Kt - 16515 Obyektlarni ijaraga olish va uni takomillashtirish huquqi,

Kt - 165xx Yig'ilgan eskirish summasi (tegishli mos hisobvaraqlar).

Lizing shartnomasi muddati oxirida lizing oluvchi bankka lizing obyektining sotish sanasidagi haqqoniy

qiymatidan past narxda sotib olish huquqi berilgan bo'lsa, sotib olish quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi orqali amalga oshiriladi:

Dt - 22100 Lizing (moliyaviy ijara) bo'yicha majburiyatlar;

Kt - Bankning vakillik yoki lizing beruvchining depozit hisobvarag'i;

22100 - Lizing (moliyaviy ijara) bo'yicha majburiyatlar hisobvarag'i yopilganidan so'ng, lizing obyektiga bo'lgan mulk huquqi lizing oluvchiga o'tadi.

Lizing shartnomasi uning amal qilish muddatidan oldin to'xtatilib, lizing beruvchi tomonidan lizing obyektiga shartnoma shartlarida belgilangan tartibda olib qo'yilgan taqdirda, lizing obyektini lizing beruvchiga qaytarish lizing shartnomasining amal qilish muddati to'xtatilgan sanadagi lizing obyektining qoplanmagan qiymati summasida amalga oshiriladi va bunda quyidagi buxgalteriya o'tkazmalari amalga oshiriladi:

Dt - 16519 Obyektlarni ijaraga olish va uni takomillashtirish huquqi bo'yicha yig'ilgan eskirish summasi (kontr-aktiv);

Kt - 16515 Obyektlarni ijaraga olish va uni takomillashtirish huquqi.

Lizing obyektining hisobdan chiqarish bo'yicha moliyaviy natija (foyda yoki zarar) lizing obyektining qoldiq (balans) qiymati va lizing to'lovlari jadvali bo'yicha qolgan qarz o'rtasidagi farq sifatida lizing obyektining hisobdan chiqarish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar summasini hisobga olgan holda aniqlanadi.

Lizing obyektining hisobdan chiqarish bo'yicha moliyaviy natija (foyda yoki zarar) aniqlaganda, oldingi qayta baholashlardagi lizing obyektiga qiymatining ko'paygan summasi, ya'ni oldingi baholashlar natijasida 30908 – "Boshlang'ich qiymatga nisbatan baholash qiymatining oshgan summasi" hisobvarag'ining kredit qoldig'i lizing obyektining chiqib ketishidan ko'rilgan daromad tarkibiga qo'shiladi va bir vaqtning o'zida ushbu hisobvara bo'yicha rezerv kapitalini kamaytiradi.

Banklar lizing shartnomasi bo'yicha lizing oluvchi sifatida ishtirok etgan taqdirda lizingga olingan aktivlar hisobi 16515 - Obyektlarni ijaraga olish va uni takomillashtirish huquqining, lizing bo'yicha yuzaga kelgan majburiyatlar esa 22100 - Lizing (moliyaviy ijara) bo'yicha majburiyatlarning tegishli mos hisobvaraqlarida yuritiladi.

Lizing lizing oluvchi bankning moliyaviy hisobotlarida ham aktiv ham majburiyat sifatida tan olinadi. Ushbu dastlabki tan olish lizing shartnomasi muddati boshlanishida amalga oshiriladi. Bunda, lizing oluvchi bank lizing obyektini o'z balansida sof investitsiya qiymati yoki uning haqqoniy qiymatining qaysi biri kichik bo'lsa, o'sha summada aks ettiradi.

Iqtisodiy islohotlarning hozirgi bosqichida lizing operatsiyalarini tashkil etish, uni buxgalteriya hisobida aks ettirishning o'ziga xos tomonlarini hisobga olish lozim.

Lizingni hisobga olishda xalqaro amaliyotda, asosan 2ta konsepsiyadan foydalaniladi:

- mulkdorlarning yuridik huquqi;
- mulkdorlarning iqtisodiy huquqi.

Birinchi konsepsiyada mulkdorlik huquqi lizing oluvchiga o'tmaguncha ushbu aktivni buxgalteriya balansida hisobga olinmasligi va kapitallashtirilmasligi lozim. Demak, ijaradagi vositalar lizing beruvchining balansida aks ettiriladi.

Ikkinchi konsepsiyada ijara moliyaviy va tezkor turlarga bo'linadi. Moliyaviy lizingda mulkdorlikning iqtisodiy huquqi lizing oluvchiga o'tadi, tezkor lizingda lizing beruvchida qoladi.<sup>38</sup>

Xalqaro amaliyotda lizing (moliyaviy ijara) jarayonlari hamda ular hisobi va hisobotiga moliyaviy hisobotlarning asosan quyidagi uchta xalqaro standarti ta'sir ko'rsatadi:

- № 1 – “Moliyaviy hisobotni taqdim etish”;
- № 16 – “Asosiy vositalar”;
- № 17 – “Ijara”.

O'zbekiston Respublikasida lizingni hisobga olishda mulkdorlarning iqtisodiy huquqi konsepsiyasiga alohida

---

<sup>38</sup> Международные стандарты финансовой отчётности. М.: Аскери, 2007. С. 832-837.



ahamiyat beriladi va ushbu konsepsiya milliy standartlarda ham hisobga olingan.

Hozirgi kunda O'zbekistonda hisob tizimini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga mos kelishini ta'minlash hamda buxgalteriya hisobi va hisoboti tizimida islohotlarni amalga oshirish va ularni moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari darajasiga ko'tarish bo'yicha bir qator chora - tadbirlar belgilab olingan va xalqaro standartlarga tenglashtirilgan huquqiy va me'yoriy hujjatlar ishlab chiqilgan.

Hozirgi kunda O'zbekistonda lizing (moliyaviy ijara) jarayonlari hamda xo'jalik yurituvchi subyektlarda ular hisobi va hisobotiga quyidagi 3ta Buxgalteriya hisobining milliy standartlari ham ta'sir qiladi:

- № 1- "Hisob siyosati va moliyaviy hisobot";
- № 5 – "Asosiy vositalar";
- № 6 – "Ijara hisobi".

Tijorat banklarida esa yuqorida ko'rib chiqqanimizdek, alohida tartib ishlab chiqilgan bo'lib, unga ko'ra tijorat banklari moliyaviy lizing operatsiyalarini amalga oshiradi va hisobini yuritadi.

Banklarda lizing operatsiyalari hisobini takomillashtirishda uning boshlang'ich qiymatini to'g'ri shakllantirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Bunda 15600 Lizing (moliyaviy ijara) tegishli mos hisobraqamida lizingning boshlang'ich qiymati shakllantiriladi. Tijorat banklarining hisobvaraqlar rejasida ushbu hisobvaraqlarning ta'rifini ko'radigan bo'lsak unda bank tomonidan berilgan lizing hisobi olib borilishi va hisobvaraqlarning debeti bo'yicha lizing bo'yicha sof investitsiya summasi aks ettirilishi qayd etilgan.<sup>39</sup>

Lizing bo'yicha sof investitsiya summasi o'z ichiga lizing obyekti uchun to'langan summa va dastlabki bevosita xarajatlarni oladi.

Tijorat banklarida lizing operatsiyalarini amalga oshirish davrida yuzaga keladigan xarajatlar ikki guruhga bo'linadi, ya'ni dastlabki bevosita va bilvosita xarajatlar.

---

<sup>39</sup> O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining "O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida buxgalteriya hisobi hisobvaraqlari rejasini" № 773-17-son 2004-yil 13-avgust.

Dastlabki bevosita xarajatlar — lizing obyektini yetkazib berish, uni foydalanish uchun yaroqli holga keltirish bilan bog‘liq bo‘lgan va lizing obyektiga qiymatiga qo‘shiladigan xarajatlar.

Dastlabki bilvosita xarajatlar — lizing shartnomasini tuzish va lizingni tashkil etish bilan bog‘liq bo‘lgan va lizing obyektiga qiymatiga qo‘shilmaydigan xarajatlar.<sup>40</sup>

Lizing operatsiyasini amalga oshirish davrida yuzaga keladigan xarajatlarni bevosita va bilvosita xarajatlarga to‘g‘ri ajratish bank va mijoz o‘rtasida munosabatlarning to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilishi, bank daromadi va xarajatlarning to‘g‘ri hisobga olinishini ta‘minlaydi.

Dastlabki bevosita xarajatlarni hisobga olish hisobvaraqlar rejasidagi 19907 - Xizmatlar uchun oldindan to‘langan xarajatlar hisobvarag‘i orqali hisobga olinadi.

Debet - 19907 - Xizmatlar uchun oldindan to‘langan xarajatlar;

Kredit - Xizmat ko‘rsatuvchilar yoki sug‘urta kompaniyasining talab qilib olinguncha depozit hisobvarag‘i.

Lizing shartnomasida lizing obyektini yetkazib berish, o‘rnatish va boshqa xarajatlar, shuningdek, sug‘urta to‘lovi lizing beruvchi bank tomonidan amalga oshirilsa, ushbu xarajatlar lizing obyektining balans qiymatiga olib boriladi.

### **Nazorat savollari va topshiriqlar**

1. 18-MHXSning mazmunini tushuntirish.
2. Asosiy vositalarning mazmuni nimadan iborat va u balansda qanday tan olinadi?
3. Asosiy vositalar qanday usullar bilan olinishi mumkin?
4. Asosiy vositalarning boshlang‘ich qiymati deganda nimani tushunasiz?
5. MHXSGa ko‘ra asosiy vositalarni qayta baholash uchun qanday usullar qo‘llaniladi?
6. Asosiy vositalarni bevosita qayta baholash usuli bo‘yicha baholash tartibini tushuntirish.

---

<sup>40</sup> O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining “Tijorat banklarida lizing operatsiyalarini amalga oshirish va ularning buxgalteriya hisobini yuritish tartibi to‘g‘risida”gi 1648-sonli Nizomi 2006-yil 27-dekabr.

7. Asosiy vositalarni bevosita qayta baholash usuli bo'yicha qanday tartibda baholanadi?

8. Haq evaziga sotib olingan asosiy vositalar hisobi qanday tartibda bajariladi?

9. Tekinga olingan asosiy vositalar buxgalteriya hisobidan qanday aks ettiriladi?

10. Asosiy vositalar balansdan qanday holatlarda hisobdan chiqariladi?

11. Asosiy vositalar hisobdan chiqarish qanday buxgalteriya o'tkazmalari orqali amalga oshiriladi?

12. 38-MHXSning mazmuni nimadan iborat?

13. Nomoddiy aktivlarga nimalar kiradi?

14. Nomoddiy aktivlarni sotib olish va hisobdan chiqarish operatsiyalarining hisobi qanday yuritiladi?

## **VII BOB. TIJORAT BANKLARIDA MAJBURIYATLAR HISOBI**

### **7.1. Banklarda depozit operatsiyalarining mohiyati, nazariy va huquqiy asoslari hamda ularni amalga oshirish tartibi**

Bank resurslari tarkibida depozitlar operatsiyalari muhim ahamiyat kasb etadi. Ularning zarurligi - bank amalga oshirayotgan aktiv faoliyatda hamda operatsiyalar miqdorida bilinadi. Bank resurslari aktiv operatsiyalar orqali iqtisodiyotga joylashtirilgan miqdoridan daromad shakllanadi. Chunonchi, bank resurslari qancha ko'p bo'lsa, daromadi ham ko'payadi.

Odatda, bank xodimlari banklarga jalb qilingan operatsiyalarni passivlar deb atashadi. Bu ibora bank resurslarining asosan bank balansining passiv qismida joylashganligidan kelib chiqqan. Ya'ni, bank passivlari uning resurs mablag'larining vujudga kelish manbalari va ularning qaysi guruhga taalluqliligini belgilab beradi.

Tijorat banklari aktiv faoliyatini o'zlarida mavjud bo'lgan va jalb qilingan pul mablag'lari doirasida yurita oladilar. Aynan passiv operatsiyalar aktiv operatsiyalarni olib borish uchun asos yaratadi hamda daromadli operatsiyalarning hajmini va salmog'ini aniqlab beradi. Shundan kelib chiqib, tijorat banklarning depozit operatsiyalari deganda aktiv operatsiyalariga asos yaratuvchi va ularni amalga oshirish uchun ishlatiluvchi, ularning hajmi va salmog'ini aniqlab beruvchi mablag'lar tushuniladi.

Tijorat banklarining depozit operatsiyalari shakllanish jihatidan tasniflanishi bankirlar va iqtisodchi-olimlar tomonidan turlicha o'rganiladi. Bu boradagi ilmiy tadqiqotlardan asosiy uch guruhga bo'lib o'rganish mumkin.

Depozitlar banklar tomonidan amalga oshiriladigan depozit siyosatining asosiy o'zagini tashkil etadi. Xorijiy va mahalliy iqtisodiy adabiyotlarda ma'lum bo'lishicha,

iqtisodchi olimlar bank depozitining iqtisodiy mohiyatiga turlicha yondashadilar.

Rossiyaning iqtisodiyot bilan bog'liq adabiyotlarida depozitlarga bank mijozlarining pul mablag'lari, ya'ni yuridik yoki jismoniy shaxslar nomiga ochilgan hisobvarag'idagi, joriy yoki boshqa hisobraqamlardagi pullar kiritiladi.

Xususan, Amerikalik iqtisodchi olim E. M. Rode "depozit – bank mijozlarining jamg'armadan tashqari barcha muddatli va muddatsiz qo'yilmalaridir" degan talqinni ilgari suradi.<sup>41</sup> E.M.Rodening depozitga bergan iqtisodiy ta'rif L.S.Padalkinaning ta'rifiga nisbatan aniqroq, lekin muallif bank depozitining aynan qiymat ko'rinishida namoyon bo'lishini e'tiborga olmagan.

Rossiyalik iqtisodchi M.N. Berezina "depozit – bu mijozga uning barcha turdagi pul mablag'larini saqlash uchun ochiladigan hisobvaraqdır" degan yanayam soddaroq, agar ta'bir joiz bo'lsa depozitning iqtisodiy ma'nosiga judayam yaqin bo'lmagan fikrni ilgari suradi.

Yuqoridagi nazariyalardan kelib chiqib, bizning fikrimizcha, Rossiya olimlarining: "vaqtincha bo'sh pul mablag'lari" - degan fikrini depozit ta'rifidan olib tashlash kerak. Chunki, agarda depozit foizidan keladigan daromad, xo'jalik subyekting "ishchi mablag'lari"dan keladigan daromadga nisbatan yuqoriroq bo'lsa, bu subyekt barcha mablag'larini depozit hisob raqamiga joylashtiradi va uning foizini oladi. Demak, depozitga qo'yiladigan mablag'lar bo'sh bo'lishi shart emas.

Depozitlar banklarda ma'lum vaqt qolib, kredit oluvchi mijozga, shu bilan birga bankga ham daromad keltiradi. Banklarning daromadi qarz oluvchining foiz summasidan kreditorga to'lovchi foiz summasi farqi orqali kelib chiqadi.

Xalqaro bank amaliyotida, qo'yilmalarga mablag'larni jalb qilish bilan bog'liq operatsiyalarni depozit operatsiyalari deyiladi. Depozit operatsiyalariga, ma'lum bir muddatga yoki talab qilib olinguncha depozitga jalb qilish bilan bog'liq operatsiyalari kiradi. Depozit operatsiyalarining subyektlari: bank - qarz oluvchi bo'lib, pul egalari – depozit egasi hisoblanadi. Ya'ni, subyekt

---

<sup>41</sup>Роде Э.М.Банки, биржи, валюты современного капитализма. М.: Дело ЛТД, 1995. С 148.

sifatida davlatning korxonalar va tashkilotlari, muassasalari, kooperativlar, aksionerlik jamiyatlari, qo'shma korxonalar, jamiyat tashkilotlari va fondlari, moliyaviy va sug'urta kompaniyalari, investitsion va trust kompaniyalar va fondlar, jismoniy shaxslar, bank va boshqa kredit tashkilotlari ishtirok etishi mumkin. Obyekt esa bankga berilgan pul mablag'lari hisoblanadi.

Yuqorida keltirilgan ta'riflar va manbalardan ko'rinib turibdiki, bank amaliyotida qo'llanilayotgan depozitlar va umuman, depozitlar haqida iqtisodiy adabiyotlarda yagona yondashuv mavjud emas.

Mamlakatimiz qonunchiligida depozit tushunchasiga quyidagicha ta'rif berilgan, ya'ni O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi qonuniga ko'ra depozitlar omonat tarzida talqin etilib, "Omonat (depozit) - talab qilinishi bilanoq yoki to'lovni amalga oshiruvchi shaxs bilan to'lovni oluvchi shaxs yoxud ularning qonuniy vakillari o'rtasida kelishilgan muddatda foizlar yoki ustama haq to'lagan holda yoxud bunday to'lovlarsiz hammasini qaytarib berish sharti bilan topshiriladigan pul summasi" ma'nosida ta'rif beriladi.<sup>42</sup>

Tadqiqotlar va amalga oshirilgan o'rganishlar natijasida tijorat banklari depozit operatsiyasi ularning passiv operatsiyalari siyosatining asosiy tarkibini tashkil etishi ma'lum bo'lmoqda. Shu bois, banklarning depozit operatsiyasi mohiyatini yoritishda ularning shakllanish xususiyatini tashkil etadigan passiv operatsiyalarni e'tiborga olish maqsadga muvofiq.

Xalqaro bank amaliyotida passiv operatsiyalar banklar foydasidan fondlarni shakllantirish va ularni ko'paytirishga ajratmalar, depozit operatsiyalari, yuridik shaxslardan olingan kredit resurslar, muomalaga chiqarilgan qimmatli qog'ozlar, pul banknotalari va tangalarni chiqarish tarzida to'rtta guruhga ajratiladi.

*Depozit operatsiyalari* – banklarning omonatchilar bilan tuzgan shartnomalari asosida depozit maqsadlariga ko'ra mablag'larni muayyan muddatga jalb etish hamda saqlashga doir operatsiyalardir.

---


<sup>42</sup>O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi qonunining 1 – moddasi, 1996-yil 25-aprel.

Demak, mijozlardan va boshqa kreditorlardan mablag‘ jalb qilish banklarning passiv operatsiyalarining asosiy ko‘rinishi hisoblanadi. Bu mablag‘lar jalb qilinishi turiga qarab depozit hisobraqamlari ham turli xil bo‘ladi. Ularni depozitni tashkil qilish manbai bo‘yicha, maqsadliliigi, foiz darajasi va hokazo mezonlar bo‘yicha tasniflash mumkin. Ammo, negiz sifatida mijozning kategoriyasi va depozitning olinishi bo‘yicha tasniflash amaliyotda keng qo‘llaniladi.

Bu kategoriyalar bo‘yicha tasniflanishi turli mamlakatlarda turlichadir. Masalan, AQShda depozitlarni asosiy ikki guruhga, ya‘ni transaksion va no-transaksion depozitlarga bo‘lib o‘rganiladi. Bizning Respublikamizda, depozitlarning iqtisodiy mohiyati va ishlatish muddatiga qarab uch guruhga bo‘lib o‘rganiladi. Bular talab qilinguncha (aniq muddat belgilanmaydigan), muddatli (ma‘lum bir muddatga qo‘yiladigan) va jamg‘arma (jamg‘arish uchun qo‘yiladigan) depozitlardir.

Tijorat banklari jalb qiladigan mablag‘lar tarkibi turlichadir. Bular:

- mijozlarning hisobraqamlaridagi mablag‘lari;
- boshqa banklarni shu bankdagi korrespondentlik hisob varaqlaridagi mablag‘lari;
- aholi depozitlari;
- aholiga qimmatli qog‘ozlar sotishdan tushadigan mablag‘lar;
- lizing operatsiyalari uchun sotib olingan va to‘plangan tovar moddiy boyliklar;



7.1-rasm. **Milliy bank A bo‘limi depozitlari tarkibi**<sup>43</sup>

<sup>43</sup>“O‘zmilliybank” ma‘lumotlari asosida mualliflar ishlanmasi.

Yuqoridagi ma'lumotlaridan bankning depozit bazasida talab qilib olguncha depozitlar ulushi yuqori ekanligini ko'rishimiz mumkin, ya'ni u qariyb 60 %ni tashkil etmoqda. Bu esa bankning likvidligiga salbiy ta'sir ko'rsatishga olib kelish ehtimolini oshiradi.

Talab qilib olguncha depozitlarning mohiyati, bu hisobraqamdagi qoldiqni mijozlar xohlagan paytda, hech qanday oldindan ogohlantirmay qisman yoki hammasini olishi, shuningdek, to'lov uchun o'tkazishlari mumkin, ya'ni talab qilingan paytda mijozga mablag'ini bank darhol to'lab beradi, demakdir. Shuningdek, bu depozit joriy hisobraqam yoki hisob-kitob hisobraqami deb ham aytiladi.

Depozit hisobraqamlarining ikkinchi guruhi hisoblanuvchi no-transaksion hisobraqamlarning turlari ko'p, ammo ular uchun yagona nom yo'q. Shuning uchun bu hisobraqamlarni investitsion hisobraqamlar deb ataladi. Ularni ba'zi iqtisodchilar "muddatli depozitlar", ba'zilari "investitsion depozitlar" deydi yana boshqalari esa "no-transaksion depozitlar" deb ataydilar.

Muddatli depozitlar ma'lum muddatda bankda saqlanadigan pul mablag'laridir. Bularga, veksel, sertifikat, aholining muddatli va maqsadli qo'yilamalari, saqlash muddati taxminan belgilanmagan, ammo oson aniqlanadigan hisobraqamlar kiradi.

*Muddatli depozitlar* yirik depozitorlar uchun mo'ljallangan. Bu hisobraqam bo'yicha yuqori foiz to'lanadi, ammo talab qilinishi bilan darhol to'lanmaydi.

Muddatli depozitlar bank tomonidan ma'lum bir muddatga jalb qilinadigan depozitlardir. Muddatli depozitlarga qabul qilingan mablag'lar shartnomada keltirilgan muddatga bankka foydalanishga topshiriladi, bu muddat tugashi bilan uning egasi mablag'ni qaytarib olishi mumkin. Muddatli depozitlarning turlaridan biri depozit sertifikatlaridir hisoblanadi. Ularni birinchi marotaba 1961 yil "FERS NATIONAL CITY BANK" muomalaga kiritgan.

Jamg'arma depozitlar odatda, kichik depozitlar uchun ishlatiladi. Bu hisobraqamlar bo'yicha foiz kam to'lanadi va depozit so'rab olinishi mumkin. Jamg'arma depozitlar saqlanish turiga qarab quyidagi guruhlarga bo'linadi:



- muddatli;
- yutuqli depozitlar;
- joriy raqamga qo'yiladigan mablag'lar;
- plastik kartochkalar;
- depozit sertifikatlari (CD).

Jamg'arma depozitlar bank uchun maqbul hisoblanadi. Chunki bu turdagi depozitlar asosan, uzoq muddatli bo'ladi va bank bu mablag'larni uzoq muddatli aktiv sifatida ishlatishi mumkin. Jamg'arma depozit bo'yicha mijozlarga to'lanadigan foiz stavkasi kam bo'ladi.

Jamg'arma depozitlarning kamchiligi shundaki, bu hisobraqamda turgan mablag'lar kamayishiga har xil omillar ta'sir ko'rsatadi. Masalan, siyosiy, iqtisodiy va psixologik omillar bankdan pulning chiqib ketishiga ta'sir qiladi. Shaxsiy hisobraqamlar ichiga kiradigan jamg'arma depozitlari jalb qilingan mablag'lar qatorida katta rol o'ynaydi.

Jamg'arma depozitlar:

- aniq muddatga qo'yilmaydi;
- bu hisobraqamdan pul olish uchun bankka xabar berish shart emas;
- bu hisobraqamga pul qo'yish yoki olishda jamg'arma kitobchasini ko'rsatish kerak. Bu kitobchada o'zgartirishlar aks ettiriladi.

Jamg'arma depozitlarini qabul qilish deyarli hamma tijorat banklari xizmatiga kiradi.

Jamg'arma depozitlar ko'p banklar uchun mijozlarini moliyalashtirishning asosiy manbalari hisoblanadi. Tushum va rentabellik ma'nosida ham jamg'arma depozitlar eng samarali hisoblanadi.

Jamg'arma hisobraqamlari egasiga daromad keltiradigan mablag'lar hisoblanadi va uchinchi shaxsga hisob-kitob qilish uchun ishlatilmaydi. Jamg'arma hisobraqamlarining xususiyati shundaki, bular qat'iy belgilangan muddatga ega emas. Bundan tashqari, jamg'arma depozitlar - bu pul depozitlaridir, shu sababli bular bank kapitalini jalb qilingan turiga kiradi. Umuman, ular ixtiyoriy summalarda qabul qilinadi. Jamg'arma depozitlar bir qo'yishda shakllanmaydi, ular har xil

muddatlarda, turli summalarda o'z muddati davomida qo'yilib yoki olinib turilishi mumkin.

Mijoz muddatli depozitlarni har doim ham erkin talab qila olmaydi. U mablag'larni to'liq yoki bir qismini talab qilsa ham, bu mablag'lar muddatli majburiyatlarga bog'liq.

Jamg'arma depozitlar jamg'arish yoki kapitalni yig'ish uchun xizmat qilishi kerak. Shunday qilib, jamg'arma hisobraqamlaridan quyidagilarni nazarda tutish maqsadga muvofiq emas:

- tijorat faoliyati uchun yoki to'lov aylanmasi uchun, ya'ni cheklar, o'tkazmalar yordamida boshqariladigan pul summolari.

Jamg'arma depozitlari avvaldan ogohlantirilib olinishi mumkin. Ular talab qilib olinadigan yoki muddatli depozitlar kabi rasmiylashtirilishi kerak emas. Ammo, bu ularni maqsadlilik va muddatlilik sifati yo'q degani emas. Bu holda mijoz ogohlantirilishi va muddatida kelishishi lozim.


Respublikamiz tijorat banklari depozit operatsiyalarini qonunlar va me'yoriy hujjatlar asosida amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 36-moddasida bankka qo'yilgan omonatlar sir tutilishi va meros huquqi qonun bilan kafolatlangan. Shuningdek bu operatsiyalar O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyat to'g'risida"gi qonuni, O'zbekiston Respublikasining "Markaziy banki to'g'risida"gi qonuni va boshqa bir qator me'yoriy hujjatlar hamda Yo'riqnomalar orqali tartibga solinmoqda.

Tijorat banklari depozit operatsiyalarining amalga oshirish bo'yicha depozitlarni, aniqrog'i aholi tomonidan qabul qilinadigan omonatlarni qabul qilish, ularga foizlar to'lash, omonat daftarchasini yuritish kabi masalalar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligidan ro'yxatdan o'tgan 2205-sonli "O'zbekiston Respublikasi banklarida depozit operatsiyalarini amalga oshirish tartibi to'g'risida"gi Yo'riqnomada o'z aksini topgan. Ushbu Yo'riqnomada jismoniy shaxslarga depozit hisobraqamlar ochish, ularni yuritish, mablag'larni berish, amaliyot kunini yakunlash

hamda kunlik hisobotlarni tuzish tartiblari aniq ko'rsatilgan.

Masalan, Omonat daftarchasi varaqlari yozuvlar bilan to'lganda yoki yaroqsiz holga kelganda yoki yo'qolganda omonatchiga yangi Omonat daftarchasi rasmiylashtirilishi jarayonida omonatchi to'lgan omonat daftarchasining birinchi betiga "qoldig'i \_\_\_\_ so'm \_\_\_ tiyin bo'lgan, to'lgan omonat daftarchasi o'rniga yangi \_\_\_\_ seriya va \_\_\_\_\_ hisobraqamli omonat daftarchasini oldim" degan yozuvni kiritib, sana va imzosini qo'yadi. To'lgan omonat daftarchasining oxirgi varag'iga nazoratchi yangi omonat daftarchasi seriyasi va hisobraqamini yozib, sana va imzosini qo'yadi. Yangi omonat daftarchasining birinchi betiga "Eskirgan o'rniga" yozuvi yoziladi va nazoratchi tomonidan eskirgan omonat daftarchasidagi zarur ma'lumotlar yangi omonat daftarchasiga ko'chiriladi. Omonat qoldig'i yangi daftarchaning birinchi satrida hisobraqam va so'z bilan (tiyinlardan tashqari) yoziladi va "To'lgan omonat daftarchadan ko'chirilgan" degan yozuv kiritiladi. Yangi omonat daftarchasiga ko'chirilgan omonat qoldig'i va boshqa yozuvlarning to'g'riligi nazoratchi hamda kassirning imzolari bilan tasdiqlanadi.

Tijorat banklari depozit operatsiyalarini rivojlantirish va uning samaradorligini ta'minlash ma'lum tamoyillarni ishlab chiqish va ularga amal qilishni talab etadi.



### 7.2-rasm. **Tijorat banklari depozit operatsiyalarining asosiy tamoyillari**

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tamoyillarga xo'jalik yurituvchi subyektning iqtisodiy jihatdan ma'lum samaradorlik va imkoniyatlarga ega bo'lishining asosi

sifatida qaraladi. Shu jihatdan, tijorat banklari depozit operatsiyalari samaradorligini ta'minlashda qo'llaniladigan tamoyillar moliyaviy mablag'larni jalb qilishga qaratiladi. Tijorat banklari depozit operatsiyalarini amalga oshirishda umum qabul qilingan tamoyillarga amal qilishi tegishli samaraga erishish imkoniyatini beradi. Mamlakatda mavjud iqtisodiy muhitning o'ziga xosligi ham tijorat banklari depozit operatsiyalari tamoyillarini ushbu muhit asosida amal qilish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Tijorat banklari depozit operatsiyalari tamoyillarini alohida tadqiqot obyekti sifatida ko'rib chiqadigan bo'lsak, bank faoliyatida depozit operatsiyalarining samaradorligini ta'minlashda ularning har biri alohida ahamiyatga egaligining guvohi bo'lishimiz mumkin.

Xususan, depozit operatsiyalarining ilmiy asoslangan tamoyilida har bir bankning depozit operatsiyalarini amalga oshirish uchun ularning depozit siyosati ishlab chiqariladi va ushbu siyosatni ishlab chiqishda va amaliyotga joriy etishda bevosita unga ilmiy jihatdan yondashuv zarurligini anglatadi.

Masalan, tijorat banklari depozit siyosatini ishlab chiqishda ushbu tamoyil doirasida mamlakat iqtisodiy siyosati, Markaziy bankning pul-kredit instrumentlari yo'nalishlari, xo'jalik subyektlari va aholining turli xildagi iqtisodiy jamg'armalari, shuningdek, bank faoliyati iqtisodiy o'zgarishi kabi holatlarni inobatga olish zarur.

Depozit operatsiyasining kompleks yondashuv tamoyilining asosiy vazifasi bankning o'zaro aloqalarini va bank tomonidan amalga oshiriladigan depozit operatsiyalarini bankning strategik va taktik usullari bilan hamohangligi va bank faoliyatini takomillashtirish bilan bog'liq masalalarni inobatga olish hisoblanadi. Shu bilan birga, tijorat banklari depozit siyosati davlatning iqtisodiy siyosati, Markaziy bankning pul-kredit siyosati va bank siyosatining boshqa elementlari bilan kompleks yondashuvi tarzida amalga oshirilishi lozim.

Tijorat banklari depozit operatsiyalari elementlarining yagonaligi tamoyilida asosiy e'tibor bankka jalb qilingan mablag'lar bo'yicha to'lanadigan foiz to'lovlari, muddati,

mablag'larni aktiv operatsiyalariga joylashtirish muddatlarining mosligi kabi holatlarga qaratiladi. Xususan, ushbu tamoyil mablag'larni aktiv operatsiyalarga joylashtirish muddatligi elementi depozitga joylashtirilgan mablag'lar muddati bilan mos kelmasligi bank faoliyatida majburiyatlarni bajarish nuqtai nazaridan turli ziddiyatlarni kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Shu bois, bankning muddatli va riskka tortilgan aktivlari o'rtasida umumiy bog'liqlik ta'minlanishi maqsadga muvofiq.

Tijorat banklari depozit operatsiyalarini amalga oshirishda jalb qilinayotgan mablag'larning samaradorlik tamoyiliga alohida e'tibor qaratish lozim. Ushbu tamoyilning bajarilmasligi yoki unga amal qilinmasligi bankda moliyaviy jihatdan muammolar yuzaga kelib chiqishiga olib keladi. Chunki tijorat banklarida moliyaviy mablag'larni tashkil topishi nuqtai nazaridan qimmatli yoki arzon mablag'lar guruhiga ajratish mumkinligiga avvalroq to'xtalgan edik. Tijorat banklar jalb qilingan barqaror mablag'lar bo'yicha tegishli xarajatlarni amalga oshiradi.

Xarajatlar miqdori depozit turi, muddati va hajmiga qarab har xil bo'lishi mumkin. Depozit operatsiyalari orqali jalb qilingan mablag'larni tegishli aktiv operatsiyalariga joylashtirishda ushbu depozit bo'yicha qilingan xarajatlarni inobatga olinmasligi bank uchun iqtisodiy jihatdan samarasiz bo'lishi mumkin. Chunki, depozit operatsiyalarining samaradorlik tamoyili muhim iqtisodiy omillardandir.

Tijorat banklari depozit operatsiyalarining asosiy vazifalaridan biri bankni zarur darajadagi moliyaviy resurslar bilan ta'minlash ekanligini inobatga olsak, depozit operatsiyalarining barqaror resurslar bazasini ta'minlanganlik tamoyili uning boshqa tamoyillari ichida alohida ahamiyatga egaligini ko'ramiz. Chunki moliyaviy jihatdan barqaror mablag'lar tijorat banklarini asosiy foyda manbasini tashkil etish bilan birga, ularni kutilmaganda paydo bo'ladigan zararlardan himoya qilish imkonini ham beradi.

Ushbu mablag'larga banklar ustav kapitali, joriy yil va o'tgan yillarning taqsimlanmagan foydasi, joriy yilning sof

foydasi hamda muddatli va jamg'arma depozitlarini ham kiritish mumkin. Muddatli va jamg'arma depozitlar, agar ularning saqlash muddati bir yildan ortiq bo'lsa, banklar uchun muddati jihatidan barqaror moliyaviy manba hisoblanadi. Tijorat banklari bu mablag'larni likvidsizlik holatiga tushib qolish muammosini o'ylamasdan, ma'lum muddatga kredit resurslari sifatida ishlatish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Markaziy bank tijorat banklari lividliligini ta'minlashga o'rnatgan talablarida ma'lum bir miqdorni belgilab qo'ygan, bunda asosiy e'tibor tijorat banklari jalb qilingan mablag'lari va ularni aktiv operatsiyalariga joylashtirish o'rtasidagi o'zaro bog'liqliqni ta'minlashga qaratiladi. Ushbu bog'liqlik likvid aktivlar va qaytarish muddati 30 kungacha bo'lgan aktivlarni talab qilib olinguncha saqlanadigan va qaytarish muddati 30 kungacha bo'lgan depozitlarga nisbatining koeffitsienti 1ga teng bo'lishi lozimligi belgilangan bo'lib (ushbu ko'rsatkich 2015-yilning 1-yanvar kundan 100% etib belgilangan), ushbu me'yoriy ko'rsatkich joriy likvidlilik koeffitsienti sifatida yuritiladi.

Tijorat banklari resurslari muddati jihatidan beqaror mablag'lari qatoriga talab qilib olinguncha saqlanadigan depozit hisobvaraqlardagi mablag'larni ham kiritish mumkin. Banklar mazkur guruhga kiruvchi mablag'lardan kredit resursi sifatida foydalanganda ularning likvidsizlik holatiga tushib qolish ehtimoli yuqori bo'ladi. Chunki mijoz ushbu hisobvaraqlardagi mablag'larni bank kutmagan paytda qisman yoki to'lig'icha ko'chirish yoki naqd pul shaklida berishni talab qilish huquqiga egadir. Shu jihatdan, ushbu hisobvaraqlarda saqlanadigan mablag'lar muddati jihatidan nisbatan beqaror resurslar hisoblandi.

Tijorat banklari depozit operatsiyalarini amalga oshirishning xavfsizlik tamoyili asosan, bankda turli manbalar hisobidan shakllantrilayotgan moliyaviy mablag'larning mamlakat qonun va me'yoriy hujjatlari doirasida vujudga keltirilayotganligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Xususan, jismoniy yoki yuridik shaxslar tomonidan tijorat banklariga jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni

legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirish maqsadida joylashtirilgan mablag'lar shular jumlasidandir. Bank bu kabi shubhali mablag'larni muddatli depozitlarga qabul qilganda belgilangan tartibda tegishli organlarga xabar berishi zarur bo'ladi.<sup>44</sup>

Jumladan, ushbu qoidaga asosan quyidagi holatlarda depozit operatsiyalari xavfli deb tasniflanishi va bank tegishli chora-tabdirlar ko'rishi lozimligi belgilab qo'yilgan:

- operatsiya bajaruvchi tomonlardan biri jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish sohasida xalqaro hamkorlikda ishtirok etmayotgan davlatda doimiy yashayotgan, turgan yoki ro'yxatga olingan shaxs bo'lsa;

- jismoniy shaxslar tomonidan, shu jumladan, pul o'tkazmalari tizimlari orqali bir vaqtda yoki 3 oydan oshmagan muddat davomida ko'p marotaba eng kam ish haqining 1000 baravari miqdoriga teng yoki undan oshadigan umumiy summada chet el valyutasida pul mablag'lari olinishi yoki jo'natilishi;

- jismoniy shaxslar tomonidan bir vaqtda yoki 3 oydan oshmagan muddat davomida ko'p marotaba eng kam ish haqining 1000 baravari miqdoriga teng yoki undan oshadigan umumiy summada chet el valyutasidagi pul mablag'lari sotilishi yoki sotib olinishi;

- O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqariga nomi ko'rsatilmagan holda (anonim) shaxsga ochilgan hisobvaraqa pul mablag'lari ko'chirilishi hamda O'zbekiston Respublikasiga nomi ko'rsatilmagan holda (anonim) shaxsga ochilgan hisobvaraqdan pul mablag'larining tushishi;

- tijorat banki tomonidan xabar qilinishi lozim bo'lgan operatsiyalar toifasiga kiritish to'g'risida qaror qabul qilingan gumonli operatsiyalar shular jumlasidandir.

Tijorat banklari depozit operatsiyalarini amalga oshirishda yuqorida zikr etilgan tamoyillarga amal qilishi, ulardan ilmiy va amaliy jihatdan foydalanishida

---

<sup>44</sup>Tijorat banklarida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha ichki nazorat qoidalari. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvi hamda Bosh prokuratura huzuridagi Soliq, valyutaga oid jinoyatlarga va jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish departamentining 2009-yil 13-oktyabrdagi 23/6, 32-sonli qarori asosida tasdiqlangan.

banklarning to'lov qobiliyati oshadi va likvidlilik darajasi ortadi, iqtisodiy samaradorligi ta'minlanadi va moliyaviy barqarorligi mustahkamlanadi.

## **7.2. Banklarda depozit jalb qilishning buxgalteriya hisobini tashkil etish va yuritish**

Bank plastik kartalaridagi mablag'lar talab qilib olinguncha saqlanadigan omonatlar hisoblanib, ularning harakati alohida qonun hujjatlariga muvofiq tartibga solinadi. Tijorat banklarida bank bilan yuridik shaxs, yuridik shaxs tashkil etmagan holda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi yakka tartibdagi tadbirkor hamda dehqon xo'jaliklarining talab qilib olinguncha saqlanadigan omonat hisobvarag'i bo'yicha vujudga keladigan munosabatlar bank hisobvarag'i shartnomasi bilan tartibga solinadi.

Jismoniy shaxslarning talab qilib olinguncha saqlanadigan omonatlari bo'yicha, bank omonatchining birinchi talabiga ko'ra (agar bank omonati shartnomasi tuzilgan va unda boshqa muddatlar ko'zda tutilmagan bo'lsa) omonatchining tegishli ko'rsatmasi bankka kelib tushgan kunning ertasidan kechikmagan holda uning to'lovlar bo'yicha topshirig'ini bajarishi shart. Jismoniy shaxslarning talab qilib olinguncha saqlanadigan omonatlari bo'yicha tuzilgan bank omonati shartnomasida omonatchi tomonidan omonatni birinchi talabi bilan qaytarish va belgilangan foizlar to'lash shartlari bo'lishi lozim.

Talab qilib olinguncha saqlanadigan omonatlar hisobi "O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida buxgalteriya hisobi hisobvaraqlar rejasi"ga (ro'yxat raqami 773-17, 2004-yil 13-avgust) (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2004-yil, 32-son, 369-modda) muvofiq, "20200 – Talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlar" hisobvaraqlarida yuritiladi.

Bank omonat shartnomasida belgilangan muayyan maqsadga yo'naltiriladigan yoki boshqa shartlar asosida jalb qilingan omonatlar jamg'arma omonatlar hisoblanadi.



Jamg'arma omonatlar bo'yicha bank bilan omonatchi o'rtasida bank omonati shartnomasi tuzilishi va omonatchi shartnoma tuzgandan so'ng, bank omonati shartnomasida ko'rsatilgan omonat summasini qo'yishi shart. Jamg'arma omonatlar bo'yicha bank omonati shartnomasiga muvofiq qo'shimcha mablag'lar kiritilishi mumkin. Qo'shimcha mablag'lar kiritish tartibi bank omonati shartnomasida aniq belgilanishi lozim.

Jamg'arma omonatlar maqsadli, yutuqli va boshqa shartlar belgilangan ko'rinishlarda bo'lishi mumkin. Ma'lum maqsad uchun jamg'ariladigan va qat'iy ravishda shu maqsadga yo'naltiriladigan omonatlar maqsadli jamg'arma omonatlar hisoblanadi. Omonatchiga foizlar yutuq ko'rinishida to'lanadigan omonatlar yutuqli jamg'arma omonatlar hisoblanadi. Yutuqlar pul mablag'lari, omonatga qo'shimcha foizlar hisoblab yozish, buyum va boshqa ko'rinishlarda bo'lishi mumkin. Omonat qo'yishda bank omonati shartnomasida ko'rsatilgan shartlarning bajarilishi bilan omonatdan foydalanish mumkin bo'lgan uchinchi shaxs nomiga qo'yilgan omonatlar shartli jamg'arma omonatlar hisoblanadi. Masalan, "Omonatchi o'quv yurtini tugatgandan so'ng, omonat beriladi" yoki "Voyaga yetgach, beriladi" kabi shartlar belgilangan bo'lishi mumkin. Omonatchining xohishiga ko'ra, shartning bajarilish muddati bank omonati shartnomasida ko'rsatilishi mumkin. Masalan, "20\_\_ yilda omonatchi o'quv yurtini tugatgandan so'ng, omonat beriladi".

Bank omonati shartnomasida bank tomonidan omonat hisobvaragi bo'yicha bajarilgan barcha operatsiyalar haqida xabardor qilishi belgilangan bo'lsa, bank shartnomada ko'rsatilgan muddatlarda jamg'arma omonat hisobvaraqlaridan ko'chirmani omonatchiga taqdim qiladi. Jamg'arma omonat hisobvarag'idan olingan ko'chirmalar va omonat daftarchasidagi barcha o'zgarishlarni omonatchi o'rganib chiqishi hamda har qanday nomuvofiqlik to'g'risida bankka xabar qilishi kerak. Bank xabar qilingan nomuvofiqlikni sabablarini o'rganib, ularni birlamchi

hujjatlar asosida bartaraf qilishi va amalga oshirilgan o'zgarishlar to'g'risida omonatchiga xabar berishi lozim.

Jamg'arma omonatlar hisobi "O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida buxgalteriya hisobi hisobvaraqlar rejasi"ga (ro'yxat raqami 773-17, 2004-yil 13- avgust) muvofiq "20400 – Jamg'arma depozitlar" hisobvaraqlarida yuritiladi.

Muddatli omonatlar bo'yicha bank bilan omonatchi o'rtasida muddatli bank omonati shartnomasi tuzilishi va omonatchi shartnoma tuzilganidan so'ng, muddatli bank omonati shartnomasida ko'rsatilgan omonat summasini qo'yishi shart. Qo'shimcha mablag'lar kiritish tartibi muddatli bank omonati shartnomasida belgilanishi lozim. Agar omonatchi muddatli omonatni muddati tugagunga qadar qaytarib berishni talab qilish niyatida bo'lsa, u o'zining bu niyatidan bankni omonatni olishni mo'ljallayotgan sanadan kamida bir oy oldin xabardor qilishi lozim. Muddatli omonatlar quyidagi muddatlar bo'yicha tasniflanadi:

- muddati 30 kungacha bo'lgan omonatlar;
- muddati 90 kungacha bo'lgan omonatlar;
- muddati 180 kungacha bo'lgan omonatlar;
- muddati 365 kungacha bo'lgan omonatlar;
- muddati 365 kundan ortiq bo'lgan omonatlar.

Omonatchi muddatli omonat summasini muddati tugaganidan, muddatli bank omonati shartnomasida nazarda tutilgan holatlar vujudga kelganidan keyin qaytarib berishni talab qilmagan hollarda, agar muddatli bank omonati shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, shartnoma omonatni talab qilib olinguncha saqlanadigan omonatlar shartlari asosida uzaytirilgan deb hisoblanadi.

Bankka qo'yilgan omonat summasini va omonatchining (sertifikat saqlovchining) omonat summasini hamda sertifikatda shartlashilgan foizlarni sertifikatni bergan bankdan yoki shu bankning istalgan filialidan belgilangan muddat tugaganidan keyin olish huquqini tasdiqlovchi noemissiyaviy qimmatli qog'oz omonat sertifikati hisoblanadi. Omonat sertifikatlari blankalar tarzida, hujjat

shaklida chiqariladi. Omonat sertifikatlarini chiqarish hamda muomalada bo'lishi "Banklarning depozit (omonat) sertifikatlarini chiqarish va muomalada bo'lish tartibi to'g'risidagi Nizom"da (ro'yxat raqami 1859, 2008-yil 24-sentyabr) (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2008-yil, 39-son, 400-modda) belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Bank tomonidan omonatlar bo'yicha foizlar hisoblash "Tijorat banklarida foizlarni hisoblash to'g'risida Nizom" (ro'yxat raqami 1306, 2004-yil 30-yanvar) (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2004-yil, 4-son, 51-modda) asosida amalga oshiriladi. Omonatlarga to'lanadigan foiz stavkalari banklar tomonidan qonun hujjatlari talablari doirasida belgilanadi. Bank omonati shartnomasida to'lanadigan foizlar miqdori haqida shart bo'lmagan taqdirda, bank talab qilib olinguncha saqlanadigan omonatlarga to'lanadigan miqdorda foizlar to'lashi shart. Agar bank omonati shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, bank talab qilib olinguncha saqlanadigan omonatlarga to'lanadigan foizlar miqdorini o'zgartirish huquqiga ega. Bank foizlar miqdorini kamaytirgan taqdirda, foizlarning yangi miqdori foizlar kamaytirilganligi haqida omonatchilarga xabar berilganidan keyin qo'yilgan omonatlarga nisbatan qo'llanadi. Agar bank omonati shartnomasida boshqa muddat nazarda tutilgan bo'lmasa, ushbu xabarga qadar qo'yilgan omonatlarga nisbatan kamaytirilgan foizlar miqdori tegishli xabar berilgan paytdan bir oy o'tganidan keyin qo'llaniladi.

Jamg'arma va muddatli omonatlar bo'yicha bank omonati shartnomasida belgilangan foizlar miqdorini, agar shartnomada boshqacha tartib belgilangan bo'lmasa, bank tomonidan bir tomonlama kamaytirilishi mumkin emas. Ushbu omonatlar bo'yicha mablag'lar omonatchining talabi bilan unga qaytarilgan hollarda, agar shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, omonat bo'yicha foizlar to'lanmaydi. Bank omonati summasiga foizlar omonat bankka tushgan kunning ertasidan boshlab, to u omonatchiga qaytarilgan yoki boshqa asoslarga ko'ra

omonatchining hisobvarag'idan o'chirilgan kundan oldingi kungacha yoziladi. Omonatchining hisobvarag'i xatlanganligi oqibatida bank ushbu hisobvaraqdagi mablag'lardan foydalana olmagan davr uchun foizlar yozilmaydi.

Banklarda jismoniy shaxslar omonatlarining hisobini yurituvchi shaxsiy hisobvaraqlarni ochish va yopish "O'zbekiston Respublikasi banklarida ochiladigan bank hisobvaraqlari to'g'risida"gi Yo'riqnoma (ro'yxat raqami 1948, 2009-yil 27- aprel) (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2009-yil, 18-son, 229-modda) asosida amalga oshiriladi. Jismoniy shaxslar omonatlari hisobini yuritish uchun "O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida buxgalteriya hisobi hisobvaraqlari rejasi"da (ro'yxat raqami 773-17, 2004-yil 13-avgust) belgilangan hisobvaraqlarda 20ta belgili shaxsiy hisobvaraqlar ochiladi.

Jismoniy shaxslarga shaxsiy hisobvaraqlar omonat qabul qilingandan so'ng, bankning omonat kassasida nazoratchi tomonidan ochiladi. Shaxsiy hisobvaraqlar har bir omonatga alohida ochiladi. Ikki yoki undan ortiq shaxslarga bitta shaxsiy hisobvaraqlar ochilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Omonatchidan boshlang'ich mablag'ni qabul qilishdan oldin, nazoratchi omonatchini omonat shartlari bilan tanishtirishi shart. Omonatchi omonat shartlariga rozi bo'lgan taqdirda, bank omonati shartnomasini imzolab, Kirim orderi va So'nggi nazoratga xabarnomani to'ldiradi va nazoratchiga taqdim qiladi. Nazoratchi Kirim orderi va So'nggi nazoratga xabarnoma to'g'ri to'ldirilganligiga ishonch hosil qilgandan so'ng, omonatchidan omonatni qabul qilish uchun kirim orderini kassirga beradi. Kassir omonat summasini sanab oladi va Kirim orderida ko'rsatilgan summa bilan solishtiradi hamda summalar mos kelganda Kirim orderini imzolab nazoratchiga qaytaradi. Nazoratchi Kirim orderi asosida omonat bo'yicha kompyuter dasturiga boshlang'ich qo'yilgan omonat summasini va omonatchining shaxsini tasdiqlovchi hujjat ma'lumotlarini kiritadi. Nazoratchi omonatchiga shaxsiy hisobvaraqlar ochadi va shaxsiy hisobvaraqlar varaqchasiga

omonatchining shaxsiy hisobvaraqa raqami, familiyasi, ismi va otasining ismi, tugʻilgan yili va uning manzili yozadi. Omonatchi shaxsiy hisobvaraqa varaqchasining “omonatchi” satriga oʻz imzosini qoʻyadi. Ushbu imzo omonatchining imzo namunasi boʻlib hisoblanadi. Nazoratchi omonatchining imzo namunasi omonatchining shaxsini tasdiqlovchi hujjatdagi imzo bilan solishtirishi shart. Nazoratchi omonat summasi qoʻyilganligini tasdiqlovchi bank omonati shartnomasini va omonat daftarchasini rasmiylashtiradi. Bank omonati shartnomasi nazoratchi tomonidan ikki nusxada bir xil raqamlanadi va unda omonatchiga beriladigan omonat daftarchasi raqami koʻrsatiladi.

Bank omonati shartnomasiga omonatchining familiyasi, ismi va otasining ismi oʻz qoʻli bilan yozilishi va imzolanishi lozim. Nazoratchi omonat summasi kiritilganligini tasdiqlovchi Tasdiqnomani kompyuter dasturida shakllantirib, qogʻozga chiqaradi. Tasdiqnoma va omonat daftarchasini imzolash uchun Kirim orderi bilan birga kassirga beradi.

Omonat kassalarda amaliyot kuni tugagandan keyin naqd pullar, qimmatliklar, qatʻiy hisobda turuvchi blankalar va boshqa hujjatlar sanaladi, operatsiyalar boʻyicha Operatsion kundalik va Operatsion kundalikka ilova tuziladi, hisob maʼlumotlarini haqiqatdagi mavjud naqd pullar, qimmatliklar va qatʻiy hisobda turuvchi blankalar miqdori (summasi) bilan muvofiqligi aniqlanadi.

Operatsion kundalik kun davomida oʻsib borish tartibida bir nusxada tuziladi. Operatsion kundalikda omonatlar boʻyicha operatsiyalarni kiritishda, operatsiyalar bajarilgan shaxsiy hisobvaraqa raqami, omonatchining familiyasi, ismi va otasining ismi, shuningdek mos ravishda “Naqd pul-Kirim” yoki “Naqd pul-Chiqim” ustuniga omonatchining shaxsiy hisobvaraqa boʻyicha naqd pulda qabul qilingan yoki berilgan omonat summasi koʻrsatiladi. Omonat boʻyicha naqd pulsiz hisobga kiritish va hisobdan chiqarish boʻyicha operatsiyalarda omonat summalari Operatsion kundalikning “Memorial

aylanmalar-Kirim qilingan” va “Memorial aylanmalar-Chiqim qilingan” ustunlarida ko‘rsatiladi.

Harakatsiz omonatlar bo‘yicha har bir memorial orderning summasi operatsion kundalikning “Memorial aylanmalar” ustunida va operatsion kundalikka ilovaning “Chiqib ketgan” ustunida aks ettiriladi. Yo‘qolgan omonat daftarchalari bo‘yicha omonatni yangi shaxsiy hisobvaraqa o‘tkazish operatsiyasi operatsion kundalikda alohida satrlarda aks ettirilib, omonat summasi operatsion kundalikning “Memorial aylanmalar” ustunida ko‘rsatiladi. Operatsion kundalikning to‘lgan varag‘idagi barcha ustunlarining oxirgi satridagi yakuniy summa yangi varaqning mos ustunlarining birinchi satriga o‘tkaziladi.

Banklar resurslarining asosiy qismini jalb qilingan mablag‘lar tashkil etadi. Har bir tijorat banki faoliyatida jalb qilingan mablag‘lar muhim ahamiyat kasb etadi, chunki tijorat banklarining o‘z mablag‘lari asosan bankni tashkil qilish va shakllantirish bilan bog‘liq vazifani amalga oshirsa, jalb qilingan mablag‘lar esa, bankning barqaror daromad olish imkoniyatini ta‘minlab turadi. Shu boisdan ham, bank tizimining asosiy xususiyatlaridan biri, o‘z mablag‘lari hisobiga o‘zining faoliyatini amalga oshirishdir. Shuning uchun ham, har bir tijorat bankining jalb qilingan mablag‘larini doimiy tahlil qilib borish bankning barqarorligini ta‘minlash imkonini beradi.

7.1-jadval

**TIF “Milliy bank” A bo‘limining depozit mablag‘lari**  
(mln so‘mda)<sup>45</sup>

No	Ko‘rsatkichlar	2014	2015	2016	2017	2018
	Majburiyatlar jami:	30 082,1	36 735,0	39 707,0	44 358,0	55 642,2
1	Talab qilib olinguncha depozitlar	17 039,1	23 313,0	27 199,8	32 135,0	39 335,8
2	Muddatli depozitlar	4 732,0	6 632,0	8 157,2	10 905,7	14 667,2
3	Jamg‘arma depozitlar	8 311,0	6 790,0	1 350,0	1 318,3	1 639,2

Jadval ma‘lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, bankning majburiyatlari, ya‘ni jalb qilingan mablag‘lari yil sayin oshib borgan. Bu ko‘rsatkich 2014-yilda 30 082,1,9 mln so‘mni, 2015-yilda 36 735,0 mln so‘mni, 2018-yilda esa

<sup>45</sup>Manba: “Milliy bank” A bo‘limining yillik hisobot ma‘lumotlari asosida hisoblangan.

55 642,2 mln soʻmni tashkil etgan. Ushbu depozitlarning asosiy salmogʻni mijozlarning talab qilib olinguncha depozitlari tashkil etgan. Talab qilib olguncha depozitlar jami resurslarning 2014-yilda 56,6 foizini, 2015-yilda 63,5 foizini, 2016-yilda 68,5 foizini, 2017-yilda 72,4 foizini, 2018-yilda esa 71,0 foizini tashkil etgan. Muddatli depozitlar 2014-yilda 15,7 foizni, 2015-yilda 18,5 foizni, 2016-yilda 20,5 foizni, 2017-yilda 25,2 foizni, 2018-yilda esa 26,4 foizni tashkil etgan. Jamgʻarma depozitlarining ham yildan yilga kamayishi kuzatilgan, yaʼni 2014-yilda 27,6 foizni tashkil etgan boʻlsa, 2018-yilga kelib esa 3,2 foizni tashkil etgan.

7.2-jadval

**TIF “Milliy bank” A boʻlimining talab qilib olinguncha boʻlgan depozitlari (mln soʻmda)<sup>46</sup>**

No	Kategoriyalar	2014	2015	2016	2017	2018
	Jami talab qilib olinguncha depozitlar	17039,0	23 313,0	27 199,0	32 135,0	39 335,0
1	Jismoniy shaxslar	3 847,3	5 975,1	6 532,8	6 949,3	8 269,5
2	Davlat korxonolari	4 226,9	3 854,9	5 261,9	6 182,5	8 972,6
3	Qoʻshma korxonalar	1 962,8	4 474,0	6 107,0	7 336,5	7 679,1
4	Korporatsiyalar	3 688,2	5 129,2	5 001,4	6 802,8	5 817,1
5	Boshqa talab qilib olinguncha depozitlar	3 313,8	3 879,8	4 295,9	4 863,9	8 596,7

Jadval maʼlumotlariga koʻra, bankning jami talab qilib olinguncha depozitlari 2014-yil holatiga 17 039,0 mln soʻmni, 2015-yil holatiga 23 313,0 mln soʻmni, 2017- yil holati 27 199,0 mln soʻmni, 2018-yil holatiga esa 39 335,0 mln soʻmni tashkil etgan. Jami depozitlar tarkibida davlat korxonolari, jismoniy shaxslar hamda qoʻshma korxonalarining talab qilib olinguncha depozitlari katta miqdorni tashkil etgan. Shu bilan bir qatorda, korporatsiyalarning hamda boshqa talab qilib olinguncha depozitlarda ham ijobiy oʻzgarishlar boʻlgan.

Bankning jalb qilingan mablagʻlari tarkibida muddatli depozitlar va jamgʻarma depozitlar juda kichik salmoqni tashkil etgan. Bankning jalb qilingan mablagʻlari tarkibida bu mablagʻlar ulushining kichikligidan kelib chiqadigan

<sup>46</sup> Manba: “Milliy bank” A boʻlimining yillik hisobot maʼlumotlari asosida hisoblangan.

bo'lsak, bank o'zining aktiv operatsiyalarini asosan banklararo kreditlar va talab qilib olinguncha bo'lgan depozitlar hisobiga amalga oshirganligidan dalolat beradi.

Umuman olganda, bank faoliyatini yanada rivojlantirish uchun bankning talab qilib olinguncha depozitlari qulay resurs bo'lmasada, biroq ushbu resurslar orqali qisqa muddatli resurslarga bo'lgan talabni qondirish mumkin.

Har bir bank uchun muddatli depozitlar muhim ahamiyat kasb etadi. Jadval tahlilidan ko'rinadiki, bankning muddatli depozitlaridagi ijobiy o'zgarishlari u o'zining faoliyatini kengaytirish uchun oldingi yillarga nisbatan ancha ko'p miqdorda muddatli depozitlarni jalb qilgan. Bankning muddatli depozitlari tarkibida davlat korxonalar va jismoniy shaxslardan jalb qilingan mablag'lar yuqori salmoqni tashkil etgan. Shuningdek, bank tomonidan olib borilgan depozit siyosati natijasida, qo'shma korxonalar va boshqa mijozlardan ham muddatli depozitga pul mablag'lari jalb qilinganini ko'rishimiz mumkin. Umuman olganda, muddatli depozitlar tarkibidagi ijobiy o'zgarishlar bank aktivlarining sifatiga o'z ta'sirini ko'rsatmasdan qolmaydi.

7.3-jadval

**TIF “Milliy bank” A bo‘limining muddatli depozitlari**  
(mln so‘mda)<sup>47</sup>

№	Kategoriyalar	2014	2015	2016	2017	2018
	Jami muddatli depozitlar	4 732,0	6 632,0	8 158,0	10 905,0	14 668,0
1	Hukumat	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
2	Jismoniy shaxslar	1 971,9	2 300,8	2 945,2	3 647,0	6 214,0
3	Davlat korxonalar	2 379,2	4 015,2	4 152,3	4 325,0	4 941,3
4	Qo'shma korxonalar	10,0	65,0	66,0	170,0	565,7
5	Korporatsiyalar	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
6	Boshqa muddatli depozitlar	370,9	251,0	994,5	2 763,0	2 947,0

Bankning depozit mablag'lari tarkibida bir yildan yuqori muddatga jalb qilingan 18 foizga yaqin bo'lgan ulushni tashkil qilayotganini ko'rishimiz mumkin.

<sup>47</sup>Manba: “Milliy bank” A bo‘limining yillik hisobot ma’lumotlari asosida hisoblangan.



Bank tomonidan muddatli va jamg'arma depozitlar asosan bir yilgacha bo'lgan muddatga jalb qilingan. Ammo ularning asosan 70 % muddatsiz jalb qilingan depozitlardir.

TIF "Milliy bank" A bo'limi tomonidan depozitlarni jalb qilish borasida birmuncha ijobiy natijalarga erishilganligi keltirilgan jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdi. Bank jalb qilayotgan depozitlarini shu tarzda olib boradigan bo'lsa, bu bank uchun depozitlardan unumli foydalanish imkonini beradi, shuningdek, bankning yuqori daromad keltiruvchi barqaror aktivlarini ko'proq shakllantirish uchun zamin yaratadi.

Jismoniy hamda yuridik shaxslar omonatlarini hisobini yuritish uchun "O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida buxgalteriya hisobi hisobvaraqlar rejasi"da ([№773-17](#), 2004-yil 13-avgust) belgilangan hisobvaraqlarda 20ta belgili shaxsiy hisobvaraqlar ochiladi. Jismoniy shaxslarga ochilgan hisobvaraqlar belgilangan tartibda bank depozitorlari milliy axborot bazasida ro'yxatga olinadi.

Jismoniy shaxslarga shaxsiy hisobvaraqlar omonat qabul qilingandan so'ng, bankning omonat kassasida nazoratchi tomonidan ochiladi. Shaxsiy hisobvaraqlar har bir omonatga alohida ochiladi. Ikki yoki undan ortiq shaxslarga bitta shaxsiy hisobvaraqlar ochilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Shaxsiy hisobvaraqlar har bir omonat bo'yicha qat'iy ketma-ketlikda izchil ravishda raqamlanadi. Bir xil raqamlashga yo'l qo'yilmaydi. Agar bitta raqam bilan ikkita shaxsiy hisobvaraqlar ochilgan bo'lsa, ulardan biri omonatchi omonat kassaga kelganda yopilishi lozim.

Shaxsiy hisobvaraqlar omonat va unga hisoblangan foizlar to'liq to'langandan yoki omonatchining kelmaganligi sababli omonat boshqa hisobvaraqlar (harakatsiz hisobvaraqlar) o'tkazilgandan keyin yopiladi. Yopilgan shaxsiy hisobvaraqlar raqamlari qayta tiklanmaydi va boshqa shaxsiy hisobvaraqlarni raqamlashda foydalanilmaydi.

Shaxsiy hisobvaraqlar omonatchilarga bir martalik operatsiya uchun omonat daftarchasi berilmagan holda

ochilishi mumkin. Bunda bank omonati shartnomasida va omonatchi tomonidan shaxsiy hisobvaraqa ochish uchun yozilgan arizada “omonat daftarchasi rasmiylashtirilmagan holda” deb ko‘rsatilishi lozim.

Pul mablag‘lari qonun hujjatlariga muvofiq naqd pulsiz shaklda omonatchining shaxsiy hisobvaraqiga kelib tushgan hollarda, pul mablag‘lari arizada ko‘rsatilgan hisobvaraqa omonat daftarchasi rasmiylashtirilmagan holda o‘tkaziladi yoki naqd pulda to‘lab beriladi. Shaxsiy hisobvaraqa varaqchalari avval omonat turlari (“talab qilib olinguncha saqlanadigan”, “muddatli”, “jamg‘arma”) bo‘yicha, so‘ngra har bir omonat turi va unga o‘rnatilgan tartib raqami asosida o‘sib borish tartibida kartotekaga joylashtiriladi. Shaxsiy hisobvaraqa varaqchasi to‘lganda, yangi qo‘shimcha shaxsiy hisobvaraqa varaqchasi tuziladi va to‘lgan shaxsiy hisobvaraqa varaqchasidagi zarur ma‘lumotlar, omonat qoldig‘i va foizlari yangi qo‘shimcha shaxsiy hisobvaraqa varaqchasiga o‘tkaziladi. To‘lgan shaxsiy hisobvaraqa varaqchasida nazoratchi yangi varaqchani tartib raqamini ko‘rsatadi va imzo qo‘yadi.

Yangi shaxsiy hisobvaraqa varaqchasida omonatchining imzo namunasi uchun joy chizib qo‘yiladi. Nazoratchi ochilgan yangi qo‘shimcha shaxsiy hisobvaraqa varaqchasini imzolaydi. Shaxsiy hisobvaraqlar bo‘yicha barcha ochilgan yangi qo‘shimcha shaxsiy hisobvaraqa varaqchalarining yuqori o‘ng burchagiga shaxsiy hisobvaraqa varaqchasining tartib raqami qo‘yiladi.

Shaxsiy hisobvaraqa bo‘yicha bir necha shaxsiy hisobvaraqa varaqchasi to‘lgan bo‘lsa, amaldagi kartotekada faqat joriy yil uchun shaxsiy hisobvaraqa varaqchasi va birinchi shaxsiy hisobvaraqa varaqchasi saqlanadi.

Birinchi shaxsiy hisobvaraqa varaqchasidan tashqari boshqa to‘lgan shaxsiy hisobvaraqa varaqchalari shaxsiy hisobvaraqa yopilgunga qadar omonat bo‘linmasida joriy yilda yopilgan shaxsiy hisobvaraqa varaqchalaridan alohida kartotekada saqlanadi.

Yil yakunlanib, yillik hisobotlar tuzilgandan so‘ng yopilgan shaxsiy hisobvaraqa varaqchalari bo‘yicha tartib raqami, shaxsiy hisobvaraqa raqami, omonatchining

familiyasi, ismi va otasining ismi ko'rsatilgan ro'yxat tuzilib, unga barcha yopilgan shaxsiy hisobvaraqa varaqchalarini ilova qilgan holda omonat bo'linmasiga topshiriladi.

Omonat bo'linmasi tomonidan barcha omonat kassalar bo'yicha yopilgan shaxsiy hisobvaraqa varaqchalari bo'yicha uch nusxada umumlashtirilgan ro'yxat tuziladi va bank filiali rahbari, bosh buxgalter va omonat bo'linmasi boshlig'i tomonidan imzolanadi.

Ro'yxatning birinchi nusxasi omonat bo'linmasida qoladi, ikkinchi nusxasi omonat kassasiga qaytariladi, uchinchi nusxasi esa yopilgan Shaxsiy hisobvaraqa varaqchalari bilan saqlash uchun bank filiali arxiviga beriladi. Omonat kassasi Bosh bank rahbarining buyrug'iga asosan yopilganda, mazkur omonat kassasi omonatchilarning shaxsiy hisobvaraqa varaqchalari buyruqda ko'rsatilgan boshqa omonat kassasiga o'tkaziladi.

Omonat bo'linmasi harakatsiz omonatlarning har bir omonat kassasi va har bir omonat turi bo'yicha umumiy summasiga memorial orderini tuzadi va uni ro'yxatga biriktiradi. Harakatsiz omonatlar bo'yicha shaxsiy hisobvaraqlardagi qoldiq summalar 842 - tartib raqami bilan ochilgan "20206 - Jismoniy shaxslarning talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlari" hisobvaraqida ochilgan mos shaxsiy hisobvaraqa o'tkaziladi.

Harakatsiz omonatlar bo'yicha shaxsiy hisobvaraqa varaqchalari bank filiali yoki uning qoshidagi markaziy omonat kassasida alohida kartotekada saqlanadi. Dasturiy ta'minotga ega bo'lgan banklarda harakatsiz omonatlar bo'yicha shaxsiy hisobvaraqa varaqchalari har bir omonat kassasining o'zida alohida kartotekada saqlanadi va ushbu hisobvaraqlar bo'yicha operatsiyalar bajarilmasligi uchun omonat bo'linmasi tomonidan omonatchi kelgunga qadar dasturda taqiq qo'yiladi.

Omonat bo'linmasida harakatsiz omonatlarning har bir turiga alohida shaxsiy hisobvaraqa varaqchasi rasmiylashtiriladi. Shaxsiy hisobvaraqa varaqchasida omonat kassasi raqami, sana, harakatsiz omonat nomi, shaxsiy hisobvaraqa

raqami va harakatsiz omonatni rasmiylashtirgan nazoratchi hamda omonat bo'linmasining mas'ul xodimi imzosi ko'rsatiladi.

Omonat bo'linmasida harakatsiz omonatlarning har bir turi bo'yicha alohida yig'majild yuritiladi. Yig'majild ichiga omonat kassalaridan berilgan harakatsiz omonatlar ro'yxati, omonat kassalarining raqami o'sib borish tartibida tikiladi.

Harakatsiz omonatlar 842 - tartib raqami bilan ochilgan "20206 - Jismoniy shaxslarning talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlari" hisobvarag'ida omonatchi kelgunga qadar saqlanadi. Harakatsiz shaxsiy hisobvaraqlar bo'yicha foizlar (ular bo'yicha o'zgarishlarni hisobga olib), omonatchi kelgan paytda harakatsiz omonatning shaxsiy hisobvaraqda saqlangan muddati uchun hisoblanadi.

*Jismoniy shaxslardan mablag'larni omonatga qabul qilish.*

Omonatchidan boshlang'ich mablag'ni qabul qilishdan oldin, nazoratchi omonatchini omonat shartlari bilan tanishtirishi shart.

Omonatchi shartnoma shartlariga rozi bo'lgan taqdirda, unga omonat hisobvarag'i ochiladi va shaxsiy hisobvaraqlar varaqchasi rasmiylashtiriladi. Omonatchi tomonidan kirim orderi, so'nggi nazoratga xabarnoma va shaxsiy hisobvaraqlar varaqchasi imzolanadi va nazoratchiga taqdim etiladi.

Nazoratchi kirim orderi va so'nggi nazoratga xabarnoma to'g'ri to'ldirilganligiga ishonch hosil qilgandan so'ng, omonatchidan omonatni qabul qilish uchun kirim orderini kassirga beradi.

Kassir omonat summasini sanab oladi va kirim orderida ko'rsatilgan summa bilan solishtiradi hamda summalar mos kelganda kirim orderini imzolab nazoratchiga qaytaradi.

Nazoratchi kirim orderi asosida kompyuter dasturiga boshlang'ich omonat summasini kiritadi va shaxsiy hisobvaraqlar varaqchasiga omonatchining shaxsiy hisobvarag'i raqami, familiyasi, ismi va otasining ismi, tug'ilgan yili va joyi hamda manzili haqidagi ma'lumotlarni yozib qo'yadi. Omonatchi shaxsiy hisobvaraqlar

varaqqhasining “omonatchi” satriga o‘z imzosini qo‘yadi. Ushbu imzo omonatchining imzo namunasi bo‘lib hisoblanadi. Nazoratchi omonatchining imzo namunasi omonatchining shaxsini tasdiqlovchi hujjatdagi imzo bilan solishtirishi shart.

Omonat daftarchasi ochilganda va yopilganda kassir, nazoratchi, bosh buxgalter va filial rahbari tomonidan imzolanadi. Omonat daftarchasida qayd etiladigan boshqa kirim va chiqim operatsiyalari nazoratchi va kassir tomonidan imzolanadi. Agar omonatchi voyaga etmagan bo‘lsa, shaxsiy hisobvaraqq varaqqhasining “tug‘ilgan yili” satrida omonatchining tug‘ilgan yili, kuni va oyi to‘liqq ko‘rsatiladi. Ushbu ma‘lumotlar so‘nggi nazoratqa xabarnomaga ham yoziladi.

Boshlang‘ich mablag‘ omonatchining vakilidan qabul qilingan hollarda, shaxsiy hisobvaraqq varaqqhasining birinchi (bo‘sh) ustunida va kirim orderida (chap tomonida) “omonatni qo‘ygan shaxs imzosi” satri oldida va so‘nggi nazoratqa xabarnomaga “Omonatni kiritdi” deb yoziladi va vakilning familiyasi, ismi va otasining ismi yoziladi.

Boshlang‘ich mablag‘ omonatchining vakilidan qabul qilingan hollarda, omonatchi omonat kassasiga kelganda so‘nggi nazoratqa xabarnomani to‘ldiradi va shaxsiy hisobvaraqq varaqqhasiga imzosini qo‘yadi.

Nazoratchi so‘nggi nazoratqa xabarnomadagi omonatchining imzosini omonatchining shaxsini tasdiqlovchi hujjatidagi imzo bilan solishtiradi, sanani qo‘yadi va imzolaydi.

O‘n to‘rt yoshga to‘lmagan voyaga yetmagan shaxs nomiga qo‘yilgan omonat bo‘yicha shaxsiy hisobvaraqq varaqqhasi va so‘nggi nazoratqa xabarnomaga nazoratchi “Omonatni ota-ona ruxsati bilan boshqarish”, “Omonatni farzandlikka oluvchilar ruxsati bilan boshqarish” yoki “Omonatni vasiy ruxsati bilan boshqarish” degan yozuvni kiritadi va imzolaydi. Bunda, shaxsiy hisobvaraqq varaqqhasining “omonatchi” satriga va so‘nggi nazoratqa xabarnomaga omonatchi faqat o‘n to‘rt yoshga to‘lgandan keyin imzo qo‘yadi.

O'n to'rt yoshga to'lmagan voyaga yetmagan shaxs nomiga qo'yilgan omonat bo'yicha omonatchining ota-onasi, farzandlikka oluvchisi yoki vasiysi so'nggi nazoratga xabarnomaga o'n to'rt yoshga to'lmagan voyaga yetmagan shaxsning tug'ilgan yili, oyi va kuni, omonatchining ota-onasi, farzandlikka oluvchisi yoki vasiysi ekanligini tasdiqlovchi hujjat ma'lumotlarini yozib, imzolaydi hamda shaxsiy hisobvaraqa varaqchasining "omonatchi" satriga imzo qo'yadi.

Nazoratchi tomonidan o'n to'rt yoshga to'lmagan voyaga yetmagan shaxsning ota-onasi, farzandlikka oluvchisi yoki vasiysining imzosi ularning shaxsini tasdiqlovchi hujjatdagi imzo bilan taqqoslanadi hamda taqdim etilgan hujjatlarga asosan haqiqatdan ham omonatchining ota-onasi, farzandlikka oluvchisi yoki vasiysi ekanligi tekshiriladi.

Omonatga qo'shimcha mablag'lar qabul qilishda omonatchi nazoratchiga omonat daftarchasini va shaxsini tasdiqlovchi hujjatni taqdim qilishi shart. Omonatga omonatchidan qo'shimcha mablag'lar qabul qilish So'nggi nazoratga xabarnomani to'ldirilmadan, u 2205-sonli Yo'riqnomada belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Nazoratchi kartotekadagi shaxsiy hisobvaraqa varaqchasidagi omonatchining familiyasi, ismi, otasining ismini, imzosini va omonat qoldig'ini omonat daftarchasidagi ma'lumotlar bilan solishtiradi hamda kirim orderi asosida kompyuter dasturi va omonat daftarchasiga qo'shimcha mablag' summasini kiritadi.

Omonat daftarchasi va shaxsiy hisobvaraqa varaqchasidagi omonat qoldig'i bo'yicha farq bo'lgan hollarda (naqd pulsiz hisob-kitoblar bo'yicha omonat kirim qilingan summadagi farqdan tashqari) bu haqda nazoratchi omonat bo'linmasi boshlig'iga xabar beradi.

Omonat bo'yicha navbatdagi operatsiya farq sabablari aniqlanib, bartaraf etilgandan keyin amalga oshiriladi.

Ushbu vazifalar amalga oshirilganda esa quyidagicha buxgalteriya amallari amalga oshiriladi:

*Aholi omonatlari qabul qilishdagi buxgalteriya o'tkazmalari:*

Debet - 10101- kassadagi pul mablag'lari;

Kredit - 20206 – Jismoniy shaxslarning talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlari.

Yuridik shaxslar tomonidan mablag'larni depozitga qo'yishda quyidagi buxgalteriya o'tkazmalari amalga oshiriladi:

Debet- 10101 Kassadagi pul mablag'lari;

Kredit- 20208 – Xususiy korxonalar, xo'jalik shirkatlari va jamiyatlarning talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlari.

*Jismoniy shaxslarga omonatni berish.*

Omonatchi o'z omonatini to'liq yoki qisman qaytarib olish uchun chiqim orderini to'ldirib, omonat daftarchasi (omonat daftarchasi berilmagan yoki omonat daftarchasi yo'qolgan hollar bundan mustasno) va shaxsini tasdiqlovchi hujjat bilan birga nazoratchiga taqdim qiladi.

Nazoratchi omonatni berishda quyidagilarni amalga oshiradi:

- shaxsini tasdiqlovchi hujjat asosida omonatchining shaxsi va omonat daftarchasi unga tegishli ekanligini aniqlaydi;

- shaxsni tasdiqlovchi hujjat va omonat daftarchasidagi ma'lumotlarni va shaxsiy hisobvaraqa varaqchasidagi ma'lumotlar bilan solishtiradi;

- chiqim orderi to'g'ri to'ldirilganligini tekshiradi va undagi imzoni shaxsiy hisobvaraqa varaqchasidagi imzo namunasi bilan solishtiradi;

- shaxsiy hisobvaraqa varaqchasiga va chiqim orderiga operatsiya sanasi, berilgan summa, operatsiyadan keyin omonat qoldig'i, hisoblangan foizlar summasi va operatsiyadan keyin foizlar qoldig'ini kiritadi va imzolaydi;

- omonat daftarchasiga operatsiya bo'yicha amalga oshirilgan sanani ko'rsatadi, berilgan summani raqam bilan, omonat qoldig'ini raqam va so'z bilan yozadi;

- omonat daftarchasi, shaxsni tasdiqlovchi hujjat va chiqim orderini kassirga beradi;

- kassir omonatni berishda quyidagilarni amalga oshiradi:

- nazoratchidan qabul qilingan hujjatlar bo'yicha beriladigan summani tayyorlaydi;

- chiqim orderining to'g'ri rasmiylashtirilganligi va omonat daftarchasiga kiritilgan operatsiya bo'yicha yozuvlar to'g'riligini tekshiradi va ularni imzolaydi;

- omonatchini taklif etadi va pul, omonat daftarchasi (omonat qisman olinganda) va shaxsni tasdiqlovchi hujjatni qaytarib beradi.

Omonat summasi shaxsiy hisobvaraqqqa naqd pulsiz kelib tushganda va omonatchi omonatni to'liq oladigan bo'lsa, omonatchining shaxsini tasdiqlovchi hujjat haqidagi ma'lumotlarni chiqim orderining orqa tomoniga yozadi va imzolaydi. Nazoratchi zarur hollarda omonat summasini oluvchidan chiqim orderining orqa tomoniga takroran imzo qo'yishini talab qilish huquqiga ega. Omonat kassalarida omonatchilarning omonatlarini o'z vaqtida berilishini ta'minlash maqsadida "Aholi omonatlari bo'yicha naqd pul mablag'larini berilishida omonatchilarning murojaatlarini qayd etish daftari" yuritiladi.

Omonatchi omonatini ishonchli vakili orqali olish mumkin. Bunda omonatchi vakiliga belgilangan tartibda ishonchnoma rasmiylashtirishi shart. Ishonchnoma uch yil muddatgacha beriladi. Agar ishonchnomada amal qilish muddati ko'rsatilmagan bo'lsa, u holda ishonchnoma berilgan kundan boshlab bir yil davomida o'z kuchini saqlaydi. Ishonchnoma bo'yicha omonatni berishda nazoratchi ishonchnoma to'g'ri rasmiylashtirilganligini, amal qilish muddati tugamaganligini va omonatchining ishonchnomadagi imzosini shaxsiy hisobvaraqq varaqqhasidagi imzo namunasi bilan solishtiradi.

Nazoratchi ishonchli vakildan shaxsini tasdiqlovchi hujjatini talab etadi va chiqim orderidagi imzo namunasi taqdim etilgan shaxsni tasdiqlovchi hujjatdagi imzosi bilan solishtiradi.

Ishonchli vakilning shaxsini tasdiqlovchi hujjat ma'lumotlari chiqim orderining orqa tomoniga va so'nggi nazoratga xabarnomaga yoziladi. Omonat kassasiga ishonchnomaning asl nusxasi taqdim etiladi va nazoratchi tomonidan ishonchnomadan ikki (ishonchnoma bir martalik omonat operatsiyasi bo'yicha berilganda bir nusxa) nusxa olinadi. Ishonchnomaning birinchi nusxasi



(ishonchnoma bir martalik omonat operatsiyasi bo'yicha berilganda asl nusxasi) kunlik hisobot tarkibida so'nggi nazorat uchun omonat bo'linmasiga beriladi va kartotekada saqlanadi. Ishonchnomaning ikkinchi nusxasi ishonchnoma bergan omonatchining shaxsiy hisobvaraqa varaqqasiga tikiladi va omonat kassasida qoladi.

Ishonchnomaning amal qilish muddati tugagach (ishonchnoma bekor qilingach), omonat kassasida saqlanayotgan ishonchnomaning nusxasi kartotekadan olinib, belgilangan tartibda arxivga topshirish uchun omonat bo'linmasiga beriladi.

Omonatchi ishonchnomani istalgan vaqtda bekor qilish huquqiga ega. Ishonchnoma bekor bo'lganligi haqida omonatchi (uning huquqiy vorislari) omonatdan foydalanish uchun ishonchnoma berilgan omonat bo'yicha shaxsiy hisobvaraqa ochilgan bank yoki uning filialiga yozma ravishda ma'lum qilishi shart. Ishonchnoma bekor bo'lgan va bu haqda omonatchi (uning huquqiy vorislari) tomonidan o'z vaqtida bankka yoki uning filialiga yozma ravishda xabar berilmagan hollarda, ishonchnoma bo'yicha berilgan omonat uchun bank javobgar hisoblanmaydi.

Omonatchi "harakatsiz omonat" maqomi berilgan omonatni olish uchun omonat kassasiga omonat daftarchasi (omonat daftarchasi berilmagan yoki omonat daftarchasi yo'qolgan hollar bundan mustasno), shaxsini tasdiqlovchi hujjat va ariza taqdim etadi hamda arizaga bank filiali rahbari va bosh buxgalteri ruxsat imzolarini qo'ygandan so'ng, 842 — tartib raqami bilan ochilgan "20206 - jismoniy shaxslarning talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlari" hisobvarag'idan mablag'lar beriladi.

Omonatchi "harakatsiz omonat" maqomi berilgan omonatning bir qismini olganda, belgilangan tartibda yangi shaxsiy hisobvaraqa ochiladi va harakatsiz omonat qoldig'i barcha tegishli foizlari bilan yangi ochilgan shaxsiy hisobvaraqa o'tkaziladi va omonatning bir qismi yangi shaxsiy hisobvaraqadan beriladi.

Nazoratchi "harakatsiz omonat" maqomi berilgan omonatni yangi shaxsiy hisobvaraqa o'tkazish uchun

tuzilganda naqd pulsiz chiqim orderining orqasiga omonatchining shaxsini tasdiqlovchi hujjat ma'lumotlarini yozib, ularni imzosi bilan tasdiqlaydi va omonatchiga naqd pulsiz chiqim orderiga imzo qo'ydiradi hamda yangi omonat daftarchasini rasmiylashtiradi.

O'n olti yoshga to'lmagan omonatchining shaxsini tasdiqlash uchun tug'ilganlik to'g'risidagi guvohnomaga qo'shimcha ravishda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari yoki xususiy uy-joy mulkdorlari shirkati tomonidan ushbu voyaga yetmagan shaxsning rasmi yelimlab yopishtirilgan ma'lumotnoma talab etiladi. Ushbu ma'lumotnomadagi rasm ham fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari yoki xususiy uy-joy mulkdorlari shirkati muhri bilan tasdiqlanadi.

Omonat merosxo'rga omonat daftarchasi (omonat daftarchasi berilmagan yoki omonat daftarchasi yo'qolgan hollar bundan mustasno), merosga bo'lgan huquq to'g'risidagi guvohnoma yoki uning notarial tasdiqlangan nusxasini hamda shaxsini tasdiqlovchi hujjatni taqdim qilinganda, beriladi.

Merosga bo'lgan huquq to'g'risidagi guvohnoma asosida omonatdagi pul summasi nomiga o'tgan shaxs tomonidan vafot etgan omonatchining omonat daftarchasi taqdim qilinmaganda, omonat bo'linmasi so'nggi nazoratchi ma'lumotlari bo'yicha omonatchining omonat mablag'lari qoldiqlari tekshirilgandan so'ng, omonat beriladi. Merosga bo'lgan huquq to'g'risidagi guvohnoma asosida merosxo'rlarga omonatning tegishli qismi berilganda, omonatchining shaxsiy hisobvaraqa varaqchasida omonatning tegishli qismini olgan shaxs ma'lumotlari yozib qo'yiladi. Merosga bo'lgan huquq to'g'risidagi guvohnoma asosida omonat berilayotganda nazoratchi merosxo'rning shaxsini tasdiqlovchi hujjat ma'lumotlarini guvohnoma bilan solishtiradi hamda merosga bo'lgan huquq to'g'risidagi guvohnomani yoki uning notarial tasdiqlangan nusxasini olib qoladi.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 157-moddasiga muvofiq vafot etgan omonatchining qonun bo'yicha ham vasiyatnoma bo'yicha ham merosxo'rlari

bo'lmasa yoki merosxo'rlardan hech qaysisi vorislik huquqiga ega bo'lmasa yoxud ularning hammasi merosdan voz kechgan bo'lsa, meros omonati egasiz deb hisoblanadi.

Meros omonati meros ochilgan joydagi mahalliy davlat hokimiyati organi yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organining arizasi bo'yicha meros ochilgan kundan e'tiboran uch yil o'tgandan so'ng, sudning qarori asosida egasiz deb topiladi.

Egasiz omonat u turgan joydagi fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi mulkiga o'tadi, bu organ omonatdan voz kechgan taqdirda, davlat foydasiga o'tadi. Dastlabki omonatni qabul qilgan bank filiali qayerda joylashganligidan qat'iy nazar, shu bankning barcha filiallari tomonidan omonatchining birinchi talabiga ko'ra naqd pul mablag'lari cheklanmagan tarzda beriladi.

Bunda omonatchi tegishli filial rahbari nomiga yozma ravishda ariza bilan murojaat qiladi. Arizada omonat qaysi bank filialiga qo'yilganligi, uning summasi, omonat turi, muddati va foizlari ko'rsatiladi hamda olinadigan omonat summasining miqdori qayd etiladi.

Ariza filial rahbari tomonidan darhol ko'rib chiqilib, arizaga o'z rezolyutsiyasini qo'ygan holda ijro uchun omonat bo'linmasiga beriladi. Bank filiali nazoratchisi omonatchini arizasiga muvofiq chaqirib, undan shaxsini tasdiqlovchi hujjat va omonat daftarchasini oladi. Nazoratchi omonat daftarchasining ichki tomoni birinchi betida qayd qilingan ma'lumotlarning mavjudligini tekshiradi.

Omonatchi chiqim orderini to'ldirib, omonat bo'linmasi mas'ul xodimiga beradi. Omonat bo'linmasi mas'ul xodimi omonat daftarchasida qayd qilingan ma'lumotlarni omonatchining shaxsini tasdiqlovchi hujjat bilan solishtiradi va ularni o'zaro mos ekanligiga ishonch hosil qilgandan so'ng, kompyuter dasturiga kiritadi.

Kiritilgan ma'lumotlarni mazkur bankning yagona axborot bazasi bilan mos kelishini solishtiradi hamda omonatchining shaxsiy hisobvarag'ida mablag' borligi tasdiqlangandan so'ng chiqim orderini imzolab, kassirga beradi.

Kassir chiqim orderi va arizada ko'rsatilgan summani taqqoslab, to'g'riligiga ishonch hosil qilgandan so'ng tegishli mablag'ni omonatchiga beradi. Omonatchiga omonat mablag'ini bergan bank filiali chiqim orderini darhol elektron pochta manzili orqali shaxsiy hisobvaraqa varaqchasi ochilgan bank filialiga yuboradi.

Bank filiali elektron chiqim orderini bir nusxada qog'ozga chiqarib, uni omonatchining shaxsiy hisobvaraqa varaqchasiga qayd qiladi va chiqim amaliyotini amalga oshiradi.

Omonat summasi va unga hisoblangan foizlar to'lig'icha omonatchiga berilgan hollarda, omonat daftarchasi omonat mablag'ini bergan bank filialida qolishi lozim. Aholi yoki yuridik shaxslar tomonidan depozitlarni qaytarib olish chog'ida yuqoridagi buxgalteriya amallari teskari tarzda amalga oshiriladi. Ya'ni aholi omonatlarini qaytarib berish:

Debet - 10101- kassadagi pul mablag'lari yoki D-t 10301 – bankning vakillik hisobvarag'i;

Kredit - 20206 – Jismoniy shaxslarning talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlari.

*Omonatchi jismoniy shaxslarning shaxsiy hisobvaraqlari bo'yicha omonatlarni naqd pulsiz shaklda kirim va chiqim qilish operatsiyalari.*

Shaxsiy hisobvaraqlariga naqd pulsiz shaklda omonat kirim qilinishiga istak bildirgan jismoniy shaxslar omonat kassasiga shaxsan kelib, belgilangan tartibda ariza berishlari shart.

Jismoniy shaxslarning shaxsiy hisobvaraqlariga naqd pulsiz shaklda mablag'larni kirim qilish to'g'risida tuzilgan shartnomalar omonat bo'linmasidagi "Naqd pulsiz shaklda qabul qilinadigan omonatlar bo'yicha tuziladigan shartnomalarni ro'yxatga olish daftari"da qayd etiladi.

Yuridik shaxs xodimlarining ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlarini bank filiali bilan tuzilgan shartnoma asosida ularning shaxsiy hisobvaraqlariga o'tkazishi mumkin. Buning uchun yuridik shaxs bank filialiga xodimlarning familiyasi, ismi va otasining ismi va shaxsini tasdiqlovchi hujjat ma'lumotlari hamda yashash

manzillari qayd etilgan omonatchilar ro'yxatini taqdim qiladi.

Yuridik shaxs tomonidan xodimlarining ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar summasi to'lov topshiriqnomasi asosida o'tkaziladi va ushbu to'lov topshiriqnomasi nusxasi omonatchilar ro'yxati bilan birga omonat bo'linmasiga taqdim qilinadi. To'lov topshiriqnomasining "to'lovlar maqsadi" satrida bank filiali bilan yuridik shaxs o'rtasida tuzilgan shartnoma raqami va sanasi ko'rsatilishi shart.

Omonatchilar ro'yxatining har bir varag'ida jami summa va oxirgi varaqda jami o'tkazilgan summa ko'rsatilishi hamda yuridik shaxsning bankdagi hisobvarag'ini tasarruf etish huquqiga ega shaxslar tomonidan imzolanishi va pul-hisob-kitob hujjatlariga qo'yiladigan muhr bilan tasdiqlanishi lozim.

Omonat bo'linmasi tomonidan naqd pulsiz shaklda kelib tushgan summalarni omonatchilarning tegishli shaxsiy hisobvaraqlariga kirim qilinishi uchun umumiy summaga memorial order tuzilib, bank filiali rahbari va bosh buxgalteri tomonidan imzolanadi.

Memorial orderning orqa tomonida yuridik shaxsning nomi va o'tkazilgan pul summasi, omonatchilar ro'yxatida esa, memorial orderning sanasi va raqami ko'rsatilishi va memorial orderni tuzuvchi shaxs tomonidan imzolanishi shart.

Omonatchilarning shaxsiy hisobvaraqlariga naqd pulsiz shaklda kelib tushgan summalarni kirim qilish omonatchilar ro'yxati va to'lov topshiriqnomasi olingan kundan keyingi ish kunidan kechikmasdan amalga oshiriladi.

Omonatchilar ro'yxati bilan memorial order omonat kassasiga kelib tushganda, nazoratchi quyidagilarni amalga oshiradi:

- memorial orderda bank filiali rahbari va bosh buxgalterining imzosi mavjudligini tekshiradi;
- shaxsiy hisobvaraq ma'lumotlari bilan omonatchilar ro'yxatida ko'rsatilgan ma'lumotlarning mos kelishini tekshiradi;

- omonatchilarning shaxsiy hisobvarag'iga pul summasini kirim qilish uchun har bir shaxsiy hisobvaraqa bo'yicha alohida naqd pulsiz kirim orderini tuzadi, orderda omonat turi va operatsiya vaqtini ko'rsatadi;

- naqd pulsiz kirim orderlari bo'yicha umumiy summani memorial order hamda omonatchilar ro'yxatidagi summa bilan solishtiradi;

- omonat bo'yicha shaxsiy hisobvaraqa varaqchasining birinchi (bo'sh) ustunida memorial order raqamini ko'rsatib, shaxsiy hisobvaraqa varaqchasiga kelib tushgan pul summasini yozadi;

- omonatchilar ro'yxatida "omonatchilarning shaxsiy hisobvaraqlariga mazkur ro'yxat bo'yicha pul summalari kirim qilindi" degan yozuvni kiritadi, sanani qo'yadi va imzolaydi.

Shaxsiy hisobvaraqa varaqchasidagi ma'lumotlar bilan omonatchilar ro'yxatidagi ma'lumotlar mos kelmaganda, uning sabablari aniqlangunga qadar, operatsiya bajarilishi to'xtatiladi.

Omonatchining shaxsiy hisobvarag'iga naqd pulsiz shaklda kirim qilingan omonat, omonatchining yozma roziligisiz uni o'tkazgan yuridik shaxsga qaytarilishi mumkin emas.

Jismoniy shaxslarning shaxsiy hisobvaraqlariga naqd pulsiz shaklda kelib tushgan omonatlar bo'yicha omonat daftarchasi, tasdiqnoma va so'nggi nazoratga xabarnoma omonatchilar omonat kassasiga kelganda rasmiylashtiriladi.

*Aholi omonatlarini qabul qilishda:*

Debet - 10301 – bankning vakillik hisob varag'i;

Kredit- 20206 – Jismoniy shaxslarning talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlari.

*Yuridik shaxslar tomonidan mablag'larini depozitga qo'yishda quyidagi buxgalteriya o'tkazmalari amalga oshiriladi:*

Debet- 20208 – Xususiy korxonalar, xo'jalik shirkatlari va jamiyatlarning talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlari;

Kredit - 20206 – Jismoniy shaxslarning talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlari.

Omonatni “Milliybank”ning shu filialida omonatchilarga ochilgan boshqa shaxsiy hisobvaraqlarga o‘tkazish omonat daftarchasi va omonatchi tomonidan to‘ldirilgan va imzolangan naqd pulsiz chiqim orderi va so‘nggi nazoratga xabarnoma asosida amalga oshiriladi.

Nazoratchi naqd pulsiz chiqim orderidagi ma‘lumotlarni shaxsiy hisobvaraqa varaqchasi va omonat daftarchasidagi ma‘lumotlar bilan solishtirib, omonat daftarchasiga va shaxsiy hisobvaraqa varaqchasining birinchi (bo‘sh) ustuniga “\_\_\_\_\_ga (famiyasi, ismi va otasining ismi) №\_\_\_ hisobvarag‘iga o‘tkazildi” degan yozuvni kiritib, chiqim operatsiyasini yozadi.

Omonatchilarning shaxsiy hisobvaraqlaridagi omonatlarini boshqa hisobvaraqlarga (bankning shu filialida omonatchilarga ochilgan shaxsiy hisobvaraqlar bundan mustasno) o‘tkazish, ularning yozma topshirig‘i asosida to‘ldirilgan memorial orderlar orqali amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasining “Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to‘g‘risida”gi qonunining (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2001-yil, 9-10-son, 169-modda) 5-moddasiga muvofiq, ijro etilishi lozim bo‘lgan sud hujjatlari va boshqa organlarning hujjatlari asosida omonatchining shaxsiy hisobvarag‘idan mablag‘larni hisobdan chiqarish bank filiali rahbari va bosh buxgalteri tomonidan imzolangan va bank filiali muhri tushirilgan memorial order asosida amalga oshiriladi. Memorial orderga ijro hujjatlari ilova qilinishi va uning “to‘lov maqsadi” satrida ijro hujjatlarining sana va raqamlari ko‘rsatilishi shart.

Memorial orderning asl nusxasi kunlik buxgalteriya hujjatlariga, uning nusxasi va ijro hujjatlari nusxalari omonatlar bo‘yicha kunlik hisobotga tikiladi va bu ma‘lumotlar omonatchining shaxsiy hisobvarag‘i varaqchasining “Belgilar uchun” satrida qayd qilinadi.

Yuridik shaxs foydasiga vasiyat qilingan omonat mablag‘ yuridik shaxsning hisobvarag‘iga naqd pulsiz

shaklda pul o'tkazish yo'li bilan o'tkazib beriladi. Bunda, yuridik shaxsning vakili omonat daftarchasi (omonat daftarchasi berilmagan yoki omonat daftarchasi yo'qolgan hollar bundan mustasno), merosga bo'lgan huquq to'g'risidagi guvohnoma yoki uning notarial tasdiqlangan nusxasini va yuridik shaxs rahbari va bosh buxgalteri tomonidan imzolangan va muhri bilan tasdiqlangan vasiyat qilingan omonatni o'tkazish to'g'risida va tegishli ma'lumotlar ko'rsatilgan (yuridik shaxsning hisobvarag'i, bank filiali nomi va kodi, omonat ochilgan bank filiali) xatni taqdim qilishi shart.

*Omonatga foizlar to'lash tartibi.*

Tadqiqot obyektiga "Milliybank" tomonidan omonatlar bo'yicha foizlar hisoblash "Tijorat banklarida foizlarni hisoblash to'g'risida Nizom" (ro'yxat raqami 1306, 2004-yil 30-yanvar) (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2004- yil, 4-son, 51-modda) asosida amalga oshiriladi.

Bank omonati shartnomasida to'lanadigan foizlar miqdori haqida ma'lumot shart bo'lmagan taqdirda, bank talab qilib olinguncha saqlanadigan omonatlarga to'lanadigan miqdorda foizlar to'lashi shart.

Agar bank omonati shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, bank talab qilib olinguncha saqlanadigan omonatlarga to'lanadigan foizlar miqdorini o'zgartirish huquqiga ega.

Bank foizlar miqdorini kamaytirgan taqdirda, foizlarning yangi miqdori foizlar kamaytirilganligi haqida omonatchilarga xabar berilganidan keyin qo'yilgan omonatlarga nisbatan qo'llanadi. Agar bank omonati shartnomasida boshqa muddat nazarda tutilgan bo'lmasa, ushbu xabarga qadar qo'yilgan omonatlarga nisbatan kamaytirilgan foizlar miqdori tegishli xabar berilgan paytdan bir oy o'tganidan keyin qo'llanadi.

Bank omonat foizlari miqdorini kamaytirganligi haqida har bir omonatchini rasmiy ravishda xabardor qilishi lozim.

Jamg'arma va muddatli omonatlar bo'yicha bank omonati shartnomasida belgilangan foizlar miqdorini, agar shartnomada boshqacha tartib belgilangan bo'lmasa, bank



tomonidan bir tomonlama kamaytirilishi mumkin emas. Ushbu omonatlar bo'yicha mablag'lar omonatchining talabi bilan unga qaytarilgan hollarda, agar shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lsa, omonat bo'yicha foizlar to'lanmaydi.

Bank omonati summasiga foizlar omonat bankka tushgan kunning ertasidan boshlab, to u omonatchiga qaytarilgan yoki boshqa asoslarga ko'ra omonatchining hisobvarag'idan o'chirilgan kundan oldingi kungacha yoziladi. Omonatchining hisobvarag'i xatlanganligi oqibatida bank ushbu hisobvaraqdagi mablag'lardan foydalana olmagan davr uchun foizlar yozilmaydi.

Agar bank omonati shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lsa, bank omonati summasiga foizlar har bir oy o'tganidan keyin omonatchining talabi bilan omonat summasidan alohida to'lanadi, bu muddatda talab qilib olinmagan foizlar esa foizlar yoziladigan omonat summasiga qo'shib boriladi.

Omonatga topshirilgan mablag' qo'yilgan kunning o'zida to'liq yoki qisman qaytadan berilsa, foizlarni hisoblashda omonat berilgan kun hisobga olinmaydi.

Qo'shimcha mablag'lar qabul qilinganda, foizlar hisoblash uchun operatsiya amalga oshirilgan kundan keyingi kundan boshlab, to u omonatchiga qaytarilgan yoki boshqa asoslarga ko'ra omonatchining hisobvarag'idan o'chirilgan kundan oldingi kungacha yoziladi.

Banklar omonatchilar bilan kelishilgan holda omonat bo'yicha foizlarni oldindan to'lab berishi mumkin. Agar omonatchi omonat summasini muddatdan oldin olish niyati bo'lsa va omonatning haqiqatda saqlangan muddatiga hisoblangan foizlar summasi bo'nak tariqasida oldindan berib yuborilgan summadan kam bo'lsa, o'rtadagi farq omonat summasidan chegirib qolinadi.

Talab qilib olinguncha saqlanadigan omonat omonatchining talabi bilan, shuningdek, muddatli va jamg'arma omonatlar muddati tugashi bilan qaytarilganda, shu paytgacha yozilgan hamma foizlar to'lanadi.

Omonatchi jismoniy shaxslar tomonidan bir necha yillar uchun hisoblangan foizlar yozilmagan omonat

daftarchasi taqdim qilinganda, bu foizlar summasi omonat daftarchasida har bir yil uchun alohida yoziladi, omonat qoldig'i esa, oxirgi yil uchun hisoblangan foizlar yozuvidan keyin, foizlar summasini qo'shgan holda, so'z bilan yoziladi.

Muddatli depozitlarga foiz to'lashda quyidagi buxgalteriya o'tkazmalari amalga oshiriladi:

Aholi omonatlari bo'yicha: Dastlab foizlar hisoblanadi:

Debet - 51106 - Jismoniy shaxslarning muddatli depozitlari bo'yicha foizli xarajatlar;

Kredit- 22405 - Muddatli depozitlar bo'yicha hisoblangan foizlar.

So'ngra hisoblangan foizlar to'lanadi:

Debet- 22405 - Muddatli depozitlar bo'yicha hisoblangan foizlar;

Kredit- 20206 - Jismoniy shaxslarning talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlari.

Yuridik shaxslar bo'yicha: demak, birinchidan banklar tomonidan muddatli depozitlarga foizlar hisoblanadi. Ya'ni, quyidagicha:

Debet-51108 - Xususiy korxonalar, xo'jalik shirkatlari va jamiyatlarining muddatli depozitlari bo'yicha foizli xarajatlar;

Kredit- 22405 - Muddatli depozitlar bo'yicha hisoblangan foizlar.

Hisoblangan foizlar esa mijozlarga to'lanadi:

Debet- 22405 - Muddatli depozitlar bo'yicha hisoblangan foizlar;

Kredit-20208 - Xususiy korxonalar, xo'jalik shirkatlari va jamiyatlarning talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlari.

### **7.3. MHXS asosida banklarda depozitlar hisobini takomillashtirish**

Rivojlangan mamlakatlar bank amaliyotida depozitlarni jalb etish holatini taqqoslama tarzda o'rganish respublikamiz tijorat banklari depozitlarini samarali boshqarish yuzasidan chora-tadbirlar va tegishli siyosatni ishlab chiqishda muhim hisoblanadi E'tirof etish lozimki,

rivojlangan mamlakatlar bank amaliyotida bank depozitlarini boshqarish yuzasidan maʼlum darajada tegishli tajriba va andozalar mavjudki, ularning ijobiy jihatlarini mamlakatimiz tijorat banklariga tatbiq etish foydadan holi boʻlmaydi.

Xorijiy mamlakatlarda tijorat banklari depozitlari bilan bogʻliq masalalar iqtisodiyotda amalga oshirilayotgan islohotlar doirasidan kelib chiqayotgan dolzarb vazifalar bilan hamohang tarzda amalga oshirilmoqda, aniqroq qilib taʼkidlaganda, tijorat banklari depozitlarini boshqarish qisqa muddatga moʻljallangan strategiyasi tarzida tashkil etilmoqda. Vaholanki, tijorat banklari depozitlarini samarali boshqarish masalasi uzoq muddatga moʻljallangan maʼlum strategiya va siyosat asosida amalga oshirishni talab etadi.

Rivojlangan davlatlarning depozitlari tarkibini koʻradigan boʻlsak, masalan, AQSh davlatining banklarida 2-5 foiz, Germaniya banklarida 9-15 foiz va Yaponiya banklarida 18-35 foizini muddatsiz depozitlar tashkil etmoqda. Muddatli depozitlar salmogʻi esa AQSh davlatining banklarida 60 - 66 foiz, Germaniya banklarida 30-38 foiz va Yaponiya banklarida 45-72 foizini tashkil etmoqda.<sup>48</sup>

Ushbu davlatlarda muddatli depozitlarni salmogʻi yuqoriligi sabablaridan biri banklar tomonidan aholi va yuridik shaxslarga qulay shartlar asosida depozit turlarini taklif etish hisoblanadi.

Xorijiy davlatlarda ham depozit mablagʻlarini olish boʻyicha quyidagi turlar qabul qilingan:

- 1) talab qilib olinadigan;
- 2) muddatli (aniq muddati koʻrsatilgan majburiyatlar);
- 3) shartli yoki jamgʻarma (avval kelishilgan shartlar asosida olinadigan mablagʻlar).

Xorijiy davlatlarda asosan, muddatli depozitlarni turli shartlar asosida taklif etilmoqda. Yaʼni, shulardan biri tezkor depozitlar bu – shartli depozit hisoblanib, banklar tomonidan maʼlum muddatga jalb qilinuvchi depozitlardir. Maʼlumki shaxsiy tezkor depozit bilan tezkor depozit

---

<sup>48</sup>International Financial Statistics IMF. 2012. P 5.

farqlanadi. Shaxsiy tezkor depozitlar shartnomaning shartlariga va muddatiga asoslanib, banklarga mablag'lar yetkazib berishni nazarda tutadi, ushbu muddatning tugashi natijasida hisobraqam egasi o'z depozitini xohlagan vaqtda olishi mumkin. Mijozlarga ushbu depozit uchun to'lanayotgan foizlarning yuqori bo'lishi ularning shartnoma shartlarini bajarishlari va muddatlarning uzoqligidan kelib chiqadi, ya'ni depozitlarni uzoq muddatga qo'yish yoki qo'yilayotgan depozitning ko'p bo'lishi rag'batlantirishga olib keladi. Hozirgi amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, tezkor depozitlar (1,3,6,9,12) oygacha yoki bundan ham uzoq muddatlarga rasmiylashtirilishi mumkin. Ba'zi banklar esa 10, 14, 45 va undan yuqori kunlarga depozitlarni taklif etishmoqda.

Bunday jarayonning uzoq vaqt davom etishi depozit egalariga o'z mablag'larini to'g'ri tashkil etish hamda banklar uchun ham o'z likvidliklarini boshqarib borishga sharoit yaratmoqda. Mijoz shartnomada aniq ko'rsatilgan muddatlar bo'yicha o'z depozitini olmoqchi bo'lsa, u bankni oldindan xabardor qilishi kerak. Ushbu muddatni ma'lum qilish depozitga bo'lgan foizni aniqlaydi. Tezkor depozitlar katta summada tashkil topishi va shartnoma harakatining to'liq muddat davomida o'zgarishsiz bo'lishi kerak. Tezkor depozitlardan joriy to'lovlarni tuzish mumkin emas. Agar depozit egasi o'zining depozitini o'zgartirishni xohlasa, ya'ni kamaytirish yoki o'stirishni, u harakatdagi shartnomani bekor qilib, yangi shartlar asosida o'z depozitini qaytadan rasmiylashtiradi.

Shuningdek, depozitlar muddatidan oldin olinsa, mijoz shartnomada ko'rsatilgan foizlardan qisman yoki to'liq mahrum bo'lishi mumkin. Qoidaga asosan, bu jarayonda foizlar talab qilib olinadigan depozitlardagi foizlar depozitigacha pasaytiriladi. Tezkor depozitlar shartnoma asosida mijoz bilan bank va uning boshqaruvchisi tomonidan rasmiylashtiriladi. Banklar har qanday depozitlarning turlari va tavsif bo'yicha alohida depozit shartnomalarini tuzib chiqadilar. Shartnoma ikki nusxada tashkil topib biri depozit egasida saqlanadi, ikkinchisi bankning kredit yoki depozit bo'limlarida (ushbu ish bilan

qaysi bo'lim shug'ullansa) saqlanadi. Shartnomada quyidagilar aks etadi: depozitning summasi, uning muddati, foizlar (shartnoma vaqti tugagandan so'ng mijoz bo'ladigan), hisobraqam egasining huquq va majburiyatlari, shartnomalarga rioya qilishdagi javobgarliklar va tomonlarning tortishuv tartiblari (shartnoma buzilganda).

Shuningdek, muddatli va shartli depozit shartnomalarida mijozga to'lanishi lozim bo'lgan foizlar (ustama haqilar), ya'ni mijoz daromadi aniq ko'rsatiladi.

Yuqoridagi depozitlar hisobi turli davlatlarda turlicha usullarda hisoblanadi. Quyida Belorussiya davlatining depozitlar qabul qilish va ularga foizlarni hisoblash va to'lash tartiblarini ko'rib chiqamiz.<sup>49</sup>

Belorussiya banklari tomonidan yuridik shaxslarning depozitlari hisobi quyidagi hisobraqamlarda ya'ni, 3401-3405; 3604; 3623; 3704; 3713; 3733 hisob hisobraqamlarda aks ettiriladi. Buxgalteriya amallari esa quyidagicha bajariladi.

*Yuridik shaxslar joriy talab qilib olguncha hisobraqamlardan o'tkazma amalga oshirilganda:*

Debet – 3401 “Yuridik shaxsning joriy talab qilib olguncha hisobraqami” 1 000 000;

Kredit – 3604 “Yuridik shaxsning joriy talab qilib olguncha hisobraqami” 1 000 000.

*Depozitni muddati kelganda to'lash tartibi esa:*

Debet –3604 “Yuridik shaxsning joriy talab qilib olguncha hisobraqami” 1 000 000;

Kredit – 3401 “Yuridik shaxsning joriy talab qilib olguncha hisobraqami” 1 000 000.

*Depozitga foiz hisoblash tartibi*

Debet – 9024 “Foizli xarajat” xos hisob hisobraqam 15 000;

Kredit – 3470 “Hisoblangan foizli xarajat” xos hisob hisobraqami 15 000.

*Depozitga foiz to'lash tartibi*

Debet – 3470 “Hisoblangan foizli xarajat” xos hisob hisobraqami 15 000.

---

<sup>49</sup> Савон В. Депозитные операции коммерческих банков, их оформление и учет. Автореферат. Minsk. 2009. 13, 36 с.

Kredit – 3401 “Yuridik shaxsning joriy talab qilib olguncha hisob hisobraqami” 15 000.

*Jismoniy shaxslardan mablag‘lar talab qilib olguncha depozitlarga qabul qilish tartibi*

Debet – 1010 “Kassadagi pul mablag‘lari” 1 000 000;

Kredit – 3404 “Jismoniy shaxslarning talab qilib olguncha omonatlari” 1 000 000.

Agar jismoniy shaxslar pul mablag‘larini qaytarib olishni istasa, unda yuqoridagi buxgalteriya amallari aksincha, ya’ni teskari tarzda amalga oshiriladi.

Yuqoridagi holat bo‘yicha jismoniy shaxslarga foizlar to‘lash uchun 9043 “Jismoniy shaxs omonatlari uchun foizli xarajatlar” hisob hisobraqami orqali to‘lanadi.

Shuningdek, jismoniy shaxslardan muddatli depozitlar qabul qilishda “Tijorat banklarida hisobraqamlar rejasi”ga muvofiq 3414- “Jismoniy shaxslarning muddatli omonatlari” hisob hisobraqami hamda 3424 - “Jismoniy shaxslarning shartli omonatlari” hisob hisobraqamlaridan foydalaniladi.

Tijorat banklari xo‘jalik yurituvchi shaxslar subyektlaridan depozit jalb qilishi jamiyatda yuz berayotgan ichki va tashqi siyosat, mamlakatdagi iqtisodiy munosabatlar bilan bevosita bog‘liq holda amalga oshiriladi. Ya’ni jamiyatda iqtisodiy munosabatlar tijorat banklari depozitlarni jalb qilish va depozit bazalarini mustahkamlash yuzasidan ishlab chiqilgan dastur va siyosatlarni amalga oshirishda bevosita va bilvosita ta’sir qiladi.

Shuning uchun tijorat banklarida depozit jalb qilishning buxgalteriya hisobini takomillashtirishda kuyidagi holatlarga alohida e’tibor qaratish lozim:

- mamlakatda bozor mexanizmlarining to‘liq ishlashini ta’minlashga erishish zarur. Tijorat banklari depozitlarni boshqarishida mamlakatda bozor mexanizmi hisoblangan raqobat, talab va taklif, erkin baho va tanlov kabi mexanizmlarga amal qilish darajasi juda muhim hisoblanadi;

- aholining bank tizimiga bo‘lgan ishonchini mustahkamlash zarur. Iqtisodiy hamkorlarning o‘zaro bir

biriga ishonchi bozor iqtisodiyoti rivojlanishining asosi hisoblanadi. Ishonchning yo'qolishi esa tijorat banklari faoliyatiga bevosita ta'sir etadi;

- mamlakatning tashqi iqtisodiy va siyosiy aloqalarining yanada mustahkamlash zarur. Bozor iqtisodiyoti sharoitida tijorat banklarining xorijiy banklari bilan iqtisodiy aloqalarining mustahkamlash ularning resurslariga bevosita ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ya'ni, tijorat banklariga qo'shimcha depozitlar jalb qilish imkoniyatini yaratadi.

- tijorat banklarining aholidan depozitlar jalb qilishi tartibini belgilovchi me'yoriy hujjatlar tizimini yanada soddalashtirish yoki tizimga IT texnologiyalarini jalb qilish. Ya'ni, masalan, yuridik shaxslarning depozit operatsiyalarini amalga oshirishda bugungi kunda internet-bank va shunga o'xshash tizimlardan foydalanib faoliyat ko'rsatishmoqda, demak jismoniy shaxslar tomonidan omonatlar qabul qilish jarayonlarida ham shunday tizimlardan foydalanish, aholi uchun vaqt hamda moliyaviy jihatdan samarali hisoblanadi;

- bugungi kunda tijorat banklari turli shartlar asosida jismoniy va yuridik shaxslardan depozitlar jalb etishmoqda. Bunga muddatli va jamg'arma depozitlarini misol tariqasida ko'rsatish mumkin.

Ammo shu bilan cheklanib qolmasdan, depozit va jamg'arma sertifikatlarini aholiga taklif etish hamda ularning hisobini yuritish bo'yicha yangi hisobraqamlarni joriy etish maqsadga muvofiq. Ya'ni, hozirgi kunda aholidan jamg'arma va depozit sertifikatlari buxgalteriya hisobi hisobraqamlar Rejasiga asosan 23600 hisobraqamda yuritiladi. Ularga foiz hisoblashda esa 22405 - muddatli depozitlar uchun hisoblangan foizlar hisobraqamida yuritiladi;

- bu esa muddatli depozitlar va depozit sertifikatlarini hisobini yuritishda chalkashliklarga olib kelishi mumkin. Shu sababli, depozit sertifikatlari uchun alohida 22404 - depozit sertifikatlar uchun hisoblangan foizlar hisobraqami orqali amalga oshirish lozim deb hisoblaymiz;

- mamlakatimiz tijorat banklariga xorijiy banklarning ijobiy tajribalarini tatbiq qilish foydadan holi bo'lmaydi.

Xorijiy mamlakatlar bank tizimi tajribalariga ko'ra mijoz va bank o'rtasidagi depozit shartnomalari ikki tomonlama manfaatli tuzilishi maqsadga muvofiq. Masalan, xorijiy banklarda, xususan, Angliya, Italiya bank tizimidagi shartnoma shartlarida depozitlar muddati aniq ko'rsatiladi. Shu bilan birga agar mijoz depozitning muddatida bankga murojaat qilmasa, bu muddat uzaytirilgan hisoblanadi va ushbu depozitga avtomatik ravishda, ya'ni buxgalter yoki mas'ul xodim tomonidan emas, balki dasturiy ravishda buxgalteriya o'tkazmalari o'tkaziladi. Bu esa buxgalteriya ishini yengillashtirishga olib keladi.

Masalan, mamlakatimiz tijorat banklari bunday holatda quyidagi buxgalteriya o'tkazmasini amalga oshiradi:

1) Debet - 20606 - Muddatli depozitlar hisobvrag'i;  
Kredit - 20206 - Talab qilib olinguncha depozitlar hisobvrag'i.

2) Debet - 20206 - Talab qilib olinguncha depozitlar hisobvrag'i;

Kredit - 20606 - Yangi muddatli depozit hisobraqamiga olib o'tiladi.

Yuqoridagi amallar ko'rsatib turibdiki, buxgalter tomonidan bir kunda muddati tugayotgan va muddatini uzaytirayotgan mijozlar soni ba'zida 10-20taga yetishini inobatga olsak, buxgalteriya o'tkazmalari uchun anchagina vaqt sarflanishi aniq. Shu sababli, mamlakatimiz bank tizimiga bu muammolarni xal qilish uchun dasturiy loyihalarni joriy etish lozim.

### **Nazorat savollari va topshiriqlar**

1. Moliyaviy majburiyatlar deganda nimani tushunasiz?

2. Moliyaviy majburiyatlar qanday hususiyatlarga ega?

3. Majburiyatlar tan olinishi tartibini tushuntiring.

4. Joriy majburiyatlarga tavsif bering va ularning turlarini sanab o'ting.

5. Uzoq muddatli majburiyatlarning mazmuni nimalardan iborat?

6. Uzoq muddatli majburiyatlarni baholash va o'lchashda qanday tamoyillar hisobga olinadi?



7. O'zbekiston Respublikasi bank amaliyotida tijorat banklarining majburiyatlari qanday guruhlanadi?
8. Depozitlarning mazmuni va ularning majburiyatlardagi o'rnini tushuntiring.
9. Depozitlarning turlariga izoh bering.
10. Depozitlar bo'yicha operatsiyalar buxgalteriya hisobida qanday aks ettiriladi?
11. Banklarda qarz mablag'larining hisobi qanday yuritiladi?
12. Bankning qarz majburiyatlarini bildiruvchi qimmatli qog'ozlar hisobini yuritish tartibini tushuntiring.

## **VIII BOB. TIJORAT BANKLARIDA KAPITAL HISOBI**

### **8.1. Tijorat banklarida kapital hisobining nazariy asoslari**

Tijorat banklari kapitali bank boshqaruvida muhim ahamiyat kasb etadi. Ularning zarurligi - bank amalga oshirayotgan aktiv faoliyatda hamda operatsiyalar miqdorida bilinadi. Bank kapitali aktiv operatsiyalar orqali iqtisodiyotga joylashtirilgan miqdoridan daromad shakllanadi. Chunonchi, bank kapitali qancha ko'p bo'lsa, daromadi ham ko'payadi.

Banklarda kapital hisobini tashkil etish asoslari xalq xo'jaligi turli tarmoqlariga qarashli korxonalar va tashkilotlarning buxgalteriya hisobi asoslari bilan deyarli o'xshash.

Banklarda kapital hisobini tashkil qilishda buxgalteriya hisobida umumqabul qilingan tamoyillardan foydalaniladi: buxgalteriya hisobini ikki yoqlama yozuv usuli yuritish; uzluksizlik; xo'jalik operatsiyalari, aktivlar va passivlarni pulda baholanishi; aniqlik; hisoblash; oldindan ko'ra bilish (ehtiyotkorlik); mazmunning shakldan ustunligi; ko'rsatkichlarning qiyoslanuvchanligi; moliyaviy hisobotning betarafligi; hisobot davri daromadlari va xarajatlarining muvofiqligi; aktivlar va majburiyatlarning haqiqiy baholanishi.

Xususiy kapital ustav, qo'shilgan, zaxiralar kapitaldan va taqsimlanmagan foydadan iboratdir.

Zarur hollarda ustav, qo'shilgan, zaxiralar kapitali tahliliy jihatdan hisobga olinadi.

Buxgalteriya balansidagi xususiy kapitalning miqdori aktivlar qiymatini va majburiyatlarni baholashga bog'liqdir.

Moliyaviy hisobotda bank kapitali qiymatini aniqlashda bir qator turlicha usullardan foydalaniladi. Bu usullarga quyidagilarni kiritish mumkin:

Tarixiy (Boshlang'ich) qiymat. Aktivlar, ularni sotib olish vaqtida to'langan pul mablag'lari yoki ularning

ekvivalentlari, yoxud ularga taklif etilgan haqqoniy qiymati bo'yicha hisobga olinadi.

Tiklash qiymati. Aktivlar, ularni sotib olish vaqtida hozirgi paytda huddi shunga o'xshash aktiv sotib olingandagi to'lanishi kerak bo'lgan pul mablag'lari yoki ularning ekvivalentlari bo'yicha aks ettiriladi.

Sotish (qoplash) qiymati. Aktivlar, ularni odatiy sharoitda sotib olishda to'lanishi zarur bo'lgan pul mablag'lari yoki ularning ekvivalentlari bo'yicha aks ettiriladi.

Diskontlangan qiymat. Aktivlar, ishlarni odatiy tartibda yuritilganini taxmin qilgan taqdirda, ushbu aktiv tomonidan yaratilishi mumkin bo'lgan pul mablag'larining bo'lg'usi sof kelib tushishini diskontlangan summalarida aks ettiriladi. Moliyaviy hisobotni tayyorlashda baholash asosi sifatida banklar tomonidan qabul qilingan eng ko'p foydalaniladigan baho - bu tarixiy yoki boshlang'ich qiymat hisoblanadi. Odatda, u boshqa baholash asoslari bilan birgalikda ishlatiladi. Masalan, kam baholi va tez eskiruvchi buyumlar, odatda tannarx yoki sof sotish bahosidan eng past bahoda hisobga olinadi, bozorda aylaniladigan qimmatli qog'ozlar ularning bozor narxida, nafaqa majburiyatlari esa ularning diskontlangan qiymati bo'yicha hisobga olinadi.

Tijorat banklarida kapitalni hisobga olish uchun passiv va aktiv-passiv hisobvaraqlardan foydalaniladi.

Tijorat banklarida kapitalni hisobga olish uchun O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2004-yil 13-avgust 773-17-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2004-yil 17-iyuldagi № 578 qarori bilan tasdiqlangan va 1-30-son o'zgartirish va qo'shimchalar bilan birga "O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida buxgalteriya hisobi hisobvaraqlari rejasi"da keltirilgan hisobvaraqlardan foydalaniladi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan bank operatsiyalarini hisobga olish bo'yicha chiqarilgan me'yoriy hujjatlar asosida olib boriladi.

Tijorat banklari yuqoridagi talablardan kelib chiqqan holda o'z ishchi hisobvaraqlar rejasini ishlab chiqadi va shu asosida o'zlarida amalga oshirilayotgan operatsiyalar bo'yicha aktiv moddasiga shaxsiy hisobvaraqlar ochadi, zarur bo'lganda qo'shimcha jurnal hisobi va reestrlar yuritilishi mumkin.

Hisobvaraqlar rejasidagi 30000 – “Ustav kapital” bo'limidagi hisobvaraqlar bank ichki hisobvaraqlari hisoblanadi. Shuning uchun, tijorat banklari Markaziy bank talablari va ichki hisob siyosatidan kelib chiqqan holda ushbu hisobvaraqlarda analitik hisobni qanday yuritishni o'zlari belgilaydilar. Bank kapitalining analitik hisobi bank faoliyatini boshqarish va soliqqa tortish tartibini hisobga olgan holda tashkil etiladi.

30300 Ustav kapitali;

30303 - Imtiyozli aksiyalar uchun obuna mablag'ining to'lanmagan qismi (kontr-passiv);

30306 - Oddiy aksiyalar uchun obuna mablag'ining to'lanmagan qismi (kontr-passiv);

30309 - Ro'yxatdan o'tkazilgan ustav kapitali – Imtiyozli;

30312 - Ro'yxatdan o'tkazilgan ustav kapitali – Oddiy;

30315 - Chiqarilgan ustav kapitali – Imtiyozli;

30318 - Chiqarilgan ustav kapitali – Oddiy;

30321 - Aksiyadorlardan qayta sotib olingan aksiyalar - Imtiyozli (kontr-passiv);

30324 - Aksiyadorlardan qayta sotib olingan aksiyalar - Oddiy (kontr-passiv);

30600 -Qo'shimcha kapital;

30603 - Qo'shimcha kapital;

30900 -Zaxira kapitali;

30903 - Umumiy zaxira fondi;

30904 - Kichik biznes korxonalarini imtiyozli kreditlash zaxira fondi;

30905 - Tekinga olingan mulklar;

30906 - Devalvatsiya uchun zaxira;

30907 - Sotishga mo'ljallangan qimmatli qog'ozlarning haqiqiy qiymati o'zgarishi natijasida hosil bo'lgan o'zlashtirilmagan foyda yoki zararlar (aktiv-passiv);

30908 - Boshlang'ich qiymatiga nisbatan baholash qiymatining oshgan summasi;

30909 - Pul oqimlarini xedjirlash natijasida hosil bo'lgan foyda yoki zararlar;

30910 - Respublika korxonalariga berilgan investitsion kreditlardan olingan foyda hisobidan hususiy kapitalni oshirishga mo'ljallangan zaxira fondi;

31200 - Taqsimlanmagan foyda;

31203 - Taqsimlanmagan foyda (aktiv-passiv);

31206 - Sof foyda (zarar) (aktiv-passiv).

Ushbu passiv hisobvaraqlarning debet tomonida qoldiq va ko'payishi, kredit tomonida esa kamayishi aks ettiriladi.

Moliyaviy hisobot elementlaridan hisoblangan bank kapitalni hisobotlarda to'g'ri aks ettirish yoki ularni tan olish hozirgi kunda dolzarb hisoblanadi.

## **8.2. Tijorat banklarining ustav kapitali hisobini tashkil qilish**

*Bank resurslari*- banklar ixtiyorida bo'lgan va ular tomonidan kreditlash hamda boshqa aktiv operatsiyalarni amalga oshirishga mo'ljallangan mablag'lar yig'indisidir. O'z navbatida, bank resurslari o'z mablag'i va jalb qilingan mablag'larga bo'linadi. Tijorat banklarining o'z resurslari sifatida birinchi navbatda, aksiyadorlik va zaxira kapitali hamda ustavlariga muvofiq, foydadan ajratmalar shaklida tashkil etiladigan maxsus fondlar maydonga chiqadi.

Tijorat banklarining o'z mablag'lariga, uning faoliyatidagi moliyaviy barqarorlikni ta'minlash maqsadida hosil qilinadigan turli fondlar hamda o'tgan va joriy yil faoliyatidan olingan, taqsimlanmagan foyda kiradi.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki tijorat banklari aksionerlik kapitali o'tgan yilga nisbatan 696033 mln so'mga ko'payib, 2018-yilda 3,8 trln so'mni tashkil etgan. Kapital tarkibida imtiyozli aksiyalarning ulushi 2018-yilda 64,8 foizni tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 0,1 foizga oshgan. Devalvatsiya uchun zaxira o'tgan yilga nisbatan ko'paygan, taqsimlanmagan foyda esa kamaygan.

**“A” tijorat banki kapitalining tarkibi**

№	Ko'rsatkichlar	2017 yil		2018 yil		O'zgarishi (+/-)	
		mln so'm	%da	mln so'm	%da	mln so'm	%da
1	Oddiy aksiyalar	1999520	64,7	2453140	64,8	453620,0	0,1
2	Imtiyozli aksiyalar	23952	0,8	22248	0,6	-1704,0	-0,2
3	Qo'shimcha kapital	15433	0,5	21840	0,6	6407,0	0,1
4	Devalvatsiya uchun zaxira	136142	4,4	780046	20,6	643904,0	16,2
5	Taqsimlanmagan foyda	836609	27,1	510301	13,5	-	-
6	Boshlang'ich qiymatga nisbatan qayta baholashning oshgan qismi	79886	2,6	0	0,0	-79886,0	-2,6
7	Jami atsionerlik kapitali	3091542	100,0	3787575	100,0	696033,0	0,0

Tijorat banklarining o'z mablag'lari tarkibida bank kapitali katta ahamiyat kasb etadi. Bank o'z mablag'larining xususiyatli tomoni shundaki, bank resurslarida ularning salmog'i kichik bo'lishiga qaramasdan, quyidagi zarur funksiyalarni bajaradilar:

- *birinchidan*, bankni bankrot bo'lishdan himoyalaydi, ya'ni bank boshqaruvchilari yuzaga kelgan muammolarni hal qilgunlariga qadar joriy harajatlarni qolplash manbai bo'lib hizmat qiladi;

- *ikkinchidan*, depozitlarni yetarli miqdorda jalb qilgunga qadar bankni tashkil qilish va faoliyatini boshlash uchun zarur mablag' bilan ta'minlaydi;

- *uchinchidan*, bankning o'z mablag'lari mijozlarni bankka bo'lgan ishonchini oshiradi;

- *to'rtinchidan*, bankning o'z mablag'lari bank rivojlanishi va yangi bank hizmatlarini joriy qilish uchun dasturlar ta'minoti hamda zarur mablag'lar bilan ta'minlaydi;

- *beshinchidan*, bankning o'z mablag'lari bank rivojlanishining moliyaviy asosi bo'lib hizmat qiladi, ya'ni tijorat banklarini nazorat qiluvchi muassasalar bankning o'z mablag'lari salmog'ini ular tomonidan jalb qilinayotgan depozitlar va tarmoqlarga ajratilayotgan kreditlar hajmiga mos ravishda o'zgarishini talab qilishadi. Ushbu talabdan kelib chiqib, har bir tijorat bankining faoliyati kengayib borgan sari, jami sarmoyalardagi uning o'z mablag'lari

salmog'i ham oshib borishi lozim. Bankda o'z mablag'lari holatini tartibga solish orqali, faoliyati mobaynida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlarning oldini olish imkoniyati tug'iladi.

Banklarda ustav kapitalini hisobga olish uchun hisobvaraqlar rejasida quyidagi hisobvaraqlardan foydalaniladi:

30300 - Ustav kapitali;

30303 - Imtiyozli aksiyalar uchun obuna mablag'ining to'lanmagan qismi (kontr-passiv);

30306 - Oddiy aksiyalar uchun obuna mablag'ining to'lanmagan qismi (kontr-passiv);

30309 - Ro'yxatdan o'tkazilgan ustav kapitali - Imtiyozli;

30312 - Ro'yxatdan o'tkazilgan ustav kapitali - Oddiy;

30315 - Chiqarilgan ustav kapitali - Imtiyozli;

30318 - Chiqarilgan ustav kapitali - Oddiy;

30321 - Aksiyadorlardan qayta sotib olingan aksiyalar - Imtiyozli (kontr-passiv);

30324 - Aksiyadorlardan qayta sotib olingan aksiyalar - Oddiy (kontr-passiv).

Tahliliy hisobda xissadorlar bo'yicha alohida shaxsiy schyotlar yuritiladi.

Yuqorida ko'rsatilgan schyotlar quyidagi schyotlar bilan korrespondentlashadi:

10101 -Aylanma kassadagi naqd pullar — aksiyalar uchun naqd pul to'langanda;

10301 "O'ZRMB korrespondentlik schyotidan olishga-Nostro" yoki 10501 "Boshqa banklar korrespondentlik schyotlaridan olishga — Nostro" — boshqa banklardan aksiyalar uchun pul mablag'lari kelib tushganda;

29830 - Aksiyalar uchun obuna mablag'ini to'lash bo'yicha depozitlar;

- mazkur bank xizmat ko'rsatadigan xo'jalik yurituvchi subyektlar - bank xissadorlarining yo'qlab olinadigan depozit schyotlari.

Aksiyalar hujjatsiz shaklda depozitariyning hisobga olish registrlaridagi yozuvlar elektron tarzida chiqariladi. Qimmatli qog'ozlar davlat ro'yxatidan o'tkazilgandan so'ng

hamda chiqarilgan aksiyalar Markaziy depozitariyda hisobga olingandan so'ng, depozitariyning hisobotiga asosan quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi amalga oshiriladi:

Dt 90329 - "Bankning hujjatsiz qimmatli qog'ozlari";

Kt 96314 - "Bankning qimmatli qog'ozlari bo'yicha kontr-hisobvaraqa".

Obuna qilinganda va aksiya oldi-sotdi shartnomasi tuzilganda quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi amalga oshiriladi:

a) imtiyozli aksiyalar bo'yicha:

Dt 30303 - "Imtiyozli aksiyalar uchun obuna mablag'ining to'lanmagan qismi (kontr-passiv)";

Kt 30309 - "Ro'yxatdan o'tkazilgan ustav kapitali - Imtiyozli";

b) oddiy aksiyalar bo'yicha:

Dt 30306 - "Oddiy aksiyalar uchun obuna mablag'ining to'lanmagan qismi (kontr-passiv)";

Kt 30312 - "Ro'yxatdan o'tkazilgan ustav kapitali - Oddiy".

Aksiya uchun to'lov to'liq yoki qisman olinganda quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi amalga oshiriladi:

Dt 10101 - "Aylanma kassadagi naqd pullar" yoki bankning vakillik hisobvarag'i yoki mijoz hisobvarag'i;

Kt 30303 - "Imtiyozli aksiyalar uchun obuna mablag'ining to'lanmagan qismi (kontr-passiv)" yoki 30306 - "Oddiy aksiyalar uchun obuna mablag'ining to'lanmagan qismi (kontr-passiv)".

To'lov to'liq olingandan so'ng bitim amalga oshirilganda, aksiya bo'yicha egalik huquqi o'tkazilganligini tasdiqlovchi depozitariyning hisobotiga asosan quyidagi buxgalteriya o'tkazmalari amalga oshiriladi:

a) imtiyozli aksiyaning nominal qiymatiga:

Dt 30309 - "Ro'yxatdan o'tkazilgan ustav kapitali - Imtiyozli";

Kt 30315 - "Chiqarilgan ustav kapitali - Imtiyozli";

b) oddiy aksiyaning nominal qiymatiga:

Dt 30312 - "Ro'yxatdan o'tkazilgan ustav kapitali - Oddiy";

Kt 30318 - "Chiqarilgan ustav kapitali - Oddiy".



d) obuna bahosi va nominal qiymat o'rtasidagi ijobiy farq summasiga:

Dt 30309 - "Ro'yxatdan o'tkazilgan ustav kapitali - Imtiyozli" yoki 30312 - "Ro'yxatdan o'tkazilgan ustav kapitali - Oddiy";

Kt 30603 - "Qo'shilgan kapital".

e) bir vaqtning o'zida aksiya bo'yicha egalik huquqi aksiyadorlarga o'tkazilganda, depozitariyning aksiya bo'yicha egalik huquqi o'tkazilganligini tasdiqlovchi hisobotiga asosan:

Dt 96314 - "Bankning qimmatli qog'ozlari bo'yicha kontr-hisobvaraq";

Kt 90329 - "Bankning hujjatsiz qimmatli qog'ozlari".

Aksiyalarni chiqarilishi bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar 56795 - "Boshqa operatsion xarajatlar" hisobvarag'ining "Aksiyalarni chiqarish bilan bog'liq xarajatlar" alohida shaxsiy hisobvarag'ida hisobga olinadi.

Agar aksiyalar chiqarilishidan avval aksiyaning qiymati potensial aksiyadorlar tomonidan to'liq yoki qisman to'langanda, aksiyalar bo'yicha oldindan to'lovlar, aksiyalar chiqarilishiga qadar majburiyatlarda aks ettiriladi. Shuningdek, bankning yangi aksiyalariga obunada ishtirok etish kafolati uchun potensial aksiyadorlar tomonidan omonat (depozit) qo'yilishi mumkin.

Bunda quyidagi buxgalteriya o'tkazmalari amalga oshiriladi:

a) oldindan to'lov amalga oshirilganda:

Dt 10101 - "Aylanma kassadagi naqd pullar" yoki bankning vakillik hisobvarag'i yoki mijoz hisobvarag'i;

Kt 29830 - "Aksiyalar uchun obuna mablag'ini to'lash bo'yicha depozitlar".

b) aksiyalar sotilganda, aksiya bo'yicha egalik huquqi o'tkazilganligini tasdiqlovchi depozitariyning hisobotiga asosan:

Dt 29830 - "Aksiyalar uchun obuna mablag'ini to'lash bo'yicha depozitlar" - to'lov summasiga;

Kt 30315 - "Chiqarilgan ustav kapitali - Imtiyozli" yoki 30318 - "Chiqarilgan ustav kapitali - Oddiy" - aksiyaning nominal qiymatiga,

Kt 30603 - “Qo‘shilgan kapital” – to‘lov summasi bilan nominal qiymati o‘rtasidagi ijobiy farq summasiga.

d) bir vaqtning o‘zida aksiya bo‘yicha egalik huquqi aksiyadorlarga o‘tkazilganda, depozitariyning aksiya bo‘yicha egalik huquqi o‘tkazilganligini tasdiqlovchi hisobotiga asosan:

Dt 96314 - “Bankning qimmatli qog‘ozlari bo‘yicha kontr-hisobvaraq”;

Kt 90329 - “Bankning hujjatsiz qimmatli qog‘ozlari”.

Bank ustav kapitali aksiyalar nominal qiymatini pasaytirish yoki aksiyalar umumiy sonini qisqartirish, jumladan keyinchalik ularni to‘lash sharti bilan sotib olish orqali kamaytirilishi mumkin.

Agarda bank ustavida ko‘zda tutilgan bo‘lsa, aksiyalarning bir qismini sotib olish va ularni to‘lash yo‘li bilan bank ustav kapitalining kamaytirishga ruxsat etiladi.

Agar ustav kapitali kamaytirilishi natijasida uning hajmi bank ustavidagi tegishli o‘zgarishlarni qayd qilish sanasida aniqlanadigan, Markaziy bank tomonidan belgilangan ustav kapitalining eng kam miqdoridan kamayib ketsa, bank ustav kapitali miqdorini kamaytirishga ruxsat berilmaydi.

Ustav kapitalini kamaytirish hamda bank ustaviga tegishli o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risidagi qaror aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi tomonidan qabul qilinadi (davlat yagona muassisi hisoblangan bankda qaror Hukumat tomonidan qabul qilinadi). Bunda, qarorda ustav kapitalining kamaytirilishi sabablarini ko‘rsatadi va uni kamaytirish tartibini belgilandi.

Joylashtirilgan aksiyalarni sotib olish yo‘li bilan ustav kapitalini kamaytirishda aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining ustav kapitalini kamaytirish to‘g‘risidagi qarorida sotib olinadigan aksiyalar turlari, bank tomonidan sotib olinadigan har bir turdagi aksiyalar soni, sotib olish narxi, to‘lov shakli va muddati, shuningdek, aksiyalarni xarid qilish muddati belgilanishi lozim.

Aksiyalar nominal qiymatini pasaytirish yo‘li bilan ustav kapitalini kamaytirishda aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining ustav kapitalini kamaytirish to‘g‘risidagi

qarorida aksiyaning, yangi nominal qiymati, aksiya narxi hamda aksiyalar yangi nominal qiymati o'rtasidagi farqni aksiyadorlarga qaytarish shakli va muddati, shuningdek, ushbu farqni qaytarish muddati belgilanishi zarur.

Aksiyalarni sotib olish (aksiya narxi va yangi nominal qiymati o'rtasidagi farqni qaytarish) 30 kundan kam bo'lmagan muddatda amalga oshiriladi.

Bank tomonidan oddiy aksiyalarni sotib olish (aksiya narxi va yangi nominal qiymati o'rtasidagi farqni qaytarish) bozor narxiga muvofiq ravishda, imtiyozli aksiyalar esa - jamiyat ustavida ko'zda tutilgan narxda amalga oshiriladi.

Ustav kapitalini kamaytirish uchun Litsenziyalash departamentiga quyidagilar topshiriladi:

- bank ustav kapitalini kamaytirish uchun rozilik berish to'g'risida iltimosnoma;

- bank aksiyadorlari umumiy yig'ilishining ustav kapitalini kamaytirish to'g'risidagi qarori (davlat yagona muassisi hisoblangan bank uchun Hukumat qarori)

Taqdim etilgan hujjatlar Litsenziyalash departamenti tomonidan ko'rib chiqiladi, ular qonunchilik talablariga mos kelgan hollarda Banklarni ro'yxatga olish komissiyasiga ustav kapitalini kamaytirishga rozilik berish to'g'risidagi masala ko'rib chiqish uchun kiritiladi.

Taqdim etilgan hujjatlarni ko'rib chiqish va rozilik berish bir oy muddat ichida amalga oshiriladi.

Bank ustav kapitalining kamaytirilishiga rozilik berilmaslik uchun quyidagilar asos bo'lishi mumkin:

- ustav kapitalining kamaytirilishi natijasida Markaziy bank tomonidan belgilangan iqtisodiy me'yorlar hamda bank ustav kapitali eng kam miqdoriga qo'yiladigan talablarning buzilishi ehtimoli yoki har qanday aksiyador ishtiroki ulushi ustav kapitalining qonunchilik tomonidan belgilangan cheklangan miqdordan oshgan holda;

- taqdim etilgan hujjatlarning qonunchilik va Markaziy bank me'yoriy hujjatlari talablariga mos kelmasligi;

- ustav kapitalining kamaytirilishi omonatchilar manfaatlariga va bank moliyaviy ahvoriga aniq xavf solishi mumkinligi.

Markaziy bankning ustav kapitalini kamaytirishga rozilik bermasligi asoslangan bo'lishi va oxirgi zarur hujjat olinganidan keyin bir oy muddat ichida yozma ravishda bankka yuborilishi lozim.

Aksiyalar nominal qiymatini pasaytirish yo'li bilan ustav kapitalini kamaytirishda bank quyidagilarni bajarishi zarur:

- Bankning barcha aksiyalarini ularni nominal qiymati kamaytirilgan aksiyalar bilan almashtish uchun yig'ib olishi;

- Aksiyadorlarga aksiya narxi va aksiyalar yangi nominal qiymati o'rtasidagi farqni to'lashi;

- Aksiyalarni ro'yxatga oluvchi organ talablarini bajarishi.

Agar bank o'z aksiyalarini ularni qayta sotish yoki bekor qilish maqsadida sotib olsa, u holda bankning o'z kapitali aksiyani sotib olish qiymatiga kamayadi. Bunda quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi amalga oshiriladi:

Dt 30321 - "Aksiyadorlardan qayta sotib olingan o'z aksiyalari – Imtiyozli (kontr-passiv)" yoki

30324 - "Aksiyadorlardan qayta sotib olingan o'z aksiyalari – Oddiy (kontr-passiv)";

Kt 10101 - "Aylanma kassadagi naqd pullar" yoki bankning vakillik hisobvarag'i yoki mijoz hisobvarag'i.

Agar bank o'z aksiyalarini bekor qilish maqsadida sotib olsa, u holda aksiyalar 90329 - "Bankning hujjatsiz qimmatli qog'ozlari" hisobvarag'iga 1 so'm shartli bahoda quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi orqali kirim qilinadi:

Dt 90329 - "Bankning hujjatsiz qimmatli qog'ozlari";

Kt 96314 - "Bankning qimmatli qog'ozlari bo'yicha kontr-hisobvaraq".

Agar bank o'z aksiyalarini keyinchalik qayta sotish maqsadida sotib olsa, u holda aksiyalar 90337 - "Bankning sotib olingan qimmatli qog'ozlari" hisobvarag'iga nominal qiymatida quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi orqali kirim qilinadi:

Dt 90337 - "Bankning sotib olingan qimmatli qog'ozlari";

Kt 96314 - “Bankning qimmatli qog‘ozlari bo‘yicha kontr-hisobvaraq”.

Sotib olingan bankning o‘z aksiyalari keyinchalik ikkilamchi bozorda qayta sotilganda, quyidagi buxgalteriya o‘tkazmalari amalga oshiriladi:

a) sotib olish bahosiga nisbatan qimmat bahoda sotilganda:

Dt 10101 - “Aylanma kassadagi naqd pullar” yoki bankning vakillik hisobvarag‘i yoki mijoz hisobvarag‘i – aksiyani sotish qiymatiga;

Kt 30321 - “Aksiyadorlardan qayta sotib olingan o‘z aksiyalari – Imtiyozli (kontr-passiv)” yoki 30324 - “Aksiyadorlardan qayta sotib olingan o‘z aksiyalari – Oddiy (kontr-passiv)” – aksiyani sotib olish qiymatiga,

Kt 30603 - “Qo‘shilgan kapital” balans hisobvarag‘ining “Qayta sotib olingan o‘z aksiyalari bo‘yicha qo‘shilgan kapital” shaxsiy hisobvarag‘i – qayta sotish va sotib olish o‘rtasidagi ijobiy farq summasiga.

b) sotib olish bahosiga nisbatan arzon bahoda sotilganda:

Dt 10101 - “Aylanma kassadagi naqd pullar” yoki bankning vakillik hisobvarag‘i yoki mijoz hisobvarag‘i – aksiyani sotish qiymatiga,

Dt 30603 - “Qo‘shilgan kapital” – aksiyani qayta sotish va sotib olish o‘rtasidagi salbiy farq summasiga, kredit qoldig‘i doirasida;

Kt 30321 - “Aksiyadorlardan qayta sotib olingan o‘z aksiyalari - Imtiyozli (kontr-passiv)” yoki 30324 - “Aksiyadorlardan qayta sotib olingan o‘z aksiyalari - Oddiy (kontr-passiv)” – aksiyani sotib olish qiymatiga.

30603 - “Qo‘shilgan kapital” hisobvarag‘ining “O‘z aksiyalarini sotib olishdan olingan qo‘shilgan kapital” alohida shaxsiy hisobvarag‘ining qoldig‘i nolga teng bo‘lsa, aksiyani qayta sotish va sotib olish o‘rtasidagi salbiy farq 31206 - “Sof foyda (zarar) (aktiv-passiv)” balans hisobvarag‘iga o‘tkaziladi.

d) bir vaqtning o‘zida quyidagi buxgalteriya o‘tkazmasi amalga oshiriladi:

Dt 96314 - “Bankning qimmatli qog‘ozlari bo‘yicha kontr-hisobvaraqlar”;

Kt 90337 - “Bankning sotib olingan qimmatli qog‘ozlari”.

Aksiyalar bekor qilinganda yoki bankning aksiyadorlik kapitali kamaytirilganda (ustav hujjatlariga kiritiladigan tegishli o‘zgartirishlar Markaziy bankda ro‘yxatga olingandan so‘ng), quyidagi buxgalteriya o‘tkazmasi amalga oshiriladi:

Dt 30315 - “Chiqarilgan ustav kapitali – Imtiyozli” yoki 30318 - “Chiqarilgan ustav kapitali – Oddiy” – aksiyaning nominal qiymatiga;

Kt 30321 - “Aksiyadorlardan qayta sotib olingan o‘z aksiyalari – Imtiyozli (kontr-passiv)” yoki 30324 - “Aksiyadorlardan qayta sotib olingan o‘z aksiyalari – Oddiy (kontr-passiv)” – aksiyani sotib olish qiymatiga.

O‘z aksiyalarini sotib olish bilan ularning nominal qiymati o‘rtasidagi ijobiy yoki salbiy farq 30603 - “Qo‘shilgan kapital” hisobvaraqlarining mos ravishda debeti yoki kreditiga olinadi. Hisobvaraqlarining kredit qoldig‘i yetarli bo‘lmaganda, yetmagan salbiy farq 31206 - “Sof foyda (zarar) (aktiv-passiv)” hisobvaraqlariga olinadi.

Bir vaqtning o‘zida quyidagi buxgalteriya o‘tkazmasi amalga oshiriladi:

Dt 96314 - “Bankning qimmatli qog‘ozlari bo‘yicha kontr-hisobvaraqlar”;

Kt 90329 - “Bankning hujjatsiz qimmatli qog‘ozlari”.

### **8.3. Bankning fondlari va zaxiralari hisobini yuritish**

Tijorat banklarida xususiy kapital tarkibida quyidagi fondlar va zaxiralar tashkil etiladi:

- qo‘shimcha kapital;
- umumiy zaxira fondi;
- kichik biznes korxonalarini imtiyozli kreditlash zaxira fondi;
- tekinga olingan mulklar;
- devalvatsiya uchun zaxira;

- sotishga mo'ljallangan qimmatli qog'ozlarning haqiqiy qiymati o'zgarishi natijasida hosil bo'lgan o'zlashtirilmagan foyda yoki zararlar (aktiv-passiv);
- boshlang'ich qiymatiga nisbatan baholash qiymatining oshgan summasi;
- pul oqimlarini xedjirlash natijasida hosil bo'lgan foyda yoki zararlar;
- respublika korxonalariga berilgan investitsion kreditlardan olingan foyda hisobidan hususiy kapitalni oshirishga mo'ljallangan zaxira fondi.

Qo'shimcha kapital - o'z aksiyalarini birinchi joylashtirishda nominal qiymatiga nisbatan ortiqroq qiymatda sotishdan olingan emission daromadlari, shuningdek bankning o'z aksiyalarini sotib olishdagi narx bilan ularni keyingi qayta sotishdagi narxlar o'rtasidagi farqlar hisobiga shakllanadi.

Umumiy zaxira fondi - o'rnatilgan tartibga muvofiq umumiy maqsadlar uchun bankning taqsimlanmagan foydasi hisobidan ajratilgan mablag'lar.

Kichik biznes korxonalarini imtiyozli kreditlash zaxira fondi - bankning taqsimlanmagan foydasidan kichik korxonalarni kreditlashga ajratilgan mablag'lar.

Tekinga olingan mulklar - aksiyadorlardan bank mulkiga tekinga olingan mulklar qiymati olib boriladi.

Devalvatsiya uchun zaxira - sezilarli darajada milliy valyutaning qadrsizlanishida (devalvatsiya) bankning o'z majburiyatlarini qoplash uchun taqsimlanmagan foyda hisobidan ajratilgan mablag'lar.

Sotishga mo'ljallangan qimmatli qog'ozlarning haqiqiy qiymati o'zgarishi natijasida hosil bo'lgan o'zlashtirilmagan foyda yoki zararlar (aktiv-passiv) - sotishga mo'ljallangan qarz qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyaning haqiqiy qiymatining o'zgarishi natijasida vujudga keladigan foyda yoki zararlar.

Boshlang'ich qiymatiga nisbatan baholash qiymatining oshgan summasi - bankning asosiy vositalari va nomoddiy aktivlari bozor qiymatining sezilarli o'sishi natijasida boshlang'ich qiymatiga nisbatan qiymatining oshgan miqdori.

Pul oqimlarini xedjirlash natijasida hosil bo'lgan foyda yoki zararlar - pul oqimlarini xedjirlash uchun mo'ljallangan hosilaviy instrumentlar (masalan: qat'iy majburiyatlarni xedjirleydigan xorijiy valyutadagi so'ndirilmagan kontraktlar)ni qayta baholash natijasida vujudga keladigan foyda yoki zararlar.

Respublika korxonalariga berilgan investitsion kreditlardan olingan foyda hisobidan xususiy kapitalni oshirishga mo'ljallangan zaxira fondi - respublika korxonalariga 3 yildan ortiq muddatga berilgan investitsiya kreditlaridan olingan, banklarni daromad solig'idan ozod qilinishi munosabati bilan bankning xususiy kapitalini oshirishga yo'naltirilgan mablag'lar.

Ularning hisobini olib borish uchun banklarda quyidagi hisobvaraqlar yuritiladi:

30603 - Qo'shimcha kapital. Ushbu hisobvaraqlarning kreditida o'z aksiyalarini birinchi joylashtirishda bank aksiyalarining nominal qiymati va sotilgan paytdagi qiymati o'rtasidagi ijobiy farqlar, hamda bankning o'z aksiyalarini sotib olishdagi narx bilan ularni keyingi qayta sotishdagi narxlar o'rtasidagi ijobiy farqlar hisobi aks ettiriladi. Hisobvaraqlarning debetida bankning ustav kapitalini ko'paytirishga va O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan o'rnatilgan tartibda boshqa maqsadlarga yo'naltirilgan mablag'lar summasi, hamda o'z aksiyalarini sotib olishdagi narx bilan ularni qayta sotishdagi narxlar o'rtasidagi salbiy farqlar hisobi aks ettiriladi (ushbu hisobvaraqlardagi kredit qoldiq doirasida). Tahliliy hisob bitta shaxsiy hisobvaraqlarda yuritiladi.

30903 - Umumiy zaxira fondi. Hisobvaraqlarning kreditida umumiy zaxira fondiga o'tkazilgan mablag'larning summasi aks ettiriladi. Hisobvaraqlarning debetida umumiy zaxira fondidan ma'lum maqsadlar uchun hisobdan chiqarilgan mablag'lar summasi aks ettiriladi. Tahliliy hisob har bir maqsad uchun alohida shaxsiy hisobvaraqlar yuritiladi.

30904 - Kichik biznes korxonalarini imtiyozli kreditlash zaxira fondi. Hisobvaraqlarning kreditida imtiyozli kreditlash zaxira fondiga kelib tushgan mablag'lar summasi aks



ettiriladi. Hisobvaraqlarning debetida imtiyozli kreditlash zaxira fondidan hisobdan chiqarilgan mablag'lar summasi aks ettiriladi. Tahliliy hisob alohida shaxsiy hisobvaraqlarda olib boriladi.

30905 - Tekinga olingan mulklar. Hisobvaraqlarning kreditida aksiyadorlardan tekinga olingan mulklar qiymati aks ettiriladi. Hisobvaraqlarning debetida o'rnatilgan tartibga muvofiq taqsimlanmagan foyda hisobiga o'tkazilgan summalar aks ettiriladi. Tahliliy hisob bitta shaxsiy hisobvaraqlarda olib boriladi.

30906 - Devalvatsiya uchun zaxira. Hisobvaraqlarning kreditida taqsimlanmagan foyda hisobidan o'tkazilgan mablag'lar summasi aks ettiriladi. Hisobvaraqlarning debetida zaxira fondidan hisobdan chiqarilgan mablag'lar summasi aks ettiriladi. Tahliliy hisob bitta shaxsiy hisobvaraqlarda yuritiladi.

30907 - Sotishga mo'ljallangan qimmatli qog'ozlarning haqiqiy qiymati o'zgarishi natijasida hosil bo'lgan o'zlashtirilmagan foyda yoki zararlar (aktiv-passiv). Hisobvaraqlarning kreditida investitsiyalarning haqiqiy qiymatini o'sgan summasi, shuningdek ular hisobdan chiqarilganda, qayta tasniflanganda va/yoki qadrsizlanganda ushbu hisobvaraqlarning debetida oldin aks ettirilgan zararlarni hisobdan chiqarish summasi aks ettiriladi. Hisobvaraqlarning debetida investitsiyalarning haqiqiy qiymatini kamaygan summasi, shuningdek ular hisobdan chiqarilganda, qayta tasniflanganda va/yoki qadrsizlanganda ushbu hisobvaraqlarning kreditida oldin aks ettirilgan foydani hisobdan chiqarish summasi aks ettiriladi. Tahliliy hisob qimmatli qog'ozlar turi va muddatlari hamda emitentlari bo'yicha alohida shaxsiy hisobvaraqlarda olib boriladi.

30908 - Boshlang'ich qiymatiga nisbatan baholash qiymatining oshgan summasi. Hisobvaraqlarning kreditida bankning asosiy vositalari va nomoddiy aktivlari qiymatining balans qiymatiga nisbatan oshgan miqdori aks ettiriladi. Hisobvaraqlarning debetida baholanayotgan asosiy vosita va nomoddiy aktiv sotilganda yoki boshqa yo'l bilan hisobdan chiqarilganda, ular qiymatining oshgan miqdori,

shuningdek, bankning asosiy vositasi va nomoddiy aktivi qiymatining balans qiymatiga nisbatan pasayib ketishi va o'rnatilgan tartibga muvofiq, taqsimlanmagan foyda hisobiga o'tkazilgan summalar hisobdan chiqariladi. Tahliliy hisob har bir baholangan asosiy vosita va nomoddiy aktiv bo'yicha alohida shaxsiy hisobvaraqlarda olib boriladi.

30909 - Pul oqimlarini xedjirlash natijasida hosil bo'lgan foyda yoki zararlar. Hisobvaraqlarning kreditida xedjirlash samara beradigan darajagacha pul oqimlarini xedjirlash uchun mo'ljallangan hosilaviy instrumentlar bo'yicha o'zlashtirilmagan foyda summasi aks ettiriladi. Ushbu hisobvaraqlarning krediti bo'yicha, qat'iy majburiyat yoki rejalashtirilgan operatsiya aktiv yoki majburiyat sifatida aks ettiriladigan holatlarda (ko'zda tutilmagan holatlar hisobvarag'lari bundan mustasno) oldingi debet qoldig'i ham hisobdan chiqariladi. Hisobvaraqlarning debetida xedjirlash samara beradigan darajagacha pul oqimlarini xedjirlash uchun mo'ljallangan hosilaviy instrumentlar bo'yicha o'zlashtirilmagan zarar summasi aks ettiriladi. Ushbu hisobvaraqlarning debeti bo'yicha, qat'iy majburiyat yoki rejalashtirilgan operatsiya aktiv yoki majburiyat sifatida aks ettiriladigan holatlarda (ko'zda tutilmagan holatlar hisobvarag'lari bundan mustasno) oldingi kredit qoldig'i ham hisobdan chiqariladi. Tahliliy hisob har bir kontrakt bo'yicha alohida shaxsiy hisobvaraqlarda olib boriladi.

30910 - "Respublika korxonalariga berilgan investitsion kreditlardan olingan foyda hisobidan hususiy kapitalni oshirishga mo'ljallangan zaxira fondi. Hisobvaraqlarning kreditida bankning xususiy kapitalini oshirishga mo'ljallangan zaxira fondiga mablag'larning kelib tushishi aks ettiriladi. Hisobvaraqlarning debetida bankning xususiy kapitalini oshirishga mo'ljallangan zaxira fondidan mablag'larning hisobdan chiqarilishi aks ettiriladi. Tahliliy hisob alohida shaxsiy hisobvaraqlarda yuritiladi".

## **Nazorat savollari va topshiriqlar**

1. Bank kapitalining mohiyati va tarkibini tushintirib bering.
2. Bank kapitalining buxgalteriya hisobida tan olinishi qanday amalga oshiriladi.
3. MHXSlari asosida bank ustav kapitali hisobini tushintirib bering.
4. Banklarda zaxira kapitali hisobi qanday yuritiladi?
5. Bank foydasi va uning hisobini tushintirib bering.

## **IX BOB. TIJORAT BANKLARIDA DAROMAD VA HARAJATLAR HISOBI**

### **9.1. Banklarda daromadlar hisobini tashkil qilishning o'ziga xos xususiyatlari**

Buxgalteriya hisobida daromad tushunchasi “Moliyaviy hisobotlarni tayyorlash va taqdim etishning konseptual asosi” (MHXS-1)da aktivlarning kelib tushishi yoki ko‘payishi yoxud majburiyatlarning kamayishi shaklida iqtisodiy nafning hisobot davrida o‘shishi va ushbu o‘shishning kapital egalarining kapitalga qo‘yilmalari bilan bog‘liq bo‘lmagan ko‘payishi sifatida ta‘riflangan. Daromad tushunchasi odatdagi faoliyatdan olinadigan daromad va boshqa daromadlarni o‘z ichiga oladi.

Bugungi kunda banklar faoliyatida daromadlarni shakllantirish va uni hisobga olish 18-sonli “Odatdagi faoliyatdan olingan daromadlar” standartida belgilangan qoidalarga asoslaniladi. Odatdagi faoliyatdan olinadigan daromad (keyinchalik daromad deb yuritiladi) bankning odatdagi faoliyati doirasida hosil bo‘ladi va bank xizmatlarini ko‘rsatishdan tushum, yig‘imlar, foizlar, dividendlar va royaltilar kabi turlicha nomlanadi.

“Odatdagi faoliyatdan olingan daromadlar” nomli 18-son standartning maqsadi, ayrim turdagi operatsiyalar va hodisalar natijasida hosil bo‘ladigan daromadni hisobga olish tartibini belgilashdan iborat bo‘lib, daromadni hisobga olishdagi asosiy masala, ushbu daromad qachon tan olinishi kerakligini aniqlash hisoblanadi. Daromad bank tomonidan kelgusi iqtisodiy naf olinishi ehtimoli mavjud bo‘lganda va ushbu naf ishonchli darajada baholanishi mumkin bo‘lganda, tan olinadi. Mazkur standart ushbu mezonlar bajaraladigan va daromad tan olinadigan holatlarni belgilaydi. Shuningdek, ushbu mezonlarni qo‘llash bo‘yicha amaliy ko‘rsatmalarni beradi.

Yuqoridagi standartda ko‘rsatilishicha, daromadlar quyidagi operatsiya va hodisalar natijasida hosil bo‘ladi:

- a) tovarlarni sotish;

b) xizmatlarni ko'rsatish;

d) boshqa tomonlar tadbirkorlik subyektining foizlar, royalti va dividendlar ko'rinishidagi daromadlar keltiradigan aktivlaridan foydalanishi.

Ushbu standart 1982-yilda tasdiqlangan BHXS - 18 "Daromadlarni tan olish" o'rniga kiritilganidir. Standartda tovarlarga quyidagicha izoh beriladi: tadbirkorlik subyektini tomonidan sotish maqsadida ishlab chiqarilgan tovarlar hamda qayta sotish uchun xarid qilingan tovarlar, masalan, chakana savdo bilan shug'ullanadigan sotuvchi tomonidan xarid qilingan tovarlar yoki qayta sotish maqsadida saqlanayotgan yer va boshqa mulklar.

Xizmat ko'rsatish, odatda tadbirkorlik subyektini shartnomada belgilab qo'yilgan topshiriqni kelishilgan davr davomida bajarishini o'z ichiga oladi. Xizmatlar bir yoki bir necha davrlar davomida ko'rsatilishi mumkin. Xizmat ko'rsatishga oid ayrim shartnomalar qurilish shartnomalari bilan bevosita bog'liq bo'ladi, masalan, arxitektorlar va loyiha boshqaruvchilari xizmatiga oid shartnomalar. Bunday shartnomalar bo'yicha yuzaga keladigan daromadlar mazkur standartga binoan emas, balki BHXS - 11 "Qurilish shartnomalari"da qurilishga oid shartnomalar bo'yicha belgilangan talablarga muvofiq, hisobga olinadi.

Bankning aktivlaridan boshqa tomonlarning foydalanishi natijasida quyidagi ko'rinishdagi daromadlar yuzaga keladi:

a) foizlar - tadbirkorlik subyektiga tegishli bo'lgan pul mablag'lari yoki ularning ekvivalentlaridan yoki tadbirkorlik subyektiga to'lanishi kerak bo'lgan summalardan foydalanilgani uchun olinadigan haq;

b) royalti - tadbirkorlik subyektiga tegishli bo'lgan uzoq muddatli aktivlar, masalan patentlar, savdo belgilari, mualliflik huquqlari va dasturiy ta'minotlardan foydalanilgani uchun olinadigan haq;

MHXSQning "Moliyaviy hisobotlarni tayyorlash va taqdim etishning konseptual asosi" BHXS tomonidan 2001-yilda qabul qilingan. 2010-yil sentyabrda BHXS "Konseptual asos"ni Moliyaviy hisobot uchun konseptual asos bilan almashtirdi;

d) dividendlar - ulushli investitsiyalarning egalariga foydaning ayrim turdagi kapitaldagi ulushiga mutanosib ravishda taqsimlanishi.

Odatdagi faoliyatdan olinadigan daromad (keyingi matnda daromad deb yuritiladi) - ma'lum davr mobaynida bankning odatdagi faoliyati natijasida olinadigan iqtisodiy nafning yalpi tushumi bo'lib, ushbu tushum mulk egalarining kapitalga qo'yilmalari bilan bog'liq bo'lmagan kapitalning ko'payishiga olib keladi.

Haqqoniy qiymat - bu baholash sanasida bozor ishtirokchilari o'rtasidagi odatdagi operatsiyada aktivni sotishda olinishi mumkin bo'lgan yoki majburiyatni o'tkazishda to'lanishi mumkin bo'lgan narxdir. Bu tartib 13- MHXS "Haqqoniy qiymatni baholash"da to'liq aks etgan.

Daromad tadbirkorlik subyektining faqat o'zi uchun olingan yoki olinadigan iqtisodiy nafning yalpi tushumini qamrab oladi. Uchinchi tomon nomidan undirib olingan summalar, masalan sotishdan soliqlar, tovarlar va xizmatlardan olinadigan soliqlar, qo'shilgan qiymat solig'i, bankka kelib tushadigan iqtisodiy naf bo'lib xizmat qilmaydi va kapitalning ko'payishiga olib kelmaydi. Shu bois, ular daromaddan chiqarib tashlanadi. Shunga o'xshash, vositachilik munosabatlarida, iqtisodiy nafning yalpi tushumi buyurtmachi nomidan undiriladigan summalarni qamrab oladi, lekin tadbirkorlik subyektining kapitali oshishiga olib kelmaydi. Buyurtmachi nomidan undirilgan summalar daromad bo'lib hisoblanmaydi, aksincha, daromad vositachilik haqi hisoblanadi.

Banklarning daromadlilik mohiyatini chuqur anglab yetish va mahalliy shart-sharoitlarni hisobga olgan holda undan foydalanish masalalarini atroflicha tahlil qilish zarur.

Banklar boshqa tijorat korxonalari singari asosiy va qo'shimcha faoliyatdan, shuningdek, boshqalar kategoriyasiga kiruvchi tasodifiy daromadlar olishi mumkin. Bankning asosiy faoliyati, bank operatsiyalarini amalga oshirish va mijozlarga bank xizmatlarini ko'rsatish

hisoblanadi. Daromad keltiruvchi boshqa faoliyatlar esa boshqa daromadlar hisoblanadi.

Banklarda daromad manbalarini barqaror va nobarqarorga ajratish mumkin. Mijozlarga har xil xizmatlar ko'rsatish daromadning barqaror manbasi bo'lib hisoblanadi. Nobarqaror esa, moliyaviy bozordagi operatsiyalaridan, shuningdek, bankning qo'shimcha faoliyatidan keladigan daromadlar hisoblanadi.

Bankning oladigan daromadi, uning xarajatlarini qoplashi va foyda yaratishi kerak. Bank daromadining bir qismi potensial risklarni qoplash uchun tashkil etiladigan zaxiraga yo'naltiriladi. Bank o'z xarajatlarini qoplashi uchun daromad hajmining yetarliligini emas, balki tushumning bir xildaligini ta'minlashi kerak. Boshqacha aytganda, daromad oqimi bankning xarajat qiladigan davriga mos holda vaqt jihatdan taqsimlangan bo'lishi kerak. Bunday rejalashtirishda daromad manbalarining barqarorligi hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi.

Banklarda hisobot davridagi barcha daromadlari yalpi daromad deyiladi. Odatda, yalpi daromad tarkibida quyidagi daromad guruhlari ajratiladi:<sup>50</sup>

*1. Operatsion daromadlar:*

1.1. Foizli daromadlar.

1.2. Komission daromadlar.

1.3. Moliyaviy bozordagi operatsiyalardan daromadlar.

1.4. Boshqa operatsion daromadlar.

*2. Bankning qo'shimcha faoliyatidan daromadlar.*

*3. Boshqa daromadlar.*

Banklar daromadlari tarkibida katta ulushga ega bo'lgan asosiy faoliyatdan daromadlarga, operatsion daromadlar deyiladi Operatsion daromadlar foizli va foizsiz daromadlarga bo'linadi. Bank daromadlarini hisobga olish amaliyotini ko'rib chiqishdan oldin daromadlar tushunchalarini tahlil qilish kerak bo'ladi.

D.MakNoton bu borada, "Bank daromadi – jalb qilingan resurslar hisobidan berilgan kreditlardan olingan foizlar bilan jalb qilingan resurslar bo'yicha to'langan foizlar

---

<sup>50</sup> Шерemet А.Д. Финансовый анализ коммерческого банка. М.: Финансы и статистика, 2000. 152 с.

o'rtasidagi farqdan iboratdir"<sup>51</sup> deb yozadi. Ushbu ta'rifda bank daromadi deganda faqat kreditlar bo'yicha olingan foizlar va to'langan foizlar o'rtasidagi farqni nazarda tutgan. Bu ko'proq foyda tushunchasiga mos keladi. Shuningdek, u boshqa bank operatsiyalaridan olinadigan daromadlarni nazardan chetda qoldirgan.

B.T. Berdiyarov ham "Tijorat bankining daromadi ular foydasidan farqli o'laroq, murakkab tabiatga egadir. Aslida esa tijorat banklari daromadi bank ixtiyoriga kelgan tushum bilan moddiy xarajatlar o'rtasidagi farqdan iboratdir"<sup>52</sup> deb ta'kidlaydi. Bunda bank ixtiyoriga kelgan tushumlarni turli xil maqsadlarda kelishini bilamiz, ular hammasi ham daromadni shakllantirmaydi, jumladan, depozitlarning jalb qilinishi, mijozlar nomiga kelib tushayotgan tushumlar va boshqalar. Shuningdek, bank ixtiyoriga kelgan tushumlar (daromad) va xarajatlar o'rtasidagi farq ko'proq foyda sifatida tushuniladi.

"Moliyaviy hisobotlarni taqdim etish" 1- MHXSda "Daromadlar bu- hisobot davrida aktivlarning oqib kelishi yoki o'sish yo'li orqali, yoxud majburiyatlarning qisqarishi orqali aksiyadorlik kapitali ishtirokchilarining badallari bilan bog'liq bo'lmagan kapitalning ko'payishi shaklida iqtisodiy nafning o'sishidir" deb ta'riflangan. O'z navbatida, "Xarajatlar bu- hisobot davrida aktivlarning chiqib ketishi yoki kamayishi yo'li orqali yoxud majburiyatlarning ko'payishi orqali aksiyadorlik kapitali ishtirokchilarining uni taqsimlashi bilan bog'liq bo'lmagan kapitalning kamayishi shaklidagi iqtisodiy nafning kamayishidir".

Ushbu fikrlarni qo'llab - quvvatlagan holda bank daromadining o'ziga xos xususiyatlarini quyidagi rasmda ko'rish mumkin. Unda korxonalar va bankning faoliyat turlari, ulardan olinadigan daromad va shu daromadni olish uchun qilingan xarajatlar keltirilgan.


Eng avvalo ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish korxonalarida daromad va xarajatlarni ko'rib chiqish mumkin.

---

<sup>51</sup> Нотон Д.М. Банковские учреждения в развивающихся странах. Всемирный банк, Вашингтон, 1994.


<sup>52</sup> Berdiyarov B.T. Tijorat banklari aktiv operatsiyalari daromadligi. i.f.n. dissertatsiyasi. T., 2002. B. 33.





9.1-rasm. **Korxonada faoliyatidan olinadigan daromad va xarajatlarning kelib chiqish jarayoni**

Ko'rinib turibdiki, xarajatlar faoliyat turiga bog'liq holda tashkil qilinadi, natijada faoliyat turiga qarab daromad olinadi.



9.2-rasm. **Tijorat banklari faoliyatidan asosiy daromadlari va xarajatlar**

Ushbu rasmlardan ko'rinib turibdiki, korxonada va bank faoliyati turli xil va ular turli xil mablag'lar evaziga faoliyat ko'rsatadi. Korxonada ko'proq o'zining mablag'i hisobiga faoliyat ko'rsatsa, bank esa ko'proq jalb qilingan mablag'lar hisobiga faoliyat olib boradi. Bu bankning daromadi va xarajatiga ta'sir ko'rsatadi.

Bank daromadlarini buxgalteriya hisobida tan olishni tadqiq qilishda ularning strukturasi ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Bank daromadlarini ko'pchilik iqtisodchi olimlar turli xil belgilarga qarab tasniflaydi. Biz ularni asosan ikkita katta guruhga ajratdik. Birinchi guruhga kiruvchi olimlar

daromadlarni olinish tartibi bo'yicha foizli va foizsiz daromadlarga bo'ladi. Daromadlarni bunday tasniflashni K.Navro'zova, B.T.Berdiyarov, K.G.Parfenov, A.K.Polishchuk, J.Sinki, D.M.Noton, D.J.Karlson, K.T.Ditd va boshqalarning ilmiy ishlarida ko'rish mumkin.

Ikkinchi guruh olimlar G.G.Korobova, N.F.Karimov, E.P.Kozlova, E.N.Galagina va boshqalar bank faoliyatini asosiy va yordamchi faoliyatga bo'lib, shunga mos ravishda daromadlarni tasniflaydilar. Ya'ni daromadlar operatsion faoliyat daromadi, bank operatsiyalari hisoblanmagan operatsiyalardan olingan daromad, boshqa daromadlarga bo'linadi.

Bank daromadlarini bunday tasniflash ular to'g'risidagi ma'lumotlarni hisobga olish, tahlil qilish, nazorat qilish va boshqaruv maqsadlaridan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

Agar bank faoliyatini asosiy va qo'shimcha faoliyatga bo'ladigan bo'lsak, unda asosiy faoliyatdan olingan daromad daromadning asosiy qismini tashkil qilishini ko'rishimiz mumkin. Bu daromadni operatsion daromad deymiz. Operatsion daromad o'z navbatida, foizli va foizsiz daromadlarga bo'linadi.

Foizli daromadlarga berilgan kreditlar bo'yicha daromadlar, qo'yilgan depozitlar bo'yicha daromadlar, qarz majburiyatlari bo'yicha daromadlar, shuningdek, hisob, lizing, faktoring, forfeyting operatsiyalaridan olinadigan daromadlar kiradi.

Foizsiz daromadlarga komission daromadlar, moliyaviy bozorlardagi operatsiyalardan daromadlar, chet el valyutasidagi mablag'larni qayta baholash natijasidagi daromadlar kiradi.

Kredit xarakteriga ega bo'lmagan bank xizmatlarini ko'rsatish daromad olish nuqtai nazaridan ahamiyati bo'yicha ikkinchi o'rinda turadi. Bu daromad manbai hozirgi kunda rivojlangan mamlakatlarda katta ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu daromadlar odatda, komission daromadlar deyiladi, chunki ko'pchilik xizmatlar uchun xaq komission mukofot sifatida olinadi. Komission mukofot miqdori odatda, amalga oshirilgan operatsiya yoki bitim

summasiga nisbatan foiz ko‘rinishida olinadi. Shuningdek, komission daromadlarga ko‘rsatilgan xizmatlar uchun qat’iy summa ko‘rinishida yoki bank tomonidan qilingan xarajatlarni qoplash ko‘rinishida olingan daromad kiradi.

Komission daromad keltiruvchi operatsiyalarga quyidagilar kiradi:

- yuridik va jismoniy shaxslarga kassa–hisob–kitob xizmatini ko‘rsatish;
- plastik kartochkalar bilan operatsiyalar;
- bank kafolatlarini taqdim etish;
- valyuta kontraktlariga xizmat ko‘rsatish;
- konverсион operatsiyalar;
- qimmatli qog‘ozlar bozoridagi brokerlik;
- depozitar operatsiyalar va boshqalar.

Hozirgi kunda komission daromadlarning salmog‘i oshishi kuzatilmoqda, chunki ushbu operatsiyalardan olinayotgan daromadlar barqaror daromad manbaiga ega. Shuningdek, ushbu operatsiyalarning risklilik darajasi juda past (faqat kafolat berishdan tashqari).

Moliyaviy bozordagi operatsiyalardan daromadlarga: qimmatli qog‘ozlar, chet el valyutasi, qimmatbaho metallar, moliyaviy derevativlar (fyucherslar, opsiyonlar, forvard bitimlari) va boshqalar oldi–sotdisi bo‘yicha daromadlar kiradi. Bu operatsiyalar mohiyati jihatidan savdo operatsiyalari hisoblanadi va “resurslarni arzonroq olib – qimmatroq sotish” tamoyiliga asoslanadi. Ushbu operatsiyalar spekulyativ xarakterga ega bo‘lganligi sababli va risklilik darajasi yuqori ekanligidan ayrim davlatlarda yuqoridagi operatsiyalarni amalga oshirish taqiqlangan, masalan, qimmatli qog‘ozlar oldi–sotdisi.

Qo‘shimcha faoliyatdan olingan daromadlar bank daromadining juda oz miqdorini tashkil etadi. Unga: bank xizmatlari xarakteriga ega bo‘lmagan xizmatlardan daromadlar, korxonalar va tashkilotlar faoliyatida ishtirok etish, mashina, uskunalari, binolar va boshqa asosiy vositalarni ijaraga berish va uni sotish, o‘quv bank muassasalari daromadlari kiradi.

Bank foydasi kamayishida banklar o‘z faoliyatini diversifikatsiyalash harakat qiladi va shu bilan yangi

daromad manbalarini yaratadi. Banklar ishlab chiqarish, savdo–vositachilik va sugʻurta faoliyati bilan shugʻullanish huquqiga ega boʻlmaganligi sababli, ular bu sohalarga shuʻba korxonalar ochish va ularni aksiyalar paketini sotib olish orqali kirib keladi. Bunda banklar korxonalar va tashkilotlar kapitalida ishtirok etish orqali koʻproq daromad olish imkoniyatiga, ular faoliyati ustidan boshqarish huquqini olish yoʻli bilan risklarni minimallashtirishga erishadi.

Banklar asosiy va qoʻshimcha faoliyatdan olgan daromaddan tashqari boshqa daromadlar olishlari ham mumkin, bunday daromadlarni boshqa daromadlar kategoriyasiga kiritamiz. Boshqa daromadlarga: mijozlardan undirilgan penya, jarima, neustoyka; kassadagi ortiqcha mablagʻni kirim qilish; zaxira summasining tiklanishi; hisobot yilida aniqlangan yoki kelib tushgan oʻtgan yillardagi operatsiyalardan daromadlar; byudjetga toʻlangan soliqlarning ortiqcha qismining kelib tushishi; ijaraga olgan tashkilotlar tomonidan qaytarilgan binoni qoʻriqlash va komunikatsion xarajatlar; xodimlar tomonidan qaytarilgan telefon xarajatlari va boshqalar kiradi.

Bu daromadlar oʻz xarakteriga koʻra tasodifiy hisoblanadi va bank tomonidan “ishlab topilmagan” deyiladi.

Birinchi guruh olimlar fikriga qoʻshilgan holda daromadlarni foizli va foizsiz daromadlarga boʻlib, ularga qoʻshimcha ravishda boshqa daromadlarni ham kiritish lozimligini taʼkidlab oʻtish zarur deb topdik. Daromadlarni olish tartibi boʻyicha tasniflaganda, ular tarkibini aniq belgilab olish lozim.

Hozirgi kunda Oʻzbekiston bank tizimida ham ushbu amaliyotdan foydalanilmoqda. Jumladan, “Oʻzbekiston Respublikasi tijorat banklarida buxgalteriya hisobining hisobvaraqlari rejasi”da hamda “Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy bankiga bank nazorati boʻyicha taqdim etiladigan tijorat banklari hisobotlarini toʻldirish tavsiyalari toʻgʻrisida”gi 584 - Yoʻriqnoma boʻyicha 0204IS – “Foyda va zararlar toʻgʻrisida”gi hisobot shaklini toʻldirish toʻgʻrisidagi

uslubiy ko'rsatmalarda bank daromadlarini va xarajatlarini shu tartibda hisobga olishda foydalanilmoqda.

Shuni alohida qayd etib o'tishimiz lozimki, tijorat banklarining faoliyati nihoyatda keng qamrovli va xilma-xildir. Yagona bir xolding kompaniyalari ko'rinishida tijorat banklari va uning joylardagi filiallari ko'rsatadigan xizmatlarning xilma-xilligiga, mumkin qadar o'z mijozlariga xizmat ko'rsatishning qulay hamda arzon turli ko'rsatmalar buyruqlar sonini bir qadar cheklangan tartibda qo'llash imkoniyatlari rivojlanmoqda.

So'nggi vaqtlarda bank ishiga kiritilayotgan muhim yangiliklardan biri kredit kartochkalarini qo'llash, ishbilarmonlar, firmalarga zamonaviy xalqaro andozalar asosidagi buxgalteriya xizmatlarini ko'rsatish, faktoring operatsiyalari, ijarani moliyalashtirish, yevrodollar bozoridagi operatsiyalarda ishtirok etish favqulodda holatlarda pul hujjatlarini inkassatsiyalash uchun abonent yashiklari tizimidan foydalanish va boshqalar shular jumlasidandir.

Jahon miqyosida tan olinayotgan eng ilg'or va zamonaviy bank texnologiyalarini O'zbekiston bank tizimida qo'llash, bu o'z-o'zidan banklarning daromadlari ko'lamini kengaytirib bormoqda.

Tijorat banklari daromadining mohiyati va boshqa moliyaviy institutlardan farqlanib turuvchi xususiyati - bank pul resurslarini tashkil etish va yuqori daromadli bank portfellarini yaratish layoqati bilan xususiyatlanadi.

Tijorat banklari resurslarini tashkil qilish imkoniyatlari iqtisodiyot uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Ular moslashuvchan kredit tizimini amalga oshirmoqda, shu yo'l bilan iqtisodiyotni barqaror rivojlanishiga zarur shart-sharoitlarni yaratib bermoqda.

Bank tizimi o'z oldiga qo'ygan vazifalarni hal etishi uchun moliyaviy jihatdan barqaror bo'lishlari lozim. Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligi ular amalga oshirayotgan operatsiyalari va olayotgan moliyaviy natijalariga bevosita bog'liqdir.

Bank amalga oshirgan faoliyat natijasini baholash, uning faoliyati samaradorligini oshirishda iqtisodiy

ko'rsatkichlar tizimini yaratish, erishilgan yutuqlar va foydalanilmagan imkoniyatlarga baho berish, bank faoliyatini yuritishning eng qulay usullarini aniqlash vazifasini bajarishda buxgalteriya hisobi va iqtisodiy tahlilning xalqaro amaliyotda qo'lga kiritgan yutuqlaridan keng foydalanish talab etiladi. Bank faoliyati natijasini baholash jarayonida asosan buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobot ma'lumotlari, jumladan, balans, foyda va zararlar to'g'risidagi hisobot shakllaridan foydalaniladi. Ayrim davlatlarda balansdan foydalanilsa, ayrimlari foyda va zararlar to'g'risidagi hisobotdan foydalaniladi. Bizningcha, amaliyotni tahlil qilish natijalari buxgalteriya hisobi uslubiyoti to'liq va yetarlicha ma'lumot bilan ta'minlanmayotganini ko'rsatmoqda.

Moliyaviy hisobot elementlaridan bo'lgan daromad va xarajatlarni hisobotlarda to'g'ri aks ettirish yoki ularni tan olish hozirgi kunning dolzarb masalalaridandir.

Banklarda daromadlarni tan olishni tadqiq qilishdan oldin xalqaro amaliyotdan kelib chiqib, tan olishning mohiyatini o'rganib chiqsak. "Tijorat banklarida foizlarni hisoblash to'g'risida"gi 1306-sonli Nizomda tan olish – element ta'rifiga javob beradigan va tan olish mezonlarini qondiradigan muayyan moddani pul summasi ko'rinishida aks ettirish va balans yoki foyda va zararlar to'g'risidagi hisobotga kiritish jarayoni deb ta'rif berilgan.

Bank daromadini tan olishdan maqsad, ularning moliyaviy hisobotda to'g'ri aks ettirilishi va yakuniy moliyaviy natijani to'g'ri aniqlashdir.

Hozirgi kunda buxgalteriya hisobida daromadlarni aks ettirish (tan olish) hisoblash usulida amalga oshirilmoqda. Shuningdek, xalqaro amaliyotda daromadlarni tan olishning kassa usuli ham mavjud.

Tan olishning bu ikki usulining o'ziga xos jihatlari mavjud. Hisobga olishning kassa usulida daromadlar mablag' kelib tushganda, xarajatlar esa to'lovlar to'langanda hisobga olingan. Buning xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatida tuziladigan moliyaviy hisobotlarda mavjud bo'lgan mablag'lar to'g'risida ma'lumotlar shakllantirgan. Xo'jalik yurituvchi subyektga olingan

daromad hisobidan soliq to'lash imkoniyati berilgan, lekin iqtisodiy qarorlar qabul qilish uchun sharoit yaratib berilmagan.

Hisoblash usuli esa daromad va xarajatlarni pul mablag'larini olish yoki to'lash asosida emas, balki kelgan davrda tushishi yoki paydo bo'lishiga qarab buxgalteriya hisobida e'tirof etadi va moliyaviy hisobotlarda aks ettiradi.

Hisoblash usuli moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilariga o'tgan davrda olingan va to'langan mablag'lar to'g'risida ma'lumot berib qolmay, kelajakda mablag'larni to'lash majburiyatining yuzaga kelishi yoki mablag'larning olish imkoniyati yuzaga kelishi to'g'risida ham ma'lumot beradi. Shunday qilib, u foydalanuvchilarni iqtisodiy qarorlarni qabul qilish uchun zarur bo'lgan o'tgan operatsiyalar va voqealar to'g'risidagi ma'lumot bilan ta'minlaydi.

Daromad va xarajatlarni hisoblash usuli bilan tan olish quyidagi afzaliklarga ega:

1. bank daromad va xarajatlari ma'lum bir vaqtga emas, hisobot davriga bog'laydi, chunki xo'jalik jarayoni uzluksiz jarayon;

2. har bir xarajat ma'lum bir miqdorda daromad olish uchun qilinadi va ular o'rtasidagi bog'liqlik faqat hisoblash usuli bilan kuzatilishi mumkin;

3. xarajatlarni vaqt mobaynida taqsimlash daromad olish bilan bog'liq, sababi, daromad va xarajatlarning bog'liqligi hisobot davrida moliyaviy natijalarning teng taqsimlanishidir;

4. daromad va xarajatlarni hisoblash talab va majburiyatlarni yuzaga kelish vaqtlarini aniqlash imkonini beradi.

Hisoblash usulida aktivlar ko'payishi yoki majburiyatlarning kamayishi bilan bog'liq bo'lgan kelajakdagi iqtisodiy nafning oshishi yuzaga kelsa, foyda va zararlar to'g'risidagi hisobotda daromad tan olinadi. Bunda u aniq o'lchash imkoniyatiga ega bo'lishi lozim. Bu haqiqatda aktivlarning ko'payishi yoki majburiyatlarning kamayishining tan olinishi bilan bir vaqtda sodir bo'ladi.

Shuningdek, xarajat ham hisoblash usulida aktivlar kamayishi yoki majburiyatlarning ko'payishi bilan bog'liq bo'lgan kelajakdagi iqtisodiy nafning kamayishi yuzaga kelsa, foyda va zararlar to'g'risidagi hisobotda tan olinadi. Bunda harajat ham aniq o'lchash imkoniyatiga ega bo'lishi lozim.

Xarajat foyda va zararlar to'g'risidagi hisobotda qilingan sarf va olingan daromadni solishtirish orqali tan olinadi. Masalan, bank ko'rsatgan hisob-kitob xizmati bo'yicha qilingan xarajat olinadigan daromad tan olingan paytda, hisobga olinadi.

Bank daromadlari va xarajatlarni tan olishda asosiy e'tiborni operatsiya amalga oshirilgan vaqtni to'g'ri aniqlash va tan olish mezonlariga qat'iy rioya qilishga qaratish lozim.

Amalda bo'lgan me'yoriy hujjatlarda daromad va xarajatlarni tan olish mezonlari sifatida quyidagilar etirof etilgan:

a) ular bilan qo'shilgan har qanday iqtisodiy foydani bank tomonidan olinishi yoki sarflanishi ehtimoli mavjud bo'lganda;

b) modda ishonchli o'lchanadigan qiymat yoki bahoga ega bo'lganda buxgalteriya balansida tan olinishi lozim.

Bu ikki mezon bajarilsa, bankning daromad va xarajatlari tan olinishi kerak. Ushbu mezonlarning buxgalteriya hisobidagi ahamiyati shundaki, agar ulardan biri bajarilmasa, daromad yoki xarajatni tan olish ushbu mezonlar to'liq bajarilgunga qadar cho'ziladi. Shundan so'ng, daromad kelib tushgan pul mablag'lari qiymatida, xarajat esa to'langan summada o'lchanadi.

"Tijorat banklarida foizlarni hisoblash to'g'risida"gi Nizomda banklar daromadlar va xarajatlarni hisobga olishda izchillik, ishonchlilik, aniqlik, to'liqlik va o'z vaqtidalilik bo'yicha talablarni o'z ichiga oladigan hisoblab, yozish usulini qo'llash bo'yicha tamoyillarni qo'llashlari kerak ekanligi va bu tamoyillar qo'yilgan talablarni bajarish va qo'llashning tegishli usullari to'g'risidagi ko'rsatmalarni o'z ichiga olishi lozimligi belgilangan.



Bank daromad va xarajatlarni tan olishda, shuningdek, “ehtiyotkorlik”, “hisobot davrida daromadlar bilan xarajatlarning muvofiqligi”, “ahamiyatlilik”, tamoyillaridan ham foydalanish kerak. Ya’ni, qarorlar qabul qilishda ehtiyotkorlik qoidasiga rioya qilish aktivlar va daromad qaytadan baholanmasligi, majburiyatlar yoki xarajatlar esa yetarlicha baholanmasligiga yo’l qo’ymaslik maqsadida noaniqlik sharoitida baho chiqarish uchun zarurdir. Hisobot davrida olingan daromadlar bilan qilingan xarajatlarning muvofiqligi shuni anglatadiki, mazkur davrda ushbu hisobot davridagi daromadlarni olishga asos bo’lgan xarajatlarga aks ettiriladi. Agar, daromad bilan xarajatlar o’rtasida bevosita bog’liqlikni o’rnatish qiyin bo’lsa, xarajatlar biron–bir taqsimlash tizimiga muvofiq bir nechta hisobot davrlari o’rtasida taqsimlanadi. Masalan, bir necha yilga taqsimlanadigan amortizatsiya xarajatlariga. Daromad va xarajatlarni hisobga olishda ahamiyatlilik tamoyili moliyaviy axborotdan foydalanuvchilarning qarorlar qabul qilish jarayonida ularning ehtiyojlarini qondirish va ularga operatsion, moliyaviy va xo’jalik faoliyatiga baho berishda ko’maklashish uchun zarur bo’lishi kerak. Shuningdek, arzimagan xarajat elementini to’g’ri hisoblash imkoniyati yo’qligi daromadni tan olmaslik sabablari bo’lmasligi lozim.

Hozirgi kunda bank daromadlari va xarajatlarini buxgalteriya hisobida tan olish masalasi o’z ahamiyatini yo’qotgani yo’q. Bank daromadlari va xarajatlarini hisobga olishda tan olish mezonlarining bajarilishi va buxgalteriya hisobining izchillik, ishonchlilik, aniqlik, to’liqlik va o’z vaqtidalilik tamoyillari bilan birga “ehtiyotkorlik”, “hisobot davrida daromadlar bilan xarajatlarning muvofiqligi”, “ahamiyatlilik” tamoyillaridan foydalansa, maqsadga muvofiq bo’ladi.

Respublikamizda buxgalteriya hisobiga oid ilmiy-nazariy adabiyotlarda moliyaviy natija deganda ko’pincha xo’jalik yurituvchi subyektning foyda yoki zarar shaklida ifodalangan faoliyatining pirovard iqtisodiy yakuni tushuniladi. Moliyaviy natijaga bunday qarash xo’jalik

yurituvchi subyekt faoliyatining yakuniy natijasi – foyda yoki zararni ifodalashini ko‘rish mumkin.

Taniqli rus olimi Ya.V. Sokolov o‘zining “Buxgalteriya hisobining nazariy asoslari” kitobida moliyaviy natijani eng qiyin kategoriyalardan biri deb biladi va uni ma‘lum bir hisobot davrida olingan foyda yoki zarar deb ta’riflaydi. Moliyaviy natija hisobot davrida kapital qiymatining o‘zgarishini ko‘rsatadi. Agar u o‘ssa, foyda to‘g‘risida, kamaysa–zarar to‘g‘risida gap ketadi.<sup>53</sup>

Ya.V. Sokolov fikricha, moliyaviy natija, ya’ni foyda yoki zararda kapitalning o‘zgarishini ko‘rish mumkin, lekin bu o‘zgarish nima hisobiga sodir bo‘lganini bilib bo‘lmaydi. Kapital turli xil manbalar hisobiga o‘zgarishi mumkin, masalan, qo‘shimcha muomalaga aksiya chiqarish, tekinga mulk olish, moliyaviy yordam olish, majburiyatlardan voz kechilishi va boshqalar.

Ayrim iqtisodchi olimlar moliyaviy natijaga daromadlar va xarajatlar o‘rtasidagi farq sifatida qaraydi. Bu farq musbat bo‘lsa, unga foyda sifatida, manfiy bo‘lsa zarar sifatida qaraladi. Demak, zararni manfiy ishorali foyda ko‘rinishida talqin qilish mumkin. Bunda keng tarqalgan model vujudga keladi, unga asosan daromadlar-bu kirib keluvchi mablag‘lar oqimi, xarajatlar esa chiqib ketuvchi mablag‘lar oqimi; foyda (zarar) – ular o‘rtasida vujudga keluvchi farq va u balansda aks etib, uni o‘zgartiradi.

Ko‘rib chiqilgan ikki xil buxgalteriya yondashuvlari moliyaviy natijani aktivlar o‘sishi yoki mablag‘lar kirimi va chiqimi oqimlari o‘rtasidagi farq sifatida aks ettiradi.

Bankning erishgan moliyaviy natijasi unga ta’sir etuvchi ichki va tashqi omillar kompleksi ko‘zgusi hisoblanadi. O‘z mablag‘larining yetarliligi, resurslarni jalb qilish va joylashtirish, daromad keltiruvchi va keltirmaydigan aktivlar, bankning xarajatlari, zararlari va yo‘qotishlar darajasi, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, filiallar va shu’ba banklar faoliyatining daromadliligi kabi, bank faoliyati va uni boshqarish sifati bilan bog‘liq ko‘rsatkichlar moliyaviy natijalarga ta’sir ko‘rsatuvchi ichki omillar sifatida e’tirof etilishi mumkin.

---

<sup>53</sup> Соколов Я.В. Основы теории бухгалтерского учета. М.: Финансы и статистика, 2000. 441,496 с.

Bankning boshqaruvi va personal faoliyati natijasi umumlashgan holda bank faoliyatining yakuniy moliyaviy natijasi - foydada o'z aksini topadi.

Tijorat banklari faoliyati natijasiga ta'sir etuvchi omillarning ko'p qirraliligi ularga ko'p maqsadli va funksiyali iqtisodiy tizim sifatida qarashni taqozo etadi. Shuning uchun ham bank faoliyati natijasini iqtisodiy ko'rsatkichlar tizimi yordamida tavsiflash lozim. Moliyaviy ko'rsatkichlar tizimi sifatida o'zaro bir-biri bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiy faoliyat natijasini har tomonlama kompleks baho beruvchi va sodir bo'ladigan iqtisodiy jarayonlarni haqqoniy aks ettiruvchi ko'rsatkichlarni tushunish kerak.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, moliyaviy natijaga quyidagicha ta'rif berish mumkin:

Moliyaviy natija - bu ma'lum bir davrda bank operatsiyalarining daromadliligi (daromadsizligi) hisobiga kapitalning o'zgarish ko'rsatkichi. Bunga asosan bank faoliyatining yakuniy moliyaviy natijasini bank foydasi yoki zarari sifatida ko'rish mumkin.

Ko'pchilik olimlarning fikrlarida moliyaviy natijaga foyda sifatida qaralishini uchratish mumkin, lekin bu unday emas. Agar moliyaviy natijani foyda sifatida e'tirof etadigan bo'lsak, unda moliyaviy natija atamasini umuman olib tashlashga to'g'ri keladi. Moliyaviy natija ijobiy bo'lgan holatdagina foyda to'g'risida gap yuritish mumkin, lekin har doim ham u ijobiy bo'lavermaydi, salbiy ham bo'lishi mumkin. Salbiy bo'lgan holatda, ya'ni daromadlar xarajatlardan kam bo'lganda zarar bo'ladi. Bank faoliyati natijasi zarar bilan chiqsa, u o'z oldiga qo'ygan maqsadlarini amalga oshira olmaydi. Shuning uchun ham moliyaviy natijani to'g'ri hisob-kitob qilish, zararlarni yuzaga kelish sabablarini aniqlash, daromad manbalarini topish juda muhim hisoblanadi.

Yakuniy moliyaviy natijaning ijobiy bo'lgan holatini, ya'ni foyda to'g'risidagi fikrlarni ko'rib chiqamiz.

Foydaning buxgalterlik va iqtisodiy talqini farqlanadi. Iqtisodchi olimlar foydani iqtisodiy kategoriya sifatida qo'shimcha mahsulotning bir qismini ishlab chiqarish va

taqsimlash bilan bog'liq iqtisodiy munosabatlarning tarkibiy qismini tashkil etuvchi va u yangidan yaratilgan qiymatning bir qismi ekanligini ko'rsatib beradi.

Shotlandiyalik iqtisodchi olim Adam Smit birinchilardan bo'lib, foydaga kapitalga tegmasdan turib, ishlatilishi mumkin bo'lgan summa sifatida qaragan. Nobel mukofoti sovrindori, ingliz iqtisodchi olimi Jon Xiks ushbu fikrni aniqlashtirib, foyda – bu shunday summaki, uni inson ma'lum bir vaqt oralig'ida ishlatishi mumkin va ushbu davr oxirida boshlang'ichdagi kabi qoldiqqa ega bo'ladi deb e'tirof etgan.<sup>54</sup>

Biroq yana bir yondashuv ham mavjud bo'lib, u I. Fisherning tadqiqot ishlarida aks etgan. Aynan u buxgalter tomonidan hisoblangan an'anaviy foyda iqtisodiy ma'zmuniga ega emasligini ko'rsatib bergan. U buni yaxshi bir misol bilan tushuntirishga harakat qilgan: buxgalter nuqtai nazaridan kapitalni ifodalovchi bog'ning narxi, unga qancha haq to'langanidan yoki uni qanchaga sotish mumkinligidan kelib chiqadi, biroq aslida uning qiymati u keltiradigan yoki keltirishi mumkin bo'lgan daromadga bog'liq. Shundan kelib chiqib, I. Fisher moliyaviy natijani (foyda) hisobot davrida aktivlar daromadliligi o'zgarishi hisobiga qiymatning o'sishi deb e'tirof etgan.<sup>55</sup>

Yuqoridagi firklardan kelib chiqib, foydaning yagona tushunchasi yo'qligini ko'rish mumkin, chunki u manfaatdor shaxslarning maqsadlariga bog'liq bo'ladi. Bu shaxs, avvalambor, aktivlar tarkibiga nimani kiritish va buxgalterlik foydasi qanday hisob-kitob qilinishini hal qilishi kerak.

Bunda shuni nazarda tutish kerakki, foydaning buxgalterlik talqini uning iqtisodiy kattaligini belgilaydi. Bundan tashqari aktivning iqtisodiy bahosi kelajakka asoslangan, lekin buxgalteriyada foyda, uni hisob-kitob qilish o'tgan faoliyat natijasiga asoslangan. Bizningcha, buxgalterlik foydasi va iqtisodiy foydani bir-biriga tenglashtirish uchun bankning ishlab, topa olmagan

---

<sup>54</sup> Банковское дело: Учебник / Под редакцией Коробовой Г.Г. М.: Экономист, 2005. 751 с.

<sup>55</sup> Козлова Э.Р., Голонина Э.Н. Бухгалтерский учет в коммерческих банках. М.: 1996.

mablag'larini va gudvillni buxgalterlik foydasiga qo'shish kerak.

Bankning ishlab topa olmagan mablag'lari bu bankning aktivlarini joylashtirishda, uning muqobil variantlari mavjud bo'la turib, daromad ololmasligidir.

Ko'rib chiqilgan moliyaviy natijalar to'g'risidagi qarashlardan ko'rinadiki, buxgalterlik va iqtisodiy foydani bir-biriga mos emasligi va ularni hisoblash bo'yicha muammolar hozirgi kunda ham o'z dolzarbligini saqlab qolmoqda.

Moliyaviy natijaninig salbiy holati, ya'ni faoliyat natijasi zarar bilan chiqishini ko'rib chiqamiz. Zarar iborasini ko'pchilik iqtisodchi olimlarning ilmiy izlanishlarida uchratish mumkin, ular buni faqat yo'qotish sifatida ko'radi yoki oddiy bir so'z sifatida ishlatadi. Bizningcha, zarar bu faqat xarajatning daromaddan oshishi emas, balki xo'jalik yuritish natijasida o'z mablag'larining kamayishi, daromad olmasdan, mablag'lardan foydalanish va xarajatlarning qoplanmasligidir. Agar xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyati zarar bilan yakunlanaversa, oxir-oqibat u to'lovga layoqatsiz bo'lib, bankrotga uchraydi. Bunday salbiy holatlarni oldini olish uchun zararning yuzaga kelish sabablarini o'rganib, ushbu sabablarni bartaraf etish yo'llarini izlab topish kerak.

Rus olimi A. Sheremetning<sup>56</sup> fikricha, moliyaviy natijalarni ichki boshqarish maqsadlaridan kelib chiqib, ularni shakllantirishda daromad va xarajatlarni shartli ravishda quyidagi yo'nalishlar bo'yicha aniqlash mumkin:

- operatsion faoliyatdan olingan daromad;
- boshqa faoliyatdan daromadlar;
- bank ishlab topmagan mablag'lar;
- operatsion faoliyat xarajatlari;
- bank faoliyatini ta'minlovchi xarajatlar;
- riskli operatsiyalarni amalga oshirish xarajatlari.

Daromad va xarajatlarni shunday tasniflash orqali moliyaviy natijani aniqlash modeli tugallangan ko'rinishga ega bo'lsada, daromad va xarajat moddalarini bunday

---

<sup>56</sup> Шеремет А. Финансовый анализ в коммерческом банке. М.: Финансы и статистика. 2000. 67 с.

detallashtirish ayrim masalalarni hal qilishda hetarli emas. Chet el banklari va mamlakatimiz banklarida moliyaviy natijalar ko'rsatkichlarini shakllantirish tartibini solishtirish orqali ko'rib chiqsak. Amerika Qo'shma Shtatlarining katta banklarida moliyaviy natijalarni shakllantirish modeli quyidagi ko'rinishga ega:

9.1-jadval

### **AQSh banklarida moliyaviy natijalarni shakllantirish modeli<sup>57</sup>**

<b>№</b>	<b>Daromad</b>	<b>Xarajat</b>	<b>Moliyaviy natija</b>
1	Jami foizli daromad.		
2		Jami foizli to'lovlar.	
3			Sof foizli daromad yoki foizli marja (1qat-2qat).
4		Kreditlar bo'yicha ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash zaxirasi.	
5			Zaxiralar shakllantirilgandan so'ng foizli marja (3qat-4qat).
6	Jami foizsiz daromadlar.		
7		Jami foizsiz xarajatlari.	
8			Sof foizsiz daromad yoki foizsiz marja (6qat-7qat).
9			Soliq to'langunga qadar daromad (zarar) (5qat+8qat)
10		Daromad solig'ini to'lash.	
11			Soliq to'langandan so'ng daromad (zarar) (9qat-10qat).

Sof foizli daromadga sof foizsiz xarajatlarni qo'shish bilan soliq to'langunga qadar foydani aniqlash orqali moliyaviy natijalarni shakllantirish ketma ketligi Amerika banklari uchun juda keng tarqalgan.

Bunda foizsiz xarajatlarni sof foizli va operatsion daromadlar summasidan ayrilsa, yanada asoslangan bo'lar edi, chunki foizsiz xarajatlari bankning umumiy xarajatlari hisoblanadi. Bunday modelda moliyaviy natijalarni shakllantirish jarayonini ikki mustaqil bosqichga bo'lish maqsadga muvofiq bo'ladi: sof operatsion daromadni shakllantirish bosqichi hamda operatsion bo'lmagan daromad va xarajatlarni shakllantirish bosqichi.

<sup>57</sup> Шеремет А.Д., Шербакова Г.Н. Финансовый анализ в коммерческом банке. М.: Финансы и статистика. 2000. 67 с. Ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Rossiya tijorat banklarida moliyaviy natijalarni aniqlash Rossiya Markaziy banki tomonidan 01.10.1997 yil 17-“Moliyaviy hisobotlarni tuzish to‘g‘risida”gi Yo‘riqnoma asosida olib boriladi. Bunga asosan moliyaviy natijalarni shakllantirish modeli quyidagi ko‘rinishga ega:<sup>58</sup>

1. Foizli daromad.
2. Foizli xarajat.
3. Foizli marja (1qat-2qat).
4. Operatsion daromad.
5. Yalpi operatsion daromad (3qat+4qat)
6. Operatsion xarajatlari.
7. Sof operatsion daromad (zarar) (5qat-6qat)
8. Kreditlar bo‘yicha ko‘rilishi mumkin bo‘lgan zararlarni qoplash zaxirasini shakllantirish xarajatlari.
9. Umidsiz qarzlarni hisobdan chiqarish bo‘yicha xarajatlari.
10. Ko‘zda tutilmagan holatlar bo‘yicha foyda (zarar).
11. Operatsion bo‘lmagan daromadlar va xarajatlari (8qat+9qat+-10qat)
12. Soliq to‘langunga qadar sof daromad (zarar) (7qat+-11qat).
13. Daromad solig‘i.
14. Sof daromad (zarar) (12qat-13qat).

Bank daromadlari va xarajatlarini bunday guruhlashtirish ularning asosiy bank operatsiyalarini o‘tkazishda bir-birlari bilan qay darajada bog‘liqligini, shuningdek, boshqa omillarning qay darajada ta’sir ko‘rsatishini aniqlash imkonini beradi.

A. Sheremetning fikricha, rezervlarni shakllantirish sof foizli daromadni aniqlangandan so‘ng amalga oshirilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi, chunki zaxiralar o‘z iqtisodiy mazmuniga ko‘ra ko‘rilishi mumkin bo‘lgan foizli yo‘qotishlar sirasiga kiradi.<sup>59</sup>

Ayrim mualliflar bank daromadlari foizli va foizsiz ko‘rinishda bo‘lishini ma’qul ko‘rmaydi, balki: asosiy operatsiyalardan olinadigan daromad (o‘z mablag‘lari va jalb qilingan mablag‘larni joylashtirish bilan bog‘liq) va

<sup>58</sup> Жарковская Э.П. Банковское дело. 4-е изд. М.: Omega-L, 2005.С. 377.

<sup>59</sup> Шермет А. Финансовый анализ в коммерческом банке. М.: Финансы и статистика. 2000. 65 с.

boshqa operatsiyalardan daromadlar sifatida ko'rishni afzal biladi.

Ko'rib chiqilgan modellar yakuniy natija, ya'ni bank sof foydasini o'zgartirmaydi. Sof foydani shakllantirish modellari faqat hisob-kitoblarni amalga oshirish tartibi bilan farqlanadi.

O'zbekistonda tijorat banklarida moliyaviy natijalar ko'rsatkichlarini shakllantirish algoritmi Markaziy bank tomonidan belgilangan moliyaviy hisobot shakllari va buxgalteriya hisobi standartlariga asoslanadi. Jumladan, Markaziy bank tomonidan 2004-yil 6-noyabrda tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankiga bank nazorati bo'yicha taqdim etiladigan tijorat banklari hisobotlarini to'ldirish tavsiyalari" to'g'risidagi 584-Yo'riqnoma bo'yicha O204IS-"Foyda va zararlar to'g'risida hisobot" shaklini to'ldirish to'g'risidagi uslubiy ko'rsatmalar asos bo'lib hisoblanadi. Unga ko'ra, moliyaviy natijalarning asosiy ko'rsatkichlari quyidagilar hisoblanadi:

- sof foizli daromad;
- ehtimoliy zararlar zaxirasi chiqarib tashlangandan so'ng sof foizli daromad;
- operatsiya xarajatlari qilingunga qadar sof daromad;
- daromad solig'ini hisobga olmagan holda sof daromad;
- hisobot davridagi sof foyda (zarar).

9.2-jadval

**Tijorat bankida "Foyda va zararlar to'g'risida"gi hisobot shaklida moliyaviy natijalarning shakllanishi (mln so'm)**

No	Ko'rsatkichlar	2017 yil	2018 yil
1	Foiz daromadi	310 398	351 617
2	Foizli xarajatlar	-154 398	- 194133
3	Sof foiz daromadi	156 000	157 484
4	Kreditlar bo'yicha ehtimoliy zararlarni (baholash) qayta tiklash	-75884	-97740
5	Zaxirani baholash-chegirib tashlagandan keyingi sof foiz daromadi	80 116	59 744
6	Foizsiz daromad	313 727	406 246
7	Operatsion xarajatlar	-309 529	-359 816
8	Daromad (foyda) solig'idan oldingi sof foyda (zarar)	84 314	106 174
9	Daromad (foyda) solig'ini baholash	-16716	-9101
10	Sof foyda (zarar)	67 598	97 073



Bundan ko‘rinib turibdiki, moliyaviy natijalar bir-biri bilan bog‘liq iqtisodiy ko‘rsatkichlar tizimidir va ular tijorat banklarida daromad va xarajatlarni bir-biriga solishtirish orqali aniqlanadi.<sup>60</sup>

Ma‘lumotlardan shuni ko‘rishimiz mumkinki, mamlakatimizda tijorat banklari moliyaviy natijalarini shakllantirishda daromad, xarajat, foyda va zarar ko‘rinishidagi ko‘rsatkichlardan foydalaniladi. Bank daromadlari foizli va foizsizga, xarajatlari foizli, foizsiz va operatsionga ajratiladi.

Bankning foydasi yuqori bo‘lishi uchun, eng avvalo, uni to‘g‘ri tashkil qila bilish kerak. Foydani to‘g‘ri boshqarishning asosiy maqsadi, balans likvidligini ta‘minlagan holda, risklilik darajasi yuqori bo‘lmaganda maksimal foyda olishdan iboratdir.

Bankni boshqarishning samaradorligini oshirish uning daromadlilik nuqtai nazaridan bank faoliyatini tahlil qilishga yordam beradi. Ya‘ni, kredit va foiz siyosatini tuzish, foydaliroq operatsiyalarni aniqlamoq va daromadlarni oshirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish. Bu masalalarni moliyaviy menejmentsiz hal etib bo‘lmaydi.

Tijorat banklarida moliyaviy menejment birinchi navbatda bank strategiyasi realizatsiyasi va rejasini ta‘minlovchi boshqaruvning oqilona tizimini ishlab chiqish va tashkil qilish maqsadining moliyaviy faoliyatini tadqiq qilish bilan o‘zaro bog‘liq.

Tijorat banki foydasining kattaligiga quyidagi omillar ta‘sir qiladi:

- bank daromadi va xarajatlarining o‘zaro nisbati;
- kreditlar bo‘yicha foiz stavkasining o‘rtacha darajasi;
- kredit va depozit operatsiyalari hajmining o‘zgarishi;
- aktiv operatsiyalarining o‘rtacha daromadlilikligi;
- daromad hajmi va undagi foydaning ulushi;
- bank kapitali kattaligi;
- kredit portfeli tuzilishi;
- omonatlarga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha xarajatlari.

---

<sup>60</sup>Umarov Z.A. Tijorat banklarining moliyaviy natijalari mohiyati//Iqtisodiyot va ta‘lim. № 1, 2006.

Birinchi 5ta omil balansli foyda kattaligiga, 6-omil barqarorlikka, 7 va 8-omillar bank operatsiyalari foydaliligi sifatining o'sishiga ta'sir qiladi.

Bank foydasini boshqarishni quyidagi asosiy guruhlariga ajratish mumkin:

- foydani boshqarish jarayonida ishtirok etuvchi bank bo'limlarini aniqlash;
- bankning daromadlari, xarajatlari va foydasini rejalashtirish;
- bank foydaliligi darajasini baholovchi usullarni qo'llash;
- foydani joriy tartibga solish usullarini aniqlash.

Bank foydasini boshqarishda uning turli xil bo'limlari qatnashadi, jumladan, boshqaruvchi organlar, departamentlar, boshqarma va bo'limlar. Shuningdek, funksional bo'limlar, bankning aktiv va passiv operatsiyalarini amalga oshirishda ishtirok etuvchi bo'limlar va boshqarmalar. Ularning foydani boshqarish bo'yicha funktsiyasiga rentabellikni baholash va tahlil qilish, alohida shartnomalar rentabelligini nazorat qilish kiradi.

Ikkinchidan, kredit tashkilotining boshqa bo'limlari. Ularning funksiyasiga daromadlar va xarajatlar rejasini tuzish, bank foydasi darajasini tahlil qilish va baholash, foiz marjasi kattaligining yetarliligi haqida takliflar ishlab chiqish va boshqalar kiradi.

Foydani boshqarishda ishtirok etuvchi bankning uchinchi bo'limi buxgalteriya hisoblanadi.

To'rtinchi bo'lim sifatida ichki nazorat xizmatini aytishimiz mumkin.

Tijorat banki menejmentining asosiy vazifasi - foydaning barqarorligini yetarli darajada ta'minlagan holda, uni maksimallashtirish. Bu vazifalarni yechish yo'llari quyidagicha: jalb qilingan resurslar qiymati ustidan qattiq nazorat; limitlar tizimini, ishlab chiqish va amal qilish; resurslarni stavkalar bo'yicha joylashtirish.

Tijorat banklari resurslarini boshqarish samarasi quyidagilarni o'z ichiga oladi;

- aktivlar portfelini boshqarish;

- qarz kapitali tarkibini boshqarish;
- ishlab chiqaruvchi aktivlardan olinadigan daromadni maksimalashtirish;
- sarflarni boshqarish;
- foiz stavkasini boshqarish;
- yuqori samarali bank faoliyati.

Bank faoliyati moliyaviy natijalari tahlilining metodikasi quyidagi balans tengligi asosida qurilishi kerak:

$$\text{Aktivlar} = \text{qarz kapitali} + \text{o'z kapitali}.$$

Bu tenglik moliyaviy natijalarni aniqroq ifodalashga, unga ta'sir etuvchi omillarni o'rnatishga va oxir oqibatda, bank, o'z faoliyatidan maksimal foyda olishi uchun ularni samarali boshqarishiga yordam beradi.

Shu bilan bog'liq holda, bank moliyaviy natijalari tahlilining obyekti, uning tijorat faoliyati, subyekti esa bevosita bankning o'zi hisoblanadi.

Tijorat banki oladigan foyda, uning bank bozoridagi keyingi mavqeini aniqlash va funksionallashtirish uchun moddiy asos hisoblanadi. Bank menejmentining vazifasi — foydaning tushib ketmasligiga yo'l qo'ymaslik, chunki bu kapital yetarliligiga va bankning raqobatchilik darajasiga ta'sir qiladi. Dividend va soliqlar to'langandan keyin qoladigan daromad hajmi bank kapitalini saqlab qolishga va kerakli zaxiralarni tashkil etishga yetarli bo'lishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, foyda bank faoliyatining natijasi va rivojlanishining asosi, kapitalga tegmay turib, bank faoliyatida ishlatilishi mumkin bo'lgan mablag'dir. Moliyaviy natija o'zaro bir-biri bilan bog'liq bo'lgan, iqtisodiy faoliyat natijasiga har tomonlama kompleks baho beruvchi va sodir bo'ladigan iqtisodiy jarayonlarni haqqoniy aks ettiruvchi ko'rsatkichdir.

## **9.2. Foizli, foizsiz va boshqa operatsion daromadlar hisobi**

Banklarning daromadlarini hisobga olishni tadqiq qilishdan oldin bank daromadlarining tarkibi va uning shakllanishini ko'rib chiqish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Tijorat banklarining daromadlari va ularning manbalarini bank faoliyatiga qarab, ya'ni tijorat banklari amalga

oshiradigan operatsiyalar nuqtai nazaridan turkumlash mumkin.<sup>61</sup> Tijorat banklarining daromadi bank faoliyatining kredit berish, diskont faoliyati, trast (ishonch) xizmati ko'rsatish, banklarning kafolatlash faoliyati, qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalar, depozitlarni qabul qilish va ularning hisobini yuritish bilan bog'liq faoliyat, boshqa banklar bilan vakillik munosabatlariga asoslangan faoliyat, noan'anaviy xizmatlar ko'rsatish bilan bog'liq faoliyat va boshqa faoliyat turlari natijasida shakllanadi. Ushbu faoliyatlarning har bir turi bank ushbu operatsiyalarda qanday vaziyatda qatnashishiga qarab ajralib turadi. Yuqoridagi faoliyat turlarining ba'zilari aktiv operatsiyalarga kirsa, ba'zilari esa passiv operatsiyalarga kiradi. Daromadlar har bir faoliyat turidan turlicha kelishi mumkin. Aktiv operatsiyalardan keladigan daromad umumiy daromadlarning asosiy salmog'ini tashkil etadi.

Kreditlash operatsiyalari vositasida daromadlarning shakllanishini ikki tarkibiy elementga bo'lish mumkin: mijozlarga, ya'ni yuridik va jismoniy shaxslarga kredit berish; bo'sh zaxira mablag'larini foiz hisobiga boshqa tijorat banklariga vaqtinchalik foydalanishga berish. Kredit berishning ikkinchi turi banklararo kredit yoki boshqa bankdagi muddatli depozit shaklida ham bo'lishi mumkin. Kredit berish faoliyatning rivojlanish shartlari bo'lib, kredit muassasalari orasida ma'lumot ayirboshlashning yaxshi yo'lga qo'yilganligi, vositalarning mavjudligi, ya'ni bank bozorida resurslarni qayta taqsimlash bilan shug'ullanuvchi vositachilarning borligi hamda vakillik hisobvaraqlarini malakali boshqarish hisoblanadi.

Hozirgi kunda Respublikamiz bank tizimida mijozlarni hamda boshqa banklarni kreditlash tijorat banklari daromadining asosiy qismini tashkil etadi. Ko'pgina banklar qisqa va uzoq muddatlarga mavjud mablag'larini kreditga berib, turlicha foiz stavkalar o'rnatgan holda daromad oladilar. Har bir bank foiz stavkalarini o'z kredit siyosatiga mos ravishda belgilaydi va bu stavkalar bir-biridan farqlanishi mumkin. Biroq oradagi farq unchalik

---

<sup>61</sup> Камишанов П.И., Камишанов А.П. Бухгалтерская финансовый отчетность: составление и анализ. 5-е издание. М.: Omega-L, 2006. 96 с.

katta emas, chunki barcha banklar o'z foiz stavkalarini Markaziy bank belgilab bergan majburiy zaxira stavkasiga mos holda belgilaydilar.

Jahondagi yetakchi mamlakatlar bank tizimida kreditlashning ko'pgina turlari mavjud bo'lib, ular qay maqsadga yo'naltirilganligiga qarab, guruhlanadi.

Xususan, ipoteka, lombard, overdraft, kontrkorrent, iste'mol va boshqa ko'pgina kredit turlarini sanab o'tish mumkin. Biroq bizda ko'p hollarda odatdagi qisqa va uzoq muddatga kreditlash qo'llaniladi. Ko'pgina kredit turlarining amaliyotda yo'qligi hali iqtisodiy tizimning mukammal rivojlanmaganligidan, kapital aylanishining sustligi, kreditlash bilan bog'liq ko'pgina xatarlar mavjudligi kabi omillar tufaylidir.

Diskont - faoliyatning bank tomonidan to'lanmagan veksellar, cheklar va talabnomalarni ma'lum chegirma-diskont evaziga xarid qilishdir.<sup>62</sup> Shuningdek, diskont - faoliyatning asosiy turlaridan biri bo'lib, bankning faktoring operatsiyalari hisoblanadi. Faktoring operatsiyalari ikki xil bo'ladi: regress huquqi bilan; regress huquqsiz.

Birinchi holatda bank to'lovchi tomonidan qoplanmagan majburiyatni mol yetkazib beruvchidan talab qilish huquqiga ega bo'ladi. Ikkinchi holatda esa bankda bu huquq yo'q shu bois xatar yuqori va shunga yarasha foiz ham yuqori qo'yiladi. Bank tomonidan faktoring operatsiyasi uchun olinadigan foizlar, ya'ni mukofot ikki qismdan tashkil topadi, bular:

1) to'lov amalga oshirilgunga qadar bank kredit resurslaridan foydalanganlik uchun foizlar;

2) faktoring operatsiyasining turiga mos ravishda bo'ladigan xatarlar bilan bog'liq o'rnatiladigan komission mukofot.

Daromad manbaining ushbu turi foizli daromadlar guruhiga kiradi. Trast (ishonchlilik) va vakillik operatsiyalari bo'yicha bank faoliyatining ushbu turi bankka daromadni mijoz mulkini boshqarish yoki ushbu

---

<sup>62</sup> Банк В.Р. Организация и бухгалтерский учет банковских операции: Учебное пособие. М.: F i S, 2004. 153 с.

mulkka doir ayrim maxsus topshiriqlarni bajarish orqali komission to'lovlar shaklida keltiradi. Trast shartnomalarida bank kelishuvga muvofiq tarzda mijozga mulklarni boshqarish evaziga ma'lum foiz va'da qiladi. Vakillik, ya'ni agentlik xizmat turida bank va mijoz orasidagi operatsiyaning aniq turi belgilab berilgan bo'ladi. Trast operatsiyalarida ham o'ziga yarasha murakkablik mavjud.

Xususan, joriy yilda mijoz mulkidan foydalanish evaziga kelgan daromad kelishuvga nisbatan past bo'lishi mumkin, bunda esa zarar bank tomonidan qoplanishi kerak. Shu bois, trast xizmatlari uchun komission to'lovlar ham yuqoriroq bo'ladi. Yuqoridagi xususiyatga ko'ra, trast xizmati uchun komission to'lov ham quyidagi elementlardan tashkil topgan: mulkni boshqarish uchun olinadigan o'zgaruvchan to'lov; trast ishi bo'yicha natijalarga mos ravishda bank oladigan qayd etiluvchi komission mukofot.

Tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq operatsiyalari ham bankka ma'lum daromad keltiradi. Faoliyatning ushbu turi ikki qismdan tashkil topadi. Ya'ni, bularga: bankning o'zi tomonidan qimmatli qog'ozlar chiqarilishi va ularning bozorda sotilishi; boshqa emitentlar qimmatli qog'ozlari bilan bog'liq ikkilamchi bozordagi operatsiyalar hamda korxonalar va tashkilotlarni xususiylashtirish bilan bog'liq xizmatlar kiradi. Bankning tijoratning ushbu turidan oladigan daromadi o'zi chiqargan va boshqa emitentlarning aksiyalari kursidagi farqlanish va xususiylashtirish uchun oladigan xizmat to'lovlaridan tashkil topadi.

Chet el bank tizimida qimmatli qog'ozlar bilan bo'ladigan operatsiyalar daromad manbalari orasida katta salmoqqa egadir. Bunga asosiy sabab, sarmoya bozorlarining mukammal va to'liq faoliyat yuritishi hamda kapital aylanishi mexanizmlarining puxta ishlab chiqilganligi deb qarash mumkin. Afsuski, o'zimizda ikkilamchi bozor amalda qariyb faoliyat yuritmaydi. Endigina QMDO va ba'zi qimmatli qog'ozlarning turlari bo'yicha operatsiyalar amalga oshirila boshlandi. Biroq hali

mukammal faoliyat ko'rsatishga etishish uchun ko'p vaqt kerak bo'ladi.

Qimmatli qog'ozlar bilan bo'ladigan operatsiyalar yordamida banklar investitsion faoliyatni amalga oshirishlari mumkin bo'ladi. Bu esa banklar uchun daromadlarning yangi manbalarini kashf etadi. Undan tashqari, mablag'larning qimmatli qog'ozlar orqali moliyaviy investitsiya evaziga ishlab chiqarishga yo'naltirilishi iqtisodiyot o'sishining muhim omillaridan biri bo'lib hisoblanadi. Qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq operatsiyalarning mamlakatimizda yaxshi rivojlanmaganligiga banklar ixtiyoridagi mablag'larning yetarlicha bo'lmasligi va oqibatda aksiya, obligatsiyalar sotib olishga yo'naltirilmasligi ham sabab bo'ladi. Mablag' mavjud bo'lganda ham aksiyalardan keladigan daromad juda pastligi va ko'pgina emitentlar xo'jalik faoliyatining ishonchsizligi ham bu sohaning yetarli ishlamasligiga olib keladi.

Bankning kafillik faoliyati bankka pul shaklida daromad keltiradi. Bank mijozlarga kreditlar olish uchun yoki hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun turli xil kafillik va kafolatnomalar beradi va evaziga pul shaklida komission mukofot oladi. Ba'zi hollarda mijoz uchun kafillik bank tomonidan obro'ni oshirish kabi maqsadlar uchun ham beriladi.

Mablag'larni depozitlarga jalb qilish va ularning hisobini yuritish bilan bog'liq faoliyat bo'yicha operatsiyalar quyidagi shakllarda daromad keltirish imkonini beradi:

1) komission to'lovlar: hisobvaraqa ochish uchun; hisobvaraqa yuritish uchun;

2) ma'lum davr uchun o'zgaruvchan to'lovlar;

3) aylanma komission haq (aylanmadan % shaklida); hisobvaraqda bo'lgan operatsiyalar haqida ko'chirma; hisobvaraqni yopish; naqd pul berish yoki hisob-kitob bo'yicha operatsiyalarni amalga oshirish. Banklarning daromadlari yuqoridagi faoliyat turlarining barchasidan yoki bir qismidan tashkil topishi mumkin.

Respublikamiz bank tizimida yuridik va jismoniy shaxslar mablag'larini banklar tomonidan depozitlarga jalb

qilish bank xizmatlari orasida eng ko'p tarqalgan. Hozir barcha yuridik shaxslar hisobvaraqlari banklarda talab qilib olinguncha depozit shaklida bo'lib, banklar ularni yuritish bilan daromad oladilar. Ya'ni har bir operatsiya evaziga bank qayd qilingan foizlarni ushlab qoladi va shundan daromad ko'radi. Bankning noan'anaviy xizmatlaridan daromad lizing operatsiyalari, axborot, maslahat xizmatlarini ko'rsatish orqali keladi.

Demak, yuqoridagilardan kelib chiqib, bank daromadlarini shakliga ko'ra quyidagi uch guruhga ajratish mumkin: foizli daromad; ko'rsatilgan xizmatlar uchun komission to'lov; boshqa daromadlar — valyuta kurslaridagi farqlar, balans va bozor narxlarining farqlanishi va boshqalar.

Tijorat banklarining yangi qabul qilingan buxgalteriya hisobvaraqlari rejasini qarab chiqadigan bo'lsak, bu yerda daromadlar quyidagicha tasniflanadi.



9.3-rasm. **Tijorat banklarida daromadlarning tarkiblanishi**

9.3-jadval

**Tijorat bankinging foizli daromadlari tarkibi**

№	Ko'rsatkichlar	2015 yil		2016 yil		2017 yil		2018 yil		2018 yilda 2015 yilga nisbatan o'zgarishi	
		mln so'm	%	mln so'm	%	mln so'm	%	mln so'm	%	mln so'm	%
1	Kreditlar bo'yicha foizli daromad	164220	92	188114	94	297819	96	340212	97	175992	5
2	O'zR MB va boshqa banklardagi hisobvaraqlar bo'yicha foizli daromad	9442	5	6464	3	7485	2	7272	2	-2170	-3
3	Moliyaviy ijara bo'yicha foizli	5629	3	5969	3	5094	2	4133	1	-1496	-2



	daromad										
4	Olish va sotishga mo'ljallangan qimmatli qog'ozlar bo'yicha foiz daromadi - savdo qog'ozlari	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0
5	Olish va sotishga mo'ljallangan qimmatli qog'ozlar bo'yicha foiz daromadi - nosavdo qog'ozlari	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0
6	Sotish uchun mavjud bo'lgan investitsiyalar bo'yicha foiz daromadi	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0
7	So'ndirilguncha ushlab turiladigan investitsiyalar bo'yicha foiz daromadi	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0
8	Teskari REPO bitimi bo'yicha foiz daromadi	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0
9	Boshqa foiz daromadlari	0	0	0	0	0	0	0	0	0	0
10	Jami foizli daromad	179291	100	2005 47	100	3103 98	10 0	3516 17	10 0	1723 26	0

Tijorat bankining foizli daromadlari 2018-yilda 351617 mln so'mni tashkil qilgan. Uning asosiy qismini, ya'ni 340212 mln so'mni kreditlar bo'yicha foiz daromadi tashkil etadi. Bu bank foizli daromadining 97 %ni tashkil qiladi. Qolgan foizli daromadlar: O'zR MB va boshqa banklardagi hisobvaraqlar bo'yicha foiz daromadi 2 %ni, moliyaviy ijara bo'yicha foiz daromadi 1 %ni tashkil qiladi. Bankning asosiy faoliyati mijozlarni kreditlashga yo'naltirilganligini ko'rish mumkin. Lekin bankning moliyaviy bozordagi faoliyati ancha sustligi ko'rinib turibdi. Bank ushbu yo'nalishdagi faoliyatini rivojlantirsa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Buning asosiy sababi shundaki, bankda foizli daromad keltiradigan boshqa operatsiyalar rivojlanmagan. Masalan, rivojlangan davlatlarning bank amaliyotida tijorat banklari foizli daromadlarining tarkibida kreditlardan keyingi o'rinni qimmatli qog'ozlardan olinadigan foizlar egallaydi. Ularning

foizli daromadlar hajmidagi salmog'i 20-25 foizni egallaydi. AQSh va Yaponiyaning yirik tijorat banklarida kreditlardan olingan foizlarning jami foizli daromadlar hajmidagi salmog'i 60 foizdan oshadi.

Banklar tomonidan qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalar Fransiya tijorat banklarida 16,2 foizni, Germaniyada-15,5 %, Italiyada-23,8 %, Buyuk Britaniyada-7,8 %, Ispaniyada-23,8 %, AQShda-2,2 %, Belgiyada-6,4 %, Yaponiyada-10,2 foizni tashkil qiladi.<sup>63</sup> Demak, qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalarning yuqori salmog'i Ispaniya va Italiyada kuzatiladi. Nisbatan juda past salmoq Belgiya, Buyuk Britaniya tijorat banklariga xosdir.

Hukumatning qimmatli qog'ozlariga qilingan qo'yilmalarning bank aktivlari umumiy hajmidagi salmog'i Ispaniya tijorat banklarida 10,2 foizni, Fransiya tijorat banklarida 9,4 foizni, Italiya tijorat banklarida 5,3 foizni, AQSh tijorat banklarida esa, 18 foizni tashkil etadi. Veksellar bilan bog'liq operatsiyalarning yuqori salmog'i Ispaniya (12,8%), Italiya (5,8%) Belgiya (4,7%), tijorat banklarida kuzatiladi. Hissali ishtirok shaklidagi investitsiyalarning bank aktivlari hajmidagi yuqori salmog'i Germaniya tijorat banklarida kuzatiladi (4,0%).<sup>64</sup>

Tijorat banklarida daromadlarni hisobga olish uchun "O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida buxgalteriya hisobi hisobvaraqlari rejasi"da keltirilgan bir qancha hisobvaraqlardan foydalaniladi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan bank operatsiyalarini hisobga olish bo'yicha chiqarilgan me'yoriy hujjatlar asosida ish olib boriladi.

Tijorat banklari yuqoridagi talablardan kelib chiqqan holda o'z ishchi hisobvaraqlari rejasini ishlab chiqadi va shu asosida o'zlarida amalga oshirilayotgan operatsiyalar bo'yicha olinayotgan har bir daromad va qilinayotgan xarajat moddasiga shaxsiy hisobvaraqlar ochadi, zarur bo'lganda, qo'shimcha jurnal hisobi va reestrlar yuritilishi mumkin.

---

<sup>63</sup> Банковское дело. Под ред. О.И.Лаврушина. М.: FiS, 2002. С.94

<sup>64</sup>M.Zantov. Kredit Policy. RBTC. T.: 1998. p.18.

Hisobvaraqlar rejasidagi “Daromadlar” bo‘limidagi hisobvaraqlar bank ichki hisobvaraqlari hisoblanadi. Shuning uchun tijorat banklari Markaziy bank talablari va ichki hisob siyosatidan kelib chiqqan holda ushbu hisobvaraqlarda analitik hisobni qanday yuritishni o‘zlari belgilaydilar.

Bank daromadlarining analitik hisobi bank faoliyatini boshqarish va soliqqa tortish tartibini hisobga olgan holda tashkil etiladi.

Barcha xo‘jalik subyektlari qatori tijorat banklarida ham moliyaviy natijalar shakllanish jarayonining boshlang‘ich bo‘g‘ini daromaddir. Shu nuqtai nazardan daromadning tarkibi va shakllanish tartibi uni hisobga olish va soliqqa tortish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Daromadning tarkibi va shakllanish tartibi tarmoq xususiyatiga ko‘ra turli xil xo‘jalik subyektlari, shu jumladan, tijorat banklarida o‘ziga xosdir.

Tijorat banklarida daromadlarni hisobga olish birlamchi buxgalteriya hujjatlarida boshlanadi. Bunda ularni hisobga olish jarayoni ularni tan olishdan boshlanishini biz yuqorida ko‘rdik. Daromadlar tan olingandan keyin ular undiriladi yoki undirilmay qoladi. Undirilmay qolgan daromad bankka ikki marta zarar olib keladi, sababi qilingan xarajat qoplanmay qolinadi va olinmagan mablag‘ga nisbatan soliq to‘lanadi. Shu sababli ham bank daromadlari, xarajatlari va foydasi hisobini to‘g‘ri tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Bank daromadlarini hisobga olishni har bir bank operatsiyasi bo‘yicha alohida ko‘rib chiqsak.

Avvalo, yuqori daromad keltiruvchi kredit va investitsiya operatsiyalarida daromadlarni hisobga olish tartibini tadqiq qilish maqsadga muvofiq.

Kreditlar bo‘yicha daromadlar asosan, foiz va komission haq ko‘rinishida bo‘ladi. Kredit bo‘yicha olinadigan daromadlar mijoz bilan tuzilgan kredit shartnomasiga asosan belgilangan muddatlarda olinadi.

Kredit bo‘yicha foizlar odatda har kuni yillik bazaviy davr - 365 kundan kelib chiqqan holda hisoblab, yoziladi. Shuningdek kreditlarning muayyan turlari bo‘yicha 360

kun bazaviy davr qilib belgilangan. Kredit bo'yicha foizlar quyidagi formulaga binoan hisoblanadi:

$$\text{Foiz summasi} = \frac{\text{Kredit qoldig'i} \times \text{foiz stavkasi} \times \text{amaldagi kunlar soni}}{365 \times 100\%}$$

Shu o'rinda, bazaviy davr barcha kreditlar uchun 365 kun qilib belgilansa, maqsadga muvofiq bo'lardi. Sababi, foizlar har kuni hisoblanadi, shu sababli jalb qilingan mablag'larga to'lanayotgan foizlar va ushbu mablag'larni joylashtirish bo'yicha olinadigan foizlar summasi o'rtasida nomutanosiblik yuzaga kelishi mumkin.

Kreditlar bo'yicha foizlarni hisob-kitob qilishda asosiy e'tiborni mijoz bilan tuzilgan kredit shartnomasiga qaratish lozim. Unga ko'ra, kreditning haqiqatda foydanilgan kunlardagi qoldiq summasi bo'yicha foizlar hisoblanishi va undirilishi kerak.

Bankda kredit bo'yicha hisoblangan foizlar quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi bilan aks ettiriladi:

Dt-16309 "Kreditlar bo'yicha olish uchun hisoblangan foizlar"- 15 000 000;

Kt-41400-44700 "Kreditlar bo'yicha foizli daromadlar" – 15 000 000 .

Kredit bo'yicha foiz summasi kelib tushganda, to'lov turiga qarab quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi bilan aks ettiriladi:

Dt-10101 "Aylanma kassadagi naqd pullar" yoki bankning vakillik hisobvarag'i yoki mijozning hisobvarag'i – 15 000 000;

Kt-16309 "Kreditlar bo'yicha olish uchun hisoblangan foizlar"-15 000 000.

Hozirgi kunda bank amaliyotida kredit foizi bilan birga kredit berish bo'yicha komission haqlar ham foizli daromadlar tarkibiga kiritilmoqda. Ya'ni bank kredit berish majburiyatini olganda mijoz unga komission haq to'laydi. Bu to'lov kreditning amal qilish muddati davomida taqsimlanadi.

Kredit berish yuzasidan olinayotgan komission haq bankning quyidagi ko'rinishdagi xarajatlarini qoplaydi: mijozning kreditga layoqatliligi va investitsion loyihalar

qoplanishining baholanishi, garov va boshqa ta'minotlarni tashkil etish xarajatlari, hujjatlarni tayyorlash va qayta ishlash xarajatlari va boshqa kredit berish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar. Bunday komission to'lovlar kredit munosabatlarining ajralmas qismi hisoblanadi, shuning uchun ham ularga muddati uzaytirilgan daromadlar sifatida qaraladi va haqiqiy daromadning korrektirovkasi sifatida tan olinadi. Bankda quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi keltiriladi:

Debet-Mijozning depozit hisobvarag'i – 22 500 000;

Kredit-22896 -Boshqa muddati uzaytirilgan daromadlar – 22 500 000.

Har oyda berilgan kredit foizi bilan birga komission haq ham daromad hisobvarag'iga o'tkaziladi, ya'ni:

Debet-22896- Boshqa muddati uzaytirilgan daromadlar – 22 500 000;

Kredit-41400-44600 - Kreditlar bo'yicha foizli daromadlar – 22 500 000.

Kredit berish muddati yaqinlashib, kredit so'ralmasa, olingan komission haq muddati yetib kelingandan so'ng tan olinadi va quyidagi o'tkazma bo'yicha rasmiylashtiriladi:

Debet-22896 - Boshqa muddati uzaytirilgan daromadlar-22 500 000;

Kredit-45237 - Kredit majburiyatlari bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar uchun olingan daromadlar - 22 500 000.

Agar kredit bo'yicha shartnomada ko'rsatilgan foizdan yuqoriroq miqdorda haq to'lanadigan bo'lsa, u holda bu komission haq kredit muddati davomida to'lanishi va haqiqiy daromad kotirovkasi sifatida tan olishi va muddati uzaytirilishi kerak.

Tijorat banklarining foizli daromadlari ichida kredit operatsiyalaridan keyingi o'rinda turadigan operatsiyalardan biri bu qimmatli qog'ozlardan olinadigan daromadlardir. Qimmatli qog'ozlardan olinadigan daromadlarni foiz, diskont, kurs o'rtasidagi farq va boshqa ko'rinishdagi daromadlarga bo'lish mumkin.

Bank sotib olgan qimmatli qog'ozlarini maqsadlariga qarab oldi-sotdi qimmatli qog'ozlariga, sotishga mo'ljallangan qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalar, so'ndirish muddatigacha saqlanadigan qimmatli qog'ozlar va investitsiya qimmatli qog'ozlariga bo'ladi. Bundan kelib chiqqan holda buxgalteriya hisobi hisobvaraqlarida ulardan olingan daromadlarni hisobga olish uchun bir qancha hisobvaraqlar ochiladi.

“Aktivlar” bo'limiga tegishli bo'lgan hisobvaraqlarda moliyaviy aktivlar bo'yicha daromadlar hisoblanadi va “Daromadlar” bo'limiga tegishli bo'lgan hisobvaraqlarda ular tan olinadi.

Moliyaviy aktivlar bo'yicha foizlar hisoblanganda TIF “Milliybanki”da quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi keltiriladi:

Debet-1xxxx Olish uchun hisoblangan foizlarning tegishli hisobvarag'i – 10 000 000;

Kredit-4 xxxx Foizli daromadlarning tegishli hisobvarag'i-10 000 000.

Hisoblangan foizlar olinganda esa quyidagi o'tkazma amalga oshiriladi:

Debet-10101 “Aylanma kassadagi naqd pullar” yoki bankning vakillik hisobvarag'i yoxud mijozning depozit hisobvarag'i-10 000 000;

Kredit-1xxxx Olish uchun hisoblangan foizlarning tegishli hisobvarag'i-10 000 000.

Diskont real foiz stavkasi metodini qo'llash orqali amortizatsiyalanadi, shartnoma bo'yicha olinishi lozim bo'lgan foizlar har oyda hisoblab boriladi.

Qimmatli qog'ozlar bo'yicha diskont olinganda quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi keltiriladi:

Debet – 163xx - Qimmatli qog'ozlar bo'yicha hisoblangan foizlar-5 000 000;

Kredit – 1xxxx - Qimmatli qog'ozlar bo'yicha diskont (kontr-aktiv).-5 000 000.

Moliyaviy aktivlar bo'yicha diskont belgilangan muddatlarda amortizatsiyalanadi va daromad tarkibiga o'tkazilib, foyda va zararlar to'g'risidagi hisobotda o'z aksini topadi va ushbu operatsiya bo'yicha buxgalteriya o'tkazmasi quyidagicha amalga oshiriladi:

Debet – 1xxxx – Qimmatli qog‘ozlar bo‘yicha diskont-500 000;

Kredit – 4xxxx - Qimmatli qog‘ozlar bo‘yicha foizli daromadlar-500 000.

Biz faqat bankning asosiy foizli daromadlari hisoblangan kredit va qimmatli qog‘ozlar bo‘yicha daromadlarni hisobini ko‘rib chiqdik.

Xulosa qilib aytganda, bank daromadlari tarkibi bank tomonidan amalga oshirilayotgan operatsiyalarga bog‘liq bo‘ladi. Bank foizli daromadlari ichida kredit operatsiyalaridan olingan daromadlar salmog‘i ko‘p.

Tijorat banklari foizsiz bo‘lgan xizmatlar ko‘rsatishdan olingan yondosh faoliyat daromadlari, ya‘ni noan‘anaviy bank xizmatlaridan daromadlar manbai chet el valyutasidagi operatsiyalar, qimmatli qog‘ozlar bilan operatsiyalar, lizing va faktoring operatsiyalari, banklarning kafolatlash faoliyati, trast (ishonch) xizmati ko‘rsatish, konsalting xizmatlari va boshqa faoliyat yuritish davomida amalga oshiradigan operatsiyalari hisoblanadi.

9.4-jadval

### Tijorat banking foizsiz daromadlari tarkibi

№	Ko‘rsatkichlar	2015 yil		2016 yil		2017 yil		2018 yil		2018 yilda 2015 yilga nisbatan o‘zgarishi	
		mln so‘m	% da	mln so‘m	% da	mln so‘m	% da	mln so‘m	% da	mln so‘m	% da
1	Sof vositachilik daromadi	85014	52	96247	45	120506	38	147443	36	62429	-16
2	Valyuta operatsiyalaridan tushgan foyda (zarar)	44221	27	38423	18	64681	21	85055	21	40834	-6
3	savdo operatsiyalaridan tushgan foyda (zarar)	17753	11	11715	5	12473	4	15569	4	-2184	-7
4	Devidendlar tarzidagi daromad	1527	1	3178	1	4775	2	1142	0	-385	-1
5	Tobe xo‘jalik yurituvchi jamiyatlar va qo‘shma korxonalaridan foyda(zarar)	566	0	1075	0	1599	1	-155	0	-721	0
6	Boshqa operatsion	5740	4	54235	25	106033	34	125412	31	119672	27

	daromad										
7	Boshqa daromadlar	8902	5	10503	5	3660	1	31780	8	22878	2
8	Jami foizsiz daromadlar	163723	100	215376	100	313727	100	406246	100	242523	0

Ushbu jadvaldan ko‘rinadiki, foizsiz daromadning asosiy qismini vositachilik va xizmatlar uchun haq to‘lashdan olingan daromad tashkil qiladi. 2018-yilda u 147443 mln so‘mni, ya‘ni foizsiz daromadlar tarkibida 36 %ni tashkil qilgan. Qolgan foizsiz daromadlarni valyuta operatsiyalaridan ko‘rilgan foyda (21 % ) va boshqa operatsion daromadlar (31 %) tashkil qiladi. Vositachilik daromadlari 2017-yilda 2014-yilga nisbatan 62429 mln so‘mga ko‘paygan bo‘lsada, jami daromaddagi ulushi 16 foizga kamaygan, valyuta operatsiyalaridan tushgan foyda ham 6 foizga kamaygan. Lekin boshqa operatsion daromadlar 27 foizga ko‘paygan.

Foizsiz daromadlar quyidagi hisobvaraqlarda hisobga olib boriladi:

- 45200 – “Foizsiz daromadlar”;
- 45400 – “Xorijiy valyutalardan foyda”;
- 45600 – “Tijorat operatsiyalaridan olingan foyda”;
- 45700 – “Qaram xo‘jalik jamiyatlariga, qo‘shma korxonalariga va shu‘ba xo‘jalik jamiyatlariga qilingan investitsiyadan olingan foyda va dividendlar”;
- 45800 – “Investitsiyalardan olingan foyda va dividendlar”;
- 45900 – “Boshqa foizsiz daromadlar”.

Bankning foizsiz daromadlariga yuqorida ko‘rganimizdek, komission daromadlar, chet el valyutasidagi foyda, tijorat operatsiyalaridan olingan foyda, investitsiyalardan olingan foyda va dividendlar hamda boshqa foizsiz daromadlar kiradi.

Tijorat banklari foizsiz daromadlari tarkibida eng ko‘p ulushga ega bo‘lgan vositachilik haqi va ko‘rsatilgan xizmatlar uchun to‘lovlarni hisobga olishda ular avvalo tan olinadi va shundan so‘ng daromadlar hisobvarag‘iga o‘tkaziladi. Masalan, bank mijozning to‘lov hujjatlari bo‘yicha 1000000,00 so‘mni o‘tkazib berdi, bank hisobvarag‘i shartnomasiga asosan debet aylanmasi bo‘yicha 0,5 foiz miqdorida xizmat haqi kelishgan bo‘lsa,



uning olgan foizsiz daromadi 5000,00 soʻmni tashkil etadi. Ushbu toʻlov shartnoma shartlariga asosan keyingi ish kunida yoki shartnomada belgilangan muddatda mijoz hisobvaragʻidan toʻlab beriladi.

Bunda quyidagi buxgalteriya oʻtkazmasi bajarilishi lozim:

Debet-16401 – “Hisoblangan vositachilik haqi va koʻrsatilgan xizmatlar uchun toʻlovlar” - 5000,00 soʻm;

Kredit-45249 – “Mahalliy toʻlovlar boʻyicha vositachilik xizmatlari uchun olingan daromadlar” - 5000,00 soʻm.

Hisoblangan daromad undirilganda esa:

Debet-Mijozning hisobvaragʻi-5000,00 soʻm;

Kredit-16401 – “Hisoblangan vositachilik haqi va koʻrsatilgan xizmatlar uchun toʻlovlar” - 5000,00 soʻm.

Hozir koʻpchilik tijorat banklari foizsiz daromadlarni undirishda mijozning hisobvaragʻida mablagʻ boʻlsa, toʻgʻridan-toʻgʻri daromad hisobvararagʻiga kirim qilinayapti, yaʼni:

Debet-Mijozning hisobvaragʻi - 5000,00 soʻm;

Kredit-45249 – “Mahalliy toʻlovlar boʻyicha vositachilik xizmatlari uchun olingan daromadlar” - 5000,00 soʻm.

Agar mijozning hisobvaragʻida mablagʻ boʻlmasa, yuqorida keltirilgan buxgalteriya oʻtkazmasi orqali daromad hisobga olinib, mablagʻ kelib tushishi bilan undirib olinayapti.

Banklar qimmatli qogʻozlar bozorining faol ishtirokchilari sifatida investitsion, oldi-sotdi operatsiyalarini rivojlantirib kelmoqda. Buning natijasida oʻz daromadlari tarkibini kengaytirmoqda.

Bank ixtiyorida boʻlgan qimmatli qogʻozlar boʻyicha emitentlar tomonidan eʼlon qilingan dividendlar hisobga olinganda:

Debet-19939 – “Olinadigan dividendlar”-2 000 000;

Kredit-45800 – “Investitsiyalardan olingan foyda va dividendlar”.

Buxgalteriya oʻtkazmasi keltiriladi-2 000 000.

Eʼlon qilingan dividendlar pul koʻrinishida olinganda esa quyidagi oʻtkazma amalga oshiriladi:

Debet-bank vakillik hisobvarag'i yoki emitent hisobvarag'i-2 000 000;

Kredit-19939 – “Olinadigan dividendlar”-2 000 000.

Bank moliyaviy aktivlarini sotish natijasida yoki hisobdan chiqarishda ijobiy yoki salbiy natijaga erishishi mumkin. Agar ijobiy natija, ya'ni foyda olsa quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi keltiriladi:

Debet-Kassadagi naqd pullar, mijozning hisobvarag'i yoki bankning vakillik hisobvarag'i – 2 000 000;

Kredit-4xxxx Qimmatli qog'ozlarni sotish yoki dispozitsiya qilishdan olingan foyda-2 000 000

### **9.3. Bank foydasi va uni hisobga olish tartibi**

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida har qanday xo'jalik yurituvchi subyekt shu jumladan, tijorat banklari ham o'z faoliyatini foyda olish maqsadida olib boradi. Banklar hozirgi kunda bozor iqtisodiyoti qonuniyatlariga amal qilib, banklararo raqobatning kuchayib borishi sharoitida har bir mijoz uchun kurash olib borgan holda, yangi bank xizmatlari bozorida yutib chiqishga harakat qiladi. Tijorat banklari bank xizmatlari bozorida kredit, kassa, hisob-kitob, valyuta, vositachilik, maslahatchilik, trast va boshqa bank operatsiyalarini amalga oshirib, ulardan daromad olishga intiladi. Olingan daromad har doim ham qilingan xarajatlarni qoplamaydi, bu faoliyat natijasi zarar bilan chiqqanligini anglatadi. Bu ko'pchilik holatlarda bank faoliyatida ma'lum bir qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Shu nuqtai nazardan tijorat banki faoliyati zarar bilan chiqish sabablarni o'rganish, uning aniq summalarini to'g'ri hisob-kitob qilish maqsadga muvofiqdir.

Bank faoliyatini tahlil qilish, boshqarish va rejalashtirishda bank faoliyatining moliyaviy natijasini ijobiy bo'lishini ta'minlashga harakat qilinadi. Shunday bo'lsada bank faoliyati natijasi salbiy bo'lishi holatlari yuzaga kelishining oldini olish, uning oqibatlarini to'g'irlash uchun qanday chora-tadbirlar amalga oshirilishi kerakligi aniqlanishi lozim.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, bank faoliyatini amalga oshirish natijasida olingan foyda bank asosiy fondlarining yangilanishi va ko'payishi asosi, o'z kapitalining ko'payishi, bankning to'lovga layoqatliligi va likvidliligini ta'minlashi, moliyaviy barqarorligi, dividend to'lash imkoniyati, bank xizmatlari sifatini oshirish va rivojlantirishga zamin yaratadi. Shuning uchun ham, yakuniy moliyaviy natijalar hisobini to'g'ri tashkil etilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqorida ko'rganimizdek, banklarda moliyaviy natijalar hisobi uning shakllanishi va taqsimlanishi jarayonini hisobga olib boradi. Moliyaviy natijalarning shakllanishi bank operatsiyalarini amalga oshirish natijasida yuzaga kelayotgan daromad va xarajatlarni hisobga olishdan boshlanadi. Bank daromadi va xarajatlarini o'zaro solishtirish orqali bankning qanday yakuniy natijaga erishilgani ko'rinadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, bankda yakuniy moliyaviy natija hisobot yilining oxirida o'sib borish tartibida daromadlar va xarajatlar hisobvaraqlarini yopish orqali aniqlanadi.

Banklarda ikki xil: taqsimlanmagan foyda va joriy yil sof foydasi farqlanadi. Bularni hisobga olish uchun hisobvaraqlar rejasining "Kapital" bo'limida 31203 – "Taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar)", 31206 – "Sof foyda (zarar)" balans hisobvaraqlaridan foydalaniladi. Ikkala hisobvaraqlar ham mazmun jihatidan aktiv-passiv hisobvaraqlardir, ularning debetida ham, kreditida ham qoldiq hosil bo'lishi mumkin.

Hisobvaraqlarning debetida qoldiq hosil bo'lganda bank faoliyati zarar bilan yakunlanadi, kreditda qoldiq hosil bo'lsa, bank foyda ko'rgan bo'ladi.

Joriy yil sof foydasini hisobga olish uchun 31206 – "Sof foyda (zarar)" balans hisobvarag'idan foydalaniladi, uning kreditida hisobot yilida bank tomonidan olingan foyda, noto'g'ri e'lon qilingan va qaytarilgan dividendlar hamda "Taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar)" hisobvarag'iga o'tkaziladigan zararlar summasi aks ettiriladi. Hisobvaraqlarning debetida esa, to'lanadigan

dividendlar, zaxira kapitaliga o'tkaziladigan summa, hisobot yilida ko'rilgan zarar hamda "Taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar)" hisobvarag'iga o'tkaziladigan foyda summasi aks ettiriladi. Ushbu hisobvaraqa bo'yicha analitik hisob sof foyda va dividendlar hisobi bo'yicha alohida shaxsiy hisobvaraqlarda yuritiladi.

Masalan, "A" bank 2017-yil yakunida 42100 mln so'm daromad oldi va 38240 mln so'm xarajat qildi. Bankning daromadlar va xarajatlari hisobvaraqlari hisobot yili oxirida yopilganda, quyidagi buxgalteriya o'tkazmalari bajariladi:

Debet-40000 Daromadlar-42100 mln so'm;

Kredit-31206 – "Sof foyda (zarar) (aktiv-passiv)"-42100 mln so'm.

hamda

Debet-31206 – "Sof foyda (zarar) (aktiv-passiv)"-38240 mln so'm;

Kredit-50000 Xarajatlari-38240 mln so'm.

Bundan ko'rinib turibdiki bankning joriy yil sof foydasi  $42100 - 38240 = 3860$  mln so'mni tashkil etdi.

Bank foydasini taqsimlash me'yoriy hujjatlar hamda bank ta'sis hujjatlariga asosan o'tkaziladi. Bunda bank foydasidan turli xil zaxira fondlari, maxsus fondlar yaratiladi, dividendlar, soliqlar to'lanadi, shuningdek, bank ta'sis hujjatlarida ko'zda tutilgan maqsadlar uchun foydalaniladi.

Bank tomonidan hisobot yilida olingan foydasining taqsimlanmay qolgan qismi yoki ko'rgan zarari 31206 – "Sof foyda (zarar) (aktiv-passiv)" balans hisobvarag'idan 31203 – "Taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar) (aktiv-passiv)" hisobvarag'iga o'tkaziladi. Ushbu hisobvaraqa joriy va o'tgan yillarda taqsimlanmay qolgan foyda (zarar), har xil fondlar uchun ajratmalar, e'lon qilingan dividendlar summasi va bank foydasi hisobidan amalga oshiriladigan boshqa chora-tadbirlar summasi aks ettiriladi. Yuqorida ko'rib o'tilgan hisobvaraqa bo'yicha analitik hisob bitta shaxsiy hisobvaraqa yuritiladi.

Tijorat banklari foydasi miqdoriga tashqi va ichki omillar kabi ko'p omillar ta'sir qilishi mumkin.

Tashqi omillarga quyidagilarni kiritish mumkin: chet el valyutasi kursing o'zgarishi, Markaziy bank qayta moliyalashtirish stavkasining o'zgarishi, majburiy zaxiralar kattaligi, soliq qonunchiliklari, davlat qimmatli qog'ozlari bo'yicha daromadlilikning o'zgarishi, mamlakatdagi siyosiy ahvol, bank xizmatlari bozoridagi raqobat va boshqalar. Tijorat banklari foydasi miqdoriga bog'liq bo'lgan ichki omillarga eng avvalo, bankning aktiv va passivlarini boshqara olishini ko'rishimiz mumkin.

Tijorat banklarining daromadiga ta'sir qiluvchi asosiy omillar sifatida quyidagi omillarni ajratib ko'rsatish mumkin:

1. Tijorat banklarining ochiq valyuta pozitsiyalari miqdorining o'zgarishi.

Tijorat banklarida, hozirgi vaktida AQSh dollari hisobida bir tomonlama uzun yoki qisqa pozitsiya yuzaga kelmoqda.

Mamlakatimiz bank amaliyotida muddatli valyuta operatsiyalarini va "svop" operatsiyalarini rivojlanmaganligi tijorat banklarining valyuta pozitsiyalarini asosan "spot" operatsiyalari hisobidan shakllanishiga sabab bo'lmoqda.

Tijorat banklarining ma'lum bir valyutada qisqa pozitsiyaga ega bo'lishi, keyingi ish kunidan boshlab ushbu valyuta almashuv kursining ko'tarilishi yoki pasayishi, uning balansida yirik miqdorda zarar summasi yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Bu esa, pirovard natijada, bankning joriy yil foydasi summasini sezilarli darajada kamayishiga olib keladi.

2. Tijorat banklari xorijiy valyutadagi depozitlarining miqdori va sifatining o'zgarishi. Tijorat banklari foydasining hajmiga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillardan biri ularning xorijiy valyutadagi depozitlari tarkibi va dinamikasining o'zgarishidir.

Hozirgi vaqtda respublikamizning yetakchi tijorat banklari o'zlarining xorijiy valyutalardagi bo'sh mablag'larini xalqaro moliya bozorlarida joylashgan nufuzli tijorat banklarining muddatli depozit hisobvaraqlariga joylashtirmoqdalar. Ular valyuta mablag'larini ko'proq London kredit kapitallari bozoridagi banklarga amaldagi LIBOR stavkalari bo'yicha joylashtirmoqdalar.

Ayni vaqtda, xorijiy valyutadagi jamg'arma depozitlarining depozitlar umumiy hajmida kichik salmoqqa ega ekanligi va ular salmog'ining pasayish tendensiyasi kuzatilayotganligi salbiy holat hisoblanadi. Bu holat, avvalo, bankning aholining vaqtinchalik bo'sh valyuta mablag'larini jalb qilish borasidagi faoliyati sustligidan dalolat beradi. Fikrimizcha, buning asosiy sabablaridan biri, jamg'arma depozitlariga to'lanayotgan foiz stavkalarining pastligidir. Masalan, hozirgi vaqtda jamg'arma depozitlariga to'lanayotgan depozitlarning yuqori stavkasi 12 foizni tashkil etadi. Rivojlangan xorijiy davlatlar amaliyoti nuqtai nazaridan bu normal stavka hisoblanadi. Lekin xorijiy valyutalarga talab yuqori bo'lgan iqtisodiyot sharoitida bu stavka sezilarli darajada pastdir.

Bankning valyuta — kredit munosabatlarini rivojlantirishda “Nostro” vakillik hisobvaraqlari qoldiqlarining barqarorligini taminlash muhim rol o'ynaydi.

Tahlil natijalaridan ko'rinadiki, bankning milliy valyutadagi vakillik hisobvarag'ining qoldig'i o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan. Mazkur qoldiqning bunday yuqori sur'atlarda o'sishi bank resurslarini samarali joylashtirishda sezilarli muammolar mavjudligidan dalolat beradi.

Bankning xorijiy valyutalardagi “Nostro” vakillik hisobvaraqlari qoldig'ining keskin sur'atlarda pasayishini salbiy holat sifatida baholash mumkin. Chunki bu holat, avvalo, bank va uning mijozlarini xorijiy valyutadagi operatsiyalari hajmini sezilarli darajada qisqarayotganligidan dalolat beradi.

3. Tijorat banklarining mijozlarga ko'rsatadigan xizmatlaridan olinadigan daromadlar hajmining o'zgarishi banklarning mijozlarga ko'rsatadigan xizmatlaridan oladigan komission daromad miqdori mijozlar sonining oshishiga, komission to'lov stavkalarining o'zgarishiga va ko'rsatiladigan xizmatlar turining oshishiga bog'liq.

Rivojlangan xorijiy davlatlar bank amaliyotidan ko'rinishicha tijorat banklari mijozlarga hisob — kitob xizmati ko'rsatishdan yuqori daromad oladilar. Bunda, ayniqsa, hujjatlashtirilgan akkreditivlar qo'yish, kafolatlar

berish, mijozlar bilan forvard valyuta operatsiyalarini amalga oshirish kabi xizmatlardan daromad yuqori bo'лади.

Respublikamizning yirik tijorat banklarida, hozirgi vaqtda, hujjatlashtirilgan akkreditivlar qo'yish, kafolatlar berish va forvard tranzaksiyalarini amalga oshirish kabi yuqori daromad keltiruvchi xizmat turlaridan foydalanish amaliyoti rivojlanmagan. Buning boisi shundaki, birinchidan, respublikamizda muddatli valyuta operatsiyalari rivojlanmaganligi sababli banklarning forvard operatsiyalari hajmi juda kichik. Ikkinchidan, respublikamiz banklari asosan ta'minlangan akkreditivlar qo'yish bilan shug'ullanmoqda.

Hujjatlashtirilgan akkreditivlarning asosiy qismi respublikamiz banklari orqali amalga oshirilayotgan import to'lovlari bilan bog'liqdir. Chunki tijorat banki uchun eksport bo'yicha hisob — kitoblarni amalga oshirish sezilarli qiyinchilik tug'dirmaydi, lekin import bo'yicha hisob — kitoblarni amalga oshirish sertashvish va yuqori riskli faoliyat turi hisoblanadi.

Ko'pchilik rivojlanayotgan davlatlarning tijorat banklari faoliyatida hujjatlashtirilgan akkreditivlardan yuqori daromad olish imkoniyati mavjud emas. Chunki bu mamlakatlarning banklari akkreditiv bo'yicha riskni o'z zimmasiga ololmaydi. Buning boisi shundaki, birinchidan, ular tomonidan qo'yilgan akkreditivlar xorijiy banklar tomonidan tan olinmaydi. Natijada ular akkreditiv summasini xorijiy banklarga oldindan o'tkazib berishlari yoki alohida hisobvaraqda deponent qilishlari lozim. Ikkinchidan, ushbu banklar ta'minlanmagan akkreditivlar ochish yo'li bilan yuqori riskli aktivlar hajmini oshirishni istashmaydi. Shu sababli, mazkur tijorat banklari akkreditiv uchun yuqori stavkada komission to'lov ololmaydilar.

4. Tijorat banklari aktivlarining umumiy tarkibida daromad keltirmaydigan aktivlar salmog'ining o'zgarishi

5. Respublikamizning bir qator yirik tijorat banklarida kassali aktivlarni yirik miqdorda to'planib qolish hollari yuz bermoqda.

Bizga ma'lumki, kassali aktivlar daromad keltirmaydigan va past daromadli bank aktivlaridan iboratdir. Chunki ularning tarkibiga 4 aktiv turi kiritiladi:

- bankning aylanma kassasidagi naqd pullar;
- bankning Markaziy bankdagi "Nostro" vakillik hisobvarag'idagi pul mablag'larining qoldig'i;
- bankning boshqa tijorat banklaridagi "Nostro" vakillik hisobvaraqlarining pul mablag'lari qoldig'i;
- inkassatsiya jarayonidagi pul mablag'lari.

Kassali aktivlarning dastlabki ikki turini ko'pchilik adabiyotlarda umuman daromad keltirmaydigan, uchinchi va to'rtinchi turi esa juda past daromadli aktivlar hisoblanishi qayd etiladi. Lekin unday emas. Hozirgi kunda O'zbekiston bank amaliyotidan kelib chiqadigan bo'lsak, tijorat banklari mijozlarining naqd pulga bo'lgan ehtiyojini qondirish uchun banklar boshqa banklardan naqd pullarni ma'lum bir miqdordagi haq to'lash evaziga sotib olishmoqda. Shuningdek, bankning vakillik hisobvarag'idagi mablag'lar ham daromad keltiradi. Sababi, banklar ushbu mablag'lardan mijozlarga hisob-kitob xizmatini ko'rsatishda foydalanadi.

Mamlakat iqtisodiyoti barqaror rivojlanish bosqichiga kirib ulgurmagan, bank tizimini isloh qilish tugallanmagan sharoitda mijozlarning manfaatlarini himoya qilish yo'li bilan bank tizimiga bo'lgan ishonchni ta'minlash Markaziy bankning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham bunday mamlakatlarda Markaziy bank tijorat banklarining joriy likvidliligini ta'minlash maqsadida direktiv xarakterga ega bo'lgan joriy likvidlilik ko'effitsientini qo'llaydi.

Rivojlangan xorijiy davlatlarda, xususan, AQSh, Germaniya, Avstriya va Yaponiyada tijorat banklariga nisbatan bunday direktiv ko'rsatkich qo'llanilmaydi. Shu sababli, ushbu mamlakatlar banklari kassali aktivlarni daromad keltirmaydigan aktivlar sifatida baholaydilar va ularning qoldiqlarini minimallashtiradilar.

Masalan, AQSh tijorat banklari aktivlarining deyarli 90 % daromad keltiradigan aktivlar hisoblanadi.



6. Tijorat banklarining foizli va foizsiz xarajatlari miqdorining o'zgarishi Tijorat banklarida foizli xarajatlar hajmining oshishi uning moliyaviy ahvoriga kuchli salbiy ta'sirni yuzaga keltiradi. Bu holat, avvalo, sof foizli daromad ko'rsatkichini keskin pasayishida namoyon bo'ladi.

Tijorat banklari depozit bazasining mustahkamlanishi ularning kredit operatsiyalari hajmining o'sishiga olib keladi.

Banklararo bozorda raqobat muhitining rivojlanishi tijorat banklarida foiz marjasining qisqarishiga sabab bo'ladi. Chunki bunda, bankka resurslarni jalb qilish yuzasidan raqobat yuzaga keladi.

Xalqaro bank amaliyotidan ma'lumki, banklararo raqobat muhitining rivojlanishi banklarning komission to'lov stavkalarining pasayishiga olib keladi. Shuning uchun banklar barqaror daromad manbai hisoblangan foizli daromadlar hajmini oshirish choralari ko'radilar. Buning natijasida ularning kreditlash va qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq operatsiyalari rivojlantiriladi.

Tijorat banklarining daromadlari hajmiga ta'sir qiladigan omillar ko'p qirrali bo'lib, ularning ta'sir mexanizmini chuqur tahlil qilish va uning salbiy ta'siriga barham berish tadbirlarini ishlab chiqish, banklarning moliyaviy barqarorligini ta'minlash nuqtai nazaridan, katta amaliy ahamiyat kasb etadi.

Tijorat banklari daromadlarining tarkibi, ularni hisobga olish tartibi: bank daromadini foizli, foizsiz daromadga bo'lib o'rganish kerakligi ta'kidlandi.

#### **9.4. Banklarda daromad va xarajatlar hisobini MHXS asosida takomillashtirish**

Tijorat banklarining foizli va foizsiz daromadlarini tahlil qilish asosida ularning daromad bazasini mustahkamlash bilan bog'liq bo'lgan bir qator muammolarning mavjudligini aniqlashga muvaffaq bo'ldik. Ulardan asosiylari sifatida quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin.

1. Respublikamiz tijorat banklarining tijorat qimmatli qog'ozlari bilan amalga oshiradigan operatsiyalari rivojlanmaganligi.

Ma'lumotlar tahlilidan shu narsa ma'lum bo'ldiki, respublikamizda rivojlangan xorijiy davlatlar amaliyotidan farqli o'laroq, fond bozorlarida keng kotirovka qilinadigan bir qator yuqori likvidli va yuqori daromadli qimmatli qog'ozlar mavjud emas. Bunday qimmatli qog'ozlarga, xorijiy valyutalarda emissiya qilingan hukumatning o'rta va uzoq muddatga chiqarilgan qimmatli qog'ozlarini, hukumat tomonidan to'lovi kafolatlangan korporativ obligatsiyalarni, tijorat banklarining depozit sertifikatlarini, hosila vositalarini, subordinatsiyalashgan qarz majburiyatlarini kiritish mumkin.

Tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq bo'lgan operatsiyalarini rivojlantirish yo'lidagi muammolardan yana biri respublikamiz bank amaliyotida xorijiy valyutalarda emissiya qilingan tijorat veksellari bilan bog'liq fond operatsiyalarining mavjud emasligidir.

Xalqaro bank amaliyotida tijorat veksellari debitor-kreditor qarzdorlikni qisqartirish, tovarlarning sotilish jarayonini tezlashtirish, korxonalarining qo'shimcha pul mablag'lariga bo'lgan extiyojini qondirish va tijorat banklariga yuqori daromad keltirishning sinalgan va muhim vositasi hisoblanadi.

Afsuski, respublikamizning xo'jalik amaliyotida tijorat veksellarining muomalasi mavjud emas. Bu esa, tijorat banklariga veksellar bilan bog'liq operatsiyalarni amalga oshirish imkonini bermaydi.

Rivojlangan xorijiy davlatlarning, xususan, AQSh, Yaponiya va G'arbiy Yevropa davlatlarining bank amaliyotida tijorat veksellaridan tijorat banklari faoliyatida yuqori daromad olish va bank likvidliligini ta'minlash vositasi sifatida faol tarzda foydalaniladi. Buning boisi shundaki, birinchidan, tijorat banklarining balansidagi tijorat veksellarining ma'lum qismi Markaziy bankda qayta hisobga olinadi. Bundan tashqari, xorijiy valyutalarda yozilgan qimmatli qog'ozlarning ma'lum qismi xorijiy

banklarda hisobga olinadi va xorijiy investitsiyalarni jalb etishning bir shakli hisoblanadi.

Hukumatning qisqa muddatli obligatsiyalarining emissiyasi hajmining nisbatan kichikligi bu boradagi asosiy muammolardan biri hisoblanadi.

Hozirgi vaqtda O'zbekiston Respublikasi hukumatining faqat qisqa muddatli obligatsiyalari mavjud bo'lib, ularning emissiya hajmi juda kichik. Ularning tijorat banklari aktivlari hajmidagi salmog'i atigi 1 foizni tashkil qiladi.

Hukumatning xorijiy valyutalarda emissiya qilingan qisqa muddatli obligatsiyalarini sotish xorijiy valyutadagi qisqa muddatli resurslarni jalb qilish imkonini beradi. Bu esa, xorijiy valyutadagi aylanma mablag'larga bo'lgan ehtiyojni qondirish imkonini beradi va ishlab chiqarishning uzluksizligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Hukumat qimmatli qog'ozlarining auksion daromadlilik darajasini va ularga qilingan qo'yilmalarning real qiymatini pasayish hollari mavjudligi ham tijorat banklarining ular bilan bog'liq bo'lgan operatsiyalari hajmini oshirishga to'sqinlik qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Hukumatining qisqa muddatli obligatsiyalari 1996-yilning 26-martida birinchi marta joylashtirilganda, ularning auksion daromadlilik darajasi 30 foizni tashkil qilgan edi. Hozirgi vaqtda esa auksion daromadlilik darajasi 16-17 foizni tashkil qiladi.

Bundan tashqari, milliy valyutaning almashuv kursi sezilarli darajada pasayishi qimmatli qog'ozlarga qilingan qo'yilmalarning va ulardan olinadigan daromadlarning real qiymati pasayishiga olib keladi.

Hukumatning qimmatli qog'ozlariga qilingan qo'yilmalarning real qiymatini pasayishi korxonalar, banklar va fond bozorining boshqa ishtirokchilari uchun mazkur qimmatli qog'ozlarning jozibadorligini pasaytiradi, buning natijasida Hukumatning qimmatli qog'ozlariga qilingan investitsiyalarning hajmi keskin qisqaradi. Bundan tashqari, respublikamiz korxonalari va tijorat banklarining Hukumatning qimmatli qog'ozlari bilan amalga oshiriladigan operatsiyalarining samaradorlik darajasi pasayadi.

Respublikamizning yirik tijorat banklarida qimmatli qog'ozlar bilan amalga oshiriladigan operatsiyalarning rivojlanmaganligi ularning foizli daromalarining hajmini oshirishga salbiy ta'sir qilmoqda. Bu esa, o'z navbatida, banklarning moliyaviy barqarorligini talab darajasida ta'minlash imkonini bermaydi.

Holbuki, rivojlangan xorijiy davlatlarning bank amaliyotida tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar shaklidagi aktivlari ularning jami aktivlari hajmida sezilarli darajada yuqori salmoqni tashkil etadi. Masalan, Fransiya tijorat banklarining aktivlari tarkibida qimmatli qog'ozlar shaklidagi aktivlarning salmog'i 16,2 foizni tashkil etadi.

Mamlakatimizning tijorat banklarida, shu jumladan, O'zR. TIF Milliy bankida yuqori darajada foizli daromad keltiruvchi lizing, faktoring va diskont operatsiyalarining rivojlanmaganligi.

Ushbu operatsiyalarning rivojlantirish tijorat banklariga barqaror foizli daromad olish imkonini beradi. Ular banklarni "Nostro" vakillik hisobvaraqlarida ortiqcha pul mablag'larini saqlab turish zaruriyatidan xalos etadi.

Mamlakatimiz tijorat banklarida forfeyting operatsiyalari rivojlanmaganligi.

Forfeyting operatsiyalari tovarlarning sotilishini tezlashtiradi, banklarga yuqori daromad keltiradi.

Tijorat banklarining kredit operatsiyalaridan olinadigan foizli daromadlar hajmini oshirishga to'sqinlik qiluvchi omillar, xususan, majburiy zaxira talabnomalarining yuqoriligi, mijozlarning kredit to'loviga layoqatliligini baholash tizimini takomillashmaganligi kabi omillarning mavjudligi.

Yuqorida qayd etilgan muammolarni hal qilish tijorat banklari daromadlarining barqarorligini ta'minlash va ularning hajmini sezilarli darajada oshirish imkonini beradi.

Bizning fikrimizcha, bu muammolarni hal qilish maqsadida quyidagi tadbirlar amalga oshirilishi maqsadga muvofiqdir:

1. Tijorat banklari moliyaviy barqarorligini oshirish maqsadida ularning foizli daromadlari hajmini oshirish

zarur. Buning uchun, avvalo, respublikamiz tijorat banklarining qimmatli qog'ozlarga qilinadigan investitsiyalarining hajmini keskin oshirish lozim. Tijorat banklarida qimmatli qog'ozlar emitentlarining moliyaviy va mulkiy holatini baholash tizimini takomillashtirish qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalardan olinadigan daromadlarning oqilona miqdori ta'minlash imkonini beradi. Banklar qimmatli qog'ozlari portfelining sezilarli qismini, aytaylik, kamida 20-25 foizini Hukumatning qimmatli qog'ozlari hisobidan shakllantirish lozim. Bu esa, qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq bank operatsiyalarining risk darajasini kamaytirish imkonini beradi.

Foizli daromadlar hajmini oshirishning ikkinchi yo'li banklarning lizing va faktoring operatsiyalarini rivojlantirish hisoblanadi. Buning uchun, avvalo, lizing bozori bo'yicha chuqur marketing tadqiqotlarini o'tkazish talab etiladi. Uning asosida tijorat banklari uchun lizing operatsiyalarini rivojlantirish strategiyasi va taktikasini ishlab chiqish lozim.

Tijorat banklarining lizing operatsiyalari ularga barqaror daromad keltiradi. Chunki lizing to'lovi qat'iy belgilangan foiz shaklida bo'ladi.

2. Tijorat banklarining kreditlardan olinadigan foiz shaklidagi daromadlarini oshirish maqsadida:

- kreditlarning bank aktivlari tarkibidagi salmog'ini oshirish lozim;

- banklarning passivlari tarkibida markazlashgan resurslar va boshqa banklardan olingan kreditlarning salmog'ini keskin kamaytirish va ularning o'rniga va muddatli va jamg'arma depozitlarining salmog'ini oshirish zarur;

- kreditlashning turli shakllaridan keng ko'lamda foydalanishni yo'lga qo'yish lozim. Har bir kreditlash shakli unga bo'lgan obyektiv ehtiyoj natijasida yuzaga keladi va ularning risk darajasiga qarab, bankning foiz stavkasi belgilanadi;

- tijorat banklarida mijozlarning kredit to'loviga layoqatligini baholash tizimini takomillashtirish kerak.

Banklarda shunday baholash tizimini yuzaga keltirish lozimki, u mijozni real pul oqimini aniq belgilash va prognozlash imkonini bersin. Bundan tashqari, baholash tizimida mijozning kredit yig'ma jildini yuritishga alohida etibor qaratilishi zarur. Unda mijozning kredit tarixi, xulqiga oid ma'lumotlar o'zining to'liq ifodasini topgan bo'lishi kerak.

Forfeyting operatsiyalari xalqaro bank amaliyotida keng tarqalgan va tijorat banklariga yuqori daromad keltiruvchi operatsiya hisoblanadi. Forfeyting frantsuzcha "e forfe" so'zidan olingan bo'lib, "ulgurji" ma'nosini anglatadi. Forfeyting operatsiyasining mazmunini qisqacha quyidagi tarzda ifodalash mumkin: forfeyting-bu tijorat banki tomonidan veksellarning regress huquqisiz hisobga olishdir.

Hozirgi vaqtda, respublikamizda banklarning forfeyting operatsiyalaridan tashqari savdoni moliyalashtirish jarayonida ham keng ko'lamda foydalanish mumkin. Bunda respublikamiz tijorat banklari ikki xil holatda ishtirok etadi.

- xorijiy valyutada yozilgan veksellarni o'zlari hisobga oluvchi sifatida;

-xorijiy valyutada yozilgan veksellarni akseptlovchi sifatida.

Mamlakatimizda xorijiy valyutalalar taqchilligi ma'lum darajada sezilayotgan hozirgi sharoitda respublikamiz tijorat banklari tomonidan imzolangan veksellarni akseptlash yo'li bilan amalga oshiradigan forfeyting operatsiyalari muhim ahamiyat kasb etadi.

Forfeyting operatsiyalarida eksportchining banki diskont shaklida daromad oladi, importchining banki esa aksept uchun daromad oladi. Forfeyting operatsiyalari bir tomondan, tovarlar sotilishini tezlashtiradi, ikkinchi tomondan esa, importchilarga tegishli valyuta mablag'larini ma'lum vaqt ularning xo'jalik aylanmasidan chiqib ketishining oldini oladi.

Bank tizimi bozor iqtisodiyotida o'z mazmun-mohiyati va tashkiliy darajasiga ko'ra islohotlarning hozirgi bosqichida eng ilg'or va ahamiyatli bo'g'in bo'lishi lozim.

Shuning uchun ham mustaqilligimizning dastlabki kunlaridan boshlab unga alohida e'tibor berilmoqda. Bank tizimining jamiyatdagi mavqei uning samaradorlik natijalari bilan bevosita bog'liq. Shuning uchun banklarning daromadlilik ko'rsatkichlari va ishonchlilik darajasi yuqori bo'lishi muhimdir.

Tijorat banklarining daromadlari hisobini takomillashtirishda yuqori daromad keltiruvchi faktoring operatsiyalaridan diskont ko'rinishdagi daromadni hisobga olishni takomillashtirish lozim. Chunki tijorat banklarining faktoring operatsiyalari bankka diskont ko'rinishida daromad keltiruvchi operatsiya hisoblanadi.

Tijorat banklarining faktoring operatsiyalari deganda, odatda, qarzni undirish huquqini sotib olish tushuniladi. Bunda bank o'z mijozidan debitor qarzlarni sotib oladi. To'lovchi to'lov summasini bevosita tijorat bankiga to'lab beradi.

Tijorat banki faktoring operatsiyalarida riskni to'liq o'z zimmasiga oladi. Shuning uchun ham bank tovarlar va xizmatlar uchun to'lovni amalga oshirishi lozim bo'lgan korxonalarining to'lovga qobilligini chuqur o'rganadi. Debitorlar to'lovni bevosita bankka to'lash to'g'risida ko'rsatma oladilar.

Faktoring inglizcha "factor" degan so'zidan olingan bo'lib, vositachi ma'nosini anglatadi.

Faktoring operatsiyalari tijorat banklari tomonidan XX asrning 50-yillaridan boshlab amalga oshirila boshlandi. Ushbu operatsiyalar birinchi marta AQShning "Bank of Amerika" va "First National Bank of Boston" kabi yirik tijorat banklarining faoliyatida paydo bo'ldi.

Xalqaro amaliyotda faktoring operatsiyalarining uch turi mavjud:

1. Debitor qarzlarni ma'lum diskont asosida sotib olish.

2. Bank tomonidan korxonaning sotish hisobi bo'yicha barcha operatsiyalarining yuritilishi.

3. Tovar summasini to'lovchining to'lovga qobilligidan qat'iy nazar, to'liq to'lab berishga kafolat berish.

Faktoring operatsiyalari O'zR. AV tomonidan

03.08.2000 yilda 953-son bilan ro'yxatga olingan, O'zR. MB tomonidan 15.07.2000 yilda 476-son bilan tasdiqlangan "Tijorat banklari tomonidan O'zbekiston Respublikasi hududida faktoring operatsiyalarini o'tkazish tartibi to'g'risida"gi Nizomga muvofiq, olib boriladi. Ushbu Nizomga muvofiq faktoring - xo'jalik yurituvchi subyektlar - yetkazib beruvchilarni moliyalashga doir bank xizmatlarining bir turi bo'lib, bunda ular bank - moliyaviy agentga yetkazib berilgan tovarlar, bajarilgan ishlar yoki ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lovchilar tomonidan akseptlangan, lekin to'lov talabnomalari bo'yicha haqi to'lanmagan to'lovni, regress huquqisiz, olish huquqini beradilar.

Faktoring bo'yicha diskontni hisobga olish uchun hisobvaraqlar rejasida 11195 - Sotib olingan debitorlik qarzlari - Faktoring - bo'yicha diskont (kontr-aktiv) va 45217 - Sotib olingan debitorlik qarzlari bo'yicha daromadlar- Faktoring hisobvaraqlaridan foydalaniladi. 11195 - Sotib olingan debitorlik qarzlari - Faktoring - bo'yicha diskont (kontr-aktiv) hisobvarag'ida sotib olingan debitorlik qarzlarning to'liq nominal qiymati bilan sotib olish narxi o'rtasidagi salbiy farq, ya'ni diskont hisobi olib boriladi. Hisobvaraqlarning kreditida bankning debitorlik qarzini uning to'liq nominal qiymatidan past narxda sotib olgandagi diskont summasi aks ettiriladi. Hisobvaraqlarning debetida diskont amortizatsiyasi, shuningdek, qarzdor tomonidan debitorlik qarzlarni qisman yoki to'liq qoplash natijasida yoki boshqa shaxslar hisobiga kechib yuborilganda hisobdan chiqarilgan diskont summasi aks ettiriladi. Tahliliy hisob har bir shartnoma bo'yicha alohida shaxsiy hisobvaraqlarda olib boriladi. 45217 - Sotib olingan debitorlik qarzlari bo'yicha daromadlar - Faktoring hisobvarag'ida sotib olingan debitorlik qarzlari bo'yicha bankning olgan daromadlari hisobi olib boriladi. Hisobvaraqlarning kreditida qarzdor tomonidan sotib olingan debitorlik qarzini qoplashda ishlab topilgan daromad summasi aks ettiriladi. Hisobvaraqlarning debetida noto'g'ri olingan daromadlarning qaytarilish summasi, shuningdek, moliyaviy hisobot yilining oxirida bankning moliyaviy



natijasi sifatida 31206-“Sof foyda (zarar) (aktiv-passiv)” hisobvarag‘iga o‘tkaziladigan daromadlar summasi aks ettiriladi.

Hozirgi kunda faktoring bo‘yicha diskont summasi tijorat banklari tomonidan faktoring summasi to‘langan vaqtda daromad sifatida tan olinmoqda:

Debet- 11195 - Sotib olingan debitorlik qarzlari - Faktoring - bo‘yicha diskont (kontr-aktiv);

Kredit - 45217 - Sotib olingan debitorlik qarzlari bo‘yicha daromadlar- Faktoring.

11195 - Sotib olingan debitorlik qarzlari - Faktoring - bo‘yicha diskont (kontr-aktiv) hisobvarag‘ining ta‘rifiga e‘tibor bersak, uning debetida diskont amortizatsiyasi hisobga olinishi lozimligi qayd etib o‘tilgan. Shu sababli diskontni faktoring shartnomasi amal qilish muddati davomida amortizatsiya qilib borish hisoblash usuliga mos keladi va hisobot davri daromadlari va xarajatlarning muvofiqligi tamoyilining bajarilinishi ta‘minlaydi.

Fikrimizcha, faktoring bo‘yicha diskontni ikki qismga, ya‘ni berilgan qisqa muddatli kredit uchun to‘lov va xizmat ko‘rsatganligi uchun haqga bo‘lish kerak. Sababi, bank regress huquqisiz to‘lov talabnomalarini sotib olganda savdo yoki xizmat ko‘rsatuvchi korxonani kreditlaydi va unga xizmat ko‘rsatadi. Faktoring bo‘yicha diskontning 10-15 foizini xizmat ko‘rsatganligi uchun haq qolgan 85-90 foizini qisqa muddatli kredit uchun to‘lov sifatida hisobga olish kerak.

Bunda komission haq faktoring xizmati ko‘rsatilganda foizsiz daromad sifatida tan olinishi va hisobga olinishi lozim.

Qisqa muddatli kredit bo‘yicha to‘lov esa foizli daromad sifatida tan olinishi va hisobga olinishi lozim. Buning uchun tijorat banklari hisobvaraqlar rejasiga foizli daromadlar tarkibiga yangi 41300 - Sotib olingan debitorlik qarzlari bo‘yicha foizli daromadlar- Faktoring hisobvarag‘ini kiritish lozim.

Bunda qisqa muddatli kredit bo‘yicha foizli daromad summasiga quyidagi buxgalteriya o‘tkazmasi keltiriladi:

Debet- 11195 - Sotib olingan debitorlik qarzlari -

Faktoring - bo'yicha diskont (kontr-aktiv);

Kredit - 41300 - Sotib olingan debitorlik qarzlari bo'yicha foizli daromadlar- Faktoring.

Faktoring bo'yicha foizli daromad hisoblash usuli va hisobot davri daromadlari va xarajatlarining muvofiqligi tamoyiliga mos holda amalga oshirilishi lozim.

Bank daromadlari hisobini takomillashtirishda foizsiz daromadlar hisobini yuritishda o'z vaqtida undirilmagan vositachilik haqini hisobga olishda tijorat banklari foizsiz daromadlarni mijoz hisobvarag'ida mablag' bo'lishidan qat'iy nazar, avval hisobga olib, keyin undirib olishi lozim.

Mijozlarga xizmat ko'rsatish jarayonida banklar foizsiz daromadlarni hisoblab qo'ygandan so'ng mijozlarning to'lovga layoqatsizligi sababli belgilangan muddatda uni undirib olish imkoniyatiga ega bo'lmay qoladilar. Ushbu holat bankning hisoblangan foizsiz daromadlari bo'yicha ko'rilishi mumkin bo'lgan zararlarni qoplash zaxirasini yaratish zaruratini keltirib chiqaradi. Buning uchun bank har bir qarzdor mijoz uchun ochilgan 16401 – “Hisoblangan vositachilik haqi va ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lovlar”, 16405 – “Hisoblangan jarima va penyalari”, 16409 – “Operatsion ijara bo'yicha hisoblangan daromad”, 16413 – “Hisoblangan boshqa foizsiz daromadlar” shaxsiy hisobvarag'idagi mablag'larni hisob-kitob qilishi kerak.

16401, 16405, 16409, 16413 shaxsiy hisobvaraqlardagi hisoblangan foizsiz daromadlarning o'z vaqtida to'lanmaganlarini hisobga olish uchun 16477 – “Olish uchun hisoblangan, shartnoma muddatida to'lanmagan foizsiz daromadlar” hisobvarag'i kiritilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Ushbu hisobvaraqda olish uchun hisoblangan, lekin shartnomada belgilangan muddatda to'lanmagan (aktivlar bo'yicha foizlar va vositachilik haqlari bo'yicha balansdan tashqari hisobvaraqlarga o'tkazilgunga qadar hisoblangan muddati o'tgan) foizsiz daromadlar hisobi olib borilishi bank uchun qancha hisoblangan foizsiz daromad o'z vaqtida undirilmaganligini bilish imkonini beradi.

Hisoblangan vositachilik haqi va ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lovlar o'z vaqtida to'lanmasa, ular 16477 – “Olish uchun hisoblangan, shartnoma muddatida to'lanmagan foizsiz daromadlar” hisobvarag'iga o'tkazilsa quyidagi buxgalteriya o'tkazmasi bajariladi:

Debet-16477 – “Olish uchun hisoblangan, shartnoma muddatida to'lanmagan foizsiz daromadlar”;

Kredit-16401 – “Hisoblangan vositachilik haqi va ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lovlar”.

Muddatida to'lanmagan foizsiz daromadlar to'langanda esa:

Debet-Mijozning hisobvarag'i;

Kredit-16477 – “Olish uchun hisoblangan, shartnoma muddatida to'lanmagan foizsiz daromadlar”.

Buxgalteriya o'tkazmasi amalga oshiriladi.

Yuqorida ko'rganimizdek, foizsiz daromadlar tarkibida aksiyalardan olinayotgan dividendlar qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalar rivojlanishi bilan ortib boradi. Biz bilamizki, aksiyalar oddiy va imtiyozli turlarga bo'linadi. Oddiy aksiyalar bo'yicha dividendlar aksionerlik jamiyati moliya yilida faoliyat natijasiga bog'liq bo'ladi. Dividendni hisobga olish amaliyoti aynan shuni hisobga olishga mo'ljallangan va yil tugagandan so'ng aksionerlar umumiy yig'ilishi qaror qabul qilingandan so'ng, hisobga olinadi. Hozirgi kunda shunday imtiyozli aksiyalar bo'yicha dividendlar ham shu tarzda to'lanib kelinmoqda.

Ushbu holat imtiyozli aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lashga to'g'ri kelmaydi. Sababi, imtiyozli aksiya bo'yicha dividend aksionerlik jamiyati faoliyatiga bog'liq bo'lmaydi va moliya yili boshlanishi bilan unda dividend to'lash majburiyati yuzaga keladi hamda aksionerlik jamiyati uni o'zida hisobga olishi lozim. Bunda tijorat banki ham uni daromad sifatida tan olishi lozim bo'ladi. Tijorat banklari esa imtiyozli aksiyalar bo'yicha dividendlarni faqat umumiy yig'ilish bo'lib o'tgandan so'ng, hisobga oladi.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda tijorat banklari hisoblash tamoyilini qo'llab, imtiyozli aksiya bo'yicha dividendni har kuni tan olib borishi va quyidagi buxgalteriya o'tkazmasini hisobga olishi lozim:

Debet-19939 – “Olinadigan dividendlar”;

Kredit-45800 – “Investitsiyalardan olingan foyda va dividendlar”.

Eʼlon qilingan dividendlar olinganda esa quyidagi oʻtkazma amalga oshiriladi:

Debet bank vakillik hisobvaragʻi yoki emitent hisobvaragʻi;

Kredit-19939 – “Olinadigan dividendlar”.

Imtiyozli aksiyalar boʻyicha dividendlar shu tartibda hisobga olinishi hisobot davri daromadlari va xarajatlarning muvofiqligi tamoyiliga mos ravishda amalga oshiriladi.

Shunday qilib, har qanday tijorat faoliyatining asosiy maqsadi daromad olishdir. Tijorat banklari bajargan har bir operatsiya va ularning faoliyatlari yuqori daromad olishga qaratilgan. Shunga koʻra Respublikamizdagi zamonaviy iqtisodiy muhit tijorat banklari faoliyatini jahon amaliyotida qabul qilingan umumiy tamoyillarga moslashtirib borishga sharoitlar yaratib bermoqda.

### **Nazorat savollari va topshiriqlar**

1. MHXSlarida bank daromad va harajatlarning tan olinishi.
2. Bank daromadlari nima va u qanday shakllanadi?
3. Bank xarajatlariga nimalar kiradi?
4. Bank foydasi nima va u qanday tashkil topadi?
5. Foizli xarajatlar va ularning hisobi qanday yuritiladi?
6. Foizsiz xarajatlar va ularning tarkibi nimalardan iborat?
7. Foizli daromadlar hisobi qanday yuritiladi?
8. Foizsiz daromadlar tarkibi va ular hisobining tashkil etilishini koʻrsating.
9. Bank daromad va xarajatlar boʻyicha hisobvaraqlar yil oxirida qanday yopiladi?

## **X BOB. BIZNESNI BIRLASHTIRISH VA KONSOLIDATSIYALASHGAN MOLIYAVIY HISOBOT**

### **10.1. Biznesni birlashtirishda hisob ma'lumotlarini umumlashtirish usullari**

Ikki yoki undan ortiq korxonalar faoliyat ko'rsatkichlarini ma'lum bir qoidalar asosida umumlashtirishning mavjud metodlari, korxonaning barcha yoki alohida balans moddalarini turli darajada jamlaydi.

Umumlashtirish metodlarining uch guruhini ajratib ko'rsatish mumkin: to'liq konsolidatsiyalash metodi, proporsional konsolidatsiyalash metodi, qatnashish metodi.

1) To'liq konsolidatsiyalash metodi qo'llanilganda, guruh korxonalarining barcha aktivlari va majburiyatlari, moliyaviy hisobotga xuddi yagona korxonaning hisoboti tuzilgandek, asosiy hisob tamoyillari va farazlariga muvofiq jamlanadi. Ya'ni, aktiv va majburiyatlar hisobining ayni moddalari qatorma qator jamlanadi va bunda guruh ichidagi operatsiyalar natijalari bo'yicha qoldiqlar istisno qilinadi.

To'liq konsolidatsiyalash metodlariga sotib olish metodi, manfaatlarni birlashtirish metodi "boshlang'ich balans metodi" kiradi. Ba'zi adabiyotlarda manfaatlar birlashishi metodining modifikatsiyalashtirilgan turi sifatida qaraluvchi, hamda kombinatsiyalashgan moliyaviy hisobot deya nomlagan metod ham to'liq konsolidatsiyalash metodiga taalluqli deb hisoblanadi.

2) Proporsional konsolidatsiya metodi qo'llanilgan taqdirda, korxonalar balansining barcha moddalari qiymatining ma'lum bir proporsiyadagi (nisbatdagi) qismi moliyaviy hisobotga qo'shiladi.

Odatda, proporsional konsolidatsiya metodi, qo'shma faoliyatni hisobga olish va hisobotda aks ettirishda qo'llaniladi. Bunda u, umumlashtirish metodi sifatida emas, balki qo'shma faoliyat ishtirokchisi hisoblanmish korxonaning alohida moliyaviy hisobotida nazorat

qilinadigan aktiv va majburiyatlarni hisobga olish metodi sifatida qaralishi lozim.

Ba'zi bir hisob tizimlarida proporsional konsolidatsiya metodi guruh hisobotlarini tuzish metodi bo'lib ham hisoblanib, ko'p darajali guruhlar uchun, ikki va undan ko'proq korxonalar tomonidan nazorat amalga oshirilganda ushbu metod qo'llanilishi mumkin.

3) Qatnashish metodida korxonalar aktiv va majburiyatlari birlashtirilmaydi. Bunda moliyaviy investitsiyaning balans qiymati, amalga oshirilgan haqiqiy xarajatlar summasiga teng bo'ladi. So'ngra, o'z navbatida u, investitsiya obyektining (korxonaning) moliyaviy natijalaridagi investorning ulushiga teng summaga ko'payib yoki kamayib boradi. Natijada moliyaviy hisobot, investitsiya amalga oshirilgan korxonalar kapitalidagi investor ulushini aks ettiradi.

MHXS va AQSh BHUT tizimlarida investitsiyalarni hisobga olishning qatnashish metodi korxonalar alohida moliyaviy hisobotida qo'llanilishi mumkin, aniqrog'i u assotsiatsiyalashgan korxonalar qilingan investitsiyalarni hisobga olish metodi sifatida qaraladi.

Shu bilan birga qatnashish metodini guruh hisobotini tuzish metodi sifatida qarash mumkin.

Konsolidatsiyalash metodlari hisob ma'lumotlarini umumlashtirishning o'ziga xos metodlaridan iboratdir.

Shu'ba korxonalar Bosh korxonaga to'laligicha tegishli bo'lmagan va boshqa aksiyadorlarga tegishli bo'lgan sof aktivlarni tashkil qiluvchi "ozchilik ulushi" deb nomlanuvchi holatning yuzaga kelishi ushbu metodlarning asosiy xususiyatini belgilab beradi.

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarida "ozchilik ulushi"ga quyidagicha ta'rif berilgan:

"Ozchilik ulushi"-bu, Bosh korxonalar tomonidan bevosita yoki shu'ba korxonalar orqali bilvosita tarzda tasarruf qilinmaydigan ulushga to'g'ri keladigan shu'ba korxonalarining operatsiyalari va sof aktivlarining bir qismidir".<sup>65</sup>

---

<sup>65</sup> Международные стандарты финансовой отчетности 2005: издание на русском языке. М.: Аскери, 2005. 1064 с.

Korxonada sof aktivlarning “ozchilik ulushi”ga to‘g‘ri keladigan qismini aniqlash, ularni tan olish va guruh hisobotida aks ettirish va talqin qilish jihatidan umumlashtirishning mavjud metodlari bir biridan farqlanadi. Shu bilan birga, “ko‘pchilik” va “ozchilik” o‘rtasidagi nisbatning guruh hisobotida yoritib berilishini, konsolidatsiyalashgan hisobot metodlarini umumlashtirishning boshqa metodlaridan farqlovchi asosiy xususiyat sifatida ta‘riflash mumkin.

Proporsional konsolidatsiyalash metodida kapital, aktiv va majburiyatlarning “ozchilik”ga to‘g‘ri keladigan qismi guruh hisobotida aks ettirilmaydi. Qatnashish metodida korxonada aktiv va majburiyatlari umuman birlashtirilmaydi, sof aktivlardagi “ozchilik ulushi” ham guruh hisobotida o‘z aksini topmaydi. Shu asnoda ushbu tadqiqot ishida e‘tibor to‘liq konsolidatsiyalash metodiga qaratilgan bo‘lib, proporsional konsolidatsiyalash va qatnashish metodlari qarab chiqilmaydi.

To‘liq konsolidatsiyalash metodida guruh korxonalarining aktivlari, majburiyatlari va o‘z mablag‘larining barcha summaları guruh hisobotida tan olinadi. Ammo, shu bilan birga “ozchilik ulushi” - hisobotning maxsus elementi sifatida, balans moddalarining oddiy birlashtirilishidan farqli o‘laroq, schyotlarni umumlashtirishning o‘ziga xos qoidalari asosida yuzaga keladi. Ushbu qoidalar sotib olish metodi, manfaatlarni birlashtirish metodi va “boshlang‘ich balans metodi”da o‘z aksini topgan. Shu bilan birga, “boshlang‘ich balans metodi”ning konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotni tuzish maqsadida qo‘llanilishi holatlari ma‘lum emas. Odatda, umumlashtirishning ushbu metodi, qayta tashkil qilish natijasida yuzaga kelgan yangi yuridik shaxsning hisobotini shakllantirishda qo‘llaniladi.

Shunga muvofiq tadqiqot ishida, sotib olish metodi va manfaatlarni birlashtirish metodi konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotning metodlari sifatida qarab chiqiladi.

Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotning metodlarini tanlash turli hisob konsepsiyalari va tamoyillariga tayanadi. Natijada, korxonaning alohida hisobotidagi

singari, konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotning asosida turli balans nazariyalari, hamda hisob tamoyillarining birining boshqasidan ustivorligi yotadi.

Bugungi kunda “ozchilik ulushi”ni aniqlashga va guruh ichidagi opertsiyalar natijalarini o‘zaro bartaraf qilishga muhim ta’sir qiluvchi ikkita konsepsiya konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot metodlarida qarab chiqilmoqda.

Bular - birlik konsepsiyasi va manfaatlar konsepsiyasidir. Ushbu konsepsiyalar turli hisob tizimlarida o‘z variantlariga ega bo‘lishlari mumkin.

Manfaatlar konsepsiyasining variantlaridan biri sifatida “Bosh kompaniya konsepsiyasi” keng tarqalgan bo‘lib u AQSh hisob tizimida quyidagicha ta’riflangan:

Bosh kompaniya konsepsiyasi- Bosh korxonalar va unga ko‘pchilik huquqi asosida tegishli bo‘lgan shu’ba korxonalarining konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotini tuzish metodi bo‘lib, u shu’ba korxonalarini sof aktivlarining qayta guruhlanishini, hamda ularni sotib olish sanasiga haqqoniy qiymatda faqatgina “ko‘pchilik” manfaatiga nisbatan aks ettirilishini ko‘zda tutadi.

Birlik konsepsiyasi guruh korxonalariga yagona iqtisodiy obyekt sifatida yondashadi. Guruh tomonidan nazorat qilinayotgan resurslar, ularga nisbatan egalik huquqidan qat’iy nazar, yaxlit tarzda qaraladi, shuning uchun bir xil umumlashtirish metodi, korxonaning barcha aktiv va majburiyatlariga nisbatan qo‘llaniladi. Boshqacha qilib aytganda “ko‘pchilik” va “ozchilik”ga tegishli bo‘lgan aktivlar va majburiyatlarni hisobotda aks ettirish tartibi bo‘yicha farq yuzaga kelmaydi.

Hozirda amalda bo‘lgan Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari birlik konsepsiyasini hisobga olishning yagona va asosiy tartibi sifatida tan oladi, hamda manfaatlar konsepsiyasini alternativ metod sifatida qo‘llanilishiga ruxsat etmaydi. Shuning bilan birga, MHXS ozchilik ulushini haqqoniy qiymat asosida aniqlar ekan, uni ayriboshlash yoki sotib olish operatsiyalarining tarkibiy qismi sifatida qaraydi. Mos holda, ozchilik ulushi konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotda guruh



korxonalarining o'z mablag'lari va majburiyatlar qismidan alohida tarzda ko'rsatiladi.

Mavjud konsepsiyalar doirasida, guruh ichidagi bitimlar bo'yicha foyda va zararlar qanday nisbatlarda va ulushlarda o'zaro tenglashtirilishi lozim va ular "ozchilik ulushi"ga nisbatan umuman o'zaro tenglashtirilishi lozimmi degan savollarga nisbatan turli qarashlar mavjud. Manfaatlar nazariyasining bir variantiga ko'ra, guruh ichidagi operatsiyalar bo'yicha olingan foyda (zarar)larning ozchilik ulushiga to'g'ri keladigan qismi, foyda va zararlarning balans schyotlariga qo'shilishi lozim. Boshqa variantlarga muvofiq, guruh ichidagi operatsiyalar natijalari, guruh va "ozchilik ulushi"ning moliyaviy natijalaridan tegishli nisbatlarda chegirilib tashlanadi. Ushbu yondashuv MHXSda o'z aksini topgan.

Konsolidatsiya metodlari hisob ma'lumotlarini umumlashtirishning o'ziga xos metodlari hisoblanib, u shu'ba korxonaga Bosh korxonaga to'liq tegishli bo'lmagan va natijada guruhning boshqa aksiyadorlari (ta'sischilari)ga tegishli bo'lgan sof aktivlarni tashkil qiluvchi ozchilik ulushining yuzaga kelishi bilan bog'liqdir.

Ushbu metod doirasida olingan ma'lumot, jumladan, guruhga kirgan har bir korxonaga moliyaviy natijalari va mulkining sof qiymatida Bosh korxonaga va umuman guruhga tegishli bo'lgan ulushini aniqlash va kelgusida uni bashoratlash, hamda Bosh korxonaga mulkdorlari tomonidan qo'yilgan sarmoyaning o'sishini baholashga to'liqroq imkon beradi.

Turli hisob tizimlarida u yoki bu umumlashtirish metodlarini qo'llash natijalarini belgilashga o'ziga xos yondashuvlar mavjuddir. Natijada, turli davlatlarda, hisob va hisobot ma'lumotlarini umumlashtirishning turli metodlari konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotni tuzish metodlari sifatida tan olinmoqda. Shu nuqtai nazardan, turli hisob tizimlarini qarab chiqishda moliyaviy hisobot nomlanishiga emas, balki olingan informatsiyaning sifat xarakteristikalariga e'tibor berish lozim.

## **10.2. Tijorat banklarida moliyaviy hisobotlarni konsolidatsiyalash masalasi**

Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilarni guruhning moliyaviy ahvolidagi o'zgarishlar to'g'risidagi ma'lumotlar bilan ta'minlash maqsadida tuziladi va taqdim etiladi.

Banklar shu'ba xo'jalik uyushmalari, bog'liq xo'jalik uyushmalari va qo'shma korxonalar, shuningdek filiallari va vakolatxonalaridagi o'z investitsiyalarini konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotda aks ettirishlari lozim. Konsolidatsiyalashgan hisobotga bosh bank, uning shu'ba xo'jalik jamiyatlari va vakolatxonalarining moliyaviy hisobotlari ilova qilinadi.

Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot nazorat ostidagi barcha shu'ba va bog'liq xo'jalik uyushmalari, filiallar va vakolatxonalar, shuningdek, sotish uchun mo'ljallangan uzoq muddatli aktivlar hamda tugallanadigan faoliyat sifatida hisobga olinadigan investitsiyalardan tashqari qo'shma korxonalaridagi investitsiyalarni o'z ichiga olishi lozim.

Shu'ba xo'jalik uyushmasi ustidan nazoratning mavjudligini aniqlash quyidagi tartibda amalga oshiriladi. Agar bosh bank bevosita yoki shu'ba xo'jalik uyushmalari orqali boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlarning ovoz berish huquqiga ega aksiyalarning yarmidan ko'piga egalik qilganda nazorat mavjud deb taxmin qilinadi, bunday egalik qilishning nazoratni ta'minlanmasligi yaqqol ko'rinishi mumkin bo'lgan holatlar bundan mustasno. Shunday qilib, nazoratni aniqlash bosh bank bevosita egalik qiluvchi shu'ba xo'jalik uyushmalari kabi bilvosita egalik qiluvchi shu'ba xo'jalik uyushmalariga daxldordir.

Masalan, A Bank V Bankning 60% aksiyalariga egalik qilsa, A Bank bosh bank hisoblanadi, V Bank esa bevosita bosh bankka tegishli shu'ba xo'jalik uyushmasi hisoblanadn. Agar, bundan tashqari, V Bank S xo'jalik yurituvchi subyektning 100% aksiyalariga ega bo'lsa, u holda mazkur xo'jalik yurituvchi subyekt V Bankka bevosita tegishli bo'lgan shu'ba xo'jalik uyushmasi hamda

A Bank uchun bilvosita shu'ba xo'jalik uyushmasi hisoblanadi.

Jamlashda shu'ba xo'jalik uyushmasi o'zining xo'jalik faoliyati bu guruhdagi boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatidan farq qilganligi sababli chiqarilmaydi. Bunda muhim ma'lumotlar bilan ta'minlash maqsadida shu'ba xo'jalik uyushmasining xo'jalik faoliyatidagi farqlar to'g'risidagi qo'shimcha ma'lumotlarni yoritish zarur.

Banklar bog'lik xo'jalik uyushmalari va qo'shma korxonalaridagi investitsiyalarni hisobga olishda bo'ylama ishtirok etish bo'yicha hisobga olish uslubidan foydalanishlari lozim. Bo'ylama ishtirok etish bo'yicha hisobga olish uslubiga muvofiq qo'llaniladigan ko'pgina chora-tadbirlar jamlash chora-tadbirlariga o'xshashdir.

Biroq, bo'ylama ishtirok etish bo'yicha hisobga olish uslubiga ko'ra investor bank (ishtirokchi) har bir komponentdagi o'z ulushini o'zining moliyaviy hisobotiga kiritish o'rniga bog'liq xo'jalik uyushmasi yoki qo'shma korxonaning sor foydasi (zararlari)dagi o'z ulushini alohida satrda o'zining foyda va zararlar to'g'risidagi hisobotiga kiritishi lozim.

Tijorat banklarida konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot tuzish O'zR AV tomonidan 18.01.2005-yilda 1445-son bilan ro'yxatga olingan MB boshqaruvining 31.12.2004-yildagi 28/12-son qarori bilan tasdiqlangan "Tijorat banklari tomonidan jamlanma moliyaviy hisobotlarni tuzish va taqdim etish tartibi to'g'risida" nizom asosida olib boriladi.

Jamlanma moliyaviy hisobot moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilarni guruhning moliyaviy ahvalidagi o'zgarishlar to'g'risidagi ma'lumotlar bilan ta'minlash maqsadida tuziladi va taqdim etiladi.

Banklar shu'ba xo'jalik uyushmalari, bog'liq xo'jalik uyushmalari va qo'shma korxonalar, shuningdek filiallari va vakolatxonalaridagi o'z investitsiyalarini jamlanma moliyaviy hisobotda aks ettirishlari lozim. Jamlanma hisobotga bosh bank, uning shu'ba xo'jalik jamiyatlari va vakolatxonalarining moliyaviy hisobotlari ilova qilinadi.

Jamlanma moliyaviy hisobot nazorat ostidagi barcha shu'ba va bog'liq xo'jalik uyushmalari, filiallar va vakolatxonalar, shuningdek, sotish uchun mo'ljallangan uzoq muddatli aktivlar hamda tugallanadigan faoliyat sifatida hisobga olinadigan investitsiyalardan tashqari qo'shma korxonalaridagi investitsiyalarni o'z ichiga olishi lozim.

Jamlashda shu'ba xo'jalik uyushmasi o'zining xo'jalik faoliyati bu guruhdagi boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatidan farq qilganligi sababli chiqarilmaydi. Bunda muhim ma'lumotlar bilan ta'minlash maqsadida shu'ba xo'jalik uyushmasining xo'jalik faoliyatidagi farqlar to'g'risidagi qo'shimcha ma'lumotlarni yoritish zarur.

Banklar bog'liq xo'jalik uyushmalari va qo'shma korxonalaridagi investitsiyalarni hisobga olishda bo'ylama ishtirok etish bo'yicha hisobga olish uslubidan foydalanishlari lozim. Bo'ylama ishtirok etish bo'yicha hisobga olish uslubiga muvofiq qo'llaniladigan ko'pgina chora-tadbirlar jamlash chora-tadbirlariga o'xshashdir.

Biroq, bo'ylama ishtirok etish bo'yicha hisobga olish uslubiga ko'ra investor bank (ishtirokchi) har bir komponentdagi o'z ulushini o'zining moliyaviy hisobotiga kiritish o'rniga bog'liq xo'jalik uyushmasi yoki qo'shma korxonaning sof foydasi (zararlari)dagi o'z ulushini alohida satrda o'zining foyda va zararlar to'g'risidagi hisobotiga kiritishi lozim.

Jamlanma moliyaviy hisobotni tuzishda foydalaniladigan bosh bank va uning shu'ba xo'jalik uyushmalarining moliyaviy hisoboti bitta hisobot sanasida tuzilishi lozim. Bosh bank va uning shu'ba xo'jalik uyushmasining hisobot sanalari mos tushmaganda bosh bank moliyaviy hisobotlarni jamlash maqsadida ulardan moliyaviy hisobotlarni bosh bankning moliyaviy hisobotining sanasiga tayyorlab berishlarini talab etishi lozim, buni bajarib bo'lmaslik holatlari bundan mustasno.

Jamlanma moliyaviy hisobotni tayyorlashda foydalaniladigan bosh bank va uning shu'ba hamda bog'liq xo'jalik uyushmasi, qo'shma korxonaning moliyaviy

hisoboti turli hisobot sanalariga to'g'ri kelsa, u holda ularning moliyaviy hisoboti ularning hisobot sanasi hamda bosh bank (investor, ishtirokchi)ning moliyaviy hisobotini tuzish sanasidagi vaqt davomida sodir bo'lgan muhim operatsiyalar yoki hodisalarning ta'sirini hisobga olgan holda to'g'rilanishi lozim. Istalgan holda shu'ba xo'jalik uyushmasi, bog'liq xo'jalik uyushmasi, qo'shma korxonaning hisobot sanasi hamda bosh bankning hisobot sanasi orasidagi farq 3 oydan oshmasligi lozim. Hisobot davrlarining davomiyligi hamda hisobot sanalari orasidagi har qanday farq muddatdan muddatgacha bir xil bo'lishi lozim.

Jamlanma moliyaviy hisobot o'xshash operatsiyalar hamda o'xshash holatlardagi boshqa hodisalarga nisbatan yagona hisob siyosatini qo'llash bilan tuzilishi lozim.

Agar guruh a'zosi jamlanma moliyaviy hisobotda o'xshash operatsiyalar hamda o'xshash holatlardagi hodisalarga nisbatan keltirilgan siyosatdan farq qiluvchi hisob siyosatidan foydalanayotgan bo'lsa, u holda u jamlanma moliyaviy hisobotni tuzish uchun o'z moliyaviy hisobotida tegishli tuzatishlarni amalga oshirishi lozim.

Shu'ba xo'jalik uyushmasining daromadlari va harajatlari mazkur shu'ba xo'jalik uyushmasining yuzaga kelgan sanasidan boshlab jamlanma moliyaviy hisobotga kiritiladi. Shu'ba xo'jalik uyushmasining daromad va harajatlari jamlanma moliyaviy hisobotga bosh bank xo'jalik uyushmasini nazorat qilishni to'xtatgan sanaga qadar kiritishi lozim. Bosh bank shu'ba xo'jalik uyushmasining faoliyatidan foyda olish maqsadida uning moliyaviy va xo'jalik siyosatini boshqarish bo'yicha vakolatlardan mahrum bo'lganda nazoratni yo'qotgan hisoblanadi. Nazoratni yo'qotish ega bo'lishning mutlaq yoki nisbiy darajalarida o'zgarishlar bilan yoki o'zgarishlarsiz sodir bo'lishi mumkin. Bu, masalan, shu'ba xo'jalik uyushmasi ustidan nazorat qilish davlat, sud yoki tartibga soluvchi organlarga o'tganda sodir bo'lishi mumkin. Nazoratning yo'qolishi shartnoma bitimi natijasida ham sodir bo'lishi mumkin.

Shu'ba xo'jalik uyushmasini tugatishda tugatish sanasida shu'ba xo'jalik uyushmasini tugatishdan kelgan tushum hamda uning balans qiymati orasidagi farq foyda va zararlar to'g'risidagi jamlanma hisobotda aks etadi.

### **10.3. Tijorat banklarida konsolidatsiyalash moliyaviy hisobotlarni tuzish**

Jamlanma moliyaviy hisobotni tuzishda o'zining moliyaviy hisoboti hamda shu'ba xo'jalik uyushmalarining moliyaviy hisobotini aktivlar, majburiyatlar, kapital, daromadlar va xarajatlarning o'xshash moddalarini yig'ish yo'li bilan satrma-satr birlashtiradi.

Jamlanma moliyaviy hisobot guruh to'g'risida uning yagona xo'jalik yurituvchi subyekt sifatidagi moliyaviy ma'lumotini aks ettirishi uchun quyidagilar amalga oshiriladi:

1) har bir shu'ba xo'jalik uyushmasidagi bosh bank investitsiyalarining balans qiymati hamda har bir shu'ba xo'jalik uyushmasining kapitalida bosh bankning ulushi istisno qilinadi;

2) hisobot davrida jamlanma xo'jalik uyushmalarining foyda va zararlarida ozchilik ulushi aniqlanadi;

3) jamlanma shu'ba xo'jalik uyushmalarining sof aktivlaridagi ozchilik ulushi ulardagi bosh bankning ulushidan alohida ravishda aniqlanadi. Sof aktivlardagi ozchilik ulushi quyidagilardan tashkil topadi:

a) dastlabki birlashtirish sanasida xo'jalik yurituvchi subyektlarni birlashtirish bo'yicha MHXS talablariga muvofiq hisoblangan ozchilik ulushining summasi;

b) birlashtirish sanasidan boshlab shu'ba xo'jalik uyushmasi kapitalining o'zgarishlaridagi ozchilik ulushi.

Mazkur amallar quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi.

Birinchi harakat - investitsiyalar hamda bosh bankning kapitalidagi ulushini chiqarish. Navbatdagi misol bosh bank va uning shu'ba xo'jalik uyushmasining investitsiyalari va kapital hisobvaraqlarini ko'rsatadi, bunda shu'ba xo'jalik uyushmasining barcha 100 foiz

aksiyalari bosh bankka tegishlidir. Jamlanma moliyaviy hisobotni tuzishda bosh bankning mazkur investitsiyalarining balans qiymati, shuningdek, bosh bankning shu'ba xo'jalik uyushmalari kapitalidagi ulushi chiqarilishi lozim.

Chiqarish bo'yicha yozuvlarning na boshqa bankning, na uning shu'ba xo'jalik uyushmasining buxgalteriya yozuvlarida qayd etilganligiga e'tibor bering. Jamlanma hisobotni tuzish maqsadida qoida bo'yicha quyida keltirilgan formatga binoan ishchi jadvaldan foydalaniladi. Ishchi jadval chiqarish va yakuniy jamlanma summalar bo'yicha yozuvlar uchun mo'ljallangan ustunlar bilan birgalikda bosh bank va shu'ba xo'jalik uyushmalarining hisobvaraqlaridagi dastlabki qoldiqlarni o'z ichiga oladi.

10.1-jadval

**Moliyaviy hisobotlarni jamlashda foydalaniladigan ishchi jadvalning soddalashtirilgan namunasi**

	<b>Bosh bank</b>	<b>Shu'ba xo'jalik uyushmasi</b>	<b>Chiqarish bo'yicha o'tkazmalar*</b>	<b>Jamlangan qoldiqlar</b>
Shu'ba xo'jalik uyushmasidagi investitsiya	150 000		150 000	
Kapital				
Aksiyadorlik kapitali	300 000	25 000	25 000	300 000
Taqsimlanmagan foyda	1 400 000	125 000	125 000	1 400 000

\*) Chiqarish bo'yicha o'tkazmalar

Yuqorida keltirilgan hisobot moliyaviy hisobotlarni jamlashda foydalaniladigan ishchi jadvalning soddalashtirilgan namunasidan iborat.

Dt - Aksiyadorlik kapitali (shu'ba uyushmasining) 25 000,

Dt - Taqsimlanmagan foyda (shu'ba uyushmasining) 125 000;

Kt - Shu'ba xo'jalik uyushmasidagi investitsiya 150 000.

Ikkinchi harakat guruh ichidagi qoldiqlarni chiqarish. Navbatdagi misol jamlanma moliyaviy hisobotni tuzishda guruh ichidagi operatsiyalar va qoldiqlarni chiqarish tartibini ko'rsatadi. Quyida bosh bank hamda barcha 100 foiz aksiyalari bosh bankka tegishli bo'lgan shu'ba xo'jalik uyushmasining muayyan hisobvaraqlarigina keltirilgan.

Mazkur misolda faraz qilamizki, 2012-yilning 31-dekabr (hisobot yili) holati bo'yicha bosh bank 85 000 so'mlik balans qiymatiga ega asosiy vositalarni shu'ba xo'jalik uyushmasiga 100 000 so'mga sotdi hamda aktivlarni sotishdan olingan 15 000 so'm miqdoridagi foydani aks ettirdi.

Quyida keltirilgan ma'lumot bosh bank hamda 100 foiz aksiyalari unga tegishli bo'lgan shu'ba xo'jalik uyushmasining muayyan hisobvaraqlaridagi, shu jumladan guruh ichidagi faoliyat jarayonida harakatlantirilgan hisobvaraqlardan iborat.

10.2-jadval

**Jamlanma moliyaviy hisobotga bosh bank va uning xo'jalik uyushmasi o'rtasidagi operatsiyalarning ta'siri**

	<b>Bosh bank</b>	<b>Shu'ba xo'jalik uyushmasi</b>	<b>Chiqarish bo'yicha o'tkazmalar</b>	<b>Jamlangan qoldiqlar</b>
Shu'ba xo'jalik uyushmasiga taqdim etilgan kredit	100.000		1) 100.000	0
Asosiy vositalar		100.000	2) 15.000	85.000
Bosh bankka to'lanadigan kredit		100.000	1) 100.000	0
Asosiy vositalarni sotishdan olingan foyda	15.000		2) 15.000	0

Jamlanma moliyaviy hisobot tashqi tomonga sotishdagi foydanigina aks ettirar ekan, u holda bosh bank va uning xo'jalik uyushmasi o'rtasidagi mazkur operatsiyalarning ta'siri chiqarilishi lozim. Aks holda, balans hisobotining aktivlari va sof foyda oshiriladi.

Chiqarshi bo'yicha o'tkazmalar:

To'lashga va olishga bo'lgan guruh ichidagi hisobvaraqlarni chiqarish uchun:

1) Dt - Bosh bankka to'lanadigan kredit 100 000

Kt - Shu'ba xo'jalik uyushmasiga taqdim etilgan kredit 100 000

Sotish bo'yicha guruh ichidagi operatsiyadan olingan foydani chiqarish uchun:

2) Dt - Asosiy vositalarning sotilishidan 15 000

olingan foyda

Kt Asosiy vosita

15 000



Chiqarish bo'yicha o'tkazmalar na bosh bank, na shu'ba xo'jalik uyushmasining buxgalteriya yozuvlarida qayd etilmaydi. Ular jamlanma moliyaviy hisobotni tuzishda foydalaniladigan ishchi jadvalga kiritiladi. 2) chiqarish bo'yicha o'tkazmalar qilinganidan so'ng asosiy vositalarning hisobvarag'idagi jamlanma qoldiq guruh ichidagi operatsiya sodir bo'lmagandagi qoldiq bilan bir xil ekanligiga e'tibor qarating. Mazkur misolda daromad (foyda) solig'i hisobga olinmaydi. Shuningdek, mazkur oddiy misoldagi sotish bo'yicha operatsiyalarning 31-dekabrda sodir bo'lgani va natijada shu'ba xo'jalik uyushmasining mazkur aktiv bo'yicha hech qanday eskirishni aks ettirmaganligiga e'tibor qarating.

Agar shu'ba xo'jalik uyushmasi bosh bank tomonidan harid qilingan asosiy vosita bo'yicha qandaydir eskirishni hisoblab chiqqan bo'lsa, u holda jamlanayotgan guruh ichida harid qilingan va sotilgan aktiv bilan bog'liq eskirish summasini to'g'rilash lozim bo'lar edi.

Aktiv bo'yicha hisoblangan eskirishni chiqarish bo'yicha o'tkazma. Mazkur misolda quyidagilarni faraz qilamiz:

a) 2012-yilning 31-dekabr holati bo'yicha bosh bank 85 000 so'mlik balans qiymatiga ega asosiy vositalarni o'zining shu'ba xo'jalik uyushmasiga 100 000 so'mga sotdi hamda aktivlarni sotishdan olingan 15 000 so'm miqdoridagi foydani aks ettirdi;

b) boshqa tanlov hisobvaraqlaridagi qoldiqlar bilan bir qatorda bosh bank va shu'ba xo'jalik uyushmasining taqsimlanmagan foydasi yuqorida 2013-yilning 31-dekabr holatida ko'rsatilgan;

d) 2012-yilning 31-dekabrda sodir bo'lgan aktivlarning sotilishiga qadar bo'lgan muddat davomida bosh bank mazkur aktivga nisbatan amortizatsiyaning to'g'ri chiziqli uslubidan foydalandi, yil davomidagi eskirish 12 000 so'mni tashkil etdi;

e) shu'ba xo'jalik uyushmasi tomonidan hisoblab chiqilgan aktivlar bo'yicha eskirish 2013-yil uchun 20 000 so'mni tashkil etdi;



olinadigan hisobvaraqlar			majburiyatlar	
Shu'ba bankiga investitsiya	1 400 000			
Asosiy vositalar	7 000 000			
JAMI: Aktivlar	22 300 000		JAMI: Majburiyatlar	18 100 000
			Oddiy aksiyalar	1 500 000
			Taqsimlanmagan foyda	2 700 000
			Jami: Kapital	4 200 000
			JAMI: Majburiyatlar va kapital	22 300 000

Bosh bankka butunlay tegishli bo'lgan shu'ba xo'jalik uyushmasini jamlash. Bosh bank shu'ba bankiga to'liq egalik qiladi.

10.5-jadval

### Shu'ba banking balans hisoboti

Pul mablag'lari	600 000	Depozitlar	2 000 000
Olinadigan sof kreditlar	3 000 000	Bosh bankka to'lanadigan hisobvaraqlar	200 000
Asosiy vositalar	700 000	Joriy majburiyatlar	250 000
		Uzoq muddatli majburiyatlar	450 000
JAMI: Aktivlar	4 300 000	JAMI: Majburiyatlar	2 900 000
		Oddny aksiyalar	1 000 000
		Taqsimlanmagan foyda	400 000
		Jami: Kapital	1 400 000
		JAMI: Majburiyatlar va kapital	4 300 000

10.6-jadval

### Jamlanma balans hisoboti va chiqarish bo'yicha o'tkazmalarni jamlash bo'yicha ishchi jadval

	Bosh bank	Shu'ba banki	Chiqarish bo'yicha o'tkazmalar	Jamlangan qoldiqlar
Pul mablag'lari	1 500 000	600 000		2 100 000
Olinadigan sof kreditlar	12 200 000	3 000 000		15 200 000
Shu'ba bankidan olinadigan hisobvaraqlar	200 000		2) 200 000	
Shu'ba bankiga investitsiya	1 400 000		1) 1 400 000	
Asosiy vositalar	7 000 000	700 000		7 700 000
JAMI: Aktivlar	22 300 000	4 300 000		25 000 000
Depozitlar	12 100 000	2 000 000		14 100 000
Bosh bankka to'lanadigan hisobvaraqlar		200 000	2) 200 000	
Joriy majburiyatlar	900 000	250 000		1 150 000
Uzoq muddatli majburiyatlar	5 100 000	450 000		5 550 000

Jami: Majburiyatlar	18 100 000	2 900 000		20 800 000
Oddiy aksiyalar	1 500 000	1 000 000	1) 1 000 000	1 500 000
Taqsimlanmagan foyda	2 700 000	400 000	1) 400 000	2 700 000
Jami: Kapital	4 200 000	1 400 000		4 200 000
JAMI: Majburiyatlar va kapital	22 300 000	4 300 000		25 000 000

Chiqarish bo'yicha o'tkazmalar:

a) shu'ba bankiga investitsiyalar hisobvarag'idagi qoldiqlar chiqariladi

Dt - Oddiy aksiyalar 1 000 000,

Dt - Taqsimlanmagan foyda 400 000

;

Kt - Shu'ba bankiga investitsiyalar 1 140 000.

b) to'lanadigan va olinadigan guruh ichidagi hisobvaraqlar chiqariladi

Dt - Bosh bankka to'lanadigan hisobvaraqlar 200 000;

Kt - Shu'ba bankidan olinadigan hisobvaraqlar 200 000.

Bosh bank va ozchilik ulushiga tegishli bo'lgan foyda yoki zararlar hamda kapital o'zgarishlaridagi mutanosib ulushlarni aniqlashda salohiyatli ovoz huquqidan iborat bo'lgan vositalarning ehtimolli ijrosi yoki konvertirlanishi e'tiborga olinmaydi, balki egalik qilishdagi hozirgi ulushlardan kelib chiqqan holda hisoblanadi.

Guruh ichidagi qoldiqlar va bosh bank hamda shu'ba xo'jalik uyushmasi o'rtasidagi yoki shu'ba xo'jaliklari o'rtasidagi operatsiyalar, shu jumladan, daromadlar, xarajatlar va dividendlar butunlay chiqarilishi lozim. Shuningdek, tovar-moddiy zaxiralari va asosiy vositalar kabi aktivlar bilan bog'liq guruh ichidagi operatsiyalardan kelib chiqadigan foyda yoki zararlar ham butunlay chiqariladi. Guruh ichidagi zararlar jamlanma hisobotda aks etishi talab qilingan ehtimolli qadrsizlanishini ko'rsatish mumkin.

Investorlar (yoki uning jamlanma shu'ba xo'jalik uyushmalari) va bog'liq xo'jalik uyushmasi (yoki qo'shma korxonalar) o'rtasidagi "pastdan yuqoriga" va "yuqoridan

pastga” operatsiyalari natijasida yuzaga kelgan foyda va zarar investorlarning moliyaviy hisobotida mazkur bog‘liq xo‘jalik uyushmasi (qo‘shma korxon)ning bog‘liq bo‘lmagan investorlariga tegishli ulushi doirasida aks etadi. Masalan, “pastdan yuqoriga” operatsiyasi aktivlarning bog‘liq xo‘jalik uyushmasi (yoki qo‘shma korxon) tomonidan investorga sotilishini ifodalaydi. Masalan, “yuqoridan pastga” operatsiyasi aktivlarning investor tomonidan bog‘liq xo‘jalik uyushmasiga sotilishini ifodalaydi. Bunday operatsiyalar natijasida yuzaga keladigan bog‘liq xo‘jalik uyushmasi (yoki qo‘shma korxon)ning foyda va zararlaridagi investorning ulushi chiqariladi.

Ozchilik ulushi jamlanma balans hisobotining kapital bo‘limida bosh bankning aksiyadorlik kapitalidan alohida ravishda taqdim etilishi, shuningdek, foyda va zararlar to‘g‘risidagi hisobotda alohida yoritilishi lozim.

Ozchilik ulushi shu’ba xo‘jalik uyushmasining 100%dan kamiga egalik qiluvchi bosh bank tomonidan hisobotlarni tuzishda faqat jamlanma moliyaviy hisobotda aks ettiriladi. Sof foyda (zarar) bosh bank aksiyadorlarining ulushi va ozchilik ulushiga taqsimlanadi.

Jamlanayotgan shu’ba xo‘jalik uyushmasidagi ozchilik ulushiga tegishli zararlar mutlaq ifodasida shu’ba xo‘jalik uyushmasining kapitalidagi ozchilik ulushidan oshishi mumkin. Ozchilikka tegishli oshish hamda har qanday keyingi zararlar summasi ozchilikning mazkur zararlarni qoplash maqsadida qo‘shimcha investorlarni kiritish majburiyati va imkoniyatiga egaligi doirasidan mustasno holda ko‘pchilikning ulushiga taqsimlanadi. Agar shu’ba xo‘jalik uyushmasi natijasida foydani aks ettirayotgan bo‘lsa, oldinroq ularga tegishli bo‘lgan ozchilik zararlarining ulushi qoplanmas ekan, bunday foyda ko‘pchilik ulushiga taqsimlanadi.

Agar shu’ba xo‘jalik uyushmasi muomalada ozchilik ulushiga tegishli hamda kapital sifatida tasniflangan kumulyativ imtiyozli aksiyalarga ega bo‘lsa, u holda bosh bank dividendlarning e‘lon qilinganligi yoki e‘lon qilinmaganligidan qat’iy nazar, bunday aksiyalar bo‘yicha

dividendlar summasiga tuzatishlar kiritilganidan so'ng o'zining foyda va zararlardagi ulushini hisoblaydi.

Quyidagi yoritishlar jamlanma moliyaviy hisobotda amalga oshirilishi lozim:

1) bosh bank bevosita yoki bilvosita o'zining shu'ba xo'jalik uyushmalari orqali ovoz berish huquqiga ega aksiyalarning yarmidan ko'piga egalik qilmagandagi bosh bank hamda shu'ba xo'jalik uyushmasi o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning xarakteri;

2) salohiyatli ovoz huquqidan iborat vositalar yoki ovoz huquqiga ega aksiyalarning yarmidan ko'piga bevosita yoki o'zining shu'ba xo'jalik uyushmasi orqali bilvosita egalik qilishi, nima uchun investitsiyalar obyektini ustidan nazorat qilishga olib kelmasligining sabablari;

3) jamlanma moliyaviy hisobotni tuzish uchun shu'ba xo'jalik uyushmasi moliyaviy hisobotidan fondalanilganda, mazkur moliyaviy hisobotning hisobot sanasi hamda ushbu moliyaviy hisobot bosh bankning hisobot sanasidan farq qiluvchi sana yoki davrda tuzilganligi va boshqa hisobot sanasi yoki davridan foydalanishning sabablari.

4) shu'ba xo'jalik uyushmalarining mablag'lari bosh bankka pul dividendlari ko'rinishida yoki kreditlar yoki bo'naklarni to'lash uchun o'tkazish imkoniyatiga nisbatan har qanday muhim cheklovlar (masalan, qarz kelishuvlari natijasida yuzaga keladigan yoki tartibga soluvchi talablar)ning xarakteri va miqdori.

Turli hisob tizimlarida u yoki bu umumlashtirish metodlarini qo'llash natijalarini belgilashga o'ziga xos yondashuvlar mavjuddir. Natijada, turli davlatlarda, hisob va hisobot ma'lumotlarini umumlashtirishning turli metodlari konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotni tuzish metodlari sifatida tan olinmoqda. Shu nuqtai nazardan, turli hisob tizimlarini qarab chiqishda moliyaviy hisobot nomlanishiga emas, balki olingan informatsiyaning sifat xarakteristikalariga e'tibor berish lozim.

### **Nazorat savollari va topshiriqlar**

1. MHXSlarida bank biznesini birlashtirish masalalari.

2. Bank biznesini birlashtirishda moliyaviy hisobotni tuzish.
3. Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobot va uning tarkibi.
4. Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotga qo'yiladigan talablar.
5. Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotni tuzish.

## TEST SAVOLLARI

**1. Buxgalteriya hisobi xalqaro standartlari Qo‘mitasiga (MHXSQ) qaysi davlatlar tomonidan asos solingan?**

a. Avstraliya, Kanda, Fransiya, Niderlandiya, Buyuk Britaniya, AQSh, Yaponiya.

b. Angliya, Yaponiya, Kanada, MDH, Misr.

d. AQSh, Gollandiya, Germaniya, Italiya, Ruminiya.

e. Fransiya, Ispaniya, Polsha, Rossiya, Xitoy, Yaponiya.

**2. Buxgalteriya hisobining halqaro standartlarini takomillashtirish bo‘yicha nechta halqaro miqyosdagi tashkilotlar shug‘ullanmoqda?**

a. 10 dan ortiq.

b. 15 dan ortiq.

d. 20 dan ortiq.

e. 25 dan ortiq.

**3. Moliyaviy hisobotlarni taqdim qilish (MHXS 1) auditorlarga ko‘rsatadigan yordami nimadan iborat?**

a. MHXSdan foydalanishda.

b. MHXS moliyaviy hisobotiga mos keladigan xulosalarni tayyorlashda.

d. MHXSni rivojlantirish va ularni qayta ko‘rib chiqishda hamda moliyaviy hisobotdagi ma‘lumotlarni tahlil qilishda.

e. Barcha javoblar to‘g‘ri.

**4. Moliyaviy hisobotlarni taqdim qilishning tarkibiga kiruvchi elementlarni aniqlang (MHXS 1)?**

a. Aktivlar, majburiyatlar va kapital.

b. Aktivlar, majburiyatlar, kapital, daromadlar va xarajatlar.

d. Aktivlar, majburiyatlar, daromadlar, xarajatlar, pul mablag‘lari.

e. Aktivlar, majburiyatlar, kapital, pul mablag‘lari, daromadlar va zararlar, kadrlar siyosati.

**5. Moliyaviy hisobotlarning halqaro standartlari Qo‘mitasi tomonidan birinchi marta qaysi MHXS ishlab chiqilgan?**

a. Hisob siyosatining yoritilishi.

b. Tovar-moddiy zaxiralar

d. Asosiy vositalar.

e. Nomoddiy aktivlar.

**6. MHXS Qo‘mitasi tomonidan belgilangan moliyaviy hisobotlarning tarkibini aniqlang?**

a. Buxgalteriya balansi, foyda va zararlar to‘g‘risidagi hisobot.

b. Buxgalteriya balansi, foyda va zararlar to‘g‘risidagi hisobot,



kapital o'zgarishi haqidagi hisobot, pul mablag'lar harakati to'g'risidagi hisobot va rahbariyat hisoboti.

d. Buxgalteriya balansi, foyda/zararlar to'g'risidagi hisobot, kapital o'zgarishi haqidagi hisobot, pul mablag'lar harakati to'g'risidagi hisobot va tushuntirish xatlari.

e. Buxgalteriya balansi, foyda va zararlar to'g'risidagi hisobot, kapital o'zgarishi haqidagi hisobot va rahbariyat hisoboti.

**7. Hozirda buxgalteriya hisobining halqaro standarti sifatida qaysi etalonlar tan olingan?**

- a. IFRS va USGAAP.
- b. IFRS va IAS.
- d. USGAAP va UKGAAP.
- e. UKGAAP va IFRS.

**8. Quyidagilardan qaysi biri aktivlar tarkibiga kiritilmaydi (MHXS)?**

- a. Binolar va nou-xau
- b. Debitorlik qarzlari va pul mablag'lari
- d. Ish haqi va bank kreditlari.
- e. Tayyor mahsulot va investitsiyalar.

**9. MHXS Qo'mitaning yangi nomi nima deb nomlanadi?**

- a. BHXS Fondi.
- b. BHXS Kengashi.
- d. BHXS Idorasi.
- e. BHXS Tashkiloti.

**10. Baholash nuqtai nazardan moliyaviy hisobotlarni tuzishga qo'yilgan asosiy talablar Yevropa ittifoqi (EI)ning qaysi ko'rsatmasida (direktiva) ifodalangan?**

- a. 2 Direktiva.
- b. 3 Direktiva.
- d. 4 Direktiva.
- e. 5 Direktiva.

**11. Banklarda buxgalteriya hisobini tashkil etish va yuritish bo'yicha yo'riqnoma raqamini aniqlang.**

- a. 1834-son.
- b. 1845-son.
- d. 1438-son.
- e. 2344-son.

**12. Bank amaliyoti kuni degandanda nimani tushinasiz?**

a. Bank ish kunining bir qismi bo'lib, bankka kelib tushgan barcha pul hisob-kitob hujjatlarini qabul qilish, rasmiylashtirish va buxgalteriya hisobi hisobvaraqlarida aks ettirish uchun ajratilgan vaqt.

b. Pul hisob-kitob hujjatlarini rasmiylashtirish, bank operatsiyalarini ichki nazoratdan o'tkazish hamda ularni hisob

registrlarida qayd etish bilan shug'ullanuvchi xodimlar guruhi.

d. Qonun hujjatlari bilan belgilangan kun ichida o'rnatilgan ish vaqti.

e. Bank rahbariyati va barcha bank xodimlari tomonidan kunlik bank operatsiyalarini amalga oshirish jarayonida ularning qonunchilikka mosligi, samaradorligi, yuqori malakada bajarilishi va moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini ta'minlash tizimi.

### **13. Bank buxgalteriya apparati deganda nimani tushinasiz?**

a. Bank ish kunining bir qismi bo'lib, bankka kelib tushgan barcha pul hisob-kitob hujjatlarini qabul qilish, rasmiylashtirish va buxgalteriya hisobi hisobvaraqlarida aks ettirish uchun ajratilgan vaqt.

b. Pul hisob-kitob hujjatlarini rasmiylashtirish, bank operatsiyalarini ichki nazoratdan o'tkazish hamda ularni hisob registrlarida qayd etish bilan shug'ullanuvchi xodimlar guruhi.

d. Qonun hujjatlari bilan belgilangan kun ichida o'rnatilgan ish vaqti.

e. Bank rahbariyati va barcha bank xodimlari tomonidan kunlik bank operatsiyalarini amalga oshirish jarayonida ularning qonunchilikka mosligi, samaradorligi, yuqori malakada bajarilishi va moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini ta'minlash tizimi.

### **14. Bank operatsiyalari ichki nazorati deganda nimani tushinsiz?**

a. Bank ish kunining bir qismi bo'lib, bankka kelib tushgan barcha pul hisob-kitob hujjatlarini qabul qilish, rasmiylashtirish va buxgalteriya hisobi hisobvaraqlarida aks ettirish uchun ajratilgan vaqt.

b. Pul hisob-kitob hujjatlarini rasmiylashtirish, bank operatsiyalarini ichki nazoratdan o'tkazish hamda ularni hisob registrlarida qayd etish bilan shug'ullanuvchi xodimlar guruhi.

d. Qonun hujjatlari bilan belgilangan kun ichida o'rnatilgan ish vaqti.

e. Bank rahbariyati va barcha bank xodimlari tomonidan kunlik bank operatsiyalarini amalga oshirish jarayonida ularning qonunchilikka mosligi, samaradorligi, yuqori malakada bajarilishi ta'minlash tizimi.

### **15. Bank operatsiyalari ichki nazorati deganda nimani tushunasiz?**

a. Bank ish kunining bir qismi bo'lib, bankka kelib tushgan barcha pul hisob-kitob hujjatlarini qabul qilish, rasmiylashtirish va buxgalteriya hisobi hisobvaraqlarida aks ettirish uchun ajratilgan vaqt.

b. Pul hisob-kitob hujjatlarini rasmiylashtirish, bank operatsiyalarini ichki nazoratdan o'tkazish hamda ularni hisob

registrlarida qayd etish bilan shug'ullanuvchi xodimlar guruhi.

d. Qonun hujjatlari bilan belgilangan kun ichida o'rnatilgan ish vaqti.

e. Bank rahbariyati va barcha bank xodimlari tomonidan kunlik bank operatsiyalarini amalga oshirish jarayonida ularning qonunchilikka mosligi, samaradorligi, yuqori malakada bajarilishi va moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini ta'minlash tizimi.

### **16. Dastlabki nazorat deganda nimani tushunasiz?**

a. Front-ofis yoki mas'ul ijrochi buxgalter tomonidan operatsiyalarni bajarmasdan oldin ularning qonunchilikka mos ekanligini aniqlash bo'yicha amalga oshiriladigan nazorat.

b. Bosh kitob hisobvaraqlariga ochiladigan shaxsiy hisobvaraqlar, shuningdek alohida mablag'lar turi va qimmatliklar bo'yicha yuritiladigan kartochka, kitob yoki jurnallar.

d. Bek-ofis yoki nazoratchi buxgalter tomonidan Front-ofis yoki mas'ul ijrochi buxgalter ma'qullagan barcha bank operatsiyalarining qonunchilikka mosligini aniqlash maqsadida qaytadan amalga oshiriladigan nazorat.

e. Mijozlarning pul hisob-kitob hujjatlarini to'g'ri rasmiylashtirilganligi va bank operatsiyalarining qonuniyligini dastlabki nazoratdan o'tkazib, ularni buxgalteriya hisobida aks ettirishga tayyorlovchi buxgalter.

### **17. Banklarda yordamchi kitob deganda nimani tushunasiz?**

a. Front-ofis yoki mas'ul ijrochi buxgalter tomonidan operatsiyalarni bajarmasdan oldin ularning qonunchilikka mos ekanligini aniqlash bo'yicha amalga oshiriladigan nazorat.

b. Bosh kitob hisobvaraqlariga ochiladigan shaxsiy hisobvaraqlar, shuningdek alohida mablag'lar turi va qimmatliklar bo'yicha yuritiladigan kartochka, kitob yoki jurnallar.

d. Bek-ofis yoki nazoratchi buxgalter tomonidan Front-ofis yoki mas'ul ijrochi buxgalter ma'qullagan barcha bank operatsiyalarining qonunchilikka mosligini aniqlash maqsadida qaytadan amalga oshiriladigan nazorat.

e. Mijozlarning pul hisob-kitob hujjatlarini to'g'ri rasmiylashtirilganligi va bank operatsiyalarining qonuniyligini dastlabki nazoratdan o'tkazib, ularni buxgalteriya hisobida aks ettirishga tayyorlovchi buxgalter.

### **18. Joriy nazorat nima?**

a. Front-ofis yoki mas'ul ijrochi buxgalter tomonidan operatsiyalarni bajarmasdan oldin ularning qonunchilikka mos ekanligini aniqlash bo'yicha amalga oshiriladigan nazorat.

b. Bosh kitob hisobvaraqlariga ochiladigan shaxsiy hisobvaraqlar, shuningdek alohida mablag'lar turi va qimmatliklar

bo'yicha yuritiladigan kartochka, kitob yoki jurnallar.

d. Bek-ofis yoki nazoratchi buxgalter tomonidan Front-ofis yoki mas'ul ijrochi buxgalter ma'qullagan barcha bank operatsiyalarining qonunchilikka mosligini aniqlash maqsadida qaytadan amalga oshiriladigan nazorat.

e. Mijozlarning pul hisob-kitob hujjatlarini to'g'ri rasmiylashtirilganligi va bank operatsiyalarining qonuniyligini dastlabki nazoratdan o'tkazib, ularni buxgalteriya hisobida aks ettirishga tayyorlovchi buxgalter.

### **19. Banklarda mas'ul ijrochi buxgalter bu.....**

a. Front-ofis yoki mas'ul ijrochi buxgalter tomonidan operatsiyalarni bajarmasdan oldin ularning qonunchilikka mos ekanligini aniqlash bo'yicha amalga oshiriladigan nazorat.

b. Bosh kitob hisobvaraqlariga ochiladigan shaxsiy hisobvaraqlar, shuningdek alohida mablag'lar turi va qimmatliklar bo'yicha yuritiladigan kartochka, kitob yoki jurnallar.

d. Bek-ofis yoki nazoratchi buxgalter tomonidan Front-ofis yoki mas'ul ijrochi buxgalter ma'qullagan barcha bank operatsiyalarining qonunchilikka mosligini aniqlash maqsadida qaytadan amalga oshiriladigan nazorat. Joriy nazorat pul hisob-kitob hujjatlarining asl va elektron nusxalarining bir-biriga mosligini tekshirishni ham o'z ichiga oladi.

e. mijozlarning pul hisob-kitob hujjatlarini to'g'ri rasmiylashtirilganligi va bank operatsiyalarining qonuniyligini dastlabki nazoratdan o'tkazib, ularni buxgalteriya hisobida aks ettirishga tayyorlovchi buxgalter.

### **20. Banklarda yakuniy nazorat deganda nimani tushinasiz?**

a. Bank filiali binosidan tashqarida, lekin o'zi joylashgan viloyat-shahar hududida joylashgan va O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining tegishli normativ-huquqiy hujjatlariga muvofiq faoliyat yurituvchi bank filialining tarkibiy tuzilmasi.

b. Mas'ul ijrochi buxgalter tomonidan dastlabki nazoratdan o'tkazilgan barcha bank operatsiyalarini joriy nazoratdan o'tkazib amalga oshiruvchi buxgalter.

d. bankning tarkibiy qismi bo'lib, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan bank operatsiyalarini amalga oshirishda bank mijozlari bilan bevosita muloqotda bo'lgan holda ularga barcha bank xizmatlari ko'rsatuvchi xodimlar guruhi. Ushbu guruhga Front-ofis boshlig'i rahbarlik qiladi.

e. amaliyot kun tugagandan so'ng, keyingi bank ish kunidan kechikmagan holda Front-ofis yoki mas'ul ijrochi buxgalter va Bek-ofis yoki nazoratchi buxgalter tomonidan bajarilgan barcha bank operatsiyalarining qonunchilikka mosligi va maqsadga muvofiqligini tasdiqlash maqsadida amalga oshiriladigan nazorat.

**21. Muddati o'tgan faktoring summasi qanday hisobga olinadi?**

- a. D-t 11103 K-t 11101
- b. D-t 11105 K-t 11101
- d. D-t 11103 K-t 11105
- e. D-t 11101 K-t 11103

**22. Davlat korxonasiga berilgan uzoq muddatli kreditning muddati o'tganda qanday buxgalteriya provodkasi keltiriladi?**

- a. D-t 12705 K-t 15101
- b. D-t 12709 K-t 15101
- d. D-t 15105 K-t 15101
- e. D-t 15199 K-t 15101

**23. Xususiy korxonalariga berilgan kredit muddati o'zgarganda qanday buxgalteriya provodkalari keltiriladi?**

- a. D-t 13101 K-t 13105
- b. D-t 13109 K-t 13101
- d. D-t 13105 K-t 13109
- e. D-t 13109 K-t 13105

**24. Hamkorbank "Koinot" xususiy firmasiga 1200000 so'm miqdorida bir yil muddatga kredit berdi. Foiz stavkasi yillik 20 foiz. Shartnomaga asosan foiz summasi har oyda to'lanadi. Kredit bo'yicha oylik foiz summasi qancha bo'ladi?**

- a. 240000 so'm.
- b. 120000 so'm.
- d. 40000 so'm.
- e. 20000 so'm.

**25. Muddati o'tgan faktoring summasi qanday hisobga olinadi?**

- a. D-t 11103 K-t 11101
- b. D-t 11105 K-t 11101
- d. D-t 11103 K-t 11105
- e. D-t 11101 K-t 11103

**26. Kredit liniyasi – bu...**

- a. berilayotgan kredit summasi.
- b. kredit shartnomasida kelishilgan foiz va qarzdorlik summasi.
- d. kredit shartnomasida nazarda tutilgan qarzdorlik summasi doirasida qarzlar.
- e. turkumini berish; bir marta berilayotgan qarz summasi.

**27. Lizing bo'yicha foizli daromad hisoblanganda qanday buxgalteriya provodkasi keltiriladi?**

- a. D-t 16309 K-t 45100
- b. D-t 16323 K-t 45100
- d. D-t 16323 K-t 45000

e. D-t 16309 K-t 45200

**28. Muddati o'tgan faktoring summasi qanday hisobga olinadi?**

a. D-t 11103 K-t 11101

b. D-t 11105 K-t 11101

d. D-t 11103 K-t 11105

e. D-t 11101 K-t 11103

**29. Bank kreditlari maqomi bo'yicha qanday tasniflanadi?**

a. Qisqa muddatli va uzoq muddatli kreditlar.

b. Bank krediti, davlat krediti, iste'mol krediti, tijorat krediti, halqaro kredit.

d. Berilgan kreditlar, shartlari qayta ko'rib chiqilgan kreditlar, muddati o'tgan kreditlar.

e. Shartlari qayta ko'rib chiqilgan kreditlar, muddati o'tgan kreditlar.

**30. Lizing beruvchi bank lizing obyektini uchun to'lovlarni sotuvchiga oldindan to'lab berib lizing obyektini to'g'ridan-to'g'ri lizing oluvchiga yetkazib berilsa?**

a. D-t 19909 K-t 20200

b. D-t 16500 K-t 19909

d. D-t 15600 K-t 16500

e. D-t 16500 K-t 19909

**31. Hisob yuritish siyosati deganda nima tushuniladi (MHXS-1)?**

a. Bankning buxgalteriya hisobida qo'llaniladigan usullar majmui.

b. Bank rahbarining moliyaviy hisobotni tamoyil va asoslariga mos ravishda yuritish usullar majmui.

d. Bank rahbarining buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotni tamoyil va asoslariga mos ravishda yuritish va tuzish uchun qo'llaniladigan usullar majmui.

e. Bank rahbarining buxgalteriya hisobini tamoyil majmui.

**32. Hisob siyosatida yoritilishi lozim bo'lgan moliyaviy hisobotlarni tuzishga qo'yilgan asosiy talablar Yevropa ittifoqi (YeI)ning qaysi ko'rsatmasida (direktiva) ifodalangan?**

a. 2 Direktiva

b. 3 Direktiva

d. 4 Direktiva

e. 5 Direktiva

**33. Hisob siyosati va undagi xatoliklar deb nomlangan standartning tartib raqamini toping?**

a. MHXS-8

b. MHXS-12

d. MHXS-16

e. MHXS-18

**34. Hisob siyosatida yillik moliyaviy hisobotlar ommaviy axborot vositalarida chop etilganidan so'ng ....davomida O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankiga chop etilgan hisobot nusxasi taqdim etiladi.**

- a. 2 kun.
- b. 3 kun.
- d. 4 kun
- e. 1 kun

**35. Hisob siyosatiga muvofiq (32-son MHXS) baholashning qaysi usulda birinchi kirim qilingan xomashyo, materiallar va tovarlar birinchi xarajatlarga chiqariladi?**

- a. FIFO usulida.
- b. LIFO usulida.
- d. AVECO usulida.
- e. NIFO usulida.

**36. Hisob siyosatida yalpi daromadlar haqidagi hisobotni qaysi shaklga tegishli deb ko'rsatiladi?**

- a. Balans.
- b. Moliyaviy natijalar.
- d. Pul oqimlari.
- e. Xususiy kapital.

**37. Hisob siyosatining uslubiy bo'limida nimalar aks ettiriladi?**

- a. Amortizatsiya hisoblash usullari va TMZ baholash shakllari.
- b. Dastlabki hujjatlarni rasmiylashtirish tartiblari.
- d. Moliyaviy hisobotlarni to'ldirish tartibi.
- e. Schyotlar va buxgalteriya hisobi shakllari.

**38. Hisob siyosatining uslubiy bo'limida bank 3000000 so'm bo'lgan uskunar sotib olindi. Foydalanish muddati 5 yil. Tugatish qiymati-300000 so'm. Agar MHXS 16 asosan amortizatsiyaning bir tekis hisobdan chiqarish usuli qo'llanilgan bo'lsa, amortizatsiya xarajatlarini aniqlang?**

- a. 300000
- b. 600000
- d. 540000
- e. 330000

**39. Hisob siyosatiniij jihatidan asosiy vositalarning o'rnini qoplash qiymati deb nimaga aytiladi?**

- a. Aktivni xarid qilishda haqiqatda to'langan pul mablag'lari yoki uni barpo etishda amalga oshirilgan haqiqiy xarajatlardir.
- b. Chiqib ketishga doir kutilayotgan xarajatlarni chiqarib tashlagan holda aktivning foydali xizmati natijasida uni tugatish

paytida paydo bo'ladigan aktivlarning taxmin qilinayotgan qiymatidir.

d. Asosiy vositalarni bitim paytida manfaatdor taraflar o'rtasida ayirboshlash mumkin bo'lgan summadir.

e. Korxonada aktivdan keyinchalik foydalanish hisobiga qoplashni mo'ljallayotgan summa, shu jumladan tugatilish qiymati.

**40. Hisob siyosatida bank sotib olingan tovar-moddiy zaxiralarni balansda qanday aks ettiriladi (MHXS-2,8)?**

a. Bozor narxida.

b. Haqiqiy tannarx yoki sotishning sof qiymatida.

d. Reja bahosi va tannarxida.

e. Shartnoma yoki reja bahosida.

**41. Moliyaviy aktivlarga nimalar kiritiladi?**

a. Pul mablag'lari, moliyaviy instrumentlar, shartnomalar.

b. Investitsiyalar va pul mablag'lari.

d. Pul mablag'lari va shartnomalar.

e. Shartnomalar va moliyaviy instrumentlar.

**42. Moliyaviy aktivlar dastlab qaysi bahoda hisobga olinadi?**

a. Bozor.

b. Sotib olish.

d. Qayta baholash.

e. Joriy.

**43. MHMSga asosan moliyaviy aktiv bo'yicha investor ahamiyatli ta'siriga ega bo'lgan ulushni aniqlang?**

a. 20%gacha ulush.

b. 20-50%gacha ulush.

d. 50% yuqori ulush.

e. 60-80% gacha ulush.

**44. Moliyaviy qo'yilmalar (investitsiyalar)ni baholash buxgalteriya hisobi standartlariga muvofiq amalga oshirilishi qonunning qaysi moddasida ko'rsatib berilgan?**

a. 10

b. 11

d. 12

e. 13

**45. Moliyaviy instrumentlar tarkibini aniqlang (MHXS-32).**

a. Dividend, foiz, foyda va zarar.

b. Foizlar va foyda.

d. Dividendlar va zararlar .

e. Foyda va zararalar.

**46. Moliyaviy aktivlarga oid qimmatli qog'ozlar qanday taqdim etiladi?**

a. qarzdorlik va ulushli.



- b. qarzdorlik, ulushli va savdo sotiq.
- d. savdo-sotiq va ulushli.
- e. qarzdorlik va savdo-sotiqqa oid.

**47. Bank moliyaviy aktivlar bo'yicha olingan foizlarni aks ettirish uchun jurnal provodkasi pul mablag'lari hisob-kitob schyoti debeti va quyidagi schyotning kreditini o'z ichiga olishi kerak.**

- a. Majburiyatlar.
- b. Debitor qarzdorlik.
- d. Kreditorlik qarzdorlik.
- e. Moliyaviy aktivlar.

**48. Moliyaviy majburiyatlarni aniqlang (MHXS-32).**

- a. Savdo bo'yicha debitorlik va kreditorlik qarzlari.
- b. Olinishi va to'lanishi lozim bo'lgan veksellar.
- c. Olinishi va to'lanishi lozim bo'lgan kredit va qarzlari.
- d. Hammasi to'g'ri.

**49. "Sarflangan (qimmatli qog'ozlarga) mablag'larni qayta baholashdan ko'rilgan zararlar". Bu "Xarajatlar tarkibi to'g'risidagi Nizom" (Moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar)ning qaysi bandida ifodalangan?**

- a. 2.3-bandida
- b. 3.2-bandida
- d. 1.3-bandida
- e. 3.6-bandida

**50. Sotib olingan moliyaviy aktivlarning nominal qiymati bilan xarid qiymati o'rtasidagi farq (moliyaviy daromad) "Xarajatlar tarkibi to'g'risidagi" Nizomning qaysi bandida o'z ifodasini topgan?**

- a. 2.3-bandida.
- b. 3.2-bandida.
- d. 1.3-bandida.
- e. 3.6-bandida.

**51. Banklarda moddiy aktivlar hisobi qaysi MHXS bilan tartibga solinadi?**

- a. MHXS-16
- b. MHXS-38
- d. MHXS-2
- e. Barcha javoblar to'g'ri.

**52. Moddiy aktivlar va nomoddiy aktivlarni hisobga oluvchi standartlarni qanday standartlar guruhiga kiritiladi?**

- a. Tarmoq standartlari.
- b. Bank standartlari.
- d. Kirish standartlari.
- e. Xususiy standartlar.

**53. Asosiy vositalar qayta baholanganda uning ortgan qiymati nima deb nomlanadi?**

- a. Daromadlar.
- b. Xarajatlar.
- d. Foyda.
- e. Rezervlar.

**54. Asosiy vositalar qayta baholash tartibi bo'yicha nechta guruhlarga ajratiladi?**

- a. 2 guruhga.
- b. 4 guruhga.
- d. 6 guruhga.
- e. 8 guruhga.

**55. Asosiy vositlar balansga qanday kirim qilinadi?**

- a. Sotib olish, qayta baholash va tekinga olish.
- b. O'zida yaratish yo'li bilan.
- d. Inventarizatsiyadan ortiqcha chiqilishi bilan
- e. Boshqa aktivlarga almashtirish bilan.

**56. Asosiy vositalar qaysi bahoda balansga olinadi?**

- a. Boshlang'ich qiymatda.
- b. Joriy qiymatda.
- d. Tugatilish qiymatida.
- e. Qoldiq qiymatida.

**57. Bank asosiy vositlarining quvvatini va bajariladigan operatsiyalar tezligini oshirish uchun va ulardan foydalanish bo'yicha quyidagi xarajatlarni amalga oshirdi:**

- a. Joriy tamirlash 100 000.
- b. Texnik qarov 200 000.
- d. Kapital ta'mirlash 200 000.
- e. Rekonstruksiya 500 000.

**58. Qaysi summaga "Asosiy vositalar" schyoti debetlanadi?**

- a. 100 000
- b. 300 000
- d. 320 000
- e. 500 000

**59. Asosiy vositalarni kirmga olishda balansning qaysi bo'limiga yozuvlar qilinadi?**

- a. Aktivlar.
- b. Xususiy kapital.
- d. Daromadlar.
- e. Majburiyatlar.

**60. Asosiy vositlarni kirmga olishda qaysi buxgalteriya registridan foydalaniladi?**

- a. Schyot fakturalar
- b. Dalolatnomalar.

- d. Qaydnomalar.
- e. Kirim orderlar.

**61. Bank 10500000 so'mga avtomobil sotib oldi. Avtomobilni olib kelish-500000 so'm. Rasmiylashtirish - 50000 so'm. Ekspeditorning xizmati- 100000 so'm. Bankdan 1000000 so'm uzoq muddatli kredit olgan. Kredit yillik 10 % stavkasida belgilangan. Ishchi holat xarajatlari 400000 so'm. Avtomobil schyoti qaysi summaga debetlanadi?**

- a. 11.150.000
- b. 11.500.000
- d. 11.000.000
- e. 11.550.000

**62. Asosiy vositalar bank tomonidan yaratilgan va uni yaratish chiqimlarini aniq belgilash mumkin bo'lgan hollarda bu obyektlar qaysi bahoda aks ettiriladi?**

- a. Haqiqiy tannarx bo'yicha.
- b. Tarixiy qiymat bo'yicha.
- d. Bozor qiymati bo'yicha.
- e. Egri tannarx bo'yicha.

**62. Nomoddiy aktivlarni hisobga oluvchi MHXSning tartib raqamini toping.**

- a. MHXS-5
- b. MHXS-38
- d. MHXS-16
- e. MHXS-27

**63. Tijorat banklarida nomoddiy aktivlar balansning qaysi moddasida ifodalanadi?**

- a. Majburiyatlar moddasida.
- b. O'z sarmoyasi moddasida.
- d. Aktivlar bo'limida .
- e. Daromadlar bo'limida.

**64. Nomoddiy aktivlar qaysi qiymatda balansga qabul qilinadi?**

- a. Boshlang'ich qiymatida.
- b. Yakuniy qiymatida.
- d. Joriy qiymatida.
- e. Qayta baholash qiymatida.

**65. Nomoddiy aktivlar qaysi bahoda hisobga olinadi?**

- a. Boshlang'ich.
- b. Eskirish.
- d. Qoldiq.
- e. Tugatish.

**66. Nomoddiy aktivlarga amortizatsiya hisoblashning necha xil usuli mavjud?**

- a. 2 xil
- b. 4 xil
- d. 5 xil
- e. 7 xil

**67. Tijorat banki qiymati 3 000 000 so‘m bo‘lgan nomoddiy aktivlarni sotib oldi. Foydalanish muddati 5 yil. Tugatish qiymati-300 000 so‘m. Agar amortizatsiyaning bir tekis hisobdan chiqarish usuli qo‘llanilgan bo‘lsa, amortizatsiya xarajatlarini aniqlang?**

- a. 300000
- b. 600000
- d. 540000
- e. 330000

**68. Nomoddiy aktivlarni balansdan chiqarishda qaysi modda moliyaviy natijalarni aniqlab beradi?**

- a. Aktivlar.
- b. Daromadlar
- d. Xarajatlar.
- e. Foyda.

**69. Nomoddiy aktivlarni tezroq hisobdan chiqarish uchun qaysi amortizatsiya usulini tanlash mumkin?**

- a. To‘g‘ri chiziqli usul.
- b. Ishlab chiqarish usuli.
- d. Qoldiqni kamayishi usuli.
- e. Sonlar usuli.

**70. Nomoddiy aktivlarga amortizatsiya hisoblashda to‘g‘ri chiziqli usulining mohiyati nimadan iborat?**

a. Nomoddiy aktivni foydali ishlatishning butun davri mobaynida eskirishning doimiy summalarini hisoblab yozishdan iborat.

b. Muntazam hisoblab yozilayotgan summalar foydali ishlatish muddati davomida kamayadi.

d. Amortizatsiya miqdori faqat nomoddiy aktiv qancha marta ishlatilishiga yoki qancha mahsulot birligi ishlab chiqarilishi kutilayotganiga bog‘liq bo‘ladi.

e. Amortizatsiya summasi hisoblash koeffitsientining maxraji bo‘lgan obyektning xizmat muddati yig‘indisi bilan aniqlanadi.

**71. Nomoddiy aktivlar tarkibida eng tushunarsiz moddasi nimadan iborat?**

- a. Patentlar.
- b. Gudvill.
- d. Tovar belgisi.

e. Nou-xau.

**72. Banklarda tovar-moddiy zaxiralar hisobi halqaro standartlarda.....yuritiladi.**

- a. MHXS 2
- b. MHXS 4
- c. MHXS 7
- d. MHXS 10

**73. Zaxiralar hisobini to'g'ri tashkil qilish uchun... ishlab chiqiladi.**

- a. qaydnoma tuziladi
- b. narx-nomenklatura
- d. dalolatnoma
- e. yuk-xati

**74. Zaxiralarni baholashda ..... usullardan foydalaniladi.**

- a. shartnoma, ulgurji va bozor bahosi
- b. bozor va nomenklatura hisob bahosi
- d. bozor, nomenklatura, haqiqiy tannarx, ulgurji va reja bahosi.
- e. reja va bozor bahosi

**74. Qaysi BXMS va MHXSda qoidalari asosida zaxiralar hisobi yuritiladi?**

- a. 2-BXMS va 4-MXXS.
- b. 3-BXMS va 5-MXXS.
- d. 4-BXMS va 2-MXXS.
- e. 5-BXMS va 3-MXXS.

**75. MHXSGa asosan zaxiralar inflyatsiya sharoitida qanday baholanadi?**

- a. Aveko va fifo.
- b. Aveko va lifo.
- d. Aveko va nifo.
- e. barchasi to'g'ri.

**76. Baholashning qaysi usulida birinchi xarid qilingan materiallar birinchi xarajatga chiqariladi?**

- a. Aveko.
- b. Lifo.
- d. Nifo.
- e. Fifo.

**77. Narxlar stabillashganda baholashning eng maqbul usulini tanlang.**

- a. Fifo.
- b. Lifo.
- d. Nifo.
- e. Aveko.

**78. Materiallar hisobining asosiy vazifalarini nimalardan iborat?**

- a. Ularni saqlash va nazorat qilish.
- b. Muomalalarni o'z vaqtida hujjatlashtirish.
- d. Ortiqcha materiallarni aniqlash va sotish.
- e. Barchasi to'g'ri

**79. Omborda materiallarni saqlash joyiga qaysi hujjat osib qo'yiladi?**

- a. Qaydnoma.
- b. Yuk xati.
- d. yorliq.
- e. Schyot-faktura.

**80. Materiallardan foydalanish usuli va ishlab chiqarish jarayonida tayinlashiga qarab ular ... tavsiflanadi.**

a. xomashyo, asosiy materiallar, yarim tayyor mahsulotlar, yordamchi materiallar, chiqindilar, idishlar, ehtiyot qismlar, xo'jalik inventarlari va h.k.

b. asosiy materiallar, yarim tayyor mahsulotlar, yordamchi materiallar, chiqindilar, idishlar, ehtiyot qismlar, xo'jalik inventarlari va h.k.

d. yordamchi materiallar, chiqindilar, idishlar, ehtiyot qismlar, xo'jalik inventarlari va h.k.

e. xomashyo, asosiy materiallar, yordamchi materiallar, chiqindilar, idishlar, ehtiyot qismlar, xo'jalik inventarlari

**81. Standartning maqsadi ijarachilar va ijaraga beruvchilar uchun ijaraga nisbatan qo'llanilishi kerak bo'lgan tegishli ..... belgilashdan iboratdir.**

- a. hisob siyosatlarini
- b. moliyaviy hisobotlarni
- d. hisobvaraqlarni
- e. buxgalteriya hujjatlarini

**82. Ijara-bu.....**

a. ijaraga beruvchi ijarachiga bir yoki bir necha to'lovlar evaziga kelishilgan muddat davomida aktivdan foydalanish huquqini berishini ko'zda tutadigan kelishuvdir.

b. aktivga egalik qilish bilan bog'liq deyarli barcha risklar va mukofotlarni kelishuvning bir tomonidan boshqa tomoniga o'tkazuvchi ijara. Egalik huquqi pirovardida o'tkazilishi yoki o'tkazilmasligi mumkin.

d. moliyaviy ijaradan tashqari boshqa hamma ijara kelishuvlari.

e. ehtimoli kam shartli hodisaning ro'y berishi natijasidagi ijara.

### **83. Moliyaviy ijara-bu.....**

a. ijaraga beruvchi ijarachiga bir yoki bir necha to'lovlar evaziga kelishilgan muddat davomida aktivdan foydalanish huquqini berishini ko'zda tutadigan kelishuvdir.

b. aktivga egalik qilish bilan bog'liq deyarli barcha risklar va mukofotlarni kelishuvning bir tomonidan boshqa tomoniga o'tkazuvchi ijara. Egalik huquqi pirovardida o'tkazilishi yoki o'tkazilmasligi mumkin.

d. moliyaviy ijaradan tashqari boshqa hamma ijara kelishuvlari.

e. ehtimoli kam shartli hodisaning ro'y berishi natijasidagi ijara

### **84. Operativ ijara-bu.....**

a. ijaraga beruvchi ijarachiga bir yoki bir necha to'lovlar evaziga kelishilgan muddat davomida aktivdan foydalanish huquqini berishini ko'zda tutadigan kelishuvdir.

b. aktivga egalik qilish bilan bog'liq deyarli barcha risklar va mukofotlarni kelishuvning bir tomonidan boshqa tomoniga o'tkazuvchi ijara. Egalik huquqi pirovardida o'tkazilishi yoki o'tkazilmasligi mumkin.

d. moliyaviy ijaradan tashqari boshqa hamma ijara kelishuvlari.

e. ehtimoli kam shartli hodisaning ro'y berishi natijasidagi ijara.

### **85. Bekor qilinmaydigan ijara-bu.....**

a. ijaraga beruvchi ijarachiga bir yoki bir necha to'lovlar evaziga kelishilgan muddat davomida aktivdan foydalanish huquqini berishini ko'zda tutadigan kelishuvdir.

b. Aktivga egalik qilish bilan bog'liq deyarli barcha risklar va mukofotlarni kelishuvning bir tomonidan boshqa tomoniga o'tkazuvchi ijara. Egalik huquqi pirovardida o'tkazilishi yoki o'tkazilmasligi mumkin.

d. moliyaviy ijaradan tashqari boshqa hamma ijara kelishuvlari.

e. ehtimoli kam shartli hodisaning ro'y berishi natijasidagi ijara.

### **86. Ijara muddatining boshlanishi.....**

a. ijarachi ijaraga olingan aktivdan foydalanish huquqini amalga oshirishni boshlashi mumkin bo'lgan sana. Bu ijarani dastlabki tan olish sanasi.

b. ijarachi aktivni ijaraga olishga kelishgan, muddatidan oldin bekor qilinmaydigan davr bilan ijarachi aktivning ijarasini qo'shimcha to'lovni amalga oshirib yoki oshirmasdan davom qilish huquqiga ega bo'lgan va ijaraning boshlanishida ijarachi ushbu

huquqdan foydalanishi yetarli darajada aniq bo'lgan har qanday qo'shimcha muddat.

d. ijara muddati davomida ijarachi tomonidan to'lanadigan yoki to'lanishi talab etilishi mumkin bo'lgan to'lovlar bilan quyidagi summalar.

e. bu yaxshi xabardor bo'lgan va bunday operatsiyani amalga oshirishni xohlovchi mustaqil tomonlar o'rtasida umumiy shartlar asosida bitimni amalga oshirishdagi aktivni almashtirish yoki majburiyatni to'lash mumkin bo'lgan summa.

### **87. Ijara muddati.....**

a. ijarachi ijaraga olingan aktivdan foydalanish huquqini amalga oshirishni boshlashi mumkin bo'lgan sana. Bu ijarani dastlabki tan olish (ya'ni mos ravishda ijara natijasida paydo bo'ladigan tegishli aktivlar, majburiyatlar, daromad yoki xarajatlarni tan olish) sanasi.

b. ijarachi aktivni ijaraga olishga kelishgan, muddatidan oldin bekor qilinmaydigan davr bilan ijarachi aktivning ijarasini qo'shimcha to'lovni amalga oshirib yoki oshirmasdan davom qilish huquqiga ega bo'lgan va ijaraning boshlanishida ijarachi ushbu huquqdan foydalanishi yetarli darajada aniq bo'lgan har qanday qo'shimcha muddat.

d. ijara muddati davomida ijarachi tomonidan to'lanadigan yoki to'lanishi talab etilishi mumkin bo'lgan to'lovlar bilan quyidagi summalar.

e. bu yaxshi xabardor bo'lgan va bunday operatsiyani amalga oshirishni xohlovchi mustaqil tomonlar o'rtasida umumiy shartlar asosida bitimni amalga oshirishdagi aktivni almashtirish yoki majburiyatni to'lash mumkin bo'lgan summa.

### **88. Minimal ijara to'lovlari.....**

a. ijarachi ijaraga olingan aktivdan foydalanish huquqini amalga oshirishni boshlashi mumkin bo'lgan sana. Bu ijarani dastlabki tan olish (ya'ni mos ravishda ijara natijasida paydo bo'ladigan tegishli aktivlar, majburiyatlar, daromad yoki xarajatlarni tan olish) sanasi.

b. ijarachi aktivni ijaraga olishga kelishgan, muddatidan oldin bekor qilinmaydigan davr bilan ijarachi aktivning ijarasini qo'shimcha to'lovni amalga oshirib yoki oshirmasdan davom qilish huquqiga ega bo'lgan va ijaraning boshlanishida ijarachi ushbu huquqdan foydalanishi yetarli darajada aniq bo'lgan har qanday qo'shimcha muddat.

d. ijara muddati davomida ijarachi tomonidan to'lanadigan yoki to'lanishi talab etilishi mumkin bo'lgan to'lovlar bilan quyidagi summalar.

e. bu yaxshi xabardor bo'lgan va bunday operatsiyani amalga



o'shishni xohlovchi mustaqil tomonlar o'rtasida umumiy shartlar asosida bitimni amalga oshirishdagi aktivni almashtirish yoki majburiyatni to'lash mumkin bo'lgan summa.

### **89. Haqqoniy qiymat.....**

a. ijarachi ijaraga olingan aktivdan foydalanish huquqini amalga oshirishni boshlashi mumkin bo'lgan sana. Bu ijarani dastlabki tan olish (ya'ni mos ravishda ijara natijasida paydo bo'ladigan tegishli aktivlar, majburiyatlar, daromad yoki xarajatlarni tan olish) sanasi.

b. ijarachi aktivni ijaraga olishga kelishgan, muddatidan oldin bekor qilinmaydigan davr bilan ijarachi aktivning ijarasini qo'shimcha to'lovni amalga oshirish davom qilish huquqiga ega bo'lgan va ijaraning boshlanishida ijarachi ushbu huquqdan foydalanishi yetarli darajada aniq bo'lgan har qanday qo'shimcha muddat.

d. ijara muddati davomida ijarachi tomonidan to'lanadigan yoki to'lanishi talab etilishi mumkin bo'lgan to'lovlar bilan quyidagi summalar.

e. bu yaxshi xabardor bo'lgan va bunday operatsiyani amalga oshirishni xohlovchi mustaqil tomonlar o'rtasida umumiy shartlar asosida bitimni amalga oshirishdagi aktivni almashtirish yoki majburiyatni to'lash mumkin bo'lgan summa.

### **90. Ijaraga olingan asosiy vositalarga qaysi usullar bilan amortizatsiya hisoblanadi?**

a. To'g'ri chiziqli, bajarilgan ishlar hajmiga mutanosib ravishda, tezashtirilgan amortizatsiya hisoblash usullari.

b. To'g'ri chiziqli amortizatsiya hisoblash usuli.

d. To'g'ri chiziqli, tezashtirilgan amortizatsiya hisoblash usullari.

e. Bajarilgan ishlar hajmiga mutanosib ravishda hisoblash usullari.

### **91. Banklarda daromadlar qanday turkumlanadi?**

a. Foizli, foizsiz va operatsion.

b. Operatsion va foizli.

d. Foizsiz va boshqa daromadlar

e. Boshqa daromadlar va foizli

### **92. Banklarda xarajatlar qanday guruhlanadi?**

a. Foizli, foizsiz va boshqa operatsion xarajatlar.

b. Foizli va foizsiz xarajatlar.

d. Operatsion va davr xarajatlari.

e. Foizli va o'zgaruvchan xarajatlar.

### **93. Banklarda daromadlar qaysi manbalar hisobiga shakllantiriladi?**

a. Kreditlar, valyuta, qimmatli qog'ozlar va boshqa operatsiyalardan.

- b. Valyuta va kreditlardan.
- d. Qimmatli qog'ozlar va kredit operatsiyalaridan.
- e. Valyuta va qimmatli qog'ozlardan.

**94. Daromadlar qaysi tartibli hisobvraqlarda aks ettiriladi?**

- a. 50000
- b. 40000
- d. 10000
- e. 20000

**95. Banklarda daromadlar olish muddati bo'yicha qanday guruhlanadi?**

- a. Qisqa, o'rta va uzoq muddatli.
- b. O'rta va va uzoq muddatli.
- d. Uzoq va qisqa muddatli.
- e. Qisqa va o'rta muddatli.

**96. Xarajatlar buxgalteriya hisobida qaysi tartibli bank hisobvraqlarida ko'rsatiladi?**

- a. 10000
- b. 20000
- d. 30000
- e. 50000

**97. Daromadlarni tan olishning kassa usuliga berilgan tushinchani aniqlang.**

- a. Mablag'lar kelib tushganda, xarajatlar to'lovlar amalga oshirilganda.
- b. Mablag'lar yo'ldagi pul mablag'lari ko'rinishida bo'lganda.
- d. Mablag'lar keyingi davrlarda tushishiga qarab.
- e. To'lovlarning olish imkoniyati yuzaga kelganda.

**98. Banklarda moliyaviy natijalar deganda nima tushiniladi?**

- a. Banklarning foyda yoki zarar ko'rilgan faoliyati.
- b. Banklar tomonidan olinadigan daromadlari.
- d. Banklar tomonidan ko'riladigan zararalar summasi.
- e. Bank aktivlarining oshishi tushiniladi.

**99. Sof foizli daromad qanday aniqlanadi?**

- a. Jami foizli daromaddan jami folizli xarajatlar chegiriladi.
- b. Sof foydadan xarajatlar chegiriladi.
- d. Yalpi daromaddan foizli xarajatlar chegiriladi.
- e. Soliq to'lagunga qadar daromaddan xarajatlar chegiriladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. “O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni. 1995-yil 21-dekabr.
2. “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni. 1996-yil 25-aprel.
3. “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni 1996-yil 30-avgust.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 9-yanvardagi “O‘zbekiston respublikasi Markaziy bankining faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi 5296-sonli Farmoni
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 2-sentyabrdagi “Valyuta siyosatini liberallashtirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 5177-sonli Farmoni
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017. 6-son, 70-modda
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 23-martdagi “Bank xizmatlari ommabopligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 3620 son qarori
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 12-sentyabrdagi “Respublika bank tizimini yanada rivojlantirish va barqarorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 3270-sonli qarori
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 6-maydagi PQ-2344-sonli “Tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish va ularning resurs bazasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi qarori O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2016., 25-son, 70-modda
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 26-noyabrdagi “2011-2015-yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilish, uning barqarorligini oshirish va yuqori xalqaro reyting ko‘rsatkichlariga erishishning ustuvor yo‘nalishlari to‘g‘risida”gi. PQ-1438-sonli qarori//Xalq so‘zi.
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 6-apreldagi “Bank tizimining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish va investitsiyaviy faolligini kuchaytirish chora- tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-1317-sonli qarori.

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Tijorat banklarining investitsiya loyihalarini moliyalashtirishga yo‘naltiriladigan uzoq muddatli kreditlari ulushini ko‘paytirishni rag‘batlantirish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2009-yil 28-iyuldagi PQ–1166–sonli qarori.

13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 6-apreldagi “Bank tizimining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish va investitsiyaviy faolligini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ–1317–sonli qarori.

14. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Bank tizimini isloh qilishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2000-yil 24-martdagi 104–sonli qarori.

15. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining “O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarida buxgalteriya hisobi hisobvaraqlari rejasi” № 773–17–son 2004-yil 13- avgust.

16. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining “O‘zbekiston Respublikasi banklarida buxgalteriya hisobini yuritish va buxgalteriya ishlarini tashkil qilish tartibi to‘g‘risida”gi 1834–son yo‘riqnoma 2008-yil 11-iyul.

17. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining “Tijorat banklarida foizlarni hisoblash to‘g‘risida”gi 1306–sonli Nizom, 2004-yil 30-yanvar.

18. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining “Tijorat banklarida lizing operatsiyalarini amalga oshirish va ularning buxgalteriya hisobini yuritish tartibi to‘g‘risida”gi 1648-sonli nizom 2006-yil 27-dekabr.

19. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2003-yil 14-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasi banklarida nomoddiy aktivlarning buxgalteriya hisobini yuritish to‘g‘risida”gi 1199-son yo‘riqnoma.

20. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2015-yil 6- iyuldagi “Tijorat banklari kapitalining monandligiga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risida”gi 2693 – sonli qarori.

21. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan “Tijorat banklarining chop etiladigan yillik moliyaviy hisobotlariga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risida”gi nizom. T.: 2004.

22. Tijorat banklarida foizlarni hisoblash to‘g‘risidagi nizom. O‘zR AV 1306 - son bilan ro‘yxatga olingan. T.: 2004.

23. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining “O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan tijorat banklarining chop etiladigan yillik moliyaviy hisobotlariga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risida”gi 1419 - sonli nizom 2004-yil 25- oktyabr.

24. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining “Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo‘yicha ehtimoliy

yo‘qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibi to‘g‘risida”gi 2696 - sonli Nizom 2015-yil 14-iyul

25. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining “Tijorat banklarida moliyaviy hisobotlaridagi xatolarni tuzatish tartibi to‘g‘risida”gi 1301 - sonli Nizom 2004-yil 21- yanvar

26. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining “Hisobot sanasidan keyin yuz bergan voqealarni banklar tomonidan buxgalteriya hisobida aks ettirish to‘g‘risida”gi 1426 - sonli Nizom 2004-yil 3-dekabr.

27. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining “Banklarning hisob siyosati va moliyaviy hisoboti to‘g‘risida”gi 1270 - sonli Nizom 2003-yil 3-sentyabr.

28. O‘zbekiston Respublikasining 1-sonli “Hisob siyosati va moliyaviy hisobot” BHMS. T.: 26.07.1998.

29. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. T.: O‘zbekiston NMIU, 2017. 488 b.

30. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. T.: O‘zbekiston NMIU, 2017. 104 b.

31. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T.: O‘zbekiston NMIU, 2017. 56 b.

32. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta‘minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. Toshkent: O‘zbekiston NMIU, 2017. 48 b.

33. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi

34. Karimov I.A. Bank tizimi, pul muomalasi, kredit, investitsiya va moliyaviy barqarorlik to‘g‘risida. T.: O‘zbekiston. 2005.

35. Benjamin Young. Bank Cost Control/ Business & Esonomiss, UK. 2008, 306 r.

36. Donald Resseguie, James M. Koltveit Assounting for Banks, LexisNexis United States, 2017

37. Fundamentals of business Assounting. Wan Madznah Wan Ibrahim and Mohd Rizal Palil 2014. . Str.14

38. Generally Assepted Assounting Prastise under IFRS. M.Bonham and others, Ernst Yong, part 1, 1056 p.

39. Mabel Lage E.E. Assounting–Bank Resonsiliation. Henderson, USA. 2008, 241 p.

40. Navro‘zova K.N., Karimov N.G‘., Ortiqov U.D. Banklarda buxgalteriya hisobi. T.: Davr nashriyoti, 2012.

41. Navruzova K., Otamurodov X., Qurbonov R.. Banklarda buxgalteriya hisobining milliy va xalqaro standartlari: O‘quv

qo'llanma. T.: Fan va texnologiya, 2015, 168 bet.

42. Omonov A., Qoraliev T. Banklarda buxgalteriya hisobi T.: Iqtisod-moliya, 2014. 241 b.

43. Steven M. Bragg. Accounting Best Practices, John Wiley & Sons, New Jersey, USA. 2010, 542 p.

44. Umarov Z.A. Tijorat banklarida moliyaviy natijalar hisobi va tahlilining nazariy-uslubiy masalalari. Monografiya/O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, T.: Iqtisod-Moliya, 2015. 128 b.

45. F.T. Abduvaxidov va boshq. Banklarda buxgalteriya hisobi. T.: TDIU, 2010, 224 b.

46. Abduvaxidov F.T., Umarov Z.A., Djuraev K.N. Banklarda buxgalteriya hisobi: O'quv qo'llanma. T.: TDIU, 2010. 224 b.

47. Abdullaeva Sh.Z. Bank ishi: O'quv qo'llanma. T.: TMI, 2003. 305 b.

48. Бабаев Ю.А. Теория бухгалтерского учета: Учебник. для вузов. 3-е изд., М.:Прспект, 2006. 126 с.

49. Балабанова И.Т. Основы финансового менеджмента: Учебное пособие. 3-е издание. М.: Финансы и статистика, 2000 г.

50. Банк В.Р. Организация и бухгалтерский учет банковских операций: Учебное пособие. М.: Ф и С, 2004. 153 с.

51. Г.Н.Белоглазова, Л.П.Кроливецкая. Банковское дело. Организация деятельности коммерческого банка: Учебник, М.: Высшее образование, 2009. 22 с.

52. Банковское дело: Учебник / под ред. В.И. Колесникова, П.П. Кроливецкой. 4-е издание. М.: Финансы и статистика, 1998. 464 с.

53. Банковское дело: Учебник / под ред. Коробовой. Г.Г. М.: Экономист, 2005. 751 с.

54. Банковское дело: Учебник. Под ред. О.И. Лаврушина. М.: КНОРУС, 2008. 768 с.

55. Berdiyarov V.T. Tijorat banklari aktiv operatsiyalari daromadligi. i.f.n. dissertatsiyasi. T., 2002.

56. Вахрушина М.А. МСФО: методики трансформации РО. М.: Омега, 2007. 565 с.

57. Генералова Н.В. Международные стандарты финансовой отчетности. М.:Прспектб 2008. 325 с.

58. G'ulomova F.G'. Учетная политика предприятия. T.: 2004

59. Жарковская Е.П. Банковское дело. 4 -е изд. М.: Омега-А, 2005. 452 с.

60. Jo'raev N. Korxonaning hisob siyosati. T.: 1998.

61. A.K.Ibragimov va boshq. Tijorat banklari tashqi auditida xalqaro moliyaviy hisobot standartlarini joriy etish metodologiyasi. Monografiya. 2011. 188 b.
62. A.K.Ibragimov va boshq. Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari asosida banklarda buxgalteriya hisobi: O'quv qo'llanma. T.: 2010. 272 b.
63. Камышанов П.И., Камышанов А.П. Бухгалтерская финансовая отчётность: составление и анализ. 5-е издание. М.: Омега-Л, 2006.
64. Karimov N.F. Tijorat banklarida ichki audit. Toshkent.: FAN. 2006. 262 b.
65. Козлова Е.П., Галанина Е.Н. Бухгалтерский учёт в коммерческих банках. М.: Финансы и статистика, 2000. 640 с.
66. Курсов В.Н., Яковлев Г.А. Бухгалтерский учёт в комерческом банке: новые типовые бухгалтерские прводки операций банка: Учебное пособие. М.: ИНФРА-М, 2004.
67. Qurbonboev J. Korxonalarda hisob siyosatini shakllantirish, yuritish va rivojlantirish istiqbollari. T., 2005.
68. Международные стандарты финансовой отчётности. М.: Аскери, 2007.
69. Mullajonov F.M. O'zbekiston Respublikasi bank tizimi. T.: O'zbekiston, 2001. 224 b.
70. Navro'zova K.N., Ortiqov O.A. Banklarda hisob va to'lov tizimi: O'quv qo'llanma. T.: Iqtisod-Moliya, 2005.
71. Нотон Д.М. Банковские учреждения в развивающихся старанах. Всемирный банк, Вашингтон, 1994.
72. Палий В.Ф. Международные стандарты учета и финансовой отчетности. Учебник. М.: Инфра-М, 2004. 472 с.
73. Pardaev A.X. Boshqaruv hisobi. T.: 2002. 18 b.
74. Полищук А.Ш. Банковский учёт и отчетность: Учебно-практическое пособие. М.: ИМПЭ, 1998. 205 с.
75. Бор М.З. Практический курс бухгалтерского учёта в современном банке. М.: ДИС, 1996. 384 с.
76. Рожнова О.В. Международные стандарты бухгалтерского учета и финансовой отчетности: Учебное пособие. М.: ЭКЗАМЕН, 2003. 127 с.
77. Роде Э.М. Банки, биржи, валюты современного капитализма. М.: Дело ЛТД, 1995. 420
78. Савонь В. Депозитные операции коммерческих банков, их оформление и учет. Автореферат, Минск 2009
79. Смирнова Л.Р. Банковский учёт. М.: 2000.
80. Соколов Я.В. Основы теории бухгалтерского учёта. М.: Финансы и статистика, 2000. 496с.

81. O'zbekiston Respublikasi bank tizmida buxgalteriya hisobini yuritishga oid qonunchilik hujjatlari to'plami. T.: O'zbekiston, 2003.

82. Urazov K.B. Iqtisodiyotni erkinlantirish sharoitida buxgalteriya hisobining konseptual masalalari. T.: 2005

83. Усатова Л.В., Сероситан М.С., Арская Е.В. Бухгалтерский учёт в коммерческих банках: Учебное пособие. 3-е изд. М.: Дашков и К°, 2007. 404 с.

84. Шеремет А.Д., Щербакова Г.Н. Финансовый анализ в коммерческом банке. М.: Финансы и статистика, 2000. 256 с.

85. Hoshimov B. Buxgalteriya hisobi nazariyasi. T.: 2004. 277 b.

86. [www.cbu.uz](http://www.cbu.uz) - (O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki)

87. [www.gov.uz](http://www.gov.uz) - (O'zbekiston Respublikasi hukumati portali)

88. [www.stat.uz](http://www.stat.uz) - (O'zbekiston Respublikasi statistika qo'mitasi)

89. [www.lex.uz](http://www.lex.uz) - (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi)

90. [www.bis.org](http://www.bis.org) - (Bazel qo'mitasi sayti)

91. [www.ifrs.org](http://www.ifrs.org) (Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari qo'mitasi sayti)



# ILOVALAR

## 1-ILOVA

### KBTEBni sotib olish xarajatlari

Bank B 200 kanselyariya papkalarini 2 500 soʻmdan jami 500 000 soʻmga sotib oldi. Transport xarajatlari 5 000 soʻmga teng boʻlgan. Bundan tashqari, sotuvchi umumiy summadan 3% chegirma bergan.

Qiymat  $200 \times 2\,500$  soʻm = 500 000 soʻm

Chegirma  $500\,000 \times 3\%$  = 15 000 soʻm

Transport xarajatlari 5 000 soʻm

$500\,000$  soʻm –  $15\,000$  soʻm +  $5\,000$  soʻm =  $490\,000$  soʻm

Natijada, bank 200 papkani oʻzida  $490\,000$  soʻmga aks ettiradi.

Dt 19921 “Ombordagi kam baholi va tez eskiruvchi buyumlar hamda boshqa qimmatliklar” 490 000

Kt 10301 “Markaziy bankdagi vakillik hisobvaragʻi – Nostro” 490 000

## 2-ILOVA

### KBTEBni sotib olish va hisobdan chiqarish hisobi

KBTEBni hisobini yuritishda bank FIFO usulidan foydalanadi.

Masalan, Bank A 2002-yil 1-oktyabrda 5 kg qogʻozni kilogrammini 1500 soʻmdan sotib oldi.

1)

Dt 19909 “Tovar-moddiy qimmatliklar uchun toʻlangan mablagʻlar” 7 500  
Kt 10301 “Markaziy bankdagi vakillik hisobvaragʻi – Nostro” 7 500

2)

Dt 19921 “Ombordagi kam baholi va tez eskiruvchi buyumlar hamda boshqa qimmatliklar” 7 500  
Kt 19909 “Tovar-moddiy qimmatliklar uchun toʻlangan mablagʻlar” 7 500

9 oktyabrda Bank A yana 5 kg qogʻoz sotib oldi, lekin narxi 1kg 1 550 soʻm.

1)

Dt 19909 “Tovar-moddiy qimmatliklar uchun toʻlangan mablagʻlar” 7 750  
Kt 10301 “Markaziy bankdagi vakillik hisobvaragʻi – Nostro” 7 750

2)

Dt 19921 “Ombordagi kam baholi va tez eskiruvchi buyumlar hamda boshqa qimmatliklar” 7 750  
Kt 19909 “Tovar-moddiy qimmatliklar uchun toʻlangan mablagʻlar” 7 750

19 oktyabrda Bank A yana 4 kg qogʻoz sotib oldi, lekin narxi 1kg 1 450 soʻm.

1)

Dt 19909 “Tovar-moddiy qimmatliklar uchun toʻlangan mablagʻlar” 5 800  
Kt 10301 “Markaziy bankdagi vakillik hisobvaragʻi – Nostro” 5 800

2)			
Dt	19921 “Ombordagi kam baholi va tez eskiruvchi buyumlar hamda boshqa qimmatliklar”		5 800
Kt	19909 “Tovar-moddiy qimmatliklar uchun to’langan mablag’lar”		5 800

21 oktyabrda Bank A 4 kg qog’ozni ishlatdi (bunda hisobdan dastlab 1 kg ni 1 500 so‘mdan sotib olingan qog’ozlar chiqariladi).

Dt	56406 “Devonxona, ofis va boshqa buyumlar xarajatlari”		6 000
----	--	--	-------

23 oktyabrda Bank A yana 2 kg qog’oz ishlatdi (bunda hisobdan omborda dastlab 1kgni 1 500 so‘mdan sotib olingan qog’oz va keyin 1 kgni 1 550 so‘mdan sotib olingan qog’oz hisobdan chiqariladi).

Dt	56406 “Devonxona, ofis va boshqa buyumlar xarajatlari”		3 050
Kt	19921 “Ombordagi kam baholi va tez eskiruvchi buyumlar hamda boshqa qimmatliklar”		3 050

26 oktyabrda Bank A yana 2 kg qog’ozni ishlatdi (bunda birinchi kelish tamoyiliga ko’ra, omborda qolgan 1 kg 1 550 so‘mdan sotib olingan qog’ozni 2 kgni hisobdan chiqariladi).

Dt	56406 “Devonxona, ofis va boshqa buyumlar xarajatlari”		3 050
Kt	19921 “Ombordagi kam baholi va tez eskiruvchi buyumlar hamda boshqa qimmatliklar”		3 050

Ushbu amaliyotlar natijasida “birinchi kelish - birinchi ketish” uslubini qo’llash natijasida ombordagi KBTEB quyidagi tarzda o’zgardi:

Sana	Xarid			Ishlatish			Qoldiq		
	1 kg narxi	kg	summa	1 kg narxi	kg	Hisobda n chiqarish summasi	1 kg narxi	kg	summa
01.10.02	1.500	5	7.500						
09.10.02	1.550	5	7.750						
19.10.02	1.450	4	5.800						
21.10.02				1.500	4	6.000			
23.10.02				1.500	1	1.500			
				1.550	1	1.550			
26.10.02				1.550	2	3.100	1.550	2	3.100
							1.450	4	5.800

## **MUNDARIJA:**

**SO‘Z BOSHI.....3**

### **I-BOB. MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARI VA ULARNING TUZILISHI**

1.1. Banklarda buxgalteriya hisobini tashkil qilish asoslari .....	4
1.2. Buxgalteriya hisobi registrlari va ularni yuritish .....	21
1.3. Buxgalteriya hisobining xalqaro modellari .....	32
1.4. BHXS Qo‘mitasi-xalqaro tashkilot sifatida va uning vazifalari.....	49
1.5. O‘zbekiston bank tizimida buxgalteriya hisobini MHXSga moslashtirishning o‘ziga xos xususiyatlari .....	59

### **II BOB. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI BANKLARIDA MHXSLARI ASOSIDA MOLIYAVIY HISOBOTLARNI TUZISH ASOSLARI**

2.1. Tijorat banklarida moliyaviy hisobotlarning mohiyati va ahamiyati .....	84
2.2. Tijorat banklarida moliyaviy hisobot axborotning sifat xususiyatlari.....	91
2.3. Banklarda moliyaviy hisobot elementlari va ularni tan olish .....	108
2.4. Moliyaviy hisobotning konseptual asoslari .....	115

### **III BOB. BANKLARNING MOLIYAVIY HISOBOTLARI VA UNI TUZISH**

3.1. Buxgalteriya balansi yoki moliyaviy holat to‘g‘risidagi hisobot .....	129
3.2. Banklarda foyda va zararlar to‘g‘risida hisobot mazmuni va tuzish tartibi ..	165
3.3. Tijorat banklari pul mablag‘larining harakati to‘g‘risidagi hisoboti .....	171
3.4. Bank xususiy kapitali to‘g‘risidagi hisobot va uni tuzish.....	179

### **IV BOB. BANKLARDA HISOB SIYOSATI, BUXGALTERLIK BAHOLASHDAGI O‘ZGARISHLAR VA XATOLAR**

4.1. Banklarda hisob siyosatini shakllantirish va uning mohiyati .....	187
4.2. Hisob siyosatining tarkibiy qismlari: umumiy, uslubiy, texnikaviy, tashkiliy va soliqqa tortish .....	200
4.3. Banklarda hisob siyosatini shakllantirishda MHXSning roli va ahamiyati...	209

### **V BOB. BANKLARDA MOLIYAVIY AKTIVLARNI MHXSLARI ASOSIDA HISOBGA OLISH**

5.1. Banklarda moliyaviy aktivlar tushunchasi, ularni turkumlash va baholash tartibi .....	222
5.2. Banklarda moliyaviy aktivlarning buxgalteriya hisobini tashkil etish va yurtish.....	232
5.3. Banklarda moliyaviy aktivlar amortizatsiyasi va qadrsizlanishi hisobi .....	251

## **VI BOB. BANKLARDA MODDIY VA NOMODDIY AKTIVLAR VA ULARNING MHXS BO‘YICHA HISOBI**

6.1. Banklarda moddiy va nomoddiy aktivlarni hisobga olishda qo‘llaniladigan xalqaro standartlar.....	258
6.2. Banklarda asosiy vositalarni baholash, kiringa olish va hisobdan chiqarish .....	269
6.3. Asosiy vositalarga amortizatsiya hisoblash tartibi .....	292
6.4. Banklarda nomoddiy aktivlarni hisobga olishning o‘ziga xos xususiyatlari.....	301
6.5. Banklarda kam baholi va tez eskiruvchi buyumlar hisobi.....	312
6.6. Banklarda lizing operatsiyalari hisobining nazariy asoslari.....	322
6.7. Lizing beruvchi bankda lizing operatsiyalari hisobi.....	332
6.8. Lizing oluvchi bankda lizing operatsiyalari hisobi.....	337

## **VII BOB. TIJORAT BANKLARIDA MAJBURIYATLAR HISOBI**

7.1. Banklarda depozit operatsiyalarining mohiyati, nazariy va huquqiy asoslari hamda ularni amalga oshirish tartibi.....	347
7.2. Banklarda depozit jalb qilishning buxgalteriya hisobini tashkil etish va yuritish .....	359
7.3. MHXS asosida banklarda depozitlar hisobini takomillashtirish .....	385

## **VIII BOB. TIJORAT BANKLARIDA KAPITAL HISOBI**

8.1. Tijorat banklarida kapital hisobining nazariy asoslari.....	393
8.2. Tijorat banklarining ustav kapitali hisobini tashkil qilish .....	396
8.3. Bankning fondlari va zaxiralari hisobini yuritish .....	405

## **IX BOB. TIJORAT BANKLARIDA DAROMAD VA HARAJATLAR HISOBI**

9.1. Banklarda daromadlar hisobini tashkil qilishning o‘ziga xos xususiyatlari..	411
9.2. Foizli, foizsiz va boshqa operatsion daromadlar hisobi .....	434
9.3. Bank foydasi va uni hisobga olish tartibi .....	449
9.4. Banklarda daromad va xarajatlar hisobini MHXS asosida takomillashtirish.....	456

## **X BOB. BIZNESNI BIRLASHTIRISH VA KONSOLIDATSIYALASHGAN MOLIYAVIY HISOBOT**

10.1. Biznesni birlashtirishda hisob ma’lumotlarini umumlashtirish usullari.....	468
10.2. Tijorat banklarida moliyaviy hisobotlarni konsolidatsiyalash masalasi.....	473
10.3. Tijorat banklarida konsolidatsiyalash moliyaviy hisobotlarni tuzish.....	477
<b>TEST SAVOLLARI .....</b>	<b>487</b>
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....</b>	<b>506</b>
<b>ILOVALAR.....</b>	<b>512</b>

**Umarov Zafar Abdusamatovich  
Ibragimov Abdugapur Karimovich  
Marpatov Mavlonhon Dadashevich  
Rizaev Nurbek Kadirovich**

# **BANKLARDA MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARI**

Darslik

*Muharrir* **Z. Bozorova**  
*Badiiy muharrir* **K. Boyxo‘jayev**  
*Kompyuterda sahifalovchi* **K. Boyxo‘jayev**

Nashr. lits. AI № 305. 22.06.2017.  
Bosishga ruxsat 15.11.2019-yilda berildi.  
Bichimi 60x84/16. Ofset qog‘ozi. «New Times Roman»  
garniturasida. Shartli b.t. 29,7. Nashr hisob t. 30,9.  
Adadi 60 dona. 43-buyurtma.

“IQTISOD-MOLIYA” nashriyoti.  
100000, Toshkent, Amir Temur, 60<sup>«A»</sup>.

“HUMOYUNBEK-ISTIQLOL MO‘JIZASI”  
bosmaxonasida chop etildi.  
100000, Toshkent, Amir Temur, 60<sup>«A»</sup>.